


# **UMUMIY GEOLOGIYA**



**TOSHKENT**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
MILLIY UNIVERSITETI**

# **UMUMIY GEOLOGIYA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT-2019**

**UO'K: 551(075)**

**KBK 26.3ya7**

**U 52**

**U 52**

**Umumiy geologiya. –T.: «Fan va texnologiya»,  
2019, 488 bet.**

**ISBN 978-9943-6155-0-2**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Muvofiqlashtirish kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining geologiya fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlangan. Yerning ichki va tashqi tuzilishi, yer po'stining tarkibi va taraqqiyoti, Quyosh tizimi va uning sayyoralarini to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Yer po'stini tashkil etuvchi minerallar va tog' jinslari, geoixronologiya, tektonik barakatlar va tektonik strukturalar, zilzila, magmatizm va metamorfizm jarayonlari va ularning sabablari yoritilgan. Yer yuzasida kechayotgan keng qamrovli nurash jarayonlari, shamol, oqim suvlari, muzliklar, daryo va okeanlar, ko'llar va botqoqliklar hamda Yerosti suvlari faoliyati tufayli hosil bo'luvehi relyef shakllari va yotqiziqlar ta'riflangan. Yerning rivojlanish bosqichlaridagi eng e'tiborli voqealar va hodisalar to'g'risida umumiy tushunchalar berilgan.

**UO'K: 551(075)**

**KBK 26.3ya7**

**Mualliflar:**

**M.Ashirov, N.Tulyaganova, X.Chiniqulov, M.Karaboyev,  
S.Normurodov**

**Mas'ul muharrir:**

**A.R.Kushoqov – g.-m.f.n., dotsent, kafedra mudiri.**

**Taqrizchilar:**

**X.A.To'ychiyev – g.-m.f.d., O'zMU Professori;  
P.S.Sultonov – g.-m.f.n., dotsent, X.M.Abdullayev nomidagi GGI.**

**ISBN 978-9943-6155-0-2**

**© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.**

## KIRISH

Mustaqil Respublikamizning kelajakdag'i taqdiri, shubhasiz, har tomonlama kamol topgan iqtidorli yoshlarimizning bilim saviyasiga, hayotning ustuvor yo'nalishlaridagi faolligiga bog'liq. Endilikda Prezidentimiz tomonidan xalqimizni nurli va istiqbolli yo'lga boshqaradigan uddaburon, zukko yoshlarni tarbiyalashga va yetuk mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada zamonaliv darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish vazifasi ustuvor davlat dasturi qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017--yil 14-yanvardagi majlisimng 1-sonli bayoni 60 bandi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 8-fevral sanasidagi №87-03-270-son topshirig'i ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan va tasdiqlangan "O'quv rejalar va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda 1-bosqich bakalavriat yo'nalishlarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish va ularni 2017/2018 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga joriy etish va yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish bo'yicha" chora-tadbirlar kompleksidagi topshiriqlarni belgilangan muddatlarda to'laqonli va o'z vaqtida bajarish maqsadida ushbu o'quv-qo'llanma tayyorlandi.

«Umumiy geologiya» o'quv qo'llanmasi talabalarni geologiya fanini mukammal o'rganishga, unimg tarmoqlari, vazifalari, maqsadi hamda Yerning ichki va tashqi qismida sodir bo'ladigan turli geodinamik jarayonlar va hodisalarini, paleogeografik o'zgarishlarni tushinishga yordam beradi. Unda geologiya fanining deyarli barcha sohalari, vazifalari va muammolari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Asosiy maqsad geologiyaning turli tarmoqlari bo'yicha talabalarning bilim olishi uchun zamin yaratishdir.

O'quv qo'llanmada Yerning ichki dinamik kuchlari tufayli sodir bo'ladigan tektonik harakatlar va tektonik strukturalar, zilzila, magmatizm va metamorfizm to'g'risida so'z boradi.

Yer yuzasining relyefini tubdan o'zgartiruvchi qudratli tektonik kuchlar yaratuvchi xususiyatga ega. Bu harakatlar tufayli turli-tuman tektonik strukturalar vujudga keladi. Tektonik strukturalar esa

ma'lum ma'noda foydali qazilma konlarining Yer qa'rida joylashtishini nazorat qiladi.

Yer qa'rida magmaning katta chuqurliklarda uzoq vaqt davomida kristallanib qotishidan vujudga keladigan intruziv yoki uming Yer yuzasiga piroklast material va lava tariqasida quyulishidan hosil bo'ladigan effuziv jinslar, shuningdek yuqori harorat va bosim ta'sirida metamorfik jinslarning paydo bo'lishi Yer po'stining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ekzogen jarayonlar: nurash, shamol, oqar suvlar, muzlik, dengizlarning geologik faoliyati tufayli turfa cho'kindi yotqiziqlar, cho'kindi ma'danlar va mineral xom-ashyolar shakllanadi.

Yerga yaqin joylashgan Koinot, Galaktika, Quyosh tizimidagi osmon jismlari, Yerning Quyosh tizimida tutgan o'mi, ichki va tashqi qobiqlarining tuzilishi va tarkibi, asosiy minerallar va tog' jinslari, geoxronologik tabaqalar va ularni o'rganish usullari haqida ina'lumotlar berilgan.

Tabiatda kechadigan geologik jarayonlarning rivojlanishi, bir tomondan, bashariyat uchun katta iqtisodiy zarar va kulfatlar keltirsa, ikkinchi tomondan, farovon hayot uchun kerakli bo'lgan mineral boyliklarni vujudga keltiradi. Bu esa yashab turgan zaminda kechadigan geologik jarayonlar rivojlanishidagi qonuniyatlarini mukammal bilish lozimligini taqozo etadi.

Yer tarixida uzoq davr davomida kechgan geologik jarayonlarni tahlil qilib ikkita muhim masalaga oydinlik kiritish mumkin. Bulardan birinchisi Yer po'sti rivojlanishida uzoq vaqt davomida (tog'lar yoki tekisliklarning vujudga kelishi) yoki bir zumda kechadigan katostrofik jarayonlar (zilzila, vulkanizm) va ikkinchisi foydali qazilmalarning shakllanishidagi davriylikdir. Masalan, temir ma'danlari zaxirasining asosiy qismi quyi proterozoyda, neft va gaz konlariniki esa melezoy va kaynozoyda shakllangan.

O'quv qo'llanmani Oliy o'quv yurtlarining geologiya yo'naliishida ta'lim olayotgan talabalarga o'qitiladigan "Umumiy geologiya" kursining o'quv dasturiga mos ravishda yozilgan. Ammo undan fuqaro qurilishi, avtomobil va temir yo'llar transporti, irrigatsiya va melioratsiya va boshqa yo'naliishlarda ta'lim olayotgan talabalar ham foydalanishi mumkin.

## GEOLOGIK JARAYONLAR

### 1-bob. GEOLOGIYA FANI UNING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA TADQIQOT USLUBLARI

#### Reja

1. Geologiya fami haqida umumiy tushunchalar.
2. Geologiya fanining asosiy tarmoqlari.
3. Geologiyaning boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi.
4. Geologiya fanining shakllanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning fikrlari.

**Kalit so'zlar:** Geologiya, geomorfologiya, geodeziya, hidrogeologiya, kristallografiya, paleontologiya, tuproqshunoslik, geotektonika, stratigrafiya, muhandislik geologiyasi, Yer taraqqiyoti

**Geologiya** – Yer haqidagi fan bo'lib, yunoncha **geo** – Yer, **logos** – fan ma'nosini anglatadi. Geologiya tabiiy fanlar tizimiga kiradi va Yerning tuzilishi, paydo bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rGANADI.<sup>1</sup> «Geologiya» atamasini birinchi bo'lib norvegiyalik olim M.P.Esholt 1657-yilda fanga kiritgan.

Yer shar shaklidagi tabbiy jism bo'lib, Quyosh tizimidagi osmon jismlaridan biri hisoblanadi. Yer shari turli tabiiy fanlarning o'rGANISH obyektiDir. Astronomiya yerning fazoda tutgan o'mini, geografiya, geodeziya, geomorfologiya Yer sirtining tabiatni, tabiiy muhitlari, relyef shakllari hamda elementlarini o'rGANADI. Biologiya esa yerda tirik hayot - o'simlik va hayvonot olami evolutsiyasini, tuproqshunoslik Yerning eng ustki hosildor yupqa qatlamini o'rGANADI. Qurilish muhandislari Yerni qurilish materiallari manbai deb qarashadilar. Yuqorida qayd etilgan fan sohalari Yerning faqat ustki qatlamlarida sodir bo'layotgan jarayonlar va hodisalarning rivojlanishi hamda o'zgarishinigma o'rGANADI.

Geologiya fani esa Yerning ustki qismini o'rGANISH bilan bir qatorda, uning ichki tuzilishini, tarkibini va undagi kechayotgan hodisalar va jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini ham o'rGANADI. Geologlar Yerni turli mineral va tog' jinslaridan tarkib

<sup>1</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012. p.2.

topgan, ichki va tashqi kuchlar ta'sirida doim o'zgarib turadigan sharsimon tabiiy jism deb tushunadilar.

Geologiya fani o'r ganadigan masalalar keng ko'lamli bo'lganligi sababli turli yo'naliшиар va sohalardan tarkib topgan, ularning har biri muayyan vazifalarni yechadi.

Yerning moddiy tarkihini mineraloziya (minerallar haqidagi fan) va kristallografiya (kristallar haqidagi fan), petrografiya (tog' jinslari haqidagi fan), geokimyo (Yer kimyosini o'r ganuvchi fan), paleontologiya (qadimgi organizmlarning toshqotgan qoldiqlari haqidagi fan), tuproqshunoslik (tuproq haqidagi fan), foydali qazilmalar geologiyasi (mineral xom-ashyolarni o'r ganuvchi fan), gidrogeologiya (Yerosti suvlari haqidagi fan) va boshqalar o'r ganadi. Yer yuzasining shakllari, ularning paydo bo'lishl, rivojlanishi va taraqqiyotini geomorfologiya fani o'r ganadi. Yerning yoshi va qatlamlar orasidagi munosabatlarni stratigrafiya, tektonik harakatlarni geotektonika va strukturalarni strukturaviy geologiya o'r ganadi.

Geologik bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti uzoq o't mishga borib taqaladi. Geologiya fan tariqasida ikki asrdan ko'proq vaqt oldin shakllangan. O't mishda uni xuddi geografiya singari falsafaning bir qismi deb qarashgan. Faqat XVIII asrda N.Steno (Italiya), M.V.Lomonosov (Rossiya), A.Verner (Germaniya), J.Byuffon, J.Kyuve, A.Bronyar (Fransiya), D.Xatton (Shotlandiya), U.Smit (Angliya) va boshqalarning umumlashtirilgan va fundamental ishlari tufayli geologiya mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllandii<sup>2</sup>.

Qazilma boyliklarni qazib olish haqidagi birinchi geologik tushunchalar qadim zamonlardan beri mavjud. Odamlar keyinroq mis, qo'rg'oshin, qalay, kumush, oltin, undan keyin esa temir ma'dani bilan tanishganlar. Ular asta - sekin qimmatbaho mineral va tog' jinslаридан foydalanganlar: ohanrabо, lazurit, feruza va boshqalardan ziynat buyumлari yasay boshlaganlar.

Qulchilik davridagi geologik bilimlar, jumladan, tabiat hodisalari va jarayonlari, Yer tuzilishi va qazilma boyliklar to'g'risidagi tushunchalar juda ham sodda bo'lib, ularda din ta'siri kuchli bo'lgan.

<sup>2</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012. p 5.

Dastlabki Yer haqidagi yozina ma'lumotlar Bobil (hozirgi Iroq) davlatiga mansub. Dunyoning paydo bo'lishi to'g'risidagi dastlabki rivoyatlar Mesopotamiyada, miloddan avvalgi 4 - 3 ming yillikda ilk sinfiy davlatlar – Ur, Uruk Lagash va boshqalarda vujudga kelgan. Bular miloddan avvalgi 626 - 538 y. ma'lumotlar Janubiy Mesopotamiyada hukmronlik qilgan Xaldeya dinastiyaning yangi Bobil podsholigiga qarashli shaharlarda topilgan gildan yasalgan buyumlarda yozib qoldirilgan. Dunyoning paydo bo'lishi haqidagi Bobilliklarning qadimgi rivoyatlari yahudiylarning «Injil»iga, xristian va musulmon dinining «muqaddas» kitoblariga ham kirib qolgan. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti tabiiy fanlarning rivojlanishi uchun moddiy asos yaratdi. Tabiiy fanlar Xitoy, Yunoniston, Rim, Eron, O'rta Osiyo davlatlarida (Xorazmda, Sug'diyonada) nisbatan yuksaldi.

Taxminan miloddan avvalgi XX - XIX asrlarda Xitoyda mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan «San Xey Dim – tog' va dengizlar haqidagi qadimgi rivoyatlar» degan to'plam yozilgan. Oldin-roq uning ayrim qismlari suyak, yog'och, nefridan yasalgan taxtalarga yozilgan. Keyimgi asrlarda unga qo'shimchalar kiritilgan va so'nggi nusxasining yaratilishi miloddan avvalgi 400 yillarga to'g'ri keladi.

Bu qo'lyozmada 17 ta mineral: oltin, kumush, qalay, mis, temir, magnetit, kuprit, aragonit, realgar, yashma, nefrit va boshqalar haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Yaponiya va Sharqiy Xitoy dengizlaridagi orollarda tez - tez sodir bo'lib turadigan zilzilalar mahalliy aholini juda qiziqtirgan va bu hodisani o'rghanish uchun 132-inchi yilda Chjan Xen birinchi bo'lib eng oddiy seysmograf ixtiro qilgan.

Qadimgi yunonlar Yerni atrofi suv bilan o'ralgan tekis doira shaklidagi jism deb tushunganlar. Yunonistonda ilmiy asoslangan tushunchalarga ega bo'lgan olimlar yetilib chiqqan. Ular dunyoning tuzilishi va tabiat hodisalari haqida turli fikrlarni qo'rqlay aytishgan. Bular Fales (miloddan avvalgi VII- VI asrlar), Geraklit (eramizdan avvalgi VI asr), Demokrit (miloddan avvalgi V- IV- asrlar), Empedokl (miloddan avvalgi V-asr) va boshqalardir. Ular tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlarning sabablarini xudoga emas, balki tabiatdagi muayyan kuchlarga, uning o'ziga xos qonuniyatlariga bog'lab tushuntirganlar. Bu fikrlar diniy qarashlarga butunlay zid

bo'lgan. Bu o'sha vaqtda qurila boshlagan ilm - fanning ulug' hinosiga qo'yilgan birinchi g'ishtlar edi.

Gerodot (miloddan avvalgi 484 – 466-yillar) Misr Yerining paydo bo'lishi tarixini yozgan. U Misr o'tmishda O'rta Yer dengizining Efiopiyagacha cho'zilgan akvatoriyasining keyingi vaqtarda quruqlikka aylangan qo'ltig'i ekanligini shu yerdagi tog'larda topilgan dengiz chig'anoqlarining qoldiqlari hamda boshqa daliliy ashyolar bilan isbotlab bergen. Yunon olimi Arastu ham (miloddan avvalgi 384 - 322 yy.) geologiya fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan.

Mashhur geograf Strabon quruqlikda dengiz chig'anoqlarining topilish sabablarini tushuntirib, Yerning dengiz tagidagi qismi harakat qilib ko'tarilishi va cho'kishi natijasida orollar, hatto materiklarning hosil bo'lishini ko'rsatib o'tgan. Sitsiliya bir zamonalor Apennin yarimoroli bilan qo'shilganligi to'g'risida fikrni bildirgan. U bu yerdagi vulkan harakatlarini Yer po'stining tik harakat qilishi natijasi vujudga kelgan deb tushuntirgan.

Aleksandriya olimlari astronomiyadan taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan. Aristark Samoskiy (eramizdan avvalgi 320 - 250 yy.) va uning zamondoshlari Quyosh va Oyming kattaligini o'lchashga uringanlar. Dunyoning markazi Yer emas, balki Quyoshdir, Yer Quyosh atrofida aylanadi deb taxmin qilganlar. Ularning bunday qarashlari Nikolay Kopernik g'oyasidan (XVIII asr) oldim bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining arab tilida yozilgan bir qator asarlarida Yer, minerallar, ma'danlar, geologik jarayonlar to'g'risida juda ajoyib fikrlarni yozib qoldirgan.

Beruniy yerning dumaloqligiga ishonish bilan birga uning kattaligini ham birinchilar qatorida aniqlagan. Olimning astranomik risolasidagi sxematik xaritasi Eski Dunyoni yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Beruniyning bu sohadagi ishlari g'arb geografiyasidan oldinda turgan. Beruniy o'sha vaqtdagi o'zining xaritasiga afsonaviy davlatlar va Kaspiybo'yi mamlakatlarini joylashtirmaydi, balki Xorazm va Hindistonning geologiyasini tavsiflashga urinib, oqar suvlari faoliyati haqidagi ilmiy fikrlarini aniq ifodalab bergen.



*Abu Rayhon Beruniy  
(979-1048 yy.).*

Beruniy ayrim olimlarning xudonning xohishi bilan ariqdag'i suv orqaga qarab oqishi inumkin, degan noto'g'n fikrlarini fosh etib, suv oqimining asl mohiyatini talqm etadi va u tabiat qonunlariga mos jarayon ekanligini isbotlab bergen.

Uning fikricha, suv markazga intilish kuchiga ega, binobarin u pastdan yuqoriga qarab oqmaydi. Suvlarning tog' bag'ridan buloq shaklida yoki Yer tagidan yuqoriga fontan bo'lib otilib chiqishini Beruniy Yer ostidagi bosim kuchiga bog'lab tushuntirgan. Daryo yotqiziqlari haqida esa Beruniy o'zining «Aholi yashaydigan joylar orasidagi masofalarning oxirgi chegarasini aniqlash» degan asarida bunday deydi: «Kimki bu haqda fikr yuritar ekan, u shunday xulosaga keladi - tosh va shag'allar hamda mayda zarrachalar turli kuchlar ta'sirida tog'dan ajraladi, keyin uzoq vaqt davomida suv va shamol kuchi tufayli ularning qirralari tekislanib, silliqlanadi hamda dumaloq shaklga kiradi. Ulardan o'z navbatida mayda donachalar - qum va changlar paydo bo'ladi. Agar bu shag'allar daryo o'zanida to'plansa, orasiga gil va qum kirib, bir butun qatlamga aylanadi. Vaqtning o'tishi bilan aralashgan narsalar suv tagida ko'milib ketadi.

Agar biz ana shunday dumaloq tosblardan tashkil topgan yotqiziqlarni uchratsak, ular albatta yuqorida yozganimizdek paydo bo'lgan desak bo'ladi. Ular Yer ustida yoki qatlamlar orasida uchrashi mumkin. Bunday jarayon uzoq vaqtini talab etadi va bizning tasavvurimizdan tashqaridagi doimiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'langan holatda yuz beradi» (A.M.Belenitskiy - Abu Rayhon Beruniy, Leningrad universiteti nashri, 1949, 207 b.).

Beruniy bu mulohazalarida XVIII asrda M.V.Lomonosov, XIX asrda Ch.Layel tomonidan bir-biriga bog'liq bo'limgan holda kashf etgan aktualizm g'oyalarini birinchilar qatorida bayon etgan. Shu asarda Beruniy yana bunday deydi: «Dengiz o'mi quruqlik bilan, quruqlik o'mi esa dengiz bilan almashadi».

Beruniyning XI asr bosqlarida birinchi bo'lib daryo o'zalarida cho'kindi jinslar donalari o'lchamining suv oqimi tezligiga qarab o'zgurishi qonuniyatini yaratganligi (keyinchalik Beruniy qonuni deb stalgan) katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonuniyat so'nggi yillarda V.I.Popov (1964 y.) tomonidan ishlab chiqilgan cho'kindi hosil bo'lishidagi fatsial birlıklarning bosqichli dinamik tamoyiliga mos keladi.

Beruniy o'zining «Mineralogik traktat» degan asarida (XI asming birinchi yarmi) minerallar haqida chuqur va aniq ilmiy ma'lumotlar bergan. Minerallarni aniqlash va tasniflashda Beruniy faqat ularning rangi va shaffofligidan emas, balki qattiqligi va solishtirma og'irligidan ham foydalangan.

Beruniyning zamondoshi buyuk olim, tabiatshunos va faylasuf



*Abu Ali ibn Sino  
(980- 1037yy).*

Abu Ali ibn Sino ham geologiya fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan. Ibn Sinoning geologik dunyoqarashlari uning ilmiy qomusi «Ashshifo» (Qalbni davolash) nomli kitobining «Tabiat» degan bo'limida yoritilgan.

Ibn Sinoning toshlar paydo bo'lishida zilzila va tog' qulashlari, Yerlearning o'pirilishi katta ahamiyatga egaligi, hayvon va o'simliklarning toshga aylanishi to'g'risida ajoyib fikrlari bor. Ibn Sino tomonidan temir va tosh materiallarimng paydo bo'lishi haqida aytilgan fikrlari

juda qiziqarlidir. Ibn Sino hozirgi aholi yashaydigan o'lkalar o'tmishda «hayotsiz yerlar va dengiz osti bo'lgan» degan ilg'or fikrlarni ilgari surgan.

Mashhur Ozarboyjon matematik - astronomi Muhammad Nasriddin tabiatshunoslik sohasidagi juda ko'p ishlari bilan birga minerallar haqida «Javohirnomma» degan asarni yaratgan. Bu asarda 34 mineral: zumrad, la'l, shpinel, feruza, lazurit, agat, yashma va boshqalar ta'riflangan. Ularning tabiiy xossalari: rangi, yaltiroqligi, qattiqligi, solishtirma og'irligi, shaffofligi va mo'rtligi batafsil bayon etilgan. Ibn Sino va Beruniyning mineraloziya traktatlaridan keyin

Muhammad Nasriddin asari o‘z zamondoshlarining fikrlarini umumlashtirgan va qimmatli ilmiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan birdan bir asar bo‘lgan.

1445-yilda polyak olimi N.Kopernik «Osmon jismlarining aylanishi to‘g‘risida» nomli asarida Yer o‘z o‘qi atrofida va boshqa sayyoralar bilan birgalikda Quyosh atrofida aylanishim isbot etdi.

Mirzo Ulug‘bekning matematika va astronomiya fanlarining taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U osmon jismlarining tarqalish qonuniyatini, harakatini va sonini aniqlash masalalarini to‘g‘ri talqin qilib bergen buyuk olimdir.

Rus olimi M.V.Lomonosov geologiya faniga ulkan hissa qo‘shgan. Uning «Yer qatlamlari haqida» nomli asari juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Uni Rossiya geologiyasining asoschisi deb bejiz aytishmagan. V.M.Severgin esa «Mineralogiya lug‘ati» ni yaratgan.

XVIII asr oxirlarida ingliz geologi Vilyam Smit stratigrafiya va paleontologiya fanlariga asos solgan. Ingliz olimi Ch.Layel «Geologiya asoslari» nomli kapital asarini XIX asrning 30- inchi yillarda yozgan. Unda aktualizm usuli yordamida o‘tmishdagagi geologik jarayonlarni qayta tiklash mumkinligini isbotlab bergen. Shuningdek, u fransuz olimi J.Kyuve fikriga (katastrofik ta’limot tashviqotchisi) qo‘shilmasdan, geologik o‘zgarishiar sekin kechadigan va uzoq davom etuvchi evolutsion jarayonlardan iborat deb hisoblagan. Jumladan, organik dunyoning taraqqiyoti shunday kechgan.

Fransuz olimi Eli-de-Bomon kontraksiya g‘oyasini yaratgan. Avstriya geologi E.Zyuss «Yer qiyofasi» nomli mashhur asarini yozib, ilmiy geologiyaga munosib hissa qo‘shgan.

Turkiston o‘lkasida geologik qidiruv ishlari asosan XIX asrning oxirlaridan boshlanadi. Rus olimlaridan I.V.Mushketovning 2 tomlik «Turkiston» nomli qomusiy asari, uning G.D.Romanovskiy bilan



*M.V.Lomonosov  
(1711-1765yy).*

hamkorlikda Turkistonning birinchi geologik xaritasini tuzishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'zbekiston hududining geologiyasini rejali o'rghanish XX asrning



**H.M.Abdullayev**  
(1912-1962yy).

30-yillardan boshlangan. Jumladan, mashhur geolog X.M.Abdullayevning «Ma'danlarning intruziyalar bilan genetik bog'liqligi», «Daykalar va ma'danlanish», «O'rta Osiyoda magmatizm va ma'danlanish» kabi asarlari foydali qazilmalarni qidirishda doim dasturlamal vazifasini bajarib kelinoqda.

Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi sohasida G.A.Mavlonov, N.K.Kenesarin, litologiya sohasida V.I.Popov, O.M.Akramxo'jayev, petrografiya sohasida I.X.Hamraboyev,

T.N.Dolimov, tektonika sohasida O.M.Borisov, M.O.Axmadjonov, R.N.Abdullayev kabi yirik olimlar O'zbekiston geologiyasining turli tarmoqlari bo'yicha samarali ishlar qilishgan.

### **O'tilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar**

1. «Geologiya» atamasining etimologik, lug'aviy va ilmiy ma'nolari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Geologiya atamasini kim va qachon fanga kiritgan?
3. Geologiya fanining asosiy tarmoqlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Geologiya qaysi fanlar bilan uzviy aloqada?
5. Geologiya fanining shakllanisbiga hissa qo'shgan olimlar va ularning fikrlari to'g'risida ma'lumot bering.
6. Geologiyaning tadqiqot uslublari (dala, laboratoriya, kamerial ishlari).

## **YER KURRASI**

### **2-bob. YER PO'STINING TUZILISHI, GEOSFERALAR, YERNING KIMYOVIY TARKIBI**

#### **REJA**

- 1. Yerning umumiy tavsisi.**
- 2. Yerning seysmotomografik modeli. Geosferalar.**
- 3. Yerning issiqlik maydoni.**
- 4. Yerning magnit maydoni.**
- 5. Yer po'stining kimyoviy tarkibi.**


Kalit so'zlar: ellipsoid, geoid, atmosfera, hidrosfera, biosfera, ionosfera, toposfera, stratosfera, iqlim, yer po'sti, litosfera, tektonosfera, mantiya, yadro, nifa, sima, sial, apveling (plynn), daunveling (sleb) konveksiya, konvektiv oqinlari, zichlik, gravitatsiya, magnetizm, kompas, magnit meridiani, magnit anomaliyasi, magnit og'ishi, magnit engayishi, magnit bo'roni. Yerning kimyoviy tarkibi, klark, radioaktiv darchalanish, ichki issidik manbai

#### **2.1. Yerning umumiy tavsifi**

**Yerning shakli.** Yer shaklini ellipsoidga yaqin deb bilishning sababi shundaki, agar ellipsoid aylanasimi Yer shakliga ustma - ust qo'yilsa, u holda okean yuzasi barobarligida olingan geoid chizig'iga yaqinlashadi. Demak, Yer shaklini ellipsoid shakliga yaqin bo'lgan geoid deb qabul qilingan (2.1-rasm). Geoidning lug'aviy ma'nosi Yer o'ziga xos shaklga ega demakdir. Uni birinchi bo'lib 1873-yilda nemis fizigi Listing fanga kirtgan.

Haqiqatan ham Yer yuzasi g'oyat notejis bo'lib, o'ziga xos shaklga ega. Uning eng baland nuqtasi (Himolay tog'idagi Jomolungma cho'qqisi, 8848 m) bilan eng chuqur botiq joy (Tmch okeanidagi Mariana cho'kmasi (11022 m) o'rtasidagi farq 19870 m ni tashkil etadi.


U hech qanday geometrik shakllarga to'g'ri kelmaydi.<sup>3</sup> (2.2-rasm). Yerning bunday shaklda bo'lishiga asosiy sabab, uning bir necha million yillar davomida Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishi hamda Yer yuzasidagi havo, suv, Yer ichidagi bitmas - tiganmas energiya ta'siri ostida bo'lishidir.



*2.1-rasm. Yer sharining fazodan ko'rinishi.*

(yunoncha: *yurakka o'xshash*) deb atash qabul qilingan.

So'nggi kosmik tasvirlar tahlilidan kelib chiqib, Yerning shinioliv qutbiy radiusi janubiy qutb.y radiusiga misbatan 21 km uzun ekanligi aniqlangan. Shunga asoslanib Yerning shakli uch o'qli ellipsoid yoki kardioid



*2.2-rasm Yer sharining eng baland nuqtasi va eng chuqur qismining joylashishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

Miloddan ikki asr oldin qadimgi Iskandariyada (Yegipet) yashovchi yunon kutubxonachisi Eratosfen Yerning kattaligini birinchi bo'lib o'lchagan olim hisoblanadi. Yoz kunlari peshin soat 12 larda (21-iyun) Iskandariyadan taxininan 800 km janubda joylashgan Siena

<sup>3</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 4

shaharchasidagi chuqur quduq Quyosh nurlari bilan to'liq yorug' bo'ladi, chunki Quyosh tepada turgan edi. Bu harakatlarni payqagan Eratosfen tajriba o'tkazadi. U o'zining tug'ilgan shahrida vertikal holatda ustun o'rnatadi va kunning yarmida (peshinda) Quyosh nurlari to'g'ri tepadan tushayotganini kuzatadi. Eratosfen Yer yuzasi aylana (shar) shaklida ekanligini tushunadi. Eng mukammal qiyalangan (notekis) Yer yuzasi sferik (sharsimon) bo'ladi, sbuni bilgan holda u Yer sferik (sharsimon) shaklga ega degan gipotezani olg'a suradi. Iskandariyada soya uzunligini o'lchash orqali u agar ikki shahar oralig'idagi vertikal chiziqlar Yer markaziga qarab uzayadigan bo'lsa, ular taxminan  $7^{\circ}$  burchak ostida kesishishi va to'liq Yer aylanasi taxminan  $1/50$   $360^{\circ}$  ni tashkil etishini hisoblab chiqqan (2.3 rasm). Ushbu shahar orasidagi masofani 50 ga ko'paytirsa, zamonaviy qiymati 40000 km atrofida bo'ladi. Eratosfen aniq ishionarli Yerning fizik shaklini taklif qilish uchun ilmiy usullar namoyish etdi, kuzatuvarlar (soya burchagi) o'tkazdi, gipotezalar (sharsimon shakl) yaratdi va bir qator matematik nazariyalar (sharsimon geometriya) qo'lladi va Quyosh nuri hosil qilgan Yer yuzasidagi burchakni skafis (skafis - yunoncha so'z bo'lib, masofa o'ichov asbobi) asbobi bilan o'lchab, so'nggi xulosasida Yer aylanasi 250000 stadiy (yoki 39500 km), radusini 6290 km deb aniqlagan. Eratosfen aniqlagan Yer radiusi hozirgi vaqtida aniqlangan ma'lumotdan 88 km, aylanasi esa 575,7 km kamroq chiqqan.


Eng so'nggi kuzatishlar natijasida Yer kattaligini quyidagi miqdoriy birliklar bilan belgilash qabul qilingan: ekvatorial radiusi 6378,245 km, qutbiy radiusi 6356,863 km, yerning o'rtacha radiusi 6371,110 km. Ekvator aylanasi esa 40075,7 km ga teng. Yerning maydoni 510 mln.km<sup>2</sup>, o'rtacha zichligi 5,517 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Sayyoramiz yuzasining katta qismi (70,8%) suv bilan qoplangan, quruqlik esa 29,2% ni tashkil etadi. Dunyo okeani o'zaro bog'langan to'rtta: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlaridan iborat. Quruqlik oltita: Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Afrika, Yevrosiyo, Avstraliya va Antarktida qit'alaridan iborat. Okean bilan quruqlikning nisbati Shimoliy yarimsharda 61:39% bo'lsa, Janubiy yarimsharda - 81:19% ga teng.



Quyosh nurlari Aleksandriyaga;  
7° farq bilan tushadi



Quyosh nurlari Siyena ga  
perpendikulyar



### **2.3-rasm. Eratosfening Yer kattaligini o'lchash usuli. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b)**


**Yerning tashqi qobiqlari** atmosfera, gidrosfera va biosferadan iborat bo'lib, ular yer po'sti shakllanishida muhim o'rinni egallaydi. Bu qobiqlar bir-biri bilan doimo o'zaro aloqadorlikda bo'lib, Yerning qattiq qobig'i bilan materiya va energiya almashinuvida faol ishtirok etadi.

Atmosfera – Yerning gazsimon havo qatlamidir. Atmosfera massasining ko'pgina qismi (90%) 16 km li oraliqda joylashgan. Atmosfera uch qismdan: troposfera, stratosfera va ionosferalardan tashkil topgan (2.4, 2.5-rasm).

**Troposfera** – atmosfera moddasining aksariyat qismini (80%) tashkil etib, qalnligi 8-12 km ga, ekvatorda esa 17 km ga teng, havo harorati bir xilda emas.

**Stratosfera** – 50-55 km gacha bo‘lib, harorati yuqori, uning tarkibida tirik organizmlar faoliyatida o‘ta muhim o‘rinni egallaydigan ozon qatlami (25-30 km) joylashgan.

**Ionosfera** – mezosfera, termosfera, ekzosferalarga bo‘linadi. Harorati juda yuqori bo‘lib, unda havo ultrabinafsha nurlar ta’sirida ionlashgan holatdadir. Atmosferaning yuqori chegarasi 1300 km.



2.4-rasm. Atmosferaning vertikal kesmasi.

qobig‘ida kechadigan ko‘pgma tabiiy hodisalar ob-havo va iqlimni yuzaga keltiradi.

**Ob-havo** – atmosferaning tabiiy holati bo‘lib, shamol, harorat, bosim va namlik bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarning ma’lum tabiiy-geografik sharoitdag‘i ko‘p yillik holati *iqlimni* tashkil etadi.

Iqlim yuqori namgarchilikka va haroratga ega bo‘lgan gumid (tropiklar), yuqori haroratli, quruq arid (cho‘l va sahrolar) va sovuq haroratli, nam nival (baland tog‘liklar va qutb zonalari) mintaqalardan tashkil topgan.

gacha boradi. Undan yuqori qismining tarkibi sayyoralararo bo‘shliq tarkibiga yaqindir.

Atmosferaning asosiy qismi azot, kislород, argon va ugleroddan tashkil topib, ular quruq havoning 99,9% ga teng.

Yer yuzasidagi jarayonlarga katta ta’sir etadigan atmosferaning tarkibiy qismi namlik hisoblanadi.

Atmosferadagi havo masasi doimo harakatda bo‘lib, yer yuzasming turli qismlaridagi haroratning tekis taqsimlanmasligiga sababchi bo‘лади. Atmosferaning troposfera

**Gidrosfera.** Bu qobiqmng yuqori chegarasi ochiq holatdagi suv havzalarining sathi bilan belgilanadi. Quyi chegarasi esa unchalik aniq bo'lmay, suvning gaz holatda bo'lish chegarasidan (374°K) o'tadi. Gidrosfera tarkibida turli tabiiy xususiyatni namoyon qiluvchi tabiiy suvlarning uchta turi mavjud. Bular okean va dengiz suvlari, quruqlik suvlari hamda muzliklardir. Oraliq holatni yerosti suvlari tashkil etadi. Gidrosferaning umumiy massasining 1370 mln.km<sup>3</sup> ini (86,5%) okean suvlari, 0,5 mln.km<sup>3</sup> ni quruqlik suvlari, 22 mln.km<sup>3</sup> ni quruqlikdagi muzlar, 196 mln.km<sup>3</sup> ni esa yerosti suvlari tashkil etadi.

Atmosferaga nisbatan gidrosferadagi gorizontal tabaqlananish aniq chegaraga ega, ya'ni quruqlik suvlari asosan chuchuk, okean va dengiz suvlari esa sho'r suvlar hisoblanadi. Okean suvlarining har litriga 35 g tuz to'g'ri keladi.

Quruqlik va dengiz suvlari kimyoiy tarkibiga ko'ra keskin farqlanadi: dengiz suvlarida  $\text{Na}^+ > \text{Mg}^{2+} > \text{Ca}^{2+}$ ;  $\text{Cl}^- > \text{SO}_4^{2-} > \text{HCO}_3^-$ ; quruqlik suvlarida  $\text{Mg}^{2+} < \text{Na}^+ < \text{Ca}^{2+}$ ;  $\text{Cl}^- < \text{SO}_4^{2-} < \text{HCO}_3^-$ . Ko'rinib turibdiki, bu suvlarda asosiy ionlar teskari proporsional holatdadir.

Yerning gidrosfera qobig'idagi suvlari Quyosh nuri ta'sirida doimiy harakatda bo'lib, uzluksiz aylanma harakat qiladi. Aylanma harakatdag'i suvlarni quyidagi bo'limlarga ajratish mumkin: atmosfera, okean va litosferadagi (qattiq qobiqdagi), biogen (tirik organizm tarkibidagi) va maishiy-xo'jalik suvlari.


Atmosfera kabi gidrosfera ham Yerdagi murakkab jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi.

Biosfera – Yerning organik hayot rivojlangan qismini birlashtiruvchi qobiqdir. Biosfera gidrosferani to'liq, litosferaning yuqori va atmosferaning quyi qismini qamrab oladi. <sup>4</sup> (2.5-rasm).

Tirik organizmlarning (biosfera) yana bir asosiy xususiyati shundan iboratki, u har yili 3651011 t uglerodni va 15011 t suvni o'zlashtirib, 266 mlrd. T erkin kislород ajratib chiqaradi. Bunda Dunyo okeanidagi biomassa atmosferadagi erkin kislородning asosiy generatori hisoblanadi.

<sup>4</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 11

### Yer tizimining barcha qismlarining tuzilishi



Iqlim tizimi atmosfera, hidrosfera, kriosfera, biosfera, litosferalarga tashir ko'rsatadi.

Boshalish tektonika  
Sizdigi hikayevi tanomshetya va quyidagi shaxs uchun boladil

Astenosfera

2.5-rasm. Yer tizimining ichki va tashqi qismlari va ularning o'zaro bog'liqligi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

## 2.2. Yerning seysmotomografik modeli. Geosferalar

Yerning ichki tuzilishini o'rGANISH murakkab masala hisoblanadi. Shu maqsadda foydalilaniladigan usullar *bevosita* va *bilvosita* turlarga bo'linadi.

Bevosita turiga tabiiy ochilmalarda (daryolar va jarliklarning bortlari, yonbag'irlar) va sun'iy qazilgan tog' lahimlarida (razvedka kanavalari, shurflari, karerlar, burg'i quduqlari) tog' jinslari va strukturalarni bevosita o'rGANUVCHI geologik usullar kiradi. Bu usullarning o'rGANISH chuqurligi ushbu tog' lahimlarining chuqurligi bilan belgilanadi. Eng chuqur burg'i qudug'i Kola yarimorolida qazilgan bo'lib, uning chuqurligi 12261 m ni tashkil etadi.

Yerning ichki qobiqlari to'g'risida *ksenolitlar* - magma suyuqligi bilan Yer yuzasiga olib chiqilgan chuqurlik tog' jinslari ba'zi tushunchalar beradi. Masalan, Lesoto kimberlit trubkasida (Janubiy Afrika) 250 km chamasi chuqurlikda yotuvchi tog' jinslarining vakili sifatida qaraluvchi qo'shimchalar topilgan.

Hozirgi vaqtida Yer qa'riga yuzlab va minglab kilometr chuqurlikka kirib boruvchi va u joydagи moddalardan namuna olib chiquvchi texnika vositalari mavjud emas. Shuning uchun ham sayyoramizning chuqurlikdagi tuzilishi kosmologik va geofizik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan, ya'ni fazo jismlari (birinchi navbatda meteoritlar

va Oy) yoki Yerning fizik maydonlari hamda modellashtirishga asoslangan bilvosita usullar yordamida tadqiq qilinadi. Yerning ichki tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlarni quyidagi *geofizik usullar* yordamida olinadi:

- Zilzilalar yoki portlatish orqali hosil qilingan sun'iy qayishqoq tebranishlarni qayd etuvchi seysmik;
- Og'irlik kuchi maydonlarini o'rganishga asoslangan gravimetrik;
- Yerning magnit maydonini o'rganuvchi magnitometrik;
- Sayyoramizning issiqlik maydonini va uning yur'asida issiqlik oqimining zichligini o'rganuvchi geotermik;
- Yer qa'rining elektr o'tkazuvchanligini o'rganuvchi elektrometrik tadqiqotlar.

Bunday usullarning orasida zilzilalar ta'sirida vujudga keladigan qisqa vaqtli, 10-20 daqiqa davomida amalda butun sayyoramizni yorib kiruvchi *seysmik to'lqinlar* maydonini o'rganuvchi *seysmik usul asosiysi* sanaladi. Zilzilalar o'chog'ida vujudga kelgan seysmik to'lqinlar muhit zarrachalarining qayishqoq surilishi yo'li bilan barcha yo'nalishlar bo'yicha muayyan tezlikda tarqaladi. To'lqinlar tarqalish xususiyatlarga qarab bo'ylama va ko'ndalang turlarga bo'linadi.

*Bo'ylama to'lqinlar* to'lqin tarqalish yo'nalishida qayishqoq hajmiy uyg'onishni (tebranishni) uzatishi bilan xarakterlanadi. Ko'ndalang to'lqinlar to'lqin tarqalish yo'nalishiga perpendikular holda qayishqoq hajmiy uyg'onishni (tebranishni) uzatishi bilan oldingisidan farq qiladi. Bo'ylama to'lqinlar ko'ndalang to'lqinlarga qaraganda katta tezlikka ega. Bundan tashqari ko'ndalang to'lqinlar suyuq muhitda tarqalmaydi.

Umuman olganda seysmik to'lqinlar optika qonunlariga bo'ysunadi – muhitlar chegarasida turli tezlikda tarqaluvchi qayishqoq to'lqinlar qaytadi va sinadi. Natijada to'g'ri to'lqinlar bilan bir qatorda qaytgan va singan to'lqinlar ham qayd etiladi. Qaytgan va singan to'lqinlar bu chegaralar holati to'g'risida ishonchli axborot manbai bo'lib hisoblanadi va Yerning ichki tuzilishini o'rganishda keng foydalaniladi. Ular Yer qa'rida muhitlarni yaqqol ajratuvchi chegaralar borligi to'g'risida dalolat beradi va to'lqinlarning harakat vaqtini va tarqalish tezligidan foydalanib geosfera chegaralarining yotish chuqurligini aniqlash imkonini yaratadi.

Yerning ichki tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning eng muhim manbalari bo‘lib seysmik to‘lqinlarni keltirib chiqaruvchi zilzilalar sanaladi.

Dunyodagi seysmik stansiyalarning soni kun sayin oshib bormoqda. Bu esa, bir tomondan, Yer qa’ri to‘g‘risidagi ma’lumotlar hajmining oshishiga olib keladi va ikkinchi tomondan, olinayotgan ma’lumotlarni qayta ishlash uchun tez ishlovchi kompyuterlardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa *seysmik tomografiya* deb nomlanuvchi usullar majmuasining rivojlanishiga olib keldi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bir jinsli (gomogen) muhitda seysmik to‘lqinlar to‘g‘ri chiziq holida tarqaladi va qayd etuvchi stansiyalarga hisoblangan vaqtda yetib boradi. Bir jinsli bo‘lmagan (geterogen) muhitlarda boshqacha hol kuzatiladi. Seysmik to‘lqinlar anomal massa bilan uchrashganda o‘z tezligini yo oshiradi, yoki sekmlashtiradi, bunda to‘lqinlar qayd etuvchi stansiyaga hisobdagи vaqtdan oldin yoki kechikib keladi. Shu yo‘sinda Yer qa’ridagi nobirjinsliklar topiladi.


Seysmologik ma’lumotlarga ko‘ra hozirgi kunda Yer bag‘rida yigirmatacha *ajratuvchi chegara* qayd etiladi va ular umumiylar tarzda Yerning konsentrik zonal qatlamlı tuzilishi to‘g‘risida dalolat beradi (2.6-rasm). Bu chegaralar orasida ikkitasi: kontinentlarda 30-70 km chuqurliklarda va okeanlar ostida 5-10 km da yotuvchi Moxorovich yuzasi (Moxo yoki oddiy M) hamda 2900 km chuqurlikdagi joylashgan Vixert - Gutenberg yuzasi asosiy sanaladi. Bu chegaralar sayyoramizni uchta asosiy qobiqlarga yoki geosferalarga ajratadi:

- *Yer po‘sti* – Moxorovich yuzasi ustida joylashgan yerning tashqi tosh qobiq‘i;
- *Yer mantiyasi* – Moxorovich (yuqoridan) va Vixert - Guttenberg (pastdan) yuzalari bilan chegaralangan oraliq silikatli qobiq;
- *Yer yadrosi* – Vixert - Guttenberg yuzasidan pastda joylashgan sayyoramizning markaziy tanasi.



**2.6-rasm. Yer po'sting chegaralari. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)**

Bu asosiy chegaralardan tashqari geosferalar ichida asosan moddalarning bir turdan ikkinchi turga fazoviy o'tishi va xossalaring o'zgarishi bilan ifodalangan bir qator ikkinchi darajali ajratuvchi chegaralar mavjud.<sup>5</sup>



**2.7-rasm. Yer ichki tuzilishining modeli.**

Chuqurlikdagi zonalarning moddiy takibi haqida bevosita ma'lumotlarning yo'qligi bilbosita, birinchi navbatda seismologik ma'lumotlardan foydalanshami taqozo etadi. Seismologik ma'lumotlar bir qator chegaraviy shartlarni (zinchlik o'zgarishining o'rtacha qiymati Yer po'sti uchun -  $2,7 \text{ g/sm}^3$  va yalpi Yer uchun -  $5,52 \text{ g/sm}^3$ , Yerning aylanish o'qiga nisbatan

inersiyaning kuzatish momentidagi massalarning taqsimlanishini va b.b ) hisobga olganda, Yer moddalari zinchligining chuqurlik oshishi bilan o'zgarishimi hisoblab topish imkonini beradi. Bu ma'lumotlarga tayangan holda turli chuqurliklarda bosim va haroratning qiymatim baholash mumkin.

Yerning ichki tuzilishida uning tashqi «tosh» qobig'i - Yer po'sti alohida o'rinni egallaydi (2.7-rasm). Chunki Yerdagi barcha tinx

<sup>5</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 6


organizmlarning faoliyati, turli geologik jarayonlar, xilma-xil foydali qazilma konlari aynan shu qobiqda mujassamlangan. Yer po'stining qalinligi ham bir xilda emas. Tog'li o'lkalarda u 60-70 km, tekisliklarda 35-45 km, okean ostida esa 5-10 km ni tashkil etadi. Bu qatlamlarda seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligi va tog' jinslari zichligi turlichadir.

Yerning mantiyasi eng yirik geosfera sanaladi. U sayyora hajmining 83% va massasining 66% ga yaqinini tashkil etadi. Yer po'sti va mantiya orasidagi chegara odatda bo'ylama seysmik to'lqinlar tezligining 7,5-7,6 dan 7,9-8,2 km/s gacha keskin oshishi orqali ifodalangan va u Moxorovichch yuzasi nomi bilan ataladi. Okeanlarda bu chegara kuchli o'zgaradi. Kontinentlarda Yer po'stining mantiyaga o'tishi juda murakkab ko'rinishga ega bo'lib,

ba'zi hollarda bitta emas, balki bir necha chegaralar kuzatiladi. Bu fazali o'zgarishlar tufayli Moxorovich yuzasining bir sathdan ikkinchisiga "sakrashi" deb talqin qilinadi.

Moxorovich yuzasidan 670 km churlikdag'i chegaragacha tashqi va undan 2900 km gacha ichki mantiya ajratiladi (2.8, 2.5-rasm).

Tashqi mantiya 410 km churlikdan o'tuvchi yaxshi ifodalangan ichki seysmik sathga ega bo'lib, bu chegara uni ikkiga bo'ladi. Moxo chegarasidan 410 km churlikkacha boradigan ustki qatlam *Guttenberg qatlami* (*V qatlami*) deyiladi. Unda seysmik to'lqinlar o'tish tezligining churlik oshgan sari tezlashib borishi va uning pastki qismida esa, aksincha, birmuncha susayishi (3% ga) kuzatiladi. Bu mantiya moddasining yumshagan, qisman (bir necha foyizgacha) suyulgan holatdaligidan dalolat beradi. Guttenberg qatlamining bu qismi *astenosfera* (kuchsiz qobiq) nomini olgan.



## 2.8-rasm. Yerning kesmasi

Guttenberg qatlamining ustki qismi Yer po'sti bilan birlashtiriladi. Yer po'sti qatlami qobiqni – *litosferani* tashkil etadi. Tom ma'nosi bilan litosfera o'ziga xos geosfera bo'lib, mantianing qolgan qismidan

Guttenberg qatlamining ustki qismi Yer po'sti bilan birlashtiriladi. Yer po'sti qatlami qobiqni – *litosferani* tashkil etadi. Tom ma'nosi bilan litosfera o'ziga xos geosfera bo'lib, mantianing qolgan qismidan

astenosferaning faol qambari bilan ajralgan. Litosfera va astenosfera birgalikda yerda tektonik jarayonlar kechadigan **tektonosferani** tashkil etadi.

Litosfera va astenosfera – bu tabiiy, aniqrog'i geologik tushunchadir. Ular o'zlarining qovushoqligi bilan farq qiladi. Litosfera qattiq va mo'rt, astenosfera esa ancha plastik va harakat-chadir. O'rta okean tizmasining o'q qismida litosfera va astenosfera orasidagi chegara ba'zi joylarda atiga 34 km chuqurlikda joylashgan, ya'ni litosfera faqat o'zining ustki qismidangina iborat.

Okeanlarning chetlariga qarab litosfera qalinligi o'zining ostki qismi, asosan mantianing ustki qismi (litosfera mantiyasi) hisobiga oshib boradi va kontinentlar bilan chegarasida 80-100 km gacha yetishi mumkin.

Kontinentlarning markaziy qismida, ayniqsa Sharqiy Yevropa yoki Sibir singari qadimiy platformalarning qalqonlari ostida litosferaning qalinligi 150-200 km gacha va undan ortiq (Janubiy Afrikada - 350 km); ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u 400 km gacha boradi, ya'ni amalda butun Guttenberg qatlami litosfera tarkibiga kiradi. Kontinentlarning bunday viloyatlari uchun ko'pincha bir-birining ustida joylashgan bir necha qatlam kuzatiladi hamda gorizontal yo'nalişda ularning uzlukliligi taxmin qilinadi.

Astenosfera qatlamlarining (linzalarining) yotish chuqurligi 100 dan bir necha yuz kilometrlarga o'zgaradi.

Guttenberg qatlamidan pastdagi 410-670 km oraliqda Golitsin qatlami (S qatlami) joylashgan bo'lib, u chuqurlik oshgan sari seysmik to'lqinlar tezligining juda keskin oshishi bilan xarakterlanadi. Uni o'rta mantiya yoki mezosfera - tashqi va ichki mantiya orasidagi oraliq zona deb ham atashadi. Golitsin qatlamida qayishqoq seysmik to'lqinlar tezligining 9 dan 11,4 km/s oshishi mantiya moddasi zichligining taxminan 10% ga o'zgarishi bilan tushuntiriladi. Bu hol minerallarning qayta o'zgarishi - bir mineralning atomlari zichroq joylashgan ikkinchisiga: olivinning - shpinelga, piroksenning – granatga o'tishi bilan bog'liq. Petrologik va eksperimental ma'lumotlar bu qatlamni asosan granatdan tarkib topgan deb hisoblashga imkon beradi. Qatlam kimyoviy tarkihining muhim komponenti bo'lib suv sanaladi, uning miqdori 1 % ga yaqin.


Ichki mantiya 670 km chuqurlikdan boshlanadi va yerning radiusi bo'yicha 2900 km gacha boradi. Tashqi va ichki mantiya chegarasi bo'lib 670 km chuqurlikdagi seysmik bo'lim hisoblanadi. U butun sayyora bo'yicha kuzatiladi va seysmik to'lqinlar tezligining sakrab oshishi va ichki mantiya moddasi zichligining oshishi bilan dalillanadi.

Bu sath mantiya jinslari mineral tarkibining o'zgarish chegarasi bo'lib ham hisoblanadi. Ichki mantiyaga mos keluvchi bosim va haroratda moddalar holati bo'yicha o'tkazilgan eksperimentlar shuni ko'rsatadiki, quyi mantiya o'rta matniya minerallarining yanada

o'zgarishi mahsulotlari bo'lgan perovskit ( $MgSiO_3$ ) va magneziov-yustit ( $Fe,MgO$ ) dan tarkib topgan bo'lishi lozim.

Quyi mantiya ikki qatlamdan - D' (670-2700 km) va D" (2700-2900 km) iborat. Ulardan birinchisi bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning chuqurlik sari oshib borishi bilan xarakterlanadi. Unda seysmik to'lqinlarning tarqalish tezligi sayyora uchun maksimal ko'rsat-kichga yetadi: bo'ylama to'lqinlarniki 13,6 km/s, ko'ndalang to'lqinlar taxminan 7,3 km/s.

2700-2900 km chuqurlikda uning ostki yuzasi yaqinida o'zining xossalari bilan oraliq D' qatlami ajratiladi. Bunda bo'ylama to'lqinlar tarqalish tezligining birmuncha pasayishi



### *2.9-rasm. Yerning asosiy qatlamlari va yerning umumiy hajmiga nisbatan foizlari.*

*1. Ustki qatlam (0-40 km), yer massasining 0.4%. 2. Mantya (40-2890 km) yer massasining 67.1%). 3. Taskqi yadro (2890-5150 km) yer massasining 30.8%) (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

midan farq qiluvchi qobiqcha (D") bo'ylama to'lqinlar tarqalish tezligining birmuncha pasayishi

kuzatiladi va u yerning tashqi yadrosiga o'tishdagi o'zgarishlar natijasi hisoblanadi.

Tashqi yadro bilan bevosita tutashgan D" qatlami uning ta'siriga uchraydi, chunki yadro harorati mantyaning haroratidan ancha ortiq. Bu qatlam yer yuzasiga yo'nalgan va mantiya orqali o'tuvchi **plyumlar** deb ataluvchi issiq massa oqimini tug'diradi degan taxminlar bor. Ular Gavaya orollari, Islandiya va shu kabi yirik vulkanizm viloyatlarini hosil qiladi.

D" qatlamming ustki chegarasi aniqlanmagan, uning sathi yadro yuzasidan 300 km gacha o'zgarishi mumkin. Bu qatlam soviyotgan yadrodan mantiyaga energiyaning notekis o'tishini aks ettiradi.

Yer yadrosi sayyora hajmiming 17 % va massasining 34 % ni tashkil etadi. Hajm va massa ulushlarining bunday nisbati yadro va mantiya tabiiy parametrlaridagi keskin farq bilan tushuntirilishi mumkin (2.9-rasm).

Vixert – Gutenberg chegarasida joylashgan yadro va mantiya chegarasida bo'ylama to'lqinlar tezligining 13,7 dan 8,1 km/s gacha keskin pasayishi, ko'ndalang to'lqinlarning so'nishi va moddalar zichligining 5,5 dan 10 g/sm<sup>3</sup> gacha sakrab o'sishi kuzatiladi. Ko'ndalang seysmik to'lqinlar bu chegaradan pastga o'tmaydi. Seysmotomografiya ma'lumotlari bo'yicha yadro yuzasi notekis bo'lib, amplitudasi 56 km gacha boradigan pastliklar va balandliklarni hosil qiladi. Yadroning tuzilishida uch element ajratiladi: tashqi yadro (E qatlami), ichki yadro (G qatlami) va oraliq qobiq (F qatlami).

Qalinligi 2080 km li tashqi yadro ko'ndalang seysmik to'lqinlarni o'tkazmaydi, bu uning suyuq holatdaligidan darak beradi.

Tashqi yadrodagи konveksiya yer magnit maydonini keltirib chiqaradi deb taxmin qilinadi.


Radiusi 1250 km ga teng ichki yadro katta zichlikka ega - 12,1-13,4 g/sm<sup>3</sup>. Ichki yadroning tarkibi temir-nikelli (Fe 0,9, Ni 0,1) hisoblanadi. Bu yerda bosim 360 GPa, harorat esa 6500-6800 °C ga boradi. Tashqi va ichki yadrolar orasidagi oraliq qatlam oltingugurtli temirdan - troilitdan (FeS) tarkib topganligi ehtimol qilinadi.

Oraliq qatlam F - nisbatan yupqa qobiq bo'lib, uning qalinligi 40 km ga yaqin.

**Geologik tadqiqot uslublari.** Boshqa fanlar singari geologiya ham Yer yuzasi va ichki tuzilishini o'rganish uchun modellashtirilgan kompyuter va eksperimental (tajriba) laboratoriyalari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq geologiya o'z uslubiga va dunyoqarashiga ega. Geologlar asosiy ma'lumotlarni yerning sun'iy yo'ldoshi uzokdan yerni tasvirga olish qurilmalari yordami bilan o'rganish mumkin deb hisoblaydilar. Geologlar to'g'ridan-to'g'ri kuzatuv natijalarini taqqoslash uchun geologlar daftarchasiga qayd qilib qo'yishadi. Ushbu geologik ma'lumotlar yerning uzoq tarixi davomida hosil bo'lgan tog' jinslari saqlanadi. XVIII asrda, shotlandiyalik vrach va geolog Jeyms Xatton geologiyaning «hozirgi narsalar o'tmishning kaliti hisoblanadi» degan tarixiy tamoyilini ilgari surdi. Xatton tushunchasi bugungi kunda uniformatsionizm tamoyili nomi bilan ma'lum bo'ldi va u amalda ma'lum vaqt davomida hosil bo'layotgan geologik jarayonlarni tiklashga imkon beradi. Uniformatsionizm tamoyilida barcha geologik hodisalar sekin ketayapti, degani ermas. Ba'zi eng muhim jarayonlar kutilmagan yangiliklarga boy bo'lishi mumkin. Katta meteorit bir necha soniya ichida yerga tushib katta chuqurlik (krater) hosil qilishi mumkm. Vulqon katta tezlik bilan Yemi yorib chiqishi va uning natijasida zilzila sodir bo'lishi mumkin. Boshqa jarayonlar juda sekin sodir bo'ladi.

Kontinentlarning bir-biridan ajralishi, tog'larning ko'tarilishi va yemirilishi va soylarda qalin cho'kindi qatlamlarning to'planishi uchun bir necha million yillar kerak bo'ladi. Geologik jarayonlar ma'lum bir vaqt oralig'ida bo'lib o'tadi (2.10-rasm). Uniformatsionizm tamoyilining ma'nosi – hozirgi Yer tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri geologik hodisalarni kuzatish degani. Tarixdan ma'lumki, insonlar katta meteoritlarning Yerga kelib urilishiga hech qachon guvoh bo'limganlar, ammo biz bilamizki, ular geologik o'tmishda ko'p marta yuz bergan va albatta yana qaytarilishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Texasda otilib chiqqan vulqon lavalari shaharni qoplab olgan va undan chiqqan vulqon gazlari atmosferani zaharlab qo'yan. Yerning uzoq muddati evolutsiyasi natijasida sodir bo'layotgan voqealar va hodisalar yer tizimining tez o'zgarishi bilan bog'liq. Geologiya ekstremal hodisalar hamda jadal o'zgarishlarni o'rganishdan iborat. Xatton birinchi kundan boshlab biologik tabiatni kuzatgan va topilgan tog' jinslarining xususiyatlarini

o'rganishida uniformatsionizm tamoyillarini qo'llagan. Bunday yondashuv juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Xattonning geologiya fani uchun yaratgan tamoyillari hozirgi vaqtida amaliyotda keng qo'llaniladi. Zamonaviy geologiya 4,5 milliard yil oldin boshlangan bo'lib, yer tarixidagi hamma xossalarga ega bo'ladi. Biz ko'rayapmizki erta yer tarixida shakllangan jarayonlar hozirgisidan keskin farq qiladi. Bu tarixni tushunish uchun, bizga piyoz kabi qatlamlangan yer po'stidan (qa'ridan) bir qator ma'lumotlar kerak bo'ladi.



*2.10.-rasm 1. Million yillar oldingi chokindi qatlamlar to'planib tog'larni hosil qilgan. Yuqoridagi eng zamonaviy qatlam ham 250 mln. yoshda. 2. Taxminan 50 ming yil oldin metiorit kelib urilgan (Taxminan 300 000 tonna) va bir necha soniya ichida kengligi 1.2 km bo'lgan kratereni hosil qilgan. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

### 2.3. Yerning issiqlik maydoni

Yer sovuq osmon jismlari jumlasiga kiradi. Kosmik bo'shliqqa tashqaridan oladiganiga nisbatan kam issiqlik beradi. Unimg yuzasiga quyoshdan- kelayotgan ulkan energetik oqim ta'sir etadi.

M. D. Xutorskiy ma'lumotlari bo'yicha u  $5,5 \cdot 10^{24}$  yilga teng bo'lib, o'zining xususiy issiqliq oqimiga nisbatan 10 ming marta ko'p. Bu energiyaning 40 % ga yaqini sinib, kosmik bo'shliqqa qaytadi. Qolgan qismi atmosfera, gidrosfera va biosferani isitishga

surf bo'ldi. Faqat 2% energiyagina tog' jinslarining nurashi, cho'kindi jinslarning hosil bo'lishiga surf bo'ldi, organik moddalarda va yonuvchi foydali qazilmalarda to'planadi.

Quyosh energiyasi yerning eng ustki qatlamining haroratini belgilaydi va u iqlimning sutkalik va fasliy o'zgarishini ta'minlaydi.

Haroratning sutkalik o'zgarishi 12 m chuqurlikkacha, fasliy o'zgarishi esa 30 m gacha ta'sir ko'rsatadi. Tog' jinslariga haroratning fasliy o'zgarishi ta'sir etmaydigan chuqurlikdan pastki sath **doiniy harorat qambari** yoki **neytral qatlam** deyiladi. Haroratning fasliy o'zgarishi ta'sir ko'rsatuvchi yuza qatlamining butun hajmi **geliotermozena** deyiladi. Undan pastki qatlamlarda harorat yerning ichki energetik resurslari bilan belgilanuvchi ichki qismida **geotermozena** joylashgan.

Neytral qatlaming gipsometrik sathida tog' jinslarining harorati shu hududning o'rtacha yillik ko'rsatkichiga teng. Masalan, u O'rta Osiyo uchun  $20^{\circ}\text{C}$ , Taymir uchun  $13^{\circ}\text{C}$  ga teng. Mintaqaga bog'liq holda doimiy harorat qambari turli chuqurliklarda joylashgan bo'ldi.

1868-yili inglez fizigi U. Tomson (lord Kelvin) tashabbusi bilan shaxta va burg'i quduqlarida chuqurlik sari haroratning o'zgarishi tiziunga solingan. Bunda har 100 m da harorat o'rtacha  $2,5\text{-}3,5^{\circ}\text{C}$  ga oshishi aniqlandi. Shundan boshlab geotermiya aniq dalillarga asoslangan bo'ldi.

Yer issiqlik maydonining bosh geotermik parametrlari bo'lib:

- geotermik gradiyent;
- geotermik bosqich;
- issiqlik o'tkazish koefitsiyenti;
- issiqlik sig'imi;
- issiqlik oqimining zichligi;
- issiqlik generatsiyasi kattaligi kabilar hisoblanadi.

**Geotermik gradiyent** tog' jmslari haroratining masofa birligida o'zgarishini ifodalaydi. Geotermik gradiyentga teskari bo'lgan kattalik **geotermik bosqich** deyiladi. U harorat  $10^{\circ}\text{C}$  ga oshishi kuzatiladigan oraliqni belgilaydi.

B. Guttenberg ma'lumotlariga ko'ra geotermik gradiyent Yer sharining turli nuqtalarida sezilarli farq qiladi. Uning maksimal qiymati minimal qiymatidan 15 martadan ortiq bo'lib, bu

mintaqalarning endogen faolligini va ulardag'i tog' jinslarining turlicha issiqlik o'tkazish xususiyatlarini ko'rsatadi.

Qadimiy Sharqiy Yevropa platformasining kristalli qalqonida qazilgan Kola o'ta chuqur burg'i qudug'ming (O'CHB) 11 km chuqurligida harorat 200°C ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich geotermik gradiyent 18°C va geotermik bosqich 55 m ga tengligini ko'rsatadi.

Geotermik gradiyentning eng yuqori qiymati okean va kontinentlarning harakatchan zonalarida, past qiymati esa kontinental po'stloqning eng turg'un va qadimiy uchastkalarida kuzatiladi. Gradiyentlarning o'zgarishi ko'pincha 1 km da 20 dan 50°C gacha oraliqda, geotermik bosqichniki esa 15-45 m diapozonda amalgalashadi. Yer shari uchun o'rtacha geotermik gradiyent 1 km da 30°C ni, geotermik bosqich esa 33 m ni tashkil etadi.

Geotermik gradiyent yer issiqlik maydonining muhim parametri sanaladi, ammo u ma'lum vaqt oralig'ida jins hajmidan qancha miqdorda issiqlik o'tishi to'g'risida to'liq tushuncha bermaydi, ya'mi yerning issiqlik sarfini xarakterlamaydi. Zero, bir xil harorat gradientida turlicha issiqlik o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan jinslar orqali turlicha issiqlik miqdori o'tadi. Tog' jinslarining issiqlik o'tkazish xususiyati issiqlik o'tkazish koeffitsiyentini (K) xarakterlaydi va u harorat gradiyenti 1 ga teng bo'lganda vaqt birligida o'tuvchi issiqlik miqdoriga teng bo'ladi.

Tog' jinslarining issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti ularning moddiy tarkibi va tuzilishining quyidagi xususiyatlariiga bog'liq:

- tarkibidagi minerallarning xossalari va ularning o'zaro munosabatiga;
- kristallarning kristallanish darajasi (amorf, noto'liq kristalli jinslar to'liq kristallilariga nisbatan issiqlik o'tkazishi yomonroq bo'ladi) va o'lchamlariga;
- jins tarkibiga kiruvchi fazalar (qattiq, suyuq, gazsimon) msbatiga. Boshqa barcha teng sharotlarda jinsning suvgaga to'yinganligi uning issiqlik o'tkazish qobiliyatini oshiradi;
- tog' jinslarining teksturaviy, xususan issiqlik o'tkazishini pasaytiruvchi, ayniqsa, bo'shlqlari gaz bilan to'lgan g'ovakligiga. G'ovaklar bo'shlig'inning strukturasi ham muhim ahamiyatga ega.

Issiqlik maydoniga issiqlik oqimining zichligi to'liq xarakteristika beradi.

Qadimiy platformalarning issiqlik oqimi nisbatan bir xil va uning zichligi 35 dan 55 mVt/m<sup>2</sup> gacha. Sibir platformasining shimoliy qismi uchun issiqlik oqimi 21 mVt/m<sup>2</sup> dan past.

Platforma hududlaridagi rift botiqliklari qambarida issiqlik oqimining qiymati o'rtacha 70-80 mVt/m<sup>2</sup>, ba'zan 165 mVt/m<sup>2</sup> ga boradi (Baykal rifi).

Tog' tizmalari, ayniqsa yosh tog'lar ham issiqlik oqimining yuqori qiymatiga ega. Kavkaz uchun uning qiymati 13 dan 100 mVt/m<sup>2</sup> gacha oraliqda o'zgaradi.

O'rta okean tizmalari (O'OT) qambarlarida issiqlik oqimining qiymati juda yuqori (1500 mVt/m<sup>2</sup> gacha), o'rtachasi 400-600 mVt/m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Transformali yer yoriqlari zonasida issiqlik oqimining qiymati 135 dan 360 mVt/m<sup>2</sup> gacha boradi.

Issiqlik oqimining eng yuqori qiymati Islandiya, Baykal, Qizil dengiz, Sharqiy Tinch okeani tepaliklari, O'rta Atlantika, Hind okeani tizmalari, Oxota va Yapon dengizlari uchun xarakterli.

Issiqlik oqimi sayyoraning ichki qismidan fazo bo'shlig'iga har yili 1020 J issiqlik chiqaradi. Bu energiya zilzilalar, vulkan faoliyati, gidrotermal faollikning yillik energiyasidan 100 marta ortiq. Issiqlik oqimi yerning ichki qismidan yuzasiga ko'tarilib chiqadi va keyinchalik ikki usulda fazoga tarqalib ketadi.



2.11-rasm. Geyzerlar orqali issiqlik oqimining Yer yuzasiga chiqishi.  
www.ekosistema.ru

1. Konduktiv issiqlik oqimi sifatida (tog' jinslarining issiqlik o'tkazish qobiliyati hisobiga).

2. Vulkanizm jarayonlar va gidrotermal faoliyatlarda issiqlikning konvektiv chiqarilishi (2.11-rasm).

Konduktiv oqimlar bilan issiqlik chiqarilishi quvvati konvektiv usuldagidan 100 barobar ko'p.

**Issiqlik rejimidagi radioaktiv parchalanishning hissasi turlicha beholonadi.** Yer tarixida keyingi 200 mln yil ichida yarim parchalanish davri 106-107 yil bo'lgan  $^{26}\text{Al}$ ,  $^{60}\text{Fe}$ ,  $^{36}\text{Cl}$  kabi qisqa davrli izotoplarning miqdori kamaygan. Keyingi uchta izotop hozirgi kunda ham yerning issiqlik rejimiga katta hissa qo'shadi. Radiogen energiyaning umumiy miqdori  $(0,42) \cdot 10^{31}$  J ni tashkil etadi. Radiogen energiyaning ajralib chiqishi yer moddalarining gravitatsion differensiatsiyasini amalga oshirgan hamda yadro, mantiya va yer po'stining shakllanishiga olib kelgan.

Insonlar yana ko'p yillar davomida yer qa'rining issiqligidan o'zining xo'jalik faoliyatida foydalanadi. Geotermal energetika an'anaviy issiqlik manbalarining yildan-yilga real muqobillari bo'lib bormoqda.

## **2.4. Yerning magnit maydomi**

Yer – o'z aylanish o'qiga nisbatan taxminan 11,5 gradusga og'ishgan o'q bo'yicha magnitlangan magnit maydoniga ega gigant shar.


Yerning magnit maydoni (geomagnit maydon) to'g'risida bir necha fikrlar bor. Uning vujudga kelishiga sabab yer yadrosidagi elektr toki bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Seysmologik ma'lumotlarga ko'ra yerning tashqi yadroси suyuq tana xossalariга ega bo'lib, uning ancha qismi boshqa elementlarning (nikel yoki oltingugurt) qo'shimchalariga ega temirdan tarkib topgan. Boshqa sabablar bilan bir qatorda, yerning aylanishi tashqi yadroda plazma holatidagi moddalarning turbulent oqimiga olib keladi. Bu hodisa induksion tabiatdagi elektr tokini keltirib chiqaradi va u yer sirtida, uning yaqinidagi bo'shliqda magnit maydonini hosil qiladi (2.12-rasm).

Geomagnit maydon nafaqat yer sirtida, balki undan ancha uzoqda ham mavjud bo'lib, u sun'iy yo'ldoshlar orqali qayd etilgan.

Yer sirtidan uzoqlashgan sari geomagnit maydon yer markazigacha bo'lgan masofaning kubiga proporsional holda asta-sekin susayib boradi. Magnitosfera Quyosh yo'nalishida cho'zilgan shaklga ega. Kunduzgi yorug' tomonidan u yer radiusidan 814 marta uzoq masofaga cho'zilgan.

Yuqori energiya zarrachalari bilan to'lgan magnitosfera radiatsion qambarlarni hosil qiladi. Magnit maydoni ta'sirida bu

yerda elektronlar va protonlar kabi zaryadlangan zarrachalarning harakati amalga oshadi. Bu zarrachalar elektronli va protonli radiatsion qambarlarni hosil qilib, magnitosferada muayyan trayek-



*2.12-rasm. Yerning magnit maydoni  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

toriyalar bo'yicha harakatlanadi.

Magnit mili geomagnit maydonda uning kuch chiziqlariga parallel mo'ljallanadi. Magnit milining uchlari yerning shimoliy va janubiy magnit qutblarini ko'rsatadi. Magnit qutblari geografik qutblar bilan mos tushmaydi. Magnit mili shimoliy uchining yo'nalishi bilan geografik qutb yo'nalishi orasidagi burchak **magnit og'ish burchagi** deyiladi.

Kompas mili geografik qutb yo'nalishidan sharqqa og'sa sharqiy (musbat) va g'arbga og'sa g'arbiy (manfiy) hisoblanadi. Magnit og'ishi muayyan paytda yer sharining turli nuqlarida turlicha bo'ladi. Magnit og'ishi graduslarda o'lchanadi.

Magnit mili yer yuzasiga muayyan burchak ostida joylashgan bo'ladi. Kompas mili bilan gorizontal tekislik orasidagi burchak **magnit engashishi** deyiladi. Agar magnit milining shimoliy uchi yer ichiga mo'ljallangan bo'lsa engashish musbat hisoblanadi. Shimoliy yarimshar uchun u musbat, janubiy yarimshar uchun esa manfiydir. Magnit engashishi  $90^{\circ}$  ga teng bo'lgan nuqtalar magnit qutblari deyiladi.

Yuqorida qayd qilinganidek magnit qutblar o'z o'mida turmaydi, vaqtlar o'tishi bilan siljib turadi. Magnit xaritasida bir xil engashishga ega nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq **izoklin** deyiladi. Nulli

engashishga ega nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq ***magnit ekvatori*** deyiladi. Magnit engashishi I harfi bilan belgilanadi.

Geomagnit maydonning xususiyatlari nafaqat fazoda, balki zamonda ham o'zgaradi. Magnit maydonining o'rtacha yillik o'zgarishi ***asriy variatsiya***, bir yil uchun o'zgarishi esa ***asr yo'li*** deyiladi. Magnit og'ishi asriy variatsiyaning eng yuqori qiymatiga ega. Masalan London uchun keyingi 400 yilda magnit og'ishi  $30^{\circ}$  dan oshgan.

Yer shari bo'yicha magnit og'ishi o'zgarishini ko'rgazmali tasavvur etish uchun izoporalar xaritasi tuziladi.

***Izoporlar*** – bu bir xil asr yo'li qiymatiga ega bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlardir. Asr yo'lining kattaligi vaqt davomida o'zgaradi va unga hozirgi vaqtda geofiziklar katta e'tibor berishadi.

Turli geologik epoxalarda magnit qutblarining o'rnnini aniqlagan olimlar Yer yuzasi bo'ylab qutblar siljib turadi degan xulosaga kelishgan. Bundan tashqari, magnit maydonining inversiyasi ham amalga oshgan: shimoliy va janubiy magnit qutublari o'zaro o'rin almashgan. Inversiya davriyiligi 5 dan 20 mln yilgacha o'zgaradi. Hozirgi vaqtda qutblarning o'zaro o'rin almashish davrlari oshib bormoqda.

Geomagnit maydonning manbai hisoblangan yer yadrosigacha bo'lgan masofaning uzoqligi tufayli uning kuchlanganligi yer yuzasida normal gorizontal gradiyentga bog'liq holda chiziqli qonun bo'yicha o'zgarishi lozim. Real o'lhashlar natijasi normal o'zgarishlardan farq qiladi. Kuchlanganlik normadan past yoki yuqori bo'hshi mumkin. Magnit maydoni kuchlanganligining muayyan joy uchun ko'rchatkichidan chetlashuvi ***magnit anomaliyasi*** deyiladi. Uning sababi yer po'sti kesmasida tog' jinslari tarkibining o'zgarishidir.

Magnit anomaliyalar turli qalinliklari bilan va har xil chuqurliklarda joylashgan notekis magnitlangan tog' jinslari tomonidan vujudga keltiriladi. Shuning uchun ham kvadrat kilometrning ulushlaridan (mahalliy anomaliyalar) ko'plab kvadrat kilometrlarni (mintaqaviy anomaliyalar) egallagan maydonlarda kuzatiladi. Magnit maydonining kuchlanganligi bo'yicha anomaliyalar ba'zan normal maydonlardan bir necha baravar yuqori

bo'ladi. Masalan, Kursk magnit anomaliyasi (KMA) normal maydondan to'rt marta ortiq.

Geomagnit maydon yer po'stini tashkil qiluvchi tog' jinslariga ta'sir qiladi. Barcha moddalar ularga magnit maydonining ta'siri bo'yicha ferromagnitlarga, paramagnitlarga va diamagnitlarga bo'linadi. Faqat ferromagnitlarga magnit maydon ta'sirida sezilarli darajada magnitlanadi va o'zlarini ham magnitga aylanadi.

Ferromagnitlar tashqi magnit maydon ta'siridan chiqqandan so'ng ham o'zlarida qisman magnit xossalarni saqlab qoladi. Bu hodisa **qoldiq magnitlanish** deyiladi. Agar u keyingi davrlarda tog' jinslari Kyuri nuqtasidan (modda to'liq magnitsizlanish harorati) ortiqcha qizdirilmasa hamda agar birlamchi magnitli minerallar ikkilamchi nomagnit mimerallar bilan o'rinn al mashmagan bo'lsa, saqlanib qoladi. Kyuri nuqtasining qiymati turli minerallarda bir-biridan farq qiladi va u 450 dan 700°C gacha o'zgaradi.

Tog' jinslari turli minerallar, jumladan ferromagnitlardan tarkib topgan bo'ladi. Bunday minerallarga magnetit, gemitit, ilmenit, titanomagnetit, pirrotin va boshqa ba'zi minerallar kiradi. Ushbu minerallarga ega bo'lgan tog' jinslari birlamchi qoldiq magnitlanishga ega bo'ladi.

Yerning magnit maydoni geofizika, atmosfera fizikasi, astrofizika va boshqalar singari ko'pchilik fanlarning o'r ganish obyekti hisoblanadi.

Geologiya va geofizikada geomagnit maydonidan yer po'stining muayyan maydonlarining geologik tuzilishini (magnitometrik surʼga olishning turli xillari), chuqurlik geologik tuzilishni (magnitolurik zondlash), yondosh jinslardan o'zining magnit xossalari bilan katta farq qiluvchi foydali qazilma konlarini qidirishda foydalani ladi.

## 2.5. Yer po'stining kimyo viy tarkibi

Yerning ustki tosh qobig'i - yer po'sti - tarkibi va kelib chiqishi turlicha bo'lgan tog' jinslaridan tuzilgan. Har qanday tog' jinsi muayyan minerallarning majmuasidan tarkib topgan bo'ladi, mimerallar esa o'z navbatida kimyo viy elementlar yoki ularning tabiiy birikmalaridan iborat.

Shunday qilib, Yer moddasi tashkil topishining murakkablanish tartibida qaralsa quyidagi toifalar qatoridan iborat bo'ladi: kimyoviy element - mineral - tog' jinsi. Quyida aynan shu tartibda yerning moddiy tarkibi ko'rib chiqiladi.

Yer po'stining kimyoviy tarkibi to'g'risidagi ko'proq ishonchli ma'lumotlar bevosita o'rganish mumkin bo'lgan uning ustki qismiga (16-20 km chuqurlikkacha) taalluqli. Yer po'stining kimyoviy tarkibi, uning makon va zamonda o'zgarish qonuniyatlari masalalari bilan hali nisbatan yosh bo'lgan geokimyo fani shug'ullanadi.

Hozirgi zamon geokimyosining ma'lumotlariga ko'ra yer po'stida 93 ta kimyoviy element aniqlangan. Ularning ko'pchiligi turli izotoplarning aralashmasidan iborat. Faqatgina 22 ta kimyoviy element (masalan, natriy, marganets, ftor, fosfor, oltin) izotoplariga egamas va shuning uchun oddiy elementlar deyiladi.

Yer po'stida kimyoviy elementlar juda notekis taqsimlangan.

Kimyoviy elementlarning tarqalishi bo'yicha olib borilgan dastlabki ko'lamli tadqiqotlar amerikalik geoximik F.Klark tomonidan o'tkazilgan. Turli tog' jinslarining 6000 ta kimyoviy tahlilini matematik yo'l bilan qayta ishlab chiqib F. Klark Yer po'stida 50 ta eng keng tarqalgan kimyoviy elementlarning o'rtacha miqdorini aniqlab chiqqan. Ilk bor 1889-yilda chop etilgan F. Klark ma'lumotlariga keymchalik olimlar tomonidan aniqlik kiritilgan. 2.1-jadvalda turli tadqiqotchilar bo'yicha yer po'stida eng keng tarqalgan elementlarning klarki ko'rsatilgan.

### **Yer po'stida eng keng tarqalgan elementlarning og'irlilik klarki**

2.1-jadval.

Ele- mentlar	F.Klark bo'yicha (1924)	A.P.Vinogra- dov bo'yicha (1962)	V.Meyson bo'yicha (1971)	A.A.Yaroshev- skiy bo'yicha (1988)
0	49,52	49,13	46,60	47,90
Si	25,75	26,00	27,72	29,50
Al	7,51	7,45	8,13	8,14
Fe	4,70	4,20	5,00	4,37
Mg	1,94	2,35	2,09	1,79
Ca	3,29	3,25	3,63	2,71

Na	2,64	2,40	2,83	2,01
K	2,40	2,35	2,59	2,40
H	0,88	0,15	-	0,16
Ti	-	0,61	-	0,52
C	-	0,36	-	0,27
S		-	-	0,10
Mn		-	-	0,12


Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yer po'stining 98 % dan ortiqrog'i ini tashkil etuvchi bosh elementlari bo'lib O, Si, Al, Fe, Ca, Na, K, Mg hisoblanadi. Ularning orasida birinchi o'rinni kislorod egallaydi va uning hissasi yer po'sti massasining deyarli yarmiga teng keladi va hajmining 92 % ga yaqinini tashkil etadi.

Kimyoviy elementlarning tarqalish darajasi davriy sistemada tutgan o'rni bilan bog'liq. O'z vaqtida D. I. Mendeleyev ta'kidlaganidek, yer po'stida eng keng tarqalgan elementlar davriy sistemaning boshlanishida joylashgan. Unda tartib raqamining soni oshib borishi bilan elementlarning tarqalishi notejis kamayib boradi.

Masalan, dastlabki 30 elementlarning klarki kamdan-kam hollarda foizning yuzdan biridan kam bo'ladi va odatda foizning o'ndan bir ulushlari yoki butun foizlar bilan ifodalangan. Qolgan elementlarda kamdan-kam hollarda foyizning mingdan bir ulushigacha ko'tariluvchi kichik klarklar ustuvorlik qiladi.

Shunday qilib, yer po'stida yengil elementlar ustuvorlikka ega va u og'ir metallar bilan boyigan boshqa ichki geosferalardan farq qiladi (2.13).

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, kimyoviy elementlarning tarqalishi to'g'risidagi bizning tasavvurimiz har doim ham ularning haqiqiy klarkiga to'g'ri kelavermaydi. Masalan, mis, rux, qo'rg'oshin kabi odatdag'i elementlar kam hisoblanuvchi sirkoniylar va vanadiydan klarki bir necha marta kam. Bunday nomuvofiqlikning sababi yer po'stida kimyoviy elementlarning yuqori konsentratsiya – kon hosil qilishidagi turlicha xossasidadir.



**2.13-rasm Yer qa'ridagi kimyoiy elementlarning tarqalishi.**  
*(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Yer po'stining kimyoiy tarkibi geologik vaqt davomida o'zgarib borgan va u hozirgacha davom etmoqda. Kimyoiy tarkibining o'zgarishidagi asosiy sabab bo'lib quyidagilar sanaladi:

- muayyan elementlarning radioaktiv parchalanish jarayonlarida o'z-o'zidan yer po'sti sharoitlarida bardoshliroq bo'lgan boshqa elementlarga aylanishi;
- bir geosferadan boshqa geosferaga kimyoiy elementlarning migratsiyasiga olib keluvchi yer moddalarining davom etayotgan differensiatsiya jarayonlari.

Yer po'sti kimyoiy elementlarning atomlari bir-biri bilan turli kimyoiy birikmalar hosil qiladi. Ularning yer po'stida uchrash shakllari yetarli darajada xilma-xil, ammo kimyoiy elementlar asosan mineral shaklda mavjud. Bunda ba'zilari mustaqil mineral turlarni tashkil qiladi, boshqalari esa boshqa minerallarning kristall panjarasiga qo'shimcha tariqasida kiradi.

### O'tilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar

1. Yer to'g'risida qadimda qanday fikrlar mavjud bo'lgan?
2. Yerning shakli to'g'risida fikrlar qanday rivojlangan?

3. Yerning qutbiy radiusi bilan ekvatorial radiusi orsida qanday farq bor?
4. Yerning tashqi qobiqlariga tavsif bering.
5. Yerning asosiy xususiyatlari nimalar kiradi?
6. Yerning zichligi yer po'sti, mantiya va yadrosida qanday qiymatlarga ega?
7. Yerning ichki tuzilishi qanday usullar yordamida aniqlanadi?
8. Konvektiv oqimlar qanday vujudga keladi?
9. Apvelling va daunveling orasida qanday munosabat bor?
10. Yerning markazi tomon haroratning ortib borishiga sabab nima?
11. Yerning ichki issiqlik manbai nimalardan iborat?
12. Yer magnetizmi qanday xususiyatlarga ega?
13. Yer po'stining asosiy kimyoviy xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
14. Klark tushunchasini izohlab bering.

## **MINERALLAR OLAMIDA**

### **3-bob. MINERALLAR HAQIDA TUSHUNCHА, ULARNING TASNIFI. KRISTALLAR HAQIDA TUSHUNCHА**

#### **REJA**

- 1. Minerallar haqida umumiylumotlar.**
- 2. Minerallarning tasnifi.**
- 3. Silikatli va alumosilikatli minerallar.**
- 4. Oksidlar va gidrooksidlar.**
- 5. Sulfidli va sulfatli minerallar.**
- 6. Karbonatli minerallar.**
- 7. Galogen va sof minerallar.**
- 8. Kristall moddalar haqida qisqacha umumiylumotlar.**
- 9. Minerallarning tabiiy xossalari.**

#### **Kalit so'zlar:**

singoniya, mineral, kristall, amorf, morfologiya, kristall panjara, kristallarning tomoni, qirrasi va uchi, kubik, tetragonal, geksagonal, trigonal, rombik, monoklin, triklin, izomorfizm, polimorfizm, psevdomorfoza, irizatsiya, mo'rtlik.

#### **3.1. Minerallar haqida umumiylumotlar**

Mineral (lotinchadan minera-ma'dan) – yer qa'rida va yuzasida tabiiy jarayonlar tufayli kimyoviy elementlarning birikishidan vujudga keluvchi, kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xossalari bo'yicha o'ziga xos bo'lgan tabiiy jismidir.<sup>6</sup><sup>7</sup>

Minerallar quyidagi xarakteristikalarga ega:

1. Tabiiy hosil bo'lishi.
2. Qattiq jism.
3. Tartibli kristall strukturali.
4. Asosan noorganik.
5. Kimyoviy formula orqali ifoda etilishi.

<sup>6</sup>Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 38 39

<sup>7</sup>Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 46


Minerallar aksariyat hollarda kristalli va amortli qattiq jismlar hisoblanadi.

Tabiatda 3 mingdan ortiq minerallar topilgan, ammo ularning oz qismigina yirik to'plamlar hosil qiladi; bunday minerallar **jins hosil qiluvchi** deyiladi.

Jins hosil qiluvchi minerallar yer po'stida eng keng tarqalgan, tog' jinslarining doimiy asosiy tarkibiy qismlari hisoblanuvchi tabiiy birikmalardir. Tog' jinslarining har bir genetik guruhiga o'zining jins hosil qiluvchi minerallari xos bo'ladi.

### 3.2. Minerallarning tasnifi

Minerallarning zamonaviy **tasnifi** asosiga kimyoiy tarkibi va kristall strukturasini ko'zda tutuvchi kristallokimyoiy tamoyil olingan. Tasnifning bunday birligi bo'lib **mineral turi** sanaladi. Tarkibi va strukturasi bo'yicha o'xshash mineral turlar **guruhlarga, kichik sinflarga va sinflarga** birlashadi. Eng yirik sistematik tabaqa bo'lib **turkum** sanaladi.



3.1-rasm. Kremnekislородli tetraedr  $[SiO_4]^4-$ . Tetraedr markazida kremniy ioni, uchlarida esa kislород ionlari joylashgan.

Biz ushbu darslikda sakkiz sinf vakillaridan asosiyalarini ko'rib chiqamiz. Bular – silikatlar va alumosilikatlar, oksidlar va gidroksidlar, sulfidlar, sulfatlar, karbonatlar, galogenidlari, fosfatlar va sof elementlardir. Odatda, ularidan eng ko'p uchraydiganlari jins hosil qiluvchi minerallar hisoblanadi.

Yer po'sti og'irligining 70 foizidan ortig'ini ikki element –


kislород va kremniy tashkil etadi. Kremniy tabiiy birikmalarda kislорodning to'rtta atomi bilan bog'langan ( $SiO_4$ ) bo'lib, bu kremnekislородli tetraedr deyiladi (3.1-rasm). Kislород boshqa strukturaviy turlarni ham hosil qiladi, ammo uning kremnekislородli tetraedrlarda qatnashishi juda muhim hisoblanadi.

Kremnekislородli tetraedrlar eng muhim jins hosil qiluvchi silikatlar va alumosilikatlar guruhidagi minerallar strukturasimng

asosini tashkil etadi. Kremnekislorodli tetraedrlarning o'zaro bog'-lanish tartibiga muvofiq silikatlar va alumosilikatlar orasida orollilari, halqlari, zanjirli, tasmali, varaqli va karkasli silikatlar ajratiladi.<sup>8</sup>

Strukturasida kremnekislorodli tetraedrlar bir-biridan ajralgan silikatlar *orollilari* yoki *ortosilikatlar* deyiladi. Strukturasida kremnekislorodli tetraedrlar halqa hosil qiluvchi silikatlar *halqlari*, zanjir hosil qiluvchilari esa *zanjirli silikatlar* deyiladi (3.2-rasm).

**Tasmali silikatlar** strukturasida tetraedrlar ikkalangan



3.2-rasm. Orolli, halqali va zanjirli silikatlarning tuzilishi.


Slyudalar esa varaqli silikatlar guruhimi tashkil etadi. Biotitning formulasi:  $K(Mg, Fe)_3[AlSi_3O_{10}](OH, Cl, F)_2$ , esa:  $KAl_2[AlSi_3O_{10}][OH]_2$ .

Tarkibida temir bo'lganligi uchun biotit qora rangga ega, temirsiz muskovit esa kumush rangli. Talk va serpentin magnezial varaqli silikatlarga kiradi. Talkning formulasi:  $Mg_3[Si_4O_{10}](OH)_2$ , serpentinniki esa:  $Mg_6[Si_4O_{10}](OH)_8$ .

Xlorit ham ancha miqdorda temir va magniya ega bo'lgan varaqli silikatdir. Uning formulasi  $(Mg, Fe)_3(Si, Al)_4O_{10}(OH)_2(Mg, Fe)_3(OH)_6$ . Gil minerallari ham varaqli silikatlarga kiradi. Varaqli silikatlar strukturasida har bir kremnekislorodli tetraedr boshqa shunday

zanjirlarni - tasmalarni hosil qiladi (3.3-rasm). Kremnekislorodli tetraedrlar cheksiz yassi to'rlarni hosil qilishi mumkin. Bunday silikatlar varaqli silikatlar deyiladi.

**Varaqli silikatlar** guruhidagi mimerallar strukturasida tetraedrlarning cheksiz yassi to'rlari qatnashadi (3.4-rasm). Biotit va muskovit slyudalar guruhiga kiradi.




3.3-rasm. Tasmali silikatlarning ikkilangan zanjiri.

<sup>8</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012 p 49-52.  
Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007 p 53, 54.

tetraedrlar bilan bog'lanib, cheksiz yassi strukturani hosil qiladi (3.4-rasm). Muskovit strukturasi bitta tetraedrlar qatlani va uni har ikki tomonidan o'rab turuvchi oktaedrlar qatlamlaridan iborat.

Ular orasida kovalent bog'lanish mavjud. 1 oktaedrlar va 2 ta



tetraedrlar qatlamlaridan tashkil topgan paketlar o'zaro musbat zaryadlangan  $K^+$  ionlari bilan bog'langan. Bu bog'lanish ionli strukturadagi eng kuchsiz aloqa hisoblanadi. Shuning uchun ham deformatsiya vaqtida slyudalarning kristallari pichoq yoki tinoqlar yordamida oson varaq-chalarga ajraladi.

### *3.4-rasm. Varaqli silikatlarning tuzilishi*

boshqa tetraedrlar bilan bog'langan. Natijada kremnekislorodli tetraedrlar cheksiz uch o'lchamli karkas hosil qiladi.

**Orolli silikatlarga** hir qancha minerallar va mineral guruhlar kiradi. Ularning strukturasida kremnekislorodli tetraedrlar bir-biridan ajralgan. Granatlar va sirkon orolliy silikatlarga kiradi. Olivin va kainit ham orolliy silikatlarga mansub. Olivinning formulasasi  $(Mg,Fe)_2SiO_4$ , kainitniki esa  $Al_2SiO_5$ . (3.5-rasm).

Minerallarning boshqa muhim sinflariga oksidlar, karbonatlar, sulfidlar, sulfatlar, fosfatlar va sof minerallar kiradi. Ularning strukturasi, silikatlarnikidan farqli o'laroq, atomlarning o'zgacha birikishi asosida tuzilgan. Karbonat-ion  $[(CO_3)^{2-}]$  karbonatlar guruhidagi struktura asosi hisoblanadi.

Kalsit yer po'stida keng tarqalgan karbonatli mineral. Rodoxrozit ( $MnCO_3$ ) tabiatda juda kam uchraydi. Qizg'ish rangi ko'pchilik marganets minerallariga xos.

Oksidlar guruhidagi minerallar kislород bilan bog'langan bir yoki bir qancha metallar ionlarining birikmasidan iborat. Korund ( $Al_2O_3$ ), shpinel, rutil va magnetit shunday oksidli minerallardir. Korund va shpinelning toza shaffof kristallari qimmatbaho toshlar hisoblanadi. Magnetit va rutildan temir va titan olinadi.

Sulfidlar oltingugurt bilan bog'langan metal ionlaridan tarkib topgan. Sulfidlar guruhidagi minerallar sanoat uchun juda muhim hisoblanadi.

Sulfatlar strukturasining asosi sulfat-ion ( $\text{SO}_4^{2-}$ ) hisoblanadi.

Mineral nomi	Ulanishi	Silikat strukturi	Namona
Olivin guruxi (Mg, Fe) $\text{SiO}_4$	Yaq	Orolli	
Pirokselin guruxi (Mg, Fe) $\text{SiO}_4$	2 ta 90	Zanjirli	
Amfisbollar guruxi $\text{Ca}(\text{Mg/Fe})\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_10(\text{OH})_2$	2 ta 60 va 120 °	Tasmani	
Biotit $\text{K}(\text{Mg/Fe})\text{AlSi}_3\text{O}_10(\text{OH})_2$	Bita	Vuraqli	
Meskovit $\text{KAlSi}_3\text{O}_10(\text{OH})_2$		Kartashi	
Kalsifikli dala shartari Ortaklaz $\text{KAIS}_3\text{O}_10$	2 ta 90		
Plagioeklogit $(\text{CaNa})\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_10$			
Kvars $\text{SiO}_4$	Yaq		

3.5 rasm. Silikatli minerallarning tuzilishi.

(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

Fosfatlar strukturasining asosini fosfat-ion ( $\text{PO}_4^{3-}$ ) tashkil etadi. Ularning orasida apatit  $[\text{Ca}_5(\text{PO}_4)_3]$  keng tarqalgan mineral hisoblanadi. Odamning va ko'pchilik hayvonlarning tishlari apatiting mikroskopik kristallaridan tarkib topgan. Firuza ( $\text{CuAl}_6[\text{PO}_4]_4[\text{OH}]_8\text{H}_2\text{O}$ ) fosfatlar guruhidagi siyrak uchraydigan mineral.

Minerallar ulanishi, qattiqligi, rangi, chizig'inining rangi, shakli, magnitiligi, eruvchanligi va zichligi bo'yicha aniqlanadi.

Minerallarning tabiiy xossalari ularning kimyoviy tarkibi va minerallar strukturasidagi kimyoviy bog'lanishning turi bilan belgilanadi.

### 3.3. Silikatli va alyumosilikatli minerallar

Silikatlar sinfiga litosferani tashkil etuvchi va son jihatdan eng ko‘p bo‘lgan minerallar kiradi. Ularning umumiyligi soni 800 taga yaqin bo‘lib, yer po‘sti massasining 90 % ga yaqinini tashkil etadi. Silikatlar ko‘pchilik tog‘ jinslari, ayniqsa magmatik va metamorfik jinslarni hosil qiluvchi asosiy minerallar hisoblanadi.

Silikatli minerallar orasida eng ko‘p tarqalganlari avgit, aktinolit, andaluzit, berill, bronzit, vezuvian, vollastonit, gedenbergit, gipersten, diopsid, dioptaz, jadeit, kaolinit, kianit (disten), kordierit, lazurit, leysit, montmorillonit, nefelin, olivin, pirofillit, dala shpatlari, rogovaya obmanka, rodonit, serpentin, sillimanit, sodalit, spodumen, stavrolit, talk, titanit (sfen), topaz, tremolit, turmalin, xlorit, xrizokolla, seolitlar, sirkon, soizit, egirin va boshqalar hisoblanadi.

Silikatlar tarkibida asosiy elementlardan biri kremniy sanaladi. Silikatlar strukturasida har bir kremniy ioni  $\text{Si}^{4+}$  atrofida kislorodning  $\text{O}^{2-}$  to‘rtta ioni joylashgan bo‘ladi. Bu kremnekislorodli anionli guruhning  $[\text{SiO}_4]^{4-}$  fazoviy joylashishi markazida  $\text{Si}^{4+}$ , uchlarida esa  $\text{O}^{2-}$  joylashgan tetraedr deb faraz qilinishi mumkin.

Aynan shu kremnekislorodli tetraedr barcha silikatlar strukturasini uchun asos sanaladi. Kremnekislorodli tetraedrlar silikatlar strukturasida bir-biridan alohida joylashgan yoki kislorodning umumiyligi ioni orqali bir-biri bilan uchlari orqali tutashgan bo‘lishi mumkin. Shu tariqa oddiy va ancha murakkab bo‘lgan karkasli, orollli, zanjirli va varaqli strukturalar vujudga keladi.

**Karkas strukturali alumosilikatlar**  $[\text{Si}_3\text{Al}_10_8]$  yoki  $[\text{Si}_2\text{Al}_2\text{O}_8]$  turdagagi murakkab umumiyligi radikalga ega bo‘lgan alyumo - va kremnekislorodli tetraedrlarning uch o‘lchamli uzluksiz karkasidan iborat bo‘ladi. Tetraedrlardagi kislorodning barcha atomlari umumiyligi bo‘lgan karkas strukturasini asos hisoblanadi va karkas faqat kremnekislorodli tetraedrlardan tuzilgan holda u kvars karkasi sifatida neytral bo‘ladi. Alumosilikatlarda karkas strukturalarining borligi va turli-tumanligi ularda alumokislorodli tetraedrlarning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ortiqcha manfiy zaryad turli kationlar bilan **kompensatsiyalangan** bo‘ladi.

Tashqi sharoitlarda beqaror bo‘lgan karkasli alumosilikatlar parchalanadi, gidratatsiyalanadi va natijada slyudalar, gidroslyudalar

va gilli minerallar vujudga keladi. Ular tarkibi bo'yicha uch guruhga: dala shpatlari, feldshpatidlar va seolitlarga bo'linishi mu'mkin (3.5-rasm).

Dala shpatlari eng ko'p tarqalgan jins hosil qiluvchi minerallar hisoblanadi. Ular Yer po'sti massasming 50 % dan ortiqrog'i ini tashkil etadi. Dala shpatlari ko'pchilik magmatik va metamorfik jinslarning asosiy tarkibiy qismidir. Dala shpatlari keng izomorf qatorlarni:  $\text{Na}[\text{AlSi}_3\text{O}_8]$  -  $\text{K}[\text{AlSi}_3\text{O}_8]$  -  $\text{Ca}[\text{Al}_2\text{Si}_3\text{O}_8]$  hosil qiladi, odatda tarkibida  $\text{Sr}^{2+}$ ,  $\text{Ba}^{2+}$  ga ega bo'ladi. Tarkibi bo'yicha dala shpatlari ikkita katta guruhga: *kaliy-natriyli dala shpatlari (KDSH)* yoki oddiy *kaliyli dala shpatlari*, va *natriy-kalsiyli dala shpatlari* yoki *plagioklazlarga* bo'linadi.

Barcha dala shpatlarining xossalari o'zaro juda yaqin. Ular yaxshi shakllangan prizmasimon kristallar sifatida turli donali kristalli agregatlarni tasbkil etadi. Ko'pchiligining rangi oq. Dala shpatlari ikki yo'nalishda, biri inukammal va ikkinchisi o'rtacha ulanishga ega. Qattiqligi 5-6 orasida o'zgaradi.

Kaliyli dala shpatlari K-Na izomorf seriyadagi dala shpatlarining sezilarli darajada tarqalgan vakillari hisoblanadi. Ularning tarkibini umumiy shaklda  $(\text{K}, \text{Na})[\text{AlSi}_3\text{O}_8]$  orqali ifodalash mumkin.

**Kelib chiqishi** – nordon va ishqorli magmatik jinslarda, ularning pegmatitlarida jins hosil qiluvchi mineral hisoblanadi. Metamorfik jinslar gneysslar va kristalli slanetslar tarkibiga kiradi.

**Qo'llanilishi** – keramika buyumlari ishlab chiqarish uchun xom ashyo; amazonitdan bezaktosh sifatida foydalilanildi.

**Plagioklazlar** – albitdan ( $\text{NaAlSi}_3\text{O}_8$ ) anortitgacha ( $\text{CaAl}_2\text{Si}_2\text{O}_8$ ) o'zgaruvchi tarkibli alumosilikatli minerallar. Nomi yunoncha plagiос - qiyshiq va klasis - yoriq so'zlaridan kelib chiqqan, ya'ni «qiyshiq parchalanuvchi» ma'nosini anglatadi. Ulanish tekisliklari orasidagi burchak to'g'ri burchakdan kichik ( $86^\circ$  ga yaqin). Kaliyli dala shpatlaridan tarkibida kaliyning deyarli bo'lmasligi bilan farq qiladi. Plagioklazlar orasida albit, oligoklaz, andezin, labrador, bitovnit, anortitdan iborat oltita mineral ajratiladi. Bu qatorda albitli komponentlarning ( $\text{NaAlSi}_3\text{O}_8$ ) kamayib va anortitli komponentlarning ( $\text{CaAl}_2\text{Si}_2\text{O}_8$ ) ortib borishi kuzatiladi (3.1-jadval).

## Plagioklazlarning izomorf qatori

3. 1-jadval

Mineral	Tarkibi	Anortit molekulasining chegaraviy miqdori, %
<b>Albit</b>	Na[Al Si <sub>3</sub> O <sub>8</sub> ]	0-10
<b>Oligoklaz</b>		10-30
<b>Andezim</b>		30-50
<b>Labrador</b>		50-70
<b>Bitovnit</b>		70-90
<b>Anortit</b>	Ca[Al <sub>2</sub> Si <sub>2</sub> O <sub>8</sub> ]	90-100

**Kelib chiqishi** – magmatik va metamorfik tog' jinslari, pegmatitlar, gidrotermal va sochilma konlarda kuzatiladi.

**Qo'llanilishi** – qurilish va bezak toshlar sifatida foydalaniladi. Dekorativ plagioklazlar, ayniqsa labrador va oligoklaz ziynat toshlar sifatida ishlatalishi mumkin.

**Feldshpatoidlar** (nemischa Feldshpat - dala shpati va yunoncha oid - o'xshash) – tarkibi bo'yicha dala shpatlariga yaqin bo'lgan karkasli alumosilikatlardir. Ular dala shpatlaridan kremnezyom miqdorining pastroqligi va ishqorlar miqdorining ko'proqligi bilan farq qiladi.

**Kelib chiqishi.** Feldshpatoidlar yuqori ishqorli magmatik jinslarda dala shpatlari bilan birgalikda kristallanadi. Bundan tashqari, ular metasomatik o'zgarishlarda va mintaqaviy metamorfizm jarayonlari tufayli hosil bo'lishi mumkin. Gidrotermal eritmalar ta'sirida feldshpatoidlar parchalanib slyudalar va gilli minerallar hosil bo'ladi. Yer yuzasi sharoitlarda ularning parchalanishi tufayli kaolinit hosil bo'ladi.

**Qo'llanilishi** – alyuminiy ajratib olishda, soda tayyorlashda, yuqori sifatlari sement ishlab chiqarishda kompleks xom-ashyo sanaladi. Ulardan yo'l-yo'lakay nodir ishqorli metallar va galliy ajratib olinishi mumkin.

**Orolli silikatlar. Granatlar.** Granatlarga tarkibi murakkab bo'lgan orollli silikatlar kiradi. Ularning umumiyligi tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin  $A_3B_2[SiO_4]_3$ , bunda  $A^{2+} = Mg, Fe, Ca, Mn$ ;  $B^{3+} = Al, Fe, Cr, Ti, Zr, V$ . Nomi lotincha granatus so'zidan kelib

chiqqan bo'lib, bu minerallarning kristallari anor mevasi donalarini eslatadi. Tarkibi va rangi bo'yicha granatlarning bir necha xillari ajratiladi: grossulyar (lotincha Grassularia - krijevnik), andradit (portugal mineralogi d' Andrad sharafiga), almandin (Kichik Osiyodagi Alabanda aholi manzili bo'yicha), spessartin (Bavariyadagi Spessart aholi manzili bo'yicha), pirop (yunoncha pyropos - olovsimon), uvarovit (graf S. S. Uvarov sharafiga) va b. Granatlar uzlusiz izomorf qatorlarni hosil qiladi, masalan, pirop - almandin -  $Mg_3Al_2[SiO_4]_3$  -  $Fe_3Al_2[SiO_4]_3$  yoki grossulyar - andradit  $Ca_3Al_2[SiO_4]_3$ -  $Ca_3Fe_2[SiO_4]_3$ .

**Kelib chiqishi:** asosan metamorfik, mintaqaviy metamorfizm jarayonlari tufayli vujudga keladi. Kristalli slanetslarda, gneyslarda, migmatitlarda, eklogitlarda hamda kontakt metamorfizmi mahsulotlari skarnlarda uchraydi. Ba'zi granatlar (pirop) magmatik kelib chiqishga ega. Ular portlash trubkalaridagi kimberlitlarda hamda pegmatitlarda uchraydi. Granatlar sochilmalarda to'planishi mumkin.

**Qo'llanilishi** - asosan zargarlikda; yog'ochlarni va qattiq jinslarni silliqlash uchun abraziv material sifatida foydalaniлади.

**Varaqli silikatlar va alumosilikatlar.** Varaqli silikatlarga strukturasida kremnekislorodli tetraedrlar ikki qatlamlı (kaolinit, serpentin), uch qatlamlı (gidroslyuda, montmorillonit, talk) yoki to'rt qatlamlı (xloritlar) paketlarni hosil qiluvchi minerallar kiradi. Ular gidroksil guruhi, qo'shimcha anionlar va suvgaga ega. Paketlar orasidagi suv miqdori keng miqyosda o'zgarishi mumkin. Bu ba'zi qatlamlı silikatlarning suvda ko'pchishiga olib keladi.

Varaqli silikatlar va alumosilikatlar kremnekislorodli  $[Si_4O_{10}]^4$  yoki alumokislorodli  $[(Si, Al)_4O_{10}]$  qatlamlardan tashkil topgan bo'lib, ulardagi tetraedrlar uchta umumiy uch bilan bog'langan.

Varaqli silikatlar uchun  $Si^{4+}$  ning  $Al^{3+}$  ga keng izomorf o'rinni almashishi, ortiqcha manfiy zaryadlar paketlar orasida suv molekulalari bilan birgalikda joylashgan  $Ca^{2+}$ ,  $Na^+$ ,  $K^+$  bilan kompensatsiyalashuvi xarakterli. Varaqli silikatlarda asosiy kationlar bo'lib  $Mg$ ,  $Al$ ,  $Fe$ ,  $Ca$ ,  $Ni$  hamda  $K$  va  $Na$  hisoblanadi. Ular uchun umumiy radikal  $[Si_4O_{10}]^4$  yoki  $[(Si, Al)_4O_{10}]$  kabi ifodalanishi mumkin.

Varaqli strukturalarga minerallarning tabletkasimon kristallari, tangachasimon agregatlari, ba'zan yashirin kristalli shakli xarakterli Varaqli silikatlar, ayniqsa mayda tangachali agregatlarda biri ikkinchisidan qiyin farqlanadi. Bu minerallar uchun ularning mukammal va juda mukammal ulanishi xarakterli bo'ladi. Ularning qattiqligi, odatda, yuqori emas.

Varaqli silikatlar guruhiga qatlamlı, varaqli yoki tangachali tuzilishga ega bo'lgan ko'plab minerallar kiradi. Tog' jinslarida eng ko'p tarqalganlari slyudalar (ayniqsa biotit va muskovit), gidroslyudalar, xususan vermiculit hamda talk, asbestos, kaolinit, montmorillonitdir.

Slyudalar alumosilikatlar guruhiga kiradi va jins hosil qiluvchi komponentlar sifatida magmatik va ba'zi metamorfik jinslar tarkibiga kiradi. Slyudalarning tabiiy xossalari bir-biriga yaqin: ular juda yupqa, egiluvchi va tarang plastmikalarga juda oson parchalanadi.

Gilli minerallar guruhi kremnekislorodli tetraedrlar va alyumokislorodli oktaedrlardan iborat bo'lgan varaqli silikatlar tarkibiga kiradi. Tabiatda gil minerallari orasida kaolinit, gidroslyuda, montmorillonit keng tarqalgan.

**Kelib chiqishi.** Varaqli silikatlar turli yo'llar bilan hosil bo'ladi. Ularning asosiy massasi oroll, zanjirli, tasmali hamda karkasli silikatlarning gidroliz mahsulotlari sanaladi. Bular hidrotermal o'zgargan jinslar va tashqi jarayonlarning mineralaridir. Ular kontakt-metamorfik (skamlar) va metamorfik jarayonlarda (slanetslar, gneysslar) ham vujudga keladi.

Magmatik yo'l bilan ham hosil bo'lgan varaqli silikatlar granitlarda, granitli va ishqorli pegmatitlarda keng tarqalgan. Metamorfik genezisdagilari esa turli slanetslar, gneysslar va rogoviklarni tashkil etadi.

**Qo'llanilishi.** Biotit rubidiy va seziy ajratib olishda ishlataladi. Muskovitning dielektrik xossalari tufayli elektronika sanoatida, radiotexnikada, asbobsozlikda; issiqbardosh material sifatida, moylovchi materiallar va avtomobil shinalari ishlab chiqarish uchun foydalananadi. Geologiya fanida kaliy-argon va rubidiy-stronsiy usullari bilan tog' jinslarining mutlaq yoshim aniqlashda foydalananadi. Muskovitning yirik shaffof varaqlari azaldan derazalarni oynalashda ishlatilgan.

**Zanjirli silikatlar.** Bunday minerallar ko'p marta takrorlanuvchi, bir-birlari bilan uzlusiz zanjirlar yoki tasmalar shaklida tutashgan tetraedrlardan tarkib topgan bo'lib, ularning orasida: a)  $[Si_2O_6]^4$  radikalli zanjirli silikatlar; b)  $[Si_4O_{10}]^6$  radikalli tasmasimon silikatlar ajratiladi. Ba'zi tasmalari silikatlarda  $Si^{4+}$   $Al^{3+}$  bilan o'rinni almashtagan bo'lib, unda alumosilikatli radikallar  $[(Si, Al)_4O_{10}]^6$  hosil bo'lgan turlari ajratiladi.

**Piroksenlar guruhi** minerallar eng keng tarqalgan zanjirli silikatlar hisoblanadi. Piroksenlar odatda qisqa prizmatik kristallarm hosil qiladi.

Minerallar strukturasida kompensatsiyalanmagan elektr zaryadi bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham tetraedrlarning zanjirlari va tasmalari qatorida mineral strukturasiga boshqa kationlar ham kiradi. Bu kationlar kremnekislorodli tetraedrlarning manfiy zaryadlarini neytrallaydi va mustahkam ion bog'lanish hisobiga kremnekislorodli tetraedrlarni zanjirli yoki tasmalni umumiy strukturaga biriktiradi.

Piroksenlar guruhiga kiruvchi yana bir mineral diopsid hisoblanadi. Uning formulasi  $CaMgSi_2O_6$ . Diopsid strukturasida temir atomi yo'q. Shuning uchun ham u och tusli. Ko'pchilik minerallarning rangi temirning mavjudligi bilan belgilanadi. Temirga boy bo'lgan minerallar qora rangli bo'ladi.

Piroksenlar guruhidagi gedenbergit to'q yashil rangga ega. To'q rang temirming mavjudligi bilan bog'liq  $CaFeSi_2O_6$ .

Zanjirli silikatlarda har bir tetraedr boshqa ikkitasi bilan kislorodning umumiy atomi orqali bog'langan.

**Kelib chiqishi.** Ular asosan olivin va piroksenlarning gidrotermal o'zgarishi tufayli vujudga keladi, o'taasosli jinslarning nurash qobiqlarida hosil bo'lishi mumkin.

**Qo'llanilishi** – issiqlik va kislotabardosh materiallar ishlab chiqarishda; ziynat toshi sifatida foydalaniladi.

Asbestning eng qimmatli navi tolalarining uzunligi 8 mm dan ortiq bo'lganlari sanaladi va u yonmaydigan gazlamalar, avtomobillar uchun tormoz tasmalari, asbestorezinali buyumlar va boshqalar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Asbestotsement buyumlar, issiqlik saqlovchi quvurlar, panellar va h.k. tayyorlashda tolalarining uzunligi 2-8 mm bo'lgan asbest qo'llaniladi. Mayda asbestli tolalar

teplioizolyasiya qoplamlari, olovbardosh bo'yoqlar, shtukaturka eritmalari va boshqalar olishda foydalaniadi. Talk meditsinada (sepki dori, pastalar); kosmetikada (pudralar, pomada, grim); qog'oz, to'qimachilik, rezina sanoatlarida xom ashyo sifatida foydalaniadi. Undan olovbardosh va yorug'likka chidamli bo'yoqlar ishlab chiqariladi.

**Tasmali silikatlar va alyumosilikatlar (amsibollar).** Amfibollar guruhidagi silikatlar tasmali silikatlarga kiradi. Nomi yunoncha **amsibolos** – ikki ma'noli, noaniq so'zidan kelib chiqqan, murakkab o'zgaruvchi tarkibli va boshqa to'q rangli mimerallar, ayniqsa piroksenga o'xshashligi tufayli shunday nomlangan. Amfibol kristallari ko'ndalang kesimda psevdogeeksagonal shakldagi ignasimon ko'rinishga ega. Ba'zan qisqa ustunsimon kristallari uchraydi. Rangi to'q yashildan qoragacha. Amfibollar prizma bo'yicha mukammal ulanishiga ega.

Amfibollarning orasida tremolit va aktinolit keng tarqalgan. Tremolitning formulasi:  $\text{Ca}_2\text{Mg}_5 [\text{Si}_4\text{O}_{11}]_2 [\text{OH}]_2$ , aktinolit unga o'xshagan tarkibga ega:  $\text{Ca} (\text{Mg}, \text{Fe})_5 [\text{Si}_4\text{O}_{11}]_2 [\text{OH}]_2$ , ammo uning strukturasida temir bor va magniyning miqdori birmuncha past. Shuning uchun ham aktinolit tremolitga nisbatan qoramirroq bo'ladi. Kelib chiqishi bo'yicha amfibollar ko'p hollarda magmatik va metamorfik hisoblanadi. Yer po'stida amfibollarning ulushi 8 % ga boradi. Ammo ularning amaliy ahamiyati yuqori emas. Asosan issiq, kislota va ishqorbardosh material sifatida ishlatiladi. Ba'zi xillari (nefrit) bezak toshi sifatida foydalaniadi.

Gil minerallari orasida **poligorskit** tasmali silikatlarga mansub.

**Kelib chiqishi.** Otqindi tog' jinslarida uchraydigan tremolit barcha boshqa amfibollar singari tipik epimagmatik, nisbatan past haroratlari mineral sanaladi. Aktinolit barcha boshqa amfibollar singari nisbatan past haroratlarda barqaror. Ko'p hollarda uncha katta bo'l-magan chuqurliklarda hosil bo'lgan kristalli slanetslarda uchraydi.

**Qo'llanilishi.** Amaliy ahamiyatga egamas.

### 3.4. Oksidlar va gidrooksidlar

Oksidlar va gidrooksidlar sinfiga metallar va yarimmetallarning kislород, gidrooksil guruh yoki suv bilan birikmalaridan shakllangan

minerallar kiradi. Bunday birikmalarni 30 ga yaqin kimyoviy elementlar hosil qilishi mumkin. Ular tabiatda juda keng tarqalgan va litosferaning tuzilishida katta ahamiyatga ega. Oksidlar va gidroksidlar sinfidagi 200 ga yaqin minerallar ma'lum. Ular litosferaning 5 % va yer po'stining 17 % ni tashkil etadi. Kremniy oksidlari  $\text{SiO}_2$  eng keng tarqalgan. Temir oksidlari va gidrooksidlari keyingi o'rnlarda turadi.

Oksidlar va gidroksidlarning tabiatda keng tarqalgan minerallari kvars, anataz, braunit, volframit, gausmanit, gemitit, gibbsit, diaspor, ilmenit, cassiterit, kvars, korund, kuprit, limonit, magnetit, manganit, opal, pirolyuzit, psilomelan, rutil, xrizoberill, xromit, sinkit va boshqalar hisoblanadi.

Ta'riflanayotgan sinfdagi deyarli barcha minerallar kristalli strukturaga ega, ammo amorf birikmalari ham mavjud. Kimyoviy tomondan ko'rilibayotgan minerallar oddiy va murakkab oksidlarga bo'linadi. Oddiy oksidlar uchun izomorfizm kam xarakterli, ulardag'i qo'shimchalar miqdori odatda 1 % dan oshmaydi. Murakkab oksidlarda izomorf o'rinni almashtish ancha keng tarqalgan.

Oksidlar va gidroksidlarning aksariyat qismi yer po'stining eng ustki qismida kechadigan ekzogen jarayonlarda atmosferadagi erkin kislorod ishtirokida hosil bo'ladi. Ammo ular endogen sharoitlarda magmatik, gidrotermal va metamorfik yo'llar orqali ham hosil bo'lishi mumkin, masalan, hidrogyotit va opal singari.

Bu sinfdagi eng ko'p tarqalgan mineral bo'lib kvars sanaladi. Uning kristall panjarasini asosini karkas turkumidagi mustahkam kremnekislorodli tetraedrlar tashkil etadi. Shu xususiyati bo'yicha uni silikatlar guruhiga ham kiritish mumkin.

Kvars ko'pincha yaqqol tomonlarga ega bo'lgan psevdoeksaagonal kristallarni hosil qiladi. Toza kvars rangsiz va shaffof mineral. Bunday kvars *tog' billuri* deyiladi. Kam miqdordagi qo'shimchalar kvarsiga turli ranglar berishi mumkin. Sariq rang (sitrin) ozroq temir qo'shimchasi bilan bog'liq. Ametistning binafsha rangi ham temir qo'shimchasi vujudga keladi. Pushti kvars titan qo'shimchasi ega. Tutunsimon kvarsning qoramtili rangi aluminiy yoki kristalldagi defektli struktura bilan bog'liq. Eng keng tarqalgan kulrang yoki sut rangli kvars flyuid qo'shimchalariga (suyuqlik va gazlar bilan to'lgan bo'shiqlar) ega.

Kvars strukturasida kremnekislordli tetraedrlar mustahkam kovalent bog'lanishga ega va cheksiz uch o'lchamli karkas hosil qiladi. Kvarsning kimyoviy aloqalari barcha yo'nalishlarda bir xil mustahkam. Shuning uchun ham kvarsda ulanish yo'q. Zarba ta'sirida kvars hech bir qonumiysiz turli yo'nalishiarda parchalanib ketadi. Kvarsning sinish yuzasi shishaning sinishini eslatadi. Bunday sinish turi chlg'anoqsimon sinish deyiladi.

Oksidlar va gidrooksidlar orasida temir, marganes va aluminiy birikmalari ko'p uchraydi. Temir birikmalari gemitit, magnetit, gyotit, gidrogyotit, limonit, marganes birikmalari pselomelan, pirolyuzit va manganit, aluminiy birikmalari esa gidraargillit, byomit va diaspor kabi minerallardan iborat.

**Kelib chiqishi.** Temir oksidlari hidrotermal, kontakt-metamorfik, skarnli, metamorfogen va ekzogen yo'llar bilan hosil bo'ladi. Marganes oksidlari cho'kindi konlarda oolitlar va yaxlit yirik massalar shaklida kuzatiladi.

Aluminiy oksidlari alumosilikatlarning parchalanishidan va hidrolizidan, qisman hidrotermal jarayonlarda (nisbatan past haroratlarda) hosil bo'ladi, ammo asosan ekzogen jarayonlarda tropik va subtropik mamlakatlarda tub jinslarning nurashi tufayli vujudga keladi.

**Qo'llanilishi.** Oksidlar va gidrooksidlar qora, rangli va nodir metalli konlarning ma'danlarini tashkil etadi, ko'pchilik nometallli foydali qazilmalarni hosil qiladi hamda qimmatbaho va taqinchoq toshlar sifatida sezilarli rol o'yaydi.

Temir oksidlari muhim temir ma'dani sifatida va bo'yoq tayyorlashda ishlatiladi.

Pirolyuzit-psilomelanli ma'danlar bilan bir qatorda po'lat eritishda ferromarganes va temirning boshqa qotishmalarini olish uchun muhim xom-ashyo hisoblanadi.

Aluminiy oksidlari eng yengil metall – aluminiy eritib olinadigan glinozyomning manbai sanaladi. Bu maqsadlar uchun kremnezyom miqdori 10-5% dan ko'p bo'limgan boksitlardan foydalilanildi. Korund va najdak abraziv material sifatida foydalilanildi. Qimmatbaho xillari zargarlikda, kvant elektronikasida, soatsozlikda va asbobsozlikda foydalilanildi.

### 3.5. Sulfidli va sulfatli minerallar

Sulfidlar sinfiga metallarning olingugurtli birikmalari kiradi va ular alohida amaliy ahamiyatga ega. Aynan ular rangli minerallarning ma'dan hosil qiluvchisi hisoblanadi va ko'p hollarda o'zida oltin tutuvchi sifatida qaraladi.

Sulfidlar shu sinfdagi barcha minerallar uchun xarakterli bo'lgan muayyan tabiiy xossalarga egadir. Ular odatda mayda va yirik kristalli zich yaxlit massalarni hosil qiladi, tomirchalar, uyachalar yoki alohida kristallar shaklida uchrashi mumkin. Odatda chizig'ining rangi qoramtil yoki qora, metallsimon yaltiroq bo'ladi, yuqori elektr o'tkazuvchan. Sulfidlarning asosiy qismi yuqori zichligi ( $8,5 \text{ g/sm}^3$  gacha) bilan xarakterlanadi.

Sulfidlarlar sinfiga antimonit, argentit, arsenopirit, auripigment, bornit, galenit, kinovar, kobaltin, kovellin, markazit, molibdenit, nikelin, pirit, pirrotin, realgar, stannin, sfalerit, xalkozin, xalkopirit va boshqa mmerallar kiradi.

**Kelib chiqishi.** Ko'pchilik sulfidlar gidrotermal genezisiga ega. Ba'zilari bevosita magmadan kristallinishi mumkin. Ularning bir qismi ekzogen jarayonlar tufayli, masalan, ma'danli konlarning oksidlanish zonasida hamda cho'kindi yo'llar bilan vujudga keladi. Gidrotermal yo'l bilan ham hosil bo'ladi. Ularning miqdori ko'p emas, yer po'sti tarkibining 0,15 % yaqinini tashkil etadi, xolos. Eng keng tarqalgan sulfidlar temir (pirit -  $\text{FeS}_2$ ), mis (xalkopirit -  $\text{CuFeS}_2$ ), qo'rg'oshin (galenit -  $\text{PbS}$ ), rux (sfalerit -  $\text{ZnS}$ ) minerallari va boshqalardir.

**Qo'llanilishi.** Sulfat kislota ishlab chiqarishda ishlataladi va metallar ajratib olishda muhim ma'danlar hisoblanadi.

**Sulfatli minerallar.** Sulfatlar guruhidagi minerallar orasida angidrit, anglezit, barit, volframit, gips, molibdenit, selestin, sheelit muhim ahamiyatga ega.

Sulfatlar – sulfat kislota tuzi bo'lib, yer yuzasi sharoitlarida hosil bo'ladi. Bu sinfdagi minerallar orasida yer po'stida yetarli darajada barqaror bo'lganlari kam. Sulfatlarning asosiy strukturasi bo'lib tetraedrik anionli guruh hisoblanadi, turli kationlar, suv molekulasi va boshqalar yordamida bir-biri bilan birikib, turli orolli, karkasli, zanjirli, qatlamlili strukturalarni hosil qiladi. Sulfatlar qattiq

va mustahkam emas, ular mukammal ulanishi, och tusi bilan xarakterlanadi.

Angidrid yaxlit donali massalar holida uchraydi va moviysimon-oq rangga, shishasimon yaltiroqlikka, uncha yuqori bo'lman qattiqlikka (3-3,5), ziblikka (3 ga yaqin), mukammal ulanishga va varaqsimon sinishga ega bo'lgan kristalli mineral sanaladi. Tabiiy sharoitlarda suv yutib, gipsga oson aylanadi va hajmini oshiradi (30% gacha). Shu nomdag'i jinslarda tog' jinsini hosil qiluvchi komponent sanaladi.

**Kelib chiqishi.** Barit gidrotermal konlarda ancha ko'p uchraydi. Cho'kindi jinslarda kamroq miqdorda, asosan konkretsiyalar shaklida tarqalgan. Angidrid va gips evaport havzalarida kimyoviy cho'kish yo'li bilan hosil bo'ladı.

**Amaliy ahamiyati.** Angidrid, gips, barit va mirabilit qurilish maqsadlarida foydalaniadi.

Barit burg'ilashda og'irlashtiruvchi sifatida, pirotehnikada turli tuzlar va preparatlar tayyorlashda, charin sanoatida, shakar ishlab chiqarishda, fotoqog'oz tayyorlashda xom-ashyo sanaladi.


Angidrid va gips qurilish ishlanda biriktiruvchi material (sement), qishloq xo'jaligida o'g'it sifatida isblatiladi.

### 3.6. Karbonatli minerallar

Karbonatlar orasida azurit, ankerit, aragonit, dolomit, kalsit, magnezit, malaxit, rodoxrozit, siderit, smitsonit, serussit keng tarqalgan.

Karbonatlar karbon kislotasining tuzlari hisoblanadi, cho'kindi va metamorfik jinslarda jins hosil qiluvchi mineral sifatida keng tarqalgan. Karbonatlar kristall strukturasining asosi bo'lib yassi kompleks anionlar xizmat qiladi va ular bir-biri bilan bog'lanib zanjirli, qatlamli yoki karkasli strukturalar hosil qilishi mumkin (3.6-rasm).

Ularning kristall panjaralarida mineralning erishi vaqtida ham parchalanmaydigan mustaqil elementlar qatnashadi. Eng ko'p tarqalgani kalsit, magnezit, dolomit, natrit hisoblanadi.



**3.6-rasm. Karbonat-ionning tuzilishi.**  
(*Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.*)

**Kelib chiqishi.** Cho'kindi, biogen va xemogen; gidrotermal - tomirlarda; magmatik - karbonatitlarda va kontakt-metamorfik - skarnlarda hosil bo'ladi. Malaxit oksidlangan mis ma'danlarida eng keng tarqalgan mineral hisoblanadi va faqat mis sulfidi konlarining oksidlanish zonasida, ayniqsa, ohaktoshlarda to'plangan yoki bir-lamchi ma'danlar karbonatlarga boy bo'lgan joylarda uchraydi. Malaxit odatda azurit, kuprit, sof mis bo'yicha psevdomorfoza hosil qiladi.

**Qo'llanilishi** – qurilish toshlari, obak, sement ishlab chiqarishda xom-ashyo; metamorfik o'zgargan ohaktoshlar - marmarlar - juda ajayib qoplama material hisoblanadi; metallurgiya sanoatida flyus sifatida; kimyo sanoatida soda ishlab chiqarishda; island shpati esa optik asboblarda foydalaniadi.

Malaxitning zich oqma turlaridan turli bezak buyumlar tayyorlanadi. Malaxitning mayda burdalaridan yashil bo'yoq ishiab chiqariladi.

### **3.7. Galogen va sof minerallar**


Galogenidlarga galit, karnallit, kriolit, silvin, flyuorit va boshqalar kiradi.

Galogenidlar sinfida galogenvodorodli kislotalar: HF, HCl, HBr tuzi sifatidagi taxminan 100 ta mineral mavjud. Ularning orasida eng

keng tarqalgalnari galit  $\text{NaCl}$ , silvin  $\text{KC1}$  va flyuorit  $\text{CaF}_2$  hisoblanadi (3.7-rasm). Jins hosil qiluvchi minerallar sifatida galogenidlar uncha katta ahamiyatga egamas, ammo ulardan kimyo va oziq-ovqat sanoatida, qishloq xo'jaligida, metallurgiyada (flyuslar) xom-ashyo sifatida keng foydalaniladi.

**Kelib chiqishi** Asosan ko'llar va dengiz lagunalarida cho'kindi xemogen yo'llar bilan hosil bo'ladi. Kamroq shio'rlangan hududlardagi tuproqlarda vujudga kelishi mumkin. Ba'zan vulkan faoliyatida bug'lardan cho'kish tufayli shakllanadi.

**Qo'llanilishi** – oziq-ovqat va kimyo sanoatida hamda natriy metalli va natriy bilan qoplangan qotishmalar olibda foydalaniladi. Tuzli g'orlar va eski tog' lahimlaridan davolash maqsadlarida foydalaniladi.



### 3.7-Galit mineralining tuzilishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)

**Sof minerallar.** Sof elementlar sinfiga kiruvchi minerallar bir xil yoki tuzilishi va xossalari bo'yicha bir-blriga yaqin bo'lgan kimyoviy elementlarning atomlaridan iborat. Hozirgacha tabiatda sof holda uchrovchi minerallarning 30 dan ortiq turi ma'lum. Minerallarni tiosil qiluvchi sof elementlar metallar, polumetallar va metallmaslar bo'lishi mumkin. Sof elementlarga olmos, vismut, grafit, oltin, mis, margimush, platina, oltingugurt va kumush kiradi.

Sof holda uchrashi asl metallar hamda mis uchun xosdir. Meteoritli sof temir va uning nikel va kobalt bilan qotishmasi (temir va temir-toshli meteoritlar) ma'lum. Sof metallar toza holda ancha kam uchraydi. Ularni tabiiyo'llar bilan kelib chiqqan qotishmalar deb qarash mumkin. Metallmas turlari orasida oltingugurt va uglerod ko'p uchraydi. Kam hollarda polumetallar - marginush, surma, vismut kuzatiladi. Sof elementlar uchun polimorfizm xarakterli bo'ladi. Masalan, uglerod grafit va olmos sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Oltingugurt ham ikki modifikatsiyaga ega.

**Kelib chiqishi.** Sof elementlarning kelib chiqishi asosan endogen: magmatik, gidrotermal va metamorfik jarayonlar bilan bog'liq. Sof kumush va mis ba'zan sulfidli konlarning oksidlanish zonalarida hosil bo'ladi. Asl sof metallarning (oltin, platina) sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan konlari sochilmalar shakllanishida vujudga kelishi mumkin.

Sof elementlarning litosfera tuzilishidagi ahamiyati sezilarli emas. Ular Yer po'sti massasining 0,1 % dan ko'prog'ini tashkil qiladi va jins hosil qiluvchi minerallar hisoblanmaydi.

**Qo'llanilishi.** Sof elementlarning amaliy ahamiyati juda katta. Asl elementlarning orasida eng ko'p tarqalganları – platina, oltin va kumush hisoblanadi.

Har blr mineral faqat o'ziga xos bo'lgan xossa va belgilar majmuasiga ega. Ularga kimyoviy tarkibi, tuzilishi va tabiiy xossalari kiradi. Ushbu belgilar bo'yicha minerallar aniqlanadi.

### **3.8. Kristall moddalar haqida qisqacha ma'lumotlar.**

Barcha kristall moddalar, amorf moddalardan farqli o'laroq, kristall panjaralar – material nuqtalar (atomlar, molekulalar, ionlar va ularning guruhlari) fazoda aniq geometrik qonuniy o'rinni egallagan bir jinsli cheksiz vektorial qurilmalari bilan ifodalangan qonuniy ichki tuzilishga ega. Material nuqtalarning joylashish o'rni kristall panjara tugunlari deyiladi. Bir to'g'ri chiziqdagi yotuvchi va davriy ravishda teng oraliqlarda takrorlanuvchi tugunlar majmuasi qatorlarni tashkil etadi, bir tekislikda yotuvchi qatorlar majmuasi esa kristall panjaraning yassi to'rini hosil qiladi. Kristall panjaralar o'zinimg strukturasi bo'yicha juda xilma-xil bo'lib, bu ularning tarkibidagi

material zarralar, ularning o'lchamlari, bir-biri bilan aloqasi, yaqin atrofi (koordinatsiya) bilan bog'liq.

Barcha kristall moddalar qonuniy ichki tuzilishi natijasi hisoblanuvchi bir qator xossalarga ega. Ulardan biri – anizotroplik yoki turli yo'nalishlarda bir xil bo'imaslikdir (odatda har doim izotrop bo'lgan amorf jismlardan farqli o'laroq). Ikkinchisi – birjinsliliqi - bir xil kristall moddalarning har qanday mayda zarralari bir xil xossalarga (parallel yo'nalishlar bo'yicha) egaligi bilan ifodalanadi. Ammo kristall moddalarning eng xarakterli xossasi bo'lib ularning o'z-o'zidan tomonlar hosil qilish xususiyati, ya'ni erkin o'sish sharoitlarida to'g'ri ko'ptomonli shakllarni - kristallarni (yunoncha «kristallo» - muz) vujudga keltirishi hisoblanadi.

Kristallar bilan bataysil kristallografiya fani shug'ullanadi. Kristallarning sirti tekisliklar - tomonlar bilan chegaralangan bo'lib, ular to'g'ri chiziqlar - qirralar bilan kesiladi. Qirralar kesishgan nuqtalar uchlarini tashkil etadi. Kristallarning tashqi shaklida kristall panjaralar tuzilishining qonuniyatları aks etgan bo'ladi, shuning uchun ham har bir kristall modda, shu jumladan har bir mineral ham o'zi uchungina xarakter bo'lgan shaklga ega bo'ladi.

Kristallarning ichki tuzilish va tashqi shakli orasidagi bog'liqlik kristallografiyaning asosiy qonunlaridan biri – burchaklar doimiyligi qonuni bilan ifodalangan bo'lib, unga muvofiq bir xil moddaning barcha kristallarida tomonlari (va qirralari) orasidagi burchak doimiydir. Kristallarning eng xarakterli xususiyati bo'lib ularning simmetriyasini sanaladi.<sup>10</sup>

Simmetriya (yunoncha - «mos o'lchamilik») tabiatda juda ham keng tarqalgan, ammo u faqat kristallar dunyosidagina yaqqol ifodalangan bo'ladi.

Kristallardagi simmetriya – bu figuralarning muayyan tomonlari, qirralari va burchaklarining qonuniy takrorlanishi, ya'ni ma'lum burchakka buralganda oldingi holatini egallashidir. Simmetriyaning ta'riflash uchun simmetriya elementlari deb ataluvchi xayoliy obrazlardan – nuqtalar, to'g'ri chiziqlar, tekisliklardan foydalananiladi.

**Simmetriya markazi (C)** – kristall ichidagi nuqta bo'lib, u jism yuzasidagi barcha qarama-qarshi nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlarni

<sup>10</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012. p 44-48...

teng ikkiga bo'ldi. Kristallarda faqat bitta simmetriya markazi bo'lishi mumkin, nosimmetrik shakllarda esa umuman bo'lmaydi.

**Simmetriya o'qi (L)** – to'g'ri chiziq bo'lib, uning atrofida kristall shakl aylantirilganda teng qismlari takrorlanadi, ya'ni u o'z-o'zining o'mini egallaydi. Shakl  $360^{\circ}$  ga burilganda o'z-o'zining o'mini olish soni simmetriya o'qinimg tartibini belgilaydi. Kristallografiyada 2, 3, 4 va 6 tartibli simmetriya o'qlari mavjud.

**Simmetriya tekisligi (P)** – bu shaklni bir-biriga nisbatan ko'zgudagi aksidek simmetrik teng ikki qismga bo'luvchi xayoliy tekislikdir (3.8-rasm).

Ulanish tekislari suni, gradusi	Shakli	Ko'rinishi	Ulanish tekislari	Naruna
1	Varaqsimon yat-qalik			 Muskovit
2 ta 90 balansagan	Ingichka uzun to'rburchak shaklda o'zaro kesishadi (prezmasimon)			 Feldspat
2 ta 90 balansagan	Ingichka uzun parallelogram shaklda o'zaro kesishadi (prezmasimon)			 Rogovaya omensha
3 ta 90 bulusagan	Krib shaklida			
3 ta 90 bulusagan	Pomboedrik			
4	Oktaedrik			 Flyuarit

**3.8-rasm Minerallarning ulanish tekisliklari.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**

Kristallarda simmetriya elementlari yakka yoki bir-biri bilan muayyan kombinatsiyada kuzatilishi mumkin. Bunda simmetriya

elementlarining barcha xohlagan elementlarining to'plami mavjud bo'lmaydi.

Simmetriya elementlarimng ehtimoliy to'plamini metematik tomondan keltirib chiqaruvchi bir qancha nazariyalar mavjud.

Simmetriyaning yettita kristallografik tizimga yoki singoniyaga (yunoncha «o'xhash burchakli»), singoniyalar esa o'z navbatida toifalarga umumlashtiriladi.

Kristall moddalarning eng muhim xususiyati ularda polimorfizm va izomorfizm hodisasining rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Polimorfizm (yunoncha «poli» - ko'p, «morf» - shakl) deb tashqi sharoitlarga bog'liq holda birikmalar va oddiy moddalarning turli strukturaviy shakkarda kristallanish xossasiga aytildi. Mazkur kristall moddalarning muayyan bir tabiiy-kimyoviy sharoitlarda barqaror bo'lgan xillari uning polimorf modifikatsiyasi deyiladi.

Tabiiy mimeral hosil bo'lish sharoitlari juda xilma-xil bo'lganligi sababli minerallar orasida polimorfizm ancha keng tarqagan. Bunga yorqin misol bo'lib uglerodning polimorf modifikatsiyalari – olmos va grafit sanaladi.

Olmos odatda yuqori bosim sharoitlarida vujudga keladi va mustahkam kubik panjaraga ega bo'ladi; past haroratlarda esa uglerod qatlamli geksagonal panjaraga ega grafit holida kristallanadi. Shu tufayli bir tarkibga ega bo'lgan bu ikki mineral mutlaqo boshqa xossalarga ega.

Bunga boshqa misol qilib  $\text{FeS}_2$  ning - pirit (kubik) va markazit (rombik);  $\text{CaCO}_3$  - kalsit (trigonal) va aragonit (rombik) va b. polimorf modifikatsiyalarini ko'rsatish mumkin.

Minerallarning kristallarini hosil qiluvchi strukturaviy birliklar muayyan sharoitlarda kristallokimyoviy xossalari bo'yicha (o'lchamlari, zaryadlari, kimyoviy bog'lanish holati, koordinatsiyasi) ularga yaqin bo'lgan boshqalari bilan o'rinn almashishi mumkin. Bu hodisa izomorfizm (yunoncha «izos» - teng, «morf» - shakl) deb ataladi.

Izomorfizm deganda minerallarning kristall panjaralarida atomlar, ionlar yoki ularning boshqa gruhlari tuzilishi o'zgarmasdan turib o'zaro o'rinn olish hodisasi tushuniladi. Bunda hosil bo'luvchi moddalar o'zgaruvchi tarkibga ega bo'ladi va izomorf aralashma yoki qattiq eritma deyiladi.

Qattiq minerallar yaqqol kristall holatdan tashqari faqat rentgenstrukturaviy tadqiqotlarda ko'rish mumkin bo'lgan yashirin kristalli tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Bunday minerallar odatda tabiiy kolloidlarning degidratatsiyasi va qayta kristallanishi tufayli vujudga keladi. Ularga limonit, xalsedon, opal, kaolinit misol bo'laoladi.

Amorf minerallar, ya'ni tartibli ichki tuzilishga ega bo'lmaganlari ancha siyrak uchraydi va ularga ba'zi kvars shishalari kiradi.

### 3.9. Minerallarning tabiiy xossalari.

Har bir mineral boshqalaridan o'ziga xos belgilari bo'yicha farqlanishi mumkin.

Juda ko'pchilik minerallarni ko'p mehnat talab etuvchi tadqiqotlarsiz xarakterli tabiiy xossalari majmuasi bo'yicha aniqlash mumkin. Ko'pchilik minerallar faqatgma o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu, ayniqsa rangining to'qligi, sinish xarakteri, yaltiroqligi va hoshqalarda namoyon bo'ladi. Minerallarning bu xarakterli xossalari diagnostik belgilari bo'lib xizmat qiladi.



3.9-rasm. Gips kristallarining  
qo'shaloqlari.

ligi; optik xususiyatlari – shaffofligi, rangi, chizig'inining rangi, yaltiroqligi; mexanik xossalari – ulanishi, sinishi, qattiqligi, mo'rtligi, bolg'alanishi, elastikligi, zichligi hamda magnitligi, radioaktivligi va b.<sup>11</sup>

**Minerallarning morfologik xususiyatlari.** Tabiatda qattiq minerallar asosan noto'g'ri shaklardagi donalar holida tarqalgan bo'llib, shakli va o'lchamiga bog'liq bo'lmasdan ichki kristall

Ko'pchilik minerallarni ishonchli diagnostika qilish tafsiliy tadqiqotlar, xususan sifatli kimyoviy reaksiya o'tkazishni, zichligini, optik, mexanik va boshqa xossalari aniqlashni talab etadi.

Minerallarning bosh xossalari quyidagilar kiradi: morfologik xususiyatlari – kristallarning ko'rinishi, qo'shaloqlari, tomonlarining chiziqli-

<sup>11</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 44-48..

tuzilishga ega bo'ladi. Tabiiy tomonlari juda yaxshi shakllangan kristallar juda kam uchraydi.

**Kristallarning ko'rinishi.** Minerallar izometrik shaklda, bir va ikki yo'nahshda cho'zilgan bo'lishi mumkin.

**Kristallarning qo'sholoqlari.** Qo'sholoq deb muayyan bir mineralning ikki kristalli birga o'sganligiga aytildi. Qo'sholoqlar eritmada vujudga kelgan kristallchalarining o'sishi vaqtida bir-biriga tutashishi va mexanik ta'siri hamda kristall moddalarning polimorf o'zgarishi tufayli kelib chiqadi (3.9-rasm).



To'q ko'k rangli  
azurit kristallari




Qizil rangli rodonit  
kristalli




To'q yashil rangli  
xromdiopsid  
kristalli.




Binafsha rangli  
ametist  
kristallari.



Yashil rangli malaxit  
kristallari.



Pushti-qizil rangli  
sferokobaltit  
kristallari.



Sariq rangli sof  
oltingugurt kristallari.



Sariq rangli oltin  
kristallari.

**3.10-rasm Minerallarning rangi.**

**Minerallarning optik xossalari.** *Minerallarning shaffofligi* - bu ularning nur yo'nahshini o'zgartirmasdan turib o'zidan yorug'lik o'tkazish xususiyatidir. Shaffoflik mineralning kristall strukturasi, rangining yorqinligi, mayda dispers qattiq va gaz-suyuq qo'shimchalarining mavjudligi, ularning tuzilishi, tarkibi va hosil bo'lish sharoitlari xususiyatlari bilan bog'liq.

Minerallar shaffoflik darajasi bo'yicha shaffof, yarimshaffof, chetlari oqaruvchi, noshaffof turlarga bo'linadi.

**Minerallarning rangi-** eng avvalambor beixtiyor inson diqqatini o'ziga jalb qiladi va shuning uchun ham muhim belgilardan biri sanaladi (3.10-rasm).

Yorug'likning butun ko'rinvchi spektori bir tekis yutilganda vujudga keluvchi axromatik ranglarga misol qilib rangsiz tog' xrustali, sutsimon-oq kvars, kulrang osh tuzi va qora pirolyuzitni ko'rsatsa bo'ladi.

**Mineral chizig'inining rangi** – bu uning kukun holidagi rangidir. Bunda mineral mumkin qadar mayda talqon qilinishi lozim.



**3.11-rasm Minerallarning chizig'inining rangi. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**

xili) foydalanish mumkin (3.11).

Mineral qattiq bo'lganda plastinkada chizig'inining rangini bilib bo'lmaydi. Bunda mineral bolg'a yordamida maydalaniib, hovanchada kukunga aylantiriladi. Kukuning rangi oq fonda aniqlanadi.

Noma'dan minerallar chizig'inining rangini aniqlashda oq notejis (g'adir-budur) chinni plastinkadan (glazurlanmagan oq bezak plitasi, hovancha tubining ostki qismi, oq chinni idishning siniq parchalari va h.k.) foydalanilgan ma'qul. Ma'danli mineral chizig'inining rangini aniqlashda qora rangli plastinkadan, masalan, liditdan (kvarsitning qora

*Minerallarning yaltiroqligi.* Yaltiroqlik ikki omil ta'sirida: kristalli muhitdan o'tayotganda yorug'lik nurnining sinish ko'rsatkichi va ushbu muhit tomonidan yutish koeffitsienti orqali vujudga keladi. Shaffof minerallarda eng yuqori smdirish ko'rsatkichida kuchli olmossimon (nometalli) yaltiroqlik kuzatiladi. Sindirish ko'rsatkichida past bo'lgan moddalar (masalan, oltingugurtli minerallar) odatda shaffofmas va metalsimon yaltiroqlikka ega bo'ladi. Sindirish ko'rsatkichining yuqoriligi va nur qaytarish yuzasining xarakteriga bog'liq holda minerallar shishasimon, sadafsimon, yog'simon, shoyisimon, xira va yaltiroqlikning boshqa turlariga ega bo'ladi. Tabiatda o'rtacha sindirish ko'rsatkichi 1,3 - 1,9 bo'lgan shishasimon yaltiroq minerallar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi.

Yaltiroqlik minerallarning rangiga deyarli bog'liq emas. Yaltiroqlikning quyidagi turlari ajratiladi: *metalsimon*, *nometall*, *olmossimon*, *shishasimon*, *yog'simon*, *mumsimon*, *saqichsimon*, *sadafsimon* va *shoyisimon*. Ba'zan *xira yaltiroqlik* ham ajratiladi.

*Minerallarning mexanik xossalari.* *Minerallarning ulanishi* deganda minerallarning muayyan yo'nalishlarda silliq yuzalar - ulanish tekisliklari bo'ylab parchalanishi tushuniladi. Minerallar turli ulanishga ega: ba'zilari bir necha yo'nalishlarda juda oson ajralib ketadi, boshqalarida esa bu xususiyat yaxshi kuzatilmaydi yoki umuman yo'q. Ulanish minerallarning muhim diagnostik belgisi bo'lib xizmat qiladi va qatiqlik ko'rsatkichi bilan birgalikda tabiiy materiallarning mexanik xossalarni baholashda yordam beradi (3.12-rasm).


Parchalanishining osonligi va unda hosil bo'ladigan yuzalar xarakteri bo'yicha ulanishning bir qancha turlari ajratiladi: *juda mukammal*, *o'rtacha mukammal emas*, *juda mukammal emas* yoki *ulanish mavjud emas*.

Yuqorida aytib o'tilgandek, minerallar bir necha ulanish yo'nalishlariga ega bo'ladi. Turli yo'nalishlar bo'yicha ulanishning mukammallik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, dala shpatlari bir yo'nalishda mukammal, boshqa yo'nalishda esa o'rtacha ulanishga ega bo'ladi. Ulanish yo'nalishlari orasidagi burchak turli minerallarda bir-biridan farq qiladi Amfibollarda ulanish tekisliklari yaxshi rivojlangan, ular bir-birlari bilan  $56^{\circ}$  yoki  $124^{\circ}$  burchak hosil qilib kesishadi, piroksenlarda esa qirralari orasidagi burchak  $90^{\circ}$

atrofida bo'ladi, ushbu xususiyatlari tufayli ular bir-biridan farq qiladi (3.13-rasm). Slyudalar guruhidagi minerallarda kremno-kislordanli tetraedrlar yassi to'rlarining alohida paketlari orasidagi kimyoviy bog'lanish kuchsiz bo'lganligi sababli ular kristallari deformatsiya natijasida osongina buziladi, shuning uchun slyudalar kristallarini pichoq yordamida yengil yupqa plastinkalarga ajratish mumkin (3.12-rasm).

Ulanish yo'naliishlarining soni, ular orasidagi burchak, ulanishning mukammallik darajasi minerallarni aniqlashda bosh diagnostik belgilardan biri hisoblanadi.

Sliklar  
slyudalar  
Amfibol  
guruhidagi  
gelsani  
Mylonit  
atmosfer  
Sliklar  
qizilami  
Kutbi-kon




Qazlandar orasidagi  
bo'shliglarda  
sliklari xosil  
be ishti



Bo'shliglarda slyudalar

**3.12-rasm Minerallarning ulanishi.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**



**3.13-rasm. Minerallarning ulanishi.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**

**Minerallarning sinishi** – mineralning parchalanishida hosil bo'ladigan yuzalar ko'rinishidir. U aymiqsa nomukammal va juda

nomukammal ulanishga ega bo'lgan minerallarni o'rganishda juda asqotadi. Minerallar sinish yuzasining ko'rinishi ham muhim diagnostik belgilari qatoriga kiradi.

Minerallarda *chig'anoqsimon*, *notekis*, *tekis*, *zirapchasimon*, *tuproqsimon sinish* turlari ajratiladi.

Minerallaning sinishi ulanishi kabi xarakterli xususiyati hisoblanadi va muayyan mineral individida aniqlanadi.

*Minerallarning qattiqligi* – bu ularning boshqa jism ta'siriga ko'rsatadigan qarshiligi bo'lib, tirmash orqali aniqlanadi. Qattiqlik qiymati oshib borishi tartibida joylashtirilgan o'nta mineraldan: talk, gips, kalsit, flyuorit, apatit, dala shpati, kvars, topaz, korund va olmosdan iborat bo'lgan Moos shkalasi bo'yicha baholanadi (3.2 jadval).

Qattiqlikni aniqlash tirnab ko'rish orqali ainalga oshiriladi va tekshirilayotgan namunada tirmash izi qoldiruvchi mineral - shkalada mos keladigan etalonning tartib raqami bilan ifodalanadi. Shunday qilib aniqlanayotgan mineralning taxminiy qattiqligi topiladi.

*Minerallarning zichligi*. Minerallarning *zichligi* kimyoviy tarkibi va strukturasi, elementlarning atom massasi, ularning ion radiusi va valentligiga bog'liq bo'ladi. Minerallarning zichligi ularning diagnostik xarakteristikasidan tashqari mineral xom- ashyoning sifatini baholashda ainaliy ahamiyatga ega va undan ma'danni boyitishda foydalaniladi. Past zichlikka ega minerallar (2 dan 4 gacha) tabiatda eng ko'p tarqalgan.

Minerallarning zichligi muhim farqlovchi belgi sanaladi. U inerallarni tez va ishonchli aniqlashda samarali qo'llanilishi mumkin.

*Minerallarning mo'rtligi va bolg'alanishi*. Minerallarning diagnostik belgilari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan mexanik xossalaridan mo'rtligi va bolg'alanishini ko'rsatib o'tish mumkin. *Mo'rtlik* deb bosim ostida yoki zarbadan moddaning burdalanish xossasiga aytildi. *Bolg'alanishi* deganda moddalarning bosim ostida yupqa plastinkalarga yalpoqlanishi va plastik bo'lishi tushuniladi.

## Moos qattiqlik shkalasi minerallari

3. 2-jadval.

- 1 **Talk** -  $Mg_3[Si_4O_{10}](OH)_2$ . U eng yumshoq minerallardan biri hisoblanadi. *Rangi* – oq, sariqsimon, yashilsimon, kulrang, moviy-yashilsimon. Ushlaganda yog'simon tuyuladi.



- 2 **Gips** -  $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ . Tirnoq bilan tirmaganda mineral yuzasida iz qoladi (tirnoqning qattiqligi 2-2,5). Rangi oq, kulrang, jigarrang, pushti. Shoyisimon turi selenit deyiladi.



- 3 **Kalsit** -  $CaCO_3$ . Kalsitni pichoq uchi bilan tirmaganda unda tershish izi qoladi. Rangi oq va sariqsimon-oq, shaffof turi *island shpati* deyiladi.



- 4 **Flyuorit** -  $CaF_2$ . Mis tanga kalsitni tirnaydi, ammo flyuoritni tirnamaydi. Rangi sariq, yashil, ko'k, pushti, binafsha, jigarrang va binafshasimon-qoragacha o'zgarishi mumkin.



- 5 **Apatit** -  $Ca_5(PO_4)_3(OH,F,Cl)$ . Odam va ba'zi hayvonlarning tishlari apatitning mikroskopik kristallaridan tarkib topgan. Rangsiz, oq, zumradsimon yashil, ko'k, qo'ng'ir, binafsha.



- 6 **Dala slipati** -  $K[AlSi_3O_8]$ . Shisha va po'latdan qattiq. Shishaning qattiqligi taxminan 5,5. Ortoklaz, mikroklin, plagioklazlar singari minerallari keng tarqalgan.



- 7 **Kvars** –  $\text{SiO}_2$  U shishada va po'lat pichoqda aniq tirmash izimi qoldiradi. Kvarsning xillari: *tog' billuri, ametist, rauxtopaz, morion, sitrin, avantyurin* va b.



- 8 **Topaz** –  $\text{Al}_2[\text{SiO}_4][\text{F},\text{OH}]_2$ . Uning kristalli kvarsda tirmash izi qoldiradi. Ko'p qismi och sariq, sariq, somonsimon-sariq, moviysimon, binafsha, yashil, pushti, kam hollarda qizil rangli.



- 9 **Korund** –  $\text{Al}_2\text{O}_3$ . Uning yuqori qattiqligi abraziv material sifatida foydalanishga imkon beradi. Qimmatbaho xillari *rubin* – qizil rangli, *sapsir* – ko'k rangli.



- 10 **Olmos** – C. U barcha ma'lum bo'lgan minerallarning eng qattig'i hisoblanadi. Olmos kovalent bog'lanishga ega bo'lgan uglerod atomlaridan tuzilgan va uch o'chamli struktura hosil qiladi.



**Minerallarning boshqa xossalari.** Ba'zi minerallar uchun alohida, faqat ulargagina xos bo'lgan xossalarga - magnitligi, mazasi, hidi, radioaktivligi, xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishi va boshqa belgilarga ega. Barcha minerallar ham alohida xossalarga egamas, ammo ularning bo'lishi diagnostika vazifalarini yechishni osonlashtiradi.

**Minerallarning magnitligi.** Magnitlikni aniqlash uchun kuchli, yaxshisi magnitning taqasimon shakllari kerak bo'ladi. Mineralning magnitligi uning kukuni bo'yicha aniqlanadi.

**Minerallarning mazasi.** Sho'r maza galitga (osh tuzi), achchiq-sho'r esa silvinga xos. Bundan tashqari, bu minerallar suvda oson eriydi va **gigroskopiklik** - suv yutish xususiyatiga ega bo'ladi.



**3.14-Rasm Nurni  
ikkilanrib sindiruvchisi  
shaffof island shpati**

turida yaqqol ifodalangan shpati orqali qog'ozdag'i matn satri qaralsa, uning ikkita tasviri yuzaga keladi. Bunda barcha xarflar ikkiga ajralgandek bo'lib tuyuladi (3.14).

**Xlorid kislota bilan reaksiya.** Karbonatlar simfidagi ba'zi minerallar xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishib, karbonat angidrit gazini ajratib chiqaradi.<sup>12</sup> (3.15-rasm).



**3.16-rasm Labrador  
kristallining irizatsiya.**

**Minerallarning hidi.** Oltingugurt, ayniqsa agar uning ikki namunasi bir-biriga urilsa o'ziga xos hid chiqaradi. Arsenopirit ajratmalari ishqalan-ganda sarimsoq piyoz hidini taratadi.

**Nurning ikkilanib sinishi.** Nurning ikkilanib sinishi – bu anizotrop kris-tallar orqali nur o'tganda yorug'lik nuri-ning ikkiga ajralishidir. Bu xossalar bir qator mineralarga xos, ayniqsa u island shpati deb nomlanuvchi kalsitning shaffof



**3.15-rasm Xlorid kislota  
bilan reaksiya.**  
(*Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.*)

**Minerallarning irizatsiyasi.** Ba'zi minerallarning, masalan, labradorining yuzasida yoritish sharotilariiga bog'liq holda turli kamalakdagidek ranglar hosil bo'lishi mumkin.<sup>13</sup>

Minerallarning bunday xosalari **irizatsiya** (yunoncha *iridos* – kamalak) nomini olgan. U parallel

<sup>12</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T H Jordan, F Press, R Siever. 2007. p 53-61  
<sup>13</sup> Essentials of Geology - Frederick K Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 44-48

mo'ljallangan mikroskopik plastinkalar yoki darzliklar orqali nur o'tishida yorug'lik to'lqinlarining interferensiyasi bilan bog'liq (3.16).

### **O'tilgan ma'ruza mavzusи bo'yicha savollar**

1. Minerallarning kristallanish jarayoni qanday kechadi?
2. Minerallar qanday tamoyillarga asosan tasniflanadi?
3. Qanday kristallografik singoniyalar ajratiladi?
4. Burchaklar doimiyligi qonunining mohiyati nimadan iborat?
5. Minerallarni aniqlashda qanday belgilardan foydalilanadi?
6. Minerallarning optik xossalariiga nimalar kiradi?
7. Minerallarning mexanik xossalariiga nimalar kiradi?
8. Moos shkalasi minerallaridan qanday foydalilanadi?
9. Qaysi minerallar tog' jinslarida eng ko'p uchraydi?
10. Silikatli va alumosilikatli minerallar qanday yo'llar bilan hosil bo'ladi?  
11. Oksidli inminerallar qanday amaliy ahamiyatga ega?
12. Sulfidli minerallar qanday amaliy ahamiyatga ega?
13. Tuzli (galogen) minerallar qanday sharoitlarda hosil bo'ladi?
14. Minerallarning hidi va mazasi deganda nimani tushunasiz?
15. Minerallarning irizatsiyasi nima?
16. Polimorfizm va izomorfizmga ta'rif bering?
17. Singoniya va simmetriyaga izoh bering?

## **NAQSHINKOR TOSHLAR**

### **4-boh. TOG‘ JINSLARI HAQIDA TUSHUNCHА. MAGMATIK TOG‘ JINSLARINING TASNIFI. VULKANIZM.**

#### **REJA**

- 1. Tog‘ jinslari haqida umumiy ma’lumotlar.**
- 2. Magmatik jinslar.**
- 3. Magmatik jinslarning tasmifi va tarkibi.**
- 4. Magmatik jinslarning kimyoiy tarkibi.**
- 5. Magmatik jinslarning mineral tarkibi.**
- 6. Magmatik jinslarning xossalari.**
- 7. Magmatik jinslarning genetik turlari.**
- 8. Magmatizm.**
- 9. Intruziv tanalarning joylashuv shakllari.**
- 10. Vulkan qurilmalari.**
- 11. Vulkanizm turkumlari.**
- 12. Vulkan mahsulotlari.**
- 13. Vulkan turlari.**
- 14. Balchiqli vulkanlar.**


**Kalit so‘zlar:** Magma, magmatizm, mineralizator, magma differensiatsiyasi, intruziv va effuziv magmatizm, aksessorlar, mos va nomos intruziyalar, batolit, lakkolit, gapolit, etmolit, dayka, shtok, sill, lopolit, fakolit, serogen struktura.

Vulkanizm, vulkan mahsuloti, kaldera, krater, parazit vulkan, vulkan konusi, vulkan turi, «olovli» halqa, diatrem, salza, grifon, vulkan elementlari, vulkanizm minggaqlari, bomba, lapilla, vulkan qumi, balchiq vulkan.

#### **4.1. Tog‘ jinslari haqida umumiy ma’lumotlar**

Tog‘ jinslarining tasnifi hosil bo‘lish sharoitlariga asoslangan. Ushbu tasnifga muvofiq tog‘ jinslarning quyidagi turlari ajratiladi:  
– magmaning sovishida hosil bo‘luvchi - magmatik;

- magmatik va metamorfik jinslarning mexanik nurashi va eritmalardan moddalarning cho'kishi natijasida hosil bo'lувчи - cho'kindi;
- cho'kindi va magmatik jinslarning uzoq vaqt davomida yuqori bosim, harorat va minerallashgan suv ta'sirida kechgan tabiiy-kim-yoviy jarayonlar tufayli hosil bo'lувчи – metamorfik (4.1-rasm).



**4.1-rasm. Tog' jinslarining tasnifi  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).**

## 4.2. Magmatik jinslar

Magmatik jinslar magmaning sovishi natijasida hosil bo'ladi. Magmaning sovishida qattiq mimeral komponentlar ketma-ket kris-tallanadi. Bunda bosim, harorat va undagi mimeralizatorlar - suv bug'lari, karbonat angidrid va b. juda katta ahamiyatga ega.<sup>14</sup>

## 4.3. Magmatik jinslarning tasnifi va tarkibi

**Magmatik jinslarning tasnifi.** Magmatik jinslar hosil bo'lish sharoitlariga bog'liq holda chuqur (intruziv), otqindi (effuziv) va yarimuchuqur (gipabissal) turlarga bo'linadi. Intruziv jinslar katta chuqurliklarda magmaning yuqori harorat va bosim sharoitlarida

<sup>14</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 64.

sekin sovishi va birtekis qotishidan hosil bo‘ladi. Bu jarayonlar tog‘ jinslarida to‘liq kristalli struktura, massiv tekstura shakllanishi va unda mineral komponentlarning birtekis tarqalishi bilan yakunlanadi.

Otqindi jinslar Yer yuzasida past harorat va atmosfera ta’siri sharoitlarida lavadan issiqlik va gazsimon moddalarning tez ajralib chiqishi tufayli vujudga keladi hamda qotganidan so‘ng ularda ko‘plab g‘ovakliklar saqlanib qoladi. Shuning uchun ular amorf shisha ko‘p bo‘lgan chala kristalli struktura, har xil tekstura hamda turli tarkib va strukturaga ega bo‘lgan uchastkalarning almashinib turishi bilan farq qiladi.

Subvulkan jinslari Yer yuzasiga yaqin chuqurlikda harorat pasayib borish rejimida hosil bo‘ladi. Shu tufayli magmadan muayyan bir mineralning turli o‘lchamdagি kristallari vujudga keladi. Bunday jinslar aralash donali strukturasi bilan xarakterlanadi va porfirmsimon jinslar deb ataladi.

Magmatik jinslarning tafsiliy tasnifi moddiy tarkibini o‘rganishga asoslangan. Magniatik tog‘ jmslarining moddiy tarkibi ulardagи kimyoviy elementlarning (oksidlarining) va jins hosil qiluvchi minerallarning foiz miqdorini hisoblash orqali aniqlanadi.

Tog‘ jinslarining kimyoviy va mineral tarkiblari o‘zar bog‘liq, ammo bu bog‘liqlik murakkab, shuning uchun ham tog‘ jnslarining kimyoviy tarkibini qayta hisoblash orqali uning mineral tarkibini, mineral tarkibi orqali esa kimyoviy tarkibini aniqlab bo‘lmaydi. Vulkan shishasidan iborat bo‘lgan jinslarning moddiy tarkibini faqat kimyoviy yo‘l bilan aniqlash mumkin.

#### **4.4. Magmatik jinslarning kimyoviy tarkibi**


Magmatik jinslarda u yoki bu miqdorda uchraydigan elementlarning ro‘yxati ancha uzun, amalda ularda barcha kimyoviy elementlar uchraydi. Ularning orasida eng keng tarqalgani kislород bo‘lib, u magmatik jinslar tarkibining deyarli yarmisimi tashkil etadi. Tog‘ jinslarining kimyoviy tarkibi  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ,  $\text{FeO}$ ,  $\text{MgO}$ ,  $\text{CaO}$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$  va  $\text{K}_2\text{O}$  oksidlari yordamida ifodalanadi.

Magmatik jinslar kimyoviy va mineral tarkibi bo‘yicha turli-tuman, ammo ularning barchasida kislород va kremlniy mavjud bo‘ladi.

Magmatik tog‘ jinslarining tasnifi ularning kimyoviy tarkibini o‘rganishga asoslangan. Magmatik jinslar  $\text{SiO}_2$  miqdori bo‘yicha o‘taasosli, asosli, o‘rtalama va nordon turlarga bo‘linadi. O‘taasosli jinslarda kremnezyom  $\text{SiO}_2$  miqdori  $<44\%$  bo‘ladi. Asosli jinslarda bu ko‘rsatkich  $\text{SiO}_2 = 44-53\%$  ni, o‘rtalama jinslarda  $\text{SiO}_2 = 53-64\%$  m, nordon jinslarda  $\text{SiO}_2 = >64\%$  ni tashkil etadi (4.2-rasm).

#### 4.5 Magmatik jinslarning mineral tarkibi

Mineral tarkib – bu kimyoviy tarkibi ma’lum bo‘lgan jinslarni tashkil etuvchi minerallarning foiz miqdori (hajmiy yoki vazniy). Mineral tarkib kimyoviy elementlardan hosil bo‘lgan birikmalar xarakteri to‘g‘risida fikr yuritish imkoniyatini beradi.




**4.2-rasm Magmatik jinslarning tasnifi.**  
*(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

Magmatik tog‘ jinslarining mineral tarkibi ham turli-tuman. Ularning orasida eng keng tarqalganlari dala shpatlari, kvars, amfibollar, piroksenlar, slyudalar, kamroq tarqalganlari – olivin, nefelin, leytsit, magnetit, apatit va boshqalar hisoblanadi.

Nordon intruziv jinslar asosan kaliyli dala shpati, kvars, plagioklazdan tarkib topgan bo'ladi, qisman muskovit, biotit va amfibol uchrashi mumkm (4.3-rasm).

O'rta jinslar uchun amfibol, biotit, plagioklaz, kvars xarakterli, muskovit va kaliyli dala shpati ham uchrashi mumkin. Asosli jinslar piroksen va plagioklazdan tarkib topgan, o'taasosli jinslarda esa faqat olivin va piroksen kuzatiladi.



*4.3-rasm. Nordon tarkibli jinslarning minerallari  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).*

Minerallarning foiz miqdoriga asoslanib intruziv jinslarning nomini aniqlash mumkin. O'taasosli jinslarning tipik vakillari bo'lib dunit, peridotit va piroksenit hisoblanadi. Asosli jinslar gabbro, labradorit, diabaz va bazaltdan tarkib topgan bo'ladi. O'rta jinslarning tipik vaktllariga sienit, diorit, traxit, andezit, dala shpatili porfir, porfirit, nordonlariga esa – granit, riolit, granit-porfir kiradi. O'tanordon jinslar faqat pegmatitlardan iborat bo'ladi.

Tabiatda keng tarqalgan minerallar *jins hosil qiluvchi* minerallar deb ataladi. Magmatik tog' jinslari umumiyligi tarkibining 99% ga yaqmini tashkil etuvchi jins hosil qiluvchi minerallarga kvars, kaliyli dala shpatlari, plagioklazlar, leysit, nefelin, piroksenlar, amfibollar, slyudalar, olivin va b. kiradi. Tog' jinslarining juda kam miqdorini tashkil etuvchi minerallar

**aksessorlar** deb ataladi. Aksessor minerallar orasida sirkon, apatit, rutil, monatsit, ilmenit, xromit, titanit, ortit va boshqa minerallarni ko'rsatish mumkin; ba'zan ma'danli minerallar (magnetit, xromit, pirit, pirrotin va b.) ham uchraydi. Tog' jinslarida juda kam miqdorda (foizning yuzdan bir ulushlari) uchraydigan element-qo'shimchalar: litiy, berilliyl, bor, qalay, mis, xrom, nikel, xlor, ftor va b. ajratiladi. Jins hosil qiluvchi minerallar tog' jinslarining 5% dan ko'pini, aksessorlar esa 5% dan kam miqdorini tashkil etadi. Qora rangli minerallarning miqdori ham katta tasnifiy ahamiyatga ega. Masalan, kremnezyomga to'yinmagan olivin minerali asosan o'taasosli jinslarda uchraydi. O'rta jinslarda odatda rogovaya obmanka, nordonlarida esa biotit mavjud bo'ladi. Ishqorli jinslar amfibollarning uchrashi bilan xarakterlanadi.

Kvars o'rta va asosli jinslarda ham uchrasada, nordon jinslarning tipik minerali hisoblanadi. Silikatlar hosil bo'lishi uchun metallar bilan birikmaga kirishadigan  $\text{SiO}_2$  miqdori magmada keragidan ortiq bo'lishi lozim. Tog' jinslarida olivinning mavjudligi ularning kremnezyom bilan to'yinmaganligining belgisi bo'lib xizmat qiladi. Bu mineral  $\text{SiO}_2$  miqdori piroksen hosil bo'lishi uchun yetarli darajada bo'limganda faqat magmadangina kristallanadi. Aks holda olivin hosil bo'lmaydi, chunki magma eritmasida kremnezyom miqdori yetarli darajada bo'lganda olivin enstatitga aylanar edi.<sup>15</sup>

#### 4.6. Magmatik jinslarning xossalari

Magmatik jinslarning asosiy xossalariiga rangi, strukturasi, teksturasi va alohidaligi kiradi.

**Magmatik tog' jinslarining rangi** ularning mineral va kimyoiy tarkibiga, ya'ni ulardagи rangdor va rangsiz minerallarning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Oqish jinslarda, odatda, rangdor minerallar bo'lmaydi yoki ular juda kam miqdorda uchraydi. Bunday jinslar **leykokrat jinslar** deb ataladi (4.4-rasm). Rangdor minerallardan tarkib topgan qora rangli jinslar **melanokratli** jinslar deb ataladi (4.5-rasm).

<sup>15</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 80-83

O'taasosli jinslarning rangi qora, asoslilariniki – to'q kulrang, o'rta tarkiblilariniki – kulrang, nordonlariniki – och kulrang, och pushtidan oqqacha bo'ladi.

**Magmatik jinslarning strukturasi.** Tog' jinslarining strukturasi tarkibiy qismlarining o'lchami, shakli va o'zaro nisbati bilan ifodalanadi.




*4.4-rasm. Leykokrat jins.*



*4.5-rasm. Melonokrat jins.*

Magmatik jinslarning strukturaviy belgilari kristallanish darajasiga bog'liq bo'lib, magmaning kristallizatsiya sharoitlarini aks ettiradi. Magmatik tog' jinslari to'liq kristalli, chala kristalli va shishasimon strukturali bo'ladi.

Kristallarining nisbiy kattaligi bo'yicha to'liq kristalli struktura teng donali va aralash donali bo'ladi.



*4.6-rasm. To'liq kristalli teng donali struktura.*




*4.7-rasm. To'liq kristalli aralash donali struktura.*

Teng donali strukturada tog' jinslari tarkibiga kiruvchi kristallar taxminan bir xil o'lchamga ega bo'ladi. Kristallarning o'lchamiga bog'liq holda u yirik donali (kristallar o'lchami 5 mm dan katta), o'rta donali (5-3 mm) va mayda donali (3 mm dan kichik) bo'lishi


mumkin. Bunday struktura chuqurlik (abissal) jinslariga xos bo'ladi (4.6-rasm).

Turli donali struktura tog' jinslarida mineral massalarning notejis tarqaganligi bilan ifodalanadi. Bunda **porfirsimon** va **pegmatitli** strukturalar ajratiladi.

Porfirsimon struktura ikki o'lchamdag'i turli kristallardan tuzilgan jinslar uchun xarakterli bo'lib, asosiy massada yirik kristallar orasida mayda o'lchamdag'i kristallar joylashgan bo'ladi (4.7-rasm).



4.8-rasm. To'liq  
kristalli pegmatitli  
struktura.



4.9-rasm. Chala  
kristalli porfirli  
struktura.



4.10-rasm.  
Shishasimon  
struktura.


Pegmatitli struktura tog' jinslarida muayyan mineral kristalli tanasida boshqa mineral kristalli to'g'ri mo'ljallanganligi bilan xarakterlanadi. Bunda ikkala mineralning kristallari bir-birim o'stiradi. Bu struktura subvulkanik va tomirli jinslar uchun xos bo'ladi (4.8-rasm).

**Chala kristalli** (porfirli) struktura kristallar va vulkanik shishadan tarkib topgan tog' jinslariga xos bo'lib, ularda asosiy shishasimon yoki yashirin kristalli massa orasida ajralib chiqqan ancha miqdordagi muayyan minerallarning yaxshi ifodalangan kristallari turli miqdorli nisbatlarda mavjud bo'ladi (4.9-rasm).

**Shishasimon** struktura amorf, kristallanmagan tog' jinslari uchun xarakterli. Tog' jinslarida bunday struktura shishasimon tuzilishi (vulkanik shisha) zich yoki g'ovakli massadan iborat bo'ladi. Ular shishasimon yaltiroqligi va chig'anoqsimon sinishi bilan farq qiladi. Bunday struktura effuziv jinslar uchun xarakterli bo'ladi (4.10-rasm).

**Magmatik jinslarning teksturasi.** Tekstura tog' jinsida mineral donalarning o'zaro joylashish tartibi bo'yicha belgilanadi. Unda yaxlit, yo'l-yo'lli, dog'li, g'ovak, flyuidal va bodomsimon teksturalar ajratiladi.

Magmatik jinslar teksturasi va strukturasining shakllanishi magma eritmasining qotish sharoitlarida mineralizatorlarning saqlanishim ta'minlovchi tabiiy sharoitlar: harorat, qotish tezligi, shakllanish chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. 4.11-rasmda shaffof, juda yupqa granit va bazalt namunalari mikrofotografiyasi keltirilgan. Mikrofotografiya mikroskop yordamida olingan bo'lib, minerallar va ularning teksturasini beradi.



4.11-rasm. Magmatik jinslarning teksturasi bo'yicha birinchi tasnifi. [Djon Grotzinger / Ramon Rivera-More / Harvard Mineralogiya muzeyi. Mikrofotografiyalar - Raymond Siever.]

**Alohalistik.** Chuqurlikda sovigan yirik magmatik tanalarning yondosh jinslar bilan kontaktida parallel, perpendikular va diagonal yo'nalgan darzliklarning vujudga kelishi xarakterli. Ushbu darzliklar bo'ylab tog' jinslari parchalanib, alohalistik vujudga keladi.

Alohalistik – bu tog' jinslarning tabiiy va sun'iy parchalanishida bloklar, xarsanglar va bo'laklar shaklida bo'linib ketishidir. Uning shakli chegaralovchi darzliklarning mo'ljali va kengligi bilan belgilanadi; o'lchamlari turlicha (ko'ndalangiga santimetrlardan metrlargacha) bo'ladi. Magmaning sovushida

darzliklar bo'yicha alohidilik shunday kuch bilan sodir bo'ladiki, bunda tog' jinslar tarkibiga kiruvchi minerallarning yirik donalari alohida qismlarga parchalanib ketadi.



4.12-rasm. AQSH dagi "Iblis Minorasi" ni tashkil etgan bazaltdagi ustunsimon alohidilik. [www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)

Magmatik jinslarda lava va magma tanalarning sovishi va siqilishida vujudga kelgan prizmatik (ustunsimon), sharsimon, plitali alohidilik rivojlangan bo'ladi.

Bazatlarda yostiqsimon yoki ko'pburchakli ustunsimon ajralish kuzatilishi mumkin (4.12-rasm).<sup>16</sup>

#### 4.7. Magmatik jinslarning genetik turlari

**Intruziv jinslar.** Ular yuqori darajadagi mustahkamlikka, o'rtacha zichlikka, juda past g'ovaklikka ega bo'ladi. Bu guruhsda kremnezyom miqdori pasayib borishi qatorida pegmatitlar, granitlar, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, dioritlar, gabbrolar, piroksenitlar, peridotitlar va dunitlar ajratiladi.


**Subvulkanik jinslar** porfir strukturaga ega bo'ladi. Ularning orasida granit-porfir, porfirit, diabaz, spilit, dolerit keng tarqalgan.

**Otzindi jinslar** kimyoviy tarkibi bo'yicha chuqurlik intruziv hosilalarining muqobilari hisoblanadi, ammo ulardan strukturaviy va teksturaviy xususiyatlari bo'yicha kuchli farq qiladi. Chala kristalli va shishasimon strukturasining hamda massiv bo'limgan, yuqori g'ovakli teksturasining mavjudligi ularning nurashga chidamliligi va mustahkamlik ko'rsatkichlarining doimiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo ularning orasida qurilishda keng qo'llaniluvchi ancha zich va mustahkam turlari uchraydi. Ozindisi jinslarning tipik

<sup>16</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007. p 78-80

vakillari bo'lib riolit, obsidian, pemza, andezit, traxit va bazalt sanaladi.

**Piroklastik jinslarga** bo'shoq vulkan kullari, vulkan bombalari, qumlari va sementlangan - vulkan tuflari, tufolavalar kiradi (4.13-rasm).



**4.13-rasm: Piroklastik jinslarning hosil bo'lish jarayoni.**  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)

**Vulkan-klastik jinslar** aglomeratlar va lavobrekchiyalardan tarkib topgan.

**Vulkanogen-bo'lakli jinslar** tarkibida 5-50% piroklastik material mavjud bo'ladi. Agar ularning miqdori 50% dan ortiq bo'lsa, tuflar deb ataladi. Vulkanogen-cho'kindi jinslarda vulkanik inaterialning mavjudligi tog' jinslar nomida aks ettirilgan bo'ladi.

Bo'laklarining o'lchami bo'yicha ular tufokongloineratlar, tufobrekchiyalar, tufogravelitlar, tuqli qumtoshlar, tufoalevrolitlar, tufoargillitlar va boshqalarga ajratiladi. Ularda, tuflar va tuffitlardan farqli o'laroq, bo'laklar saralangan, dumaloqlangan bo'ladi va terrigen cho'kindilarga xos strukturalar kuzatiladi.

#### 4.8. MAGMATIZM. Umumiy ma'lumotlar

Magma – o'ta qizigan suyuq, erigan massa bo'lib, Yer po'stining ichki qismlarida radioaktiv elementlarning parchalanishidan ajralib chiqqan issiqlik energiyasi tufayli hosil bo'ladi. Magma murakkab tarkibli, asosan silikatli suyuqlik bo'lib, uning tarkibida erigan uchuvchan komponentlar ko'p bo'ladi. Bu komponentlar magmaning harakatchanligini oshiradi. Magma o'choqlari Yer po'stining serharakat joylarida va yuqori mantiyada hosil bo'ladi. Magmadagi uchuvchan komponentlar katalizatorlar deb ataladi.<sup>17</sup>

**Mineralizatorlar** minerallarni hosil qiluvchi elementlar bo'lib, bunda ularning tarkibidagi suv bug'lari asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Suv bug'laridan tashqari, magmada mineralizatorlardan  $\text{CO}_2$ ,  $\text{HCl}$ ,  $\text{HF}$ ,  $\text{SO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_3$  va boshqalar bo'ladi. Magma tarkibining 96,88%  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{TiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ,  $\text{FeO}$ ,  $\text{MgO}$ ,  $\text{CaO}$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_2\text{O}$  tashkil qiladi. Bulardan tashqari, magmada kam miqdorda P, C, Cl, S, Ba, Sr, Mn, Ni, Co, V kabi elementlar bor. Qolgan barcha elementlar magma umumiy tarkibining 0,5% ni tashkil etadi.

Demak, magma turli gazsimon komponentlar bilan to'yingan murakkab silikatli suyuqlikdan iborat bo'lib, uning tarkibida kremniy oksidining miqdori 35 dan 80 % gacha yetadi. Kremniy oksidining miqdoriga qarab magma nordon ( $\text{SiO}_2 > 65\%$ ), o'rta ( $\text{SiO}_2 = 65-62\%$ ), asosli ( $\text{SiO}_2 = 52-45\%$ ) va o'tasosli ( $\text{SiO}_2 < 45\%$ ) guruhlarga bo'linadi.

Magmaning jinslar orasiga yorib kirishi jarayonida uchuvchi komponentlarning bir qismi ajralib chiqadi va yondash jinslarga o'z ta'sirini o'tkazib, ularning tarkibini birmuncha o'zgartiradi. Magma tarkibida erigan uchuvchi komponentlarning qolgan qismi magmaning Yer yuzasiga oqib chiqish vaqtida mavjud bosimning pasayib ketishi natijasida undan ajraib chiqadi.

Magmadan turli mineral tarkibli tog' jinslarining bosqichma-bosqich hosil bo'lish jarayonlari yig'indisiga magma **differentsiysi** deyiladi.

Magma differensiysi uning kristallanish jarayomda fizik-kimyoviy sharoitining o'zgarishi tufayli ro'y beradi.

<sup>17</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 64.

Magma tarkibidagi elementlar qulay sharoitlarda birin - ketin birikib, ma'lum tartibda kristallanadi.

Kristallanish differensatsiyasi magmaning sovushi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Magma soviy boshlaganda dastlab rangli minerallar: olivin va piroksen kristallanib cho'ka boshlaydi, so'ng asosiy, o'rta va nordon plagioklazlar, eng keyin kremniyga boy minerallar va, nihoyat, erkin kremniy oksidi kristallari (kvars) hosil bo'ladi. Magmadagi uchuvchan komponentlar Yer qatlamlari orasida elementlarning harakatini va magmaning kristallanish jarayonlarini tezlashtiradi.<sup>18</sup>

Kristallanish jarayoni intruziyaning sovishi tezroq kechadigan chekka qismidan boshlanadi. Shu yo'l bilan hosil bo'lgan kristallar (birinchi navbatda katta sohshtirma og'irlilikdagi) cho'ka boshlaydi. Magma suyuqligining yuqori qismida qolgan moddalar kremniy oksidi bilan boyiydi va tarkibi bo'yicha nordon magmalarga yaqinlashib qoladi.

Magma qotishining oxirgi bosqichida kremniy oksidi va uchuvchi komponentlar bilan boyigan qoldiq magma hosil bo'ladi. Uning kristallanib qotishidan **pegmatitlar** vujudga keladi. Pegmatitlar tarkibida uchuvchi komponentlar mavjud bo'lgan minerallarning yirik kristallaridan tuzilgan bo'ladi.

Magma yuqoriga ko'tarilganda cho'kindi va metamorfik jinslar orasidagi bo'shliqlarga yorib kiradi. Natijada Yer qatlamlari orasida magma asta - sekin uzoq vaqt davomida soviydi va nihoyatda murakkab fizik, kimyoviy jarayonlar ta'sirida kristallanib, kristalli jinslarni hosil qiladi.

Shunday qilib, magma differensiatsiyasi natijasida Yer po'stida intruziv, Yer yuzasida esa effuziv jinslar hosil bo'ldi. Bir tarkibli magmadan hosil bo'lgan effuziv va intruziv jinslarning kimyoviy tarkibi bir - biriga juda o'xshash bo'ladi. Lekin strukturasi, teksturasi va mineral tarkibi jihatdan ular bir - biridan keskin farq qiladi.

Yer po'stida magmatizm jarayoni turlicha shaklda kechishi mumkin. Magma suyuq holda tektonik zonalar bo'ylab yondash jinslarni eritib, ularning ichiga yorib kirishi, yarimqotgan va qovushqoq massalarning siqilib chiqishi natijasida yondash jinslarga mexamik ta'sir ko'rsatishi yoki portlash darajasiga yetib, Yer

<sup>18</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007 p 87-88

yuzasiga katta kuch bilan otilib chiqishi yoki lava tarzida oqib chiqishi mumkin.

Magma suyuqligining Yer po'sti ichida kristallanib qotishi natijasida intruziv jinslar va Yer yuzasiga lava holida quyulishi yoki atmosferaga vulkan kuli sifatida otilishi va cho'kishi tufayli vulkanogen-effuziv (otqindi) jinslar hosil bo'ladi. Ham intruziv, ham vulqon jinslari xususiyatlariqa yaqin, unchalik chuqur bo'limgan joylarda hosil bo'luvchi subvulkan tog' jinslari ham mavjud.<sup>19</sup>

Intruziv jinslar Yer po'stining ichki qismida, katta chuqurlikda magma mahsulotlarining qotishi tufayli ularning kristallanishi katta bosim ostida va uchuvchi komponentlarning faol ishtirokida magmaning juda sekin sovushi sharoitlarida kechadi. Shuning uchun ham intruziv jinslarning strukturasi to'la kristalli va teksturasi kompaktli bo'ladi. Ularning tarkibida uchuvchi komponentlarga boy bo'lgan minerallar ko'plab uchraydi.

Subvulkan jinslari Yer yuzasiga yaqin, past chuqurliklarda hosil bo'ladi. Bunda magmaning sovush jarayoni ancha tez kechadi va kristallanish sharoitida muvozanat buzilgan bo'ladi. Ularda mayda kristalli, odatda, porfirsimon struktura va minerallarning zonal tuzilganligi kuzatiladi.

Effuziv jinslar guruhiiga Yer yuzasiga harakatchan suyuq lavaning quyulishi yoki sust harakatlari qovushqoq mahsulotlarining otilib chiqishidan hosil bo'luvchi tog' jinslari kiradi. Bunda kristallanish jarayoni uchuvchi komponentlarning ishtirokisiz, atmosfera bosimiga yaqin bosim va lavaning tez sovushi sharoitlarida boradi.

Vaqtlar o'tishi bilan Yer po'sti ko'tarilganda kuchli eroziya jarayoni tufayli intruziv jinslar Yer yuzasida ochilib qoladi.

#### 4.9. Intruziv tanalarning yotish shakllari

Intruziv massivlarning yotish shakllarini, ularning yondosh jinslar bilan bo'lgan munosabatlarni va Yer po'stining tektonik strukturalaridagi tutgan o'mini aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Magmatik va postmagmatik genezisga ega bo'lgan turli foydali qazilmalar intruziv jinslarning yotish shakllariga bevosita bog'liq bo'ladi. Intruziv jinslarning yotish shakllari esa ularning hosil

bo'lish sharoitlari bilan chambarchas bog'langan. Intruziv jinslarning yotish shakllarini yondash jinslarga nisbatan bo'lgan munosabatlariga


qarab muvofiq va nomuvofiq turlarga bo'lish mumkin.



**4.14-rasm. Batolitlarning vertikal kesmada ko'rinishi.**

va daykalarga ajratiladi. Ularning orasida eng yiriklari batolitlardir.

**Batolitlarning** Yer yuzasiga chiqish maydoni 100-200km<sup>2</sup> boradi. Ularning ustki (apikal) qismi gumbazsimon, arkasimon yassi yoki tepaliklar va chuqurlardan iborat murakkab tuzilishga ega bo'lishi mumkin (4.14, 4.15 (3)-rasm). Batolitlarning vertikal qalinligi 10-12 km ga boradi. Batolitlarning ko'p qismi gabbro, diorit va granitlardan iborat.



**4.15-rasm Magmatik jinslarning yotish shakllari. 1- dayka. 2-sill, 3- batolit. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)**

Batolitlar ko'p hollarda tektonik strukturalarni ko'ndalang yo'nalishda yorib chiqqan bo'ladi. Bunday intruziv massivlarning tepe qismida har xil o'lchamdagisi ksenolitlar ko'plab uchraydi.

Batolitlar O'rta Osiyoda keng rivojlangan. Ularni Chotqol-Qurama, Hisor va Nurota tog'larida kuzatish mumkin (4.16-rasm).



4.16-rasm. Qo'shrabot batolitining ochilmasi.

lib, yuzasi 100 km<sup>2</sup>gacha yetishi va chuqurlikka qarab birmuncha kengaygan bo'lishi mumkin (4.17-rasm).

*Etmolit* ustki (apikal) qismi botiq, chuqurlikka qarab torayib boruvchi noto'g'ri voronka shakldagi intruziya hisoblanadi (4.18-rasm). Ularning ustki qismidagi yondosh jinslar bilan kontakti muvofiq bo'lishi mumkin. Ular gorizontal kesmada izometrik yoki bir qancha cho'zilgan shaklda bo'ladi. Etmolitlar sill→lopolit→etmolit sxemasi bo'yicha sillarning hosil bo'lishining kechki hosqichi deb taxmin qilinadi.



4.17-rasm. Shtoklar.

tepaliklar va chuqurliklardan iborat qavariq shaklda bo'ladi. Pastki qismi esa egilgan, gorizontal yoki ildizi tomon qiyalangan bo'ladi. Garpolitlarning hosil bo'lishi burchakli nomuvofiqliklarga bog'liq

*Apoftizalar* - asosiy intruzivlardan chetga yorib kirgan yoki yirik pona shakldagi qismidir. Yondosh jinslarga nisbatan apofizalar muvofiq, nomuvofiq- yorib kiruvchi holda shakllangan bo'lishi mumkm.

*Shtoklar* kesmada izometrik yirik ustunsimon shakldagi intruziyalar bo'

*Garpolit* (yunoncha «garpos» - o'roq) yirik, yorib kiruvchi, ichki qismi muvofiq, vertikal kesmada o'roqsimon shakldagi intruziv tanadir (4.19-rasm). Garpolitlarning ustki qismi ma'lum

87

bo'lishi mumkin. Kristallashgan qadimiy jinslar bilan ularning ustida nomuvofiq yotuvchi hiosilalar orasiga magmaning yorib kirishi bilan bog'liq.



**4.19-rasm. Garpolit.**

bo'lган yorib kiruvchi tanalardir. Daykalarning uzunligi ularning qalinligidan o'nlab marta katta bo'ladi. Daykalarning aksariyat qismi



**4.20- rasm. Dayka.**


mumkin. Metamorfik cho'kindi jinslarni yorib chiqqan granit tarkibli dayka.



**4.21-rasm. Ko'p yarusli sillar.**

plitasimon yoki linsasimon shakldagi yassi intruziyalardir. Muvofig intruziyalarning ko'pchiligi qatlamlar orasiga magmaning siqilib kirishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday muvofig intruziyalarga sillar, lakkolitlar, lopolitlar va fakolitlar kirad.

**Sillar** stratigrafik gorizontlar yoki formatsiyalar oraliq'iga magma suyuqligining siqilib kirishi natijasida hosil bo'lган



**4.18-rasm. Etmolit.**

**Daykalar** tog' jinslaridagi darzhklar bo'ylab magma suyuqligining yorib kirishidan hosil bo'ladi (4.20, 4.15-1-rasm). Ular tik holdagi o'zaro parallel chegaralarga ega

0,5 dan 5-6 m qalinlikka va o'nlab metr uzunlikka ega bo'ladi. Ba'zi hollarda ularning qalinligi 250 m ga borishi, uzunligi esa 100km dan ortiq bo'lishi mumkin (4.15-rasm). Daykalar bir jinsli oddiy va magmaning bir necha bor yorib kirishi natijasida turli jinsli murakkab tuzilishga ega bo'lishi

### Muvofig intruziyalar.

Muvofig intruziyalar guruhiga yondosh jinslar qatlamlari chegaralari bilan ajralgan va ularga nisbatan parallel joylashgan intruziyalar kiradi. Odatda, ular

intruziyalar kiradi. Odatda, ular plitasimon yoki linsasimon shakldagi yassi intruziyalardir. Muvofig intruziyalarning ko'pchiligi qatlamlar orasiga magmaning siqilib kirishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday muvofig intruziyalarga sillar, lakkolitlar, lopolitlar va fakolitlar kirad.

plitasimon intruziv yotqiziqlardan iborat (4.21-rasm). Ularning joylashgan holati gorizontal, ozroq qiyalangan va ba'zida burmalangan bo'lishi mumkin. Sillar ba'zi hollarda qalinligi 600-900m va maydoni minglab kvadrat kilometrlarga etuvchi ulkan o'lchamli bo'lishi mumkin. Sillar bir komponentli oddiy yoki magma suyuqligining bir necha bor yorib kirishi natijasida ko'p komponentli murakkab tarkibili bo'lishi mumkin (4.15-2-rasm).

**Lakkolitlar** vertikal kesmada zambrug'simon shakldagi muvofiq intruziyalar bo'lib, ularning ustki qismida qatlamlı tog' jinslari gumbazsimon yoki arkasimon ko'tarilgan bo'ladi (4.22-rasm). Ularning pastki yuzasi gorizontal va yassi bo'ladi. Lakkolitlar ostidagi oziqlantiruvchi ka-



4.22-rasm. Lakkolit.

nali taxminan quvursimon yoki daykasimon bo'ladi. Nordon yoki o'rta tarkibdagi qovushqoq magma gipabissal sharoitlarda qatlamlar orasiga siqilib kirgan.

**Lopolitlar** (yunoncha-«lopos»-tovoq) platforma tuzilishiga ega bo'lgan hududlardagi tovoq-simon shakldagi muvofiq intruziyalar bo'lib, diametri yuzlab kilometrnini va qalinligi yuzlab metrni tashkil qiladi



4.23-rasm. Lopolit.

(4.23-rasm). Ular kam va o'rta chuqurliklarda keng pog'onasimon grabenlardagi darzliklar bo'yicha magmaning ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Lopolitlarni tashkil qiluvchi intruziv jinslar asosli, o'taasosli va ishqorli tarkibga ega bo'ladi.


**Fakolitlar** (yunoncha-«fakos»-linza) antiklinal va sinklinal burmalarning yadrodisida qatlamlar orasiga magmaning siqilib kirishidan hosil bo'lgan yarimoy shakldagi intruziyalar bo'lib, burmalarning turiga qarab simmetrik va asimetrik shaklli tanalarini hosil qiladi (4.24-rasm).<sup>20,21</sup>

<sup>20</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012 p 81-83.

<sup>21</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 88-91

Tabiatda yondash jinslar bilan ham muvofiq, ham nomuvofiq kontaktlarga ega bo'lgan intruziv jinslarning struktura shakllari keng tarqalgan. Ular ***serogen struktura*** shakllari deb yuritiladi.

Yirik intruziv massivlarning shakllanishi bir necha ortomagmatik, pegmatitli, pnevmatolitli va gidrotermal bosqichlarda amalga oshadi. Ularning har biri bilan sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan ma'danli foydali qazilma konlari bog'liq.



4.24-rasm. Fakolitlar.

***Ortomagmatik bosqich*** magma o'chog'idan magma suyuqligi asosiy massasining balanddag'i yondash jinslarga yorib kirishi va intruziv massivning

shakllanishi bilan xarakterlanadi. Magmaning sovushi uch xil yo'nalishda kechishi mumkin. Birinchidan, magma suyuqligi ikkiga ajralishi (likvatsiya) mumkin. Bunda mis va nikel minerallaridan tarkib topgan ma'danlar shakllanadi. ikkinchidan, hali qotib ulgurmagan qoldiq suyuqlikdan massiv ichida minerallarning dastlabki kristallizatsiyasida (kristallizatsion differensiatsiya) minerallarning ajrahb chiqishi hisobiga qatlamlarga ajralishi mumkin. Birinchi va ikkinchi hollarda ham intruziv tanalarda qatlamlarga ajralish kuzatiladi.

Uchinchidan, magma suyuqligi bir necha bor yorib kirib, ko'p fazali pluton hosil qilishi mumkin. Bunday intruziyalar ko'p fazali deyiladi. Ortomagmatik bosqichda magma tarkibi va unda kechayotgan jarayonlarga bog'liq holda dunit, peridotit, gabbro, diorit, sienit, granodiorit, granit va shu kabi to'liq kristalli turli donali jinslar hiosil bo'ladi.

Ortomagmatik bosqich bilan mis, nikel, xrom, platinoidlar, titan, temir, neobi, sirkon, siyrak yer elementlari va apatitning magmatik konlari (likvatsion, erta va kech magmatik) shakllanishi bog'liq bo'ladi.

***Pegmatitli bosqich.*** Intruzivlar yoki ularning alohida fazalarining qotishi yakunlanishida intruziv massivlarning ustki qismidagi endo va ekzokontaktlarda tomir yoki uyalar shaklidagi uncha katta bo'lмаган tanalar shakllanadi. Ular odadta zonal

tuzilishga, notekis to‘la kristalli strukturaga, tarkibida muayyan minerallarning yirik o‘lchami bilan xarakterlanuvchi **pegmatitlарdir**. Pegmatitlar har qanday tarkibli intruziv massivlarga xos. Ammo ularning orasida granitli pegmatitlar ustuvorlikka ega. Ularning hosil bo‘lishi boshlang‘ich harorati 700-800°C bo‘lgan qoldiq magmaning yuqori darajada minerallashgan uchuvchi birikmalardan ajralishi bilan bog‘liq. Magma suyuqligining sovishi tarkibi jins hosil qiluvchi minerallar bilan kimyoviy muvozanatda bo‘lgan gazsuqli eritmaning ajralib chiqishi orqali yakunlanadi.

Pegmatitli bosqichda keramik xom-ashyo, muskovit, tog‘ billuri, qimmatbaho toshlar, flyuorit hamda Li, Be, Rb, Cs, Sn, W, Th, U, Nb, Ta konlari liosil bo‘ladi.

**Pnevmatolitli bosqich** magmatik o‘choqdan issiq kimyoviy faol postmagmatik uchuvchi komponentlarning ajralib chiqishi va intruziv massivning apikal qismiga ta’siri bilan bog‘liq. Bu bosqichda harorati pasayishi davomida yuqori haroratli gidrotermal eritmalarga aylanuvchi gaz fazasi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Intruziv jinslarga pnevmatolitli gazlarning ta’siri tufayli greyzenlar - slyuda, kvars, ba’zan turmalin, topaz, flyuorit agregatlari va ularga yo‘ldosh bo‘lgan ma’danli minerallar vujudga keladi.

Pnevmatolitli bosqichda Sn, W, Li, Be, Mo konlari hosil bo‘ladi.

**Gidrotermal bosqich**. Yirik plutonlarning shakllanishi magmatik o‘choqdan gазsuyuq eritmalarning (gidroterma) ajralib chiqishi va hidrotermal tomirlarning hosil bo‘lishi bilan yakunlanadi. Kvarsli, sulfidli va karbonatli hidrotermal tomirlar keng tarqalgan.

Gidrotermalarning asosiy komponenti bo‘lib mineral tuzlar va gazlar erigan suv hisoblanadi. Bular kolloid va molekular eritmalar bo‘lishi mumkm. Gidrotermal mineral hosil bo‘lishidagi boshlang‘ich harorat 600-700°C ga yaqin. Harorat asta-sekin 25-50°C gacha pasayib boradi. Gidrotermal tomirlar va ular bilan bog‘liq konlar katta chiqurlikda sodir bo‘luvchi yuqori haroratli (500-300°C), o‘rta (300-200°C) va past haroratli (200-50°C) turlarga bo‘linadi.

Gidrotermal bosqich bilan tog‘ billuri, Sn, W, As, Bi, Au, Cu, Zn, Pb, Ag, Sb, Hg konlari bog‘liq.

Intruziv hosilalar orasida nordon jinslar (granitlar va granodioritlar) keng tarqalgan. O‘rta tarkibdagi (sienitlar va dioritlar), asosli (gabbro va piroksenitlar), o‘taasosli (peridotitlar va

dunitlar) kamroq uchraydi. Sienitlardan tashqari barcha jinslar normal ishqorlikdagi jinslarga kiradi.

Magmatik tog' jinslari umumiy tarkibining 99% ga yaqinini tashkil etuvchi jins hosil qiluvchi mineralallarga kvars, kaliyli dala shpatlari, plagioklazlar, leysit, nefelin, piroksenlar, amfibollar, slyudalar, olivin va b. kiradi.

Tog' jinslarining juda kam miqdorini tashkil etuvchi mineralallar **aksessorlar** deb ataladi. Aksessor mineralallar orasida sirkon, apatit, rutil, monatsit, ilmenit, xroinit, titanit, ortit va boshqalarni ko'rsatish mumkin; ba'zan ma'danli mineralallar (magnetit, xromit, pirit, pirrotin va b.) ham uchraydi. Tog' jinslarda juda kam miqdorda (foyizning yuzdan bir ulushlari) uchraydigan element-ko'shimchalar: litiy, berilliyl, bor, qalay, mis, xrom, nikel, xlor, ftor va b. ajratiladi.

Jins hosil qiluvchi mineralallar tog' jinslarining 5% dan ko'pini, aksessorlar esa 5% dan kam miqdorimi tashkil etadi.

Qora rangli minerallarning miqdori ham katta tasnifiy ahamiyatga ega. Masalan, kremnezyomga to'yinmagan olivin minerali asosan o'taasosli jinslarda uchraydi. O'rta jinslarda odatda rogovaya obmanka, nordonlarida esa biotit mavjud bo'ladi. Ishqorli jinslar amfibollarning uchrashi bilan xarakterlanadi.

Magmatik jinslarni tasniflashda siallik minerallarning, ayniqsa dala shpatlarining miqdori va tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, plagioklazlarning tarkibi nordonligi bo'yicha muayyan tog' jinslariga to'g'ri keladi: o'taasosli jinslarda plagioklazlar bosh mineral hisoblanmaydi, asosli jinslarda asosli (kalsiyga boy) plagioklazlar, o'rta jinslarda o'rta (natriy-kalsiyli) plagioklazlar mavjud bo'ladi, nordon jinslar uchun nordon (kalsiyli) plagioklazlar xarakterlidir.

Kvars o'rta va asosh jinslarda ham uchraydi, ammo nordon jinslarning tipik minerali hisoblanadi. Silikatlar hosil bo'lishi uchun metallar bilan birikmaga kirishadigan  $\text{SiO}_2$  miqdori magmada keragidan ortiq bo'lishi lozim.

Tog' jinslarda olivinning mavjudligi ularning kremnezyom bilan to'yinmaganligining belgisi bo'lib xizmat qiladi. Bu mineral  $\text{SiO}_2$  miqdori piroksen hosil bo'lishi uchun yetarli darajada bo'lmaganda faqat magmadangina kristallanadi. Aks holda olivin


hosil bo'lmaydi, chunki magma eritmasida kremnezyom miqdori yetarli darajada bo'lganda olivin enstatitga aylanadi.

Intruziv jinslarning to'liqroq tavsifi «Minerallar va tog' jinslari bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari» nomli o'quv qo'llanmasida berilgan.

#### 4.10. Vulkan qurilmalari

Endodinamik jarayonlar ichida bevosita kuzatish va tekshirish mumkin bo'lganlardan biri vulkanizmdir.

Vulkanizm magmatizm jarayoniniig bir qismi bo'lib, bunda yer yuzasiga magma mahsulotlari otilib yoki oqib chiqadi.



4.25-rasm. Vulkan qurilmasining tuzilishi.

- 1-birlamchi magma o'chog'i; 2-tektonik yoriq; 3-ikkilamchi magma o'chog'i;  
4-parazit vulkan; 5-bo'g'iz; 6-krater;  
7-vulkan konusi.


Popokatepet (Meksika) - 5452 m, Klyuchi Sopkasi (Kamchatka) - 4750 m, Mauna - Loa (Gavayi orollari) - 4166 m (okean tagidan 10 ming m). Etna (O'rta dengiz) - 3263 m, Stromboli vulkanı (O'rta Yer dengizi) - 900 m hisoblanadi. Vulkanizm jarayonini odamlar ibtidoiy tuzumdan boshiab kuzatib keladilar. O'tmishda vulkan otilib turadigan o'lkalarda yashovchi kishilar bu tabiiy jarayonni ilohiy kuchga bog'lab kelganlar.

Darhaqiqat, tabiatda sodir bo'ladigan dahshatli hodisalar ichida eng qo'rqinchisi vulkan otilishidir. Vulkanlar harakatidan Yer po'stida kuchli o'zgarishlar ro'y beradi, kishilik jamiyatiga moddiy ham ma'naviy zarar keltiriladi.

Vulkan harakati tufayli turli yangi relef shakllari bosil bo'ladi. Ularning orasida vulkan konuslari asosiy ahamiyatga ega (4.25-rasm). Daslab magma o'chog'ida vujudga kelgan magma burdalangan zonalar yoki Yer yoriqlari bo'ylab yer sirtiga intiladi.

*Yer sharidagi eng yirik vulkanlar.* Afrikadagi Kilimanjaro - 5895 m, Chimboraso (Ekvador) - 6267 m,

Vulkan mahsulotlari chiqadigan kanal ***bo'g'iz***, uning og'zidagi doira shaklidagi pastqamlik ***krater*** deb ataladi. Ba'zan vulkan apparatlarining yon tomonlarida yoriqlar paydo bo'ladi, u yerdan ham vulkan mahsuloti chiqqa boshlaydi. Bu xildagi vulkan ***parazit vulkan*** deb ataladi. Ulardan ham ko'p miqdorda lava chiqishi mumkin.<sup>22,23</sup>



4.26-rasm. Vulkan qurilmalari.

<sup>22</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 99  
<sup>23</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007 p 272

Vulkan ildizi, ya'ni uning birlamchi magmatik o'chog'i 60-100 km chuqurlikdagi astenosfera qatlamida joylashgan bo'ladi. Yer po'stining 20-30 km chuqurligida ham ikkilamchi magmatik o'choq joylashgan bo'lib, u bo'g'iz orqali vulkanni bevosita oziqlantiradi. Vulkan konusi otilib chiqqan mahsulotlardan tuzilgan. Konus uchidagi crater ba'zan suv bilan to'ldirilgan bo'ladi. Krater diametri turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Klyuchevsk Sopkasini 675 m, Pompeyni vayron qilgan Vezuviy vulkaniniki esa 568 m. Vulkan otilishdan hosil bo'lgan relef shakllari xilma - xildir. Masalan, Maar tipidagi vulkan craterining atrofi tuf yoki vulkan kulidan iborat. Vulkan craterining diametri 250 m dan 1 km gacha bo'lib, uning shakli voronkaga o'xshash, crateri ko'pmcha suv bilan to'lib, ko'l hosil qiladi (4.26-rasm). Vulkan otilganidan so'ng crater yemiriladi va tik devorlarga ega bo'lgan cho'kma – kaldera hosil bo'ladi. Kalderalar gaz va bug'ning juda ko'p to'planib qollshi natijasida ba'zan juda kuchli portlash evaziga vujudga kelishi mumkin (4.27-rasm).

Kalderalar aylana shaklda, chetlari asosan tik, ichki devorlari vertikal bo'lishi mumkin. Kalderalarning o'rtasida keyin paydo bo'lgan yosh konuslari kuzatiladi.

Ba'zi kalderalarning diametri ko'plab kilometrlarga boradi, masalan, Alyaskadagi Aniakchan vulkanining kalderasi 10 km ni tashkil etadi.



4.27-rasm. Yirik kalderaning kosmosdan  
ko'rinishi. [www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)

Keyinchalik kalderalar suvgaga to'lib, yirik ko'lga aylanadi. Bunday ko'llardan biri AQSHdagi Kreyter (inglizcha Crater Lake, Kreyter ko'li) ko'li hisoblanadi (4.28-rasm). Ko'l Maunt-Mazam vulkanining buzilganidan so'ng bundan 7700 yil ilgari hosil bo'lgan. U kalderani qisman to'ldirgan. O'lchamlari 8 x 9,6 km, o'rtacha chuqurligi 350 m.



*4.28-rasm. AQSH dagi Kreyter ko'li.*

Maksimal chuqurligi 594 m bo'lib, AQSHdagi ko'llar orasida eng chuquri hisoblanadi va dunyoda chuqurligi bo'yicha yetinchi o'rinni egallaydi (Baykal - eng chuqur ko'l). Kalderaning cheti okean sathidan 2130 - 2440 m balandda joylashgan.

#### **4.11. Vulkanizm turkumlari**

Hozirgi zamondagi tushunchasi bo'yicha vulkanizm magma-tizmning tashqi effuziv shakli deb nomlanuvchi yer qa'ridan magma massasining yer yuzasiga qarab harakatlanish jarayoni hisoblanadi. Sayyoramizning 50 dan 350 km gacha yetadigan chuqurliklarda suyuqlangan modda – magma hosil bo'ladi. Yer po'stining burdalangan va yer yoriqlar zonalari bo'ylab magma ko'tarilib chiqadi va u yer yuzasiga lava shaklida quyuladi. Magma lavadan farqli o'laroq uchuvchi komponentlarga ega bo'ladi. Bu gazlar yer yuzasida bosimning pastligi tufayli magmadan ajralib chiqib, atmosferaga qo'shilib ketadi. Magma yer yuzasiga quyulganda vulkanlar hosil bo'ladi.

Vulkanlar uch turkumga: maydonli, yoriqli va markaziy vulkanlarga ajratiladi.

**Maydonli turkumidagi vulkanlar.** Hozirgi vaqtida bunday vulkanlar uchramaydi yoki ular mavjud emas desa bo'ladi. Bunday vulkanlar yer po'sti hali uncha qalin bo'lмаган vaqtarda vujudga kelgan. Bunda juda katta hajmdagi suyuq lavalar yer yuzasining yirik hududlarini qoplagan. Maydonli vulkanlar arxey va proterozoy akronlarida yerning protopo'sti rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

**Darzlik turkumidagi vulkanlari.** Ular yer yuzasiga yirik yer yoriqlari bo'ylab otlib chiqadi. Vulkan apparati ochilib qolgan yoriq shaklida bo'ladi.

Darzliklardan chiqadigan asosli magma - bazalt mahsulotlari suyuq bo'lib, yer betiga bir tekisda quyilib, bora - bora qalqonsimon shaklni oladi.

Yerning rivojlanishidagi muayyan bosqichlarda bu vulkanizm turi keng miqyoslarda sodir bo'lgan. Natijada Yer yuzasiga juda katta miqdorda vulkan materiallari – lavalar oqib chiqqan. Hindistonda bunday maydonlar kengligi  $5.105 \text{ km}^2$  va o'rtacha qalinligi 1 dan 3 km gacha boradigan Dekan platosini tashkil etadi. Ular AQSHning shimoliy-g'arbida va Sibirda ham mavjud. U vaqtarda Yer yoriqlaridan quyuладigan bazalt lavalarini tarkibida kremnezyom (50%) kam va ikki valentli temirga boy (8-12%) bo'lgan. Lava harakatchan, suyuq bo'lganligi sababli oqib chiqqan joyidan yuzlab kilometr uzoqlarga yoyilib ketgan. Ba'zi vulkan lavalarining oqimi 5-15 km ni tashkil etgan. AQSHda, Hindistondagi kabi, ko'p yillar davomida juda katta qalinlikdagi effuziv jinslar to'plangan. Bunday yassi xarakterli pog'onasimon tuzilishga ega bo'lgan lava hosilalari *platobazaltlar* yoki *trapplar* deb nom olgan.

Hozirgi vaqtida darzlik vulkanizmi Islandiyada (Laki vulkan), Kamchatkada (Tolbachi vulkan), Yangi Zelendiyaning bitta orolida rivojlangan. Islandiya orolidagi eng yirik lava quyulishi uzunligi 30 km ga boruvchi Laki Yer yorig'i bo'ylab 1783-yilda sodir bo'lgan. Bunda ikki oy maboynidagi Yer yuzasiga lava quyulib turgan. Shu vaqt davomida  $12 \text{ km}^3$  bazalt lavasi oqib chiqib, atrofdagi  $915 \text{ km}^2$  maydonni 170 m qalinlikdagi qatlama bilan qoplagan.

Shunga o'xshash hodisa 1886-yili Yangi Zelandiya orollaridan birida kuzatilgan. Ikki soat davomida 30 km masofada diametri bir necha yuz metrni tashkil qilgan 12 ta kraterlardan lava otilib chiqib turgan (4.29-rasm). Vulkan otilishi portlash va kul chiqish bilan birga kechgan, natijada 10 ming  $\text{km}^2$  maydon vulkan mahsulotlari bilan qoplangan, darzlik yoqinida uning qalinligi 75 m ga etgan. Portlash samarasi darzlikka tutash-



*4.29-rasm. Darzlik zonasida joylashgan vulkanlar.*

gan suv havzalaridan bug'lanish tufayli kuchaygan. Suv borligi tufayli bunday portlasblar freatik nomini olgan. Portlashdan so'ng ko'l o'rnidagi uzunligi 5 km va kengligi 1,5-3 km bo'lgan grabensimon botiqlik hosil bo'lgan.

**Markaziy turkumdagagi vulkanlar.** Bu effuziv magmatizmning



*4.30-rasm. Kamchatkadagi vulkan konusi. [www.phonokamchatka.au](http://www.phonokamchatka.au)*

chuqurligi esa bir necha 100 m ga boradi.<sup>24</sup>

eng keng tarqalgan turkumidir. Markaziy vulkanlar doimo bir kanal dan otilib turadi. Ular konus shaklida, yonbag'ri 30 - 40 li qiyalikka ega bo'ladi (4.31-rasm). Markaziy vulkan kraterlarining diametri ko'pincha 500 - 2000 m bo'lib, ba'zan 25 - 75 km gacha (Afrikada),

<sup>24</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007. p 277

Hozirgi vaqtida Yer sharida rivojlangan harakatdagi va so'ngan vulkanlarning ko'pchihg'i markaziy turkumdag'i vulkanlardir.

#### 4.12. Vulkan mahsulotlari

Vulkandan otilib yoki quyulib chiquvchi mahsulotlar fizik va kimyoviy xossalariiga qarab *gazsimon*, *qattiq* va *suyuq* bo'ladi.

**Gazsimon** **vulkan mahsulotlari** *fumarollar* va *sofionlar* bo'lib, vulkan faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Magmaning kristallanish jarayonida ajralib chiquvchi gazlar bosimni kritik nuqtagacha ko'taradi va atrofqa qaynoq suyuq lavning bo'laklarini sachratib, portlashga olib keladi. Vulkanlar otilishida atmosferada ulkan zambrug'simon gaz bulutlari vujudga keladi. 1902-yili Mon-Pele vulkani otilishida hosil bo'lgan bunday qaynoq bulutning kul va gaz tomchilari Sen-Per shahrini vayron qilgan va uning 28000 aholisi qurban bo'lgan. Fumarollarning quyidagi turlari ajratiladi:

- a) quruq – harorati 500°C ga yaqin, deyarli suv bug'lari bo'lmaydi; xlorli birikmalar bilan to'yingan,
- b) nordon yoki xlor-vodorod-oltingugurtli – harorati taxminan 300-400°C,
- d) ishqorli yoki ammiakti – harorati 180°C dan ortiq,
- e) oltingugurtli yoki solfatarlar - harorati 100°C ga yaqin, asosan suv bug'lari va vodorodsulfiddan tarkib topgan,
- f) karbonat angiditli yoki moferlar – harorati 100°C dan past.


Fumarol gazlar tarkibida suv bug'lari, H<sub>2</sub>, HCl, HF, H<sub>2</sub>S, CO, CO<sub>2</sub> va ozroq galogenlar bo'ladi. Fumarol gazlar lava yoki piroklast jinslardan ajralgan gazlar, atmosfera gazlari va ularning lava qoplamalari tagidagi organik moddalar bilan reaksiyaga kirishishidan hosil bo'lgan gazlar aralashmasidan iborat bo'ladi.

Ko'pincha nordon fumarol tarkibida suv bug'lari bilan aralash xlorid va sulfat kislotasi uchraydi. Ularning issiqligi 200 - 400°C bo'ladi. Vulkan konusi kraterida vujudga kelgan sulfat kislotali ko'llar ham mavjud (4.31-rasmlar). Nordon fumaroldan sof oltinguturt va qizil temir oksidi (gematit) kristallari cho'kmaga o'tadi (4.32-rasm).<sup>25</sup>

<sup>25</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 96,97.



4.31-rasm. Vulkan krateridagi kislotali ko'l. [www.ekosistema.ru](http://www.ekosistema.ru)



4.32-rasm. Kraterda hosil bo'lgan oltингugurt kristallari. [www.ekosistema.ru](http://www.ekosistema.ru)

Suyuq **vulkan mahsulotlarining** harorati 600-1200°C bo'ladi (4.33, 4.34 - rasmlar). Ular aynan lavadan iborat. Lavaning qovushoqligi tarkibidagi kremnezyom miqdoriga bog'liq. Uning miqdori yuqori bo'lganda (65% dan ortiq) lava nordon deb ataladi, u yengil, qovushoq, sust harakatli bo'ladi, ko'p miqdorda gazga ega, sekin soviyi. O'rta tarkibli lavalarda kremnezyom kamroq bo'lishi xarakterli (60-52%), ular nordon lavalardek qovushoq, lekin harorati yuqori (1000-1200°C gacha) bo'ladi. Asosli lavalarda kremnezyom 52% dan kam bo'ladi va shuning uchun ham ular ancha suyuq, harakatchan, erkin oqadi. Ularning sovish jarayonida yuzasida po'stloq hosil bo'ladi, ichida esa lavaning harakati davom etadi.



4.33-rasm. Oqayotgan lava. [www.liveinfo.ucoz.com](http://www.liveinfo.ucoz.com)




4.34-rasm. Lava oqmasi yo'lgacha chiqib ketgan. [www.liveinfo.ucoz.com](http://www.liveinfo.ucoz.com)

Lavaning kimyoviy tarkibi asosan kremnezyom (silikat kislotasi), alumimiy, temir, kalsiy, magniy, natriy va kaliy oksidlaridan iborat.



4.35-rasm. Vulkan bombasi.

[www.ekosistema.ru](http://www.ekosistema.ru)



4.36-rasm. Vulkan lapillası.

[www.ekosistema.ru](http://www.ekosistema.ru)

Nordon lavadan obsidian, riolit, granit porfir, felzit va boshqa nordon vulkanitlar hosil bo‘ladi. Bunday jinslar O‘rta Osiyoda – Korjantov, Chotqol - Qurama, Hisor tog‘ tizmalarida yuqori karbon, perm, quyi trias davrlari yotqiziqlari orasida uchraydi.


Asosli lava qotganda bazalt, diabaz va boshqalar, o‘rta lavadan – andezitlar, traxitlar hosil bo‘ladi.

**Qattiq vulkan mahsulotlari** vulkan bombalari, lapillilar, vulkan qumi va kulidan iborat bo‘ladi. Vulkan harakati vaqtida ular krat Yerdan 500-600 m/s tezlikda otilib chiqadi.

*Vulkan bombalari* – o‘lchami ko‘ndalangiga bir necha santimetrdan 1 m va undan ortiq bo‘lgan qotgan lavaning parchalaridir (4.35-rasm). Ularning massasi bir necha tonnani tashkil etishi mumkin (79 yili Vezuviyning otlishida vulkan bombalarining massasi o‘nlab tonnalarni tashkil etgan). Ular portlash orqali kechadigan vulkan harakati vaqtida magma tarkibidagi gazlarning juda tez ajralib chiqishi tufayli hosil bo‘ladi.

Vulkan bombalari ikki turli bo‘ladi. Ulardan birinchisi qovushqoq va gazlarga to‘yinmagan lavalardan hosil bo‘ladi. Sovish jarayonida chiniqish qobig‘i shakllanib ulgurganligi tufayli Yerga urilganda o‘zining to‘g‘ri sharsimon shaklini saqlab qoladi. Ikkimchi

turi suyuq lavadan shakllanadi, havoga otilib harakatlanayotgan vaqtida turli g‘aroyib shakllarga ega bo‘ladi va Yerga urilganda shakli yanada murakkablashadi.



4.37-rasm. Vulkan qumi.  
[www.ekosistema.ru](http://www.ekosistema.ru)



4.38-rasm. Vulkan kuli.  
[www.ekosistema.ru](http://www.ekosistema.ru)

*Lapillilar* nisbatan kichik o‘lchamli bo‘laklar bo‘ladi. Ular shlak deb ataluvchi 1,5-3sm li turli-tuman shakllarni hosil qiladi (4.36-rasm).

*Vulkan qumi* o‘lchami 0,5 sm atrofida bo‘lgan nisbatan mayda donalardan tarkib topgan (4.37-rasm).

O‘lchami 1 mm va undan kichik bo‘lgan zartalar *vulkan kuli* deyiladi, ular vulkan konusidan ancha uzoqlarda cho‘kmaga o‘tib, vulkan tuflarini hosil qiladi (4.38-rasm).

Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Tamboro vulkanidan 1815-yilda 150 km<sup>3</sup>, Koseguina vulkanidan (Markaziy Amerikada) 1835-yilda 50 km<sup>3</sup>, Taravera vulkanidan (Yangi Zelandyada) 1886-yilda 1,5 km<sup>3</sup> chaqiq jinslar otilib chiqib, krater atrofiga to‘plangan.

Vulkan kratYerdan otilib chiqadigan jinslar turli masofalarga tarqalib ketadi. Yirik jinslar kratYerdan 500 m dan 10 - 20 km gacha, qum 200 - 300 km gacha, kul va chang 600 - 700 km va undan ham uzoqqa borib tushishi mumkin.<sup>26,27</sup>

#### 4.13. Vulkan turlari

Vulkan jarayonlarini va mahsulotlarini muttasil kuzatish va tekshirish natijasida tarkibi har xil ekanligi aniqlangan. Otilib chiqayotgan vulkan mahsulotlarining miqdori, mahsulotlari turlarining nisbati (gaz, suyuq yoki qattiq) va lavaning qovushoqligi

<sup>26</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 95-98

<sup>27</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 273,274

bo'yicha vulkan otilishining gavay (effuziv), stromboli (aralash), gumbazli (ekstruziv) turlari ajratiladi. Gavay turi. Bunga Gavay orollaridagi va Islandiyadagi vulkanlar kiradi. Gavay orolida bir qancha vulkan kraterlari bor. Masalan, Xualalai (2521 m), Mauno - Loa va boshqalar Yer yorig'i ustida joylashgan. Ular orasida eng balandi Mauna - Loa vulkani bo'lib, dengiz sathidan 4366 m baland. Bu vulkan 1843-yildan boshlab 1896-yilgacha har 2-3 yilda, ba'zan har yili otilib, o'zidan va yon yoriqlaridan olivinli bazalt lava chiqarib turgan.

Islandiyadagi so'nmagan vulkanlardan Kodlouttadingiya (1180 m) bor. Mahsuloti va harakati bilan boshqa vulkanlardan farq qiladi. Vulkandan harorati 1200°C ga yetadigan suyuq bazalt lava oqib chiqib turadi (4.39-rasm). Bu xil vulkanlardan bomba, kul chiqmaydi va ular portlamaydi. Bunday vulkanlarning mahsuloti qavat - qavat bo'lib yotadi, ularning konuslari qotgan lava qatlamlaridan iborat



*4.39-rasm. Suyuq qaynoq lavaning vulkan konusidan oqib chiqishi.  
www.liveinfo.ucoz.com*

bo'lib, yuzasining qiyaligi 5 - 8° ga boradi, tepadan qalqonga o'xshab ko'rnadi. Shuning uchun ularni ba'zan *qalqonli vulkan* deb ham atashadi.

Gavay turidagi harakatdagi vulkanlarning kraterida kamroq miqdorda gazga ega bo'lgan suyuq lava

bo'ladi. U kraterda qattiq qaynaydi – vulkan tepasidagi kichiroq ko'l juda ham chiroyli manzara hosil qiladi.

Xiraroq qizg'ish-jigarrang lava yuzasini davriy ravishda balandga otilib chiqayotgan lava yorqin oqimi yorib chiqadi. Vulkan harakatlangan vaqtida lava ko'lining sathi asta-sekin zarbasiz va portlashsiz ko'tarilib boradi, keyim lava krater chetidan oshib tushadi va o'nlab kilometrli keng maydonlarga yoyilib ketadi. Lava juda suyuq bo'lganligi sababli uning tezligi 30 km/s gacha boradi. Gavay turidagi vulkanlarning davriy ravishda otilib turganligi sababli vulkan

**orollarining hajmi yonbag'irlaridu** yangidan otilib chiqqan lavalar **qotishi hisobiga oshib boradi**. Masalan, Gavay orolidagi Mauna-Loa **vulkanining chiqargan mahsuloti**  $21103 \text{ km}^3$  bo'lib, bu Yer sharida **ma'lum bo'lgan har qanday vulkannikidan ko'pdir**. Gavay turi **bo'yicha Afrikaning sharqiy qismidagi Samoa orollaridagi vulkanlarda, Kamchatkada va Gavay orollarining o'zida - Mauna-Loa va Kilaueada vulkan otiladi**.



**4.40- rasm. Stromboli vulkanining  
otilishi. www.copypast.ru**

portlash va zilzilalar bilan birga kechadi (4.40-rasm). Ba'zan Yer yuzasiga lava oqib chiqishi kuzatiladi, ammo uning qovushoqligi yuqori bo'lganligi sababli oqimi uzoqqa boramaydi.



4.41-rasm. Etna vulkanining otilishi www.elf.ru

### **Stromboli tuji.**

Stromboli turining etaloni bo'lib O'rta Yen dengizidagi Stromboli (Lipar orollari) va ular nining otilishi hisob lanadi. Bu turdagи vul kanlar odatda stratovul kanlar bo'lib, ularda vulkan otilishi suv bug'i, vulkan kuli, lapillilar chiqarib kuchli

Bunday tur-dagi vulkanlarning otilishi Markaziy Amerikadagi Itsal-koda, Yapomya-dagi Mixara va

Kamchatkadagi  
bir qator vulkan-  
larda (Klyuchevsk,  
Tolbachev va b.)  
kuzatiladi. Vezu-  
viy, qisman Etna  
va Vulkan (O'rta  
Yer dengizi) vul-

kanlarining otilishidan oldin kuchli zilzila sodir bo'lgan. Keyinchalik kraterdan balandga qarab kengayib boruvchi oq rangli bug' ustuni ko'tarilgan. Otilib chiqayotgan kul va jins bo'laklari hisobiga portlash ustuni asta-sekin qora bulutga aylangan va Yerga dahshatl jaladek yoqqan. Lava nisbatan kam chiqqan. Uning tarkibi o'rtacha bo'lgan va tog' yonbag'ridan 7 km/soat tezlik bilan oqib tushgan. Bunda asosiy talofat keltirgan zilzila va Yerga yog'ilgan vulkan kuli hamda jins bo'laklari va qotgan lavadan iborat bombalari bo'lgan. Jala kul bilan birga suyuq loyqa hosil qilgan va Vezuviy atrofidagi shaharlarni - Pompey (janubda), Gerkulanum (janubiyg'arbda) va Stabiyani (janubiy-sharqda) ko'mib tashlagan.

**Vezuviy - Etna turi.** Italiyaning Neapol shahri yaqinidagi Vezuviy vulkani bilan Sitsiliya orolidagi Etna vulkani nomidan olingan (4.41-rasm). Kamchatkadagi bir qancha vulkanlar shular qatoriga kiradi. Vezuviy vulkani atrofida diametri 15 km li Somma kalderasi hosil bo'lgan. Vezuviy uning o'rtasida joylashgan bo'lib, diametri 3 km li krater hosil qilgan.


Bu vulkanlardan chiqadigan lava o'rta va nordon tarkibli bo'lganligi sababli, ularda SiO<sub>2</sub> ko'p, lava ba'zan vulkan krateri og'zida qotib qoladi. Lava ostida magmadan ajralgan gazlar yig'ilib qolib, qayta otiladi. Ikkinci inarta otilgan paytda kuchli portlash yuz beradi. Bu guruhga tegishli vulkanlarning lavasi quyuq bo'ladi.

Vezuviy guruhidagi vulkanlar otilganda dastlab suv bug'i bilan quyuq tutun va gaz chiqadi. Bu jarayon kuchaya borib, kuchli portlash ro'y beradi (kul, so'ng bombalar, qum, shag'al otilib chiqadi). So'ngra hamma yoqmi yoritib qip - qizil cho'g'dek quyuq lava oqib chiqqa boshiydi va u vulkan krateridan atrofga 5 - 4 km gacha oqib boradi.

Vulkan krateridan chiqqan qattiq va suyuq mahsulotlar uning atrofida yig'alib konus shaklida qavat - qavat bo'lib joylashadi. Vulkandan otilib chiqqan lava vulkan kraterida uzoq vaqt qotmay yotadi. Kraterdan gaz va bug' otilib turadi. Bu guruh vulkanlarga miloddan 700 yil avval otila boshlagan Etna (Sitsiliya), Vezuviy (Italiya, O'rta Yer dengizdag'i vulkan) va boshqalar kiradi. Alaid vulkani Kuril arxipelagining birinchi shimoliy orolida joylashgan va Kuril vulkanlari orasida eng faoli hisoblanadi. U eng baland (2239 m) va dengiz sathidan bevosita to'g'ri konus shaklida ko'tarilgan. Konus

uchida kichikroq botiqlik bo'lib, unda vulkanning markaziy krateri joylashgan. Otilish xarakteri bo'yicha Alaid vulkan etna-vezuviy turiga kiradi. Keymg'i 180 yilda u sakkiz marta harakatga kelgan.

**Mon-Pele turi.** Martinika orolidagi Mon - Pele vulkanı nomidan olingan. Bu guruhdagi vulkanlar boshqa vulkanlardan kuchli portlashi va kraterida lava qotib qolishi bilan farq qiladi (4.42-rasm). Magmadan ajraluvchi gaz krater ostida to'planadi. Gaz bir necha yillardan so'ng to'satdan portlab otiladi. Masalan, 1902-yilda Mon - Pele vulkanı to'satdan juda qattiq kuch bilan otilgan paytda fransuz geologı Lakurua vulkan otilishini kuzatgan.



4.42-rasm. Mon - Pele vulkanining portlashi. [www.elf.ru](http://www.elf.ru)

Uning aytishicha, vulkan krateridan qizigan pemza, lapillilar qip - qizil bo'lib, kul, gaz va quyuq suv bug'lari bilan juda baland otilib chiqqan. Bu mahsulotlar tog' yonbag'ri bo'ylab minutiga 950 m tezlikda pastga harakat qilgan. Qizigan gaz, kul va boshqa mahsulotlar harorati taxminan 700 -

800° C ga yetgan.

Martimka orotidagi San - Per shahri bir necha daqiqa ichida vulkan kuli ostida qolib ketgan. Mon - Pele vulkanı to'xtagach, kraterdan chiqqan quyuq yopishqoq lava krater tepasida katta ustundek (300 m) baland ko'tarilib qolgan. *Mon-Pele so'zi oqbosh ma'nosini anglatadi.*

Vulkan chiqarib tashlagan mahsulotlar (pemza, lapilli, bomba, shag'al, qum, kul) cho'kindi jinslar bilan birga aralashib *tuffit* deb ataladigan tog' jinslari uyumini hosil qiladi. Agar lava ichida vulkan bombalari va qirrali jinslar ko'p bo'lsa, ular vulkan *brekchiyasi yoki lavobrekchiya* deyiladi.

**Krakatau turidagi** vulkanlarning etalonı qilib Sumatra va Yava orollari orasida joylashgan shu nomli vulkan otilishi nomidan

olingan. 1883-yilning 20-mayida nemis harbiy kemasi Krakatau orolining ustida ko'tarilgan ulkan ko'piksimon bulutni kuzatishgan. Bu bulutning balandligi 10-11 km ga yetgan, portlashliar 10-15 daqiqada takrorlanib, 2-3 km balandlikka vulkan kuli otilgan. Vulkan kuli butun tun bo'yi cho'kmaga o'tib, kema ustida 1,5 m li qatlarni hosil qilgan. Yava va Sumatra orollarida yashovchi aholiga katta zarar yetgan. Bu orollarda 40000 dan ortiq odam halok bo'lgan (4.43-rasm).



4.43-rasm. Vulkan buluti. [www.elf.ru](http://www.elf.ru)

4.43-rasm. Vulkan buluti. [www.elf.ru](http://www.elf.ru)  
da chuqurligi 360 m li o'yilma hosil bo'lgan. Vulkan otlishi tufayli vujudga kelgan sunami bir necha soat davomida Fransiya, Panama va Janubiy Amerika sohillariga yetib borgan. Krakatau vulkanidan ko'tarilgan chang va to'zonlar atmosferaning yuqori qismini qoplagan va uch - to'rt oy maboymda Yerni aylanib yurgan.

**Maar turi (Bandaysan).** Bu turdag'i vulkan otlishi o'tgan geologik epoxalarda kuzatilgan. Ular kuchli gaz portlashi bilan farq qilgan, ko'p miqdorda gaz va qattiq mahsulotlar ajratib chiqargan. Magmaning qovushqoqligi juda yuqori bo'lganligi sababli lava oqib chiqmasdan vulkan bo'g'izini yopib qo'yib, portlashga olib kelgan. Kuchli portlash tufayli diametri yuzlab metrdan bir necha kilometrga boruvchi voronkalar hosil bo'lgan. Voronkasimon quvur kraterining emi 250 dan 3000 m gacha bo'lib, atrofida jinslar aylana shaklida to'planadi. Bunday vulkanlar Yevropada Reynbo'yi viloyati yaqinida uchraydi. Uning krateri ko'pincha suv bilan to'lgan bo'lib, mahalliy nom bilan *maar* deb ataladi.

**Maarlar** konussiz nisbatan yassi tubli kraterlar bo'lib, diametri 200 dan 3000 m gacha, chuqurligi esa 150 dan 400 m gacha boradi.

Kuchli vulkan otlishi tufayli Krakatau arxipelagining eng katta oroli bo'lgan Rakatanning uchdan ikki qismi vayronaga aylangan. Danan va Perbuatan vulkan konuslari bilan birgalikda orolning 416 km<sup>2</sup> maydoni havoga otilgan. Ularning o'mi-

Krateri otlib chiqqan mahsulotlardan to'plangan g'ovlar bilan o'rالgan va suv bilan to'lган bo'ladi.

Maar turidagi portlash trubkalariga *diatremlar* juda o'xshash (4.44-rasm). Ular Sibir, Janubiy Afrikada va boshqa joylarda mavjud. Bu qatlamlarning vertikal kesib o'tuvchi silindrik trubka bo'lib, voronkasimon kengayish bilan tugaydi. Diatremlar slanes va qum bo'laklaridan tarkib topgan brekchiyalar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Brekchiyalarda olmos mavjud bo'ladi, ulardan olmos sanoat miqyosida qazib olinadi. Keyingi vaqtida (1975-1980) Mars bilan Oyning yuzasini tekshirib, u Yerdagi kuzatiladigan chuqurlar kometa urilishdan hosil bo'lган deb taxmin qilinmoqda. Yer yuzidagi Maar tipidagi chuqurlar ham shunday urilishdan hosil bo'lган

deb hisoblanmoqda. Alyaskadagi 1912-yilda otilgan Katmay vulkani va boshqa vulkanlar ham Banday-san vulkani guruhiга kiradi.<sup>28,29</sup>



4.44-rasm. Diatrem.

*Vulkanlarning geografik tarqalishi*. Hozirgi vaqtida ma'lum bo'lган harakatdagi vulkanlar 500 dan ortiq. 1970-yillarda okeanlarni tekshirishlar natijasida vulkanlarning quruqlik va okean ostida ma'lum bir yo'nallishda joylashganligi aniqlandi.

Vulkanlar asosan ikki qambarda tarqalgan bo'lib, birinchisi Tinchi okean «*olovli*» halqasi deb ataladi. Bu yerda ma'lum bo'lган barcha harakatdagi vulkanlarning 60% joylashgan. Tinchi okeanning g'arbida Kamchatka yarimorolidan boshlangan bu vulkan halqasi Kuril orollari orqali janubiy-g'arbga davom etadi. Yaponiya, Filippin, Yangi Gvineyadan o'tib, Yangi Zelandiyagacha cho'zilib boradi. Tinchi okeanning sharqidan Amerika materigining janubidagi Olovli yer orolidan shimol tomonga - And, Kordilera tog'larining yonidan o'tadi va shimolda Aleut orollari va Alyaska orqali yana Kamchatka yarimoroliga

<sup>28</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 99-105

<sup>29</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007 p 277-281

tutashadi. Bu vulkan halqasini «Tinch okean geosinklinal mintaqasi» deb yuritiladi.<sup>30</sup>



4.45-rasm. Filippindagi Mayon vulkani. [www.news.bbc.cj.uk](http://www.news.bbc.cj.uk)



4.46-rasm. Kilimanjaro vulkani. <http://fotoart.org.ua>

Bundan tashqari Tinch okeanning markaziy qismida ham bir qancha harakatdagi vulkanlar bor. Masalan, ekvator yaqinidagi Galapagos orolida ikkita harakatdagi vulkan bor, undan janubda Pasxi va Xuan Fernandes, g‘arbda Samoya, Tonga, Kermadek vulkanli orollari mavjud.

Ikkinci yirik vulkan halqasi yosh tog‘lar o‘lkasida joylashgan bo‘lib, O‘rta Yer dengizi - Himolay - Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasini egallaydi. Bu halqaga Vezuviy, Etna vulkanlari, Lipari orollaridagi va Egey dengizdag‘i vulkanlar (Santorik) va Kavkaz tog‘laridagi so‘ngan Elbrus, Kazbek, Ararat, Erondagi Demavenit vulkanlari, Malayya arxipelagi va undan janubdag‘i harakatlanuvchi vulkanlardan Sumtradagi 11 ta, Yavadagi 15 ta, Kichik Zont orollaridagi 3 ta vulkan kiradi. Konusi aniq ifodalangan vulkanlardan biri Filippindagi Mayon vulkani (4.45-rasm) hisoblanadi.

Bulardan tashqari Atlantika okeanida 3 ta yirik vulkanli o‘lka: shimolda Yan - Mayen, janubroqda Katta Antil orollarida mashhur Mon-Pele vulkani otilib turibdi.

Hind okeanida ham bir necha so‘nmagan vulkanlar, masalan, Madagaskar yaqinidagi Komor, Mavrikiy, Reyunon orollarida va Antarktika materigi atrofidagi orollarda ham so‘nmagan (Erebus) vulkanlar bor. Hozirgi vaqtida 513 ta harakatdagi va 228 ta so‘ngan vulkanlar qayd etilgan.

<sup>30</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007 p 284

O'zbekistonda Qurama, Oloy, Turkiston tog'larida va Toshkentdan 80 km sharqdagi Chotqol tog' tizmasidagi Go'sh, Shovas, Oqsoqota soylari atrofida nordon vulkan jinslari ko'p. Vulkanlarning harakati va Yer sharida tarqalishi tarixini o'rganish ma'danli konlarni qidirishda ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Okean o'rtafigi yoki chekka orollardagi harakatdagi vulkanlardan ko'pincha asosli lava, materik chekkasidagi va o'rtafigi gilardan nordon va o'rtalikli lavalar chiqadi. Bu xususiyat Yer po'stining rivojlanishini o'rganishda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik.

*Quruqlik vulkanlari.* Vulkan jarayoni faqat okeanda yoki orol, yarimorollarda sodir bo'lmasdan, balki materik orasidagi tog'lar, platomlarda ham kuzatiladi va o'z mahsuloti bilan Yer po'stini vulkan jinsi va foydali qazilmalar bilan boyitadi. Materikdagi vulkanlar okean va orollardagiga nisbatan paydo bo'lishi va mahsuloti bilan farq qiladi.

Quruqlikda neogen va antropogen davrida harakatda bo'lgan vulkanlardan xarakterlilari Markaziy va Sharqiy Afrika, Arabiston, Yevropaning g'arbi, Osiyoning markazi, shimoliy - sharqiy va sharqiy qismida ko'proq tarqalgan.

Afrikaning markazida va sharqiy qismidagi vulkanlar asosan paleogen va antropogen davrida hosil bo'lgan katta Yer yoriqlarida joylashgan bo'lib, yangi strukturalar hosil bo'lishiga olib kelgan. Afrikaning shimoliy - g'arbida 3000 km cho'zilgan tog'liklar Markaziy Afrika do'ngligidan mintaqaviy Yer yorig'i bilan ajralib turadi. Janubda Janubiy Afrika tog'lari (eni 2,5 ming km) bor. Materik sharqida esa 4 ming km ga cho'zilgan baland Afrika tog'lari bo'lib, u Zambiyadan boshianib Qizil dengizgacha boradi. Yer yoriqlaridan chiqqan bazalt tarkibli vulkan jinslari qari (tokembriy) tog' jinslari ustiga quyilgan.

Bunday vulkan faolyati ayrim joylarda hozirgi vaqtida ham kuzatiladi. Masalan Afrikadagi Kilimanjaro vulkan guruhidan Kibo 6010 m shular jumlasidandir (4.46-rasm).

#### **4.14. Balchiqli vulkanlar**

Bizga ma'lum bo'lgan vulkanlar ichida balchiqli vulkanlar ham bor. Ularning mahsuloti suyuq, balchiq aralash suv va gazdan iborat

bo'ladi. Balchiqli vulkanlar Sitsiliya, Yangi Zelandiya orollarida, Markaziy Amerikada, Apsheron, Taman va Kerch yarimorollarida, Saxalinda va boshqa joylarda uchraydi. Balchiqli vulkanlar Yer qatlamlari ichidagi gaz va bug'larning turli g'ovak qatlamlardan o'tib, ular orasidagi gilli jinslarni yumshatib, yopishqoq balchiqqa aylantirishi natijasida vujudga keladi.

Neft konlari bor mintaqalardagi balchiq vulkanlar o'zidan ko'p miqdorda uglevodorod ajratib chiqaradi. Otilib chiqayotganda harorati past bo'ladi.

Balchiq vulkanizm – bu vulkanizm viloyatlarining tektonik rivojlanishi hamda zaminning neftgazliligi bilan chambarchas aloqada bo'lgan juda qiziqarli va sirli tabiat hodisasidir. Bunday vulkanlarning hosil bo'lish mexanizmi juda murakkab va hozirgacha noma'lum. «Balchiq vulkan» atamasi uzoq vaqt munozarali bo'lib kelgan va geologik adabiyotlarda keyingi davrlardagina o'rinn oldi. Yerda ma'lum bo'lgan balchiq vulkanlarning umumiy soni 700 dan ortiq. Ularning ancha qismi Kavkazda joylashgan.

Grifonlar – bu balandligi 3 m gacha boradigan, odatda 1,5 m atrofida bo'lgan o'ziga xos mini-vulkanlardir. Grifonlar Yer yuzasiga il, gaz, suv, neftni olib chiqadi, ammo ularda tog' jinslarining qattiq bo'laklari uchramaydi. Odatda ular turli konsistensiyaga – qaymoqsimon quyuq eritmadan suyuq sopka iligacha ega bo'ladi (4.47-rasm).

Vulkan otilishidan oldin krater g'ovi ancha ko'tariladi, balchiq va gazlar chiqaboshlaydi hamda qarsillagan ovoz eshitiladi. Bu belgililar xavfli joydan oldindan chiqib ketish imkoniyatini yaratadi. Balchiq vulkanning kuch bilan otilishi – bu Yer qa'rida to'planib qolgan uglevodorod gazlari bo'lib, bosimdan qutulib darzliliklar bo'ylab Yer yuzasiga intilishidir. Yer yuzasida ular o'z-o'zidan yonib ketadi. Bunda alanga balandligi 500 m, yonish harorati 1200°C ga yetishi mumkin. Olov bilan birga osmonga ko'p miqdorda balchiq, tog' jinslarining bo'laklari va suv otilib chiqadi. Bu vulkan otilishining ajoyib manzarasi hisoblanadi (4.48-rasm).

Ozarboyjon balchiq vulkanlar rivojlangan eng yirik hudud hisoblanadi (4.49-rasm). Bunday vulkanlar Saxalinda, Qrimda, Meksikada, Kolumbiyada, Italiyada, Hindistonda, Yaponiyada,



4.47-rasm. Grifon.  
<http://travel.gala.net>



4.48-rasm. Balchiq vulkan mahsuloti. <http://travel.gala.net>

Xitoyda va Malay arxipelagida ham tarqalgan. Balchiq vulkanlar faol burmali tektonik harakatlar sodir bo'layotgan va qalin cho'kindi yotqiziqlar rivojlangan hududlarda paydo bo'ladi. Bu tasodif emas - ularning hosil bo'lishida cho'kmdi jinslar orqali gazlarning otilib chiqishi uchun imkoniyat yaratuvchi Yer yoriqlari, Yer qa'rida anomal yuqori qatlam bosimini keltirib chiqaruvchi katta qalinlikdagi gilli jinslar va suvli gorizontlar muhim ahamiyatga ega. Yer yoriqlari gaz va suv uchun migratsiya yo'li hisoblanadi. Gazlar va suv gilli va qattiq jinslarni Yer yuzasiga o'zi bilan olib chiqadi.




4.49-rasm. Apsheron yarimorlidagi(Ozarboyjon)balchiq vulkanlar.  
<http://travel.gala.net>

Ba'zi balchiq vulkanlar nisbatan doim, ba'zilari esa davriy ravishda faoliyat ko'rsatadi. Balchiq vulkanlarning otilishi inson hayotiga xavf solmaydi va moddiy zarar keltirmaydi.

Balchiq vulkanlarning otilish sababi yonuvchi gazlar hisoblanadi. Ular darzlik va burdalanish zonalari bo'ylab Yer yuzasiga ko'tarilishida Yerosti suvli gorizontlaridan o'tadi, bosimli suvlar bilan suyuqlangan gillarni o'zi bilan balandga olib chiqadi. Agar otilib chiquvchi materiallar orasida suv va gil ko'p bo'lsa, unda Yer yuzasida suyuq balchiq bilan to'ldirilgan havzalar – *salzlar* paydo bo'ladi (4.50-rasm). Diametri 30 m dan ortiq bo'lgan ularning eng yirigi balchiq vulkan ko'li deb ataladi. Salzlarning o'rta qismida loyqa otilib chiqadigan grifonlar rivojlanadi (4.51-rasm).



4.50-rasm. Salza surati.  
<http://travel.gala.net>



4.51-rasm. Balchiq vulkan  
krateri <http://travel.gala.net>

Agar otilib chiqayotgan materiallar orasida tog' jinslarining mayda bo'laklari ko'proq bo'lsa salzlar o'mida past nishablikdag'i konus yoki tepalik hosil bo'ladi. Bunday balchiq vulkan tepaliklarining uchida krater yoki kaldera hosil bo'ladi. Balchiq vulkan tepaliklarining balandligi bir necha o'nlab metrdan yuzlab metrga yetishi mumkin. Vulkanlarning ildizi 12-15 m chuqurlikkacha boradi. Uglevodorod gazlari yonuvchi bo'lganligi sababli ko'pincha balandligi yuzlab metrga boruvchi yong'in alangasi ko'tariladi.

Quruqlikdagi balchiq vulkanlardan tashqari suvosti balchiq vulkanlari ham ma'lum. Ularning faoliyati tufayli orollar hosil bo'ladi, ammo ular to'lqinlar ta'sirida tez yemirilib ketadi. Balchiq vulkanlar mavjud bo'lgan dengiz qismlari kema qatnovi uchun xavfli hisoblanadi va xaritalarda albatta qayd etiladi.

Yer yuzasiga turli tog' jinslari, gazlar va minerallashgan suv olib chiquvchi balchiq vulkanlarning chuqurligi ba'zan 10 - 12 km ga boradi, bu hozircha burg'ilash texnikasi yetib borishi uchun murakkab masala hisoblanadi.

### **O'tilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar**

1. Magma nima va u qanday hosil bo'ladi?
2. Magmatizm qanday jarayon?
3. Intruzyilar Yer po'stida qanday shakllarni hosil qiladi?
4. Apofizalar nima?
5. Muvofig intruziv shakllarni sanab bering?
6. Nomuvofig intruziv tanalarga qanday struktura shakllari kiradi?
7. Serogen strukturalar qanday xususiyatlarga ega?
8. Issiq kontaktbo'yi o'zgarishlari nimalardan iborat?
9. Vulkan-tektonik strukturalar qanday hosil bo'ladi?
10. Magmatik jinslar qanday hosil bo'ladi?
11. Magmatik jinslar qanday tamoyillar asosida tasniflanadi?
12. Intruziv jinslarning tipik turlarini ta'riflab bering.
13. Subvulkan jinslarning tipik turlarini ta'riflab bering.
14. Vulkanogen jinslarning tipik turlarini ta'riflab bering.
15. Pegmatitlar qanday yo'llar bilan hosil bo'ladi?
16. Vulkan-tektonik strukturalar qanday hosil bo'ladi?
17. Suvosti va quruqlik vulqon yotqiziqlari qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
18. Vulkanizm jarayonining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
19. Vulkan morfologiysi, elementlari deganda nimani tushunasiz?
20. Vulkan mahsulotlariga izoh bering.
21. Vulkan turlari qanday belgilarga ko'ra ajratiladi?
22. Vulkanizm mintaqalarini xaritada ko'rsating.
23. Balchiq vulkan qanday hosil bo'ladi?

## **CHO'KINDI QATLAMLAR**

### **5-bob. CHO'KINDI TOG' JINSLARI VA ULARNING TASNIFI**

#### **REJA**

- 1. Cho'kindi jinslar haqida umumiy ma'lumotlar.**
- 2. Cho'kindi jinslarning tasmifi va mineral tarkibi.**
- 3. Cho'kindi jinslarning xossalari (strukturasi, teksturasi va sementi).**
- 4. Cho'kindi jinslarning turlari (alumosilikatli, karbonatli, kremmyli (silitsitli), galogenli, allitli, temirli, marganetsli, fosfatli jmslar va kaustobiolitlar).**

**Kalit so'zlar:** Cho'kindi jins, bo'lakli jinslar, kimyoviy va organik cho'kindilar, psefit, psammit, alevrit, pelit, alevrolit, lyoss, geyzerlar, kaustobiolit, trepel, galoid, mergel, xemogen, organogen.

#### **5.1. Cho'kindi jinslar haqida umumiy ma'lumotlar**


Cho'kindi jinslar turli tabiiy-iqlimi sharoitlarda quruqlik yuzasida va suv havzalarining tubida shakllanadi. Cho'kindi hosil bo'lish jarayoni *litogenez* deb ataladi. N.M.Straxov (1963) bo'yicha litogenezning 4 ta turi ajratiladi: gumid (nam-iliq iqlimli), arid (quruq-issiq iqlimli), nival (nam-sovuq iqlimli) va vulkanogen-cho'kindi. Litogenez turlariga bog'liq holda boshqa harcha teng sharoitlarda to'plangan jinslarning tarkibi va sementi turlicha bo'lishi mumkin.

#### **5.2. Cho'kindi jinslarning tasmifi va mineral tarkibi**

**Cho'kindi jinslarning tasmifi.** Cho'kindi jinslarni tasniflash tamoyillari V.P.Baturin (1932y.), M.S.Shvetsov (1934y.) L.V.Pustovalov (1940y.), V.I.Luchitskiy (1948y.), G.I.Teodorovich (1948y.), V.M.Straxov (1960y.) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan

taklif etilgan. Ammo cho'kindi jinslarning yagona tasnifi hozirgacha mavjud emas.

Har bir tadqiqotchi bajariladigan vazifaga qarab u yoki bu tasnidan foydalanadi. Eng keng tarqalgan tasniflar cho'kindi jinslarning moddiy tarkibini o'rghanishga va hosil bo'lish sharoitlariga asoslangan. Birinchi tasnifga muvofiq cho'kindi jinslar alumosilikatli, karbonatli, kremniyli (silitstli), galogenli, allitli, temirli, marganetsli, fosfatli jinslarga va kaustobiolitlarga bo'linadi. Ikkinci tasnif bo'yicha cho'kindi jinslar bo'lakli, xemogen, organogen va aralash tarkibli turlarga ajratiladi (5.1-rasm).<sup>31</sup>



**5.1-rasm. Cho'kindi jinslarning bo'lakli, xemogen, organogen va aralash tarkibli turlarga ajratilishi.**  
**(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**

Alumosilikatli jinslar tub jinslarning mexanik nurash mahsulotlari hisoblanadi va aksariyat hollarda nurashga barqaror bo'lgan

<sup>31</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012. p 162,163

minerallar va jinslarning bo'laklaridan tarkib topgan bo'ladi. Zarra-chalar o'lchamiga qaramasdan bo'lakli jinslar bo'shoq yoki sementlangan bo'lishi mumkin.

Karbonatli va kremniyli jinslar ham kimyoviy, ham organogen yo'llar bilan hosil bo'lsa, galogen jinslar faqat kimyoviy, kaustobiolitlar esa faqat organogen yo'llar bilan shakllananishi mumkin.

Alumosilikatli cho'kindi jinslar bo'shoq (graviy, qum, alevrit, glina) va sementlangan (gravelit, qumtosh, alevrolit, argillit) bo'lishi mumkin.

**Cho'kindi jinslarning mineral tarkibi.** Cho'kindi jinslarning asosiy minerallari bo'lib kvars, opal, xalsedor, limonit, gyotit, gidrogyotit, gematit, gidrogematit, magnetit, psilomelan, pirolyuzit, manganit, pirit, markazit, gips, angidrid, kalsit, aragonit, dolomit, siderit, ankerit, shamozit, vivianit, glaukonit, xloritlar, gidroslyuda, kaolinit, montmorillonit, paligorskit, gidrosilapatit, karbonatapatit va organik moddalar hisoblanadi.


### 5.3. Cho'kindi jinslarning xossalari

Cho'kindi jinslarning xossalariiga ularning strukturasi, teksturasi va sementi kiradi.

**Cho'kindi jinslarning strukturasi.** Tog' jinslarining strukturasi ularni tashkil qilgan bo'laklarning o'lchami bilan ifodalanadi. Masalan: qumtoshlar yirik, o'rta va mayda donali; kong-lomeratlar xarsangli, yirik, o'rta va mayda yoki aralash g'o'lakli bo'lishi mumkin. Tog' jinslarining strukturasi orqali ularni hosil qilgan jarayon to'g'risida fikr yuritish mumkin. Bulardan tashqari terrigen cho'kindi jinslarda struktura hosil qiluvchi bo'laklar, donalar va zarralarning silliqlanganligi va saralanganligi ham tabiiy geografik muhitni tiklashda qimmatli ma'lumotlar beradi (5.2-rasm).

Terrigen jinslar uchun «struktura» tushunchasi ularda sinch hosil qiluvchi bo'laklarning o'lchami, shakli va dumaloqlanishini, yuzasining xususiyatlarini, biokimyoviy jinslar uchun esa kristall donalar o'lchami va shakhni ifodalaydi.

Bo'lakli jinslarda quyidagi strukturalar ajratiladi:



### 5.2-rasm. Struktura hosil qiluvchi donalarning tarkibi, o'lchami, shakli.(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)

0,01 mm dan mayda.

*Biokimyoiy jinslarning strukturasi.* Kimyoviy yo'l bilan hosil bo'lgan cho'kindi jinslar uchun ham kristallar o'lchami bo'yicha strukturalar ajratiladi. Eritmalardan cho'kmaga o'tish, kristallanish va qayta kristallanish orqali vujudga kelgan kristallarning o'lchami nisbatan o'zgaruvchan bo'ladi. Bunda kristallar o'lchami mineralning o'z xususiyati, uning vujudga kelishi va o'sishi sharoitlari bilan bog'liq va shuning uchun ham favqulodda muhim hisoblanadi.

Kristallar dag'al kristalli, yirik, o'rta, mayda va juda mayda kristalli va pelitomorfli strukturalarga ega bo'ladi.

Kimyoviy yo'l bilan hosil bo'lgan jinslarda kristallar kristallanish tartibiga qarab idiomorfli, gipidiomorfli va ksenomorfli strukturalar ajratiladi.

Organogen jinslarning strukturasi ularni hosil qiluvchi organik qoldiqlar bo'yicha aniqlanadi. Agar chig'anoqlar butun saqlangan bo'lsa biomorfli, parchalangan bo'lsa detritli strukturalarni vujudga keltiradi. Aralash tarkibli cho'kindi jinslar uchun pelitomorfli struktura xarakterli bo'ladi<sup>32,33</sup>

**Cho'kindi jinslarning teksturasi.** Tog' jinslarining *teksturasi* deb ularning tarkibidagi struktura hosil qiluvchi donachalarining

- *psefitli* (dag'al bo'lakli), bo'laklar diametrining o'lchami 1 mm dan katta;

- *psammitli* (qumli), donalar o'lchami 1 dan 0,1 mm gacha;

- *alevritli* (changsimon), zarralar o'lchami 0,1 dan 0,01 mm gacha;

- *pelitli*, zarachalar o'lchami

<sup>32</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012 p 166


<sup>33</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger,T.H.F Press,R Siever 2007 p.111-114

o'zaro ma'lum tartibda joylashishiga va qatlamlar yuzalarida har xil kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan notejis yuzalarga aytildi. Teksturalar tog' jinslarining hosil bo'lishidagi tabiiy geografik muhit bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni mukammal o'rganish va tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Teksturalar kelib chiqishiga qarab 4 guruhga: 1) *dinamik*, 2) *deformatsion*, 3) *biogen* va 4) *kimyoiy* teksturalarga bo'linadi.

*Dinamik teksturalar* cho'kindi hosil bo'lish jarayonidagi suv va havo oqimlarining harakat faoliyati tufayli vujudga keladi. Bunda cho'kindilarning qatlamlanishi alohida xususiyatlarga ega bo'ladi.

Moddiy tarkibi va strukturasi bo'yicha bir jinsli, ostki va ustki tomonlaridan taxminan parallel chegaralar bilan ajralib turuvchi geologik tanaga *qatlamlar* deyiladi. Bir-biriga muvofiq yotuvchi qatlamlar tizimi *qatlamlanishni* tashkil etadi (5.3-rasm).



5.3-rasm. Cho'kindi jinslarning qatlamlanishni. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

Qatlamlar bir-biridan moddiy tarkibi, strukturasi va teksturasidan tashqari qalinliklari bilan ham farq qiladi. Qatlamlar qalinligining turlicha bo'lishi, cho'kindi hosil bo'lish muhitining

davomiyligiga, oqim zichligiga va cho' kindi hosil bo'lish tezligiga bog'liq.

Tarkibi	Donalar o'lchami
Shakli	Mo'ljallanishi
Joylashishi	P.-f(c, s, sh, o, p)

*5.4-rasm. Struktura hosil qiluvchi donalarning tarkibi, o'lchami, shakli, mo'ljallanishi va joylashish tartibi bo'yicha qat-qatlanish.*

Qatlamlarning o'zidagi dinamik teksturalar ularning ustki va ostki yuzalarida hamda ichida kuzatiladi. Ular struktura hosil qiluvchi donalarning moddiy tarkibi, o'lchami, shakli, mo'ljallanish va joylashish tartibi bilan ifodlangan bo'ladi (5.4-rasm).

Qatlamning ustki yuzasidagi teksturalar. Ryab belgilari. Qatlamlarning ustki yuzasidagi dinamik teksturalar asosan ryab belgilaridan iborat bo'ladi. Qumtosh, alevrolit va ba'zan ohaktosh qatlamlari o'lchami, shakli va joylashishi bo'yicha turli-tuman bo'lgan o'rakchilar va chuqurchalar tizimidan tarkib topgan to'lqinli yuzalarga ega bo'lishi mumkin. Bunday tekstura belgilari yumshoq cho'kindilar yuzasida zarralarning shamol, to'lqin va oqimlar harakati natijasida notejis taqsimlanishi tufayli vujudga keladi va *ryab belgilari* deb yuritiladi.

Ryab belgilari kelib chiqishi bo'yicha to'lqin, oqim va eol ryablariga bo'linadi.

*To'lqin ryablari* o'rakchalarining simmetrik tuzilganligi va o'zaro bir xil masofada joylashganligi bilan aniqlanadi. Ular suv havzalarining sohil sayozliklarida urinma to'lqinlar faoliyati tufayli vujudga keladi (5.5-rasm).

*Oqim ryablari* daryo yotqiziqlarida ham, havza yotqiziqlarida ham uchraydi. Ularga o'rakchalarining asimmetrik tuzilishi xosdir (5.7-rasm). Keng yuzada (sohilbo'yи tekisliliklarda) bir-biridan taxminan bir xil masofada parallel joylashgan mayda uzun o'rakchli qatorlardan iborat bo'ladi. Tor o'zanlarda esa qavariqligi oqim bo'yicha mo'ljallangan yarimoy shaklidagi tizimlarni tashkil etadi (5.6-rasm).



**5.5-rasm. Qatlam yuzasidagi simmetrik to'lqin ryablari.**



**5.6-rasm. Barxanlar yuzasidagi asimmetrik eol ryablari.**

*Eol ryablari* asosan quruq iqlimli o'lkalardagi sahrolar va yarimsahro barxanlari va sohilbo'yini dyunalari yuzasida shamol harakati tufayli shakllanadi (5.6-rasm). *Eol ryablari* ham oqim ryablari kabi asimmetrik tuzilishga ega bo'lib, ulardan indeksi bilan farq qiladi.




**5.7-rasm. Qatlam yuzasidagi simmetrik va asimmetrik to'lqin ryablari. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)**

Qatlamlarning ostki yuzasidagi teksturalar asosan alevrolitlar va slanetslar ustida yotuvchi qumtosh va ba'zan ohaktosh qatlamlarining ostki yuzasida uchrashi mumkin. Bu teksturalarning ko'pchiligi hali qotib ulgurmagan illi yotqiziqlar yuzasida oqim harakati tufayli vujudga keladigan chuqurlik va notejisliklarning aks tasviridan iboratdir. Ular oqim uyurmalari hosil qilgan yuvilish notejisliklari, begona jismalarning sudralish jo'yaklari va chiziqlari, ularning dumalash izlari va ryab helgilarning aks tasvirlaridan iboratdir.

Qatlamlarning ichki teksturalari morfologiysi va kelib chiqishi bo'yicha juda xilma-xildir. Ular to'rt guruhga: *horizontal*,

*to'lqinsimon, qiyshiq va gradatsion qat-qatliliklarga ajratiladi.* Bu teksturalar terrigen jinslardagi struktura hosil qiluvchi donalarning o'lchami, moddiy tarkibi, shaklining o'zgarishi, mo'ljallanishi va joylashish tartibi bo'yicha ifodalanadi.



**5.8-rasm. Gorizontal va qiyshiq qat-qatlilik.**  
(*Understanding Earth., J. Grotzinger va b.*)

*Gorizontal qat - qatliliklar* qatlamlanish yuzasiga parallel bo'lib, mayda zarrali yotqiziqlarda keng tarqalgan (5.8-rasm).

*To'lqinli qat - qatlilik* qirqimda *to'lqinsimon* tasviri bilan ifodalangan bo'ladi.

*Qiyshiq qat - qatliliklar* odatda qumli materialdan tuzilgan oqim ryablarining oqim yo'nalishi bo'yicha siljib borishi tufayli vujudga keladi, bu oqim rejimimng tez o'zgaruvchanligi bilan bog'liq.

Qiyshiq qat-qatliliklar ikki genetik turga bo'linadi. Ulardan biri bir tomonga qiyalangan bo'lib, suv va havo oqimlari tufayli vujudga keladi. Bunday qiyshiq chiziqlarning qiyalangan tomoni oqim yo'nalishimi ko'rsatadi.

Qiyshiq qat-qatliliklarning ikkinchi genetik turi qarama-qarshi tomonga qiyalangan o'zaro kesishuvchi qiyshiq chiziqlar to'plamidan iborat bo'ladi (5.9-rasm). Bunday dinamik tekstura



5.9-rasm. *Qatlam ichidagi qarama-qarshi tomonga qiyalangan qiyshiq qat-qatliliklar.* (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)

sohilbo'yi terrigen yotqiziqlarga xosdir. Ularning vujudga kelishi urinma to'lqinlar faoliyati bilan bog'liqidir.

*Gradatsion qat-qatliliklar* asosan den-gizlarning chuqur joylarida hosil bo'ladigan turbidit yotqiziqlariga xosdir.

Bunda hosil bo'lgan yotqiziqlar-

ning pastki qismini tashkil qilgan yirik donali materiallarning asta sekinlik bilan o'lchami bo'yicha kichrayib borib, loyqa jinslar bilan tugashini kuzatish mumkin.

*Deformatsion teksturalar* cho'kindi hosil bo'lgandan keyin, ular qotib va zichlashib ulgurmasdan ichki va tashqi kuchlar ta'sirida vujudga keladi. Ularga do'l va yomg'ir tomchilarining izlari, ko'pburchakli qurish darzliklari, qotib ulgurmagan yumshoq cho'kindilarning oqish izlari kiradi (5.10-rasm).

*Biogen teksturalar* har xil mayjudotlarning hayot-faoliyati natijasida vujudga keladi. Bunday teksturalar ularning izlari, yotish joylari bo'lishi mumkin. Ba'zi mollyuskalar dengiz qirg'og'i va tub tog' jinslarini, ularning siniq bo'laklarini va chig'anoqlarni parmalab iz qoldiradi.

Biogen teksturalar quruqlik va dengiz yotqiziqlarida ko'plab uchraydi. Terrigen alevrolitlar va qumlar *ixnofosilliylar* deb ataluvchi organizmlarning hayot-faoliyat izlariga ega bo'ladi. Chunki bunday izlar ko'rinarli bo'lishi uchun ular o'zaro strukturaviy



5.10-rasm. *Qatlam ko'pburchakli qurish darzliklari.*

kontrastlikka egadir. Organizmlar hayot-faoliyat izlarini qatlamlar-ning ustki yuzasida, ichida va ostki yuzasida kuzatish mumkin.

*Kimyoviy teksturalar* gil yotqiziqlari yuzasida har xil shakldagi muz yoki boshqa mineral birikmalar kristallarining saqlanib qolgan izlaridan iborat bo'lib, ular yotqiziqlar hosil bo'lish sharoitini aniqlashda katta ahamiyatga ega (5.11-rasm).

Bo'lakli tog' jinslari tasnifi			Kimyoviy va organik chukindagi jinslar		
Struktura (zarmachler o'chani)	Jins nomi	Tog' jinsi nomi	Tarkibi	Teksturasi	Tog' jinsi nomi
Yirik donali 2mm<	Otav'i (yumzolog) Givri (qirg'li)	Konglomerat		Klastik bo'lmagan; Donalar yaxshi kristallangan	Oxaktosh
O'rta donali 1/16dan 2mm gacha	Qum	Qumtosh	Kalsit,CaCO <sub>3</sub>	Klastik - qabiq surt o'chmasuda fragmentlarini borat, tonda tas-sertifikat	Travertin
Kichik 1/16dan 1/256 gacha	Alevril	Alevrolit		Klastik: surli o'cham il qobig'i va qabiq fragmentlari kalsit bilan sementladoshi	Chig'anogli oxaktosh
Jida kichik 1/256nm>	II	Slanis yaxki arglit		Klastik: Mikrasapik qobig'i va qatlamasi	Bo'r
			Kvars,SiO <sub>2</sub>	Klastik bo'lmagan yaxshi yaxshi kristallangan	
			Gips CaSO <sub>4</sub> ·2H <sub>2</sub> O	Klastik bo'lmagan donalar yaxshi kristallangan	Gips
			Gafit,NaCl	Klastik bo'lmagan donalar yaxshi kristallangan	Tuz
			O'simlik	Klastik bo'lmagan yaxshi lemnaklar organik moddalar	Ko'mir


### 5.11-rasm. Terrigen, kimyoviy va organik cho'kindi jinslar tasnifi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

Tog' jinslаридаги текстураларни синхиклаб о'рганиш ва улардан то'г'ри xulosa chiqara bilish, olib borayotган geologik tekshirish ishlариминг muvaffaqiyатли o'tishi garovidir.<sup>34, 35</sup>

**Cho'kindi jinslarning sementi.** Donalar va sement orasidagi munosabatlar ham, sementning o'zi ham bir qator teksturalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Donalar va sement orasidagi misbatga qarab quyidagi asosiy sementatsiya turlari ajratiladi (Shvetsov, 1958): bazal, tutashish yoki kontaktli, g'ovakli sement, to'ldiruvchi sement va korrozion sement (5.12-rasm).

<sup>34</sup> Essential of Geology.Fredrick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. 166-168

<sup>35</sup> Understanding Earth.,J.Grotzinger, T.H.Jordan, F.Press, R.Silver 111-114



**5.12-rasm. Cho' kindi jinslarning sementlanishi  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**


Tarkibi bo'yicha sement karbonatli, sulfatli, kremniyli, temirli va gilli bo'ladi.

**Atrof-muhit cho' kindi jinslari** tarkibiga kiruvchi yotqiziqlar cho'kindi havzalarida shakllangan bo'lib, ular cho' kindi jinslarni geografik jihatdan iqlim sharoitida, fizik, kimyoviy va biologik jarayonlardan aniq o'zaro birikmasini tasniflaydi (5.13- rasm). Atrof-muhit cho' kindi jinslari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- suvlarning turi va miqdori (okean, ko'l, daryo, quruqlikdagi suvlar);
- mustahkam tashuvchi moddalarning turlari (suv, havo, muz);
- topografiya (past tekislik, tog', oddiy qirg'oq bo'y, pastqam okean, chuqur okean);
- biologik faollik (chig'anoq cho'kma, o'suvchi marjon riflari, loyqali chuvalchang yotqiziqlari va boshqa yumshoq organizmlar);
- iqlim (muzliklarni sovuq iqlim natijasida shakllanishi; quruq iqlimli cho'l va evaporitli foydali qazilmalarning shakllanishi).

Gavay orollarini ko'radigan bo'lsak, ohaktoshlar betakror yashil qumli, shuningdek atrof muhit-cho' kindi jinslari ularda a'lo darajada saqlangan. Gavayi - vulqonli orol bo'lib olivin va bazaltdan tashkil topgan.

*Kontinetal atrof-muhit cho'kindi jinslar* turli xil haroratning keng spektrida va yerning yuza qismiga sharros jala quyganda hosil bo'lishi mumkin. Ular ko'l, daryo, tekislik va muzliklarni o'z ichiga oladi (5.13- rasmga qarang).



*5.13-rasm. Atrof-muhit cho'kindi jinslari.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

*Qirg'oq chizig'i atrof-muhiti* to'lqin natijasida qumli qirg'oqlarda, daryo oqimini sohilida vujudga keladi (5.8-rasmga qarang). Qirg'oq chizig'i atrof-muhiti o'z ichiga quyidagi larni oladi:

- Delta ko'rinishli atrof-muhiti (ya'ni daryo, ko'l yoki dengiz).
- Suv ko'tarilish yuzasi atrof-muhiti.
- Plyaj atrof-muhiti.

*Dengiz atrof-muhiti* asosan suv chuqurligida, shuningdek mavjud bo'lgan oqim ko'rinishini aniqlab beradi (5.8-rasmga qarang).

#### **5.4. Cho'kindi jinslarning turlari.**

**Alumosilikatli (bo'lakhi) cho'kindi jinslar.** Alumosilikatli jinslar bo'shoq yoki sementlangan bo'lishi mumkin.

Bo'shoq jinslarga dumaloqlangan yoki qirrali bo'laklarning to'planishidan hosil bo'lgan turlari kiradi.

Sementlangan bo'lakli jinslar bo'shoq jinslarning turli kimyoviy moddalar yordamida birikishi tufayli hosil bo'ladi. Kremnezyomli sement (ikkilamchi kvars, opal, xalsedor) eng mustahkam, temirli sement (limonit) mustahkam, karbonatli (kalsit) va sulfatlari (gips) mustahkamligi past va gilli sement nomustahkam bo'ladi.

Alumosilikatli jinslarga xarsang va g'o'lakli konglomeratlar, brekchiyalar, gravelitlar, qumtoshlar va alevrolitlar kiradi (5.14-rasm).

**Kelib chiqishi.** Alumosilikatli jinslar tub jinslarining mexamik nurashi tufayli vujudga keladi.

Donachalar o'chami(mm)	Donalar nomi	Oqliy nomi	Bo'lakli tog' jinsi
>256	Valun		Konglomerat
64-256	Yink gafka	Grav	
4-64	Gafka		Brekchiya
2-4	Granula		
1/16-2	Orum	Orum	Qumtosh
1/256-1/16 <1/256	Gil il	il	Slanets arqalot yoki alevroliti

5.14-rasm. Alumosilikatli jinslar  
(*Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.*)

morfizmga uchramagan turlari yuqori g'ovaklikka (50-60%) ega bo'ladi. Suv bilan aralashtirilganda xamirsimon massa hosil qiladi.

### Ishlatilishi.

Alumosilikatli jinslar asosan qurilish materiallari sifatida foydalaniлади.

**Gilli jinslar.** Gilli jinslar tabiatda juda keng tarqalgan. Ular stratisferadagi cho'kindi jinslarning yarmidan ko'pini tashkil etadi. Gilli jinslar tipik bo'lakli jinslar bilan kimyoviy jinslar o'rtasida oraliq vaziyatni egallaydi.

Gilli jinslarining zichlashmagan va meta-

Bu massadan turli idishlar yasash mumkin. Ular olovda toblanganda toshdek qattiq va mustahkam jinsga aylanadi.

Gilli jinslar mineral tarkibiga ko'ra kaolinitli, gidroslyudali, montmorillonitli, paligorskitali va boshqa ko'plab turlarga bo'linadi.

**Kelib chiqishi.** Gilli jinslar birlamchl toq' jinslarning nuragan zarralari va kolloid-kimyoiy mahsulotlarinmg kristallanishi natijasida hosil bo'ladi.

**Ishlatilishi.** Kaolinitli gillar muhim foydali qazilma hisoblanadi. Ular issiqbardosh g'ishtlar – shamot ishlab chiqarishda, farfor va fayans sanoatida, yuqori voltli elektr izolatorlari ishlab chiqarishda foydalaniadi. Qog'oz va rezina sanoatlarida to'ldiruvchi sifatida hamda sovun, qalam va boshqalar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Montmorillonitli gillar oziq-ovqat sanoatida yog', vino va sharbatlarni, neft mahsulotlarini tozalashda, burg'ilashi eritmalarini tayyorlashda, sovun va atir-upa mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Toza, yuqori sifatli montmorillonitli gillardan dorilar tayyorlanadi.

O'zining adsorbsion va kolloidal xossalari tufayli paligorskitali gillari neftni qayta ishlash sanoatida, meditsmada, farmakologiyada, tuzli qatlamlarni burg'ilashda keng qo'llaniladi.



5.15-rasm. Noqatlamli rifli ohaktoshlar,  
Ummon sultonligi. (*Understanding Earth.,*  
*J. Grotzinger va b.*)


o'zgaruvchanligi tufayli hosil bo'ladi. *Noqatlamiy* ohaktoshlar esa

**Karbonatli jinslar.** Ularga ohaktoshlar, dolomitlar, bo'r kiradi.

**Ohaktoshlar** terrigen, biogen va xemogen yo'llar bilan hosil bo'lishi mumkin. Ularning tuzilishl qatlamlili yoki noqatlamli bo'ladi. Qatlamlili ohaktoshlar cho-kindisi hosil bo'lish jarayonlarining

asosan rif quruvchi organizmlar faoliyati tufayli vujudga keladi (5.15-rasm).

Biogen ohaktoshlarni kolonial yoki yakka holda hayot kechiruvchi skeleti yoki chig'anog'i kalsiy karbonatdan iborat bo'lgan hayvon va suvo'tlari qoldiqlari to'plami tashkiletadi (5.16, 5.17-rasmlar).



5.16-rasm. Rif quruvchi kolonial marjonlar.



5.17-rasm. Rif quruvchi kolonial marjonlar.

Biogen ohaktosh-larga oq yozuv bo'ri – yuqori g'ovaklikka ega bo'lgan yumshoq jins ham kiradi. U quruq holda nisbatan mustahkam bo'ladi. Shlifda va elektron mikroskopda ularning ohakli suvo'tlari – kokkolitoforidlar (70-85%), mayda foraminiferalar, inotseramlar, dengiz tipratikonlari va chuvalchanglarning qoldiqlariidan tarkib topganligi kuzatiladi.

*Kimyoiy ohaktoshlar* mikrozarrali va pelitomorfli, oolitli va psevdoolitli turlardan iborat. Pelitomorf ohaktoshlar diametri  $> 0,005$  mm bo'lgan kalsit zarralaridan tashkil topgan bo'ladi. Pelitomorf ohaktoshlarning mikroskopik namunalari zich, chig'anoqsimon sinishli, oqishdan qoramtiргacha o'zgaruvchl rangda bo'ladi.

**Dolomitlar.** Dolomitlar dolomit mineralidan tashkil topgan bo'ladi. Ularda odadta kalsit, ba'zan pirit, xalsedor, kvars va organik qo'shimchalar kuzatiladi. Ba'zi dolomitlarda angidrid, gips, qo'rg'oshim va rux sulfidlarining kristallari uchraydi.

**Aralash tarkibli karbonatli jinslar. Mergellar.** Mergellar pelitomorf yoki mikrozarrali kalsitdan (ba'zan dolomitdan) va gil minerallaridan tarkib topgan bo'ladi. Gil minerallari jinsda tekis tarqalgan bo'ladi. Mergellarda gilli komponentlar miqdori 40-60% m

tashkil etadi. Ular gidroslyuda, montmorillonit, paligorskit va boshqa gil minerallaridan iborat bo'ladi.

**Kelib chiqishi.** Karbonatlari jinslar aksariyat hollarda cho'kindi va organogen-cho'kindi yo'llar bilan hosil bo'ladi.

**Amaliy ahamiyati.** Karbonatlari jinslar xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Ular sement ishlab chiqarishda muhim mineral xom-ashyo hamda qurilish materiali hisoblanadi. Dolomitlar va magnezitlardan olovbardosh g'ishtlar ishlab chiqariladi.

**Kremniyli jinslar.** Kremniyli jinslarga butunlay yoki qisman kimyoviy va biogen yo'llar bilan hosil bo'lgan turli cho'kindi yotqiziqlar kiradi. Ular qatlamlar, qatlamchalar, konkretsiyalar, ba'zan oqma qobiqlar shaklida yotadi.


Kremniyli jinslarning tasnifi ularning genezisi va mineral tarkibiga asoslangan. Genezisi bo'yicha butunlay kimyoviy (geyzeritlar, kremniyli konkretsiyalar) va biogen (diatomitlar, spongolitlar, radiolyaritlar) yoki biokimyoviy (trepellar va opokalar) turlarga bo'linadi. Bulardan keyingilari diagenez va katagenez jarayonlarida organizmlarning sezilarli darajada o'zgargan skeletlari to'plamidan iborat. Bu jarayonlarda kremnezyom eriydi, ko'chirib yotqiziladi va qayta kristallanadi. Biokimyoviy kremniyli jinslarga yashimlar ham kiradi.

Kremniyli jinslar mineral tarkibi bo'yicha opalli, opal-xalsedorli, tridimitli, xalsedorli, xalsedor-kvarsli va kvarsli turlarga bo'linadi.

Kremniyli jinslarning minerallari: kremniyning turli oksidlari va gidrooksidlari – tarkibida 30% gacha suv bo'lgan amorf opal, shuningdek xalsedor, kvars, kvarsin, kristabolit va boshqalardir. Ikkinchchi darajali minerallari bo'lib karbonatlar, temir oksidlari va gidrooksidlari, glaukonit, xloritlar, temir sulfidlari va terrigen qo'shimchalar sanaladi.

**Xemogen kremniyli jinslar.** Geyzeritlar va kremniyli tuflar, kremniyli konkretsiyalar, yashmalarining ancha qismi, fтанитлар va liditlar kimyoviy yo'l bilan hosil bo'ladi.

Mmeral tarkibi bo'yicha opalli, opal-xalsedonli, xalsedon-kvarsli va kvars-kremniyli konkretsiyalar ajratiladi. Yosh jinslarda kremniyli konkretsiyalar opal yoki opal-xalsedonli, qari jinslarda esa xalsedon-kvarsli bo'ladi.



5.18- rasm. Radiolyariylarning turlari.

*Organogen yo'l bilan hosil bo'lgan kremniyli jinslar.* Kremniyli jinslar opaldan, xalsedon guruhidagi minerallar va cho'kindi kvarsdan tarkib topgan bo'ladi. Ular sovuq dengizlarda, kamroq ko'l havzalarida o'z skeletlarida opal to'plovchi diatomli suvo'tlari, radiolyariylar, bulutlar va boshqa organizmlarning bevosita ishtirokida

hosil bo'ladi (5.18-rasm). Bunday jmslarga diatomitlar, radiolyaritlar, spongolitlar, trepellar va opokalar kiradi.

**Kelib chiqishi.** Organogen va xemogen yo'llar bilan asosan suv havzalarida to'planadi. Issiq mineral buloqlar hisoblanadi. Vulkanizm viloyatlardagi geyzerlar va boshqa buloqlar uchun xarakterli.

**Ishlatilishi.** Kremniyli jinslar ham foydali qazilmalar hisoblanadi. Yashma qadimdan qo'llanilib kelingan (vazalar, kaminlar, ustunlar va b.). Hozirgi paytda yashmalar zargarlik buyumlari, hovanchalar, tayanch prizmalar tayyorlashda va texnik maqsadlarda ishlataladi.

Diatomitlar, trepellar va opokalar kremniyli sement, issiqlik va shovqin tutuvchi materiallar sifatida qo'llaniladi.

Kremniyli jinslar portland sement tarkibiga gigroskopik qo'shimcha sifatida qo'shiladi. Ularga qo'yiladigan asosiy talab

bo'lib gigroskopik faolligi, ya'ni kremnezyomning kalsiy oksidi bilan birikma hosil qilish xususiyati hisoblanadi.



5.19-rasm. Sho'rplashgan suvdan hosil bo'lgan gips kristallari.

Oziq-ovqat va neft sanoatlarda kremniyli jinslarning filtratsion va so'rvuchi xossalardidan foydalilanadi. Oziq-ovqat va mineral moylarni, glitserinni, meva sharbatlarini va shakar siropini tozalashda ignasimon shakldagi diatomitlar katta samara beradi.

Kimyo sanoatida diatomitlar va trepellar ultramarin ishlab chiqarishda ishlataladi

hamda kauchuk, plastmassa, bo'yoq va portlovchi moddalarga to'ldiruvchi sifatida qo'shiladi.

Kremniyli mikroorganizmlardan tarkib topgan bo'shoq kremniyli jinslar upa-elik sanoatida foydalilanadi.

**Sulfatlji jinslar.** Sulfatlji jinslarning bosh vakillari gips va angidrid hisoblanadi. Ular donali-kristalli strukturali, shu nomdag'i mimerallardan tarkib topgan va uncha ko'p bo'linagan gil, qum, organik moddalar va b. qo'shimchalarga ega monomineral jinslar hisoblanadi.

Gips tipik kimyoviy dengiz cho'kindisi hisoblanadi. Cho'kindi jinslar orasida qatlamlar hosil qilib yotadi, angidrid, galit, sof oltingugurt bilan birgalikda uchraydi, angidridning gidratatsiyasi jarayonida hosil bo'lishi mumkm. Gips sulfidlar va sof oltingugurning nurash zonalarida ham shakllanishi mumkin, bunda odatda gil va boshqa moddalar bilan ifloslangan zich yoki bo'shoq massa vujudga keladi (5.21-rasmga qarang).

Gips chuqurliklarda (100-200 m) kristallogidratli suvini yo'qotib angidridga aylanadi. Gipsning bitumlar bilan o'zaro ta'siri tufayli oltingugurt hosil bo'ladi. Oltingugurning ba'zi konlari, ehtimol, shu yo'l bilan paydo bo'lgan.

Angidrid gipsdan farqli o'laroq qattiqroq (tirnoq bilan tirlalmaydi) va og'ir.

**Kelib chiqishi.** Sulfatli jinslar sho'rlashgan dengiz suvidan cho'kmaga o'tadi (5.19-rasm).




### **5.20-rasm. Rapadan cho'kmaga o'tgan tuz kristallari.**

kimyoviy tarkibi bo'yicha farqlanadi, ammo hosil bo'lish sharoitlari bo'yicha o'zaro juda yaqm.

*Ishlatilishi.* Birik-tiruvchi material olish uchun va imoratlarning ichki va skulptura ishlarida foydalaniladi. Angidirid ochiq havoda tez nurab, gipsga aylanib ketadi.

## Glogen jinslar.

Galogen jinslar orasida  
osh tuzi, karnaliit va  
silvmit keng tarqalgan.  
Bu gurubdagi jinslar



**5.21-rasm. Sulfatli va G'alogenli jinslarning cho'kmaga o'tishi.(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)**

Osh tuzining strukturasi kristalli, teksturasi yaxlit yoki qatlamlili bo‘ladi. Asosan galitdan (99%) tarkib topgan. Qo’shimchalar sifatida

xloridli va sulfatli tuzlar, temir oksidlari va gilli materiallarga ega (5.21-rasmga qarang).

Jinsning rangi turli qo'shimchalarga bog'liq holda oq, moviy, pushti va qizildan qoragacha. U sho'r mazaga ega, suvda oson eriydi.

Silvinit, galit va karnallit bilan birgalikda tuzli yotqiziqlarda uchraydi va ba'zan kaliyli tuzlarning yirik qatlamlı sanoat konlarini hosil qiladi.

**Kelib chiqishi.** Galogen (tuzli) jinslar asosan evaporit suv havzalarida bevosita kimyoviy cho'kmaga o'tish orqali bosil bo'ladi (5.20-rasm). Vulkan otilishida ham vujudga keladi.

**Ishlatilishi.** Osh tuzi sulfat kislota, xlor va barcha natriyli tuzlar: sulfat, soda, oltingugurtli natriy hamda natriy metalini olish uchun xom-ashyo sifatida keng foydalilanadi. Bundan tashqari, osh tuzi keramikada, sovun pishirishda, oziq-ovqat sanoatida, metallurgiyada va meditsinada qo'llaniladi.

Silvinitning shaffof kristallari spektrograflar va boshqa asboblarning optik tizimlarida qo'llaniladi. Asosiy qismi kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalilanadi.

**Kaustobiolitlar.** Neft va gaz, ko'mir va yonuvchi slanetslar hamda boshqa tabiiy organik birikmalar yer po'stida mineral hosilalarning alohida guruhini hosil qiladi. Ularni yonuvchi foydali qazilmalar yoki *kaustobiolitlar* deyiladi (yunoncha – «kausto» – yonuvchi, «bios» – hayot, «ditos» – tosh). Ular birlamchi manba – tirk mavjudotlarning qoldig'idan iborat bo'lgan organik moddalarning qayta o'zgarishi natijasida vujudga kelgan.


Barcha yonuvchi foydali qazilmalar ikki yirik: ko'mir va neft qatoriga bo'linadi. Birinchi guruh asosan organik ugleroddan, ikkinchisi esa uglevodoroddan tarkib topgan.

**Organik uglerodli kaustobiolitlar.** Organik uglerodli kaustobiolitlarga torf, sapropel, yonuvchi slanetslar va ko'mir kiradi (5.22-rasm).

Torf botqoqliklarda hosil bo'ladi. Botqoqlik o'simliklari (mox, o'tlar) qurib, botqoqlikning kislorodsiz tubiga cho'kadi va bakteriyalar yordamida parchalanadi.

**Uglevodorodli kaustobiolitlar.** Neft tarkibida uglerod (83-87%), vodorod (12-14%) va kislorod (1,5% gacha) bo'lib, ularning miqdori

kam o'zgaradi. Ko'mir qatoridagi kaustobiolitlarda esa komponentlarning miqdor o'zgarishi sezilarli darajada bo'ladi.



**5.22- rasm. Organik uglerodli kaustobiolitlar.(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)**

kaustobiolitlar o'simlik qoldiqlarining chirishi va keyingi qayta o'zgarishi tufayli hosil bo'ladi. Neft va gaz ham organik moddalarning muayyan sharoitlarda qayta o'zgarishi tufayli vujudga keladi.

Neft to'planishining geologik sharoitlari turlitumandir. U qumlar, qumtoshiar, alevrolitlar, ohaktoshlar va boshqa g'ovakli hamda darzlashgan jinslardagi bo'shliliklarda to'planadi (5.23, 5.24-rasmlar). Odatda, bu jinslar dengiz, laguna-qo'l-tiq va delta yotqiziqliklaridir.

Qattiq bitumlar neftning o'zgargan (oksidlangan) mahsulotlari bo'lib, neftgazh viloyatlarda uchraydi. Neft oksidlanishining birinchi bosqichida malta va kir, keyingi bosqichida esa asfalt va ozokerit hosil bo'ladi.

**Kelib chiqishi.**  
Organik uglerodli



5.23-rasm. Neft qazib olish.



5.24- rasm. Gaz fontani.

**Ishlatilishi.** Torf mahalliy yoqilg'i va tabiiy o'g'it sifatida ishlataladi. Ko'mir yoqilg'i sifatida, metall eritishda, kimyo sanoatida xom-ashyo sifatida qo'llaniladi. Sun'iy mum (serezina) tayyorlashda, gazlamalarga singdirishda (brezent), meditsinada va b. foydalaniladi. Neftdan benzin, kerosin, solyarka va boshqa ko'plab mahsulotlar olinadi. Yonuvchi gazlar yoqilg'i sifatida va turli sintetik materiallar: plastik massa, sun'iy tolalar va b. olish uchun ishlataladi.

**Allitli jinslar.** Allitli (aluminiyli) jinslar aksariyat hollarda temir oksidlari miqdori yuqori bo'lgan aluminiy gidroksidlaridan tarkib topgan bo'ladi. Ular miqdori o'zgaruvchi turli minerallarning – aluminiy gidrooksidlari: gidraargillit (gibbsit), diaspor, byomit aralashmasidan iborat. Aluminiy oksidlarining miqdori aksariyat

hollarda 30-50 % ni tashkii etadi. Allitli (aluminiyli) jinslarda qo'shimchalar: temir oksidlari (10-30, ba'zan 50% gacha), shamozit, amorf kremnezyom, kao-linit, kalsiy va magniy karbonatlari hamda bo-



5.25- rasm. Boksiit qazib olish.

lakli minerallar - kvars, dala shpatlari, muskovit, rutil va boshqalar keng o'rinn tutadi.

Ularning rangi temir oksidlar miqdoriga bog'liq holda oq, oxrasimon-sariq, qo'ng'ir bo'lishi mumkin. Struktura-teksturaviy

tomondan ular mikro donali qattiq yoki gilga o'xshagan bo'shoq bo'lishi mumkin.

Bu guruhdagi jinslarning eng asosiyalaridan biri boksitlar hisoblanadi.

**Kelib chiqishi.** Boksitlarning kelib chiqishi ekzogen. Ular, asosan, tropik iqlim sharoitlarida nurash qobiqlarida hosil bo'ladi (5.25-rasm).

**Ishlatilishi.** Boksitlar aluminiy ma'dani hisoblanadi. Ulardan abrazivlar, olovbardosh materiallar olish hamda flyus, adsorbent, tez qotuvchi portlandsement sifatida, elektrokorund, achchiqtoshlar olishda foydalilanadi.

**Fosfatli jinslar.** Fosfatlar tarqalishi bo'yicha cho'kindi jmslar orasida nisbatan keyingi o'rirlarni egallaydi. Ularga 50% dan ortiq amorfli yoki mikrokristalli apatit guruhidagi minerallardan (yoki  $R_2O_5$  ga hisoblaganda 18% dan ortiq) tarkib topgan jinslar kiradi.

Apatit guruhidagi minerallardan tarkib topgan, deyarli har doim organik moddalar, Ca, Mg va Fe karbonatlari, gilli minerallar, qumalevrit o'lchamidagi bo'lakli donalar, pirit, temir gidrooksidlari, kvars, autigen opal, xalsedor, glaukonit uchraydi.

Fosfatli jinslarning asosiy jins hosil qiluvchi minerallari fosfor kislotasining tuzlari: hidroksilapatit, karbonatapatit va ularga yaqin bo'lgan – dallit, kurkit, frankolit hamda amorf fosfat – kollofanit hisoblanadi. Fosforitlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib kalsit, magniy va temir karbonatlari sanaladi. Fosfatli jinslarning tasnifi ularning kelib chiqishi, mineral tarkibi va struktura-tekstura xususiyatlariga asoslangan. Fosforitlar tarkibida fosfor oksidi ( $R_2O_5$ ) miqdori 40% gacha borishi mumkin. Fosfatli jmslar tashqi ko'rinishi va struktura-teksturaviy xususiyatlari bo'yicha turli-tumandir. Ularning orasida oq, kulrang, to'q kulrang, qora va yashilsimon kulrang turlari uchraydi. Bunda fosforitlar konglomeratlar, qumtoshiar va alevrolitlarga o'xshab ketadi (5.26-rasm).


Fosforitlarning strukturasi oolitli, psevdoolitli, sferolitli, organogen-reliktli, organogen va bo'lakli bo'ladi (5.26, 5.27-rasmlar).<sup>36,37</sup>

<sup>36</sup> Essential of Geology-Frederick K Lutgens, Edvard J Tarbuck 2012 p 162,163

<sup>37</sup> Understanding Earth, J Grotzinger, T.H Jordan, F Press, R Silver 2007 p116-120



5.26-rasm. Fosforit konkretsiyalari.



5.27-rasm. Donali fosforitlar.

**Kelib chiqishi.** Fosforitlar kimyoviy (biokimyoviy) va biogen yo'llar bilan hosil bo'lishi mumkin.

Qatlamlı fosforitiarning eng yirik konlari kembriy (Qoratov, Qozog'iston), perm (Qoyali tog'lar, AQSH), yuqori bo'r va paleogen (Shimoliy Afrika, Shilmoliy Amerika) yotqiziqlarida mavjud.

O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham fosforit konlari topilgan. Ular tokembriy, paleozoy va mezokaynozoy yotqiziqlarida uchraydi. Bularning orasida bo'r-paleogen yotqiziqlari bilan bog'liq donali va donali-detritli turlari istiqbolga ega.

**Ishlatilishi.** Fosforitlar muhim agrokimyoviy ma'dan hisoblanadi. Ulardan superfosfat, ikkilangan superfosfat, ammofos, nitrofos va nitrofos kabi mineral o'g'itlar ishlab chiqiladi. O'zbekistonda ikkita superfosfat (Samarqand, Qo'qon) va bitta ammofos (Olmaliq) zavodlari ishlab turibdi.

### O'tkazilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar

1. Cho'kindi jinslar tasnifi qanday tamoyillarga asoslangan?
2. Bo'lakli jinslarning tasnifini keltiring.
3. Bo'lakli jinslarning hosil bo'lish sharoitlari mimalardan iborat?
4. Gilli jinslarning mineral tarkibi va turlarini gapirib bering.
5. Karbonatli jinslarning inineral tarkibi va turlari.
6. Kremniyli jinslarning inineral tarkibi va turlari.
7. Tuzli jinslarning mineral tarkibi va turlari.

8. Kaustobiolitlarning turlari va hosil bo‘lish sharoitlari.
9. Allitli va temirli jinslarning mineral tarkibi.
10. Marganetsli va fosfatli jinslarning mineral tarkibi.
11. Cho‘kindi jinslarda organik qoldiqlar qanday o‘rin tutadi?
12. Tog‘ jinslarining strukturasi deganda nimalar tushiniladi?
13. Cho‘kindi jinslarning teksturasi deganda nima tushuniladi?
14. Teksturalar kelib chiqishi bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
15. To‘lqin ryablari nima?
16. Teksturalarni o‘rganishning qanday nazariy va amaliy ahamiyati bor?

## MINTAQAVIY METOFORIZM

### 6-bob. METAMORFIK TOG‘ JINSLARINING TASNIFI, METAMORFIZMNING TURLARI, MAHSULOTLARI

#### REJA

1. Metamorfik jinslarning hosil bo‘lish sharoitlari.
2. Metamorfik jinslarning xossalari (strukturasi, teksturasi, alohidaligi).
3. Metamofik jinslarning turlari (mintaqaviy metamorfizm, ultrametamorfizm, kontakt metamorfizm, dinamometamorfizm jinslari).
4. Metamorfizm haqida umumiy ma’lumotlar.
5. Metamorfizm omillari.

**Kalit so‘zlar:** Metamorfizm, dinamometamorfizm, psevdomorfoza, metasomatit, migmatizatsiya, avtometamorfizm, granitizatsiya, stress bosim, flyuid, litostatik bosim, diaftorez, progressiv metamorfizm, polimetamorfizm, termal, kontakt, mintaqaviy metamorfizm, fatsiya, epizona, mezozona, katazona, yashil slanetslar, gneys, eklogit.


#### 6.1. Metamorfik jinslarning hosil ho‘lish sharoitlari

Yer po‘stida joylashgan tog‘ jinslari vaqt o‘tishi bilan o‘zining kimyoviy tarkibini o‘zgartirmasdan turib struktura va boshqa xossalariim keskin o‘zgartirishi mumkin. Bunday o‘zgarishlarning sababi uzoq vaqt davomida yuqori bosim va harorat hamda minerallashgan suvlar ta’siridir. Metamorfizmga magmatik jinslar ham, cho‘kindi jinslar ham uchrashi mumkin. Metamorfizmning yaqqol misoli – yaxlit magmatik jinslarning peridotitga, o‘zming tarkibida ingichka tolali mineral – asbestga ega bo‘lgan qatlamlı jinslarning serpentinitga aylanishini ko‘rsatish mumkin.

Metamorfizm deganda termodinamik sharoitlarning (birinchi navbatda harorat va bosim) kuchli o‘zgarishini keltirib chiqaruvchi turli endogen geologik jarayonlar ta’sirida tog‘ jinslarining o‘zgarishi va qayta o‘zgarishi tushuniladi. Metamorfizmga barcha genezisdagi -

cho' kindi, magmatik va metamorfik tog' jinslari uchrashi mumkin. Birlamchi tog' jinslarining o'zgarish darajasi (metamorfizm darajasi) turlich - jinslarning tarkibi va ko'rnishi uncha sezilarli bo'limgan holdan to'liq o'zgarishigacha yetadi.<sup>38,39</sup>

Metamorfik tog' jinslari yer yuzasida ham, yer po'stining chuqurligida ham keng tarqalgan. Ular qadimiy tokembriy qalqonlari maydonlarida, o'zgacha yoshdag'i burmali viloyatlarda hamda platformali mintaqalar fundamentining tuzilishida ishtirok etuvchi magmatik jinslarning hosilalari sifatida rivojlangan.



### *6.1-rasm. Metamorfizm jarayoni. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Metamorfik jinslar tarkibi va strukturasi bo'yicha juda ham turli-tuman bo'lib, ularda bir qator qimmatli foydali qazilmalar: oltm, uran,

<sup>38</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J. Tarbuck 2012.p 178

<sup>39</sup> Understanding Earth.J Grotzinger, T H Jordan, F Press, R Silver 2007 p132,133


molibden, volfram, temir, qimmatbaho va texnik toshlar, keramik xomashyolar uchraydi. Turli gneytslar, marmarlar, slanetslar ajoyib qurilish va bezak materiallari hisoblanadi.

**Metamorfizm sabablari** deganda, dastlabki jinslarning o'zgarishiga olib keluvchi sabablar tushuniladi. Ularning orasida harorat, bosim va tog' jinslari bilan o'zarot ta'sirga kirishadigan kimyoviy faol birikmalar (eritmalar, flynidlar) asosiy o'rinda turadi, ular asosan yer po'stining 10 km dan 30 km gacha bo'lgan chuqurliklarida sodir bo'ladi.

Bosim tog' jinslarining chuqurliklarga cho'kishi bilan bog'liq bo'lib, chuqurlikdagi jinslar turli tomordan, shu jumladan ustida yotuvchi jinslar ta'sirida bosimga uchraydi. Umumiy holda bosim chuqurlik sari oshib boradi. Harorat – mineral hosil bo'lish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi va paydo bo'ladigan minerallar majmuasini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Yer po'stining turli hududlarida harorat 20 dan 60 darajagacha, o'rtacha bir kilometr chuqurlikda  $30^{\circ}\text{C}$  ga oshadi. Metamorfizm jarayonlari  $250^{\circ}\text{C}$  gacha harorat oralig'ida sodir bo'ladi.

Aynan shu chegarada kimyoviy reaksiyalar tezligining keskin o'zgarishi sababli diagenez va metamorfizm orasidagi chegara o'tkaziladi.

Shunday qilib, 15 km chuqurlikda xarorat  $450^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qiladi, bu



6.2-rasm. Metamorfik jinslarining harorat va bosim ta'sirida o'zgarishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

esa yer yuzasining haroratidan (o'rtacha  $10^{\circ}\text{C}$  da  $20^{\circ}\text{C}$  gacha) ancha yuqoridir (6.1- rasm). 15 km chuqurlikdagi bosim cho'kmdi jinslar g'ovakligi va zichligiga bog'liq bo'lib yuzasidagi bosimdan o'rtacha 4000 marta oshadi.

Yuzaga yaqin va kam chuqurliklarda bir tomonlama bosim tartibsiz tekstura shakllanishiga olib kelishi mumkm (6.2-rasm).

Bunda tektonik buzilish zonalaridagi tog' jinslarining burlalanishiga olib keladi. Yuqori bosim uzoq vaqt davomida ta'sir ko'rsatishida tog' jinslarining maydalanishi tufayli unga va talqonga aylanishi ham mumkin.

**Metamorfizm omillari.** Tog' jinslari metamorfizmning bosh sabablari bo'lib harorat, bosim va kimyoviy faol moddalar – eritmalar va uchuvchi birikmalar hisoblanadi.

Metamorfizm jarayonlari  $250^{\circ}$  -  $300^{\circ}$  dan  $800^{\circ}\text{C}$  gacha harorat oraliq‘ida sodir bo'ladi. Haroratning  $10^{\circ}\text{C}$  ga oshishi kimyoviy reaksiya tezligini ikki marta,  $100^{\circ}\text{C}$  oshishi esa taxminan 1000 martagacha oshiradi (6.2-rasm).

Haroratning oshishi chuqurlik flyuidlarining chiqib kelishi, ichki issiqlik oqimining mahalliy oshishi va ba'zi boshqa sabablar orqali sodir bo'ladi.

Bosim dislokatsiya xarakteridagi faol tektonik harakatlarda yuzaga keladi. Bosim tog' jinslarining deformatsiyasini, ulardagi fazoviy mo'ljallanish qonuniyatlarini keltirib chiqaradi. Masalan, plastinkali minerallar ulanish tekisliklari bo'yicha bosim yo'nalishiga perpendikular joylashgan bo'ladi, shu tufayli tog' jinslarida slanetsli teksturalar shakllanadi.

Kimyoviy faol moddalar (suv, karbonat angidrid, vodorod, xlor, oltingugurt birikmalar) yangi minerallarning hosil bo'lishida qatnashadi, kristallar orasidagi kimyoviy reaksiyalarning oson kechishida katalizatorlar hisoblanadi, ularning strukturasiga kiradi va eski mineral majmualarining yangilari bilan o'rin almashinishini ta'minlaydi.

Bulardan tashqari vaqt omilini ham ko'zda tutish darkor, toki bu jarayonlar juda uzoq davom etadi va geologik vaqt miqyosida amalga oshadi<sup>4040</sup>

Metamorfik jinslarning tasnifi metamorfizm turlari va bosqichlariga asoslangan (6.1-jadval).

Metamorfik jinslar uchun kvars, dala shpatlari, slyudalar, piroksenlar, amfibollar va olivin guruhidagi minerallar bilan bir qatorda andaluzit, kianit, sillimanit, granatlar, kordierit, stavrolit, vollastonit, vezuvian, epidot, xlorit, talk, serpentin va grafit xarakterlidir (6.1-jadval).

## 6.2. Metamorfik jinslarning xossalari

Tog' jinsi turi	Teksturasi	Dona o'chami	Sharhlaniishi
Slanes		juda mukammal	U' ta imkannimal kvarsli tog' jinslari
Pellit		o'chama	Oqtamli yuzasi siliqlashgan
Kristalli slanes	Slaneslashgan o'sishti	o'rtacha buzulgan	Slyudali mineralarning akshayi qiziq slaneslashgan
Gneysli		o'rtacha buzulgan	Yo'yo' Ilo'ning tog' jinslari yuqori yuqori kristallashchan minerallar uchunaydi
Migmatit		o'rtacha buzulgan	Yo'yo' Ilo'ning tog' jinslari yuqori yuqori kristallashchan minerallar uchunaydi
Milonit	Kuchiz slaneslashgan	mukammal	Juda yaxshi demasor holagan o'igan, xoddil kuchun minerali kabi: bo'lakli vimg holagan ega
Meta konglomerat	Kuchiz slaneslashgan	o'rtacha buzulgan	Nodarli yu'nalishda siliqlashgan
Marmar		o'rtacha buzulgan	Dolomit donlatli yurqulari bo'ylab kalsit rivojlantgan
Kvarsit		o'rtacha buzulgan	Juda qattiq sug'ulli kvarsit donlatli
Shox aldamchisi		mukammal	Siliqlashgan qora massivli tog' jinslari
Antratsit		mukammal	Chig'an oqsimon ko'rinishli, qora rangli tog' jinslari
Darzlashgan brekchya			Singan bo'laklar tariblashgan tog' jinsi

6.1-jadval. Metamorfik jinslarning  
tasnifi. (Understanding Earth.,  
J. Grotzinger, va b.)

metamorfik jinslar uchun slanetsli va kristalli struktura xarakterli.

Metamorfik jinslarning magmatik va cho'kindi jinslardan asosiy farqi ularning mineral tarkibida hamda strukturaviy va tekstruraviy xususiyatlariadir.

Metamorfik jinslar faqat yuqori harorat va bosim sharoitlarida barqaror bo'lgan minerallardan tarkib topgan bo'ladi. Ularga magmatik jinslarning ko'pchilik minerałari: kvars, albit va boshqa plagioklazlar, kaliyli dala shpatlari (mikroklin), slyudalar (muskovit va biotit), rogovaya obmanka, pirosen (avgit), magnetit, gematit hamda cho'kindi jinslarning xarakterli mineralari (kalsit) kiradi. Bundan tashqari, metamorfik jinslarda faqat ulargagina xos bo'lgan minerallar: serpentin, granat, grafit va b. bo'ladi.

**Metamorfik jinslarning strukturasi.** Umuman

Slanetsli strukturada metamorfik jinslar aniq ifodalangan varaqsimon ajralishga (slanetslar, gneytslar) ega. Kristalli strukturada esa - kristalli tuzilishli (marmar, kvarsit va b.) bo'lib, ayniqsa donalarning varaqli, tangachali, ignasimon va tabletkasimon shakllari xarakterli, ba'zi hollarda ular kristall-donalidir.

*Metamorfik jinslarning teksturasi* eng muhim aniqlovchi belgilari bo'lib sanaladi. Donalarning o'zaro joylashuvi va turiga ko'ra yaxlit, slanetsli, linzasimon, gneytsli, yo'l-yo'tli, tolali va tartibsiz teksturalar ajratiladi.<sup>41</sup>

*Alohidilik.* Metamorfik jinslar magmatik jinslardan alohidilik shakllari bo'yicha farq qiladi. Ularda slanetslanishning rivojlanishi tufayli cho'kindi qatlamlili jinslarning alohidilikka o'xshashlik saqlanib qoladi. Ularda klivaj, ya'ni ko'p qismi slanetslanishga parallel bo'lgan mayda darzlanish alohidaligi keng rivojlangan bo'ladi (6.3-rasm).



6.3-rasm. Slanetslardi  
qalamchasimon alohidilik.

### 6.3. Metamofik jinslarning turlari


**Mintaqaviy metamorfizm jinslari.** Mintaqaviy metamorfizmning eng keng tarqalgan jinslari bo'lib, yashil slanetslar, kristalli slanetslar, gneytslar, amfibolitlar, marmarlar, kvarsitlar sanaladi. Ular odatda faol deformatsiyalangan, murakkab burmalangan qatlamlar, linzalar va qatlamlar shaklida yotadi (6.4-rasm).

**Yashil slanetslar** metamorfizmning eng past darajasi hisoblanib, xlorit, albit, aktinolit, epidot, kvars, seritsit singari past baroratlari minerallar majmuasi bilan xarakterlanadi. U yoki bu minerallarning ustuvorligi bo'yicha xloritli, epidot-aktinolitli, seritsit-xloritli va boshqa turlari ajratiladi.

Bunday jinslarning teksturasi slanetsli, strukturası mayda donali bo'ladi; odatda reliktli strukturalari saqlanib qoladi. Harorat

<sup>41</sup> Understanding Earth, J.Grotzinger, T.H.Jordan, F.Press, R.Silver 2007 p132,137

yuqoriroq bo'lganda slyudali, sillimanit-muskovitli va stavrolit-sillimanitli slanetslar shakllanadi.



6.4-rasm. Metamorfik jinslarning turlari. (*Understanding Earth.*, J. Grotzinger va b.).

**Kristalli slanetslar** metamorfizmning o'rta va yuqori bosqichlarida (amfibolitli va granulitli fatsiyalar) hosil bo'ladi, slanetsli va gneysli teksturaga, mayda va o'rta donali strukturaga ega bo'ladi. Ularning tarkibiga plagioklaz, rogovaya obmanka, biotit, piroksenlar, granatlar, epidot va boshqa minerallar kiradi. Kvars va kaliyli dala shpatlari odatda uchramaydi.

**Gneyslar** metamorfizmning o'rta va yuqori bosqichlarida vujudga keladi, mineral tarkibi bo'yicha granitlarga yaqin, ya'ni dala shpatlari va kvarsiga boy bo'ladi. Rangli minerallardan slyudalar, rogovaya obmanka, piroksenlar, granatlar, disten, sillimanit va ba'zi boshqa minerallar uchrashi mumkin. Ular gneysli teksturaga, mayda yoki o'rta donali strukturaga ega bo'ladi (6.5-rasm).


Birlamchl jinslarning tabiatiga bog'liq holda para va ortogneyslar ajratiladi. Cho'kiindi jinslar metamorfizmida paragneyslar, magmatik jinslardan esa ortogneyslar vujudga keladi.

**Amfibolitlar** melanokratli, kristall donali jinslar bo'lib, massiv yoki tartibsiz teksturali, asosan rogovaya obmankadan, kamroq plagioklazdan tarkib topgan. Piroksenlar va granatlar ham uchrashi mumkin.

**Marmarlar** 50% dan kam bo'lмаган karbonatlarga ega metamorfik jinslardir. Tarkibi bo'yicha ular kalsitli, kalsit-dolomitli

va dolomitli turlarga bo'linadi. Tog' jinsida silikatlar (yoki kvars) miqdori 5 dan 50% gacha bo'lganda silikatli marmarlar yoki kalsifirlar deyiladi.

**Kvarsitlar** asosan kvarsdan tarkib topgan metamorfik jinslar hisoblanadi. Tarkibida dala shpatlari, biotit, temirli birikmalarning mavjudligi bo'yicha ularning kvarsitlar, kvarsit-slanetslar kabi turlari ajratiladi (6.5-rasm).<sup>42</sup>



6.5-rasm. Metamorfizm jarayoni.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).

**Amaliy ahamiyati.** Kvarsitlar juda mo'rtligi bilan farq qiladi va qiyin qayta ishlanadi; yuqori issiqbardosh, kislota va ishqor-bardoshligi tufayli asosan dinas ishlab chiqarishda va abraziv material sifatida ishlatiladi. Kvarsitarning chiroyli turlari ajoyib dekorativ va sayqal toshlari hisoblanadi.

Slanetslar issiqbardosh, izolatsion materiallar, bezak buyumlar tayyorlashda foydalilanadi. Amfibolitlarning qora rangli turlari taqinchoq va sayqal toshlari hisoblanadi. Plitalar tayyorlash uchun foydalilanadi. Marmarlar qurilish materiali sifatida qo'llaniladi.

**Ultrametamorfizm jinslari.** Ultrametamorfizmda asosan migmatitlar, granitlar va gneys-granitlar paydo bo'ladi.

<sup>42</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J. Tarbuck 2012.p 190

**Migmatitlar** tarkibi bo'yicha birjinsli bo'limgan yo'l-yo'lli teksturali jinslardir. Ular melanokratli substratda leykokratli qatlamchalarining rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Migmatitlar tarkibining asosini o'rta va yuqori darajali metamorfizm jinslari - kristalli slanetslar, gneyslar, amfibolitlar tashkil etadi. Migmatitlarning leykokratli qismi odatda kvars-dala shpatili tarkibga ega bo'lib, u aplitlarga va pegmatitlarga yaqin (6.5-rasm).

**Gneys-granitlar** – metamorfik jinslarning granitizatsiyasi jarayonida to'liq o'zgargan granit tarkibli va gneysli teksturaga ega jinslardir.

*Amaliy ahamiyati.* Amaliy ahamiyatga egamas.

**Kontakt metamorfizmi jinslari.** Ular rogoviklar va skarnlardan tarkib topgan. Mimeral tarkibi piroksenlar, plagioklazlar, granatlardan iborat. Past haroratli turlari epidot, aktinolit, karbonatlar va ma'danli minerallardan tarkib topgan bo'ladi.

**Kelib chiqishi.** Rogoviklar yondash alumosilikatli jinslarga, skarnlar esa yondash karbonatli jinslarga nordon magmaning yorib kirishi tufayli kontakt metamorfizmi zonasida modda almashuvi natijasida hosil bo'ladi. Bu jarayonlarda issiq magmatogen eritmalar qatnashadi.

Silikatlar va alumosilikatlardan (piroksenlar va granatlar) tarkib topgan ohakli va magniyli minerallardan (forsterit, diopsid, shpinel, flogopit) iborat magnezial skarnlar ajratiladi. Ohakli skarnlar aksariyat hollarda past va o'rta chuqurlik (10-12 km gacha) sharoitlarida postmagmatik bosqichda vujudga keladi. Magnezial skarnlar yorib kiruvchi magma bilan dolomitlar orasida kechadigan reaksiya jarayonlari ta'sirida yoki katta chuqurlik sharoitlarida (10-12 km dan ortiq) hosil bo'ladi.<sup>43</sup>

*Amaliy ahamiyati.* Skarnlar muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular bilan mis, temir (magnetit), molibden (molibdenit), volfram (sheelit), qalayning (kassiterit) foydali qazilma konlari bog'liq. Shu tufayli sanoat ahamiyatiga ega konlarning alohida skarnli turi ajratiladi.

**Dinamometamorfizm jinslari.** Tektonik yer yoriqlarining surilish yuzalari bo'ylab tog' jinslarining harakati tufayli hosil bo'ladi. Bunda vujudga keladigan kuchli bosim sharoitlarida tog'

<sup>43</sup> Essentials of Geology-Frederick K Edward J Tarbuck 2012 p 178-181

jinslarining (granitlar, gneyslar, kristalli slanetslar, kvarsitlar va b.) changlar darajasigacha burdalanishi, kukunga aylanishi va zichlashishi amalga oshadi.

Dinamometamorfizm mahsulotlari burdalanish darajasi bo'yicha tektonik brekchiyalar, kataklazitlar va milonitlarga ajratiladi.

**Tektonik brekchiyalar** turli o'lchamdag'i tog' jinslarining qirrali va linzasimon bo'laklaridan tarkib topgan, ularning orasi o'sha jinslarning maydalangan materiallari bilan to'ldirilgan bo'ladi. Tektonik brekchiyalarning strukturasi brekchiyali, teksturasi esa tartibsiz. Qatlamlanishning kuzatilmasligi va bo'laklarining birjinsliligi xarakterli.

**Kataklazitlar** tog' jinslarining mayda burdalangan qirrali bo'laklaridan tarkib topgan bo'lib, o'sha jinslarning talqonga aylanib ketgan materiallari bilan sementlangan. Kataklazitlar uchun sementli struktura, massiv, ba'zan mo'ljallangan tekstura xarakterli.

**Milonitlar** ishqalanishdan talqonga aylanib ketgan va urchuqlar hosil qiluvchi jinslar bo'lib, yo'l-yo'lli teksturaga ega. ularning bunday teksturasi talqonga aylanib ketgan massa orasida dag'alroq bo'laklarning yupqa linzasimon qatlamlari mavjudligi bilan ifodalangan.<sup>44</sup>

#### 6.4. Metamorfizm

Tog' jinslarining yuqori harorat, bosim, gaz hamda erigan komponentlar ta'sirida o'zgarishi **metamorfizm** deyiladi.

Metamorfizm jarayonida tog' jinslarining kimyoviy va mineral tarkibi, strukturasi, yotish holati o'zgaradi. Cho'kindi va magmatik tog' jinslari, ba'zan metamorfik jinslarning o'zi ham metamorfizmga uchraydi. Bularni **metamorflashgan jinslar** deyiladi.

Metamorfizm kechadigan yer ichida 5 km dan 20 km gacha chuqurlikdag'i tabiiy-kimyoviy jarayonlarni biz bevosita ko'raolmaymiz, ularni faqat yer yuzasida ochilib qolgan tog' jmslarim kuzatish orqali o'rganish mumkin.

Tog' jinslari murakkab mineral tizim sifatida o'zlari hosil bo'lgan muhitning tabiiy geografik sharoitlarida muvozanatda

<sup>44</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J Tarbuck 2012.p 178-190

bo'ladi. Lekin ko'p hollarda mintaqalarning geologik evolutsiyasida tog' jinslari dastlabki sharoitlardan o'zgacha vaziyatlarga tushib qoladi. Bunday hollarda tog' jinslarining tarkibiga kiruvchi minerallar majmuasi yangi sharoitlarga "moslashishga" majbur bo'ladi. Bu "inoslashish" metamorfizm deyiladi.

Metamorfizm so'zining lug'aviy ma'nosi o'zgarish jarayonini anglatadi. Shunday qilib, metamorfizm deganda tabiiy geografik va termodinamik sharoitlarning o'zgarishi tufayli strukturasi, tekstrurasi, mineral, ba'zan esa kimyoiy tarkibining o'zgarishiga olib keluvchi endogen jarayonlarning majmuasi tushuniladi. Bunday o'zgarish tizimning qattiq holda saqlamishi bilan kechadi. Metamorfizmga barcha tog' jinslari - cho'kindi, magmatik va oldin hosil bo'lgan metamorfik hosilalar uchrashi mumkin. Dastlabki jinslar protolitlar deyiladi.

Metamorfik o'zgarishlarda tog' jinslari to'liq yoki qisman qayta hosil bo'ladi. Agar metamorfizmda protolitlarning dastlabki tarkibi va tuzilishini tiklab bo'ladigan reliktlari saqlanib qolgan bo'lsa, bunday jinslar *metamorflashgan*, birlamchi xususiyatlari batamom yo'qolganlari esa *metamorfik* jinslar deyiladi.<sup>4545</sup>

## 6.5. Metamorfizm omillari

Metamorfizm omillari deganda, dastlabki jinslarning o'zgarishiga olib keluvchi sabablar tushuniladi. Ularning orasida harorat, bosim va tog' jinslari bilan o'zaro ta'sirga kirishadigan kimyoiy faol birikmalar (eritmalar, flyuidlar) asosiy o'rinda turadi.

**Harorat** – mineral hosil bo'lish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi va paydo bo'ladigan minerallar majmuasini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Tog' jinslarining metamorfik qayta o'zgarishi 250-1100°C harorat oralig'ida kechadi. Metamorfik jarayonlarning boshlanishi tog' jinslarining 250°C ortiq haroratlarda o'zgarishidan boshlanadi. Aynan shu chegarada kimyoiy reaksiyalar tezligining keskin o'zgarishi sababli diagenez va metamorfizm orasidagi chegara o'tkaziladi.

Metamorfizmning ustki chegarasi tog' jinslarining suyuqlanaboshiash harorati bilan belgilanadi. Harorat oshishi bilan tog'

<sup>45</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J Tarbuck. 2012 p 178

jinslarining qayta kristallanish faolligi oshadi. Haroratning oshishi bir qancha geologik jarayonlar tufayli amalga oshadi:

- tog' jinslarining chuqurlikka tushishi;
- soviyotgan magma;
- Yer qa'ridan kelayotgan issiqlik oqimi;
- tektonik harakatlar vaqtida ishqalanishga bog'liq issiqlik generatsiyasi.

**Flyuidlar – minerallashgan gazsimon eritmalar.** Cho'kayotgan maydonlar dengiz va okeanlar bilan qoplanib, ularning tubida cho'kindi to'planadi va vulkanizm jarayonlari kechadi. Cho'kmalar va vulkanitlar oldin shakllangan jinslarni qoplab qoladi, vaqt o'tishi bilan ular katta chuqurliklarga ko'milib ketadi. Bu jarayonlar qancha uzoq davom etsa, shakllanayotgan yotqiziqlarning qaliligi shuncha yuqori bo'ladi. Bunda ularning cho'kish chuqurligi o'nlab kilometrga boradi.


Chuqurlik oshgan sari harorat ham qonuniy ravishda oshib boradi (geotermik gradiyent). Tektonik faol viloyatlarda geotermik gradiyent 50-100 grad/km ga boradi, qadimiy po'stloqlarda esa gradiyent qiymati 10-30 grad/km tashkil etadi. Demak, bir xil chuqurlikdagi cho'kkан turli mintaqadagi jinslar turlicha harorat ta'siriga uchraydi.

Arxey va proterozoy akronlarida umumiy issiqlik oqimi fanerozoy eonidagiga nisbatan bir necha marta ortiq bo'lgan. Shu sababli yer rivojlanishining dastlabki bosqichlarida shakllangan tog' jinslari faol issiqlik ta'siriga uchragan.

Yondosh jinslarning faol qizishi mantiya chuqurliklaridan yer yuzasiga ko'tarilayotgan yirik ustunsimon mantiya moddasi - **plyumlar** ta'sirida ham kechishi mumkin.


Tog' jinslarining o'lchamlari juda katta bo'lgan bo'laklari surilganda ishqalanish kuchlari vujudga keladi va bu jarayonda issiqlik energiyasi ajralib chiqadi. Bu issiqlik tektonik chocga tutashgan zonalardagi tog' jinslariga ta'sir ko'rsatadi.

Tog' jimslariga ta'sir ko'rsatuvchi bosim litostatik (har tomonlama) (6.6-rasm A, 6.7-rasm A) va stress (bir tomonlama) (6.6-rasin B, 6.7-rasm, B) turlarga bo'linadi.



**6.6-rasm. Litostatik va Stress bosimlar. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).**

tashkil etuvchilaridan biri ikkinchisiga nisbatan qiymati bo'yicha yuqoridir. Stress bosimning sababi bo'lib tektonik harakatlar ta'sirida yer po'stining yirik bloklari surilishi hisoblanadi. Bosim kattaligi minerallar metamorfizmi davomida shakllangan tarkibiga va ichki strukturasiga ta'sir qiladi (6.7-rasm).



**6.7-rasm. Litostatik va Stress bosimlar. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).**

**Litostatik bosim** tog'jinslarining chuqurliklarga cho'kishi bilan bog'liq. Chuqurlikdagi jinslar turli tomonidan, shu jumladan ustida yotuvchi jinslarning bosimiga uchraydi. Ummiy holda litostatik bosim chuqurlik sari oshib boradi.

**Stress bosim** aniq ifodalangan yo'nalish vektoriga ega bo'ladi, uni

Odatda yuqori bosimda hosil bo'luvchi mimerallarning butun bir guruhi (glaukofan, omfatsit va b.) ajratiladi. Bosim ancha yuqori haroratlarda ham metamorfizm jarayonlarida qatnashuvchi, kimyoviy faol moddalarni keltiruvchi suvning suyuq holatda bo'hishini ta'minlaydi. Bosimning o'zgarishi kimyoviy reaksiya muvozana-tining u yoki bu tomonga siljishiga olib keladi.

Bosim tartibli tekstura shakllanishiga sababchi bo'ladi. Plastinkali, tabletkali, varaqli yoki uzunchoq shakllarga ega bo'lgan minerallar bir tekislikda mo'ljallanib yo'l-yo'lli, gneysli va slanetsli teksturalarni hosil qiladi.

Yuzaga yaqin va kam chuqurliklarda bir tomonlama bosim tartibsiz tekstura shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bunda tektonik brekchiya hosil bo'lish bilan kechadigan tektonik buzilish zonalaridagi tog' jinslarining burdalanishi tushuniladi. Yuqori bosimda va uzoq vaqt davomida ta'sir ko'rsatishida tog' jinslarining maydalanishi tufayli unga va talqonga aylanishi mumkin.

Metamorfizmda tog' jinslariga ta'sir ko'rsatuvchi kimyoviy faol moddalar bo'lib birinchi navbatda deyarli barcha tog' jinslarida u-yoki bu miqdorda mavjud bo'lgan suv va karbonat angidrit sanaladi. Ulardan tashqari, K<sub>2</sub>O, Na<sub>2</sub>O, O<sub>2</sub>, Cl, F va ba'zi shunga o'xshash komponentlar ham katta ahamiyatga ega. Ularning manbasi bo'lib magmaning sovushida ajralib chiqadigan magma eritmalari, chuqurlik flyuidlari, yondash jinslarda eritib olingan kimyoviy birikmalarga ega issiq yerosti suvlari hisoblanadi. Kimyoviy birikmalarning manbasi o'tmishtagi dengiz va okeanlarning ko'milib ketgan qoldiq suvlari ham bo'lishi mumkin.

Metamorfik jinslar uchun odatda faqat metamorfizm jarayonlarida vujudga keladigan o'ziga xos (tipomorf) minerallar xarakterli bo'ladi. Ularning orasida xloridlar, aktinolit, tremolit, epidot, disten, andaluzit, sillimanit, grafit, serpentin, granat, kordierit, stavrolit, diopsid va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Birlamchi magmatik va cho'kindi minerallardan kvars, biotit, muskovit, dala shpatlari, rogovaya obmanka, piroksenlar, kalsit hamda bosim va haroratning keng oraliqlarida barqaror bo'lgan boshqa minerallar uchrashi mumkin. Yuqori harorat sharoitlarda kimyoviy faollik keskin oshiadi va ba'zi minerallar orasida kimyoviy reaksiya ketib, yangi minerallar hosil bo'ladi.

Metamorfik jinslarning mineral tarkibi tashqaridan moddalar qo'shilmaydigan va tashqariga chiqib ketmaydigan yopiq tizimda ham, tashqarida moddalar qo'shiladigan (chiqib ketadigan) ochiq tabiiy kimyoviy sharoitlarda ham o'zgarishi mumkin.

Metamorfizmning boshlang'ich bosqichlarida haroratning oshishi minerallarning degidratatsiyasiga (konstitutsion suv chiqib ketadi) olib keladi. Bu jarayon bir necha yuz gradusga qizigan va bosim ta'sirida bo'lgan katta hajmdagi suvning ajralib chiqishi bilan birga kechadi. Bunday holatda suv kimyoviy tomondan faol bo'ladi va tog' jinslarining komponentlarini eritib olib, boshqa joyga yotqizadi.

Ichki harorat nafaqat metamorfizm jarayonida ajralib chiqadigan suvgaga ta'sir ko'rsatadi, balki ustki suvlardan kelib chiqqan yerosti suvlarining ham faollashishiga olib keladi. Metamorfizmga olib keluvchi eritmalarda erigan moddalarning umumiy miqdori 50-60 massa % etishi mumkin.

Tog' jinslari kimyoviy tarkibining o'zgarishi o'rinni olish va ion almashish reaksiyalari natijasida sodir bo'ladi va u psevdomorfozaga olib keladi.<sup>46,47</sup>

**Metamorfizm turlari.** Tog' jinslariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ularning jadalligi va geologik sharoitlari majmuasi bo'yicha metamorfizmning: mintaqaviy, ultrametamorfizm, dinamometamorfizm, termal (kontaktli, metasomatik) va avtometamorfizm turlari ajratiladi (6.4-rasmga qarang).

**Mintaqaviy (dinamotermal) metamorfizm** yirik maydonlarni qamrab oladi, deformatsiya va burmalanish mintaqalarida sodir bo'ladi. Undagi tog' jinslarini tashkil etuvchi minerallarning turlari chuqurlikka tomon o'zgarib boradi. Bu jarayon davomida yengilroq bo'lgan suvli mineral jinslari og'ir suvsiz mineral jinslari bilan o'rinni almashadi.

Metamorfizm jarayoni ustida juda ko'p ilmiy ishlari olib borilgan va ancha masalalar yechilgan. Ko'pchilik olimlar metamorfizmni chuqurlik bo'yicha 3 ta asosiy zonalarga ajratadilar: yuqori - epizona, o'rta - mezozona va chuqur - katazona.<sup>48</sup>

<sup>46</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J. Tarbuck.2012.p 178-181

<sup>47</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T.H. Jordan, F. Press, R. Silver 2007.p 133,134

<sup>48</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T.H. Jordan, F. Press, R. Silver 2007.p 134,135

**Epizonada** — bosim va harorat past bo'ladi. Bu zonaga xos minerallar ko'proq gidroksillar (OH), xloridlar, epidot, soizit, seritsit, biotit, aktinolit, rogovaya obmanka va glaukonitdan iborat bo'lib, bulardan tashqari uning tarkibida albit va granat kabi bardoshli minerallar uchraydi.

**Mezozona** o'rtacha bosim va haroratga ega bo'ladi. Bu zonada yuqoridagi gidroksidli minerallardan tashqari, disten, stavrolit, almandin, pirop, plagioklaz uchraydi. Jinslari slanetsli strukturaga ega bo'ladi, lekin bu struktura epizonaga nisbatan kuchliroq rivojlangan.

**Katazonadagi** metamorfizm jarayoni yuqori hidrostatik bosim va haroratda (minerallar erish nuqtasiga yaqin bo'ladi) kechadi. Jinsda slanetsli tekstura kamayadi, u plastik holatga keladi va tarkibida sillimanit, almandin, piroksen, olivin, pirop, kordierit, shpinel, anortit, albit, dala shpati, biotit, egirin, andaluzit, vezuvian va boshqa ko'p minerallar uchraydi. Yuqori bosim va haroratga bardoshli minerallar ham uchraydi. Bularga kvarts, rutil, titanit, magnetit, kalsit, albit va boshqalar kiradi. Bu minerallar tarkibida (OH) bo'lmaydi.

Mintaqaviy metamorfizm jarayonlari progressiv va regressiv xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Har ikkala holda ham bu jarayonlar ultrametamorfizmga olib keladi.


**Progressiv metamorfizm** bosim va harorat ko'rsatkichlarining oshishi sharoitlarida amalga oshadi va past haroratli mineral majmuasi o'rniga yuqori haroratlisining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi (6.8-rasm).

**Regressiv metamorfizm** yoki **diaftorez** magmatik yoki metamorfik jinslarning yangi sharoitlarga moslashishidan paydo bo'lgan mineral hosilalarni o'z ichiga oladi. Bunda yuqori haroratli minerallar o'mini past haroratlilari egallaydi. Bunday jarayonlarda hosil bo'lgan metamorfizm mahsulotlarini **diaftoritlar** deyiladi.

Arxey va proterozoy yoshidagi metamorfik hosilalardan tuzilgan mintaqalar uchun **polimetamorfizm** xarakterli bo'ladi. Polimorfizm deganda metamorfizm jarayonlarining polixron ustama tushishi tufayli tog' jinslarining ko'p bosqichli o'zgarishi tushuniladi.

Mintaqaviy metamorfizmning eng keng tarqalgan jinslari bo'lib yashil slanetslar, kristalli slanetslar, gneytslar, amfibolitlar,

marmarlar, kvarsitlar sanaladi. Ular odatda faol deformatsiyalangan, murakkab burmalangan qatlamlar, linzalar va qatlamlalar shaklida yotadi. **Ultrametamorfizm** juda chuqurda (15 - 20 km), geosinklinal viloyatlarning orogen bosqichida vujudga keladi.



**6.8-rasm. Progressiv metamorfizm.** (*Understanding Earth.*, J. Grotzinger va b.).

Ultrametamorfizm mintaqaviy metamorfizmning xususiy holi bo'lib, muayyan tabiiy-kimyoiy sharoitlarda kechadi. Bu sharoitlar migmatizatsiya va granitizatsiyadan iborat. Ultrametamorfik jinslar suyuqlangan moddalarning sezilarli ta'sirida hosil bo'ladi. Ultrametamorfizmning omillari bo'lib yuqori harorat, suvning kimyoiy faolligi hamda uchuvchi komponenlar (K, H<sub>2</sub>O, HF, R<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) keltirilishi sharoitlari sanaladi.

**Migmatizatsiya** – bu yondoash metamorfik jinslarga yoki ishqorli metasomatozga granitli magmaning kirishi tufayli aralash tarkibli (migmatit) jinslarning vujudga kelish jarayoni.

**Granitizatsiya** – tog' jinslarining kimyoiy va mineral tarkibi o'zgarib granitlarga aylanish jarayoni hisoblanadi.

Ultrametamorfizmda asosan migmatitlar, granitlar va gneys-granitlar paydo bo'ladi.

**Avtometamorfizm.** Magmatik tog' jinslari dagi haroratning pasayishi natijasida ulardagi uchuvchi va tez harakatlanuvchi komponentlar ta'sirida o'zgarish jarayoniga **avtometamorfizm** deyiladi.

**Dinamometamorfizm** yer yoriqlari zonasida yuqori harorat


sharoitida yo'nalgan bosim (stress) ostida vujudga keladi va tog' jinslarining qayta kris-tallanmasdan turib burdalanishi va tal-qonga aylanishidan iborat bo'ladi. Dinamometamorfizm mah-sulotlarining burda-lanish darajasi bo'yicha tektonik brek-chiyalar, kataklazitlar va milonitlar ajratiladi (6.10-rasm).

Mineral tarkibi	Metamorfizm oshishi		
	Past darajada	O'rta darajada	Yuqori darajada
Xlorit			
Muskovit			
Biotit			
Granodiorit			
Stavrolit			
Sillimonit			
Kvars			
Dala shpati			
Tog' jinsi tun	Slanets	Polits	Krasiv slanets
	Gneiss		Engan

### 6.9-rasm. Metamorfizmning mineral tarkibi.

(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).

**Termal metamorfizm.** Magma litosferaniga ko'tarilishida cho'kindi va boshqa jinslarni yorib chiqib, atrofdagi tog' jinslarini o'zingning yuqori harorati bilan qizitadi, bir qismini eritadi va ular bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, o'zgartiradi. Bu jarayon **termal metamorfizm** de-




6.10-rasm. Dinamometamorfizm.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).

deyliladi Termal metamorfizmning muhim xillaridan biri kontakt metamorfizm hisoblanadi. Bu hodisa intruzivga yondosh jinslar bilan vujudga kelgani uchun **kontakt metamorfizni** deb yuritiladi. Kontakt metamorfizm o'z navbatida ikkiga: kontakt metamorfizmga va metasomatik metamorfizmga bo'linadi 6.11-rasm).

**Kontakt metmorfizimida** magma suv va karbonat kislotasi bilan birga boshqa elementlarni berib yoki qabul qilib, atrofdagi jinslarning kimyoviy tarkibini o'zgartiradi. Bu jarayonda

metasomatik jmslar - skarnlar paydo bo'ladi. Termal metamorfizmning mintaqaviy metamorfizmdan farqi bosimning kuchsizligi va magmaning yondaosh jinslarga qisqa vaqt ta'sir etishidir. Shuning uchun o'zgargan tog' jinslarining zonasiga uncha keng bo'lmay, u faqat ikki jins kontakti bo'ylab rivojlanadi.

Kontakt metamorfizmi natijasida magma yonidagi cho'kindi jinslar qayta kristallanadi, ba'zan hatto kimyoviy tarkibi o'zgarib ketadi. Masalan, kontaktga yaqin joydagi ohaktosh qatlami kristallanib marmarga aylanadi. Gil va qumtoshli jinslar rogovik va kristalli jinslarga aylanadi (6.11-rasm). Magma massasidan uzoqlashgan sari, cho'kindi jinslardagi metamorfizm jarayonining intensivligi va ta'sir darajasi kamayib boradi. Bunday jinslarni yer yuziga chiqib qolgan va yemirilgan joylarda uchratish mumkin. Masalan, O'zbekistonning g'arbidagi Qoratepa va Zirabuloq tog'laridagi granit intruzivi kontaktidagi jinslar bunga juda yaxshi misol bo'la oladi.



### 6.11-rasm

*Metamorfizm oreoli.*

*Kontakt-etamorfizmda qatlamlari argillulari rogoviklarga o'tishi, kvarsli qumtoshlar kvarsitiga va ohaktoshlar marmaga o'tishi yuzberadi. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).*

Kontakt metamorfizmining mineral tarkibi intruziv tana kontaktidan uzoqda hosil bo'luvchi past haroratli gidrooksidli majmuadan intruziya yaqinida yuqori haroratli majmuagacha o'zgaradi. Kontakt-termal metamorfizm turlari birlamchi jinslarning moddiy tarkibi va jarayon kechgan sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Bunda muskovit-rogovikli, amfibol-rogovikli va piroksen-rogovikli majmualar ajratiladi.<sup>49</sup>

<sup>49</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T H Jordan, F Press, R Silver 2007 p135,136

**Metasomatik metamorfizm (metasomatoz)** – bu tog' jinslarining kimyoviy va mineral tarkibi o'zgarishiga olib keluvchi bir elementlarning chiqib ketishi, boshqalarining esa kirib kelishi jarayonidir. Metasomatoz jarayonida minerallarning erishi va bir-birining o'rnni egallashi tog' jinslarining qattiq holatida hajmi deyarli o'zgarmasdan turib birgalikda kechadi.

Metasomatozda bosh agent bo'lib ko'pincha magmatik va post-magmatik faoliyat bilan genetik bog'liq bo'lgan kimyoviy faol eritmalar va gazlar hisoblanadi. Ularning kirish yo'llari tektonik burdalanish zonalari bo'lib, unda eritmalarning faol sirkulatsiyasi - filtratsion migratsiya kechadi; bundan tashqari, tog' jinslarining metasomatik o'zgarishi granulular orasidagi bo'shliqlarga eritmalarning diffuziyasi bog'liq bo'lishi mumkin.

Tog' jinslarining o'zgarish faolligi va xarakteri metamorfizmga olib keluvchi eritmalarning kimyoviy tarkibi (ishqorli, kislotali, asosli), ularning konsentratsiyasi, harorati, umumiy bosimi hamda metamorfizmga uchrayotgan tog' jinslarining tarkibi va strukturasiga bog'liq bo'ladi. Metasomatik jarayonlarning mahsulotlari **metasomatitlar** deyiladi va o'ziga xos mineral tarkibi, strukturasi va teksturasi bilan farq qiladi. Ular uchun quyidagilar xarakterli:

- birlamchi shakli saqlanib qolgan holda bir mineralning ikkinchisi bilan o'rin almashinishi natijasi hisoblanuvchi **pseudomorfozaning** rivojlanishi;
- markaziy qismida monomineral va minerallar soni kam bo'lgan jinslar shakllanuvchi metasomatik tanalarning zonal tuzilishi;
- turli o'lchamli yirik kristalli struktura va dog'li teksturaning rivojlanishi.

Metamorfizmning bunday turida shakllanuvchi amaliy tomonidan muhim hisoblangan va eng keng tarqalgan tog' jinslari bo'lib skarnlar, greyzenlar, ikkilamchi kvarsitlar, propilitlar, berezitlar va listvenitlar sanaladi. Bu metasomatitlarda nodir elementlarning konsentratsiyasi kuzatiladi, ular polimetallar, qalay, volfram, molibden, oltin va boshqa foydali qazilmalarining muhim qidiruv belgilari bo'lib xizmat qiladi.

Metamorfizm jarayonlari bilan ko'pchilik foydali qazilma konlari bog'liq. Bunda, ayniqsa, mintaqaviy metamorfizm va metasomatozning ahamiyati katta bo'ladi.

Progressiv mintaqaviy metamorfizm sharoitlarida polimetalli, oltin ma'danli, uranli va b. konlar shakllanadi. Bunda metamorfizmning ma'dan hosil qiluvchi ahamiyati yondash jinslardan ma'danli elementlarni yig'ib olishi va ularni nisbatan kichik joylarda to'plab sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan konlarni hosil qilishidir.

Metamorfizm jarayonida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan minerallar – talk, asbest, grafit; qimmatbaho toshlar – rubin, safir, granat konlari hosil bo'ladi. Metamorfik jinslarning o'zi ham ko'pincha foydali qazilmalar hisoblanadi. Marmarlar, temirli kvarsitlar, glinozemli gneyslar, misli qumtoshlar va b. shular jumlasidandir.

Ko'pchilik metasomatitlar ma'dandor jinslar hisoblanadi. Masalan, skarnlarda temir, polimetall ma'danlar, molibden, volfram, mis, kobalt, flogopit, vermekulit konlari; greyzenlarda - topaz, turmalin, flyuorit, qalay, volfram, molibden; ikkilamchi kvarsitlarda - oltingugurt, oltin-kumushli, surma-margimushli, mis-kolchedanli ma'danlar; berezit va listvenitlarda oltin va polimetall ma'dan konlari uchraydi. Ma'danli komponentlar hidrotermal eritmalar va flyuidlar yordamida tashqaridan keltiriladi yoki metasomatozga uchragan yondash jinslardan o'zlashtiriladi. Metasomatitlarda ma'danli mineralizatsiya sinxron yoki ustama tushgan bo'lishi mumkin.

Ma'dan cho'kmaga o'tishiga asosiy sabab bo'lib eritmalarining neytralizatsiya jarayonlari hisoblanadi. Neytralizatsiya haroratning o'zgarishi, ishqorli-kislotali sharoitlar yoki yondash jinslar bilan o'zaro ta'siri tufayli sodir bo'ladi.

### **O'tilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar**

1. Metamorfik jinslarning o'ziga xos strukturalari nimalardan iborat?
2. Qanday metamorfik jinslar massiv tuzilishga ega bo'ladi?
3. Qanday jinslar kontakt metamorfizmi tufayli hosil bo'ladi?
4. Metamorfizm deb nimaga aytildi?
5. Metamorfizm jarayoni deganda nimani tushunasiz?
6. Metamorfizmning qanday turlarini bilasiz?
7. Dinamometamorfizm va termal metamorfizm jarayonim qanday tasavvur etasiz?
8. Mintaqaviy metamorfizmni izohlab bering.

## **GEOXRONOLOGIK SHKALALAR**

### **7-bob. GEOXRONOLOGIYA. NISBIY VA MUTLAQ**

#### **GEOXRONOLOGIYA, GEOXRONOLOGIYA USULLARI**

##### **REJA**

- 1. Yerning yoshi.**
- 2. Nisbiy geoxronologiya tushunchasi.**
- 3. Geologik vaqt.**
- 4. Tog‘ jinslarining yoshini aniqlashda radiologik usullar va mutlaq geoxrnologiya tushunchasi.**

**Kalit so‘zlar:** Geoxronologiya, geoxronologik shkala, Yerning nisbiy va mutlaq yoshi, yetakchi organik qoldiqlar, fauna, flora, biostratigrafiya, lithostratigrafiya, ritmostratigrafiya, magnitostratigrafiya, kaynozoy, mezozoy, paleozoy, proterozoy, arkey, akron, antropogen, to‘rtlamchi, pleystotsen, konkordiya, diskordiya, atom, neytron, proton, radiaktiv izotop, radioaktiv parchalanish, mass-spektrometr.

##### **1. Yerning yoshi**


Yer po‘stining geologik rivojlanish tarixida voqealarning ketma-ketligi asosan turlicha kelib chiqishga ega bo‘lgan tog‘ jinslarida qayd etilgan. Ulardan birlari (cho‘kindi va vulkanogen) qatlam deb ataluvchi eng oddiy shakllarni hosil qiladi. Ular bir-biriga ketma-ket yotadi. Boshqalari esa (intruziv magmatik jinslar) o‘lchami va shakli bo‘yicha murakkab tanalarni hosil qiladi. Ularning vujudga kelgan vaqtini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi (7.1-rasm).

Geologiyada nisbiy va mutlaq yosh (geoxronologiya) tushunchalari mavjud.

##### **7.2. Nisbiy geoxronologiya**

Hududlarning geologik tuzilishi va tarixiy taraqqiyoti stratigrafik tadqiqotlar asosida aniqlanadi. Bundan tashqari, stratigrafik

tadqiqotlar geologik, tektonik, litologo-paleogeografik xaritalar va sxemalar tuzishda, shu jumladan foydali qazilma konlarini bashorat qilishda va ularni qidirishda keng qo'llaniladi.



### 7.1-rasm. Cho'kindi va vulkanogen, intruziv magmatik jinslar yotish shakllari. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

Stratigrafiya fanining asosiy vazifasi bo'lib yotqiziqqlarni stratigrafik tabaqaqlash va taqqoslash sanaladi. Stratigrafik tabaqaqlash – bu kesmada ma'lum belgilari bilan farqlanuvchi alohida gorizontlar, pachkalar va qatlamlarni ajratishdan iborat. Tabaqaqlangan kesmalardagi stratigrafik birliklar yoshi bo'yicha o'zaro taqqoslanadi.<sup>50</sup>


<sup>50</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J Tarbuck 2012.p 440

Bir-biridan uzoqda joylashgan kesmalarini o'zaro taqqoslashda biostratigrafik, litostratigrafik, ritmostratigrafik va magnitostratigrafik usullardan foydalilanildi. Ularning har biri o'ziga yarashan yutuqlarga va kamchiliklarga ega. Shuning uchun ham ko'p hollarda ulardan birgalikda foydalilanildi.

**Biostratigrafik usul** (lotincha “bio” – hayot, “stratum” - qatlam) qarilarining ustiga yosh qatlamlar yotuvchi qonuniy ketma-ketlikka asoslangan.

Nisbiy yoshni aniqlashning eng ishonchli usuli bo'lib biostratigrafik usul hisoblanadi. U XIX asrning boshlarida V. Smit tomonidan taklif etilgan va keyinchalik J. Kyuve va A. Bronyar tomonidan batapsil ishlab chiqilgan.

Biostratigrafik usul tog' jinslaridagi hayvon (fauna) va o'simlik (flora) qoldiqlarini o'rgamishga asoslangan. Paleontologik ma'lumotlar asosida yerda hayotning evolutsiyasidagi muayyan ketina-ketlik va takrorlanmaslik aniqlangan bo'lib, u misbiy geologik yil hisobi tizimini yaratishga imkon berdi (7.2-rasm).




**7.2-rasm. Tog' jinslaridagi hayvon (fauna) va o'simlik (flora) qoldiqlari (U.Smut, 1793-yil). (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)**

Tog' jinslarinmg nisbiy yoshini aniqlash uchun asosan organik qoldiqlarning eng kichik taksonomik birliklari – avlodlar va turlardan foydalilaniladi. Ularning orasida *yetakchi toshqotgan organik qoldiqlargina* bu masalani yechish uchun yaroqli bo'ladi. Yetakchi maqomiga ega bo'lish uchun ular uchta asosiy talabga javob berishi shart:

- mumkin qadar qisqa geologik vaqt davomida paydo bo'lgan, gurkirab rivojlangan va qirilib ketgan bo'lishi;
  - son jihatdan juda ko'p bo'lishi;
  - yer yuzasining katta maydonlarida tarqalgan (kosmopolit) bo'lishi lozim.


Demak, yetakchi organik qoldiq deb, qisqa geologik vaqt davomida yirik hududlarda tarqalgan, son jihatdan ko‘p bo‘lgan va oson taniladigan yuqolib ketgan organizmlarning toshqotgan qoldiglariga aytildi (7.3-rasm).



*7.3-rasm. Geologik vaqt shkalasi.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

Bu tushuncha stratigrafiyaga XIX asning o'ttalarida nemis paleontolog G. Broni tomonidan kiritilgan va u dunyoda birinchi bo'lib, umurtqasizlarning yetakchi shakllarini tuzgan.

Yetakchi organik qoldiqlar usuli bir xil yetakchi organik qoldiqlar uchraydigan yotqiziqlar bir xil yoshli degan tushunchaga asoslangan. Uzoq vaqtlar davomida bu usul biostratigrafiyada asosiy usul bo'lib kelgan va uning sharofati bilan tafsiliy stratigrafik shkala tuzilgan, bir - biridan ancha uzoqda joylashgan yotqiziqlarning kesmalarini tabaqlangan va taqqoslangan (7.4-rasm).



*7.4-rasm.Kolarado plitasi cho'kindi jinslar qatlamlaridan iborat bo'lib uch va undan ortiq qatlam korrelatsiyasidan tarkib topgan.Diogrammaning yuqori qismida yerning geologik ko'ndalang kesimi tasvirlangan. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).*


Qirilib ketgan sanoqsiz organizmlarning orasida yetakchilik talablariga javob beradigan shakkari ham ko'p. Bularga misol tariqasida *Obolus apollinis* – ordovikning tremadok yarusi uchun, *Choristites mosquensis* – karbonning moskva yarusi uchun, *Cadoceras elatmae* – o'rta yuraning kellovey yarusi uchun,

*Cardioceras cordatum* – yuqori yuranimg oksford yarusi uchun, *Deshayesites deshayesi*, *Acanthohoplites* – quyi bo'mning apt yarusi, *Leymeriella* va *Anahoplites* – alb yarusi uchun, *Belemnitella mucronata* – yuqori bo'mning kampan yarusi uchun va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Yetakchi organik qoldiqlar bo'lib faqat organizmlarning turlarigina emas, balki avlodlari va hatto oilalari, otryadlari va sinflari hisoblanishi mumkin. Bu stratigrafik tabaqalarning taksonomik birliliklariga bog'liq. Masalan, seratitlar faqat perm va trias davrlaridagiga rivojlangan, arxeotsiatlar esa erta kembriyda, trilobitlar - kembriy, ordovik va silurda yashagan, devon va erta karbonda ular inqirozga uchragan va qirilib ketgan.<sup>5151</sup>

Oddiy bo'lган bu yetakchi organik qoldiqlar usuli ham kamchiliklardan holi emas. Chunki ba'zi shakllar keng tarqalgan va ularni *kosmopolitlar* deyiladi, boshqalarining tarqalish maydoni chegaralangan bo'lib, ularni *endemiklar* deyiladi. Demak, bunday tadqiqotlarda organizmlarning yashagan davridagi tabiiy-geografik sharoitlar ham hisobga olinishi shart. Shu bilan bir qatorda tabiatda mutlaq kosmopolitlar bo'lishi mumkin emasligini ham hisobga olish zarur. Chunki bir vaqtning o'zida ham quruqlikda, ham dengizda yoki turli sho'rlikda va chuqurlikda yashaydigan organizmlar yo'q. Yashash muhitining tabiiy-geografik sharoitlarga bog'liq holda har bir tur yoki avlod o'zining muayyan tarqalish hududiga ega bo'ladi (7.5-rasm).

*Organik majmualar usuli.* Yetakchi organik qoldiqlar usulidan farqli o'laroq bunda butun paleontologik materialdan foydalaniladi. Tadqiqotchi kesmada tarqalgan qoldiqlarni o'rganadi, ularning kesma bo'ylab komplekslari almashinishini va kesmadan kesmagacha o'zgarishini aniqlaydi. Mazkur usulning ustuvorligi shundan iboratki, bunda kesmalarning yoshi va ularni taqqoslash haqidagi xulosalar yakka yetakchi organik qoldiqlargagini emas, balki qatlamda uchraydigan barcha fauna va flora shakllari majmuasiga asoslangan bo'ladi. Shunday qilib, yotqiziqlarning yoshi haqidagi xulosalarning ishonchliligi oshadi. Ushbu usul hozirgi vaqtda keng qo'llaniladi va biostratigrafiyada asosiy usul sanaladi (7.6- rasm).


<sup>51</sup> Understanding Earth. J.Grotzinger, T.H.Jordan, F.Press, R.Silver 2007 p



7.5-rasm. Yashash muhitining tabüy-geografik sharoitlarga bog'liq holda har bir tur yoki avlod o'zining muayyan tarqalish hududiga ega.(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

Usulning mazmuni grafik tasvirlanadi. Unda toshqotgan qoldiqlar kesmada paydo bo'lishi va qirilib ketishi tartibida joylashtiriladi. Bunda muayyan majmualarning almashinishi bo'yicha pog'onalar hosil bo'ladi va ularga asoslanib

yotqiziqlarning yoshi haqida xulosa chiqarish va kesmalarni tabaqlash mumkin.




*7.6-rasm Uchuvchi va sudraluvchiga o'xshash arxeopteryalarining zamonaliviy qushlar avlodlari.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Organik qoldiqlar majmuasini tahlil qilishda muayyan qatlama uchraydigan va uming chegarasidan chiqmaydigan shakllar ajratilishi mumkin. Bu bizga ma'lum bo'lgan yetakchi shakllardir va ular kesmada juda kam uchrashi mumkin. Ammolardan tashqari pastki qatlama paydo bo'lgan va keyimgi qatlama uchramaydigan yoki pastki qatlama uchramaydigan, ushbu qatlama mavjud bo'lgan va ustki qatlamga o'tuvchi shakllar ham uchraydi. Qatlama topilgan organik qoldiqlar majmuasi uning tipik turi (indeks-tur) bo'yicha nomlanadi, bu kompleksning barqarorligi bir qancha kesmalarda tekshirib ko'rildi. Bunday shakllar majmuasi yotqiziqlar yoshini ishonzchli aniqlashga yordam beradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan biostratigrafianing xususiy usullaridan tashqari evolutsion (filogenetik), paleoekologik va taqqoslashning


sonli usuli kabilar ham mavjud. Ular bilan talabalar yuqori kurslarda maxsus fanlarni o'rganishda tanishadi.

*Litostratigrafik usul* kesmani tog' jinslarining tarkibi, strukturaviy va teksturaviy xususiyatlari bo'yicha qatlamlar va ularning majmualariga tabaqlashga va ularning turli joylarda tuzilgan stratigrafik kesmalarmi o'zaro taqqoslashga asoslangan. Bir xil litologik tavsifga ega bo'lgan qatlamlar va qatlamlar majmualari va turli kesmalardagi o'xshash ketma-ketligi hamda ularning bir xil yoshdaligini taxmm qilishga imkon beradi. Litostratigrafik usul «soqov» qatlamlarning, ya'm fauna va flora qoldiqlariga ega bo'lmaganlarining yoshini aniqlashda foydalaniadi. Bu usul yordamida qatlamlarning yoshini aniqlash yoki boshqa usullar bilan aniqlangan muayyan etalon geologik kesinalar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Ammo ko'p hollarda bir litologik tarkibdagi qatlamlarning turli joydagi yoshi sinxron bo'lmaydi. Bu litostratigrafik usulning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Bunda qatlamlar yaqin masofalardagina o'zaro taqqoslanishi mumkin (7.7-rasm).



7.7-rasm. Litostratigrafik usul «soqov» qatlamlarning, ya'nini fauna va flora qoldiqlariga ega bo'lmaganlarining yoshini aniqlashda qo'llaniladi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)

**Ritmostratigrafik usul** – geologik hodisalar davriyiligin va qatlamlarning stratigrafik ketma-ketligini cho'kindi to'planish ritmlarini aniqlash yo'li bilan o'rghanish usuli. Masalan, flish, ko'mirli va tuzli formatsiyalarning *siklotemalari* (ritmlari), muz va muzoralig'i gorizontlari, tasmali gillarda yil qatlamchalarining geoxronologik, daraxtlarning yillik halqalarini (dendroxronologiya) hisoblash va boshqa usullar (7.8-rasm).



**7.8-rasm. Daraxtlarning yillik halqalari (dendroxronologiya).**  
*(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

Ritmostratigrafiya usuli iqlimstratigrafiya kabi biostratigrafiya usulini sezilarli darajada to'ldiradi. V.I.Popov bo'yicha ritmostratigrafiya – bu ritmoseriyalarni hamda magmatizmning fazoviy shakllarini ajratishga yordam beruvchi fatsial-siklik (fatsial-ritmik) tahlil asosida kesmalarni stratigrafik tabaqlashdir. Ritmostratigrafik tabaqlashda ritmlarning geologik kompleks (GK), ritmokompleks (RK), ritmotolsha (RT), ritmosvita (RS) va ritmopachka (RP) kabi taksonomik birliklari ajratiladi. Cho'kindi yotqiziqlar kesmasidagi ritmiylik ular hosil bo'lish davridagi magmatik tektonik faoliyk xususiyati bilan bevosita bog'liq. Masalan, geologik kompleks biron-bir tog' burmalanish bosqichini (kaledon, gersin, alp va h.k.) o'z ichiga olsa, ritmokompleks undagi tektonik fazalarni

o‘zida aks ettiради. V.I.Popov fikricha ritmostratigrafik sxemalarнing одатдаги литологик sxемаларга нисбатан yutug‘и ritmoseriylar chegarасининг izoxronligидir. Ritmostratigrafiyanı biostratigrafiya yoki mutlaq geoxronologiya bilan birga qo‘llash yaxshi natijalar beradi.

**Magnitostratigrafik usul.** Ma’lumki, Yer po‘stida uchraydigan ba’zi minerallar magnitlik xususiyатiga ega. Ferromagnitli minerallar hosil bo‘lishida, masalan magma yoki lava suyuqligining kristallanishi natijasida bu minerallar shu vaqtдagi magnit maydom yo‘nalishiga mos holda magnitlanib qoladi. Suvli muhitda loyqa tarkibidagi ferromagnit minerallar ham yerning magnit maydoniga muvofiq mo‘ljallanib cho‘kadi. Shu tufayli cho‘kindi jinslar ham cho‘kish vaqtidagi Yer magnit maydoni to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi, ya’ni cho‘kindi hosil bo‘lish jarayonidagi Yerning magnit maydoni kuchlanish chiziqlarining yo‘nalishi va magnit qutblarining o‘mi tog‘ jinslarining “xotirasida” saqlanib qoladi. Ammo muayyan vaqtлarda magnit qutblari o‘zaro o‘rnini almashtirib turgan, ya’ni magnit maydoni *inversiyasi* sodir bo‘lgan. Shu tufayli cho‘kindi jinslar kesmasida qoldiq magnitlanish xususiyатларини o‘rganish asosida to‘g‘ri va teskari magnitlanish oraliqlари ajratiladi. Boshqacha qilib aytganda, kesmalar stratigrafik tomondan tabaqalanadi va o‘zaro taqqosланади. Magnitostratigrafik usulga 1947-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyасиминг akademigi V.I.Popov tomonidan asos solingan.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullar stratifikatsiyalangan hosilalarning, ya’ni qatlamlanib yetuvchi tog‘ jinslarining nisbiy yoshini aniqlashga imkon beradi. Ularga cho‘kindi, vulkanogen-cho‘kindi, vulkanogen va mintaqaviy metamorfizmda o‘zining birlamchi yotish sharoitларини saqlab qolgan metamorfik jinslar kiradi.

1881-yili Bolone shahrida bo‘lib o‘tgan II Xalqaro geologik kongressda birinchi geoxronologik va unga mos keluvchi stratigrafik shkalalar qabul qilingan. Ularda yer po‘sti va organik dunyoning rivojlanish ma’lumotлари bo‘yicha Yerning butun tarixi vaqt oraliqlariga (geoxronologik tabaqalar) va shu vaqt oraliqlarida hosil bo‘lgan tog‘ jinslarining qatlamlalariga (stratigrafik tabaqalar) bo‘lmadi.

### 7.3. Geologik vaqt

**Geologik vaqt** – bu tabiiy kalendor bo‘lib, uning har bir varag‘i, har bir satri bir vaqtning o‘zida rivojlanuvchi son-sanoqsiz hodisalarning o‘zgarishidagi ketma-ketlikni aks ettiradi. Ulardan ba’zilari muayyan chegaralangan hududlarda, boshqalari keng mintaqalarda, uchinchilari esa sayyoralar miqyosda sodir bo‘lib, rivojlanayotgan Yerning birligimi aks ettiradi. Shuning uchun ham stratigrafiya mahalliy, mintaqaviy va umumiy stratigrafik shkalalar tushunchalariga tayanadi. Geologik jarayonlarning izlari bo‘yicha hodisalar tiklanadi. Ularni xronologik ketma-ketlikda joylashtirib, tadqiqotchilar kesmalarni tabaqlaydi va taqqoslaydi, bu esa natijada turli miqyosdagi stratigrafik shkalalarni tuzishga imkon beradi. Mahalliy stratigrafik shkalalar o‘zaro taqqoslanib mintaqaviy shkala ishlab chiqiladi. Ular asosida Xalqaro stratigrafik shkala yaratiladi. U esa global etalon sanaladi.

**Eon (eonotema)** – eng yirik geoxronologik birlik bo‘lib, uming davomiyligi ko‘plab million, hatto, milliard yillarni tashkil etadi. Yer tarixida arxey, proterozoy va fanerozoy eonlari ajratiladi. Arxey va proterozoy tokembriy yoki kriptozoy nomi bilan yuritiladi.

**Era (eratema)** – eonning bir qismi bo‘lib, uning davomiyligi bir necha yuz million yilni o‘z ichiga oladi. Eralar Yerning va undagi organik dunyoning yirik rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Eralar orasidagi chegaralar organik dunyo rivojlanishidagi tub o‘zgarish bosqichlarini xarakterlaydi. Fanerozoy eonida uchta: paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralari ajratiladi.

**Davr (sistema)** – bu davomiyligi o‘nlab million yil bo‘lgan geologik vaqt oraliq‘i bo‘lib, uning nomi aksariyat hollarda shu davr yotqiziqlari birinchi bor aniqlangan joyning nomidan kelib chiqqan.

**Epoxa (bo‘lim)** – bu geologik davrning bir qismi bo‘lib, bir necha o‘n million yilni qamrab oladi. Epoxalarning nomi vaqt ketma-ketligiga asosan erta, o‘rtta va kechki bo‘lishi mumkin. Ba’zi epoxalar o‘zining xususiy nomiga ega.

**Asr (yarus)** – bu geologik epoxaning bir qismi bo‘lib, davomiyligi bir necha million yilni qamrab oladi. Asrlarning nomlari shu vaqtida rivojlangan yotqiziqlar birinchi bor o‘rganilgan viloyatlar, tumanlar, daryo havzalari, aholi manzillari nomidan olingan bo‘ladi.

Ajratilgan stratigrafik tabaqalarni geologik xaritalarda tasvirlash uchun muayyan ranglar va indekslardan (harfli va raqamli helgilar) foydalaniladi.

Arxey, indeksi Ar, rangi to'q pushti;  
 Proterozoy, indeksi Pr, rangi och pushti  
 Paleozoy, indeksi Pz, rangi jigarrang;  
 Mezozoy, indeksi Mz; ko'k rang  
 Kaynozoy, indeksi Kz; rangi sariq.

Butun dunyoda Xalqaro geologik kongressda oldingilariga o'zgartirishlar kiritib qabul qilingan geoxronologik (stratigrafik) shkaladan foydalaniladi. Yangi shkala quyidagi tabaqalarni o'z ichiga oladi (7.1-jadval):

### Geoxronologik va stratigrafik tabaqalar

7.1-jadval

Geoxronologik	Stratigrafik
Eon	Eonotema
Era	Eratema
Davr	Sistema
Epoxa	Bo'lim
Asr	Yarus
Faza	Bo'g'in
Payt	Zveno
Termonoxrona	Bosqich

Fanerozoyning geoxronologik (stratigrafik) shkalasida eralar (eratemalar), davrlar (sistemalar), epoxalar (bo'limlari), asrlar (yaruslar) kabi geoxronologik (stratigrafik) toifalar ajratiladi va ularning boshlanish davri million yillarda ko'rsatiladi (7.2-jadval).

# Fanerozoyning geoxronologik (stratigrafik) shkalasi.

7.2-jadval

Era, Eratema	Davr, Sistema	Epoxa, bolim	Epoxa, bolim indeksi	Ast, Yarus	Min yil
Mezozoy	Bo'r	Kechki	Golotsen	Q <sub>2</sub>	0,01
			Pleystotsen	Q <sub>1</sub>	Kechki 0,26
					O'rtta 0,78
					Erta 1,8
			Pliotsen	N <sub>2</sub>	Gelas 2,58
					Pyachens 3,6
					Zankl 5,3
			Miotsen	N <sub>1</sub>	Messi 7,2
					Torton 11,6
					Serraval 13,6
Kainozooy	Paleogen	Neogen			Lang 15,8
					Burdigal 20,3
					Akvitan 23,0
			Oligotsen	E <sub>1</sub>	Xatt 28,4
					Ryupel 33,7
			Eotsen	E <sub>2</sub>	Priobon 37,2
					Barton 40,4
					Lytet 46,6
			Paleotsen	E <sub>3</sub>	Ipr 55,8
					Tanet 58,7
Kainozooy	Bo'r	Kechki			Seland 61,7
					Dat 65,5
				K <sub>2</sub>	Maastrixt 70,6
					Kampan 83,5
					Santon 85,8
					Konyak 89,3
					Turon 93,5
					Senoman 99,6
				K <sub>1</sub>	Alb 112,0
					Apt 125,0
Kainozooy	Bo'r	Kechki			Barrem 130,0
					Goteriv 136,4

Paleozoy	Yura	Kechki	J <sub>3</sub>	Valanjm	140,2
				Barrias	145,5
				Titon	150,8
				Kimmerij	156,7
		O'rtta	J <sub>2</sub>	Oksford	161,2
				Kellovey	164,7
				Bat	167,7
				Bayos	171,6
		Ertta	J <sub>1</sub>	Aalen	175,6
				Toar	183,0
				Plinsbax	189,6
				Sinemur	196,5
Trias	Kechki	T <sub>3</sub>	Gettang	199,6	
			Ret	203,6	
			Noriy	216,5	
			Karniy	228,0	
	O'rtta	T <sub>2</sub>	Ladin	237,0	
			Aniziy	245,0	
	Ertta	T <sub>1</sub>	Olenek	249,7	
			Hind	251,0	
	Loping	P <sub>3</sub>	Changsin	253,8	
			Vachiping	260,4	
Perm	Gvadelup	P <sub>2</sub>	Kepiten	265,8	
			Vord	268,0	
			Rodiy	270,6	
	Sisurel	P <sub>1</sub>	Kungur	275,6	
			Art	284,4	
			Sakmar	294,6	
			Assel	299,0	
	Karbon	Pensilvan	Yuqori	Gjel	303,9
				Qosimov	306,5
			O'rtta	Moskva	311,7
			Quyi	Boshqird	318,1
Devo	Missisip	Yuqori	Serpuxov	326,4	
			O'rtta	Vize	345,3
			Quyi	Turne	359,2
			D <sub>3</sub>	Famen	374,5
	Kechki			Fran	385,3

	O'rtta	D <sub>2</sub>	Jivet	391,8
			Eyfel	397,5
	Erta	D <sub>1</sub>	Ems	407,0
			Praga	411,2
			Loxkov	416,0
Silur	Pridol		Kelishilmagan	418,7
	Ludlov		Ludford	421,3
			Gorst	422,9
	Venlok		Xomer	426,2
			Sheynvud	428,2
	Llandovery		Telich	436,0
			Aeron	439,0
			Kuddan	443,7
Ordovik	Kechki	O <sub>3</sub>	Ximant	445,6
			Yarus 6	455,8
			Yarus 5	460,9
	O'rtta	O <sub>2</sub>	Darriul	468,1
			Yarus 3	471,8
	Erta	O <sub>1</sub>	Yarus 2	478,6
Kembriy	Furong		Tremadok	48836
			Yarus 10	492
			Yarus 9	496
			Peyb	501
	Seriya 3		Yarus 7	503
			Yarus 6	506
			Yarus 5	510
	Seriya 2		Yarus 4	517
			Yarus 3	521
	Seriya 1		Yarus 2	534
			Yarus 1	542

Tokembriyming geoxronologik (stratigrafik) shkalasida asrlar (yaruslar) ajratilmagan (7.3-jadval).<sup>52,53</sup>

<sup>52</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J.Tarbuck 2012 p 455-456

<sup>53</sup> Understanding Earth, J.Grotzinger, T.H.Jordan, F.Press, R.Silver 2007 p183-184

## Tokembriyning geoxronologik (stratigrafik) shkalasi

7.3-jadval

Proterozoy	Neoproterozoy	Ediakar	630
		Kriogen	850
		Ton	1000
	Mezoproterozoy	Sten	1200
		Ektas	1400
		Kelimm	1600
	Paleoproterozoy	Stater	1800
		Orosir	2050
		Rich	2300
		Sayder	2500
Arxey	Neoarxey		2800
	Mezoarxey		3200
	Paleoarxey		3600
	Eoarxey		

### 7.4. Tog‘ jiuslarining yoshimi aniqlashda radiologik usullar va mutlaq geoxronologiya tushunchasi

Yuqorida ko‘rib chiqilganidek, nisbiy geoxronologiya tog‘ jinslarining bir-biriga nisbatan yoshini - qaysi birlari keyin hosil bo‘lgan va yosh hisoblanishi hamda qaysilari oldin shakllangan va qari sanalishini aniqlashni ko‘zda tutadi. Nisbiy geoxronologiya u-yoki bu geologik tanalar shakllanishining davomiyligi to‘g‘risida tushuncha bermaydi, ammo ularning hosil bo‘lishi vaqtini ketma-ketligi haqida tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda kesmalarni tabaqlash va taqqoslash masalalarini yechishda **mutlaq geoxronologiya** usullari, ya’ni geologik vaqtini hamda tog‘ jinslari va minerallarning hosil bo‘lish va qayta o‘zgarish (metamorfizm) vaqtini astronomik birliklarda - yillarda o‘lchash tobora keng qo‘llanilmoqda.

Mutlaq geoxronologiya tog‘ jinslarining yoshini va ularning hosil bo‘lish jarayonlarining davomiyligini yillarda, minglab va yuzlab million o‘lchashni ko‘zda tutadi.

Geologik voqealar va obyektlarning yoshi radioaktiv elementlar yadrosining barqaror parchalanish tezhigiga asoslangan radio-  
logik (izotopli) usullar yordamida aniqlanadi.

Geoxronologiyada qo'llanuvchi uzoq yashovchi radioaktiv izotoplari bo'lib, kaliy  $^{40}\text{K}$ , rubidiy  $^{87}\text{Rb}$ , samariy  $^{147}\text{Sm}$ , toriy  $^{232}\text{Th}$ , uran  $^{235}\text{U}$ ,  $^{238}\text{U}$  hisoblanadi. Bunda biz atomlarning asosiy tarkibi sifatida elektronlarni, protonlarni va neytronlarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Yadrodag'i protonlar soni uning qaysi kimyoviy elementga mansubligini bildiradi.

Protonlar soni bir xil, ammo neytronlar soni turlicha bo'lgan atomlar shu kimyoviy elementning *izotoplari* deyiladi.


Radioaktiv izotoplarning yadrosi barqaror emas. Vaqt davomida ular radioaktiv parchalanishga uchraydi, natijada yangi hosil bo'lgan yadroda protonlar va neytronlar soni o'zgaradi, ya'ni boshqa kimyoviy elementning izotopi hosil bo'ladi. Radioaktiv izotoplarning parchalanishi tufayli hosil bo'luchchi izotoplari *radiogen izotoplar* deyiladi.

Ma'lumki, ko'pchilik kimyoviy elementlar bir qancha izotoplarga ega. Ular yadrosida D. I. Mendelevning davriy sistemasida elementning tartib raqamiga mos keluvchi protonlar soniga ega bo'lgan holda neytronlar soni bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Protonlar va neytronlar yig'indisi *izotopning massa sonini* tashkil etadi. Qo'rg'oshin uchun, masalan, massa som 204, 206, 207 va 208 teng bo'lgan to'rtta izotopi ma'lum bo'lib, ularning yadrosida 122, 124, 125 va 126 neytron va 82 ta proton bor. Har bir izotopning massa soni indeksida ko'rsatiladi:  $^{204}\text{Pb}$ ,  $^{206}\text{Pb}$ ,  $^{207}\text{Pb}$ ,  $^{208}\text{Pb}$ .

Turli radioaktiv izotoplari turli mexanizmlar yordamida parchalanadi. Biz uchun  $\beta$ -parchalanish va  $\alpha$ -parchalanish juda muhim.

$\beta$ -parchalanishda neytron o'zidan negatron chiqarish orqali protonga aylanadi. Bunda yadrodag'i protonlar soni bittaga oshadi, neytronlarni esa bittaga kamayadi.

$\alpha$ -parchalanishda ikkita proton va ikkita neytrondan iborat bo'lgan yadro alfa zarrachalarini chiqaradi. Bunda yadro massasi 4 birlikka kamayadi (7.9-rasm).



**7.9-rasm. Alfa va beta zarralar.**  
(*Understanding Earth., J. Grotzinger va b.*)

Kimyoviy elementlarning ba'zi iztoplari barqaror emas (radioaktiv) va gamma nurlamish energiyasini chiqarib, parchalanadi. Yangi hosil bo'lgan

zarrachalar esa barqaror izotoplarga aylanadi. Parchalanish tezligi bosim va harorat ta'sirida o'zgarmaydi, ya'ni geologlarga tabiat in'om qilgan radioaktiv soatlar *hech qanday tashql omillarga bog'liq bo'lmasdan* doimiy tezlikda yuradi. Muayyan izotopning radioaktiv parchalanish tezligi yo *parchalanishning konstantasi X*, yoki *yarim parchalanish davri T* - dastlabki izotop atomlarining yarimi parchalanadigan vaqt oraliq'i orqali ifodalanadi.

Radioaktiv izotopning yarimparchalanish davri – bu ushbu izotopni tashkil etuvchi barcha atomlari yarmisining radioaktiv parchalanishga ketgan vaqtidir. Shunday qilib, yarimparchalanish davri – izotopning radioaktiv parchalanish tezligi o'chovidir. Agar biz kimyoviy sistemada (ya'ni mineral yoki tog' jinsida) radioaktiv izotop va uning parchalanishidan hosil bo'lgan boshqa izotopning nisbatini bilsak, bu sistemaning yopilishidan so'ng o'tgan vaqtin hisoblab topishimiz mumkin.

Radioaktiv elementning yarimparchalanish davrini bilish va maxsus asbob – mass-spektrometr yordamida parchalanishdagi

dastlabki va oxirgi mahsulotlarining miqdorini aniqlash orqali geologik obyektlar – tog’ jinslari, meteoritlar, minerallar va boshqalarning yoshi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin. Yoshni hisoblash uchun radioaktiv parchalanish qonunining quyidagi tenglamasidan foydalaniladi:  $N_t = N_0 e^{-\lambda t}$  bunda  $N_t$  – dastlabki izotop atomlarining parchalanmasdan saqlanib qolgan soni;  $N_0$  – dastlabki izotop atomlarining birlamchi soni;  $t$  – atomlarning parchalanish jarayoni boshlangandan keyingi o’tgan vaqt,  $\lambda$  – ushbu dastlabki izotopning parchalanish konstantasi;  $e$  – natural logarifm asosi. Bu tenglamadan geologik obyektning yoshiga mos keluvchi  $t$  vaqtini oson aniqlash mumkin:  $t = (1/\lambda) \ln(N_0/N_t)$ .

Dastlabki izotop atomlarining birlamchi sonini aniq baholash mumkin bo‘limganligi sababli yoshni hisoblash uchun odatda dastlabki va keyingi hosil bo‘lgan izotoplarni miqdorining nisbatidan foydalaniladi. Vaqtning boshlang‘ich momenti  $t = 0$  da sistemada faqat soni  $N_0$  ga teng dastlabki radioaktiv atomlar mavjud bo‘ladi;  $t$  yildan keyin dastlabki atomlardan ( $M$ ) qoladi va keyin hosil bo‘lgan atomlar ( $D$ ) to‘planadi. Demak,  $M + D = N_0$ ,  $N_t = M$  va  $t = (1/\lambda) \ln(1+D/M)$ .

Yarim parchalanishga teng vaqt o‘tgandan so‘ng radioaktiv atomlarning soni ikki marta kamayib, shu davrda hosil bo‘lgan atomlar soniga teng bo‘ladi, ya’ni  $M = D$ .

Shunday qilib, keyingi tenglamadan yarimparchalanish davri  $T$  va konstantasi  $\lambda$  orasidagi nisbatdan  $T = \ln 2 / \lambda = 0,693 / \lambda$  keltirib chiqariladi. Dastlabki izotoplarning yarimparchalanish davrlari orasidagi farq davomiyligi bo‘yicha vaqt oraliqlarining yoshini aniqlashga imkon beradi.

Har bir muayyan holda geoxronologik tadqiqot usulini tanlash uning imkoniyatlari va kamchiliklardan kelib chiqadi. Masalan, eng yosh geologik hosilalarining yoshini aniqlash uchun (2000-60000 yil oraliqda) odatda radiouglerod usulidan foydalaniladi, Yer rivojlanishining dastlabki bosqichlari uchun esa Sm-Nd usuli qo’llaniladi.

Radiologik usullardan amalda foydalanish yoshi aniqlanayotgan obyekt izotop sistemasining buzilishini – mahsulotlarning tashqaridan keltirilishi yoki dastlabki izotoplarning bir qismi va yarimparchalanish mahsulotlarining chiqib ketishini

hisobga olish lozimligi tufayli ish ancha qiyinlashadi. Bunda yosh bo'yicha olingan natijalar u yoki bu tomonga ancha o'zgarishi mumkin.

Geologik vaqtini o'lhash uchun eng ishonchli bo'lib U-Pb, Rb-Sr va Sm-Nd usullari hisoblanadi.

**Uran - qo'rg'oshin usuli** magmatik jinslarning yoshini va metamorfizm jarayonlari kechgan vaqtini aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Bu usul yordamida yoshni aniqlash uchun odatda sirkondan - radiologik yosh aniqlash uchun eng qulay bo'lgan juda barqaror mineraldan foydalaniladi (7.10-rasm). U termik, kimyoviy va mexanik ta'sirga bardoshli bo'lib, nurash va sedimentatsiya jarayonlarida saqlanib qoladi. U hatto yuqori metamorfizm bosqichida ham chidamli. Sirkonda U-Pb «xotira» - kristallning dastlab hosil bo'lish va keyingi qayta o'zgarish vaqtлari qayd qilinadi.

U-Pb usulning eng katta yutug'i sirkonda radioaktiv parchalanishning turli konstantalariga ega bo'l-gan uchta o'zaro bog'liq izotop sistemasining ( $^{238}\text{U}$   $^{206}\text{Pb}$ ,  $^{235}\text{U}$   $^{207}\text{Pb}$ ;  $^{232}\text{Th}$   $^{208}\text{Pb}$ ) mavjudligidir. Bu esa bitta tahlilda U va R nisbatida sistemaning yopiqligi haqidagi taxminni uch marta tekshirib ko'rishga imkon beradi.

Chunki turli izotopli sistemalar uchun tashqi ta'sir bir xil bo'lishi mumkin emas. Yoshni aniqlashda bir-biriga bog'liq bo'lмаган таҳлиллардан олинган natijalarining mos kelishi – bu mineraldagи sistemaning yopiqligidan dalolat beradi.

Sirkon kristallizasiya vaqtida odatda  $\text{U}^{4+}$  va


7.10-rasm. Sirkon kristalli.  
 $\text{Th}^{4+}$  ning ancha miqdorini, ammo qo'rg'oshinni kam qo'shib oladi, shuning uchun ham mutlaq yoshni aniqlash uchun uran-qo'rg'oshin va toriy-qo'rg'oshin usullari juda ma'qul hisoblanadi.

Uranning juda uzoq yarimparchalanish davriga ega radioaktiv izotoplari  $^{238}\text{U}$ ,  $^{236}\text{U}$  va  $^{232}\text{Th}$  qo'rg'oshinining  $^{205}\text{Pb}$ ,  $^{207}\text{Pb}$ ,  $^{209}\text{Pb}$  izotoplariga aylanadi.

Yopiq sistemada umumiy parchalanish vaqtidan so'ng dastlabki  $^{238}\text{U}$ ,  $^{236}\text{U}$  va  $^{232}\text{Th}$  bilan ulardan hosil bo'lgan oraliq izotoplar orasida sekulyar tenglik o'rnatiladi.

Demak, bu nisbatlar yordamida hisoblab chiqarilgan yoshning yaqin qiymatlari U-Pb sistemaning yopiqlik mezoni bo'lib sanaladi va obyektning yoshini aniqlashda uch qiymatning o'rtachasi bo'yicha baholashga imkon beradi. Nazorat uchun boshqa izotop nisbatlardan ham foydalanish mumkin.

U-Pb usuli yordamida yoshni aniqlash natijalari odatda obyekt yoshining mos qiymatlari egri chizig'i grafigi - **konkordiyadan** foydalaniladi (7.11-rasm). Diagramma  $^{201}\text{Rb}/^{238}\text{U}$ ,  $^{207}\text{Pb}/^{235}\text{U}$  izotop nisbatlari koordinatalarida chiziladi. Bu holda konkordiya  $^{206}\text{Pb}/^{238}\text{U}$  bo'yicha hisoblab chiqilgan yosh  $^{207}\text{Pb}/^{235}\text{U}$  bo'yicha olingan yoshga teng bo'lgan nuqtalarning geometrik o'mi hisoblanadi.



**7.11-rasm. Konkordiyali izoxron diagramma:** 1 - konkordiya; 2 - diskordiya; 3 - mineral yoshining konkordantli (muvosiq) qiymati; 4 - konkordantli eksperimental ma'lumotlar; 5 - mineralning hosil bo'lgan vaqt; 6 - keyinroq sodir bo'lgan geologik hodisaning kechgan vaqt.

bo'lsa, uning yoshiga mos keluvchi eksperimental nuqtalar kon-

Konkordiya va diskordiya diagrammalari odatda uranli minerallarda (masalan, sirkonda) uranning izotop tarkibini grafik tasvirlash uchun foydalaniladi. Bu usul yordamida magmaning kristallizatsiyasi va tog' jinsllari metamorfizmi jarayonlarining yoshini aniqlash mumkin.


Agar sistema mineralning butun mavjudligi davomida yopiq holda saqlangan

kordiyada joylashgan bo'ladi, ya'mi yosh qiymailari o'zaro muvofiq keladi yoki konkordantli bo'ladi. Konkordiyadagi nuqtalarning o'rni mineralning haqiqiy yoshini belgilaydi.

Agar mineralning izotop sistemasi keyin sodir bo'lgan radiogen qo'rg'oshin olib chiqib ketilgan jarayonlar tufayli buzilgan bo'lsa (masalan, metamorfizmda), unda eksperimental nuqtalar konkordiyadan pastda joylashgan, ya'ni diskordant bo'ladi. Bu nuqtalardan o'tkazilgan to'g'ri chiziq *diskordiya* yoki *izoxrona* deyiladi. Diskordiyaning konkordiya bilan kesishuvchi ustki nuqtasi mineralning hosil bo'lish vaqtiga, pastkisi esa ustama tushgan jarayonning vaqtiga to'g'ri keladi.

Kimyoviy sistemaning (ya'ni mineral yoki tog' jinsi) yopilishi ushbu sistemaning haroratiga bog'liq. Turli izotop sistemalar turli yopilish haroratiga ega. Shuning uchun ham tog' jinsining turli evolutsiya bosqichlari har xil usullar yordamida sanalishi mumkin.

**Rubidiy-stronsiy usuli.** Rubidiy (Rb) mimerallarda kaliyning



7.12-rasm. Rubidiy-stronsiyli evolutsion diagramma:  $t$  - yosh qiymati;  $a$  - izoxronaning qiyalik burchagi;  $b$  - dastlabki izotop nisbat  $^{87}\text{Sr}/^{86}\text{Sr}$ .

ning hosil bo'lishiga asoslangan.

Bu usul nordon va o'rta tarkibli magmatik va metamorfik jinslarning yoshini hamda cho'kindi hosil bo'lish jarayonlari va diagenez vaqtini aniqlashda keng qo'llaniladi. Tog' jinslarining yoshi rubidiy izotopining ( $^{87}\text{Rb}$ ) parchalanishidan hosil bo'lgan radiogen stronsiyning ( $^{87}\text{Sr}$ ) miqdori bo'yicha, bu izotoplarni noradiogen


(K) o'rmini oson egallaydi. Muskovit, biotit, amfibol va kaliyli dala shpatlari singari kaliyga ega bo'lgan mimerallar Rb-Sr usuli yordamida tog' jinslari ning yoshini aniqlash uchun yaroqli hisoblanadi. Rb-Sr usuli vaqt davomida  $^{87}\text{Rb}$  ning radioaktiv parchalanishi va  $^{87}\text{Sr}$

kelib chiqishga ega bo'lgan etalon ( $^{86}\text{Sr}$ ) miqdoriga nisbatan taqqoslab baholanadi.

Bu usul asosan izoxron variantda yalpi namunalarni tadqiq qilishda qo'llaniladi. Yoshni aniqlashda tadqiq etilayotgan obyekt (intruziv tana, qatlam va h.k.) uchun yetarli bo'lgan namunalar to'plamidan (5-7 tadan kam emas), bir yoshli, stronsiyning bir xil izotop tarkibli va shu bilan bir vaqtida  $\text{Rb}/\text{Sr}$  qiymati bilan farqlanuvchi ma'lumotlardan foydalaniлади. Agar tahlil etilayotgan namunalar to'plami izoxron modelga mos kelsa, unda  $^{87}\text{Rb}/^{86}\text{Sr}$   $^{87}\text{Sr}/^{86}\text{Sr}$  koordinatalarda grafikka tushirilgan tahliliy materiallar (7.12-rasm) izoxrona hosil qilib, chiziqli bog'liqlikka bo'ysunadi va u  $u = ax + b$ . turkumidagi to'g'ri chiziq tenglamasi bilan ifodalanadi. Yosh ( $t$ ) formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$t = (1/\lambda) \ln (1 + tga)$$

bunda,  $\lambda$  -  $^{87}\text{Rb}$  parchalanish tezligining konstantasi;  $a$  - izoxronanining qiyalik burchagi;  $tga$  - izoxrona tenglamasining burchak koefitsiyentiga ( $a$ ) mos keladi. Izoxronaning ordinata bilan kesishish nuqtasi tahlil qilinayotgan namunadagi birlamchi izotop nisbatni ( $^{87}\text{Sr}/^{86}\text{Sr}$ ) beradi. Namunalarning izoxron modelga mos kelishi grafikda nuqtalarning to'g'ri chiziq bo'ylab joylashishi orqali nazorat qilinadi.



**7.13-rasm. Rubidiy-stronsiyli izotoplari.**  
*(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Dengiz karbonatlaridagi  $^{87}\text{Sr}/^{86}\text{Sr}$  nisbat ularning yoshini aniqlashda ham qo'llanilishi mumkin (7.13-rasm).

**Samariy-neodim usuli.** Sm va Nd - bular lantanoidlar guruhidagi kimyoviy elementlardir. Ular nodir yer elementlari deb ham ataladi.


$^{147}\text{Sm}$  radioaktiv element hisoblanadi va  $^{147}\text{Sm} = >^{143}\text{Nd}$   $+^{4}\text{He} + \text{Q}$  parchalanish mexanizmi bo'yicha parchalanib,  $^{143}\text{Nd}$  hosil bo'ladi.

Geologik namunalarda tahlil qilingan Sm va Nd ning izotop tarkibi odatda izoxron diagrammada aks ettiriladi.

Sm-Nd usulidan tog' jinslarining metamorfizmi va minerallar kristallizatsiyasi jarayonlarining yoshini aniqlashda foydalaniishi mumkin.

Cho'kindi jmslarning Sm - Nd izotop tarkibi ularning birlamchi manbalarining yoshini baholashda foydalaniishi mumkin.

Samariy-neodim usuli  $^{147}\text{Sm}$  izotopining radioaktiv parchalanishiga asoslangan. Yoshni aniqlash uchun  $^{147}\text{Sm}/^{144}\text{Nd}$ ,  $^{143}\text{Nd}/^{144}\text{Nd}$  (7.14-rasm) koordinatalarda evolutsion diagrammadan foydalaniлади. Izotop tahlil natijalarini talqin qllish Rb-Sr izoxron usulga o'xshatib amalga oshiriladi. Nodir yer elementlariga mansub bo'lgan Sm va Nd



7.14-rasm. Asosli tarkibili daykalar uchun samariy-neodimiyyli evolutsion diagramma.

ning ozroq fraksiyalanishi va yarim parchalanish davrinining kattaligi bu usulni qo'llashni qadimiy (tokembriy) hosilalarining yoshini aniqlash bilan chegaralaydi. Sm-Nd sistema ustama jarayonlarga bardoshliligi tufayli bu usul Yer rivojlanishining ilk bosqichlari uchun yaroqli hisoblanadi.

**Kaliy-argon usuli** umuman tog' jinslari bo'yicha magmatizm va sedimentatsiya yoshini va monomineral fraksiyalar (kaliyiga ega bo'lgan minerallar: slyuda, amfibollar, kaliyli dala shpatlari) bo'yicha yoshni aniqlashda foydalaniлади. Yoshni aniqlashda odatda faqat  $^{40}\text{Ar}$  ni ajratib oluvchi  $^{40}\text{K}$  ning radioaktiv parchalanish reaksiyasidan foydalaniлади. K-Ar usulini qo'llashdagi asosiy qiyinchilik radioaktiv parchalanishning asosiy mahsuloti – argonning uchuvchanlik xossasi bilan bog'liq bo'lib, u metamorflashgan va nuragan tog' jmslarda yomon saqlanadi.

$^{40}\text{Ar}/^{39}\text{Ar}$  usuli an'anaviy K-Ar usulidagi kabi minerallar va yalpi namunalarning yoshini aniqlash uchun foydalaniшumumkin, ammo u Ar isrof bo'lmaydigan va uning ortiqcha miqdorisiz ideal yopiq sistemalarni diagnostika qilish uchun ko'proq istiqbollidir.

**Mineral strukturasida argonning harakatlanishi uchun mineral yopiq bo'lgan harorat argon sistemasining yopilish harorati deyiladi. K-Ar, Ar-Ar yoshi mineralning argon sistemasi yopilish haroratidan past haroratgacha sovishi momentidan boshlangan vaqtini ifodalaydi.**

Minerallarning Ar-Ar yoshi faqat yer po'sti denudatsion tarixining bir qisminigina sanalaydi. Shunday qilib, Ar-Ar yoshi ko'p hollarda eksgumatsiya yoshi deyiladi.

**Radiouglerod usuli** yoshi 60 ming yildan ortiq bo'limgan geologik obyektlarning yoshini aniqlash uchun foydalaniladi. Yerda uglerodning uchta iztopi –  $^{12}\text{C}$ ,  $^{13}\text{C}$  va  $^{14}\text{C}$  mavjud. Ularning tabiatdagi konsentratsiyasi juda turlicha:  $^{12}\text{C}$  barcha uglerodning 98,9 % ni,  $^{13}\text{C}$  - 1,1 % ni, biz uchun juda muhim bo'lgan radioaktiv izotopi  $^{14}\text{C}$  esa atmosfera va tuproqning judayam kam ulushini (10<sup>12</sup> %) tashkil etadi. U azot atomlari yadrosini kosmik nurlar protonlari bilan bombardirovka qilinishi tufayli doimo hosil bo'lib turadi, keyinchalik yarimparchalanish davri 5730 yil davomida barqaror azotga aylanadi. Bir necha yil davomida yangi hosil bo'lgan radiouglerod fotosintez orqali sayyoraning butun biosferasidagi aylanma harakatga jalg etiladi.<sup>54</sup> Har qanday tirik organizmda radiouglerod miqdori yer atmosferasidagiga teng bo'ladi, bu tenglik ularning fotosintezi yoki hayoti to'xtagungacha oziqlanishi tufayli saqlanadi. Biologik qoldiqlarning radioaktivligini o'lchash orqali organizmnинг o'lgan vaqtini yoki daraxtlarning yillik halqlari shakllanishining oxirini hisoblab topish mumkin. Bunday tadqiqotlarga misol tariqasida misr faraoni sarkofagining yoshi - 2190 yil va Bristol qarag'ayining yoshi - 4300 yil etib aniqlanganligini ko'rsatish mumkin.

$^{14}\text{C}$  atmosferada kosmik nurlarning ta'sirida uzlusiz hosil bo'lib turadi. Uglerodning  $^{14}\text{C}$  erkin atomlari  $^{14}\text{CO}_2$  molekulasiga kiradi va ular tirik organizmlar tomonidan o'zlashtiriladi. Organik suyak moddalaridagi  $^{14}\text{C}$  ning miqdori tirik organizmlar tarkibiga kirgandan boshlab o'tgan vaqtini aniqlashga imkon beradi.

Atmosferaning ustki qatlamlarida hosil bo'luvchi uglerodning radioaktiv izotopi  $^{14}\text{C}$  turli tog' jinslarida (ko'mir, ohaktosh) to'planadi va parchalana boshiydi.  $^{14}\text{C}$  izotopning parchalanmagan miqdori

<sup>54</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J.Tarbuck 2012.p 449-454

bo'yicha obyektning ko'milgan vaqtı baholanadi ( $^{14}\text{C}$  konsentrasiyasining atmosferada doimiyligi taxminidan kelib chiqqan holda).

Radiologik usullarning hozirgi vaqtdagi imkoniyatlari ancha yuqori, amalda barcha tog' jmslari va minerallarning yoshini juda ishonchli darajada aniqlash mumkin. Bu usullarni qo'llashdagi asosiy qiyinchiliklar geoxronologik ma'lumotlarni talqin qilish bilan bog'liq. Umumiyligi holda turli usullar yordamida olingan natijalarning mos kelishi real yosh qiyamatining ishonchli mezoni hisoblanadi. Bunda yoshning hisoblab topilgan qiymati hisoblangan modeliga mos kelishi geoxronologik sistemaning (radioaktiv - radiogen element) hosil bo'lish vaqtiga mos keladi va bu har doim ham geologik obyektlarning shakllanish vaqtiga mos kelavermaydi, uning rivojlanishidagi muayyan bosqichlarni aks ettirishi mumkin. Bir xil va ishonchli ma'lumotlar olish uchun geologik-petrografik, geokimyoiy va izotop-geoxronologik tadqiqot usullarini imkoniyati boricha birga qo'llash darkor.

### **O'tkazilgan ma'ruza mavzulari bo'yicha savollar**

1. Yerning yoshi haqida nimalarni bilasiz?
2. Geoxronologik shkala mazmunini izohlang.
3. Yerning nisbiy yoshi deganda nimani tushunasiz?
4. Yetakchi organik qoldiqlar deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday organik qoldiqlar yetakchi ahamiyatga ega?
6. Tog' jinslarining mutlaq yoshi qanday aniqlanadi?
7. Geoxronologik shkaladagi davrlar nomi nimaga asoslanib qo'yiladi.
8. Radioaktivlik nima?
9. Geologik jarayonlarni sanalashda qanday radioaktiv izotoplardan foydalanish mumkin?
10. «Yarimparchalanish davri» nima?
11. Radioaktiv izotoplarni geologik jarayonlarni sanalash uchun qanday foydalaniladi?
12. Qanday geologik jarayonlar sanalanishi mumkin?

## **NURASH**

### **8-hob. GEODINAMIK JARAYONLAR. EKZODINAMIK JARAYONLAR. NURASH, UNING TURLARI, SABABLARI, MAHSULOTLARI**

#### **REJA**

- 1. Ekzogen jarayonlar haqida tushuncha**
- 2. Nurash jarayonlari**
- 3. Fizik nurash**
- 4. Kimyoviy nurash**
- 5. Biologik nurash**
- 6. Elyuviy va nurash po'sti**

**Kalit so'zlar:** Ekzogen jarayonlar, elyuviy, delyuviy, kollyuviy, denudatsiya, akkumulatsiya, nurash, nurash qobig'i, zirhl sirt, gipergenez, kimyoviy nurash, fizik nurash, haroratli nurash, mexanik nurash, oksidlanish, gidroliz, erish, ion almashish,gidratatsiya.

**Geodinamik jarayonlar.** Yer po'stida va uning yuza qismidagi barcha o'zgarishlarga sababchi bo'lgan ikkita qudratli kuch bor. Ularga endogen va ekzogen kuchlar yoki jarayonlar deb nom berilgan. Birinchisining harakatga keltiruvchi manbai Yerning ichki energiyasi bo'lsa, ikkinchisini tashqi, asosan - Quyosh energiyasidir.

Endogen kuchlar bunyod etuvchi xususiyatga ega bo'lsa, ekzogen kuchlar barbod etuvchi vazifasini bajaradi. Masalan, endogen kuchlar yer yuzasimng barcha notejisliklarini bunyod etsa, ekzogen kuchlar ularni tekislashga harakat qiladi (8.1-rasm).

#### **8.1. Ekzogen jarayonlar haqida tushuncha**

Ekzogen (yunoncha - exo - tashqi, gen - kelib chiqish, paydo bo'lish) jarayonlar Yer yuzasida sodir bo'ladigan tabiiy hodisalar bo'lib, ularni harakatga keltiruvchi manba quyosh energiyasidir. Shuningdek ekzogen jarayonlar litosferaning atmosfera, gidrosfera va biosferalar bilan o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladigan tabiiy

hodisalardir. Ekzogen jarayonlar asosan yer po'stining yuza qismini o'zgartiradi.<sup>55,56</sup>



**8.1- rasm. Yerning ichki energiyasi natijasida ko'tarilishi va Quyosh energiyasi ta'sirida nurashi.** (*Understanding Earth.*, J. Grotzinger, va b.)

Barcha ekzogen jarayonlar tog' jinslarini yemiradi (nurash, eroziya, denudatsiya, abraziya, ekzaratsiya), yemirilgan jinslarni tashiydi (ko'chiradi) va to'playdi (akkumulatsiya). Ana shu tabiiy hodisalar tufayli yer yuzasining relyefini tekislaydi. Lekin ekzogen jarayonlarning faolligini ko'p holatlarda endogen jarayonlar belgilab beradi va har ikkalasi qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonuni asosida namoyon bo'ladi. Masalan, tog'lar (vulkanik, tektonik) qanchalar tez va baland ko'tarilsa, ularning yemirilishi shunchalar tezlashadi. Bunda yer po'stida modda va energiya almashinushi kuzatiladi: tog'lar yemirilib, pasaya boradi, tekisliklar esa, cho'kindi jmslar bilan to'lib, ko'tarila boshlaydi. Yer po'stidagi mavjud muvozanat buzilib, tektonik harakatlar yangidan faollashish bosqichiga o'tib, vulkanlar harakatlanishi, dahshatli zilzilalar sodir bo'lishi mumkin. Demak, bu ikkala kuchlar o'zaro dinamik birlikda rivojlanadi. Shuning uchun ham geologik - geomorfologik tadqiqot ishlaringin uslubiy asosi endogen va ekzogen kuchlarining o'zaro nisbatini tahlil qilish hisoblanadi.

<sup>55</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J. Tarbuck 2012 p 124

<sup>56</sup> - Understanding Earth, J. Grotzinger, T H Jordan, F Press, R Silver 2007 p 372

Quyosh energiyasi va boshqa tashqi kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan Yer po'stimng yuza qismidagi barcha tabiiy hodisalarni **ekzogen jarayonlar** deb ataladi. Ekzogen jarayonlarni ikkita yirik guruhga: quruqlikdagi va suvh muhitdag'i jarayonlarga ajratish mumkin. Quruqlikdagi ekzogen jarayonlarga nurash, shamol, vaqtincha va doimiy oqar suvlar va muzliklar, suvli muhitdagilarga dengiz va okean suvlari, ko'l va botqoqliklar, yer osti suvlarining faoliyati tegishlidir.

Suv oqimi bilan bog'liq bo'lган jarayonlar tog' jinslarining yemirilishi, yemirilgan materiallarning tashilishi, daryo, delta yotqiziqlari, umuman eroziya, ko'chirish va toplash jarayonlari majmuasidan tashkil topadi.

Ekzogen jarayonlarning vaqt davomida rivojlanishiga asosan uchta (tektonika, iqlim, antropogen) omillar ta'sir etadi va to'rtta bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda ekzogen jarayonlar kuchayadi va unga mos holda landshaftlarning o'zgarishi jadallahadi. Ikkinci bosqichda ekzogen kuchlarning zaiflasha borishi va landshaftlarning o'zgarishi o'rtaida muvozanat yuzaga keladi. Bu mutanosiblik ma'lum vaqt davom etadi. Uchinchi bosqichda ekzogen jarayonlarning tobora zaiflashuvni uzoq muddatlarda davom etishi hisobiga landshaft tiplari yangi sharoitga moslasha boradi. To'rtinchi bosqichda dinamik muvozanat holatida rivojlanish muhiti shakllanadi. Bu holat biror kuch ta'sir etmasa, uzoq geologik vaqt davomida ekzogen jarayonlar bilan landshaft tiplarining mutonasibligi o'zgarmaydi.

Quyida ekzogen jarayonlarga tegishli bo'lган nurash, shamol, suv, muzlik, dengiz va okean, ko'l va botqoqlik, yerosti suvlarining ta'siri, tuproq hosil qiluvchi jarayonlar haqida ma'lumotlar keltiramiz.

## 8.2. Nurash jarayonlari

Cho'kindi hosil bo'lish muhiti ko'p omilli bo'lib, unda hududning iqlimi, relyefi va geotektonik rejimi muhim ahamiyatga ega. Ulardan har hirimng o'zgarishi cho'kindi hosil bo'lish jarayoni xususiyatlariga keskm ta'sir etadi. Demak, turli iqlim, relyef va geotektonik rejimda nurash jarayoni turlicha kechadi.

Yer yuzasida ochilib yotgan birlamchi tog' jinslarining havo, suv va muzlik, haroratning o'zgarishi va boshqa tabiiy-kimyoviy hodisalar hamda organizmlar ta'sirida parchalanishiga ***nurash*** deyiladi. U nurash omillariga qarab fizik, kimyoviy va biologik nurashga bo'linadi.

### 8.3. Fizik nurash

**Fizik nurash** haroratning keskin o'zgarishi, suv va havo oqimlari, muzlarning harakati natijasida tog' jinslarining mexanik parchalanishi orqali amalgalashadi.<sup>57,58</sup>

Tog' jinslarini tashkil etuvchi minerallarning issiqlikdan kengayish xususiyatlari turlicha bo'lganligi tufayli ular haroratning keskin sutkalik o'zgarishida turli miqdorda kengayadi va torayadi. Bu tog' jinslarida dastlab juda mayda darzliliklar rivojlanishiga olib keladi. Darzliliklarga suv singib, muzlaydi. Natijada darzliliklar yanada kengayadi. Yirik kristall donali jinslarda minerallarning dezintegratsiyasi – donalarning bir-biridan ajralib ketishi sodir bo'ladi.

Tog' jinslarining genetik turi, moddiy tarkibi, struktura-teksaturaviy xususiyatlari boq'liq holda nurash turlicha kechadi. Massalan, intruziv tanalar ustida fizik nurash tufayli yirik xarsanglar to'plami hosil bo'lishi mumkin (8.2-rasm).



8.2-rasm. Granitli jinslarning mexanik nurashi.

Suv va havo oqimlari, urinma to'lqinlar ham katta yemirish kuchiga ega bo'ladi. Suv oqimlarining yemiruvchi kuchi relyef nishabligiga bevosita bog'liq bo'lsa, urinma to'lqinlarniki esa shamol energiyasi bilan belgilanadi. Quruqlikda shamol qoyali jinslarni yemirib, deflatsiya va

<sup>57</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J Tarbuck 2012.p 125,126

<sup>58</sup> Understanding Earth, J Grotzinger, T H Jordan, F Press, R Silver 2007.p 378

korroziyaga uchratadi. Fizik nurash natijasida tog' jinslari va minerallarning turli o'lchamdag'i mexanik bo'laklari hosil bo'ladi.

O'z navbatida fizik nurash ikkiga: haroratli va mexanik nurashga bo'lmadi.

**Haroratli nurash.** Tog' jinslarining bir xilda isitilmasligi sababidan



*8.3-rasm. Tog' jinslarining muzlashishi ta'sirida yemirilishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Natijada tog' jinsida darzlar paydo bo'lib, asta-sekin parchalana boradi, undan tashqari tog' jinslarining parchalanishiga muzlar ham katta ta'sir ko'rsatadi (8.3-rasm).<sup>59</sup>

Haroratli nurash keskm kontinental arid iqlimli o'lkalarda va arktikada kuchli kechadi.

Mexanik nurash suv va havo oqimlarining kuchi, gravitatsion jarayonlar, tog' jinslarining muzlashi va o'simliklar tomiri ta'sirida yemirilishidan namoyon bo'ladi (8.3, 8.4-rasmlar).

Shamollar ta'sirida yemirilgan tog' jinslarida turli-tuman g'aroyib shakllar vujudga keladi.

Suv oqimlari ta'sirida mexanik nurash tufayli jarliklar tizimi, oqim o'zanlari, vodiylar rivojlanadi (8.5-rasm).



*8.4-rasm. Tog' jinslarining o'simliklar tomiri ta'sirida yemirilishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Qoyali relyefda bu vosita gravitatsiya kuchiari ta'sirida tog' jinslarini mexanik parchalab, turli shakllar va burdalangan material hisobiga kollyuviy hosil qiladi (8.6-rasm).

Suv muzlaganda o'z hajmini 11% ga oshiradi. Natijada tog'larning qor chizig'idan yuqorisida, arktika, subarktika, dengiz qirg'oqlarida sovuqdan nurash yuz beradi. Tog'larda **qurumlar**, baland tog'larning tekis yuzalarida **toshloq sahrolar** shu yo'l bilan hosil bo'lgan.

Elyuviy, delyuviy, kolyuviy nurash mahsulotlaridir.



8.5-rasm. Suv eroziyasi tufayli shakllangan dara.  
[www.artphotoclub.com](http://www.artphotoclub.com).

#### 8.4. Kimyoviy nurash

**Kimyoviy nurash.** Suv, karbonat angidrid, kislород, organik va anorganik kislotalar ta'sirida beqaror minerallarning o'zgarishiga



8.6- rasm. Gravitatsion nurash.

[www.artphotoclub.com](http://www.artphotoclub.com)

kimyoviy nurash deyiladi. Kimyoviy nurash kislotali-ishqorli va oksidlovchitiklovchi muhitlarda amalgamashadi.<sup>59,60</sup>

**Kislotali-ishqorli muhit** suvdagi vodorod ionlarining konsentratsiyasi bilan belgilanadi. U muhitning **vodorod ko'rsatkichi** (pH) deyiladi.

Kimyoviy toza suv ham oz miqdorda bo'lsada H<sup>+</sup> va OH<sup>-</sup> ionlariga parchalangan bo'ladi. 22°C haroratlida 1 litr suvda ushbu ionlarning konsentratsiyasi  $1 \times 10^{-7}$  gramm-ionga teng bo'ladi. Bunday kichik miqdorni ifodalash qulay bo'lishi uchun uning o'nlik logarifmimi teskari ishora bilan yozish qabul qilingan. Neytral

<sup>59</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Edward J. Tarbuck 2012 p 125,1265

<sup>60</sup> Understanding Earth ,J Grotzinger, T H Jordan, F Press, R. Silver 2007 p 373

muhitda pH 7,0 ga teng bo'ladi. Bu kattalik suvli muhitning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuni yodda tutish lozimki, pH o'nlik logarifmda olinganligi uchun uning 1 birlikka o'zgarishi vodorod ionlari konsentratsiyasining o'n martaga o'zgarganhagini bildiradi.

Neytral muhitda vodorod va gidroksil ionlarining konsentratsiyasi o'zaro teng, ya'ni  $\text{pH} = \text{OH}^{-} = 7,0$  bo'ladi. pH ning qiymati 7 dan kichik bo'lsa, muhitning nordonligini, 7 dan katta bo'lsa, aksincha, ishqoriyligini bildiradi.

Eritmaning pH ko'rsatkichi undagi barcha kislota, tuzlar va asoslarining dissotsiatsiyasi yoki gidrolizi tufayli hosil bo'lgan vodorod ionlarining umumiyy konsentratsiyasini ifodalaydi.

Tabiiy suvlarning pH ko'rsatkichi unda erigan karbonat angidridning umumiyy miqdoriga bog'liq. Suvda erigan  $\text{CO}_2$  kuchsiz va beqaror karbonat kislotani ( $\text{H}_2\text{CO}_3$ ) hosil qiladi. Karbonat kislotaning dissotsiatsiyasi ( $\text{H}^{+}$  va  $\text{HCO}_3^{-}$ ) muhitning nordonligini oshiradi.

Havoda karbonat angidridning miqdori 0,03% ga teng. Suvda u o'nlab va yuzlab marta ko'p erigan bo'ladi. Karbonat kislota muhitning pH ko'rsatkichini pasaytiradi, ya'ni uning nordonligini oshiradi. Nordon suvlar karbonatli birikmalarni eritadi va silikat asoslarini siqib chiqaradi.

Karbonat angidridning manbai bo'lib tirik organizmlarning hayot-faoliyati, organik qoldiqlar va karbonatli birikmalarning parchalanishi va vulkanizm jarayonlari hisoblanadi. Karbonat kislotaning miqdori botqoq suvlar va torfyaniklarda yuqori bo'ladi.

Kimyoiy nurashda sulfidlarning oksidlanishidan hosil bo'lgan sulfat kislota va organik materiallarning chirishi tufayli vujudga kelgan gumin kislotalari ham katta ahamiyatga molikdir.


**Oksidlovchi-tiklovchi muhit** Muhitning oksidlash yoki tiklash xususiyatlari oksidlovchi-tiklovchi imkoniyati ( $Eh$ ) bilan belgilanadi. Oksidlangan moddalar kam elektronlarga ega va shuning uchun ham ular tiklangan moddalarga nisbatan yuqoriroq elektr potensialiga (imkoniyatiga) ega bo'ladi. Muhitning  $Eh$  ko'rsatkichi millivoltlarda (mv) o'lchanadi. Tabiiy suvlarning  $Eh$  ko'rsatkichi gaz rejimi bilan tartibga solinadi. Yuza suvlarining  $Eh$  ko'rsatkichi -300 mv dan +500 mv gacha o'zgaradi. Vodorodsulfidli il cho'kindilarida u 0 dan past bo'lib, - 300 mv gacha kamayadi.

Birikmaning *Eh* ko'rsatkichi qancha past bo'lsa, unimg boshqa moddalarni tiklashda faolligi shuncha yuqori bo'ladi va o'zi oksidlanish xususiyatiga ega bo'lgan kuchli tiklovchidir. Aksincha, *Eh* ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, u shuncha kuchli oksidlovchidir. Shu o'rinda tiklangan moddalar oksidlovchilar bo'lib sanaladi. Binobarin, ular oksidlash jarayonida boshqa moddalardan kislorodni biriktirib olish xususiyatiga egadir.

Neftli suvlarda tiklovchi bo'lib vodorodsulfid, ikki valentli temir ionlari va uglevodorodlar (neft, gaz) hisoblanadi. Neftli suvlarda *Eh* ko'rsatkichi past, manfiy bo'ladi.

Kimyoviy nurash kimyoviy jarayonlarning 5 turini: 1) erish, 2) gidroliz, 3) ion almashuv, 4) oksidlanish va 5) organik reaksiyalarni o'z ichiga oladi.

*Erish* mimerallarning ion yoki kolloid eritmaga o'tishidan iborat. Ko'plab minerallarning eruvchanligi juda past. Jins hosil qiluvchi minerallarning katta qismi kam miqdorda eriydi. Keng tarqagan minerallar galit ( $\text{NaCl}$ ) eng yuqori eruvchanlik darajasiga ega. Gipsning eruvchanligi galitnikiga qaraganda 40 marta kam. Kalsit toza suvda yomon eriydi. Ammo kalsitning erishi suvda erigan karbonat angidrid, ya'ni karbonat kislota evaziga amalga oshadi:



Karbonat angidrid tabiiy suvlarga atmosferadan va organik moddalarning parchalanishidan o'tadi. Suvda karbonat angidrid qancha ko'p bo'lsa, unda shuncha ko'p kalsit eriydi. Kalsit, aragonit, magnezit va dolomitning suvda erishi o'xshash holda kechsada, magnezit va dolomit kalsit va aragonitga nisbatan sekin eriydi.<sup>61,62</sup>

*Gidrolizda* kimyoviy birikmalar suv bilan reaksiyaga kirishib, kuchsiz kislotalar (masalan,  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ) yoki kuchsiz asoslar (masalan,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ) hosil qiladi. Silikatli minerallarning nurashi gidroliz reaksiyasining shu turiga bog'liq bo'ladi.

Gidroliz reaksiyasi kechishida ajralib chiqqan kremnezyomning bir qismi  $\text{H}_4\text{SiO}_4$  mahsulotlari holida emas, balki kolloidlar shakliida eritmaga o'tadi. Kremnezyomning qolgan qismi nurash qobig'ida mayda amorf zarrachalar kabi cho'kmaga o'tadi. Yuqorida keltirilgan karbonat angidrid qatnashuvi reaksiyasidan ko'rinishi turibdiki,

<sup>61</sup> Essentials of Geology. Frederick K. Edward J. Tarbuck. 2012 p 125,125

<sup>62</sup> Understanding Earth. J. Grotzinger, T.H. Jordan, F. Press, R. Silver. 2007 p 373

ularning odatdag'i mahsuloti bikarbonat-ion ( $\text{HCO}_3^-$ ) bo'ldi. Shuning uchun ham chuchuk suvlarda bikarbonat-ion ko'p bo'ldi.

***Ion almashuv*** reaksiyalari gil minerallarida qatlamlararo va sirtqi ionlarining (kationlar va anionlar) eritma ionlari bilan faol almashinishida sodir bo'ldi. Ammo ion almashuv silikatlar nurashining dastlabki bosqichida ham kechishi mumkin. Bunga yuqorida keltirilgan reaksiya tenglamasida kremlniy kislota hosil qiluvchi silikatlar strukturasidagi metall kationlarining vodorod ionlari bilan o'rinni almashinishini misol qilib ko'rsatsa bo'ldi. Xuddi shunday biotitdan gil minerallarining hosil bo'lishida ham kechadi. Ion almashuv reaksiyasida gil inminerallaridan tashqari organik moddalar va kolloidlar ham qatnashishi mumkin.

***Oksidlanish*** – bu kimyoiy reaksiya jarayonida elektron berishdir. Faqatgina birdan ortiq oksidlanish darajasiga ega bo'lgan besh element yuza sharoitida kechadigan oksidlanish-tiklanish reaksiyalarida faoldir. Ulardan birinchisi – kislorod ko'plab oksidlanish jarayonlarida qatnashadi. Boshqa element – temir nurash mahsulotlariga rang beruvchi birikmalar hosil qiladi.

Sulfidlarga boy bo'lgan cho'kindi jinslarda temir va oltin-gugurtning oksidlanishi va gidratatsiyasi kuzatiladi. Temir, shuningdek boshqa metallarning suvli va suvsiz sulfatlarga o'tishi amalga oshadi. Ikki valentli metallarning sulfatlari kislorod, suv va sulfat kislotali muhitda oksidlanadi va uch valentli metall sulfatlariga aylanadi. Bunda bir qator inminerallar hosil bo'ldi.

Sulfatli birikmalar hosil bo'lish jarayonida sulfat kislota ham paydo bo'ldi. Uning bir qismi ikki valentli metall sulfatlarining uch valentli sulfatlarga oksidlanishiga sarf bo'ldi. Ko'p hollarda sulfatlar oson eriydigan birikmalar bo'lib, grunt suvlari bilan eritmalar shaklida olib ketiladi. Faqt sahro va yarimsahrodagi quruq iqlim sharoitidagina metall sulfatlari nurash qobig'ida saqlanib qoladi va to'planadi.

Uch valentli temir sulfatlari yuqori eruvchanlikka ega bo'lishidan tashqari turg'un bo'lmagan (beqaror) birikmalardir. Ular asosan gidrolizlanadi va eritmalaridan temir gidrooksidlari va oksidlari tarzida cho'kmaga o'tadi (8.12- rasm).


Sulfidlarning oksidlanishidan hosil bo'lgan sulfat kislota boshqa birikmalar, xususan karbonatlar hamda kaliy, kalsiy, natriy, magniy,

aluminiy va temirli eritmalar bilan reaksiyaga kirishib, kamroq eruvchanlikka ega bo'lgan sulfatlar: gips, achchiqtoshlar, yarozit, alunit, aluminit va boshqalar hosil bo'ldi.

Shunday qilib, sulfidli tog' jinslarining nurash jarayonida quyidagi minerallar: temir gidrooksidlari, melanterit, gips, achchiqtoshlar, yarozit, alunit va boshqa og'ir metallarning sulfatlari vujudga keladi.

Sulfatlarning hosil bo'lishi nordon muhitda ( $\text{pH} < 7$ ) kechadi. Bunda karbonatlar va fosfatlar to'la erish darajasigacha parchalanadi va sulfatlar, ba'zan kremnezyom bilan o'rinn almashtimishi kuzatiladi.

Oksidlanish reaksiyasida qatnashuvchi beshinch element – uglerod organik moddalar hisobiga vujudga keladi va karbonat angidridni hosil qiladi:



Ushbu reaksiya natijasida hosil bo'lgan  $\text{CO}_2$  keyinchalik erish va gidroliz jarayonlarida qatnashadi.

Organik uglerodning oksidlanishi mikroorganizmlar (bakteriyalar) ta'sirida kechadi va reaksiya natijasida ajralib chiqqan energiyadan foydalanadi. Mikroorganizmlar temir, marganets va otingugurning oksidlanishida qatnashadi. Ular nurash bilan bog'liq bo'lgan boshqa reaksiyalarning ko'pchiligidagi ham bevosita yoki bilvosita ishtirop etadi. Lishayniklar, suvo'tlari va moxlar nurashning faol omillari hisoblanadi. Ular sillkatli minerallardan kationlarni o'zlashtirib olishi mumkin hamda erigan va amorf kremnezyomni siqib chiqaradi. Minerallarning parchalanishi qisman o'simlik ildizlarida hosil bo'ladigan organik kislotalar ta'sirida kechadi. Organik kislotalar chiriyotgan organik materiallarda bakteriyalar faoliyati tufayli hosil bo'ldi.

Nurash muhitining nordon sharoiti dala shpatlari, slyudalar va gidroslyudaning kaolinitlashishiga va ba'zi hollarda erkin kremnezyom gidratlarining hosil bo'lishiga olib keladi.

Xususiy holda gidratatsiya jarayoni angidridning gipsga aylanishida kuzatiladi. Temir minerallarining (gematit, gyotit, lepidokrokit va b.) gidratatsiyasida temir gidrooksidlari va oksidlari vujudga keladi.

Gipergenez zonasida moddalarning erishi va eritma tarzida yuza va yerosti suvlari bilan olib chiqib ketilishi ham muhim ahamiyatga ega. Galogenlar, sulfatlar, nitratlar oson eruvchi, karbonatlar va

fosfatlar kam eruvchi birikmalar sanaladi. Bunga organik va anorganik kislotali suvlardan ayniqsa faol ta'sir ko'rsatadi.

Kimyoviy nurash bo'shoq vulkan tuflarida jadal kechadi. Bunda ularning orasiga aggressiv suv kirib borishi uchun yuqori darajadagi g'ovakligi va kirituvchanligi muhim ahamiyatga ega (8.7-rasm).



8.7-rasm. Tufogen jimslarning kimyoviy nurashi

qaror minerallar va 4) organik moddalarning parchala-nishidan vujudga keladigan organik birikmalar.

Birlamchi qoldiq minerallar bo'lib kvars, sirkon, magnetit, ilmenit, rutil, granatlar, turmalin va monatsit hisoblanadi.

Nurash jarayonida kaolinit, montmorillonit, illit, xlorit, gematit, gyotit, gibbsit, byomit, diaspor, amorf kremnezyom, pirolyuzit hosil bo'lishi mumkin.

Organik birikmalar organik kislotalardan, gumus moddalari va kerogendan iborat bo'ladi.<sup>63</sup>

Kimyoviy nurash ta'sirida nurash qobig'i rivojlanadi. Uning qalinligi bir necha sm dan 100 m gacha boradi. Tropik va subtropiklarda nurash qobig'i ancha qalin bo'ladi (Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya, Osiyo).

## 8.5. Biologik nurash

**Biologik nurash** tabiatda ko'pincha kimyoviy nurash bilan birga sodir bo'ladi. Noorganik moddalarning organik moddalarga

<sup>63</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J Tarbuck 2012 p 128-131

aylanishida va unga teskari jarayonlarda atoni migratsiyasi bosh sababchi hisoblanadi.<sup>64</sup> Quruklikni bundan 100 mln. yil avval dastlab o'simliklar, so'ngra hayvonlar zabit etgan. Organizmlar atmosferaning 6 km tepaligida, gidrosferaning eng chuqur (11022 m) qismida ham uchraydi. Birinchi navbatda organizmlarning faoliyati nurash jarayonini kuchaytiradi. Tog' jinslarining parchalanishida bakteriyalar, chuvalchanglar, kemiruvchilar, o'simliklar muhim ahamiyatga ega bo'lib, elyuviy, delyuviy va tuproq qatlamining hosil bo'lishida faol qatnashadi. Qoyatoshli yonbag'irlarda o'sadigan daraxt o'simliklar siniq jinslaming vujudga kelishida yetakchi o'rinni egallaydi. O'simlik va hayvonot olami qoldiqlari ham chirib, kimyoviy nurashni tezlashtiradi.

Demak nurash, tog' jinslarining mustahkamligini zaiflashtiradi, parchalaydi, tuproq qatlamini, nurash po'stlog'ini, zirhli sirtlarni, g'aroyib relyef shakllarini, sochilma foydali qazilmalarini hosil qilishda ishtirok etadi.

## 8.6. Elyuviy va nurash po'sti

O'zaro murakkab bog'liqlikda bo'lgan fizik, kimyoviy va organik nurash jarayonlarida ikki xil: qoldiq va harakatchan mahsulotlar yuzaga keladi.

Nurashning harakatchan mahsulotlari eritma tarkibida nurash profilini tark etadi.

Nurashning qoldiq mahsulotlari - elyuviy kontinental yotqiziqlarning bir genetik turini tashkil etadi.

Elyuviyning tuzilishi va qalinligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ularning orasida tub jinslar tarkibi, iqlim, o'simliklar miqdori, joyning relyefi va nurash jarayonining davomiyligi asosiy hisoblanadi.

Elyuviy hosil bo'lish uchun eng qulay sharoitlar bo'lib tekislangan relyefda yuqori harorat, namlik va o'simliklarning zichiigi sanaladi.

Past harorat sharoitlarida nurash jarayonlari sekinlashadi, minerallarning kimyoviy parchalanishi deyarli sodir bo'lmaydi, tog' jinslarining mexanik parchalanishi ustuvorlik qiladi.

<sup>64</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J. Tarbuck 2012.p 128

Elyuviyning tuzilishi, qalinligi va uni tashkil etuvchi hosilalar tarkibi juda turli-tuman bo'ladi. Turli iqlim sharoitlarda elyuviy tuzilishidagi muayyan ketma-ketlik nurash jarayonlarining bosqichli xarakteridan dalolat beradi.

Nurash bosqichliligi nurash zonasida tog' jinslarining ketma-ket qayta o'zgarishida ifodalangan. Nurash qobig'ining yakuniy mahsuloti bo'lib Yer yuzasining muayyan iqlim zonalarida barqaror bo'lgan minerallar hisoblanadi, ya'ni nurash bosqichlari boshqa teng sharoitlarda iqlim bilan bog'liq.

Nurash bosqichlari magmatik jinslarda ayniqsa yaqqol ifodalangan bo'ladi. B. B. Polinov bunda quyidagi bosqichlarni ajratadi:

- bo'lakli;
- siallitli ohaksizlangan;
- nordon siallitli;
- allitli.

**Bo'lakli bosqich** fizik nurash ustuvorligi bilan xarakterlanadi va natijada turli o'lchamdagи bo'laklar to'planadi. Bunda inineral tarkib o'zgarmaydi yoki juda sust o'zgaradi. Elyuviyning bunday turi qutbiy viloyatlarda, sahro va yosh tog'li rayonlarda rivojlangan.

**Siallitli ohaksizlangan bosqich** kimyoviy nurashning boshlang'ich bosqichi bo'lib, unda silikatlar va alyumosilikatlarning parchalanishi boshlanadi, nurash kesmasidan kationlar qisman chiqarib ketiladi. Bu sharoitlarda montmorillonit guruhidagi oraliq gil minerallari, qisman gidroslyuda hosil bo'ladi va karbonatlar bilan boyiydi. Bunday elyuviy quruq kontinental iqlimda hosil bo'ladi.

**Nordon siallitli bosqich** barcha kationlarning va qisman kremnezyomning nurash kesmasidan chiqarib ketilishi bilan xarakterlanadi. Kaolinit gruhidagi minerallar hosil bo'ladi, karbonatlar olib chiqib ketiladi. Bunday jarayonlar nam mo'tadil sharoitlarda tez kechadi.


**Allitli bosqichda** gil mimerallarining parchalanishi chururlashadi, yuza sharoitlarda barqaror bo'lgan aluminiy, temir va kremniyning oksidlari va gidrooksidlari, asosan boksitlarning tarkibiy qismi bo'lgan gibbsit va benit, getit, gidrogetit va opal vujudga keladi.



### **8.8-rasm. Laterit**

midan pastki qismiga qarab kimyoviy o'zgarish darajasi pasayib boradi. Vertikal tabaqlanish tropik va subtropiklardagi elyuviyda yorqin ifodalangan.

Kimyoviy nurashga uchragan elyuviy *nurash qobig'i* deyiladi. Uning qaliligi pastki zonalar hisobiga, pastki zonalari esa tub jinslar hisobiga oshib boradi.



## **8.9-rasm. Karbonatli jinslarning karstlanishi. (Understanding Earth, J. Grotzinger, va b.)**

qobig'i *laterit* (lotincha later - g'isht) deviladi (8.8-rasm).


Silikatlar va alumosilikatlar tropik va subtropik sharoitlarida to'liq (allit bosqichi) parchalanadi, mo'tadil iqlim sharoitlarda esa faqat kaolinit hosil bo'lish bosqichigacha boradi, xolos.

Elyuviyning kesmasida tog' jinslari turli darajada o'z-gargan vertikal tabaqlanish kuzatiladi. Uning ustki qis-

Nurash qobig‘ining qalilligi 30 - 40 m ni tashkil etadi, ba’zan 100 - 200 m ga yetishi mumkin. Eng qalin nurash qobig‘i tropik va subtropikalarda issiq va nam iqlim sharoitlarida rivojlanadi. Nurash qobig‘ining chuqur o‘zgargan ustki qismida nurashning yakuniy mahsulotlari - Al, Fe va qisman Si oksidlari va gidrooksidlari hosil bo‘ladi. Al va Fe oxralari elyuviyga qizil rang beradi va quruq holda g‘ishtni eslatuvchi qattiq bo‘ladi. Bunday nurash

Cho'kindi jinslarda nurash qobig'i odatda uncha katta bo'limgan qalinlikka ega. U 5 - 10 m ni tashkil etadi, ammo darzlashtigan zonalarda o'nlab metrga yetishi mumkin.

Cho'kindi jinslar (karbonatlar, galoidlar va sulfatlar), ayniqsa suv karbonat angidritga boyigan bo'lsa, qisman yoki to'liq erib, suv bilan chilqib ketadi. Uning o'mida karst deb ataluvchi bo'shliq hosil bo'ladi. Bu jinslar to'liq eriganda bo'shoq karbonatli material - karbonatli un yoki erimaydigan gilli minerallarning qoldiqlari shakllanadi (8.9-rasm). Nurash qobig'ining morfologiyasi, tarkibi va qalinligi juda xilma-xil bo'ladi. Nurash qobig'ida yangi hosil bo'lgan mineralning ustuvorligi bo'yicha kaolinli, montmorillonitli, gidroslyudali, lateritli va boshqa turlari ajratiladi.



*8.10-rasm. Cho'zinchoq nurash qobiqlari  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

o'nlab metrlarga boradi (8.10-rasm).

*Cho'zinchoq nurash qobiqlari* darzlashgan zonalar, turli tarkibdagi jinslar kontakti, tomirlar va daykalar bo'ylab cho'zinchoq tanalarni hosil qiladi. Bunda nurash qobiqlari parchalangan relyefli burmali tog'larda vujudga keladi, ularning qalinligi yuzlab metrga borishi mumkin. Ba'zan maydonli nurash qobiqlari o'zining pastki

Maydonli va cho'zinchoq nurash qobiqlari ajratiladi.

*Maydonli nurash qobiqlari* yirik maydonlarda qoplaqna shaklida rivojlangan boladi. Ular tektonik tinch viloyatlarda yassi tog'liqlar va keng suva-yirg'ichlardagi tekislangan maydonlarda rivojlanadi. Bu turdag'i nurash qobiq'ining qalinligi

qismida cho'zinchoq nurash qobiqlariga o'tib, qalnligi keskm oshadi.

Yerning geologik tarixida arxey va proterozoydan boshlab bozirgacha nurash qobig'i shakllanishl uchun qulay bo'lgan sharoitlar bir necha bor vujudga kelgan. Katta qalnlikdagi nurash qobiqlarining hosil bo'lishi turli maydonlarda kontinental sharoitlarning uzoq vaqt davom etganligi bilan bog'liq. Sust tektonik faoliytda keng tekislangan yuzalar vujudga kelgan.

Hosil bo'lishi vaqtida bo'yicha qadimiy va zamonaviy nurash qobiqlari ajratiladi.


*Qadimiy nurash qobiqlari* ko'pincha o'zidan yoshroq cho'kindi jinslar bilan qoplangan. Ko'pchilik nurash qobiqlari esa qisman yuvilib ketgan. Yura va paleogen davrida shakllangan nurash qobiqlari juda keng tarqalgan.

*Zamonaviy nurash qobiqlarining* shakllanishi hozirgi kunlarda ham davom etmoqda. Ushbu kimyoviy nurash jarayonlari hali nihoyasiga yetmagan, qalin emas va ustki qismida tuproq qatlami mavjud.

Nurash qobiqlari bilan ko'plab foydali qazilmalar bog'liq. Ularning orasida aluminiy, temir va marganes oksidlari va gidrooksidlari, kobalt va vanadiyga ega bo'lgan minerallar hamda kaolin, olovbardosh gillar, oxra, opal va boshqalar uchraydi.

Nurash qobiqlari bilan oltin, platina, cassiterit, titanli temirtosh, sirkon, monatsit, qimmatbaho toshlarning sochilma konlari bog'liq.

*Tuproq* yerning ustki unumdar qatlami bo'lib, unda dehqonchilik qilinadi (8.11-rasm).



8.11-rasm. Nurash va tuproq qatlamining hosil bo'lishi  
(*Understanding Earth*,  
J. Grotzinger, va b.)

Tuproq bir vaqtida kechadigan nurash va tuproq hosil bo'lish jumyonlari tufayli vujudga keladi. Bunda tub tog' jinslariga suv, havo, quyosh energiyasi, o'simliklar va hayvonlar birqalikda ta'sir ko'rsatadi.<sup>65,6666</sup>

Tuproq asosan bo'shoq jinslardan iborat bo'lib, magmatik, cho'kindi va metamorfik jinslarning o'z joyida qolgan yoki muayyan masofalarga ko'chirilgan materiallarining nurash mahsulotlari hisoblanadi. Tuproq uning hosildorligini belgilovchi bo'shoq mineral birikmalardan va organik modda - gumus (lotincha humus - tuproq) yoki chirindidan tarkib topgan bo'ladi.

Tuproq hosil bo'lishda biologik omil, asosan o'simliklar ustuvorlik qiladi.

Tuproq hosil bo'lishdagi hayvonlarning roli tuproqda yashovchi mayda organizmalarning hayot-faoliyati bilan bog'liq. Ular organik moddalar bilan oziqlanib, ularni parchalaydi, tuproqni aralashtiradi va uning strukturasini yaxshilaydi.<sup>67</sup>

### O'tkazilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar

1. Gipergenez nima?
2. Asosiy nurash omillarining mohiyatini ko'rsatib bering.
3. Kimyoviy nurashda yetakchi muhitlar nimalardan iborat?
4. Vodorod dissotsiatsiyasi nima?
5. Kimyoviy nurash jarayonlarida qanday turlar ajratiladi?
6. Gidroliz bilan gidratatsiya orasida qanday farq bor?
7. Ion almashuv jarayoni qanday kechadi?
8. Oksidlanish jarayonini tushuntirib bering.
9. Silikatlarning o'zgarishidagi ketma-ketlikni ko'rsatib bering.
10. Karbonatlarning erishi nimaga bog'liq?
11. Nurash jarayonida minerallarning beqarorligi nima bilan bog'liq?
12. Birlamchi jinslar tarkibi va nurash mahsulotlari orasida qanday bog'liqlik bor?
13. Biologik nurash qanday kechadi?

<sup>65</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J.Tarbuck 2012 p 125,133.

<sup>66</sup> Understanding Earth,J.Grotzinger, T.H Jordan, F.Press, R.Silver 2007 p 381.

<sup>67</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J.Tarbuck 2012 p 137,138.

## PINAKLI SAHROSI

# 9-bob. SHAMOL VA UNING GEOLOGIK FAOLIYATI, KORRAZIYA, ABROZIYA, DEFLATSIYA HODISALARI. EOL YOTQIZIQLARINING TURLARI.

### REJA

1. Shamol haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Shamolning geologik ishi.
3. Eol yotqiziqlarining turlari.

**Kalit so'zlar;** Eol, deflatsiya, defatsion sahrolar, korroziya, eol relyefi, eol yotqiziqlari, eol sahrolari, adirli sahrolar, sho'rxoklar, taqirlar, barxanlar, dyunalar, eol ryablari, ixota, lyoss va lyossimon jinslar.

### 9.1. Shamol haqida umumiy ma'lumotlar

Atmosferadagi havo massalarining yer yuzasiga nisbatan harakati shamol deb ataladi. Shamollar havoning notejis qizishidan hosil bo'ladi.<sup>68,69</sup> Shamollar o'z yo'naliishini fasl va sutka davomida o'zgartirib turadi. Yirik fasliy havo oqimlariga musson va passat shamollarini ko'rsatish mumkin. Fasllar almashinishida o'z yo'naliishini o'zgartirib turuvchi shamollar materik ichkarisida ham mavjud bo'ladi. Bunday shamollarga Farg'ona vodiysidan Mirzacho'lga va qarama-qarshi yo'naliishda esadigan Bekobod shamolini misol keltirsa bo'ladi.

Shamollar juda ko'p miqdorda cho'kindi materiallarni ko'chiradi. Ularning bunday xususiyati, birinchi navbatda, tezligiga bog'liq. Shamolning tezligi sekundiga 0,5 dan 30 m gacha borishi va kuchli dovullarda undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Shamollar esa mayda zarralarni muallaq, qum va graviy donalarini qisman muallaq va asosan dumalatib bir joydan ikkinchi joyga ko'chiradi (9.1-rasm). Shamollarning terrigen materiallarni ko'chirishi quruq va

<sup>68</sup> Essentials of Geology-Frederick K. Edward J Tarbuck 2012 p 295.

<sup>69</sup> Understanding Earth J.Grotzinger, T.H.Jordan, F.Press, R.Silver 2007 p

issiq iqlimli o'lkalarda amalga oshadi. Chunki bunday mintaqalarda tuproq eroziyidan saqlovchi o'simlik qoplaması yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Faol shamol harakatlari O'rta Osiyoning Qizilqum va Qoraqum cho'llarida, Tarim o'lkasida va Sahroi Kabirda kuzatiladi.

Shamol yordamida qum donalarining ko'chirilishi alevrit va gil zarralarining ko'chirilishidan farq qiladi. Qum donalari yer yuzasiga yaqin tor havo qatlamida harakatlanadi, alevrit va gil zarralari esa havoning baland qatlamlarida ham muallaq holda uzoq masofalarga ko'chirib ketiladi (9.1-rasm).




*9.1-rasm. Shamol ta'sirida qum, graviy, alevrit va gil zarralarining muallaq holda ko'chirilishi.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

Shamolning esishi quruq va yumshoq qum qatlami ustida kritik tezlikka yetganda uning yuzasidagi donalar tezlanish bilan dumalay boshlaydi va bir necha santimetр yo'l bosgandan so'ng sakrab, havoda diametridan ko'p marta ortiq bo'lgan masofaga uchadi. Uchgan bunday donalar yer yuzasiga parabolik trayektoriya bilan qaytib tushadi va yana sakraydi. Qum donalarining bunday sakrab harakat qilishi *saltatsiya* deyiladi. Alevrit va gil zarralarining ko'chirilishidan farqli o'laroq, qum donalarining saltatsiyasi aniqyuqori chegaraga ega bo'ladi. U odatda 1 m ga yaqin balandlikni tashkil etadi. Saltatsiya halandligi yotqiziqlar yuzasining holatiga bog'liq. Yuza qancha qattiq bo'lsa, qum donalari shuncha yuqori sakraydi va, aksincha, qancha yumshoq bo'lsa, saltatsiya balandligi shuncha kichik bo'ladi. Quruq qum donalarini ko'chirish uchun lozim bo'lgan minimal shamol tezligi 53,7 sm/sek deb qabul qilingan. Qum donalari yer yuzasiga qaytib tushgandan so'ng ularning impulsi

boshqa donalarga o'tishi yoki o'zlarini dumalashni davom ettirishi mumkin. Yirik donalar shamol yo'nalishi bo'yicha dumalab ko'chishi mumkin. Markaziy Qizilqumda asfaltlangan avtomobil yo'li yuzasida terrigen donalarning saltatsiyasi va dumalab ko'chishini yaqqol kuzatish mumkin.

Saltatsiya va dumalash orqali qum donalari havoda ham, suvda ham ko'chirilsada, u shamol yordamida ko'chirilishga ko'proq xos bo'ladi. Suvdag'i saltatsion sakrash balandligi havodagiga qaraganda taxminan 300 marta kam bo'ladi. Bunday katta farq suvning va havoning zichliklari orasidagi farqdan kelib chiqadi. Havoning zichligi suvnikidan 869 marta kichikdir. Muhitlarning hir xil tashish kuchida havodagi tezlik suvdagiga nisbatan 29,3 marta katta bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, bir xil massali donalarning havodagi harakatida impulsi suvdagiga nisbatan 29,3 marta katta bo'ladi deyish mumkin. Demak, havoda harakatlanayotgan donaning kinetik energiyasi  $(29,3)^2 M/2$  suvdagiga nisbatan 430 marta ortiq bo'ladi. Bunday katta farq shamol yordamida ko'chiriladigan qumlarning



*9.2- rasm. Shamol ta'sirida yer yuzasi relyefining  
o'zgarishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

kuchli abraziya faoliyatini belgilaydi. Havoning zichligi suvnikiga qaraganda juda past bo'lishi qumning yuzaga urilishidagi amortizatsiyasini keskin kamaytiradi.

Eol qumlarning yuqori darajada dumaloqligini havoda saltatsion ko'chirilishdagi katta kinetik energiyasi belgilaydi. Katta kinetik energiyaga ega bo'lgan saltatsion harakat paytidagi urilishda boshqa

qum donalariga beriladigan impuls ularni harakatga keltirishga va shamol yordamida ko'chirishga qodir bo'ladi.

Yer yuzasi relyefini o'zgartiradigan hamda alohida xususiyatga ega bo'lgan yotqiziqlar hosil qiladigan muhim ekzogen omillardan biri shamoldir (9.2-rasm). Shamollar havo bosimining barchia joyda bir xil bo'lmasligidan paydo bo'ladi. Cho'l va sahro zonalarida shamol nihoyat darajada katta geologik - geomorfologik ish bajaradi. Osiyo, Afrika va Avstraliyaning keng tekisliklari dagi cho'l maydonlari shamol harakati va uning geologik ishi uchun eng qulay sharoitdir.

*Pinakli sahrosi* – Avstraliyaning eng mashhur va g'aroyib peyzajlarini tashkil etadi. Pinakli sahrosi Nambung (Nambung) milliy bo'g'ida joylashgan bo'lib, u yerda qumli barxanlar orasida minglab ohaktoshli ustunlar (minorachalar) ko'kka bo'y cho'zishgan (9.3-rasm).



**9.3-rasm. Avstraliya Pinakli sahosida shamol ta'sirida hosil bo'lgan g'aroyib shakllar. [www.inpath.ru](http://www.inpath.ru)**

*Ohaktoshlardan tarkib* topgan minorachalarning bo'yisi 4 metrgacha boradi va turli shakllarni kolonnalar, odamlarning silueti, baliq, barmoq va boshqalarni eslatadi. Minorachalarning shakllanishi shamol va suvning birgalikda bajargan geologik ishi bilan bog'liq.

## **9.2. Shamolning geologik ishi**

Shamolning geologik ishiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1 - deflatsiya (lat. «deflyasio» - puflash, sochish); 2 - korroziya (lat.

«korrazio» - egovlash, silliqlash, tarashlash); 3 - transportirovka (tashish) - 4 - akkumulatsiya (lat. «akkumulyasiya» - to 'plash).

Shamolning yuqorida ko'rsatib o'tgan barcha ishlari bir - biri bilan bog'liq bo'hb, bitta murakkab jarayon hisoblanadi. Shamol bilan bog'liq bo'lgan hamma jarayonlar, relyef shakllari, yotqizqlari *eol* nomi bilan yuritiladi (*eol* qadimgi yunon afsonasida - shamol xudosidir).

Shamol barcha o'nqir - cho'nqirlarga, qoya toshlarning orasiga kirib borib, undagi mayda zarrachalarni uchirib ketadi. Bu hodisa *deflatsiya* deyiladi.

**Deflatsiya natijasida qatlamlı mo'rt, bo'shoq jinslarda g'aroyib shakllar vujudga kelishi mumkin «Eol qozoni» degan chuqurliklar**

hosil qiladi (9.4-rasm).



Shamol erozioni. 297

#### 9.4-rasm. Deflatsiya natijasi. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.).

Deflatsiya natijasida ba'zan hosildor tuproqlarni ham shamol uchirib ketib, boshqa joylarda to'playdi.<sup>70,71</sup> O'rta Osiyodagi O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining janubiy qismiga janubdan

esuvchi «afg'on shamoli» millionlab tonna chang to'zonni uchirib olib keladi, Afg'on shamoli esganda, Quyosh yuzini ko'rib bo'lmaydigan darajada atmosferani chang qoplab oladi. Kunduz kunlari qorong'ilashib, yaqin masofadagilarni tanimay qolasiz. Ayniqsa, Sahroi Kabirda chang - to'zonli bo'ron - *samum* esganda butun tirik mavjudotlar dahshatga tushadi. Ehtimol, ana shu samum tufayli va Quyosh nuridan o'zlarini muhofaza qilish uchun ham odamlarga oq kiyimlarga o'ranib olish odat tusiga aylangandir.

**Korreziya** (lotincha corrosio - tarashlash) ochilib qolgan tog' jinslari va minerallarga mexanik ishlov berish, silliqlash, tarashlash bo'lib, bu uchib kelayotgan qum donalari yordamida yuz beradi. Qum

<sup>70</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 297.

<sup>71</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 458,459.

donalari shamol yordamida uchirilib, turli balandlikka ko'tariladi.<sup>72,73</sup> Pastroqda uchayotgan qum donalari yirikroq va ko'proq bo'lib, asosan qoya toshlarni «bombardimon» qilib, "burg'ulash" ishlarini bajaradi.



**9.5-rasm. Qumtoshda hosil  
bo'lgan teshik.**  
[www.inpath.ru](http://www.inpath.ru)

shakli va o'lchami birinchi navbatda tog' jinslarining tarkibi va yotish sharoitlariga bog'liq. Shamol oqimining pastki qavatida qum ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham birjinsli substratning pastki qismida chetlari silliqlangan eng yirik kavaklar vujudga keladi. Turli mustahkamlilikka ega bo'lgan qatlamlari yotqiziplarda yumshoqroq qatlamlar faol yemiriladi, ularning o'mida jo'yakchalar hosil bo'ladi, qattiq qatlamlarda esa chetlari silliqlangan va dumaloqlangan karnizlar vujudga keladi (9.6-rasm).

Tarkibi doimiy bo'limgan jinslar yuzasida, masalan notejis ohakti qumtoshlarda yumshoqroq joylari tarashlanib, yemirilgan material uchirib ketiladi va eol qozonlari hosil bo'ladi.

Shunday qilib, deflatsiya va korroziya hodisalari birlashib, tabiatda toshlardan har xil g'aroyib shakllar yasashadi, kichik g'orchalar, teshiktoshlar, ustunlar, odamsimon hayvonlarni eslatuvchi, qo'ziqoringa o'xshash shakllar vujudga keladi (9.7-rasm).

Shamol uchirgan millionlab qum donalari tog' jinslarining yuzasiga urilib, uni asta-sekin tarashlaydi, silliqlaydi, burg'ulab turli chuqurchalar hosil qiladi va nuratadi (9.5-rasm). Shamol birinchi navbatda yumshoq jinslarni yemiradi. Shamolning bunday yemiruvchi ishi uchirib ketish va tarqatish bilan birga sodir bo'ladi.

Korroziya nuqtali, tirnovchi va burg'ilovchi bo'lishi mumkin. Korroziya tufayli tog' jinslarida chuqurchalar, pastqamliliklar, jo'yaklar, tirnash izlari vujudga keladi. Ularning

<sup>72</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012 p 297.  
<sup>73</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007 p 458.



9.6-rasm. Neogen yotqiziqlarida hosil bo'lgan karnizlar.



9.7-rasm. Karbonatli qumtoshlarda hosil bo'lgan shakllar.

Akademik V.A.Obruchev Jung'oriyada ertaklardagidek turli relyef shakllaridan iborat «Eol shahri» borligini yozib qoldirgan. Shamollar qumlarni bir tomonga doimo uchirib ketishi oqibatida qattiq tog' jinslarida kichik ariqchalarni vujudga keltirishi ham mumkin.

Shamolning cho'kindi materiallarni tashishi juda katta ahamiyatga ega. Shamol Yer yuzasidan yumshoq mayda bo'lakli materiallarni ko'tarib, butun yer shari bo'yicha katta masofalarga tashiydi va shuning uchun ham uni sayyora jarayon deyish mumkin. U asosan pelitli (gilli), alevritli (changsimon) va psammitli (qum) o'lchamdagи mayda zarralarni ko'chiradi. Ko'chirish uzoqligi jins bo'laklarining kattaligi va shakliga, solishtirma og'irligiga va shamolning kuchlga bog'liq. Tezligi 7 m/s ga yetgan shamol 90% qum zarralarini 5-10 sm balandlikda tashiydi, kuchliroq shamol esa,

(15 - 20 m/s) zarralarni bir necha metr balandlikda uchirib ketadi. Kuchli to'zon esa, qum zarrachalarini bir necha o'n metr balandlikda uchirib, diametri 3 - 5 sm bo'lgan shag'allarni yumalatib olib ketadi. Tog' jinslarining yirik bo'laklari - xarsanglar quyun turganda bir necha metga surilishi mumkin.

Qumlar eol transportirovkasining muhim komponenti hisoblanadi. Muallaq bolda ko'chirilish jarayonida qum donalari o'zaro to'qnashib, dumaloqlanadi, silliqlanadi, ba'zan mikrodarzliklari bo'ylab mayda zarrachalarga parchalanadi. Kvarts eol transportirovkasida mexanik parchalanishga eng bardoshli sanaladi. Shuning uchun ham shamol oqimida u asosiy massani tashkil etadi.

Changsimon va gil zarrachalari (vulkan kuli va b.) ba'zan eol oqimining asosiy qismini tashkil etadi. Bu materiallarning tashilish uzoqligi cheksiz bo'lishi mumkin. Ular butun stratosferani to'yintirishi va troposferagacha ko'tarilishi mumkin. Katta balandlikka ko'tarilgan mayda zarrachalar ayniqsa juda uzoqlarga olib ketilishi mumkin. Masalan, Krakatau vulkanidan (Indoneziya) otilgan qizil kul butun yer sharimi aylanib o'tgan va atmosfera havosida uch yilgacha mavjud bo'lgan.



*9.8-rasm. Shamol natijasida qum zarralarining shahar ustiga bostirib kelishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).*

Afg'onistondagi Dashti-Margo, Dashti-Arbu sahrolaridan ko'tarilgan chang Qoraqumgacha yetib boradi. G'arbiy Xitoydan ko'tarilgan

chang Afg'onistongacha va O'rtal Osiyogacha etib kelib, cho'kmaga o'tadi. A. Allisonning ma'lumotlariga ko'ra Sahroi Kabirdan uchirilgan qum zarrachalari 160 km masofani bosib o'tib to'planishi mumkin ekan. Chang va mayda qum zarrachalari 2500 - 3000 km uzoqlikkacha yetib boradi. Sahroi Kabirning qumi Milan shahari ko'chalariga ham yetib kelganligi haqida ma'lumotlar bor (9.8-rasm).

### 9.3. Eol yotqiziqlarining turlari.

**Eol yotqiziqlari.** Shamol tashiydigan materiallarning tarkibi turli-tuman bo'ladi. Qum-changli to'zonzarda kvars va dala shipati ko'pchilikni tashkil etadi, kam miqdorda gips, tuz, gil va ohak zarralari, tuproq va boshqalar bo'lishi mumkin. Ularning ko'p qismi yer yuzasida ochilib qolgan jinslaming nurash mahsulotlari hisoblanadi. Changlarning bir qismi vulkanik, yana bir qismi fazoviy genezisga ega bo'ladi. Shamol uchirib ketadigan changlarning katta qismi dengiz va okeanlar yuzasiga tushib, ularning yotqiziqlari bilan aralashib ketadi; qolgan qismi esa quruqlik yuzasiga cho'kib, eol yotqiziqlarini tashkil etadi.<sup>74,75</sup>

Shamol tashiydigan bo'lakli material tashilish jarayonida salananadi. Yirikroq bo'lgan qum donalari gil zarralariga qaraganda oldinroq cho'kmaga o'tadi. Shu tufayli qumli, lyossli va gilli yotqiziqlar alohida cho'kmaga o'tib, to'planadi.


Eol yotqiziqlari amalda yer yuzasining barcha joylarida kuzatilishi mumkin. Ammo katta qalinlikdag'i va keng hududlarni egallaganlari eol jarayonlari rivojlanishi uchun qulay bo'lgan arid iqlimli mintaqalarda vujudga keladi. Eol yotqiziqlari orasida qumlar juda keng maydonlarni egallab yotadi.

Shamolning geologik ishi sahrolarda va yarimsahrolarda juda yaqqol ifodalangan bo'ladi. Bunda katta maydonlarni egallagan qumli barxanlar hosil bo'ladi (9.9-rasm). Sahrolar Antraktikadan tashqari barcha kontinentlarning quruq va o'ta quruq iqlimli viloyatlarida tarqalgan. Ular ikkita mintaqani tashkil etib, shimoliy va janubiy yarim sharlarda 10 va  $45^{\circ}$  kengliklar orasida joylashgan.

<sup>74</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012 p 299.

<sup>75</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 460.

Sahrolarda juda kam yomg'ir va qor yog'adi (yiliga 200 mm dan kam). Quruq havo yog'in-sochinlar miqdoridan 10-15 marta ortiq bo'lgan namlikni bug'lantrishi mumkin. Bunday kuchli bug'lanish sababli kapillar bo'shliqlar orqali doimo sizot suvlarining yer yuzasiga qarab vertikal harakati sodir bo'ladi. Bu suvlar tuproqdan temir va marganesning oksidli birikmalarini eritib olib chiqadi va qoyali tog' jinslarining yuzasida qo'n-g'ir yoki tim qora rangli yupqa plynka hosil qiladi.



9.9-rasm. Barxan qumlari.

<http://dic.academic.ru>

Ular «sahro toblanishi» deyiladi.

Shamol ishining xarak-

teri bo'yicha sahrolar deflatsion va akkumulyativ turlarga ajratiladi.

**Deflatsion sahrolar** (Afrikada gammada, O'rta Osiyoda qir deb yuritiladi). Ular g'aroyib shakllarga ega bo'lgan qoyalardan yoki qoyali toshlarning to'plamlaridan iborat bo'ladi.

Bunday sahrolarga AQSHdagi Monumentlar vodiysi (9.10-rasm) va Kalaxari sahosini (*Kalahari Desert*) misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Kalaxari Janubiy Afrikadagi qo'shni Botswana, Namibiya, JAR davlatlari hududlarida joylashgan.



9.10- rasm. Deflatsion sahro (Monumentlar vodiysi).

<http://nature.1001chudo.ru>

Kalaxari – yirik sahrolardan biri bo‘lib, uning 600 ming km<sup>2</sup> li katta qismi Botsvana hududida joylashgan.

Kalaxari sahrosidagi qumlar asosan qizil, qizg‘ish-qo‘ng‘ir, pushti ranglarga ega. Kalaxari chekkalarida o‘simliklar o‘sadi va

hayvonlar yashaydi. Sahro shu nomli botiqlikda joylashgan.



*9.11-rasm. Afrikaning shimoliy qismidagi Sahroi Kabir egallagan maydon.*

tadi.<sup>76,7777</sup> Dunyoda eng yirik sahro Afrikaning shimoliy qismidagi Sahroi Kabir hisoblanadi. Uning maydoni 9 million km<sup>2</sup> dan ortiq. U butun Shimoliy Afrikani: Misr, Tunis, Marokkash, Mavritaniya, Niger, Sudan, Chad, Liviya, Jazoir va boshqa davlatlar maydomni egallagan bo‘lib, Afrika kontinentining 30% maydonini tashkil etadi. Bu yerda shimoliy-sharqdan kuchli shamollar esadi. Sahroi Kabirning to‘rtadan birini vulkan tog‘lari, ikkinchi choragini qumlar, qolganini graviyli tekisliklar, o‘simlikli vohalar tashkil etadi (9.11-rasm).

O‘rta Osiyoda Qoraqum va Qizilqum sahrolari asosan barxanli qumlar bilan qoplangan.

Barxanli sahrolar odatda deflatsiya va korroziya mintaqalariga yaqin joylarda hosil bo‘ladi. Barxanli sahrodagi qumlar yuqori darajada saralanganligi va yaxshi dumaloqlanganligi bilan boshqa genezisdagi qumlardan farq qiladi. Shuningdek ularning yuzasida tirmash izlari kuzatiladi va xira bo‘ladi. Qum zarrachalarining o‘lchami odatda 0,25 - 0,1 mm dan oshmaydi. Ularda kvars minerali ko‘p, kamroq dala shpati uchraydi. Eol qumlarining rangi oqish, sarg‘ish va ha’zan qo‘ng‘ir bo‘ladi. Eol qumlarida parallel emas,

**Akkumulativ sahrolar** tarkib topgan materiallari bo‘yicha barxanli (qumli), taqirli (gilli), adirli (lyossli) va sho‘rxokli (sho‘rlangan) turlarga bo‘linadi.

Barxanli sahrolar eng keng maydonlarni egallab yo-


<sup>76</sup>Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 300.

<sup>77</sup>Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 460-462

balki qiya va to'lqinsimon qatlamlamish kuzatiladi. Qiya seriyalarning og'ish tomoni bo'yicha shamol esgan yo'naliishni aniqlash mumkin.



*9.12-rasm. Sahrodagi barxanlar.*



*9.13-rasm. Dengiz sohilidagi dyunalar.*

Barxanlar mayda tepaliklar, g'ovlar va qatorlar, yarimoy shaklidagi qum uyunlaridan iborat bo'ladi. Planda shamolning yo'naliishiga mo'ljallangan yarimoy shaklini eslatadi. Barxanlarning balandligi 20 - 30 m gacha boradi. Shamol esuvchi tomonining qiyahigi  $10-15^\circ$ , shamol yo'nalihidagi qiyaligi esa tikroq,  $30-35^\circ$  bo'ladi. Barxanlarning o'rkachi odatda o'tkir burchakli bo'ladi. Shamol yo'naliishi tez-tez o'zgaruvchi joylarda relyef yuzasi jimg-jima shakkarga ega bo'ladi (9.12-rasm).

Dengiz va daryo bo'ylarida paydo bo'ladigan qum tepalari *dyunalar* deyiladi. Barxan va dyunalarning qumlari qatlamsiz, yaxlit bo'ladi. Dyunalar ning balandligi 20-25 m gacha ba'zan 50 m gacha boradi (9.13-rasm).

Barxan tepaliklari yuzasida eol ryablari rivojlangan bo'ladi. Ular o'ziga xos mikrorelyef hosil qiladi va barxanlarning shamol esuvchi tomonidagi yuzasida rivojlangan bo'ladi. Barxan ryablari suv oqimlarinikiga o'xshash asimmetrik tuzilishga ega va barxan yuzasida to'lqinsimon parallel joylashgan bo'ladi. Ryab o'rkachlari



*9.14-rasm. Barxan qumlari yuzasidagi eol ryablari.* [www.babaev.net](http://www.babaev.net)

orasidagi masofa 3-4 sm, amplitudasi (balandligi) esa undan kamroq bo'ladi (9.14-rasm).

Barxanlar va dyunalar ko'chib yuradigan qum tepalaridir. Ba'zan barxanlar bir kunda 5-10 m gacha ko'chib, boshqa joyda tepaliklar hosil qilishi mumkin. Dyunalar ham bir yilda 100 - 200 m gacha ko'cha oladi. Hozirgi kunda harakatdagi barxanlar Qizilqumning ayrim qismlarida (Buxoro viloyatining Rp

omitan tumani) kuzatiladi. Barxan qumlarining aksariyat qismi hozirgi kunda kam harakatli.

Qum harakatidan ekinzorlar, ba'zan qishloqlar qum ostida qolib ketishi mumkin. Ekinzorlarni, temir yo'llarni qum bosib ketmasligi uchun ularning atrofi ihota qilinib, daraxtzorlar barpo qilinadi.

*Taqirli (gilli) sahrolar* qum sahrolarini o'rab turadi yoki ularning ichida joylashgan bo'ladi. Juda ko'p hollarda taqirlar qurigan ko'llarning yoki daryolarning tubi hisoblanadi. Taqirlarni tashkil etgan gilli cho'kindilar yuzasi ularning qurishidan kuchli darzlanadi.

Bunday darzlar taqir yuzasida poligonal uchastkalarni ajratadi. Poligonal bo'laklarning chetlari birmuncha balandga ko'tarilgan bo'ladi (9.15-rasm).

Taqirli sahrolar grunt suvlari hisobiga ham, atmosfera yog'in-sochinlari hisobiga ham hosil bo'lishi mumkin.



9.15-rasm. Tagir.

Adirlar (lyossli) sahrolar ham qumli sahrolarning chekka qismlarida rivojlanadi. Bunda shamol uchirib keltirilgan chang zarralari to'planadi. Turli qalimlikdagi lyossli jinslar to'planadi.

Adirlarning yuzasi vaqtinchalik oqar suvlarning faoliyati tufayli odatda notejis bo'ladi. Kuchli jarlanganlik kuzatiladi. Lyossli jinslar

vertikal ajralish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli jarlarning borti har doim tik bo'ladi (9.16-rasm).<sup>78,79</sup>



*9.16-rasm. Adirdagi lyossli jinslar.*

Lyossalr (lyoss nemischada sariq tuproq ma'nosini anglatadi) sarg'ish-qo'ng'ir, sarg'ish-kulrang va bo'zrangli, yumshoq va g'ovakli jinslar bo'lib, kontinental yotqiziqlarning muhim genetik turi hisoblanadi. Ulaning tarkibida 90% dan ortiq kvars va boshqa silikatlarning hamda glimozemning changsimon zarrachalari bo'ladi. 6% ga yaqinini odatda noto'g'ri shakllardagi ohakli uyushiqlarni (sho'x) tashkil etuvchi kalsiy karbonat tashkil etadi. Lyosslarning o'ziga xos belgilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- changsimon zarralardan tuzilgan bo'lib, ko'proq 0,05 mm dan 0,005 mm diametrlı alevrit zarralaridan tashkil topgan;
- qatlamlanishi xususiyati yo'q, butun qalinligi bo'yicha yaxlit tuzilgan;
- karbonatli g'uddalar va uyushiqlarga egaligi;
- vertikal ajralishi xususiyatiga egaligi;
- yuqori darajadi (50 - 60% gacha) g'ovakligi;
- namlanganda va yuk ostida cho'kish qobiliyati.

Lyosslarning eng ko'p qismi Ukrainadan Janubiy Xitoygacha cho'zilgan hududlarda tarqalgan. Lyosslarning qalinligi bir necha metrdan yuzlab metrgacha boradi. Xitoydagi lyosslar juda qalin bo'lib 250 - 350 m gacha yetadi. O'zbek olimmlaridan akademik R.O.Mavlonov O'rta Osiyodagi lyosslarni aksariyati shamol yordamida hosil bo'lganligini isbot qilgan.

<sup>78</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 303.

<sup>79</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 462,463.

Lyossli adirlar O'rtal Osiyoda, Kavkazortida, Ukrainada va Afg'onistonda keng tarqalgan.

*Sho'rxokli* (sho'rlangan) *sahrolar* grunt suvlarining yotish chuqurligi katta bo'limganda kuzatiladi. Tuproqdag'i namlik kapillarlar orqali yer yuzasiga so'rilib, bug'lanib ketadi. Yerosti suvlarining mineralizatsiyasini tashkil etuvchi tuzli birikmalar yer yuzasini oppoq, yumshoq, g'ovakli po'stloq bilan qoplab oladi. Sho'rxokli sahro AQSHdagi "O'limlar vodiysi" va Markaziy Qizilqumdag'i Minbuluoq, Qoraqota botiqqliklarida, Kaspiy va Orol dengizi oralig'iда joylashgan Ustyurt platosida keng tarqalgan. Markaziy Qizilqumdag'i Lavlakon sho'rxoklari bir qancha sho'r ko'llardan iborat bo'lib, jazirama issiqda faol bug'lanish natijasida tuz qatlami hosil qilib, qurib qoladi. Ularning to'yinishi yer yoriqlaridan chiqayotgan sho'r yerosti suvlar bilan bog'liq.

**Uyuni sho'rxoki (Salar de Uyuni)** Boliviya'dagi dunyoda eng



9.17-rasm. Uyuni solonchakidagi tuzli yotqizilar.

yirik qurib qolgan sho'r ko'ldir. Egallagan maydoni 10582 kv. km., dengiz sat-hidan 36-50 metr balandda joylashgan. Uyuni sho'r xokidagi tuzning qalinligi 2 dan 8 metrgacha boradi. Har yili bu joydan 25 ming tonna tuz qazib olinadi (9.17-rasm).

### O'tilgan ma'ruza mavzulari bo'yicha savollar

1. Shamol deb nimaga aytildi?
2. Shamol qanday geologik ish bajaradi?
3. Deflatsiya, korraziya, transportirovka, akkumulatsiya jarayonlariga qisqacha tavsif (misollar bilan) bering.
4. Barxanlar dyunalardan nimasi bilan farq qiladi?
5. Eol ryablari nima?
6. Lyossli jinslar qanday xususiyatlarga ega?
7. O'rtal Osiyodagi sahro yotqiziqlarini ta'riflab bering?

## DARYO OQIMI

### 10-bob. YER YUZASIDAGI OQAR SUVLARNING GEOLOGIK ISHI. VAQTINCHA OQAR SUVLARNING GEOLOGIK FAOLIYATI. TERRASALAR, VODIYLARNING TURLARI

#### REJA

1. Yer yuzasidagi suv oqimlari
2. Daryo vodiylarining tuzilishi
3. Vodiylarining asimetriyasi.
4. Tog' va tekislik daryolari
5. Daryolarning quyulish qismi. Sharsharalar.
6. Oqar suvlarning geologik ishi
7. Yaqtinchalik suv oqimlarining geologik ishi

**Kalit so'zlar;** Yuza suvlari, o'zan, turbulent va laminar oqimlar, vaqtincha oqar suvlari, soylar, jar, jarlik, denudatsiya, elyuviy, delyuviy, prolyuviy, yoyilma, lyoss, lyoss genezisi, sel, daryo, eroziya, denudatsiya, Kolorado kan'oni, allyuviy, qoldiq ko'llar, delta, eroziya bazisi, supa, qayir, o'zan fatsiyasi, qayir fatsiyasi, daryo vodiysi, daryo havzasasi, daryo ryablari, bir tomonlama qiyshiq qatliliklar.

#### 10.1. Yer yuzasidagi suv oqimlari

Yer yuzasidagi oqar suvlari quruqlik denudatsiyasining eng muhim omillaridan biri. Suv oqimlari relyefning parchalanishiga va materiklar yuzasining pasayishiga olib keladi. Ular atmosfera yog'in-sochinlari va qorlarning erishi tufayli vujudga keluvchi differensiatsiyalanmagan mayda jilg'alardan tortib to azim daryolar tizimigacha bo'lgan suv oqimlarini o'z ichiga oladi.


Yer yuzasi oqim suvlarning geologik ishi suvning massasiga va uning oqim tezligiga bog'liq bo'ladi. Uning ishi tog' jinslarini yuvish, nurash mahsulotlarini tashish va yotqizishdan iborat. Yuza suvlari bajarayotgan barcha jarayonlar va bunda hosil bo'lgan yotqiziqlar

majmuasi flyuvial (lotinchada «flyuvios» – daryo, oqim degan ma’noni anglatadi) jinslar deyiladi.

Nurash mahsulotlarining asosiy qismi suv oqimlari yordamida ko‘chiriladi. Bunday oqimlar quruqlik oqimlari (daryolar, soylar) va havza oqimlaridan (sohilbo‘yi, kontur, tranzit va turbid oqimlari) iborat bo‘ladi (10.1-rasm).

Quruqlikda suv oqimlari relyef qiyaligi tufayli vujudga keladi. Bunday suv oqimlarining tezligi tekisliklarda 1,5-1,6 m/sek, tog‘larda 5-8 m/sek gacha boradi. Oqim tezligini o‘zgarishi o‘zan kengligiga, chuqurligiga va relyef qiyaligiga bog‘liq. O‘zanning torayishi oqim tezligini oshiradi.

Suyuqlikning turli kinematik va dinamik xususiyatlariga asosan laminar va turbulent oqinlar ajratiladi (10.1-rasm).




**10.1-rasm. Yer yuzasidagi suv oqimlarining aylamishi.**  
*(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

**Laminar oqinlarda oqim chiziqlari** (suyuqlik zarralarining harakat yo‘nalishi) bir-biriga parallel va bir xil tezlikda bo‘ladi. Bunda oqim parallel qatlamlar to‘plami sifatida harakatlanadi. Laminar oqimlar nisbatan sekin, asosiy oqimga mos kelmaydigan

komponentlari amalda hisobga olinmaydigan darajada kichik bo'ladi.<sup>80,81</sup>

**Turbulent oqimlarda** oqim chiziqlari buralib o'zgaruvchi uyurmalar tizimini tashkil etadi. Bunda o'zgaruvchi uyurmalarning yo'nalishi va tezligi o'rtacha arifmetik oqimnikidan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, uyurmalarida suv massasi chapdan o'ngga, pastdan yuqoriga va aksincha harakatlanib, "o'ynab" oqadi.



**10.2-rasm Laminar va turbulent oqimlar.**  
(*Understanding Earth., J. Grotzinger va b.*)

ning notejisligi orqali kuchayadi.

Turbulentlik oqimda ko'chirilayotgan zarralarning suspenziya holatida bo'lishiga yordam beradi. Turbulent oqimlarning siljituvcchi kuchi shu tezlikdagi boshqa oqimlarnikiga qaraganda 3-4 marta katta bo'ladi. Bu xususiyat cho'kib ulgurgan zarralarni qaytadan ko'tarib, oqim suspenziyasiga qo'shishda katta ahamiyatga ega. Chunki cho'kib ulgurgan zarralarni o'z joyidan ko'tarib, ko'chirish uchun oqimning katta suruvchi kuchlanishi kerak bo'ladi. Ayniqsa, bu mayda plastinka shaklidagi zarralarga va yuzasi suv o'tlari bilan

Turbulent oqimlarda uyurmalarning tezligi o'rtacha oqim tezligidan uncha farq qilmasada, butun oqimga kuchli ta'sir etadi. Chunki turbulentlik orqali terrigen zarralar doimo muallaq holda (gil zarralari) yoki vaqtincha muallaq holda (qum donalari) ko'chiriladi.


Daryolarda turbulentlikni asosan og'irlik kuchining o'zan bo'ylab yo'nalgan tashkil etuvchisi - urinma vujudga keltiradi va o'zan tubi-

<sup>80</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 220.

<sup>81</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 458.

qoplanib ulgurgan yotqiziqlarga taalluqlidir. Cho'kib ulgurgan zarralarni qaytadan oqimga qo'shishda oqimdag'i mavjud zarralarning tirmash kuchi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Turbulent oqimlarda yirik bo'lakli jinslar (g'o'laklar va graviy) dumalab, qum donalari saltatsiya (sakrab-sakrab) yo'li bilan, alevrit



**10.3-rasm. Laminar va turbulent oqimlarning yonqiziqlari**

cho'kindi materiallar bilan to'lib, tekislanib boradi. Turbulent oqimlarda esa chuqurlatish eroziyasi tufayli o'zan tubi notejisligicha qolaveradi.(10.3-rasm).

Laminar oqimlarning ham, turbulent oqimlarning ham cho'kindining sirtiga ta'siri suyuqlikning zichligi, dinamik qovushoqligi, tezligi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha gidrodinamik parametrlar va suv-cho'kindi chegarasining geometriyasiga bog'liq.

Suv va havo kabi har bir oquvchi muhit **qovushqoqlig** deb ataluvchi ishqalanish kuchi tufayli vujudga keluvchi ichki qarshilikka ega bo'ladi. Suyuqlik yoki gazning qovushqoqligi sekin harakatlanayotgan massaning tez harakatlanayotgan massani tormozlovchi kuchi o'lchami hisoblanadi.

Terrigen donalarning o'lchami, solishtirma og'irligi va shakli kabi xususiyatlari oqimda ko'chirilishi uchun muhim omildir. Bu o'zgaruvchi parametrlarning umumiyo'samarasi oquvchi muhitning zichiigi va qovushoqligi bilan birligida cho'kish tezligini belgilaydi.

va gil zarralari esa muallaq holda ko'chiriladi. Turbulent oqimlar laminar oqimlarga aylanib, tezligi susayganda yirik bo'lakli jinslar oqim o'zanida cho'kib qoladi, qum donalari dumalash orqali, alevrit va gil zarralari oqim tufayli, hali suspenziyada bo'lganligi sababli, muallaq holda ko'chiriladi. Laminar oqimiarda o'zan tubidagi notejisliklar

Terrigen zarralarning havoda cho'kishi suvdagiga qaraganda katta farq qiladi. Masalan, qum zarralarining havoda cho'kishi suvdagiga nisbatan 30-50 marta tez sodir bo'ladi. Zarralarning o'lchami kichrayishi bilan bu farq kamayib boradi.

Havoning, chuchuk va dengiz suvlarining zichiigi turlichadir. Bir xil hajmdagi qum zarralari o'z og'irligini dengiz suvlarida ko'p, chuchuk suvlarda kamroq, havoda esa undan ham kam yo'qotadi. Shuning uchun ham bir hajmdagi og'ir va yengil minerallarning cho'kish tezligi orasidagi farq havodan dengiz suviga qarab kamayib boradi. Bu xususiyatlari orqali terrigen zarralarning genezisi aniqlanadi.

Suv oqimlari bilan ko'chiriladigan materiallarning miqdori oqimning tezligi, faoliyatining doimiyligi yoki vaqtinchaligiga bog'liq. Suv oqimlari bilan ko'chiriladigan materiallarning miqdori oqim zichligi bilan belgilanadi. Bu kattalik o'zgaruvchan bo'lib, ba'zi oqimlarda u juda yuqori bo'ladi.

Suv oqimlari yil bo'yli faoliyat ko'rsatuvchi doimiy va bahor oylaridagina faoliyat ko'rsatuvchi vaqtinchalik suv oqimlariga bo'linadi.

*Vaqtinchalik suv oqimlari* tog' hududlarida jala yog'ishi va qorning tez erishi tufayli vujudga keladi. Bunday oqimlar *sellars* deyiladi. Sellar asosan o'simlik qoplamasi yaxshi rivojlanmagan quruq iqlimli o'lkalarda hosil bo'ladi. Ular o'zining katta tezligi, zichligi va eroziya xususiyatlari bilan boshqa oqimlardan ajralib turadi. Sellar shakllanishida suv dastlab tog' yonbag'irlarida butun maydon bo'yicha oqaboshlaydi va keyinchalik ma'lum o'zanlarga birlashib, yaxlit oqimni tashkil qiladi.

Sel to'satdan paydo bo'lib, tog' daralari va soylaridan juda katta tezlik (20 - 25 m/sek) bilan pastga intiladi va yo'lida uchragan to'siqlarni yemirib, oqizib ketadi. Shu vaqtida o'zandagi suv loyqasi 5-20 m gacha ko'tariladi va sel ketish, toshqin jarayoni bo'ladi. Masalan, 1966 yilda Isfayram soyda, 1967-yili Kichik Almati soyida va 1978-yili Karpat tog'ida sel bo'lib, bir-ikki soatda har qaysisi 3000 - 4000 m<sup>3</sup> shag'al va loyqani tashigan. 1969-yili may oyida xuddi shunday hodisa Chirchiq daryosi va uning irmoqlarida sodir bo'lgan. Chunonchi, Oqsoqota irmog'ida 2 soat davom etgan sel o'zan qayirusti supasidagi ekin maydonlarini, tegirmonlarni oqizib ketgan.

Shu qisqa vaqt ichida bir necha yuz tup mevali daraxt va bir necha ming m<sup>3</sup> shag‘al Chirchiq daryosiga quyilgan va konus yoyilmasi (Bo‘stonliq qishlog‘i) bortlarini yuvib ketgan.


Sel oqiziqlari odatda tog‘ etaklarida prolyuviy yotqizig‘ini hosil qiladi. Yonbag‘irlardagi ellyuviy, delyuviyalar yog‘in suviga to‘yngandan so‘ng harakatga kelgan mahsulotlarni pastga oqizib tushadi. Sel faqat tosh bo‘laklarinigina emas, balki ildizi bo‘shroq daraxtlarni ham oqizib ketadi.

Sel oqimlari zichligining yuqoriligi bir tomondan tezligming kattaligiga, ikkinchi tomondan esa yil davomida nuragan mahsulotlarni birdaniga ko‘chirishiga bog‘liqdir. Sel oqimlari butun oqim yo‘lidagi barcha materiallarni oqizib, tog‘oldi tekisliklariga olib chiqadi. Ular keltirgan materiallarning miqdori shu hududdagi doimiy oqar suvlarnikiga qaraganda ko‘proqdir. Bu prolyuvial va delyuvial yotqiziqlarning allyuvial yotqiziqlarga qaraganda keng tarqalganligidan ma‘lum. Sel oqimlari har doim turbulent xarakterga ega bo‘ladi. Yotqiziqlari differensiatsiyalanmagan va saralanmagan, bo‘laklari dumaloqlanmagan, o‘tkir qirrali bo‘ladi.

*Doimiy suv oqimlari – daryolar.* Daryolar – havza deb ataluvchi keng hududlardan atmosfera yog‘in-sochinlari va yerosti suvlarini to‘plovchi uzlucksiz oquvchi suv oqimlaridir.<sup>82</sup> Quruqlikning 68 % maydoni daryolarning suv yig‘ish maydonlari hisoblanadi va ulardan to‘plangan suvlar okean va dengizlarga quyuladi. Har yili quruqlikdan yig‘ilayotgan suvning 20 % ga yaqini sayyoramizda suvi ko‘p bo‘lgan Amazonkaniki hisoblanadi. Suvi ko‘pligi bo‘yicha ikkmchi o‘rinni Kongo daryosi egallaydi. Dunyodagi eng uzun daryo Nil (6671 km) bo‘lsada, suvi va havzasining maydoni uncha katta emas. Uzunligi 1000 km dan ortiq bo‘lgan daryolar soni yer yuzasida ellikdan ortiq. Ularning umumiy uzunligi 180 000 km.

Daryolarning suv yig‘adigan maydoni daryo havzasini deyiladi. Havzalar planda ko‘rinishiga qarab daraxtsimon, yelpig‘ichsimon, radial (markazga intiluvchi va markazdan taraluvchi) kabi turlarga bo‘linadi. Volga daryosi havzasini daraxtsimon daryolarning tipik vakilidir (10.4-rasm).

Daryo uncha katta bo'lmagan buloqdan (masalan, Volga), ko'l-dan (Angara, Neva) yoki botqoqlikdan (Dnepr, G'arbiy Dvina) boshlanishi mumkin. Tog' daryolari odatda qor va muzlarning erishidan oziqlanadi.



**10.4-rasm. Havzalar planda ho'rinishi.**  
*(Understanding Earth,*  
*J. Grotzinger, va b.)*

lanish manbalariga (qor va muzlarning erishi, yog'in-sochinlar) bog'liq. Daryolar to'lib oqqan vaqtarda ularning suv sarfi yuzlab marta oshishi mumkin.

Suvning ortacha miqdori ba'zan favqulodda hodisalarga olib keladi. Daryo o'zanidan chiqib, ko'p maydonlar suv ostida qolib ketadi. Bunday hodisalar hududining ancha qismi tekisliklardan iborat bo'lgan Xitoyda, Hindistonda, Rossiyada va dunyoning boshqa ba'zi inamlakatlarda tez-tez sodir bo'lib turadi.


## 10.2. Daryo vodiylarining tuzilishi

O'zan suv oqimlari o'zining geologik faoliyatida **daryo vodiylarini** hosil qiladi. Daryo asosiy daryo va uning irmoqlari, irmoqlarining soylari, soylarining jilg'alaridan tarkib topgan tizimni tashkil etadi. Daryo tizimi egallagan maydon **daryo havzasasi** deyiladi. Daryo havzalari bir-biridan suvayirg'ichlar bilan chegaralanadi (10.5-rasm).<sup>8383</sup>

Barcha daryolar ham dengiz va okean-larga quyulmaydi. Ular-dan ba'zilari (masalan, Volga, Amudaryo) ko'l-larga quyulsa, ba'zilari sahrolarda tugaydi (Zarafshon).

Yil davomida dar-yolarning to'lib oqqan davrlari va sathining pasayib ketadigan vaqtleri bo'lib. To'lib oqish davri daryolarning oziq-

<sup>8383</sup> Essentials of Geology - Frederick K Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 228.



**10.5- rasm. Daryo havzalarining suvayirg'ichlari. (Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)**

yotqizilishi hisobiga amalga oshadi.

Qirg'oq yuvilishining faolligi oqim o'zagining qirg'oqqa yondashuv burchagi (va oqimning eng yuqori tezligi) qancha katta bo'lса, yuvilish tezliga ham shuncha katta bo'ladi. To'g'ri chiziqli o'zanlarda oqim o'zagi uning markaziy qismida joylashgan bo'ladi, qirg'oq tomon tezlik susayib boradi. Bunday sharoitlarda qirg'oq yuvilmaydi.

Qirg'oqning yuvilish tezligi vodiy shakllangan tog' jinslarining mustahkamligiga bog'liq.

Qattiq tog' jinslaridan oqib o'tayotgan daryolarda oqim o'lchamiga bog'liq bo'lmasdan qirg'oqning yuvilish tezligi keskin pasayadi. Qirg'oqning eng yuqori yuvilish tezligi Amudaryoda qayd etilgan bo'lib, yiliga 1000-1200 m ni tashkil etadi. Amudaryo qirg'og'ining yuvilishi sutka va hatto soatlar davomida o'zgarib turadi.

**Qayir.** Daryoning vaqt - vaqt bilan suv bosadigan qirg'oqlarini qayirlar deb ataladi. Ulardagi to'planadigan yotqiziqlar o'zan fatsiyasiniidan anchagina maydaligi bilan farq qiladi va o'ziga xos tekstura va strukturaga ega bo'ladi. Qayir yotqiziqlari asosan saralanmagan alevrolitlarda, pelo-alevritlardan va gillardan iborat bo'ladi. Qayirlarda botqoqliklar va to'qayzorlar rivojlanadi.

Qayirlar quruqlikning 3 % ga yaqinini tashkil etadi, ammolarning inson hayotidagi ahamiyati juda katta.

**O'zan.** O'zan deb daryo vodisining suv oqayotgan chuqr qismiga aytildi. Daryolarning ko'p qismi meandr hosil qilib oqadi. Meandrlar planda turhcha shaklda bo'lishi mumkin. Daryo o'zанинг vodiy tubida ilon izi hosil qilib oqishi daryo qirg'oqlaridan birining yuvilishi va ikkinchisida yotqiziqlar

Qayirlar uzoq vaqt davomida kechadigan yon eroziya bosqichida shakllanadi.

Oqim to'liq bo'lgan vaqlarda suv o'zanidan toshib, butun vodiyni qoplab oladi va qayirlarda ham cho'kindi to'planadi. Bunda mayda alevritli, gilli va qumli material cho'kmaga o'tadi (10.3-rasmga qarang).

**Qayirusti supalari** (terrasalar, lotincha terra - tuproq). Tektonik harakatlarning uzlukli-uzluksizlik xususiyati qayirusti supalarining shakllanishiga olib keladi. Ma'lumki, yer po'stida tektonik harakatlar to'xtovsiz davom etadi. Ammo ularning yo'nalganligi va tezligi vaqt bo'yicha o'zgarib turadi. Hududning umumiy ko'tarilishida tektonik harakatlar tezligi o'zgarib turishi natijasida chuqurlatish va yon eroziyalar o'zaro almashinib turadi. Buning natijasida qayirusti supalari shakllanadi. Qayirusti supalarining yuzasi daryo oqimi va daryo vodiysi tomon ozroq qiyalangan bo'ladi. Ular har doim daryo o'zani va qayiridan gipsometrik balandda joylashgan bo'ladi va shuning uchun ham qayirusti supasi deyiladi (10.6-rasm). Daryo o'zanining meandrlanishi tufayli bunday supalar yuvilib ketishi orqali ularning faqat fragmentlari qolishi mumkin.



10.6- rasm. Buyuk Kanyondagi qayirusti supalari. [www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)

Qayirusti supalari subhorizontal tekisliklardan tarkib topgan bo'ladi; ular o'zidan pastdag'i supa yoki qayirdan zina orqali ajralgan bo'ladi, daryo tomonidan supalarning chegaralovchi qoshlar aniq ifodalangan yoki tekislangan bo'lishi mumkin, orqa tomoni esa

ustidagi zinaga qarab ko'tarilgan yoki tub jinslarga yondashgan bo'jadi. Siklli va mahalliy supalar ajratiladi.

**Siklli supalar** daryoning butun vodiy bo'ylab, mahalliy supalar esa uning muayyan uchastkalarida rivojlangan bo'ladi. Supalar tog'li rayonlarda aniq ifodalangan bo'ladi.

Siklli supalar erozion-akkumulyativ siklda shakllanadi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- chuqurlatish eroziysi;
- yon eroziya;
- akkumulatsiya;
- dinamik muvozanat.

Erozion-akkumulyativ sikel davomida cho'kindi to'plangan va usti qayir bilan qoplangan chuqurlik hosil bo'ladi. Chuqurlatish bosqichidan boshlangan yangi erozion sikel jarayonida qayir astasekin supaga aylanadi. Uning yuzasi o'zan oqimi ta'sir zonasidan tashqarida joylashgan bo'ladi. Uning yuzasida qoplama hosila deb ataluvchi prolyuviy, kollyuviy, soliflyuksion yotqiziqlar, lyosslar va boshqalar to'planishi mumkin. Ularning qalinligi o'nlab metrga boradi.

Allyuviy qalinligi va ostidagi jinslar munosabati bo'yicha akkumulyativ (to'planish supalari), erozion (yuvilish supalari) va erozion-akkumulyativ (aralash) supalarga ajratiladi.

**Akkumulyativ supalarda** allyuviy qalinligi o'nlab va yuzlab metrga borishi mumkin (yirik daryolarda 20-30 m ni tashkil etadi).

**Erozion supalarda** allyuviy qalinligi yuqqori bo'lmaydi, u faqat o'zan yotqiziqlaridan iborat. Bunday supalar yuzasida yo tub jinslar, yoki boshqa genezisdagi bo'shoq jinslar ochilib yotadi.

**Erozion-akkumulyativ** supalarda allyuviyning barcha fatsiyalari rivojlangan, yuzasi gorizontal bo'ladi.

**Supalarning vujudga kelish sabablari.** Supalarning shakllanishi iqlimning o'zgarishi va tektonik harakatlar bilan bog'liq. Iqlim supalar shakllanishida asosiy omil hisoblanadi.

Oqimning harakat kuchi suv hajmiga bog'liq. Namgarchilikning oshishi oqim suvining hajmini va uning kuchini oshiradi. Uning erozion qobiliyati oshadi, bungacha tiklangan muvozanat buziladi, chuqurlatish eroziysi boshlanadi. Daryo o'zining yangi muvozanat

profilini hosil qilaboshlaydi. Oldingi qayir suv ko'p bo'lgandagi sathdan chiqadi va qayirusti supasiga aylanadi.

Bosh eroziya bazisining tutgan o'rni daryodagi suv oqimining faoliyatini nazorat qiladi. Eroziya bazisining o'zgarishi tektonik harakatlar yoki Dunyo okeani sathining evstatik tebranishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Muzlik bosish davrlarida Dunyo okeani sathi pasayadi va uning chekinish davrlarida ko'tariladi. Eroziya bazisining ko'tarilishi vodiylarda allyuviy akkumulatsiyasi jaryonini to'xtatadi. Eroziya bazisining cho'kisi.. vodiylarda chuqurlatish eroziyasiga olib keladi. Tog'li rayonlarda bu jarayonlar tektonik harakatlar tufayli vujudga keladi.

### 10.3. Vodiylarining asimetriyasi

*Vodiylarining asimetriyasi*. Daryo vodiylarining betlari simmetrik yoki asimetrik bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda betlaridan biri nishab va baland, ikkinchisi keng va past nishablikdagi asimetrik vodiylar kuzatiladi. O'zan nishabligi yuqori bo'lgan betga tomon surilgan bo'ladi. Daryo vodiylari ko'ndalang kesmasining bunday asimetriyasi quyidagi sabablar tufayli vujudga kelishi mumkin:

- yer sharining o'z o'qi atrofida aylanishi bilan bog'liq sayyorar;
- tektonik;
- ekzogen jarayonlar faoliyati.

Yer yuzasining barcha joylarida yerning aylanishi bilan bog'liq Ber - Babine qonuni bo'yicha meridional yo'nalishda oquvchi barcha daryolarning vodiysi asimetrik tuzilishga ega bo'ladi. Bunda shimoliy yarimshardagi daryolar vodiyning o'ng betim, janubiy yarimshardagilar esa chap betini ko'proq yuvadi (Koriolis qoidasi). Bunday daryolar o'zining rivojlanishi davomida o'ngga suriladi. Shu tufayli ularning o'ng beti baland va tik, chap beti esa keng, supalangan bo'ladi. Bunday asimetriya Volga, Dnepr, Dona, Ob, Enisey, Lena singari yirik daryolarning vodiylarida yaqqol kuzatiladi.

Vodiylarning asimetriyasi tektonik sabablar tufayli ham kelib chiqishi mumkin. Bunday strukturaviy asimetriya bir tomonga qiyalanib yotuvchi qatlamlar bo'yicha oqadigan daryolarda kuzatiladi.



10.7-rasm. Asimmetrik daryo vodiysi.

Vodiylarning asimmetriyasi ularning har ikkala betida yuviladigan tog' jinlarining eroziyaga turlicha bardoshligi tufayli ham shakllanadi (10.7-rasm).

Daryo vodiylari anttesedentli va qo'shib oluvchi bo'lishi muungkin. Antetsedentli – bu daryo qirqib o'tadigan struktura shakllanmasdan oldin rivojlangan vodiyyidir. Bunda struktura qanday tezlikda o'ssa, uni daryo shu tezlikda qirqadi.

Daryo boshlanishidagi


qo'shib olish bir-biri tomon progressiv o'sib boruvchi daryolarda kuzatiladi. Masalan, Ortoloy tizmasidagi Tersog'ar soyi ikkiga bo'linib, bir tarmog'i janubga qarab oqib, Oltindarada Muksuvga quyuladi. Ikkinchisi tarmog'i esa shimolga qarab oqib, Qizilsuvga quyuladi.

Daryolarning geologik ishi natijasida hosil bo'lgan relyef shakllaridan eng yiriklari vodiylar va havzalardir.

**Daryo vodiylarining shakli.** Daryo vodiylarining tuzilishi tog' jinslarning qattiq yoki yumshoqligiga bog'liq bo'ladi. Qattiq tog' jinslаридан ташкіл топған майдонлардан оқадиган дарыолар тик юнбаг'ирили ва tog' vodiylarini hosil qiladi.<sup>84</sup> Bunga tabiiy darvozalar: Temirlang, Temir, Boum, Jung'ariya tipik misoldir. Yumshoq tog' jinslаридан ташкіл топған майдонларда дарыо vodiylari keng va yassi юнбаг'ирили, уларда o'simliklar ko'p taraqqiy qilgan bo'ladi. Bunday vodiylar Farg'ona, Hisor tog'larining janubiy qismlarida keng tarqalgan.

Ba'zi olimlar daryo vodiylarini genezisiga ko'ra erozion (yuqoridagi xillar tegishli) va tektonik turlarga bo'ladilar.

Antiklinal, sinklinal, monoklinal, graben, yer yoriqlari bo'ylab rivojlangan vodiylarda allyuvial yotqiziqlar juda kam bo'ladi yoki umuman uchramaydi.



10.8-rasm. V shaklidagi vodiy.



10.9-rasm. U shaklidagi vodiy.

Daryo vodiylari rejada ko'rnishi yoki morfologik tuzilishiga ko'ra dara, qisiq, kon'on, tog'arasimon, yashiksimon, U va V shakllarda bo'ladi.

Tog' daryolari suvi kam bo'lishiga qaramasdan nihoyatda katta geologik ish bajaradi. Oqimi har doim turbulent xususiyatga ega bo'ladi. Ularda chuqurlatish eroziysi daryolarning yuqori va o'rta oqimlarida o'zan tagini o'yib, lotincha V harfiga o'xshash chuqur daralarni hosil qiladi (10.8-rasm). Bunday daralar Norin, Chirchiq, Ohangaron daryolarining yuqori oqimida ko'p uchraydi. Bahor va kuz fasllarida chuqurlatish eroziysi yana ham kuchayadi. Tog' daryolari yumshoq jinslardan o'tganda U shakldagi vodiylarni hosil qilishi mumkin (10.9-rasm).

Dunyodagi eng chuqur dara AQSH dagi Kolorado kon'oni hisoblanadi. **Buyuk Kanyon** (*Grand Canyon*) AQSHning Arizona shtatidagi Kolorado platosida joylashgan.

Grand Kanon Kolorado daryosi faoliyati tufayli hosil bo'lган, kengligi 29 kilometrga boradi, suv sathi bo'yicha esa bir kilometrga yaqin. Buyuk Kanonning uzunligi 446 kilometr bo'lib, chuqurligi 1600 metrni tashkil etadi.

Buyuk Kanonning shakllanishi tektonik harakailar va Kolorado platosining ko'tarilishi bilan bog'liq. Shu tufayli daryoda oqim tezligi kuchaygan, ohaktoshlar va qumtoshlardan iborat tubini yuvib, chuqurlatish eroziysi tufayli hozirgi ko'rimishini olgan (qarang: 10.6-rasm). Bunday yirik kanonga Janubiy Amerikadagi Fish-River kononini ham misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. U butun oqimi davomida meandr hosil qilgan (10.10-rasm).



*10.10-rasm. Fishriver  
konyonning fazodan  
ko'rinishi.*

[www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)

Daryolar gidrodinamik rejimi bo'yicha tog' va tekislik daryolariga bo'linadi.

**Tog' daryolari.** Tog'li hududlarda daryo o'zani oqim tezligining yuqoriligi tufayli asosan to'g'ri chiziqli va vodiysi tor bo'ladi. Buning asosiy sababi chuqurlatish eroziyasining faolligidir. O'zan va butun vodiyyada to'plangan allyuvial jinslar barqaror emas, ba'zan yuvilib turadi. Eroziyaga uchraydigan tub jinslarning qattiq yoki yumshoqligi daryo vodiylarining shu joyda birmuncha kengayishi, torayishi va burilishiga olib kelishi mumkin.<sup>84</sup> Meandrlar meandrlanish qambarim hosil qiladi. Ular burilishining tashqi yoyida o'zan qirg'og'i yuvilib boradi va ichki yoyida qumli qoshlar (kosalar) hosil bo'ladi.

Oqimning tarmoqlanishi tufayli oqim

bo'yicha cho'zilgan qum orollari shakllanadi (10.11-rasm).



*10.11-rasm. Missisipi daryosining meandrlanishi.*  
<http://fotoart.org.ua>

<sup>84</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 435,436.

Vaqt o'tishi bilan tekislik yuzasida meandrlanish qambarining migratsiyasi sodir bo'ladi. Bu jarayon oqim keltirgan cho'kindi materiallarning meandrlanish qambarida to'planib borishi natijasida uning sathi ko'tarilib, oqim qo'qqisidan pastroq bo'lgan allyuvial tekislikka siljiydi. Meandrlanish qambarining hosil bo'lishiga va migratsiyasiga Sirdaryo va Amudaryoning Turon pasttekisligidan oqib o'tishini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi.

Meandrlanish qambarining kengligi 25-30 km ga boradi. Vaqt o'tishi bilan meandrlanish qambarining tekislik yuzasi bo'ylab migratsiyasi tufayli allyuvial yotqiziqlarning kengligi yuzlab kilometrlarga oshadi.

Ba'zi meandrlar keyinchalik rivojlanib qoldiq ko'llarni, bot-qoqliklarni, to'qayzorlarni vujudga keltirishi mumkin (10.12-rasm).



*10.12-rasm. Yashil daryosining meandrlanishi.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger, va b.)*

#### **10.4. Daryolarning quyulish qismi**

**Daryolarning quyulish qismi.** Daryolarning quyulish qismini shakllanishiga turli omillar: daryodagi suv sarfi va uning vaqt davomida o'zgarishi, daryo keltiradigan bo'lakli materialning miqdori va tarkibi, eroziya bazisi havzasasi suvining sho'rligi va

tektonik harakatlar hisoblanadi. Ularning orasida tashib keltirilayotgan materiallar hajmi va tektonik harakatlar yetakchi sanaladi. Ularning nisbatiga ko‘ra daryolarning quyulish joyida delta yoki estuariy hosil bo‘ladi.




### 10.13-rasm. Delta hosil bo‘lish jarayoni.

(*Understanding Earth.,*

*J. Grotzinger, va b.)*

cho‘kindilar hisobiga dengiz maydonining anchagina qismini egallab, kengayib boradi. Masalan, Volga daryosining deltası 19000 km<sup>2</sup>, Lena daryosiniki 29500 km<sup>2</sup>, Amudaryoniki 9000 km<sup>2</sup>.

Yerusti deltası suvosti deltasiga (avandelta), u esa o‘z navbatida suv havzasining ichkarsiga qarab cho‘kindi to‘planish faqat muallaq zarlalar hisobiga sodir bo‘ladigan prodelta almashinadi.



### 10.14-rasm. Estuariyning shakllanishi.

(*Understanding Earth.,*

*J. Grotzinger va b.)*

**Deltalar.** Daryolarning tashib keltirgan terrogen materiallar eroziya bazisi hisoblangan dengiz yoki ko‘llarga quyilish joyida cho‘kmaga o‘tishi tufayli yunoncha Δ (delta) harfiga o‘xshash shakldagi yotqiziqlar vujudga keladi (10.13-rasm). Daryolar deltasi ular keltirgan

Agar eroziya bazisi ko‘tarilsa, eroziya ishi sustlashadi va cho‘kindi materiallar cho‘kmaga o‘tadi.

**Estuariylar.** Daryo vodiysi bo‘ylab ancha masofaga kirib boruvchi havza qo‘ltig‘i estuariy deyiladi. Uning hosil bo‘lish sabablari turlicha. Estuariylar dengiz

sathining ko'tarilishi yoki daryo quyulish qismining cho'kishi orqali vujudga kelishi mumkin. Keyingi holda daryolarning havzaga quyulish qismidagi sohillar suv ostida qolib ketadi (Ob, Enisey).

Estuariylar dengiz sohilidagi priliv va otlivlar bilan ham bog'liq bo'ladi. Priliv vaqtida dengiz daryolarning quyulish qismini ham qamrab oladi (10.14-rasm).

**Sharsharalar.** Tog' daryolari va platalardan oqib o'tadigan deyarli barcha daryolarda sharsharalar kuzatiladi. Sharsharalarning vujudga kelishi daryo vodiysidagi tub jinslarining mexanik xossalari va yotish sharoitlari hamda geologik strukturalar bilan bog'liq. Eng yirik va baland sharsharalar bo'lib Venesueladagi Angela,

Zimbabwe dagi Viktoriya, AQSHdagi Niagara hisoblanadi (10.15-rasm).



*10.15-rasm. Zimbabwe dagi Viktoriya sharsharasi.  
<http://fotoart.org.ua>*

## **10.5. Oqar suvlarning geologik ishi**

Umuman oqar suvlarning geologik ishi ularning yer yuzidagi aylanma harakati bilan bog'liq bo'lib, yog'in- sochin natijasida ro'y beradi. Vaqtincha oqar suvlar o'zansiz va o'zanli bo'lishi mu'minkin. Yomg'ir suvlari tub jinslar yuzasidagi elyuvial yotqiziqlarni qiya yonbag'irlarida yemirib yuvib ketadi. Bu hodisa eroziya deb ataladi. <sup>85</sup>

<sup>85</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 222, 223.

Tekis qiyaliklarda yomg‘ir suvlari sidirg‘asiga yuvish ishini olib boradi, bunda kichik ariqchalar yoki soylar vujudga kelmaydi. Nishab joylarda eroziya tufayli ariqchalar paydo bo‘ladi.

Yer yuzining qiyaligi ko‘proq bo‘lsa, tushadigan yomg‘ir suvlaringin yuvish, sidirish ishlari kuchliroq va tezroq kechadi. Yonbag‘irlardagi o‘simpliklar yuvilish ishlarini kamaytirishi, unga to‘sinqlik qilishi mumkin. Yumshoq tog‘ jinslardan tashkil topgan yonbag‘irlar ko‘proq yemiriladi, eroziyaga uchraydi, qattiq jinslar esa asta - sekin yemiriladi. O‘zansiz vaqtincha oqar suvlar pirovard natijada yonbag‘irlarda jilg‘alar va soyлarni vujudga keltiradi, ya’ni o‘zanli oqadigan suvlar uchun asos yaratib beradi. O‘zansiz oqar suvlarning mahsulotlari yaxshi saralanmagan va silliqlanmagan bo‘ladi.

Dastlab yog‘in-sochin suvlari yer yuzasida yalpi oqim hosil qilib oqadi. Bunda yoppasiga yuvish kuzatiladi. Bunday jarayonlar delyuvial (lotinchadan «delyuo» – yuvaman degan ma’noni anglatadi) jarayonlar, ular shakllantirgan yotqiziqlar esa delyuviy deyiladi.

Yuzada yoppasiga oqayotgan oqim o‘znlarga birlashadi va o‘zanli oqimlarni hosil qiladi.

O‘zanli suv oqimlar quyidagi muhim geologik ishlarni bajaradi:

- chuqurlatish eroziyasi (yuqori oqimda), yuvish, o‘yish;
- hosilani olib ketish (yuqori va o‘rta oqimda) va yemirish;
- saralanmagan yotqiziqlarni (quyi oqimda) to‘plash.

O‘zanli suv oqimlar vaqtincha va doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi turlarga bo‘linadi.

## 10.6. Vaqtinchalik suv oqimlarining geologik ishi

Vaqtinchalik suv oqimlari tog‘li hududlarda chuqur daralarni, tekisliklarda esa jarlarni hosil qiladi.

Tog‘ yonbag‘irlarida davriy ravishda vaqtinchalik suv oqimlari vujudga kelib turadi. Ular ko‘ndalang kesimi V shakldagi va bo‘ylama profili katta nishablikka ega bo‘lgan notejis o‘znlarni hosil qiladi. Kuchli yomg‘ir va jala vaqtida ushbu o‘znlardan to‘lib suv oqadi. Bu oqimlar o‘zi bilan ko‘p miqdorda qattiq va turli o‘lchamdagilari nurash mahsulotlarini oqizib ketadi. Juda katta zichlikka

ega bo'lgan bunday oqimlar o'zanni ham yuvadi. Tekislikka chiqqandan keyin oqimning tezligi keskin kamayadi va olib keltirilgan barcha bo'lakli material cho'kmaga o'tib, planda konus shaklidagi prolyuvial yotqiziqlarni hosil qiladi. Bunday yotqiziqlar o'zining differensatsiyalanmagani bilan xarakterlanadi va ular *chiqaruv konuslari* deb ataladi (10.16-rasm).



*10.16-rasm. Chiqaruv konusi.*



*10.17-rasm. Jarliklar tizimining rivojlanishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.)*

monlar, ayniqsa tropik o'rmonlar va, hatto, tik yonbag'irdagi yuvish jarayonlarini ham birmuncha sekinlashtiradi. O'simliksiz va o'simlik siyrak o'sadigan yerlarda eroziya kuchli bo'ladi.

Tekislik hududlarda yumshoq lyossimon jinslarning yuvilishi natijasida *jarlar* hosil bo'ladi. Jarlar yumshoq jinslarda juda tez rivojlanadi. Jarlar bir-biriga tutashib jarliklar tizimini hosil qiladi. Jarliklar tizimining rivojlanishi qishloq xo'jaligiga katta ziyon yetkazadi, ularning rivojlanishi tufayli ko'plab ekin maydonlari ishdan chiqadi (10.17-rasm).

Bunday joylardagi o'simliklar, qalin o'r-

O'rta Osiyodagi tog'larning etaklarida hosil bo'lgan prolyuvial yotqiziqlar vaqtincha o'zanli oqar suvlar hosilasidir. Tog' etagida hosil bo'lgan chiqaruv konuslari ustida qishloq, shaharlар barpo etilgan. Masalan, Marg'ilon, Qo'qon, Konibodom shaharlari xuddi shundaylardan.

Daryo vodiysining vujudga kelishi va rivojlanishida ham o'zanli vaqtincha oqar suvlar katta ahamiyatga ega. O'rta Osiyo daryolarining o'rta, yuqori oqimlarida o'zanli oqar suv keltirgan cho'kindilar eroziya bazasiga, ya'ni daryo o'zaniga yoki tog' etagiga ko'plab to'planadi. Tog' etagida yig'ilgan prolyuvial yotqiziqlar bir necha yuz ming m<sup>2</sup> maydonni qum, shag'al, xarsang va lyossimon jinslar bilan to'ldirib, ustki ko'rinishi konus shaklini hosil qiladi. Umuman, o'zanli vaqtincha oqar suvlar mahsuloti - prolyuvial yotqiziqlar deyarli yaxshi saralanmagan va lyossga nisbatan og'irroq, 1,4-1,5 g/sm<sup>3</sup>, g'ovakligi taxminan 46%, tarkibida oson eriydigan tuzlar eol lyossidagiga nisbatan kam, donadorligi va mineralogik tarkibi esa, eol lyossiga o'xshab ketadi.

*Prolyuvial lyossimon jinslar* vaqtincha oqar suvlar keltirgan mayda zarrali jinslar bo'lib, unimg tuzilishi eol jarayonida paydo bo'lgan jinslarga o'xshab, ko'pincha qatlam - qatlam bo'ladi. Ba'zan unda qum qatlamchalari, linzalari va yirik donali materiallar uchraydi. Lyossimon jinslar uzoq vaqt namlansa, g'ovakligi kamayadi. Prolyuvial lyossimon jinslar tog' etagida va keng vodiylarda to'planadi. Qalinligi bir necha 10 m dan 100 m gacha boradi, ular tub jins va shag'al ustida yotadi.

*Delyuvial lyossimon jinslar* tog' yonbag'irlarida, gumbazsimon tepaliklarda, jar va daryo supalarining yonbag'irlarida keng tarqalgan. U sarg'ishsimon, mallasimon bo'z tuproqdir. Gorizontal bo'yicha bir xil, vertikal bo'yicha esa, turlicha o'zgarish (tovlanish) xususiyatiga ega. Unimg bunday o'zgarish xususiyatiga ega bo'lishi o'zi paydo bo'lgan ona jinsnинг tarkibiga bog'liq. G'.O.Mavlonov delyuvial lyossimon jmslarni ikkiga ajratadi; birinchisi asosan mayda donali tuproqlardan iborat: unda chaqiq, yirik donali mahsulotlar (yirik qum, chag'irtosh, shag'al va qum linzalari) aralashgan bo'ladi. Bunday jinslar tog'li va baland tog'li o'lkalarning yonbag'irlarida keng tarqalgan.

Delyuvial lyossimon jinslar yonbag'irdagi yog'in suvlarini surib, sidirib keltirishidan to'planadi. Ularning qalnligi bir necha santimetrdan bir necha o'n metrgacha boradi. Ikkinchi xil delyuvial lyossimon jinslar asosan changsimon va gil zarralardan iborat bo'lib, ularda chaqiq jinslar uchramaydi. Ular asosan yalangliklarda tarqalgan lyoss va lyossimon jinslardan iborat bo'lib, ko'hna supalarning yemirilib, qayta yotqizilishidan vujudga kelgan.

*Ellyuvial lyossimon jinslar* sarg'ish - bo'z yoki malla - bo'z rangda bo'ladi. Ular asosan g'ovak, mayda donali, ko'pincha saralanmagan, o'zi paydo bo'lgan tub jins ustida yotadi, ostida va orasida siniq jinslar bo'ladi. Ellyuvial lyossimon jinslar tog'lardagi kichik maydonchalar, masalan, suvayrg'ichlarda, qirlar ustida va suv yuvmaydigan joylarda uchraydi. Ularning qalnligi bir necha santimetrdan 2 - 3 m ga boradi.

### **O'tkazilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar**

1. Vaqtincha oqar suvlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. O'zanli va o'zansiz suv oqimiga qiyosiy tavsif qanday beriladi?
3. O'zanli suv oqimining xususiyatlarini gapirib bering.
4. Sel hodisasi va uning oqibatlari haqida qanday fikr dasiz?
5. Lyoss, lyossimon jins va ularning genezisi to'g'risida qanday g'oyalar bor?
6. Daryo deganda nimani tushunasiz?
7. Daryolarning hosil bo'lishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
8. Supa nima? Qayirchi?
9. Daryo vodiylarining qanday genetik turlari bor?
10. Delta, vodiy va havza nima?
11. Allyuviyning teksturasi va strukturasini tahlil qilish orqali nimalarni bilib olish mumkin?
12. Bo'laklarning mo'ljallanishi bo'yicha oqim yo'nalishi qanday aniqlanadi?

## **DOIMIY OQAR SUVLAR**

### **11-bob. DOIMIY OQAR SUVLAR - DARYOLARNING GEOLOGIK ISHI**

#### **REJA**

- 1. Doimiy oqar suvlар-daryolarning geologik ishi.**
- 2. Tashish (transportirovka).**
- 3. Allyuviyning shakllanishi (akkumulatsiya).**
- 4. Tog‘ va tekislik daryolarining allyuvial yotqiziqlari.**
- 5. Daryolarning foydali qazilmalari.**

**Kalit so‘zlar;** Doimiy oqar suvlар, jar, jarlik, elyuviy, delyuviy, prolyuviy, yoyilma, lyoss, lyoss genezisi, sel, daryo, eroziya, denudatsiya, Kolorado kan’oni, allyuviy, qoldiq ko‘llar, delta, eroziya bazisi, supa, qayir, o‘zan fatsiyasi, qayir fatsiyasi, daryo vodiysi, daryo havzasи, daryo ryablari,bir tomonlama qiyshiq qatliliklar.

#### **11.1. Doimiy oqar suvlар-daryolar haqida umumiyyatli ma’lumotlar**


O‘zanlardan yil bo‘yi uzluksiz harakatlanadigan suv oqimiga doimiy oqar suvlар yoki daryolar deb ataladi. Daryolar kontinentlar yuzasining relyefini o‘zgartiruvchi keng ko‘lamli denudatsion va akkumulyativ ishlarni bajaradi.<sup>86</sup> Ular muhim xalq xo‘jalik ahamiyatiga ega. Daryolarning suvlари ichimlik va sanoat suvi ta’midotida, ekm maydonlarim sug‘orishda, arzon elektroenergiya ishlab chiqarishda assosiy manba sanaladi.

Daryolarning suv sarfi vaqt davomida o‘zgarib turadi. U daryolarning to‘yinish turiga va iqlim xususiyatlariiga bog‘liq bo‘ladi. Daryolar yer yuzasi va yerosti suvlardan to‘yinadi. Har qanday daryo uchun ham to‘lib oqish va sayozlashuv xarakterli bo‘ladi. To‘lib oqish vaqtida suv miqdori 5-20 martaga ortishi mumkin.

<sup>86</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 222.

**Doimiy oqar suvlarning geologik ishi.** Daryolarning geologik ishi va suv oqimining kuchini bobokolonimiz Beruniy Amudaryo misohda chuqrur o'rganib, keyinchalik Beruniy qonuni deb atalgan qonunni kashf etgan. Bu qonun quyidagicha tavsiflanadi; «Daryolarda tashilayotgan bo'laklarning o'lchami shu daryodagi suv oqimining tezligiga to'g'ri proporsionaldir, formulasi quyidagicha:  $v = \sqrt{15gd} + 6g$  mm/s. Bu joyda  $v$  - suv oqimining tezligi,  $d$  - cho'kindi jinslarning diametri,  $g$  - oqim tezligi.

Daryolarning eroziya ishida cho'kindi tog' jinslarining differensiatsiyasi juda katta ahamiyatga ega. Materiallar differensiatsiyasi tufayli daryolarning yuqori qismida yirik bo'lakli xarsantoshlar va g'o'latoshlar, o'rtal qismida graviy va qumlar, quyi qismida esa yaxshi silliqlangan va dumaloqlangan alevrit zarralari cho'kmaga o'tadi. Materiallar differensiatsiyasi tog' jinsi bo'laklarining solishtirma og'irligiga qarab ham amalga oshishi mumkin. Daryolaming yuqori oqimida solishtirma og'irligi katta bo'lgan minerallar va quyi qismlarida solishtirma og'irligi kichikroq bo'lgan minerallar va tog' jinslari bo'laklari cho'kmaga o'tadi.<sup>87</sup>



**11.1-rasm. Doimiy oqar suvlarning geologik ishi.**  
(*Understanding Earth*, J. Grotzinger va b.)

Daryo oqimlari energiyasi suvning massasi va oqimining tezligiga bog'liq. Oqim tezligi qancha katta va suvi ko'p bo'lsa, u

<sup>87</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan p 297, F. Press, R. Siever 2007 p 438,439.

shunchalik ko‘p ish bajaradi. Daryoning ishi quyidagilardan iborat bo‘ladi (11.1-rasm):

– eroziya (yuvish);

– nurash va eroziya jarayonida hosil bo‘lgan bo‘lakli jinslarni va erigan moddalarni tashish;

– akkumulyatsiya (to‘plash, yotqizish)

Daryoning oqim kuchi (K) va tashiluvchi yukning (L) nisbatiga bog‘liq holda yuqorida qayd etilgan daryolar bajaradigan ish turlarining nisbati o‘zgarib turadi. Bunda uch xil variant bo‘lishi mumkin:

K > L - eroziya ustuvorlik qiladi. Bu ko‘tarilayotgan yosh tog‘ daryolarida kuzatiladi;

K + L - eroziya va akkumulatsiya o‘rtasida muvozanat o‘rnataladi;

K < L - akkumulatsiya ustuvorlik qiladi.

Bu keltirilgan nisbatlar bir daryoning turli qismlarida va vaqt davomida o‘zgarib turadi. Bu yer po‘stining harakatlari, mexanik ta’sirga bardoshligi turlicha bo‘lgan jinslarning oqim bo‘yicha almashinishi, vaqtincha oqar suvlarning chiqaruv konuslari bilan o‘zanning to‘sib qo‘yilishi va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dastlabki bosqichlarda daryoning rivojlanishi regressiv eroziya tufayli eroziya bazisidan oqin bo‘yicha balandga qarab boradi.


Agar daryo oqimi yo‘nalishi bo‘yicha qoyali zinalar (ostona) uchrasha, sharsharalar hosil bo‘ladi.

Daryodagi erozion jarayonlar, ularning yo‘nalganligi va nisbati daryo vodiysining rivojlanish bosqichiga bog‘liq. Ular o‘zandagi tub jinslarni yuvishdan iborat bo‘lgan chuqurlatish eroziyasi va vodiyni kengaytirishiga olib keluvchi yon eroziyaga ajratiladi.

***Chuqurlatish eroziysi.*** Daryo rivojlanishining boshlang‘ich bosqichlarida chuqurlatish eroziyasi ustuvor bo‘ladi. Bunda u eroziya bazisiga nisbatan muvozanatga kelish uchun jadal suratda o‘zining o‘zanini chuqurlatib yuvaboshlaydi. Eroziya bazisi eroziya chuqurligini belgilaydi. U asosiy daryo va uning irmoqlaridan iborat bo‘lgan butun bir tizimni rivojlantiradi.

***Yon eroziya.*** Daryo vodiylarida chuqurlatish eroziyasi bilan bir qatorda yon eroziya ham rivojlanadi. Daryo rivojlanishining dastlabki bosqichlarida uning hissasi juda kam bo‘ladi. Muvozanatlik

profilining shakllanishi davomida chuqurlatish eroziyasi susayib boradi va yon eroziya bilan almashadi. Yon eroziya tufayli daryo har ikkala sohilini yuvib, vodiyni kengaytirib boradi.<sup>88, 90</sup> (11.2-rasm).



11.2-rasm. Daryo vodiylarining yon eroziyasi.  
(*Understanding Earth.*, J. Grotzinger va b.)

## 11.2. Tashish (transportirovka).

Daryo oqimlari nurash va eroziya jarayonlarda hosil bo'lgan materiallarni oqimga qo'shib oladi va ularni oqim yo'nalishida tashiy boshlaydi. Bunday tashish turli usullarda sodir etiladi: 1) o'zan tubida dumalatish; 2) loyqa sifatida muallaq holda, 3) kolloid va chin eritmlar holida.<sup>89</sup>

O'zan tubida dumalatish yo'li bilan ko'chiriladigan material chuqurlatish eroziyasini kuchaytiradi va o'zi ham asta-sekin maydalani va dumaloqlanadi. Shu yo'sinda g'o'latoshlar, graviy va qum donalari vujudga keladi.

Daryo suvlarida erigan holda karbonatlar ( $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{MgCO}_3$ ,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ), sulfatli birikmalar ( $\text{CaSO}_4$ ,  $\text{MgSO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ), tuzlar va kremnezyom tashiladi. Erigan moddalarining 60% karbonatlardan iborat bo'ladi.

<sup>88</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 228.

<sup>89</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 435

<sup>90</sup> Essentials of Geology - Fredenck K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. p 223..

### **11.3. Allyuviyning shakllanishi (akkumulatsiya)**

Daryolarning eroziya ustuvor bo'lgan dastlabki rivojlanish bosqichiaridayoq uning ba'zi uchastkalarida bo'lakli jinslar to'plana boshlaydi. Oldin bu yotqiziqlar turg'un bo'lmaydi. Daryolar to'lib oqqanda, suv hajmi va oqim tezligi oshishi tufayli, ular yana oqimga qo'shib ketadi va pastga qarab tashila boshlaydi. Ammo muvozanat profili shakllanishida va vodiyning kengayib borishi jarayonida doimiy turg'un bo'lgan yotqiziqlar to'plana boshiydi. Bunda birinchi navbatda oqimning quyi qismida, muvozanat maydonida cho'kmdilar to'planadi. Keyinchalik *regressiv* eroziyaning rivojlanishi va muvozanat profilining shakllanishi daryo vodiysining boshqa qismlarida ham akkumulyatsiya uchun sharoit tug'diradi.

Daryo oqizib kelgan yotqiziqlarni allyuvial yotqiziqlar deb ataladi. Allyuviy kontinental yotqiziqlarining muhim genetik tipi sanaladi. Ular turli yoshdagи yotqiziqlarda uchraydi. Ularning to'rtlamchi davr yotqiziqlari kesmasida ahamiyati juda kattadir. Allyuvial yotqiziqlar daryo supalarini va keng allyuvial vodiylarni qoplab yotadi. Ular yirik bo'lakli tog' jinslaridan tortib to mayda donali qumlar va alevrit zarralaridan tarkib topgan bo'ladi. Alyuvial yotqiziqlar orasida o'zan va qayir fatsiyalari ajratiladi. Odatda o'zan fatsiyasi yirik bo'lakli, qayir fatsiyasi esa mayda zarrali cho'kindilardan tarkib topgan bo'ladi.

Bevosita daryo o'zani hosil qilgan yotqiziqlar o'zan allyuviyi (fatsiyasi) deyiladi. Ular butun vodiy maydonini qoplab yotadi. Ko'p hollarda tekislik daryolarining o'zan fatsiyasi yaxshi saralangan turli donali qumlardan iborat bo'ladi. Kesmasining asosida esa graviy qo'shimchalariga ega bo'lgan dag'al donali qumlar uchraydi.

Allyuvial yotqiziqlar o'zandagi suv oqimlarining bo'lakli materiallarni tashishi tufayli hosil bo'ladi. Ular uzan tubida, qayir va qayrusti supalari tagida rivojlangan bo'ladi. Tog' va tekislik daryolarining allyuviy yotqiziqlari ajratiladi.

### **11.4. Tog' daryolarining allyuvial yotqiziqlari.**

Tog' daryolari kuchli oqim tezligi, oqiminng tartibsiz turbulentligi bilan farq qiladi. Bunda o'zanda yirik bo'lakli material tashiladi.

Tog‘ daryolarimeng allyuvial yotqiziqlari asosan graviy va dag‘al donali qum linzalariga ega g‘o‘laktoshlardan iborat bo‘ladi, bo‘laklarining dumaloqlanganligi va petrografik tarkibining xilmassisligi bilan farq qiladi (11.3-rasm). G‘o‘laktoshlarning joylashishida oqimga qarshi qiyalangan mo‘ljallanish kuzatiladi.



11.3-rasm. Daryo o‘zanidagi allyuvial jinslar.

**Tekislik daryolarining allyuvial yotqiziqlari.** Tekislik daryolari allyuviyi tarkibida qumlar ustuvorlik qiladi, ammo g‘o‘laktoshlar, graviy, qum, supes, suglink, gillar, torf bo‘lishi mumkin. Allyuviyning o‘zan, qayir va staritsa fatsiyalari ajratiladi.<sup>90</sup>

O‘zan fatsiyasi g‘o‘lak-qumli materialdan iborat bo‘ladi.

Qayir allyuviyining qum-gilli fatsiyasi o‘zan allyuviyini qoplab yotadi. Allyuvial yotqiziqlarning bunday ikki hadli tuzilishi ularning xarakterli xususiyati hisoblanadi.

Allyuviyning staritsa fatsiyasi daryoning oldingi o‘zanidagi linzalardan iborat bo‘ladi.

O‘zan allyuviyi daryoda suv to‘lib oqqanda shakllanadi va meandrarning siljishi tufayli vodiy tubining butun yuzasi bo‘ylab o‘tadi. O‘zan allyuviyi oqimning yuqori tezligi sharoitida to‘planganligi sababli yirik donali tarkibi, yaxshi saralanganligi va dumaloqlanganligi hamda mineral-petrografik tarkibining turli-

<sup>90</sup>Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 224

tumanligi bilan xarakterlanadi. Daryolarning quyi oqimida bardoshli minerallar ko'pchilikni tashkil etadi. Tekislik daryolari o'zan fatsiyasining bosh komponenti bo'lib yaxshi yuvllgan qiyshiq qatqatlari qumtoshlar sanaladi.

Qayir allyuviyi to'lib oqqan daryo oqimi tezligining keskin susayganida shakllanadi. U asosan qum qo'shimchalariga ega changsimon, alevritli va gilli zarralardan tarkib topgan bo'ladi.

### 11.5. Daryolarning foydali qazilmalari.

Daryo suvlar insonlar hayotida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli foydali qazilmadir. Bunda yana shuni ham ta'kidlash lozimki, daryolar suvning tabiatda uzliksiz aylanishida to'plangan tabiiy suv yo'llari va arzon elektr energiyasi manbai hisoblanadi.

Daryolar, allyuvial yotqiziqlar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Birinchi navbatda bu qurilish qumlari va g'isht gillari, yo'l qurilishida foydalananiladigan shag'al, graviy va qumlardir.

Daryolarning vodiylari nafaqat oddiy jinslarni, balki foydali qazilmalarni ham ochuvchl tabiiy tog' lahimlari sanaladi. Yer sharida daryolar ko'pligi sababli, ular yordamida ochilgan konlar ham sanoqsiz. Bunda sochilma konlarga alohida urg'u berish lozim.

**Sochilma** deb o'zida u-yoki bu foydali qazilmaga ega bo'lgan bo'lakli materiallar to'plamiga aytildi.

Allyuvial yotqiziqlar bilan sochilmalarning boy, birinchi navbatda oltin konlari bog'liq. Ularda platin, olmos, cassiterit, sheelit, monatsit kabi minerallarni sanoat tarzida ajratib olish uchun yetarli bo'lishi mumkin. Sochilmalar foydali qazilmalarning tub manbalari nurashi va foydali komponentlarning to'planishi jarayonida vujudga keladi. Sochilmalar hosil bo'lishiga iqlim ham ta'sir ko'rsatadi.

Allyuvial sochilmalar katta amaliy ahamiyatga ega. Ularning orasida o'zan, vodiy va supa sochilmalari kabi turlari ajratiladi. Sochilmalar suv oqimi o'z tezligini keskin susaytirgan joylarda hosil bo'ladi, bunda og'ir minerallar cho'kmaga o'tadi. Turli jinslar ostida qolib ketgan va hozirgi suv tarmoqlari ta'siridan chetda qolib ketgan sochilmalar ko'milgan sochilmalar deyiladi. Vodiy sochilmalari

ko'proq ahamiyatli bo'ladi. Relyefning rivojlanishi tufayli o'zan sochilmalari vodiy sochilmalari, ular esa supa sochilmalariga aylanadi.

Saralangan allyuviy jinslarida g'ovaklik darajasi yuqori bo'lganligi sababli ularda yerosti suvlarining linzalari, uglevodorod flyuidlarining konlari rivojlangan bo'ladi.

### **O'tkazilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar**

1. O'zanli va o'zansiz suv oqimiga qiyosiy tavsif qanday beriladi?
2. Uzanli suv oqimining xususiyatlarini gapirib bering.
3. Sel hodisasi va uning oqibatlari haqida qanday fikrdasiz?
4. Lyoss, lyossimon jins va ularning genezisi to'g'risida qanday g'oyalar bor?
5. Daryo deganda nimani tushunasiz?
6. Daryolarning hosil bo'lishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
7. Supa nima? Qayirchi?
8. Daryo vodiyalarining qanday genetik turlari bor?
9. Delta, vodiy va havza mima?
10. Allyuviyning teksturasi va strukturasini tahlil qilish orqali nimalarni bilib olish mumkin?
11. Bo'laklarning mo'ljallanishi bo'yicha oqim yo'nalishi qanday amqlanadi?

## CHEKSIZ UMMONLAR

### 12-boh. DENGIZ VA OKEANLARNING GEOLOGIK FAOLIYATI. DENGIZ YOTQIZIQLARINING TURLARI

#### REJA

1. Dengiz va okeanlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar.
2. Materiklarning suvosti chetlari.
3. Dunyo okeani lojasи.
4. O‘rta okean tizmalari.
5. Dengiz va okeanlarning geologik isbi.
6. Dengiz va okeanlarda cho‘kindilarning to‘planishi.
7. Sohil (litoral) yotqiziqlari.
8. Shelf yotqiziqlari.
9. Batial cho‘kindilar.
10. Okean lojasи (abissal) yotqiziqlari.

**Kalit so‘zlar;** Dunyo okeani, litoral, shelf, batial, abissal, chuqursuv novlari, orollar yoyi, abraziya, rift vodiysi, sunami, estuariy, delta, sohilbo‘yi oqimlari, qaytuv oqimlari, sedimentogenez, dyunalar, marshlar, mangr o‘simliklari, qirg‘oqbo‘yi g‘ovi, flish yotqiziqlari, transformali yer yoriqlari, gidrostatik bosim, bentos, nekton, plankton, marjon riflari, atoll, laguna, to‘lqin, transgressiya, regressiya, kanyon, turbidit, qirg‘oq rifi, to‘sinq rifi, diatomli il, radiolyariyli il, qizil il

#### 12.1. Dengiz va okeanlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

Fransuz gidrografi Klare de Floriya Yer sharidagi bir - biriga tutashib ketgan barcha suvli hududlarni Dunyo okeani deb atagan. Dunyo okeani deganda barcha okeanlar va ularga tutashgan chekka dengizlar tushuniladi.

Dunyo okeani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Magellan, Dreyk, Kuk va boshqalar to‘plagan. Lekin okeanlarni ilmiy jihatdan o‘rganish 1873-yildan boshlangan. Shu yilda ingliz kemasi «Chelenjer» buyuk tabiatshunos olimlar J.Merre va A.Renar

boshchiligidagi tadqiqot ishlarini olib borishgan va 50 jildli hisobotni olimlar e'tiboriga taqdim etishgan.

Dunyo okeani ulkan akvarium bo'lib, unda ilk bor hayot paydo bo'lган va hozirga qadar rivojlanmoqda. Dunyo okeani gidrosferaning asosiy qismini (94 % ga yaqin) tashkil etadi va litosfera qatorida sayyoramiz yuzasining tuzilishida qatnashadi. 510 mln km<sup>2</sup> li Yer sirtining 361 mln km<sup>2</sup> maydonini, ya'ni 70 % dan ortig'ini Dunyo okeani akvatoriysi egallagan (12.1-rasm). Okean va dengizlardagi suv 850 mln km<sup>3</sup> ni yoki yer shari umumiy hajmining 0,13 % ni tashkil etadi.



*12.1-rasm. Dunyo okeani tubining  
topografik xaritasi.*


Oxota, Yapon, Karib va b.); 3) quruqlik ichiga ancha kirib borgan va okean yoki unga tutashgan dengiz bilan bo'g'oz orqali qo'shilgan kontinentichi dengizlari (O'rta yer dengizi, Qora, Boltiq, Oq va b.) kiradi. Kaspiy va Orol dengizlarini qoldiq dengizlar sifatida shartli ravishda shu qatorga qo'shish mumkin. Bu dengizlarning okeanlar bilan suv almashinishi qiyinligi tufayli ularning gidrodinamikasi, gaz rejimi va sho'rligi o'zgacha bo'ladi.

**Okeanlar relyefida uchta yirik geomorfologik birliklar:** materiklarning suvosti chekkasi, Dunyo okeani lojasи va o'rtaokean tizmalari (O'OT) ajratiladi (12.2-rasm).<sup>91</sup>

Eng yirik havza bo'lib Tinch okeani hisoblanadi, u Yer sirtining 1/3 ni qoplab olgan.

**Dunyo okeani ning tarkibiga:** 1) Atlantika, Tinch, Hind va Shimoliy muz okeanlari; 2) okeanlar bilan bevosita aloqada bo'lган va ulardan orollar, yarimorollar yoki suvosti tizmalari bilan ajralgan tashqi dengizlar (Barensev, Bering,

<sup>91</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P. 396.



12.2-rasm. Yer sirtining umumlashtirilgan profili.

## 12.2. Materiklarning suvosti chetlari.

Materiklarning suvosti chetlari yoki kontinental chetlar kontinentlar va okeanlar orasidagi zonalar hisoblanadi va uch turga bo'linadi. Bular **passiv** (atlantik), **faol** (tinchokeani) va **transformli** turlardir.<sup>92,93</sup>

Tinchokeani turidagi **faol** kontinental chetlar **passiv** atlantika turidan yosh vulkanizm, zilzilalar, tektonik deformatsiyalar, orolliyoylar va chuqursuv novlari tufayli relefining keskin parchalanganligada ifodalangan yuqori tektonik faolligi bilan farq qiladi.

**Transformli** kontinental chetlar kam tarqalangan bo'lib, materik yoki orollar sohili bo'ylab cho'zilgan yer yoriqlari bilan bog'liq.

**A) Atlantika turidagi passiv kontinental chetlar** uchun Shimoliy Muz okeani, Atlantika, Hind (zond yoyidan tashqari) okeanlari, Tinch okeanining antraktika chekkasi xos. Bunday kontinental chetlarda **shelf**, materik yonbag'ri va materik etagi ajratiladi (12.3-rasm).

**Shelf** bevosita quruqlikka tutashgan va dengizning sayoz qismidan iborat bo'ladi. Ko'p hollarda tubining nishabligi  $1^{\circ}$  dan oshmaydi. Shelfning okean tomonidagi chekkasida kontinent

<sup>92</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 397,398


<sup>93</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007 p 491-493

yonbag'riga o'tishida relyef nishabligining keskin oshgan joyini **shelf uвати** deyiladi. Tadqiqotlar shelf



**12.3-rasm. Passiv kontinent chet elementlari.**

keng bo'limgan zonani tashkil etadi. Unimg nishabligi 3 dan 6-7° gacha, ba'zan 10-15° gacha boradi.



**12.4-rasm. Kontinent yonbag'rining topografiyası.**

nishablikka ega, deyarli tik bo'ladi (12.4-rasm).


**Materik etagi** materik yonbag'ri va okean lojasiga orasidagi past nishablikdagi, kuchsiz to'lqinli tekisliklarni qamrab oladi. Uning kengligi o'nlab va yuzlab kilometrlarga, chuqurligi esa 3000-5000 m ga boradi. Bunda chio'kindi yotqiziqlar juda qalin bo'ladi. Bunday katta qalilik loyqa oqimlar (turbid) yordamida juda katta hajmdagi materiallarning keltirilishi bilan bog'liq (12.5-rasm).

uvatining o'rtacha 200 m cho'qurlikda joylashganligini ko'rsatadi. Shelf kengligi bir necha o'n kilometrdan 800-1000 km gacha o'zgaradi.

**Materik yonbag'ri** dengiz tubini okean tomondan ajratib turuvchi va 2000-2500, ba'zi joylarda 3000 m chuqurlikkacha boradigan uncha

Materik yonbag'ri yuzasi ko'p sonli suvosti kanonlari bilan murakkablashgan. Ko'pchilik kanonlar hozirgi daryolarning (Gudzon, Kongo, Amazonka, Hind va b.) quyulishidan boshlanadi, shelf va kontinental yonbag'irni kesib o'tib, kontinent etagida tugaydi. Bunday kanonlarning chuqurligi 1000 m gacha boradi. Ularning tubi yassi, bortlari katta

**B) Tinchokeani turidagi faol kontinental chetlar atlantika turidagilarga qaraganda relyefining keskin parchalanganligi va yuqori tektonik faolligi bilan farqlanadi (12.5-rasm).**



*12.5-rasm. Atlantika turidagi passiv va Tinchokeani turidagi faol kontinental chetlar. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).*

Ular dengiz kotlovinalari (Oxota, Yaponiya va b.), orollar yoyi (Kuril, Yaponiya va b.) va chuqursuv novlari orqali okean lojasи bilan tutashadi.

*Dengiz kotlovinalari* oval yoki izometrik shakldagi botiqliklardan iborat bo'ladi. Ularning chuqurligi 3-5 km ga boradi.

*Orollar yoyi* – bu o'zining cho'qqilari bilan dengiz sathidan chiqib turadigan suvosti tog'laridir. Ular Tinch okeanida keng tarqalgan. Komandor-Aleut, Kuril, Yapon, Mariana va boshqalar shular jumlasidandir. Hind okeanida Zond orollar yoyi, Atlantika okeanida esa Antil va Janubiy Antil orollar yoyi mavjud. Okean tomonidan orollar yoyi chuqursuv novlari bilan chegaralangan bo'ladi va ulardan keyin Dunyo okeani lojasи boshlanadi.

*Chuqursuv novlari* orolli yoylar bilan chambarchas bog'liq, ular bilan tutashgan, bu yoymarning tashqi yonbag'irlari bo'ylab cho'zilgan. Bular tor, ba'zan deyarli daralardek, kengligi 100-120 km, chuqur, katta masofalarga cho'zilgan botiqliklardir.

*Chuqursuv novlari* orollı yollar bilan chambarchas bog'liq, ular bilan tutashgan, bu yoylarning tashqi yonbag'irlari bo'y lab cho'zilgan. Bular tor, ba'zan deyarli daralardek, kengligi 100-120 km, chuqur, katta masofalarga cho'zilgan botiqliklardir.

Deyarli barcha chuqursuv novlari Tinch okeanining g'arbiy qismida joylashgan. Janubiy Amerikada faqat bitta - Peru-Chili chuqursuv novi mavjud.

### 12.3. Dunyo okeani lojasi.

Dunyo okeani lojasi 3-4 dan 6 km gacha bo'lgan chuqurlikda joylashgan bo'lib, okeanlarning 50 % dan ortiq maydonini egallaydi. Uning relyefida **abissal** (yunoncha «abisos» - tubsiz) tekisliklar hamda suvosti **tepaliklari** va suvosti **tog'lari** ajratiladi.

**Abissal** tekisliklar okeanlarning ancha qismini egallaydi hamda Atlantik okeanida chuqurligi 2-3 km va Tinch okeanida chuqurroq (6,5-6,9 km) kotlovinalardan iborat.

**Suvosti tepaliklari** abissal kotlovinalar orasida joylashgan bo'lib, ulardan 1000 m dan ortiq baland ko'tarilib turadi. Ular barcha okeanlarda, ayniqsa Tinch okeanida keng tarqalgan, okean lojasni maydonining 80-85 % ni egallaydi.

**Suvosti tog'larining** balandligi 1000 m dan ortiq bo'lib, yakka holda tarqalgan yoki okean lojasida qator hosil qilib, tizilgan. Ulardan ko'pchiligi konus shaklidagi suvosti **vulkanlardan** iborat. Tinch okeanida ularning soni mingdan ortiq, ba'zilari vulkan orollari zanjiri sifatida okean sathidan chiqib turadi (Gavay orollari).<sup>94</sup>

### 12.4. O'rta okean tizmalari

(O'OT) uzunligi 60 ming km dan ortiq bo'lgan yagona sayyoraviy tizimni tashkil etgan holda barcha okeanlarni kesib o'tadi. Ular Osiyo shelfidan Shimoliy muz okeani orqali Atlantika okeanim shimaldan janubga qarab qirqib o'tadi, Afrikani aylanib o'tib, Hind okeaniga kiradi.

Ularning balandligi okean lojasidan 3-4 km ga boradi, kengligi esa 1000-2000 km ni tashkil etadi. O'rta okean tizmalari markazi

\* Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 p 399,400.

bo'ylab yer yoriqlari bilan chegaralangan yirik bo'ylama botiqlik cho'zilgan bo'ladi. U **rift vodiysi** deb nomlanadi.

O'rtaokean tizmalarini ko'ndalangiga (har 50-100 km da) **transformli yer yoriqlari** kesib o'tadi. Ba'zan ular O'OT dan chiqib kontinental chetlargacha davom etadi. Ba'zi yer yoriqlarning uzunligi 3,5 ming km, vertikal amplitudasi 100 dan 4000 m gacha boradi. Transformali yer yoriqlari bo'ylab utsurilmalar va ochilmalar ham rivojlangan. Relyefda ular chuqur novlardan iborat.<sup>95</sup>

## 12.5. Dengiz va okeanlarning geologik ishi.

Dengiz va okeanlarda kechadigan geologik jarayonlar (bundan keym ixchamlik uchun dengizning geologik ishi deb yuritiladi) bir qancha omillarning murakkab o'zaro aloqasidan iborat bo'ladi. Bu omillarga quyidagilar kiradi: 1) sohillarni tashkil etgan tog' jinslarining parchalanishi yoki abraziya (lotincha «abrado»-qiraman, turmayman degan ma'noni anglatadi);<sup>96</sup> 2) quruqlikdan keltiriluvchi nurash mahsulotlarini tashish va saralash; 3) turli cho'kindilarni to'plash yoki akkumulatsiya.

**Dengiz va okeanlardagi mexanik harakatlar.** Okean va dengizlarda eng kuchli geologik ishlarni qirg'oqdagi to'lqinlar hamda suv oqimlari bajaradi.

Dengiz to'lqini chuqur joylarda mutlaqo sezilmaydi deb bo'lmaydi. Keyingi vaqtida okean va dengiz tagida ham turli yo'nalishda harakatlanuvchi kuchli oqimlar borligi aniqlandi. Bu iliq va sovuq oqimlar okean va dengizdagi yotqiziklarni bir joydan ikkinchi joyga olib borib to'plashdan tashqari, yer iqlimiga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi.

**Urinma to'lqinlar.** Dengiz to'lqinlari katta kuch bilan sohil va orollarga uriladi. Ba'zan to'lqin shu qadar kuchli bo'ladiki, 200 tonnadan 1000 tonnagacha og'irlikdagi harsang toshlarni ham surib yuboradi (12.6-rasm). Agar to'lqin sohilga burchak hosil qilib urilsa, uning kuchi ikkiga bo'linadi, ularning biri sohilga tik, ikkinchisi parallel bo'ladi. Birinchisi sohilga huddi yuqorida ko'rsatilgan to'lqin kabi ta'sir etadi, ikkinchisi uvalangan mahsulotlarni oqizib ketadi.

<sup>94</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 402.

<sup>95</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 313.



*12.6-rasm. Sohildagi urinma to'lqinlar ta'sirida jins bo'laklarining dumaloqlanishi.*  
[www//saga.ua](http://www//saga.ua)



*12.7-rasm. Dengiz sohilidagi urinma to'lqinlar.* [www//saga.ua](http://www//saga.ua)



*12.8-rasm. Dengiz sohilining urinma to'lqinlar ta'sirida yemirilishi.* [www//saga.ua](http://www//saga.ua)

Dengiz va okean suvi to'lqinining qirg'oqni yemirishi natijasida **to'lqin ini, g'orlar, ombor, qamar** hosil qiladi (12.7, 12.8-rasmlar). Shamol ta-siridan paydo bo'ladigan to'lqindan tash-qari, yana muttasil harakatlanib turadi-gan, Oy bilan Yerning tortilishidan vujudga keladigan suv ko'tarilishi va qaytishi, ya'ni qalqish to'lqinlari ham mavjuddir. Dengiz suvi har 6 soat 13 daqiqada ko'tarilib va pasayib turadi, buni suv qalqishi deb ataladi (priliv va otliv). To'lqinlarning

qirg‘oqni tez yoki sekin yemirishi sohildagi jinslar tarkibiga bog‘liq. Yumshoq jinslar (qum, gil, ohak) juda tez yemiriladi va dengiz supachalari - terrasalar hosil bo‘ladi. To‘lqin sohilga urilgach, materik sayozligi (shelf) da to‘plangan qoya sinqlarini u yoki - bu yoqqa dumalatib, bir qismini dengiz tagiga cho‘ktiradi, qolgan mayda va eriganini o‘zi bilan olib ketadi.

Dengizdagi geologik jarayonlar keng maydonda sodir bo‘ladi. Shu sababli to‘plangan yotqiziqlar qalin yoki yupqa qatlamlardan tashkil topib, katta maydonlarni qamrab oladi. Shunday qilib, dengiz va okeanlar katta ish bajaruvchi, behisob cho‘kindi va foydali qazilmalar makonidir.<sup>97</sup>

*Havza oqimlari*. Suv havzalarida materiallarni ko‘chiruvchi asosiy omillar turli havza oqimlari va qirg‘oq urunma to‘lqinlari hisoblanadi. Urunma to‘lqinlar qirg‘oqqa o‘tkir burchak ostida ta’sir etganda ularning qirg‘oqqa urilishi va simmetrik burchak ostida qaytishi tufayli cho‘kindi materiallar sohil bo‘ylab surila boshlaydi va bu jarayon materiallarning tabiiy to‘siqlar ortida to‘planishigacha davom etadi.

Havza oqimlari turli sabablar: shamol harakati natijasida (doimiy va davriy oqimlar), suv qatlamlari zichligi orasidagi farq tufayli (konveksion oqimlar) va suv sathining ko‘tarilishi-pasayishi ta’sirida hosil bo‘ladi. Havza oqimlari dengiz shelfi suvlarini 200-500 m, ba’zan 1000-2000 m chuqurlikkacha aralashtirib turadi. Dengiz oqimlarining tezligi 0,02 dan 2-3 m/sek va ba’zan undan ham yuqori bo‘lishi mumkin. Bu quruqlik tekisliklari va ba’zi tog‘ daryolari oqimi tezhgi bilan tenglashish darajasidadir.

Dengiz oqimlarining ba’zilari shamol ta’siri tufayli vujudga keladigan to‘lqinlanish bilan bog‘liqidir. Urinma to‘lqinlar qirg‘oqqa o‘tkir burchak ostida ta’sir etsa *sohilbo‘yi oqimlari* vujudga keladi.<sup>98</sup> Bunday oqimlar to‘lqinlarning qirg‘oqni yemirishidan hosil bo‘lgan va quruqlik suv oqimlari keltirgan materiallarni sohil bo‘ylab tashiydi. Sohilbo‘yi oqimlarining tezligi va chuqurligi shamol kuchiga va to‘lqm amplitudasiga bog‘liq.

Havza to‘lqinlari qirg‘oqqa nisbatan tik urilganda to‘lqinlanish natijasida qirg‘oq tomon keltirilayotgan suv massasi qarama-qarshi

<sup>97</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 402.

<sup>98</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 312.

yo' nahshda dengiz tubi bo'ylab harakat qiluvchi *qaytuv oqimlarini* vujudga keltiradi.<sup>99</sup><sup>100</sup> Bunday oqimlar dengiz tubi notejis bo'lganda ma'lum o'zanlarga birlashishi va bunda ularning tezligi to'lqin tezligidan bir necha marta ortiq bo'lishi mumkin. Qaytuv oqimlari dengiz suvi sathining Oy va Quyosh tortish kuchining ta'siridagi davriy ko'tarilishi (priliv) natijasida ham vujudga keladi.


Yuqorida qayd etilgan oqimlardan tashqari havzaga quyuluvchi quruqlik daryolarining davomi hisoblangan dengiz tubi oqimlari ham mavjud bo'ladi. ularning uzunligi shelf yuzasi bo'ylab katta masofalarga, ba'zan kontinent yonbag'rigacha yetishi mumkm. Ularning orasida eng muhimini *turbid oqimlaridir*.

**Turbid (loyqa) oqimlar.** Turbid oqimlari (inglizcha – «turbid» – loyqa; sinonimi – suspenzion oqimlar, zich oqimlar) birinchi marta gollandiyalik olim Kyunen tomonidan asoslangan bo'lib, loyqa suvning yuqori zichligi tufayli nishablik yuzasi bo'ylab pastga oquvchi

gravitatsion oqimlar ko'zda tutiladi. Bunday oqimlar tarkibidagi muallaq mayda dispers zarralar hisobiga katta zichlikka egadir.

Turbid oqimlarining asosiy qismi materik yonbag'ida vujudga keladi. Ular okeanlarning cho'kindi to'planish jarayonlarida yetakchi ahamiyatga ega.<sup>100</sup><sup>101</sup>

Turbid oqimlari dastlab qiya yuzada yaxlit holda oqadi va keyinchalik ma'lum o'zanlarga birlashadi. Yirik o'lchamdag terrigen materiallar oqimning boshida va ostki yuzasida to'planadi. Oqimning



**12.9-rasm. Turbid oqimlarining cho'kmaga o'tishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).**

<sup>99</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P.314,315.

<sup>100</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P.398

<sup>101</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p.492-493.

ustki yuzasida va oxirida dispers materiallar shleyfi hosil bo‘ladi (12.9- rasm).

Turbid oqimlarida yirik terrigen materiallarning ko‘chirilishi o‘zan tubini yemirilishga olib keladi. Bu jarayon kontinent yonbag‘rida ko‘plab kanonlarning rivojlanishini ta’minlaydi. Haqiqatan ham hozirgi zamon kontinent yonbag‘irlarida juda ko‘p shunday kanonlar kuzatiladi. Ularning ba‘zilari quruqlik daryolarining dengiz shelfi bo‘ylab o‘tgan davomi bilan uzviy aloqador.

Turbid oqimlari kanonlardan abissal tekislikka chiqqanidan so‘ng, ichki va tashqi qarshiliklar tufayli, ularning harakat impulsi pasayib boradi. Natijada turbid oqimlarining harakat tezligi va turbulentligi susayadi, tashib keltirgan terrigen zarralari cho‘kish tezligi qonunlari bo‘yicha cho‘ka boshlaydi.

## 12.6. Dengiz va okeanlarda cho‘kindilarining to‘planishi.

Cho‘kindi materialning asosiy qismi materiklarda emas, balki dengiz va okean havzalarida to‘planadi. Dunyo okeani ulkan rezervuar bo‘lib, unga cho‘kindi material turli yo‘llar bilan tashib keltiriladi. Daryolar, sohildagi abraziya jarayonlari, muzliklarning erishi, aysberqlar, shamol, vulkan otilishi tufayli hamda organik qoldiqlarning to‘planishi va bevosita kimyoviy cho‘kish natijasida yotqiziqlar hosil bo‘ladi.

Xuanxe, Missisipi, Amazonka, Yanszi va b. yirik daryolar juda ko‘p miqdorda cho‘kindi material tashib keltiradi.

Dengiz va okean havzalariga keltirilgan cho‘kindi material cho‘kmaga o‘tadi. Bu jarayon *sedimentogenet* deyiladi.<sup>102</sup>

Dengiz yotqiziqlari **tarkibi va kelib chiqishi** turlicha bo‘lgan cho‘kindi materialdan tarkib topgan bo‘ladi va ularning shu belgilariga qarab quyidagi turlari ajratiladi.

- **terrigen;**
- **biogen yoki organogen;**
- **xemogen;**
- **vulkanogen.**

**Terrigen** cho‘kindilar asosan sohilbo‘yida va shelfda tarqalgan, ammo turli miqdorda boshqa joylarda ham uchraydi.

<sup>102</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007 p 500.

## 12.7. Sohil (litoral) yotqiziqlari

**Sohil (litoral) yotqiziqlari** – bu priliv vaqtida suv bilan qoplanadigan va otliv vaqtida qurib qoladigan sohilbo‘yi cho‘kildilaridir. Sohil yotqiziqlari turli-tuman bo‘ladi va tarkibi qisqa masofalarda o‘zgaradi.

Baland qoyali sohilda faol urinma to‘lqinlar ta’sirida dag‘al bo‘lakli material hosil bo‘ladi.

Yassi sohillarda turli donali qumlar to‘planib, keng plyajlarni va qum g‘ovlarini tashkil qiladi. Ular sohildan uzoqlashtagan maksimal shtormli to‘lqinlar ta’sirida hosil bo‘ladi. Plyaj orqasida undan shamol faoliyati tufayli olib ketilgan qumlar evaziga **dyunalar** qatori vujudga keladi (12.10-rasm). Qumli dyunalar odatda snamollarning ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha mo‘jalangan bo‘ladi.



12.10-rasm. Sohil yaqinidagi dyunalar. [www/saga.ua](http://www/saga.ua)



12.11-rasm. Dengiz sohiliidagi marshlar. [www/saga.ua](http://www/saga.ua)



12.12-rasm. Mangr botqoqligi. [www/saga.ua](http://www/saga.ua)

boshqa organik qoldiqlarning qatlamchalarini bilan ritmik almashib yotuvchi illar xarakterli bo‘ladi.

Faqat priliv yoki ko‘chli to‘lqinlarda suv bilan qoplanuvchi past qiyalikdagi akkumulyativ dengiz sohillari **marshlar** deyiladi (12.11-rasm). Bu joylar da o‘ziga xos o‘simliklar o‘sadi va torf to‘planadi. Ular uchun torf va

Ayniqsa tropik o'lkalarda ko'p miqdorda mayda zarrali cho'kindi material to'planadi. Davriy ravishda suv dyunalar bilan qoplanib turuvchi tropik sohillarda **mangr o'simliklari** bilan qoplangan (mangrli sohil) keng botqoqolashgan uchastkalar hosil bo'ladi (12.12-rasm). Bu joylarda o'simlik qoldiqlari bilan boyigan qora balchiqlar to'planadi va ular keymchalik ko'mirga aylanadi.

## 12.8. Shelf yotqiziqlari.

**Shelf yotqiziqlari** (yoki sublitoral) o'zining turli - tumanligi bilan farq qiladi va cho'kindi hosil bo'lish jarayonlarining rang - barangligini aks ettiradi.



12.13-rasm. Dengiz sohilidagi abraziya jarayonlari. [www/saga.ua](http://www/saga.ua)

Shelfda **terri-gen, organogen va xemogen** cho'kindilar to'planadi.

**Terrigen cho'kindilar** shelfda keng tarqalgan, ularning asosiy manbai bo'lib dar-yolar hisoblanadi. Qoyali sohillarda faol abraziya jarayonlar ham kechadi

(12.13-rasm). To'lqinlar ta'sirida **bo'lakli materiallar** saralanadi. Sohil yonida dag'al bo'lakli material to'planadi, dengiz ichiga qarab materiallarning o'lchamlari g'o'lak-graviv-qum-alevrit-gil qatorida kichrayib boradi.

Shiddatli to'lqin natijasida qirg'oq jinslardan uvalanib tushgan barcha siniq materiallar sohilning sayoz joylarida to'planadi. Bu materiallar to'lqinning doimiy ta'sirida bo'lib, dumaloqlanadi, silliqlanadi va katta - kichikligiga ko'ra saralanadi (12.14, 12.15-rasmlar). To'lqm keltirgan qum va shag'al uyumlari qirg'oq bo'ylab unga parallel holda joylashadi va **qirg'oqbo'yi g'ovi** deb ataladi (12.16, 12.17-rasmlar). Sohil g'ovlari orasida qum va shag'allardan tashqari, dengiz hayvonlarining chig'anoqlari ham uchraydi.




12.14-rasm. Sohil  
g'o'laktoshlari.



12.15-rasm. Sohil g'o'laktoshlari.



12.16-rasm. Sohil graviylari.



12.17-rasm. Sohil qumlari.

### *Organogen cho'kindilar*

O'simlik va hayvonot dunyosi rang-barang bo'lgan shelfda organogen cho'kindilar keng tarqalgan bo'ladi.

Ohakli skeletga ega bo'lgan marjonlar tufayli **shelfda marjon riflari** va ularning nurash mahsulotlaridan tarkib topgan organogen karbonatli cho'kindilar rivojlanadi.

**Marjon riflari.** Suv havzalarining tubiga yopishgan kolonial organizmlar skelet hosil qilish ucbun kalsiy karbonat ajratib chiqaradi va **marjonli, mshankali, suvo'tli** va boshqa turdag'i **riflarni** quradi. Ular quruqlikdan shelfga terrigen material kam keltiriladigan sharoitlarda rivojlanadi.

**Marjon riflari** Dunyo okeanining tropik mintaqasidagi shelflarda tarqalgan. Ularning hosil bo'lishi quyidagi asosiy sharoitlar bilan cheklangan:

- 100 m dan chuqr bo'limgan sayozlik, odatda 50-60 m.

- $18^{\circ}\text{C}$  dan past va  $36^{\circ}\text{C}$  dan ortiq bo'lmagan harorat.
- Normal sho'rlik (30-35 %).
- Yaxshi yoritilganlik.
- Zooplankton uchun yetarli miqdorda ozuqa.
- Yopishib yashash uchun qattiq substrat.

**Marjonlar** sovuq suv oqimlari o'tadigan sohilbo'yida hamda loyqasi ko'p bo'lgan va chuchuk suvli yirik daryolar quyuladigan joylarda uchramaydi. Turli marjonlardan hosil bo'lgan riflar turli tezlikda, yiliga 5-7 mm dan 20 sm gacha o'sadi.

**Marjon** riflarining quyida uchta asosiy turlari ajratiladi:

- sohilbo'yi;
- to'siq (barer);
- atoll.

**Sohilbo'yi riflari** bevosita sohildan yoki unga yaqin joydan boshlanadi, materik sohili bo'ylab cho'zilib ketgan bo'ladi va okeanga qarab asta-sekin pasayib boradi (12.18-rasm). Ularning kengligi bir necha yuz metmi tashkil etadi.

Rifning tashqi chetida o'sayotgan marjonlar va ohakli suvo'tlari joylashgan bo'ladi.




12.18-rasm. Sohilbo'yi marjon qurilmalari [www//saga.ua](http://www//saga.ua)

Uning sohilga qaragan ichki tomoni o'lgan marjonlardan iborat bo'lib, ularning orasida ignatanlilar, mollyuskalar, foraminiferalar va b. yashaydi.

Marjon riflarining hayvonot va o'simlik dunyosi juda xilma-xil bo'ladi. Otliv paytida riflar suv sathidan ko'tarilib, qurib qoladi. Sohilbo'yi riflari

Gavay orollarida va Tinch okeanining ko'pchilik orollarida rivojlangan (10.19-rasm).



12.19-rasm. Dengizdag'i marjon riflari. [www//saga.ua](http://www//saga.ua)

*To'siq riflari* sohildan uzoqda cho'ziq qatorlar singari ko'rinishga ega bo'ladi. Sohildan marjon riflarining abraziyasi qumlar va illar to'plangan keng tekis sayoz akkumulyativ laguna bilan ajralgan bo'ladi. To'siq riflarining tashqi 45-60° ga boradigan katta nishabligiga bilan farq qiladi, 1000-1100 m chuqurlikkacha yetib boradi; ba'zan uning yonbag'ri tik yoki suv ustida osilib turadi.



12.20-rasm. To'siq rifi va laguna. [www//saga.ua](http://www//saga.ua)

bo'g'oz orqali tutashgan lagunaga ega bo'ladi. Ichki lagunaning kengligi yuzlab metrdan 90 km gacha, o'rtacha chuqurligi 40-45 m ga boradi.<sup>103</sup>

Atoll halqali zanjiri tashqi yonbag'ning nishabligi katta bo'ladi. Ichki qismida qumli sayozliklar kuzatiladi. Ko'p sonli atollar Avstraliya va Yangi Gvineyaning shelflarida, Tinch va Hind okeanlarining tropik zonasida rivojlangan (12.21-rasm).

*Xemogen cho'kindilar.* Arid iqlimli sayoz dengizlar o'simliklarga boy bo'ladi. Ular ko'p miqdorda karbonat angidridni yetib, suvning kalsiy karbonat bilan to'ynishlga olib keladi.

$\text{CaCO}_3$  cho'kmaga o'tadi, bunda to'lqinlar bilan loyqalangan qum donalarini qoplab ohakli oolitlar deb ataluvchi mayda shariklar hosil bo'ladi. Bu shariklar keyinchalik cho'kindilar diagenezida oolitli ohaktoshlarni vujudga keltiradi (Kaspiy, Orol, O'rta yer, Qizil dengizlar). Sayoz havzalarda terrigen cho'kindilar orasida temirmarganesli konkretsiyalar uchraydi. Temir va marganets

To'siq riflariga Avstraliyaning sharqiy sohili-dagi Marjon dengizidagi Katta To'siq rifini ko'rsatish mumkin (12.20-rasm).

*Atollar marjon riflari* zanjiridan iborat bo'lib, ichida okean bilan

<sup>103</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012 P 400,401

gidrooksidlari kolloid holda daryolar bilan keltirilib, dengiz suvi bilan aralashganda cho'kmaga o'tadi.



12.21-rasm. Atoll rif oroli. [www//saga.ua](http://www//saga.ua)

Chuqur dengizlarning tubida (30-300 m) g'o'ddali (konkretsion) va donali (fosforit qumlari, fosforit oolitlari) fosforitlar kimyoviy yoki biokimyoviy yo'llar bilan bosil bo'lishi mumkin.

## 12.9. Batial cho'kindilar

**Batial cho'kindilar** shelf zonasi bilan Dunyo okeani tubi oralig'i bo'ylab uzun tasma tarzida cho'zilib 54,9 mln. km<sup>2</sup> maydonni egallagan. Bu zona uchun yonbag'irning qiyaligi va chuqur novlar bilan ajralganligi xarakterlidir. Kontinental (yoki materik) yonbag'irning 60 % maydoni turli illar - gillar va alevritli cho'kindilar bilan qoplangan; qumlar 25 % va faqat 5 % organogen cho'kindilardan iborat. Kontinental yonbag'irdagi cho'kindilar qalinligi juda o'zgaruvchan. Katta nishablikdagi uchastkalarda yotqiziqlar umuman uchramaydi. Pastkamliklarda cho'kindilar qalinligi ancha yuqori bo'ladi.

Kontinental yonbag'irning tipik illari turli tarkibga va rangga ega bo'lib, ko'k, qizil, sariq va yashil rangli illardan iborat.

**Ko'k il** (loyqa) ko'pincha materik yonbag'irda va undan ham chuqurroq joylarda - Dunyo okeani tubida ham (5000 m) hosil bo'ladi. Ko'k il Atlantika okeani ostida ko'proq yig'iladi. Ilning rangi

havo rang, ba'zan ko'kish - qoramitir va kulrang bo'ladi. U tarkibida  $H_2S$ , organik qoldiqlar bo'lgan mayda il zarrachalaridan iboratdir. Bu jinslarda organik qoldiqlar miqdori 10 - 30%, il 60% dan 90% gacha bo'ladi.

***Qizil il*** ko'k ilga nisbatan materik etaklarida juda kichik (1% ga yaqin) maydonni tashkil etadi. Uning tarkibida ham gil, il va mayda kvars donachalari bor. Ular okean ostida juda keng maydonlarni ( $130 \text{ mln. km}^2$ ) egallagan bo'lib, materikdan eng uzoq va chuqur joylarda to'planadi, rangining qizg'ish bo'lishiga sabab unda temir va marganes oksiddarining borligidir.

***Yashil il va qum***. Yashil, och yashil, kulrang yashil il va qum dengizlarda 80 - 100 m chuqurlikdan boshlab hosil bo'ladi. Bu cho'kindilar ko'pincha 2000 m dan chuqurda ham uchraydi. Yashil il tarkibining bir xil emasligi va il zarrachalarining kamligi (48%) bilan farq qiladi. Yashil ildan tashqari, kontinent yonbag'rida qum hosil bo'ladi. Bu jinslarning yashil rangi tarkibidagi glaukonit minerali bilan bog'liq.

Dengiz, okean cho'kindilaridan organik il tarkibida **foraminiferali** va **mayda suv o'simliklari** qoldiqlari bo'ladi.

***Okeanlar tubi*** yuqorida qayd etilgan viloyatlarga nisbatan kam o'r ganilgan. Okean tubining chuqurligi 2500 m dan 6000 m gacha, umumiy maydoni  $283,7 \text{ min. km}^2$  dan ortiq. Qirg'oqdan ancha uzoq masofada bo'lganligidan to'lqin olib kelgan cho'kindilar ungacha borib yetmaydi. Okean tubi cho'kindisi **ikki xildir**: a) **organik il**, b) okeandagi organik (qizil) ildan tashkil topgan. Organik illarga **radiolyariyli, globigerinli va diatomli** turlari ko'proq uchraydi. Okeanda yashovchi globigerinlar halok bo'lgach, ularning chig'anog'i suvda eriydi. Chig'anoqlar katta chuqurliklarda bosim ortib ketishidan, harorat pasayishidan va chig'anoq tarkibidagi mayda mineral kristallarning ajralib ketishidan erib ketadi.

***Diatomli il*** – dengizlardagi kremniyli suvo'tlari qoldig'idan to'planadi. Bular sovuq suvli dengizlarda vujudga keladi. Bunday maydonlarga Antarktika atrofi va Tinch okeanining shimolidagi o'lkkalar kiradi.

***Radiolyariyli il*** – dengizlarning eng chuqur joylarida (4000 - 5000 m) hosil bo'ladigan jins bo'lib, tarkibining 50% dan ko'proq'ini bir hujayrali radiolyariy hayvonlarining qoldig'i tashkil etadi.

**Kontinental (materik) etaklarning yotqiziqlari.** Bu yotqiziqlarning shakllanishi loyqa oqimlar faoliyati bilan bog'liq. U kanonlarni chuqurlatib yuqori va o'rta oqimlarda erozion ishlarni, o'rta oqimidan boshlab akkumulatsiya jarayonlarini sodir etadi. Shu boisdan ham suvosti vodiylari, supalar, yoyilmalar (quruqlikdagidek) paydo bo'ladi. Loyqa oqim olib kelayotgan va yoyilmadagi yotqiziqlarni **turbidit yotqiziqlari** deb ataladi. Eng yirik turbiditni Bengal qo'ltig'iga quyiladigan Braxmantura bilan Ganga daryolari hosil qilgan.

Loyqa oqimlar tufayli cho'kindi materiallarning to'planishida **flesh yotqiziqlari** hosil bo'ladi. Flish yotqiziqlari uchun gradatsion qat-qatlik xarakterli bo'ladi.

## 12.10. Okean lojasiga (abissal) yotqiziqlari

Okeanga keltiriladigan materialning faqat 20 % okean lojasida cho'kmaga o'tadi. Qolgan 80 % kontinental chetda to'planadi. Okean chuqurligining oshishi va materiklar sohilidan uzoqlashgan sari terrigen gilli material miqdori kamayib boradi, bunda organogen (karbonatli va kremliyli) va poligen cho'kindilar (qizil gillar) keng tarqalgan.

Organogen cho'kindilar asosan plankton foraminiferalar yoki nannoplankton suvo'tlari (kokkolitoforidlar) va kamroq mollyuskalarning ohakli chig'anoqlari va qoldiqlaridan iborat.

Poligen cho'kindilar murakkab kelib chiqishga ega. Ularga jigarrang yoki qizil rangli chuqursuvli (pelagik), karbonatsiz illar kiradi. Ular 4000-6000 m chuqurliklarda organizmlarning ohakli qoldiqlari erib ketishi tufayli karbonatlarga ega bo'lmaydi.

Qizil gillarning kompleks tarkibi ularni alohida guruhga ajratishga imkon beradi. Chuqursuvli qizil gillar juda sekin, 1000 yilda 1 mm tezlikda to'planadi.

Qizil gillar Tinch okeanining abissal botiqliklarida keng (50 % yaqin), Atlantika va Hind okeanlarida esa kamroq tarqalgan.

**Temirmarganesli konkretsiyalar va qobiqlar.** Daryolar okean va dengizlarga turli xil mineral eritmalarini keltiradi. Dengiz suvi kimyoiy tarkibida barcha elementlar va gazlar erigan bo'ladi.

Kimyoviy cho'kindilarning hosil bo'lishida eritmalarining to'-yinganligi, suvning harorati va bosimi katta ahamiyatga ega. Kimyoviy cho'kindilardan ko'proq ohaktosh paydo bo'ladi. Bundan tashqari, dengizlarda temirli, marganesli birikmalar ham hosil bo'ladi. Demak, okean va dengizlardagi eritmalar cho'kindi jinslarning hosil bo'lishida muhim ahamiyatga egadir.

**Qizil chuqursuvli gillar** bilan okean tubida **temir va marganesning gidoosidlaridan** tarkib topgan konkretsiyalar uchraydi. Bu temirmarganesli konkretsiyalar (TMK) dumaloq, ellipsoidal, yalpoq shakkarda bo'lib, o'lchamlari millimetrdan bir necha santimetrlargacha boradi. Konkretsiyalarda temir va marganesdan tashqari qimmatli metallar - Cu, Ni, Co, Zn, Mo mavjud.

Konkretsiyalar barcha okeanlarda va hatto dengizlarda tarqalgan, Tinch va Hmd okeanlarida ayniqsa ko'p uchraydi.


TMK quyidagilar natijasida hosil bo'ladi:

- suvda muallaq holda mavjud bo'lgan temirmanganetsli moddalarning cho'kmaga o'tishi (sedimentatsion tip).

- cho'kindilar diagenezida (bo'shoq jinslarning zichlashishi).

Okeanlar tubining ma'danli moddalar chiqish joylarida metall sulfidlari cho'kmaga o'tib, balandligi bir necha o'nlab metrlarga yetuvchi, markazida «qora chekuvchilar» bo'lgan ustunlar, konuslar, minoralar shakldagi tanalarni hosil qilgan (12.22-rasm).

Sulfidli qurilmalar tarkibida pirit, xalkopirit, sfalerit, pirrotin ustuvorlik qiladi; ko'p miqdorda amorf kremnezyom va Ni, Co, Cd, Hg, Sn, W, U, Ag, Au qo'shimchalari uchraydi. Sulfid qurilmalariga ega bo'lgan maydonlar bir necha kvadrat kilometrga, metallarning zaxirasi millionlab tonnaga yetadi.



12.22-rasm. Yuqori haroratli hidrotermal sulfidli qurilmalarining morfoloyiyasi.

## **D‘tilgan ma’ruza mavzusi bo‘yicha savollar**

1. Dunyo okeani akvatoriyasida qanday relyef turlari ajratiladi?
2. Dengiz shelfini ta’riflab bering.
3. Gidrostatik bosim nima?
4. Dengizlarda qanday oqimlar mavjud?
5. Kontnental yonbag‘ir yotqiziqlari qanday xususiyatlarga ega?
6. Karbonat to‘planishning kiritik chuqurligi nima?
7. To‘sinq riflari qanday hosil bo‘ladi?
8. Laguna deganda nimani tushinasiz?
9. Riflarni qanday organizmlar hosil qiladi?
10. Okean suvlarining harorati va sho‘rligi qanday o‘zgaradi?
11. Okean tubidagi geologik jarayonlar qanday turlarga bo‘linadi?
12. Dengiz tubida qanday qazilma boyliklar bor?

## POMIR MUZLIKHLARI

### 13-boh. MUZLIKHLAR VA ULARNING GEOLOGIK FAOLIYATI. TOG' VA TEKISLIK MUZLIKHLARI

#### REJA

1. Muzliklarning hosil bo'lishi, turlari va harakati.
2. To'rtlamchi davr muzliklarining hosil bo'lishi.
3. Muzliklarning geologik ishi.
4. Morena va ularning turlari.
5. Eratik g'o'laktoshlar.

**Kalit so'zlar;** muzlik, ekzaratsiya, firn, trog, kar, morena, oz, kam, materik muzliklari, vodiy muzliklari, tog' muzliklari, ablatsiya, qo'yepeshana, delyuvioglyasial,sovugdan nurash, muzosti nurashi, rigel, haydash vannasi, morena, tillitlar.

#### 13.1. Muzliklarning hosil bo'lishi, turlari va harakati

Qattiq atmosfera yog'inlarning (qor) to'planishi va qayta o'zgarishi natijasida yer yuzasida hosil bo'lgan tabiiy kristall moddalarni muz yoki muzlik deb ataladi.<sup>104</sup> Suv faqat suyuq holda emas, balki qattiq - muz holatida ham katta geologik ish bajaradi. Suv singari muz ham yer yuzasi relefim o'zgartiradi. Bunda o'ziga xos muzlik landshafti va morena yotqiziqlari vujudga keladi.<sup>105</sup>

Hozirgi davrda yer shari yuzasining 10 foiziga yaqini doimiy muzliklar bilan qoplangan bo'lib, asosiy qismi materik qutbiy o'lkalariga (Grenlandiya, Antarktika), ozrog'i esa baland tog' muzliklariga to'g'ri keladi. Muz bosish davrlarida yer yuzasining katta qismini muzlar qoplab olgan.

Muzlik asosan uch xil geologik ish bajaradi:

- tog' jinslarini yemiradi.
- yemirilgan jinslarni tashiydi.
- tashib kelinayotgan jinslarni to'playdi.

<sup>104</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 265,262,263,264

<sup>105</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. p 508-510,507,508

Ushbu jarayonlarning majmuasini tog'li o'lkalardagi muzliklar faoliyatida ko'rish mumkin.

Tog' jinslarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chiruvchi hamda ularni yotqizuvchi, ya'mi yer yuzasida harakatlanuvchi eng kuchli agentlardan biri muzlikdir. Muzliklar yo baland tog'larda, yoki qutblarga yaqin yerlarda uchraydi. Muzlik odatda qor chizig'idan yuqorida, relyefning yassi va pastqam joylarida vujudga kelishi asosan iqlim sharoitiga bog'liq. Tog'li o'lkalarda muzlikning qalnligi chetlariga qaraganda markaziy qismida katta bo'ladi.



13.1-rasm. Materik muzligi.  
<http://www.segodnya.ua>

Muzlik doimiy qor chegarasidan pastda bo'lishi ham mumkm, bunda muzlik vodiyga siljib tushgan bo'ladi. Hozirgi vaqtida Yer sharijadi barcha muzliklarning umumiy maydoni quruqlikning 16 million 215

ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Bu Avstraliya maydonidan ikki marta kattaroqdir. Agar bu muzlik erisa, Dunyo okeanining sathi 50 metrdan ortiqroq ko'tarilar edi.

**Muzlik turlari.** Yer yuzasidagi barcha muzliklar shakliga va harakatning xarakteriga ko'ra uchta guruhg'a bo'linadi. Bular - materik muzliklari yoki qoplama muzliklar, tog' inuzliklari hamda vodiy muzliklaridir.

**Materik muzliklari** – qutb o'lklarida tarqalgan bo'lib, ular tog'larni ham, tekislik va pasttekisliklarni ham yoppasiga qoplab yotadi. Bunga sabab qutblarda va qutb atrofidagi joylarda haroratning yil bo'yi juda past bo'lishidir. Antarktikani va Grenlandiyani qoplab yotgan muz qalqoni bunga misoldir (13.1-rasm).

Vodiy muzliklari – tog' tizmalari oralig'idagi vodiylarni egallab, tog'lardagi eng katta muzliklarni vujudga keltiradi. Ular

daryo vodiylarining yuqori qismlarida joylashadi.<sup>106</sup>,<sup>107</sup> Vodiy muzliklari oddiy (alp tipida) va murakkab yoki sertarmoq, (Himolay tipida) bo'ladi. Oddiy vodiy muzliklari bitta yaxlit muzlik oqimidan iboratdir (13.2-rasm). Ba'zan bir qancha muzliklar bir - biriga qo'shilib sertarmoq yoki darraxtsimon muzliklarni tashkil etadi. Bunda ikkita tog' tizmasi orasidagi asosiy muzlikka har ikki yondan kichik muzliklar kelib qo'shladi. Sertarmoq tog' muzliklariga dunyodagi eng katta vodiy muzliklaridan Qoraqar tog'ligidagi Siachen muzligi



13.2-rasm. Vodiy muzligi.  
<http://www.segodnya.ua>

(uzunligi 75 km), Pomir tog' idagi Fedchenko muzligi (98 km), Tiyon-Shon tog' laridagi Inilchik muzligi (uzunligi - 80 km) misol bo'laoladi.

**Tog' muzliklari** Yer yuzida muz bilan qoplangan barcha hududning salkam 2% ni egallaydi. Tog' tepalarining yassilanib qolgan joylarida paydo bo'ladigan muzliklar o'ziga xos tog' muzligini tashkil etadi.

Tog' muzliklari materik muzliklariga qaraganda ancha kichik bo'lib, shakli ham xilma - xildir. Tog'larda muzliklarning paydo bo'lishiga asosiy sabab bo'lib yuqoriga ko'tarilgan sari yog'in - sochin miqdori ortib, harorat esa pasaya borishidir. Tog' muzliklarining shakli - asosan tog'lardagi relyef shakllariga bog'liqidir. Ular ko'pincha tog' vodiylari va cho'kmalarning yuqori qismini egallaydi.

Yil bo'yli baland tog'larga yoqqan qor tobora to'plana boradi va o'z og'irlik kuchi ta'siri ostida zinchashib firnga aylanadi. Firn siqilib, uning kristallari bir - biriga yopishadi va natijada g'ovakli muz vujudga keladi. Bora - bora g'ovaklar yo'qotib, zinchavorang muz


<sup>106</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 263,265,266

<sup>107</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007 p 506,511,512

hosil bo'ladi. Muzlik hosil bo'ladigan va to'ymadigan joy **firn havzasi** deb atalib, u baland tog'lar viloyatida sirk shakliga ega bo'ladi (13.3-rasm).



13.3-rasm. Firn havzasi va tog muzligi.



13.4-rasm. G'arbiy Pomirda muzliklarning tarqalishi.

Tog' muzligi sertarmoq murakkab shaklga ega bo'lgan butun bir tizimni tashkil etishi mumkin (13.4-rasm).

Muzlikdagi muz yuqori plastikklikka - egilish, cho'zilish bilan birga sinish xususiyatiga egadir.

Muzlik tanasida darzliklar ko'plab uchraydi. Dazliklarning ba'zilari muz harakati davomida vodiy yonbag'riga qadalib qolganligi sababli paydo bo'ladi. Muzlikdagi darzlarning kengligi 1-2 m, chuqurligi 200 m gacha boradi.

**Muzliklarning harakati.** Muzliklar bir qancha sabablarga ko'ra turlicha tezlikda harakatlanadi. Jumladan muzliklarning harakat tezligi muz tog'i relyefining qiyaligiga, muzning qalinligiga, haroratning o'zgarishiga va boshqalarga (tektonik harakatlar, zil-zilalarga) bog'liq. Ularning harakat tezligi sutkasiga 1 m dan 10 m gacha, ba'zan 20 m gacha borishi mumkin. Eng tez harakat qiluvchi muzliklar Grenlandiyada kuzatiladi. Upemivik muzligi sutkasiga 38 m gacha harakatlanadi. Muzlik harakat qilishi natijasida unda bo'ylama yoriqlar hosil bo'ladi. Bu yoriqlar muzlikni bir necha bo'laklarga bo'lib yuboradi. Dengizlarda suzib yuruvchi muzli tog'lar - aysberglar shu usulda paydo bo'ladi.

Muzliklar harakati davomida o'z zaminidagi tog' jinslarini sindirib maydalaydi, muz ichida qotgan jins bo'laklari bilan tubini tirmaydi, sirpanish yuzasini silliqlaydi; yemirilgan materiallarni o'zi bilan katta masofalarga ko'chiradi. Muzliklar bilan ko'chirilgan

materiallar gil zarralaridan tortib, to ulkan o'lchamdag'i bo'lak-largacha bo'ladi.

Ba'zi alp muzliklari yiliga 6000 m<sup>3</sup> hajmdan ortiq massani ko'chiradi. O'tmishtagi materik muzliklari materiallarni yuzlab va minglab kilometr masofalarga ko'chirgan. Bunday yotqiziqlar Rossiyada va Kanadada keng tarqalgan.

Bo'laklı materiallarni ko'chirishda suzuvchi muzlar - *aysberglar* ham katta ahamiyatga molik. Aysberglar o'zi bilan ko'p miqdordagi materiallarni past kengliklarga ko'chiradi.

**Muzlikning bosib kelishi va chekinishi.** Muzlikning oxiri doim bir joyda turmasdan dam pastga (oldinga), dam orqaga (yuqoriga) siljib turadi, chunki iqlimning o'zgarishiga qarab muzning hajmi ham o'zgaradi. Iqlimning o'zgarishi ko'p yillar mobaynida yoki kutilmagan sabablarga ko'ra qisqa vaqt ichida ro'y berishi mumkin. Yog'ingarchilik mo'l bo'lgan yili firm havzalari yangi qor qatlamlari bilan qoplanadi, muzlik o'sib kattalashadi, uning «tili» oldinga qarab siljiyli, ya'ni muzlik bosib keladi.

Qurg'oqchilik yillari muzlikning yoppasiga erishi tufayli muzlik «tili» yuqoriga tortilad, ya'mi muzlik chekinadi.

Muzlikning erish - *ablyasiya* (muzning erishi, bug'lanishi) jarayoni asosan muzliklarning old qismida - «tilida» kechadi. Bu hodisa (ablyasiya) arktika muzliklarida ko'proq uchraydi.

Harsang aralash gillar muzlik surib kelgan xarsang va gildan iborat, qatlami aniq bo'lмаган jinslardir.

Flyuvioglyasial yotqiziqlar muzlik suvlari olib keltirgan yotqiziqlar bo'lib, ular qalin qatlamlı qum va gillardan iborat.

Qo'y peshonalar va silliq qoya toshlar yuzasi chiziqlar bilan qoplangan. Bu chiziqlarga qarab qadimgi muzlikning harakat yo'nalishini aniqlash mumkin. Ular Skandinaviya yarimorolida ko'p uchraydi.

### 13.2. To'rtlamchi davr muzliklarining hosil bo'lishi

#### To'rtlamchi davr muzliklarning vujudga kelishi sahablari.

Yevropa materigida to'rtlamchi davrda iqlimning bir necha marta o'zgarganligi olimlarimiz tomonidan aniqlangan. Tadqiqot natijalariga qaraganda, muzliklarning vujudga kelishiga sayyoramiz

miqyosida iqlimning o'zgarishi, vulkanlarning ko'proq harakatga kelishi, atmosferadagi kimyoiy elementlar tarkibining o'zgarishi, qutblarning o'zgarishi va boshqalar sababchi ekan.

*Abadiy muzloq yerlar.* Kontinentlardagi muz haqida gapirar ekanmiz, doimiy muzloqlik hodisasi haqida ham qisqacha aytib o'tish zarur. Yer sharining deyarli 1/4 qismida o'rtacha yillik harorat manfiy ( $0^{\circ}$ dan past) bo'lagani uchun yer yuzasining tuproq qoplami o'n, yuz va hatto ming yillar davomida muzlab (to'nglab) yotadi. Yer po'stining bunday to'nglab yotgan qismlari doimiy muzloqlar yoki ko'p yillik muzlab yotgan yerlar deyiladi. Ularning qalnligi Shimoliy Sibir pasttekisligida 1,5 km gacha boradi. Shuning uchun ham bu hududda qurilish inshootlari, temir yo'llar, binolar qurishda keng ko'lamli murakkab muhandislik geologiya ishiarni bajarishga to'g'ri keladi.

### 13.3. Muzliklarning geologik ishi

Muzliklarning tog' jinslarini yemirish hodisasi ekzaratsiya (lotincha - haydayman) deb ataladi. Ekzaratsiyani muz eroziyasi deb ham atashadi. Tog' vodiylaridan yoki materik qiyaligidan pastga tomon harakatlanganda muzlikning qanday yemirish kuchiga ega ekanligini tushunish qiyin emas, albatta.<sup>108</sup>



13.5-rasm. Tog' ko'li.  
<http://www.segodnya.ua>

Muzlik atrofidagi haroratning keskin o'zgarishi, chunonchi, kunduzi isib, kechasi sovib ketishi natijasida tog' jinslari yemirladi. Bu jarayon sovuqdan nurash deb ataladi. Muz ustidagi suv muz yoriqlaridan o'tib, uning ichiga tushib

muzlaydi.

<sup>108</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007. P 515.

Muz hajmi kengayadi va muz ostidagi tub jinslar yemiriladi. Bu muzosti nurashi deb ataladi. Muzlik massasining bosimi (1 kub.m.muz - 920 kg) ham juda katta yemirish ishlarini bajaradi. U xuddi omochga uxshab yerni haydagandek o'yib ketadi. Tog' jinslarini tegirmondan chiqqan undek maydalab yuboradi. Muz hosil qilgan vodiy ***trog*** deb ataladi. Troglarning silliq, qattiq, qavariq shakli ***rigel*** deb, botiq shakli esa ***haydash vannasi*** deb yuritiladi. Ularda ko'pincha ko'llar vujudga keladi (13.5-rasm).

### 13.4. Morenalar turlari.

**Morenalar.** Muzlik harakati natijasida yig'ilgan yotqiziqlar morenalar deb ataladi. Bu yotqiziqlar saralanmagan bo'lib, ular tarkibida gildan tortib katta hajmli jinslarga cha bo'ladi.<sup>109,110</sup>

Firn havzasidagi firning usti doim toza va oppoq; uning ustiga yon-atrofidagi qoyalardan toshlar to'kilib tursada, yangitdan yog'ayotgan qor uni qoplab qoladi. Muzliklar boshlanishda ancha toza bo'ladilar, ammo keyinchalik ularning ustida morenalar to'planib, o'zining oq rangini yo'qotadi (13.6-rasm).



13.6-rasm. Morenaning shakllanishi.  
<http://www.segodnya.ua>

o'z navbatida tosh parchalar blan qoplanadi. Shu yo'sunda muzlikning chekkalarida mayda va yirik tosh parchalardan iborat uzun jo'yaksimon tizmalar vujudga keladi. Ularning balandligi va kengligi tog' yonbag'irlarining balandligi hamda morenalarining

Muzlik vodiy bo'yab pastga tushgan sari vodiyning yonbag'ridagi qorlar tobora ozayib boradi va undagi qoyatoshlar ochilib qoladi. Bu qoyalardan goho-goho muzlik ustiga tosh parchalari qulab tushadi. Qulab tushgan tosh parchalarini siljiyotgan muzlik o'zi bilan olib ketadi, uning o'mniga muzlikning toza qismi siljib keladi. Ular ham

<sup>109</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 275, 278, 279.


<sup>110</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 519.

qanday mahsulotlardan iboratligiga bog'liq. Bu xildagi jo'yaklar chekka morenalar deb ataladi.

Ikkita muzlikning qo'shilishidan bitta kattaroq muzlik vujudga kelgach, ularning bir-biriga yondash tarafdag'i chekka morenalari ham qo'shib yangi, murakkab muzlikning o'rta qismida qoladi. Bunday morenalarga o'rta morenalar nomi berilgan. Murakkab muzlik qancha ko'p mayda muzliklarning qo'shilishidan payda bo'lsa, u shu qadar ko'p o'rta morenalarga ega bo'ladi (13.7-rasm).



13.7-rasm. Murakkab muzlik tizimi.



13.8-rasm. Tub (ostki) morenalar.

<http://www.segodnya.ua>



13.9-rasm. Oxirgi morena.

<http://www.segodnya.ua>

Muzlikning yuzida yotgan barcha morenalar *ustki morenalar* deb ataladi. Muzlik yorilib, darzlik hosil bo'lganda ustki morenalarning bir qismi darzlikning ichiga kirib qoladi va *ichki morenalarni* tashkil etadi. Vodiy ichidan surilayotgan og'ir muz massasi oqar suvdek vodiyning osti va yonlarini yemiradi, ajralib qolgan tosh parchalarini olib ketadi. ularning bir qismi vodiy tubidagi chuqurliklarni to'ldirib, to'xtab qoladi. Agar muzlik erib ketsa, uning izini shu belgilari orqali tiklash mumkin. Shu xilda to'plangan materiallar *tub (ostki) morenalar* deb ataladi (13.8-rasm).

Tub morenalarni tashkil qiluvchi yirik toshlarning sillqlangan sirtida tirmash chiziqlarini ko'rish mumkin. Bu chiziqlar muzda qotib qolgan toshning ikkinchi o'tkir qirrasi bilan timashi orqali vujudga keladi. Bunday tirmash chiziqlari *muz yamoqlari* deyiladi.

Tog'larda muzliklar doimiy qor chizig'i chegarasidan ancha pastga tushib boradi. Bunday sharoitda muzlik ham sekin-sekin eriydi. U qancha pastga tushsa erish tezligi shuncha kuchayadi. Oxiri

u kichrayib, batamom yo'qolib ketadi.

Muz erigandan keyin undagi mavjud

jins bo'laklari to'planiib qoladi. Bu uyumlar oxirgi morena deviladi (13.9-rasm).<sup>111</sup>

Agarda muz qalin, ustki morenalar siyrak bo'lsa, muz jarligini va uning etagida yorilib parchalangan muz bo'laklarini ko'-ramiz; jarlikning tagida kattagina suv oqimi, ba'zan esa butun bir daryo oqib turadi. Muzlikning ustidan erigan suvlar yoriqlar bo'ylab uning ichiga oqib tushadi (13.10-rasin).

Ulardan vujudga kelgan daryocha chiroylikkina muz o'ng'uridan katta tezlikda sharqirab oqib chiqadi. Xuddi shu yerning o'zida, ya'ni o'ng'urning oldida erigan muzdan chiqqan va yuqoridan tushgan morenalar to'dalashib yotadi.

Daryochaning kuchi keskin o'zgarib turadi. Qishda muz erimaydi,



13.10-rasm. Muz yorig'i bo'yicha shakllangan o'zan. <http://www.segodnya.ua>

suv ham oz, kuz va bahor paytlarida erish ozgina kuchayib, daryochada suv ancha ko'payadi; yozda muz erishi avj olgan paytlarda esa, suvi ko'payib ketadi. Muzlik oxiridan ma'lum masofaga cha, ba'zan bir necha kilometrgacha, ancha joy suv olib

<sup>111</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 275, 278, 279.

<sup>111</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 519.

kelib yotqizgan qum, shag' al va g'o'latoshlar bilan qoplangan bo'ladi. Bunday yotqiziqlar *flyuvioglyasial* yotqiziqlar deb ataladi. Muz erishidan hosil bo'lgan suv oqimlari yon, ustki va ichki morenalarni yuvib, ko'chirib yotqizadi. Bunda turli o'lchamdag'i aralashgan materiallar hosil bo'ladi va ular tillitlar deb ataladi (13.11-rasm).

*Eratik g'o'latoshlar*, ya'ni qadimgi qoplama muzliklar keltirgan g'o'latoshlar, turli kattalikdagi tog' jinslarining siniqlaridan iborat bo'lib, ularning tarkibi shu yerdagi tub jinslar tarkibiga o'xshamaydi (13.12-rasm).



13.12-rasm. Eratik g'o'latoshlar.

### O'tilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar

1. Muzlik nima?
2. Muzliklar qanday hosil bo'ladi?
3. Ekzratsiya va ablatsiya nima?
4. Trog bilan daryo vodiyining farqi nimada?
5. Morena va uning turlari qanday paydo bo'ladi?
6. Muzliklarning harakatini tusbuntiring.
7. Morena amfiteatri deganda nimani tushunasiz?
8. To'rtlamchi davr muzliklari qanday sabablarga binoan paydo bo'lgan?
9. «Qo'ypeshana» nima?
10. Eratik g'o'latosh qanday hosil bo'ladi?

## YER OSTI G'AROYIBOTLARI

### 14-bob. YEROSTI SUVLARINING TURLARI, GEOLOGIK FAOLIYATI, KARST HODISASI, KO'CHKILAR

#### REJA

1. Yerosti suvlarining paydo bo'lishi va turlari.
2. Yerosti suvlarining joylashish sharoitlari.
3. Yerosti suvlarining kimyoviy tarkibi.
4. Yerosti suvlarining geologik ishi.
5. Karstlanish jarayonlari
6. Ko'chki xodisalari

**Kalit so'zlar;** Yerosti suvlari, gidrogeologiya, yerosti suvlarining turlari: kondensatsion, yuvenil, sedimentogen, singenetik, epigenetik, suv o'tkazmaydigan qatlam, bosimli suvlar, artezian suvlar, mineral suvlar, suffoziya, karst, ko'chki, travertina, geyzerit.

#### 14.I. Yerosti suvlarining paydo bo'lishi va turlari

Yer yuzasidan pastda, tog' jinslarining bo'shliq va darzliklarida uchraydigan suvlar **yerosti suvlari** deyiladi. Bunday suvlar yer qatlamlari orasida ko'p tarqalgan<sup>112</sup> va xalq xo'jaligini rivojlantirishda, aholini, shahar hamda qishloqarni suv bilan ta'minlashda, gidrotexnik va sanoat inshootlarini qurishda, sug'orish ishlarida, kurort va sanatoriylar va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega.

Yerosti suvlarining geologik ishi g'oyat xilma-xil. Ular tog' jinsilarini orasidagi minerallarni va karbonatli tog' jinslarini eritadi, qumoq jinslarni yuvadi va g'orlarni hosil qiladi.

Yerosti suvlarining paydo bo'lishi, tarqalishi, harakati, miqdori, sifat o'zgarishi bilan **gidrogeologiya** fani shug'ullanadi.

**Yerosti suvlarining paydo bo'lishi.** Tog' jinslari orasidagi suvlar, birinchidan yog'inlarning yer ustidan qum va toshlar orasiga

<sup>112</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 240.

qisman sizib o'tishi, ya'ni infiltratsiya yo'li bilan hosil bo'ladi.<sup>113,114</sup> Masalan, O'zbekistonda har yili atmosfera suvidan tashqari sug'orish tizimidan 8 milliard m<sup>3</sup> suv shimalib, yerosti suviga qo'shiladi. Ikkinchidan, yerosti suvlari suv bug'larining kondensatsiyasi jarayonida ham paydo bo'ladi. Bu vaqtida yer ichidagi suv bug'lar ni sohib, suvga aylanadi. Tog' jinslarida suv bug'i ko'p tarqalgan bo'ladi, bu esa ularning elastikligini orttiradi, tuproqning yuqori bosimi ta'sirida bug' yana havoga ko'tariladi. Demak, kondensatsiya jarayoni suv bug'ini tuproqqa olib kiradi va undan olib chiqadi. Tog'li yerlarda, dashtlarda, doimiy muzloq o'lkalarda suv bug'lar ni eng ko'p kondensatsiyalanadi.

Hozirgi kunda tog' jinslaridagi suvlarni quyidagi turlarga bo'lib o'rghaniladi. 1. Bug' ko'rinishdagi suvlar. 2. Fizik bog'langan suvlar: gigroskopik va plynokasimon suvlar. 3. Erkin suvlar: kapiliar va gravitatsion suvlar. 4. Qattiq holatdagi (muz) suvlar. 5. Kristallashgan (kristallogidratlar) va kimyoviy birikma (gidroksil) holatdagi suvlar.

Yerosti suvlari kelib chiqishi bo'yicha **yuvencil, sedimentogen, singenetik, epigenetik** suvlar ajratiladi.

***Yuvenil suvlar.*** Yer po'stingin ichki qismidagi magmadan ajralayotgan minerallasshgan issiq suv bug'larining yerosti suvlariga aylanishidan hosil bo'ladi. Yuvenil suv yerming chuqur qatlamlarida va tez-tez vulkan otilib turadigan o'lkalarda ko'p uchraydi.

***Sedimentogen*** (yunoncha cho'kindi) suvlar eng chuqurdagi cho'kindi jinslari qatlamlari orasidagi yuqori darajada minerallasshgan (sho'rangan) yerosti suvlaridir. Olimlarning hisoblashicha bu suvlar genezisiga ko'ra dengiz suvidan paydo bo'lган. Ularning ikki-singenetik va epigenetik turlari tabiatda ko'p uchraydi.

***Singenetik*** (yunoncha singenez - cho'kindi bilan bir vaqtida hosil bo'lish demakdir) yerosti suvlar. Havza yotqiziqlarining to'planish jarayonida ular orasida qolib ketgan qoldiq suvlardir.


***Epigenetik*** (yunoncha epigenerez - keyim paydo bo'lган) yerosti suvlar tog' jinslari vujudga kelgandan so'ng yoki dengizdan sizib o'tgan suvlardan hosil bo'ladi.

Tog' jinslarida flyuidlarning harakat qonuniyatlarini tahlil qilishda **g'ovaklik va kirituvchanlik** asosiy ahamiyatga ega.

<sup>113</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 243.

<sup>114</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 408.

**G'ovaklik.** Terrigen jinslardagi g'ovaklik qattiq komponentlar egallamagan bo'shilq hisoblanadi. G'ovaklar o'zaro tutashgan yoki tutashmagan bo'lishi mumkin (14.1-rasm).



14.1-rasm. Chuqurlik oshishi bilan g'ovaklik va suv miqdorining kamayishi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).

**Kirituvchanlik** terrigen jinslarning suyuqliklarni o'tkazish qobiliyatidir.

Kirituvchanlik g'ovaklikka to'g'ri va solishtirma yuzaga teskari proporsional bo'ladi. Terrigen jinslardagi bo'laklarning o'lchami kichiklashib borgan sari kirituvchanlik ham pasayib boradi. Bunga bo'laklarning kichrayib borishi tufayli solishtirma yuzaning oshishi sabab bo'ladi. Natijada oqimga bo'lgan qarshilik ortadi.


## 14.2. Yerosti suvlari joylashish sharoitlari

Yerosti suvlari joylashish sharoitlari bo'yicha sizot, grunt va qatlama suvlari bo'limadi.

**Sizot suvlari** yer yuzasining 2 - 3 m gacha bo'lgan ustki qatlamlarida paydo bo'ladi. Ular lyossli jinslar, qum, tuproq qatlamlarida to'planadi. Botqoqlashgan daryo qayirlari, ko'l va dengiz sohillaridagi suvlar sizot suvlariidir. Sizot suvlari tog' jinslari orasidan sekin, lekin doim o'tib turadi.

**Grunt suvlari** yer yuzasi bilan birinchi suv o'tkazmaydigan qatlam ustidagi suvlardir. Ular g'ovakli jinslar (qum, shag'al, lyoss) orasida ko'proq uchraydi.


Grunt suvlarining sathi yer yuzasidan turli chuqurlikda yotadi. Yerosti suvlarining suv bilan to'yingan qatlam yuzasi yer osti suvlarining oynasi deyiladi. Suv bilan to'yimgan qatlam suv saqlovchi qatlam deb ataladi. Grunt suvlarida bosim bo'lmaydi, chunki uning ustida suv o'tkazmaydigan qatlam mavjud emas. Grunt suvlari pastkam joylarda (soy, jar, ariq) yer yuzasiga sizilib chiqib yotadi (14.2, 14.2a-rasm).



*14.2-rasm. Grunt suvlarining chiqish joyida o'simlik yaxshi rivojlanadi.*


**Qatlam (qatlamoralig'i) suvlari.** Yerosti suvlarining bunday turi **bosimli va bosimsiz** bo'lishi mumkin.

**Bosimsiz qatlam suvlari** grunt suvlaridan pastda ikkita suv o'tkazmaydigan qatlam orasida joylashgan bo'ladi. Ustida suv o'tkazmaydigan qatlamning mavjudligi suvli gorizontga atmosfera yog'in-sochinlarimng o'tishiga to'sqmlik qiladi. Shuning uchun ham ularning to'yinish va tarqalish hududlari bir-biriga mos kelmaydi va ancha masofada joylashgan bo'ladi. Suvli gorizont to'liq to'yimmaganligi tufayli bunday suvlarda bosim bo'lmaydi (14.3-rasm).



**14.2-a-rasm. Yerdagi atmosfera, okean, ko'l va daryo suvlarining sirkulatsiyasi. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).**

**Bosimli qatlamlar** Fransiyaning Artua provinsiyasida XII asrda dastlab o'zi oqib chiquvi suv topilgan joy nomi bilan artezian



**14.3-rasm. Yer po'stida turli yerosti suvlarining joylashish sxemasi: a - sizot suvlar; b - verxovodka; d - grunt suvlar; e, f - qatlam suvlar; 1 - tuproq-o'simlik qatlari; 2 - suv o'tkazuvchi qatlarni; 3 - yarim suv o'tkazuvchi jinslar; 4 - suv o'tkazmaydigan qatlarni; 5 - gravitatsion suv; b - grunt suvlarining sathi.**


suvlarining shakllanishi uchun qulay sharoitlar bo'lib yer po'stining botiq strukturalari (muldalar, sineklizalar, tog'oldi va tog'etagi botiqliklari) yoki qatlamlarning qiya (monoklinal) yotishi

suvlar deb ham ataladi. Ular suv o'tkazmaydigan qatlamlar orasidagi suvli gorizontlarda to'planadi va bu gorizontlarning suvgaga to'liq to'yinishi tufayli giderstatik bosim hosil qiladi. Odatda artezian suvlarining gorizontlari keng maydonlarni egallab, ancha chuqurliklarda yotadi.

**Bosimli qatlamlar**

suvlarining shakllanishi uchun qulay sharoitlar bo'lib yer po'stining botiq strukturalari (muldalar, sineklizalar, tog'oldi va tog'etagi botiqliklari) yoki qatlamlarning qiya (monoklinal) yotishi

hisoblanadi. Birinchi holda qatlamlar tovoqsimon buklangan, ikkinchi holda esa bir tomonga qiyalangan bo‘ladi (14.4-rasm).




**14.4-rasm. Qatlamlar botiq (I) va qiya (II) yotgandagi artezian havzasining kesmasi:** a - to‘yinish viloyati; b - bosim viloyati; d - sarflanish viloyati;  $N_1$  va  $N_2$  - bosim; M - artezian suv qatlamining qalinligi; 1 - suvli jinslar; 2 - suv o’tkazmaydigan jinslar; 3 - pezometrik sath. Strelkalar bilan artezian suvlarinining yo‘nalishi ko‘rsatilgan.

Bosimli suvlarning oziqlanish viloyatlari asosiy tarqalish maydonlaridan gipsometrik balandda joylashgan bo‘ladi. Shuning uchun ham suv o’tkazuvchi qatlamga kirayotgan suv nishablik bo‘yicha harakatlanib, butun qatlamni to‘ldiradi va gidrostatik

bosimga ega bo‘ladi. Artezian suvlaringin to‘yinish va sarflanish joylari orasidagi asosiy tarqalish maydoni bosim hududi deyiladi.

Artezian suvlaringin rejimi deyarli doimiy bo‘ladi. Pezometrik sathi fasllar bo‘ylab kam o‘zgaradi, suvi tozaligi bilan



**14.5-rasm. Artezian suvlarinining hosil bo‘lish jarayoni.**  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).

farq qiladi. Yerosti suvlarinining suv sarfi (drenaj) tabiiy sharoitlarda buloqlar va chashmalar shaklida amalga oshadi. Odatda, ular daryo

vodiylarida, jarlarda, ko'l va dengizlarning sohillarida, relyefning boshqa pastqamliklarida joylashgan bo'ladi (14.5-rasm).

Toshkent mineral suvi simklinal strukturani tashkil etuvchi bo'r davri qumlaridan (1800-1850 m chuqurlikdan) bosim tufayli otilib chiqadi.

### 14.3. Yerosti suvlaring kimyoviy tarkibi.

Tabiatdagi suvlar, jumladan yerosti suvlari nihoyatda kuchli erituvchanlik xususiyatiga egadir. Yotqiziqlar orasidagi suvlar tarkibida erigan moddalarining miqdori juda xilma - xildir. Tabiatdagi barcha yerosti suvlari minerallanishi jihatidan **to'rtta katta guruhga** bo'linadi: 1. Chuchuk suvlarning umumiyligi minerallanishi 1 g/l gacha. 2. Sho'rroq- 1 dan 10 g/l gacha. 3. Sho'r- 10 dan 50 g/l gacha. 4. O'ta minerallahsgan suv, umumiyligi minerallanishi 50 g/l dan ko'p (200 - 300 g/l). Yuqorida ko'rsatilgan guruhlar yerosti suvlaring minerallanishi bir me'yorda bo'lmasligini ko'rsatadi. Agar 1 l yerosti suvida 1 g dan kam tuz bo'lsa, u ichish uchun yaroqli hisoblanadi. Yerosti suvlari kimyoviy tarkibining asosi bo'lib  $\text{HCO}_3^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{Cl}^-$  anionlari va  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Na}^+$  kationlari sanaladi. Ularning nisbati yerosti suvlaring ishqorliligi, qattiqligi va sho'rligini belgilaydi.

Anionlarining ustuvorligi bo'yicha yerosti suvlari:

- gidrokarbonatlari;
- sulfatlari;

- xloridli hamda ularning gidrokarbonat-sulfat, sulfat-xloridli va boshqa oraliq turlari ajratiladi.

**Mineral suvlari.** Kishi organizmiga fiziologik ta'sir etadigan va biologik faol, davolash maqsadida foydalanadigan suvlardan mineral suvlardan deb ataladi. Yerosti yotqiziqlaridagi minerallar va gazga to'yingan suvlardan odatda shifobaxsh hisoblanadi. Lekin yerosti mineral suvlaring hammasi ham davolash uchun yaroqli bo'lavermaydi. Mineral suvlartarkibida davolanish uchun zarur bo'lgan mineral elementlar bir xil miqdorda bo'lmay, ba'zilarida ko'proq, ba'zilarida kamroq bo'ladi. Mineral suvlardan temir, margimush, radiy, brom, yod va biroz gaz bo'ladi. Mineral suvlardan faqat tarkibiga qarabgina emas, balki haroratiga qarab ham xilma-xil bo'ladi.

Harorati bo'yicha mineral suvlar sovuq ( $20^{\circ}\text{C}$  gacha), iliq (20 dan  $37^{\circ}\text{C}$  gacha), issiq (37 dan  $42^{\circ}\text{C}$  gacha) va juda issiq (gipotermal -  $42^{\circ}\text{C}$  dan yuqori).



14.6-rasm. AQSHdagi mineral suv bulog'i. [www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)

tog'li o'lkalarda, masalan, Kavkaz, Pomir tog'larida, Kamchatka va Kuril orollarida, O'zbekistomizda ham mineral suvlar ko'p. Hozirgi paytda bunday mineral suvlardan meditsinada va sanoatda keng foydalilmoqda.

Tarkibi, xossasi va davolash ahamiyati bo'yicha ularning orasida karbonat angidridli, vodorodsulfidli va radioaktiv mineral suvlar ajratiladi.

*Karbonat angidridli* kuchli gazlangan suvlar Kavkazda keng tarqalgan. Bu Kislovodsk va Jeleznovodsk Narzanları, Gruziyadagi Borjomi va Armanistondagı Jermuk kurortlarining suvlaridir. Yevropada Fransiyaning Vishi va Chexiyaning Karlova Vari kurortlarining suvlari shifobaxsh hisoblanadi.

*Vodorodsulfidli mineral suvlar* erkin vodorod sulfidga boyigan bo'ladi. Ular Socbida (Matsesta), Dog'istonda (Talgi), Latviyada (Kemerı), O'rolbo'yida (Ust-Kachki), Tojikistonda (Obishifo) va boshqa joylarda uchraydi. Hozirgi vulkanizm viloyatlarida vodorodsulfidli suvlar rivojlangan.

*Radioaktiv suvlar* radioaktiv elementlar, birinchi navbatda radiy emanatsiyasi – radon bilan boyigan bo'ladi. Radonli suvlar Gruziyadagi Sxaltubo va Oltoydagı Belokurixa kurortlarida davolash

Mineral suvlar, asosan, yosh tog'lar va vulkanli o'lkalarda ko'p uchraydi. Ular buloqlar va chashmalar shaklida yer yuzasiga chiqadi (14.6-rasm). Mineral suvlar tektonik harakat natijasida vujudga kelgan yer yoriqlari va u yerdagi moddalarning o'zgarishi, aralashishi va bosimi bilan bog'liqdir. Yosh

maqsadlarida keng qo'llaniladi. Ular hozirgi vulkanizm viloyatlarida (Kamchatka, Kuril va Yapon orollari) ham tarqalgan.

#### 14.4 Yerosti suvlarining geologik ishi

Uzluksiz harakatda bo'lgan yerosti suvlari muayyan geologik ishlarni bajaradi. Ular tog' jinslarini eritadi, erigan mahsulotlarni tashiydi va ma'lum turdag'i yotqiziqlarni hosil qiladi<sup>115,116</sup>

Yerosti suvlarining geologik ishida tog' jinslariga kimyoviy va mexanik ta'siri yetakchi ahamiyatga ega. Bu jarayonlarning natijalari bo'lib karst va ko'chkilarning hosil bo'lishi hisoblanadi.

#### 14.5. Karstlanish jarayonlari.

**Karstlanish jarayonlari.** Karst deb yerosti suvlari ta'sirida darzlashgan tog' jinslarining erishi, yerusti va yerostida o'ziga xos relyef shakllarini hosil qilishiga aytildi.

Suv ta'sirida yaxshi eriydigan jinslarga galoidlar (osh tuzi va kaliy tuzi), sulfatlar (gips va angidrid) va karbonatlar (ohaktosh va dolomit) kiradi. Tub jinslarning tarkibi bo'yicha tuzli, sulfatli va karbonatli karstlar ajratiladi. Karbonatli jinslar keng tarqalganligi tufayli karbonatli karstlar tabiatda ko'p uchraydi (14.7).



14.7-rasm. Karstlarning vujudga kelishi. (*Understanding Earth.*, J. Grotzinger va b.).


Mineral va gaz komponentlarga ega bo'lgan tabiyi suvlar yetarli darajada aggressiv bo'ladi. Yerosti suvlari tog' jinslaridagi

<sup>115</sup> Essentials of Geology - Frederck K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 225

<sup>116</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007 P 417, 418.

darzliklarga kirib va ularni asta-sekin eritib, karstli landshaftni shakllantiradi. Bunday landshaft Qrimda (Yayla), Kavkazda, O'rol-da, Bolqon yarimorolida, Karpat va Alp tog'larida keng rivojlangan.

Erish jarayoni yerusti va yerostida turli-tuman karst shakllarini hosil qiladi (14.8-rasm).



14.8-rasm. Karst shakllarining sxematik tasviri:

- 1 - karlar; 2 - ponor; 3 - karst voronkasi;  
4 - karst bo'shlig'i; 5 - karst g'ori.

Karstlar yerustida suv ta'-sirida ochilib qolgan eruvchi tog' jinslari yuzasida rivojlanadi. Ularning orasida **karrlar**, **ponorlar**, **karst voronkalar** va **quduqlari**

ajratiladi.

**Karrlar** tog' jinslari yuzasida jo'yaklar, chandiqlar, yoriqlar shaklidagi uncha chuqur bo'lмаган (bir necha santimetrik) chuqurchalar majmuasidan iborat. Ular keng rivojlangan joylarda o'tib bo'lmaydigan karr maydoni hosil bo'ladi.

**Ponorlar** katta qiyalikdag'i yoki tik quduqsimon shakldagi teshik bo'lib, u orqali yuza suvlari chuqurlikka oqib o'tadi. Bunday suv yutuvchi teshiklar odatda darzliklar o'zaro kesishgan joylarda shakllanadi.

**Karst voronkalari** – yer yuzasida eng keng tarqalgan karst shakllaridir. Bu katta qiyalikdag'i devorlarga ega bo'lgan konussimon yoki kosasimon chuqurlikdir (14.9-rasm). Tik devorga ega bo'lgan turi karst qudug'i deyiladi (14.10-rasm). Ularning diametri odatda 1 dan 5 m gacha boradi, bazan 15-20 m ni tashkil etadi. Ular tog'll rayonlarda ham, tekisliklarda ham uchraydi.

O'ziga xos yuza karst shakllari erishi va suffoziya jarayonlarining birgalikda rivojlanishi tufayli hosil bo'ladi. **Suffoziya** (lotincha suffosio – ostini kavlash)

deganda bo'shoq jinslar orasidan mayda gil zarralarining yuvilib ketilishi tushuniladi. Karstlanuvchi jinslar qum-gilli yotqiziqlar bilan qoplangan hollarda shimalayotgan suvlari yordamida ulardagi gil

zarralari suv bilan yuvilib, pastdag'i karst bo'shliqlariga olib tushiladi. Shu tufayli qoplama jinslar cho'kib, ostidagi karst bo'shliqlariga o'pirilib tushadi.



14.9-rasm. Karst voronkalari




14.10- rasm. Karst qudug'i.

Yerosti karst shakllari asosan karst g'orlaridan iborat bo'ladi. Bu eng yirik karst shakli bo'lib, uni *speleologiya* fani o'rghanadi.

Karst g'orlari dunyoring ko'plab mamlakatlarda uchraydi.

Karst g'orlarining eng chiroylisi Vengriyaning shimolida joylashgan Agtelek hisoblanadi. U uchi qavatli tuzilishga ega bo'lib, umumiyligi 23 km ni tashkil etadi. Kengligi 60m, balandligi 40 m gacha boradi. G'orning tubida soy oqadi, ba'zi joylarida yerosti ko'llari hosil bo'lgan. G'or shiftida stalaktitlar keng rivojlangan (14.11-rasm).



14.11- rasm. Karst g'oridagi stalaktitlar. [www/Saga.ua](http://www/Saga.ua)

Stalaktitlar pastdan ularga qarama-qarshi o'suvchi stalagmitlar bilan qo'shilib ketib, ko'p qirrali va g'aroyib shakldagi ustunlarni tashkil etgan (14.12-rasm). G'or devorlari silliq yuzali oqmalar bilan qoplangan. G'orning 55 x 43 m li keng joyida konserz zali tashkil etilgan. Zalning salqin toza havosi, ajoyib akustikasi, tiniq suvli ko'li, devorlaridagi koshinkor kristallar uni turistlar uchun ajoyib orogomgahga aylantirgan (14.13-rasm).




14.12-rasm. Karst stalaktitlari va ustunlari. [www/Saga.ua](http://www/Saga.ua)

G'or ichidagi stalaktitlar, stalagmitlar va ustunlarni hamda uning devoridagi oqmalarini hosil qilgan mineral zargarlikda oniks deb ataluvchi aragonit kristallaridan tarkib topgan (14.14-rasm).



14.13-rasm. Karst g'oridagi konserz zali. [www/Saga.ua](http://www/Saga.ua)



14.14-rasm. Aragonit kristallari. [www/Saga.ua](http://www/Saga.ua)

Yerosti suvlarining faoliyati ikkita omil bilan belgilanadi. Ulardan birinchisi *sussoziya* (lotincha suffosio – ostini kavlash) bo‘lib, ostki jinslardan gil zarralarining yuvilib ketishi va grunt mustahkamligining keskin pasayishi bilan bog‘liq. Ikkincisi esa yerosti suvlarining gidrodinamik bosimi bilan bog‘liq. Tuproqqa shamilgan yerosti suvleri gil jinslarini ko‘pchitib, ular orasidagi ishqalanish kuchini keskin kamaytiradi. Natijada ularning ustidagi jins massalari yog‘langan yuzadagidek past qiyalikda ham oson surilib ketadi. Bu jarayonlar tufayli **ko‘chkilar** rivojlanadi.

Tog‘li, tog‘oldi, daryo bo‘ylari zonalarida yashaydigan aholi va xalq xo‘jaligi obyektlariga katta xavf tug‘diradigan tabiiy ofatlardan biri **ko‘chkilardir**.

Yirik **ko‘chkilarning aksariyat qismi** zilziladan so‘ng yoki zilzila paytida hosil bo‘ladi.

Markaziy Osiyodagi yer **ko‘chishi** shakli va ko‘lamni bilan ajralib turadi. Ular lyoss qatlamlarida tarqalgan bo‘lib, yer ostiga shamilayotgan atmosfera yog‘inlari ma’lum chuqurlikkacha borib, suv o‘tkazmaydigan qatlamga yetgach yonbag‘ir bo‘ylab oqadi. Hosil bo‘lgan yuzaga siljish yuzasi deyiladi. Siljish yuzasi ustida turgan yer massasiga gravitatsiya kuchi ta’sir qilishi oqibatida yonbag‘irda tik qoya hosil qilib uzilish paydo bo‘ladi va uzilgan bo‘lak pastga siljiy boshlaydi. Harakatdagi jinslarning hajmi bir necha o‘n mln. m<sup>3</sup> largacha boradi.

Yer **ko‘chishi** yonbag‘irning qiyaligiga, tog‘ jinsi tarkibiga, atmosfera yog‘inlari miqdoriga bog‘liq holda rivojlanadi. Yonbag‘ir qiyaligi qanchalik nishab bo‘lsa, ko‘chkining tezligi shunchalik kata bo‘ladi. Ko‘p holatlarda ko‘chki ekzogen jarayonlardan sel, jarlanish, cho‘kish hodisalari bilan uyg‘unlashib ketadi (14.15-rasm).

Markaziy Osiyo hududlarida tarqalgan **ko‘chkilar** iqlim sharoiti bilan uzviy bog‘liq. Masalan, 1954, 1958, 1969, 1978, 1989 va 1998-yillarda atmosfera yog‘inlari me’yordan yuqori bo‘lgani uchun ko‘chki jarayonlari ham ko‘p bo‘lgan.


Respublikamizda ko‘chki jarayonlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Farg‘ona, Samarqandva Namangan viloyatlari hududlarida eng ko‘p tarqalgan.



*14.15-rasm. Yerosti suvlari natijasida yerning cho'kishi.  
(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).*

Ko'chkilarning faollashuv xususiyatini keyingi 40 yil ichida tahlil qilish ularning ko'payganligini ko'rsatadi. 1962-yildan 1970-yilgacha (ikki mingdan ortiq) va 1991-yildan 1999-yilgacha (uch mingdan ortiq) ko'chkilar sodir bo'lgan.

Ko'chkilar tufayli xalq xo'jaligi obyektlariga ham jiddiy zarar yetkazadi. Bunda sanoat inshootlari, temir yo'l relislari ham ishdan chiqishi mumkin(14.16-rasm).



*14.16- rasm. Temir yo'lning buzilishiga olib kelgan ko'chki.*

Yerosti suvlari geologik ishining yana bir ekzotik turi bo'lib **balchiq vulkanizm** hisoblanadi. Balchiq vulkanizm – bu yer qa'ridan ma'lum kanallar bo'ylab davriy ravishda gaz, suv va balchiqning otilib chiqishidir.

Yerosti suvlari buzish ishlaridan tashqari materiallarni tashiydi va yotqizadi.

Tashilish asosan kimyoviy shaklda, ya'ni chin va kolloid eritmalar tariqasida amalga oshiriladi.

Eritmalardan cho'kindi hosil bo'lishi ularda modda konsentrasiyasining oshishi, harorati va filtratsiyasining pasayishi va boshqa sabablar orqali ro'y berishi mumkin.

Yerosti suvlari bilan bog'liq bo'lgan yotqiziqlar orasida **ohakli va kreminiylu tuflar va qo'ng'ir temirtosh** keng tarqalgan.

*Ohakli tuflar* — kalsitdan tarkib topgan g'ovak va bo'shliqli jinslar bo'lib, yerosti suvlaringin chiqish joylarida hosil bo'ladi. Nisbatan yirik bo'shliqlarga ega bo'lgan bunday tuflar **travertinalar** deyiladi.

Tog' yonbag'irlarida travertinalarning yotqizilishi natijasida balandligi 200 m gacha boradigan supalar hosil bo'lishi mumkin. Bunday travertinalar Turkiyaning Paumqala qo'riqxonasida keng rivojlangan (14.17-rasm).



14.17-rasm. Paumqaladagi (Turkiya) travertina yotqiziqlari.

Termal yerosti suvlari yer yuzasiga ko'p miqdorda erigan kremnezem olib chiqadi. Bunday erosti suvlari davriy ravishda fontanlar shaklida otilib chiqadi. Ularning harorati +95°C gacha boradi. Geyzer suvlaridan opaldan tarkib topgan kremniyli tuflar yoki geyzeritlar hosil bo'ladi.




14.18-rasm. Yellowoston qo'riqxonasi dagi geyzerlar.

Hozirgi vaqtida bunday geyzerlar Kamchatkada va AQShning Yellowoston milliy parkida keng rivojlangan (14.18-rasm).

Issiq geyzer suvlarida odatda kremnezyom erigan bo'ladi. Yer yuzasida bunday suvlarning tez sovushi tufayli kremnezyom opal shaklida cho'kmaga o'tib kremniyli tuflar – geyzeritlar hosil bo'ladi (14.19).



14.19-rasm. Geyzeritlar.



14.20-rasm. Terrarossa jinsi.

Yerosti suvlarining geologik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qo'ng'ir temirtosh yotqiziqlari ham ma'lum. Odatda, ular temirming

eruvchan birikmalariga boyigan yerosti suvlarining chiqish joylarida shakllanadi. Bunga misol qilib Kerchi yarimorohidagi temir-ma'danli konni ko'rsatish mumkin. Ohaktoshlarda rivojlangan karst bo'shliqlarida temir va aluminiy gidrooksidlari bilan boyigan qizil rangli gilli jinslar rivojlangan. Ular karbonatli jinslarning yerimaydigan komponentlaridan tarkib topgan bo'lib, terrarossa (qizil tuproq) deyiladi (14.20-rasm).

Tog' jinslari ichidagi darzliklar va g'ovakliklar bo'yicha harakatlanuvchi yerosti suvlaridagi mineral komponentlardan kalsit va gips tomirlari, kremniy, siderit, fosforit va markazitning konkretsiyalari va sekretsiyalari hosil bo'ladi. Odatda yerosti suvleri terrigen cho'kindilar sementini shakllantiradi va ularni tog' jinslariga aylantiradi.

Yerosti suvlarining inson hayotidagi va xalq xo'jaligining bir qator muammolarini yechishdagi ahamiyati juda ko'lamlidir.

Birinchi navbatda yerosti suvleri qimmatli foydali qazilma sanaladi va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda hamda qishloq xo'jaligi va sanoat uchun kundalik ehtiyoj hisoblanadi.

Mineral va termal yerosti suvleri balneologik ahamiyatga ega va aholini sog'lomlashtirishda keng foydalaniladi. Yuqori haroratlari yerosti suvleri issiqlik energiyasi manbai sifatida turar joylarni isitishda, issiqxonalar va geotermal elektrostansiyalarda foydalaniladi.

Bizga tabiat tuhfa etgan yerosti suvlarining zaxirasi chegaralangan, biz ularni ifloslanishdan saqlashimiz va samarali foydalanishimiz lozim.

### **O'tilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar**

1. Yer osti suvleri deganda nimani tushunasiz?
2. Gidrogeologiya qanday fan?
3. Yerosti suvleri qanday paydo bo'ladi?
4. Kondensatsion va yuvenil suvlar qanday paydo bo'ladi?
5. Sedimentogen, smgenetik va epigenetik suvlar qanday hosil bo'ladi?
6. Artezian suvlar qanday suvlar?
7. Mineral suvlar haqida nimalarni bilasiz?
8. Yerosti suvlarining geologik ishi qanday namoyon bo'ladi?
9. Karst nima?

## KO'L VA BOTQOQLIKLAR

### 15-bob. KO'LLAR VA BOTQOQLIKLARNING GEOLOGIK ISHI

#### REJA

1. Ko'llarning paydo bo'lishi va turlari.
2. Ko'llarning kimyoviy tarkibi.
3. Ko'llarning geologik ishi.
4. Botqoqliklarning hosil bo'lishi.
5. Botqoqliklarning geologik faoliyati.
6. Torf yotqiziqlari.

**Kalit so'zlar:** Tasmali gillar, gumus, abraziya, sapropel, paralik, limnik, sapropelit, torf, torfyanik, diatomitlar, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir.

#### 15.1. Ko'llarning paydo bo'lishi va turlari

**Ko'l deb** quruqlik yuzasida suv bilan to'ldirilgan va Dunyo okeani bilan bevosita aloqaga ega bo'lmagan botiqqliklarga aytildi. Ularning umumiy maydomi 2,7 mln km<sup>2</sup> ga yaqin yoki quruqlik yuzasining 1,8% ni tashkil etadi. Ko'llarni o'rghanish bilan limnologiya yoki ko'lshunoslik geografiyasini shug'ullanadi.

O'zining o'lchamlari, kelib chiqishi, gidrogeologik rejimi, suvinimg kimyoviy tarkibi bo'yicha ko'llar juda xilma-xil bo'ladi. Egallagan maydoni bo'yicha eng yirigi bo'lib Kaspiy dengizi (395 ming km<sup>2</sup>), Shimoliy Amerikadagi Yuqori ko'li (82,4 ming km<sup>2</sup>) va Afrikadagi Viktoriya ko'li (69,4 km<sup>2</sup>) sanaladi.

Ko'llarning eng chuqurlari bo'lib Baykal (1741 m) va Tanganika (1435 m) hisoblanadi.

Botiqligining kelib chiqishiga bog'liq holda ko'llar **endogen, ekzogen va aralash turlarga** bo'lmadi. Botiqligi ichki geodinamik jarayonlar natijasida shakllangan **endogen ko'llar** orasida ularning ikkita bosh guruhi – **tektonik va vulkanik turlari** ajratiladi.

**Tektonik ko'llar** odatda yer po'stining rift strukturalidagi yirik yer yoriqlari zonalarida joylashgan. Ular odatda uzunligi va

katta chuqurligi bilan xarakterlanadi. Bu guruhgaga Baykal, Issiqko'l hamda Arabiston yarimorolidagi O'lik dengiz va Afrikadagi Tanganika kiradi (15.1, 15.2-rasmlar).



15.1-rasm. Baykal ko'lining fazodan  
ko'rinishi. [www.majical.ru](http://www.majical.ru)



15.2-rasm. Issiqko'l.

**Vulkanik ko'llar** so'ngan vulkanlar kraterida va portlash trubkalarida, ba'zan vodiylarning lava oqimlari bilan to'silib qolishi tufayli hosil bo'ladi. Krater ko'llari odatda dumaloq shaklga, nisbatan katta bo'limgan o'lchamlarga (Kamchatka, Kuril orollari va Islandiyadagi ba'zi ko'llar) ega bo'ladi (15.3-rasm).



15.3-rasm. Vulkanik ko'l  
<http://fotoart.org.ua>

**Ekzogen ko'llar** xilma-xil bo'ladi. Ularning botiqliklarini shakllantir-gan ekzogen jarayonlarga bog'liq holda muzlik, karst, qayir va delta, o'pirilishi va texnogen ko'llar ajratiladi.

**Muzlik ko'llari** odatda muzliklarning erozion faoliyati

(troqli vodiylar, haydash vannalari) yoki morenalarning notejis to'planishi tufayli vujudga kelgan botiqliklarni to'ldiradi. Ko'llar to'rtlamchi davrda qoplama muzlanishga ega bo'lgan rayonlarda

(Skandinaviya, Kola yarimoroli, Kareliya) ayniqsa keng tarqalgan (15.4-rasm).

**Karst ko'llari** oson eruvchi karbonatli, sulfatli, galoidli jinslar yuzasidagi yirik voronkalar va kotlovinalar yoki karst bo'shliqlari ustidagi tog' jinslarining o'yilishi tufayli vujudga kelgan



15.4-rasm. Muzlik ko'li. Shveytsariya.  
<http://fotoart.org.ua>

kotlovinalarning suv bilan to'ldirilishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday ko'llar odatda uncha katta bo'lmaydi. Ular Leningrad viloyatida, Onega-Belomor suvayirg'ichida va boshqa rayonlarda keng

tarqalgan. Ko'p yillik muzliklar rivojlangan viloyatlarda muzning erishi tufayli hosil bo'lgan bo'shliqlarning ustidagi tog' jinslarining o'yimalarda rivojlangan **termokarst ko'llar** ham uchraydi.

**Qayir va delta ko'llari** daryo o'zanlaridan ajrab qolgan, qayirda joylashgan uchastkalarda hosil bo'ladi yoki ularning deltalaridagi ko'p sonli tarmoqlarining qismi hisoblanadi. Bunday ko'llar odatda o'roqsimon yoki cho'zimchoq shakllarga ega bo'ladi.

**O'pirillsh ko'llari** asosan tog'li rayonlarda tarqalgan va qoyalarning o'pirilish tufayli hosil bo'lgan jinslar bilan daryo vodiylarining to'silib qolishi natijasida paydo bo'ladi. O'zining hosil bo'ishi mexanizmi bo'yicha ular to'g'onlidir, chunki bunda ko'l botiqlikligining bir devori to'g'on hisoblanadi. Pomirdagi Murg'ob daryosida 1911 yilgi zilzila yirik Usoy o'pirilishi daryo vodiysi to'sib Sarez ko'li vujudga kelgan (15.5-rasm).

**Texnogen ko'llarga** inson tomonidan qurilgan to'g'onlar kiradi. Ularni suvomborlari ham deyishadi (To'xtog'ul, Andijon, Pachkamar, Chorvoq va b.) (15.6-rasm).



15.5- rasm. Sarez ko'li.



15.6- rasm. Chorvoq suv ombori.

Ba'zi yirik ko'llar (dengizlar) o'tmishdagi dengiz havzalarining goldiqlari hisoblanadi. Bular Kaspiy va Orol singari relikt ko'llardir. Yer sharidagi ko'pchilik yirik ko'llar tektonik yoki aralash genezisiga ega.

Ko'l botiqliklarini to'ldiruvchi suv turli yo'llar bilan kelib chiqishi mumkin. Suvning ko'pchilik qismi ko'lga kelib tushadigan atmosfera yog'in-sochinlari va suv oqimlari bilan bog'liq. Bir qator ko'llar yerosti suvlari bilan to'yinadi. Ba'zi relikt ko'llar dengiz suvini saqlab qolgan.

## 15.2. Ko'llarning kimyoiyi tarkibi

**Gidrogeologik rejimi ho'yicha ko'llar oqar va oqmas ko'llarga bo'linadi. Oqar ko'llar** unga quyiladigan va undan oqib chiquvchi oqimlar bilan bog'liq. Bunga Sarez ko'li yorqin misol bo'ladi (unga Murg'ob daryosi quyiladi va Bartang daryosi oqib chiqadi).

**Oqmas ko'llardan** suv oqimlari chiqmaydi, ularning butun suvi bug'lanishga sarf bo'ladi (Kaspiy, Orol, Balkash va b.).

**Nam (gumid) iqlimli** hududlarda rivojlangan ko'llar asosan oqar ko'llar bo'lib, ularda tuzlarning miqdori 5 g/l dan oshmaydi (Sarez va b.).

**Quruq (arid) iqlimda** sho'rlashgan (5 - 25 g/l) va sho'r (25 g/l dan ortiq) ko'llar rivojlanadi.

Ba'zi hollarda yuqori darajada bug'lanish tufayli ko'llardagi suv namakobga aylanadi. Masalan, Elton va Boskunchoq ko'llarida sho'rlik 280 g/l ga, O'lik dengizda esa 310 g/l ga boradi (15.7-rasm).

Sho'r ko'llar rapasidan tuzlar kristallanib kimyoviy yo'l bilan cho'kmaga o'tadi. Ko'llarning tuz tarkibi quyidagi asosiy komponentlарining miqdori bilan belgilanadi:  $\text{HSO}_3^{-1}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{Cl}^{-1}$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{Na}^{1+}$ ,  $\text{K}^{1+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ . Uncha ko'p bo'limgan miqdorda kremniy, fosfor va temir birikmalari uchrashi mumkin.



15.7- rasm. Rapadan tuz kristallarining hosil bo'lishi. <http://dead-sea.narod.ru>

O'lik dengiz Isroil va Iordaniya davlatlari orasida joylashgan dunyodagi eng sho'r ko'l. O'lik dengizning sohillari Yer sharidagi eng past joy bo'lib, okean sathidan 417 metr past. Uning juda sho'rligi tufayli hech bir organizm yashay olmaydi.

Ko'llar ustuvor komponentlarimng yuqori mineralizatsiya darajasiga bog'liq holda karbonatli (sodali), sulfatli va xloridli turlarga bo'linadi. Ko'pchilik ko'llarda, ayniqsa chuchuk ko'llarda erigan komponentlardan tashqari juda mayda chang va gil zarralari hamda plankton organizmlar mavjud bo'ladi.

### 15.3. Ko'llarning geologik faoliyatি

Ko'llarning ishi dengiz suv havzalarining faoliyatiga juda o'xshash, ammo ulardan asosan ko'lami bilan farq qiladi. U sohilni

va tubining sohilbo‘yi qismini yemiradi, yemirilgan materiallarni saralaydi va havzaning ichki qismiga tashib yotqizadi.



15.8-rasm. Baykal ko‘li qirg‘og‘ida abraziya jarayonlari. [www.majical.ru](http://www.majical.ru)

minimal bo‘ladi.

Ko‘llarning yemiruvchi jarayonlari sun’iy suv havzalarida batafsil o‘rganilgan. Ba’zi ko‘llarda 5 yil davomida sohil 50 m ga chekingan.

Ko‘Ining sohilni yemiruvchi faoliyati natijasida hamda daryolar, soylar va shamollar keltirgan barcha materiallar to‘lqinlar va suvosti oqimlari tomonidan butun suv havzasiga tarqatiladi va uming tubida yotqiziladi. Tashilish mexanik shaklda ham, chin va kolloid eritmalar qabilida kimyoviy shaklda ham amalga oshiriladi.

Cho‘kindi to‘plash (akkumulatsiya) faoliyati ko‘llarning geologik ishida muhim o‘rin tutadi.

Ko‘llarda cho‘kindilarining **terrigen, organogen va xemogen turlari** hosil bo‘ladi. Cho‘kindilarining u-yoki bu tipining ustuvorligi iqlim sharoitlariga, relefga, ko‘llarning oqar-oqmasligiga va sho‘rligiga bog‘liq. Ko‘l yotqiziqlari nisbatan tinch gidrodinamik rejimda hosil bo‘lganligi tufayli gorizontal qat-qatlikka ega bo‘ladi.

Nam iqlimli hududlarda joylashgan chuchuk oqar ko‘llar uchun **terrigen** (bo‘lakli) cho‘kindilar xarakterli bo‘ladi. Bunga quruqlikni o‘rab turgan tog‘larning parchalangan relyefi sababchi bo‘ladi.

**Terrigen yotqiziqlar illardan, qumlardan, ba’zan graviy va g‘o‘laklardan** iborat bo‘ladi. Yirik ko‘llar yotrizqlarining taqsimlanishida dengizlardagi kabi muayyan zonallik kuzatiladi. Qoyali sohillar bo‘yida, daryo va soy deltalarida dag‘alroq qum-

Ko‘llarning yemiruvchi geologik ishi (ko‘l abraziyası) asosan sohilbo‘yi qismida urinma to‘lqinlar ta’sirida sodir bo‘ladi. To‘lqimlar ta’sirida sohil yemiriladi va asta-sekin chekinadi (15.8-rasm). Yemirilish jadalligi suv havzasining kattaligiga bog‘liq. Kichik ko‘llarda abraziya

graviy-g'o'lakli material to'planadi. Suv havzasining ichki qismiga mayda alevritli va gilli zarralar olib ketilib, bu yerda illi yotqiziqlar hosil bo'ladi. Kichik ko'llarda illi cho'kindilar bevosita sohil yaqinida boshianadi.

Ko'llarning yupqa gorizontal qat-qatlilikka ega bo'lgan qum-gilli cho'kindilari *tasmali gillar* deyiladi. Ulardagi oqish tusli qumli qatlamchalar mo'tadil va sovuq iqlimda bahor-yoz fasllarida to'planadi. Bu davrda yomg'irlar yog'ishi va qorlarning yoppasiga erishi tufayli ko'llarga ko'p miqdorda bo'lakli material tashib keltiriladi. Qish oylari mualloq holdagi juda mayda gil zarralaridan qora rangli gil qatlamchalari hosil bo'ladi. Shunday qilib, qatlamchalarning har bir jufti cho'kindi to'planishning yillik sikliga to'g'ri keladi.

Nisbatan sayoz ko'llarning tinch gidrodinamik sharoitlari boy organik dunyoning rivojlanishiga va, demak, organogen yotqiziqlarning shakllanishiga imkon beradi.

Tirik organizmlari asosan oliv (osoka, trostnik, qamish va b.) va tuban (ko'kyashil va diatomli suvo'tlari) o'simliklardan tarkib topgan. Ularning orasida cho'kindi to'planish jarayonlari uchun muhim bo'lgan ikkitavaqali mollyuskalar va gastropodalarni ko'rsatish mumkin.

Organogen cho'kindilar gumid iqlimli hududlardagi chuchuk va sho'rashgan ko'llarida eng keng rivojlangan. Ularga sapropellar, diatomitlar va chig'anoqli ohaktoshiar kiradi.

Sapropel (yunoncha «sapros» - chirigan, «peles» - loyqa) anaerob sharoitlarda (kislroodsiz) juda mayda o'simlik va hayvon qoldiqlarining parchalanishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday organizmlar orasida ko'kyashil suvo'tlari yetakchi ahamiyatga ega. Bu jarayonlarda bakteriyalar katta rol o'yaydi. Sapropelli cho'kindilar to'plamshi davomida ular zichiashib boradi, suvsizlanadi va oqibatda *sapropelit* deb ataluvchi qo'ng'ir ko'mir turiga aylanadi. Sapropellar ko'pincha uncha katta bo'limgan va sayoz suv havzalarida hosil bo'ladi. Yirik va chuqur ko'llarda esa sapropel gilli cho'kindilar bilan aralashib ketib, yonuvchi slanetslar hosil bo'ladi.

Chuchuk suvli ko'llarda diatom suvo'tlarining kremliyli g'iloflari to'plamlaridan iborat bo'lgan organogen balchiqli

cho'kindilar ham uchraydi. Keyinchalik ular diatomit va diatomitli trepel deb ataluvchi tog' jinslariga aylanib ketadi.

Turli turkumdag'i ko'llarda xilma-xil **xemogen cho'kindilar** ko'p uchraydi. Ular arid iqlimli o'lkalardagi, ko'pincha oqmas ko'llarda keng tarqalgan. Bu suv havzalariga xos bo'lgan faol bug'lanish eritmalarining tuzlarga to'yinishiga va kimyoviy yo'l bilan cho'kmaga o'tishiga olib keladi.

Kimyoviy cho'kindilarning bosh turlari bo'lib osh tuzi ( $\text{NaCl}$ ), kaliy tuzi ( $\text{KC}_1, \text{MgCl}_2$ ), glauber tuzi yoki mirabilit ( $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ), gips ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{N}_2\text{O}$ ), soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ), ba'zan bura ( $\text{NaB}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{N}_2\text{O}$ ) hisoblanadi. Cho'kindilarda u-yoki bu tuzlarning ustuvorligiga bog'liq holda xlоридли, sulfatli, sodali va boratli ko'llar ajratiladi. Bunday ko'llar Kaspiy bo'yida (Elton, Baskunchak, Inder), Kulun cho'lida (Mixaylov, Petuxov) keng tarqalgan.

Hozirgi vaqtida tuzli minerallarning cho'kmaga o'tish tezligi bo'yicha eng xarakterli sho'r havzalardan O'lik dengizni va Qorabo'g'ozni misol qilib ko'rsatsa bo'ladi.

O'lik dengiz dastlab pliotsenda Buyuk rift vodiysi bo'ylab cho'zilgan dengiz ko'rfazi bo'lib, pleystotsenda asosiy dengiz havzasidan ajralib qolgan. Pliotsendan hozirga qadar to'xtovsiz cho'kayotgan bu rift vodiysida hosil bo'lgan tuz yotqiziqlarining qalinligi 4000m dan ortiqdir (15.9-rasm). To'rtlamchi davr maboynda iqlimning davriy o'zgarishi natijasida ko'lning sathi va tuzlar konsentratsiyasi o'zgarib turgan.



15.9-rasm. Hozirgi vaqtida hosil bo'lgan tuz yotqiziqlari. <http://dead-sea.narod.ru>

tashqari rift zonasida joylashgan ko'plab mineral buloqlar ham bu

O'lik dengizning sho'rligiga uni to'yintiruvchi Jordان daryosining tuzli yotqiziqlar orqali oqib o'tishi kuchli ta'sir etadi. Bundan

ko‘Ining tuz rejimiga o‘z hissasini qo‘sadi. O‘lik dengizning yana bir xususiyatlaridan biri unda brom miqdorining yuqoriligidir.

Kaspis dengizning sharqiy qirg‘oqidagi Qorabo‘g‘oz ko‘rfazi 18000 km<sup>2</sup> maydonga ega bo‘lib, Kaspis dengiz bilan kengligi 100-150m, uzunligi 10 km.ga yaqin tor bo‘g‘oz orqali tutashgan, chuqurligi 3 m atrofida. Kaspis dengizdan tuzlar konsentratsiyasi va umumiy sho‘rligi bo‘yicha keskin farq qiladi.

Hozirgi vaqtida natriy va magniy tuzlari hamda galit, epsomit va astraxanit Qorabo‘g‘oz ko‘rfazining 75% suv qoplagan maydonida cho‘kmaga o‘tmoqda 30-inch yillargacha bu yerda asosan glauberit cho‘kmaga o‘tgan bo‘lsa, galit birinchi marta 40-inch yillardan boshlab hosil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston zamini kaliy va osh tuzlariga boy, lekin sulfat tuzlari nisbatan kam tarqalgan. Ular uchta mustaqil formatsiyalarga: yuqori yura, quyi bo‘rda dengiz va neogen-to‘rtlamchi kontinental galogen formatsiyalarga ajratiladi.

Yuqori yura galogen dengiz formatsiyasi O‘rtta Osiyoning janubidagi katta hududni qamrab oladi. O‘zbekistonda bu formatsiya Janubiy Tojikiston cho‘kmasning Surxondaryo qismini, Hisor tizmasining janubiy-g‘arbiy etaklarini va mamlakatimizning g‘arbiy tekisliklarini o‘z ichiga oladi. Lekin tekislik hududlarida bu formatsiya faqat angidrid tarkibiga ega.

Hisor tizmasining janubiy-g‘arbiy etaklarida bu formatsiya uchihadli tuzilishga ega. Tuz qatlamlarining ostida oksford ohaktoshlari yotadi. Ularning ustida avval angidridlar (qalinligi 400 m gacha), keyin osh tuzi (450 m va undan ortiq) yotqiziqlari, eng ustida qoplama angidridlar gorizonti (15 m gacha) mavjud. Bu hududda bir qancha konlar (Baybicha, Tyubegatan, Xo‘jaikon va boshqalar) tarqalgan. Baybicha koni qizg‘ish osh tuzidan iborat bo‘lib, uning zaxirasi 234 mln.tonnani tashkil etadi. Tyubegatan konida kaliy va osh tuzi yotqiziqlari rivojlangan. Bunda kaliy tuzining zaxirasi 1200 mln. tonnani tashkil etadi.

Xo‘jaikon komida ham osh tuzi, ham kaliy tuzi mavjud bo‘lib, u Kugitantovning sharqiy etaklarida joylashgan. Bunda konning uzunligi 2,5 km, kengligi 860 m va qalinligi 200m ni tashkil etadi.

Neogen-to‘rtlamchi davr kontinental galogen formatsiyalar Farg‘ona vodiysida, quyi Amudaryo va Ustyurtda keng tarqalgan.

Farg'ona vodiysining shimoliy-g'arbiy qismidagi galogen formatsiya gips va angidriddan iborat bo'lib, amaliy ahamiyatga ega emas.

O'zbekistonning g'arbiy qismidagi kontinental galogen formatsiya asosan to'rilamchi davr yotqiziqlarida mavjud va hozirgi zamon sho'r ko'llarda cho'kmaga o'tmoqda. Bu yerda osh tuzi Borsakelmas, Koraumbet va Qamisbuloq konlarida, mirabilit Tumruq konida, epsomit Qo'shghanotov konida mavjud.

Sohilbo'yi zonalarida kontinentlardan tashib keltirilgan kimyoviy nurash va tuproq mahsulotlari bilan boyigan kolloid eritmalarining koagulatsiyasi tufayli temirli cho'kmdilar hosil bo'ladi. Odatta, ular konsentrik po'choqsimon tuzilishli temir oksidlaridan tarkib topgan mayda ajratmalardan iborat. Bunday hosilalar oolitli yoki loviyali temir ma'danlari deyiladi. Ba'zan ular ko'l tubida yaxlit qatlamlarni hosil qiladi.

Katta qalinlikda nurash qobiqlari rivojlanishi xarakterli bo'lgan tropik va subtropik iqlimli mintaqalardagi ko'llarda, temirli ma'danlardan tashqari, oolitli tuzilishga ega bo'lgan glinozemli cho'kmdilar to'planadi. Ular asosan aluminiy gidroksidlaridan tarkib topgan va keyinchalik bu metallning qimmatbaho ma'daniga - boksitga aylanadi.

Yerosti suvlarini tomonidan kalsiy karbonat keltirilishi tufayli karbonatli cho'kmdilar: **ko'l bo'ri, mergeli, ohakli konkretsiyalarning** qatlamchalari va linzalari hosil bo'ladi.

Nisbatan mayda ko'llar odatta cho'kmdilar bilan to'lib va o'simliklar bilan qoplanib botqoqlikka aylanib ketadi.

Ko'llarda juda xilma-xil cho'kmdilar to'planadi va ularning ko'pchiligi foydali qazilma sanaladi. Bu, birinchi navbatda mineral tuzlar, soda, temir ma'danlari, boksitlar, o'g'it va davolash balchiqlari hamda bir qator organik birikmalar olinadigan yonuvchi slanetslar, sapropellardir. Graviy-qum-gilli yotqiziqlar mahalliy qurulish materiallari sifatida foydalaniladi.

#### 15.4. Botqoqliklar .

**Botqoqlik deb** yotqiziqlarning ustki gorizontlari ortiqcha namlangan va namlikda o'suvchi botqoqlik o'simliklari rivojlangan

maydonlarga aytildi. Yer sharida ular 2 mln km<sup>2</sup> ga yaqin maydonlarni egallab yotadi.

Botqoqlik ortiqcha namlik uchun sharoit yaratiladigan barcha relyef elementlarida shakllanadi. Namlanishga mo'l yog'ingarchilik sababchi bo'ladi, shuning uchun ham botqoqliklar nam gumid iqlimli o'lkalarda hamda grunt suvlarining drenajiga to'sqinlik qiluvchi suv o'tkazmaydigan qatlamlar yer yuzasiga yaqin joylashgan va bu suvlar sathining yuqori bo'lishimi ta'minlovchi joylarda rivojlanadi. Ko'pchilik hududlarda bunday suv o'tkazmaydigan gorizontlar bo'lib muzlagan tog' jinslari sanaladi. Joylashgan o'rni, ayniqsa to'yinishi va o'simliklariga bog'liq holda **pastkamlik, balandlik, oraliq** (kontinentlar ichida) va **dengizbo'yi botqoqliklari** ajratiladi.

*Pastkamlik botqoqliklari* relyefning past joylarida uchraydi va o'tmishdagagi ko'llarning botqoqlashgan kotlovinalarini egallaydi. Ular odatda turli-tuman o'simliklar rivojlanishini ta'minlovchi erigan mineral komponentlarga boy grunt suvlarini bilan to'yinadi. Bular yashil moxlar, trostniklar, osokalar hamda butasimon o'simliklardir (15.10-rasm).



15.10 - rasm. *Pastkamlik botqoqlik o'simliklari.*  
<http://fotoart.org.ua>

*Balandlik botqoqliklari* suvayirg'ichlarning sust botiq uchastkalarida, tepaliklarning past nishabliklarida va daryo supalarida joylashgan bo'ladi. Ularning to'yinishida asosan atmosfera yog'in-

sochinlari ishitirok etadi. Bu joylarda grunt suvlari odatda gipsometrik pastda joylashgan bo'ladi. Atmosfera yog'in-sochinlarida mineral tuzlar juda kam uchraydi. Shuning uchun ham bunday botqoqliklarda ozuqa moddalariga talabchan bo'Imagan o'simliklar rivojlanadi. **Oraliq botqoqliklari** ham atmosfera yog'in-sochinlari, ham yerosti suvlari bilan to'yinadi.

**Dengizbo'yi botqoqliklari** dengiz sohillaridagi pasttekisliklarda joylashgan bo'ladi va tropik va subtropik o'lkalar uchun xarakterlidir. Ular keng hududlarni egallab yotadi va priliv vaqtida davriy ravishda suv bilan qoplanadi. Ular asosan atmosfera yog'in-sochinlari bilan to'yinadi. Bunda daraxtsimon o'simliklarning ildiz tizimi suv ostida uzoq vaqt bo'lishga moslashgan. Bunga misol qilib tropiklarning mangrli o'simliklarini ko'rsatish mumkin (15.11-rasm).



15.11-rasm. Dengizbo'yi tekisliklari botqoqligi. <http://fotoart.org.ua>

Botqoqliklarning o'ziga xos turi yirik daryolarning deltalarida rivojlanadi; ularni **plavnyalar** deb atashadi.

### 15.5. Botqoqliklarning geologik faoliyati

Botqoqliklarning geologik ishi asosan cho'kindi to'planish jarayonlari bilan belgilanadi. Bu yerda **organogen** va **kamroq kimyoviy** cho'kindilar to'planadi. Terrigen cho'kindilar deyarli uchramaydi.

**Organogen yotqiziqlar** orasida torf juda muhim hisoblanadi. Uning hosil bo'lishi uchun birlamchi material bo'lib turli botqoqlik

o'simliklari, moxlar, o'tlar, butalar va daraxtlarning qoldiqlari hisoblanadi. Bunda uglerod, vodorod, kislorod va azotdan tarkib topgan o'simliklarning kletchatkalari muhim ahamiyatga ega.

Yetarli miqdorda organik qoldiqlar to'planishi natijasida botqoqliklarga havo kislorodining kirib borishi chegaralangan bo'ladi. Shuning uchun ham organik massaning keyimgi o'zgarishlari kislorod kam yoki umuman bo'lmanган muhitlarda kechadi. Havzalarning havo bilan qisman aloqasi bo'lgan ustki qismida o'simlik materiali qisman chirindiga yoki gumusga (lotincha «xumus» - tuproq) aylanadi. Havzaning kislorod umuman bo'lmanган pastki qismida va anaerob bakteriyalar faoliyati muhitida chiriyotgan o'simlik massasi torfga aylanadi.

Havo yetib bormaydigan va torf hosil bo'lishiga olib keladigan bu chirishning sekin kechadigan jarayoni **gumifikatsiya** yoki **uglefiksatsiyaning boshlang'ich bosqichi** deyiladi. Bu jarayonda yotqiziqlardagi uglerodning miqdori asta-sekin oshib boradi (57-59 % gacha).

Torf o'simlik qoldiqlaridan tarkib topgan jigarrangli, qo'ng'ir yoki deyarli qora rangli organogen (fitogen) cho'kindi jins hisoblanadi.

Ustuvor o'simlik tarkibiga bog'liq holda torfning moxli, o'tli va daraxtli turlari ajratiladi. Ayniqsa botqoqlashgan ko'llar o'mida hosil bo'lgan torfyaniklarda torflar xilma-xil bo'ladi. Torf qalinligi 20 m gacha boradigan linzasimon va qatlamsimon yotqiziqlar sifatida yotadi. Yer yuzasida torfyaniklar 1,75 mln km<sup>2</sup> maydonni egallaydi. Rossiyada ularning asosiy qismi G'arbiy Sibirda va Kareliyada kuzatiladi (15.12-rasm).

**Xemogen cho'kindilar** botqoqliklarda juda kam hosil bo'ladi va ular muayyan komponentlarning yerosti suvlarini bilan keltirilishi bilan bog'liq. Kalsiy karbonat miqdori yuqori bo'lgan qattiq grunt suvlarini bilan to'y madigan pasttekislik botqoqliklarida ohaktosh linzalari hosil bo'ladi. Erigan temirli birikmalardan tiklovchi muhitda siderit tarkibli botqoqli temirli ma'danlar, oksidlovchi muhitda esa qo'ng'ir temirtoshlar hosil bo'ladi.

Botqoqlik yotqiziqlari orasida asosan torf amaliy ahamiyatga ega. U elektrostansiyalarda yoqilg'i sifatida, kimyo sanoatida bir qator organik birikmalar (ammiak, spirt, fenol, parafin va b.) olish

uchun, qishloq xo'jaligida esa tuproqni o'g'itlash, qurilishda issiqlik saqllovchi plitalar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Qadimiy botqoqliklarda ko'p miqdorda ko'mir hosil bo'lgan. Ular diagenez va metamorfizm jarayonlari tufayli torf yotqiziqlarining keyingi ko'mirlashishi natijasida hosil bo'lgan. Ko'mirlashish darajasining oshib borishl bo'yicha ko'mirning quyidagi hosil bo'ladi: qo'ng'ir ko'mir (67-78 % uglerod) - toshko'mir (75-97 %) - antratsit (92-97 %). Torfdan kelib chiqqan barcha ko'mirlar gumusli va sapropelitdan hosil bo'lganlari esa sapropelli ko'mir deyiladi.

Qadimiy dengizbo'yi tekisliklari botqoqliklari sharoitlarida shakllangan ko'mirli havzalar *paralik* (yunoncha «paralios» - sohilbo'y), kontinentlar ichidagilari esa *linnik* havzalar deyiladi.



*15.12-rasm. Torf yotqizig'i.*

Geologik tarixda ko'mir hosil bo'lish quruqlik o'simliklari rivojlanan boshlagan devon davridan boshlab kuzatiladi. Eng faol ko'mir to'planish karbon, perm, yura va paleogen davrlariga to'g'ri keladi.

### **O'tilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar**

1. Ko'llarning qanaqa genetik turlari mavjud?
2. Ko'llar qanday xususiyatlari bo'yicha tasniflanadi?
3. Qanday ko'llar tektonik harakatlar tufayli vujudga kelgan?

4. Tasmali gillar qanday hosil bo‘ladi?
5. Evaporit havzalari deganda nimani tushunasiz?
6. Paralik va limnik ko‘mir havzalari o‘zaro qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?
7. Nima sababdan ko‘mirlanish bosqichlarida uglerod miqdori ortib boradi?
8. Balandlik, oraliq, pastqamlik va dengizbo‘yi botqoqliklari bir-biridan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?

## **16-bo'b. FATSIYA VA FORMATSIYA HAQIDA TUSHUNCHА, PALEOGEOGRAFIYA**

### **REJA**

- 1. Fatsiya haqida tushuncha.**
- 2. Fatsiya bosqichlari.**
- 3. Fatsial tahlil turlari.**
- 4. Litologik tahlil.**
- 5. Bionomik tahlil.**

**Kalit so'zlar;** fatsiya, formatsiya, fatsial tahlil, terrigen, biogen, xemogen, batial, litoral, sublitoral, litologik tahlil, bionomik tahlil, ryab.

### **16.1. Fatsiya haqida tushuncha**

Fatsiya termini 1838y shveytsar olimi Gressli tomonidan geologiyaga kiritilgan (lotincha, tashqi ko'rinishi). Uning fikricha fatsiya o'xshash organik qoldiqlari va litologik tarkibi bir xil bo'lgan cho'kindi tog' jinsiga aytildi.

Hozirgi davrda - vulkanogen, magmatik va litologik fatsiyalar ajratiladi.


V.I.Popov fikricha fatsiya - ma'lum organik qoldiqlarni o'zida saqlab qolgan bir xil litologik tarkibli cho'kindilar hosil bo'lgan sharoit.

Qatlam bo'y lab (po gorizontali) bir xil tog' jinslarining boshqa xilga almashinishi fatsial o'zgarish deyiladi.

**Fatsiya** – o'ziga xos litologik va paleontologik belgilariga asosan boshqa qatlamlardan ajralib turuvchi tog' jinsi qatlami tushuniladi. Bu belgililar fatsial belgilari deyiladi (16.1- rasm).

Umuman olganda cho'kmdi jinslar hosil bo'lish jarayom tektonik rejim va muhitning geografik sharoitiga bog'liq.

**GEODINAMIK SHAROIT, PALEOIQLIM, CHO'KINDI  
MANBAI**  
**CHO'KINDI HOSIL BO'LISH SHAROITI: TERRIGEN,  
BIOGEN, XEMOGEN JARAYONLAR**  
**FATSIYALAR – BIR XIL FIZIK-GEOGRAFIK MUHITDA  
TO'PLANGAN CHO'KINDI JINSLARNING HOSIL BO'LISH  
SHAROITI**



*16.1. rasm Birinchi fatsial zonallik qonunini tushuntiruvchi sxema.  
1-tog'li viloyatlar va quruqlik yotqizqlari; 2-dengiz sohili; 3-6 – dengiz  
cho'kindilari (3-shag'altoshli, 4-qumli, 5-pelitli, 6-karbonatli).*

### **16.2. Fatsiya bosqichlari**

Bu sharoitlarni xilma-xilligini 4 etapga (bosqichga) ajratish mumkin:

1. jinsning hosil bo'lishi (manbasi); 2. transportirovka (tashilish usuli); 3. havzalarda to'planishi; 4. diagenez natijasida tog' jinsiga aylanishi.

Cho'kindi materiali 3 manbadan (istochnik) iborat:

1. litosfera, 2. vulkanizm, 3. kosmos.

Cho'kindi hosil bo'lishida asosan uchi sharoit inavjud:  
1. kontinental (nurash kuchliroq), 2. dengiz (to'planish kuchliroq), 3.  
oraliq (bir xil).

### 16.3. Fatsial analiz

Fatsial analiz o'tmishning geografik sharoitlarini tiklashda aktualizm prinsipiiga asoslanadi. Bu paleogeografik rekonstruksiya (qayta tiklash) degani.

Fatsial analiz 2 qismga bo'linadi: Litologik analiz (tahlil) va Bionomik analiz (tahbil)

### 16.4. Litologik analiz (tahlil)

1. Litologik analiz (tahlil) – paleogeografik sharoitni tog' jinslari xossalariiga asosan tiklash uslubi;

Qadimiy geografik sharoitmni tog' jinslarining xususiyatlariga, tarkibi, rangi va teksturasiga qarab tiklanadi.

Bir xil turdag'i cho'kindi tog' jinslari (qum, gil) har xil (fiziko-geografik) sharoitda hosil bo'lishi mumkin. Litologik tarkibi (sostavi) bir xil bo'lgani bilan ular bir qator struktura-tekstura va boshqa belgilari bilan ajraladi va hosil bo'lish sharoiti aniqlanadi.

Masalan Tog' jinslarining rangi. Kulrang va qizil sarg'ish qumtosh.

Qizil qo'ng'ir va sariq rang. Terrigen va karbonat jinslarda bu rang temir oksidining (odatda suvsiz) mayda zarralariga bog'liq. Bu birikmalar temir



16.2-rasm. Qatlam ostki yuzasidagi begona predmetlarning tirkashidan hosil bo'lgan jo'yakchalar aks tasvirining fotosurati. Yuqori karbon, doctor gorizonti. Janubiy-G'arbiy Farg'ona.

mikdori yuqori bo'lgan birlamchi jinslarning nurashidan hosil bo'ladi. Ular issiq-nam iqlim sharoitida (gumid) lateritlardagi ellyuviy yotqiziqlarida to'planadi. Umuman olganda, bu rang yotqiziqlarning oksidlovchi sharoitda kontinental iqlimda hosil bo'lgan.

Kulrang gil yopiq havzalarda kislorod tanqisligi (tiklovchi) sharoitida, ya'ni ko'lda hosil bo'ladi.



*16.3-rasm. Qatlam ichidagi bir tomonga qiyalangan qiyshiqliklarning fotosurati. Yuqori bo'r. Markaziy Qizilqum.*

kuchlar ta'sirida notejisliklarni tiosil qiladi (16.2).

**Jinslarning qatlamligi.** Qatlamlilik cho'kindi hosil bo'lishda tashqi sharoitning o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi.



*16.4-rasm. Qatlam ichidagi bir tomonga qiyalangan qiyshiqliklarning fotosurati. Yuqori bo'r. Markaziy Qizilqum.*


hosil bo'ladi. Daryo oqimlarida hosil bo'lgan qiyshiqlik bir tomonga – suv oqish tomonga yo'nalgan, dengizning qirg'oq qismida – har tarafga yo'nalgan, mayda eol yotqiziqlarida esa juda tartibsiz yo'nalgan bo'ladi (16.4-rasm).

**Cho'kindi tog' jinslarining tekstura belgilari.** Tog' jinsini hosil qiluvchi qismalarining bir-biriga nisbatan joylashushi, donalarining yo'naliishi va tarqalishini aks ettiruvchi belgilari to'plami tekstura deyiladi. Ular qatlam yuzalarida har xil

**Qiyshiqlik** – mayda qatlamlachalarning shu jinsdan tashkil topgan qatlarning tepe va past qismiga nisbatan burchak ostida (qiyshiqlik) joylashuviga aytildi (16.3-rasm). Bu tekstura suv va havo oqimi ta'sirida

**Parallel qatlamlilik** – qatlamlar yuzasi bir-biriga nisbatan parallel joylashgan. Nisbatan sokin dengiz va ko'l havzalarida to'lqinlanish chegarasidan quy'i qismida hosil bo'ladi.

**Qatlamsiz** – tekstura dengiz cho'kindi hosil bo'lish jarayonining juda sokin joylarida hosil bo'ladi. Qatlamsizlik muzliklar va ellyuvial yotqiziqlar uchun ham xos.



16.5-rasm. To'lqin ryablarning sxematik tasvirlanishi.

Qatlam yuzasidagi belgi va izlar Qotish ko'pburchaklari va yoriqlari – quruqlikda\_(taqirda) va yassi dengiz qirg'oqlarida, asosan sahro iqlimida uchraydi (16.6-rasm). Bu sharoitlarda yomg'ir tomchilarining izlari ham uchraydi.



16.6-rasm. Qatlam yuzasidagi simmetrik to'lqin ryablarining fotosurati. Janubiy-G'arbiy Farg'ona.

Daryo ryablari ham asimetrik, lekin balandroq va kalta ko'rinishga ega, asosan gurmida iqlimga xos. Dengiz satxining 20-40m havzalarida, kamroq katta ko'llarda hosil bo'lgan ryablar simmetriya tuzilishiga ega (16.7-rasm).

### To'lqinsimon

**qatlamlilik** – qatlamning yuqori qismi to'lqinsimon qayrilgan yuzalarga ega bo'ladi. Ular asosan dengizning past havzali qirg'oqlarida suv harakati yo'nalishining davriy o'zgarishiga bog'liq holda hosil bo'ladi (16.5-rasm).

**Gips va tuz** kristallarining belgisi quruqlikda sho'r ko'llar, qurib borayotgan lagunalar qirg'oqlarida arid iqlim sharoitida paydo bo'ladi.

**Ryab.** Eol ryablarasi asimetrik, past va uzun arid iqlim sharoitida uchraydi.

## 16.5. Bionomik analiz (tahlil)

**Bionomik analiz (tahlil)** – paleogeografik sharoitni organizmlarning toshqotgan qoldiqlari bo'yicha tiklash uslubi.



16.7-rasm. Gilli cho'kindilar yuzasida rivojlangan qurish ko'pburchaklari-taqirlar.

Paleogeografik sharoitlarni tiklash bo'yicha o'tkazilayotgan izlanishlarda bir joyda va bir qatlamda uchragan toshqotgan organizmlarning kompleksi o'rganiladi. Buning natijasida paleobiotsenozi, ya'ni qadimda bir xil sharoitda yashagan organizmlar to'dasini tiklashga erisibladi.

### 1). Cho'kindilarning fatsial belgilari. Kontinental cho'kindilar

**Ko'l yotqiziqlari** Bu turdag'i yotqiziqlar odatda kam uchraydi. Bular uchun parallel, ko'proq yupqa qatlamlanish xos, qalinligi katta emas. Yotqiziqlarning terrigen (shag'oltoshdan gilgacha), xemogen (ohaktosh, dolomit, tuzlar, temir ma'danlari, boksitlar) va organogen (ohaktosh, yonuvchi slanets) turlari uchraydi. Xemogen va organogen yotqiziqlarning uchrashi birinchi navbatda iqlim sharoiti bilan bog'liq. Sho'r ko'llarda qirg'oqqa yaqm qismida il cho'kindilari, keyin kam eruvchi tuzlar, markaziy qismida esa tez eruvchi tuzlar hosil bo'ladi.

**Botqoq yotqiziqlari** kam tarqalgan, qalinligi ko'p emas, parallel qatlamlar hosil qiladi. Ko'l yotqiziqlaridan farqi ko'mir, ba'zan siderit qatlamlarining uchrashi, qum va shag'altoshning yo'qligi, cho'kindilarning zonalligi kuzatilmasligi.

*Daryo allyuvial yotqiziqlar.* Bir tarafga cho'ziq holda (Daryo o'zaniga mos) katta allyuvial vodiylardan tashkil topgan. Tog' daryolarimeng o'zan yotqiziqlari shag' altosh va yirik qumdan (graviy) tashkil topgan, vodiyniki – har xil qumlardan iborat bo'lib ularda qiyshiq qatlamlanish, ryablar assimetriyasi kuzatiladi. Supa yotqiziqlari faqat tekislik daryolar vodisyida uchraydi: ulardag'i yotqiziq bo'laklari maydaroq va odatda alevrit va alevrit-gilli cho'kindilardan toshkil topgan, qatlamligi asosan parallel, kamroq qiyshiq. Daryo yotqiziqlarining qalinligi katta emas.



*16.8-rasm. Tog' etaklarida rivojlangan chiqaruv konusi yotqiziqlarining fotosurati.*

*Vaqtincha oqar suvlar yotqiziqlari* cho'zinchoq tasmlar yoki chiqarish konuslari ko'rinishida tog' etaklarida uchraydi 16.8-rasm). Qalinligi katta, qo'pol qatlamlı yoki qatlamsiz, saralannagan qum, gil va har xil o'lchamdag'i

shag' altosh bo'laklari aralashmasidan iborat.

O'tgan geologik davrlardagi kontinental yotqiziqlarning genetik turlarini bir-biridan ajratish oson emas, shuning uchun yotqiziqlarning genetik to'plamlarini (komplekslarni) ajratish zaruriyati paydo bo'ladi.

## **2). Kontinental va dengiz oraliq yotqiziqlari.**

*Delta yotqiziqlari* tizimida soñ kontinental (suv ustı qismi) yotqiziqlari – qum, gil ba'zan shag' altosh (qatlamlanishi qiyshiq qurish yoriqlari, yomg'ir tomchisining izi, hayvonlar izi va b.) bilan birga dengiz yotqiziqlari (qum tagi qismi) – qum va gil ohaktosh qatlamlari (qiyshiq qatlamlanish, bo'laklar saralanishi juda yaxshi) uchraydi (16.9-rasm). Mo'tadil iqlim delta yotqiziqlari kulrang va qo'ng'iroq ranglarda, tropik iqlimniki – yorqin rangli (yashil, qizil) bo'ladi. Bu yerda organik qoldiqlarning ham ikki xil turi – quruqlik va dengizniki birligida uchraydi.

**Laguna (qoldiq) yotqiziqlari.** Normal sho'r va chuchuklashgan qo'ltiqlar uchun odatda kulrang il va mayda qumlar, ko'mirli va bitumli yotqiziqlar xos.



**16.9-rasm. Gilli jinslar yuzasida saqlanib qolgan yomg'ir tomchilarini izlarimng fotosurati.**

Suvning uzoq vaqt bug'lanishi va dengiz suvining doimiy bos-tirib kirishi kuzatiladigan hududlarda sho'r-langan suvli laguna yotqiziqlari uchraydi. Bunda terrigen yotqiziqlar mayda qum, gil va tuzli qatlamlardan iborat

bo'lib, xemogen cho'kindi (ohaktosh, dolomit, angidrit, gips, galit va karnelit) qatlamlari ham hosil bo'ladi. Namgarchilik yuqori bo'lgan tropik va mo'tadil iqlim sharoitlarida suvi chuchuklashgan lagunalar hosil bo'ladi. Bu joyda quruqlikdan keltirilgan va organik modda bilan boyigan mayda qum va gil to'planadi; botqoqlik hosil bo'lganda torf va (sapropel) qatlamlari uchraydi. Laguna yotqiziqlarining qalinligi katta emas.

### 3). Dengiz yotqiziqlari

Qadimgi dengiz yotqiziqlari fatsial tahlili dengiz hududining chegeralari va bionomik zonalarni ajratish imkonini beradi. Bunda qirg'oq chizig'ini aniqlash uchun muhim bo'lgan litoral qismini ajratish katta ahamiyatga ega.

**Litoral** – kun (sutka) davomida davriy ravishda qirg'oqni suv bosishi va chekinishi oralig'idagi masofa. Organizmlarning xususiyatlariga bog'liq holda litoral zonalar mo'tadil iqlim sharoitlarida yorqin aks topgan. Litoral zona qalinligi vertikaliga (bo'yiga) 15 metrgacha, gorizontaliga (eniga) kilometrgacha bo'lishi mumkin. O'simlik dunyosiga boy, ko'p miqdorda cho'kindi to'planish joyi.

Litoral uchun davriy ravishda quruqlik va suv havzasining almashib turishi, kuchli to'lqinlanish, suv tagini yorig'ligi xos. Cho'kindilar turi iqlim sharoiti va qirg'oq relyefiga bog'liq va juda xilma-xil. Shag'al kam uchraydi. Qirg'oqning to'lqinlanish qismidagi

qumlar qiyshiq qatlamlari, chig'anoqlar bo'laklari ko'p va katta qalinligi bilan xarakterlanadi. Litoralning sokin sokin havzalarida (to'lqinlardan to'silgan joylarda) kichik qalinlikdagi qum va graviy aralashgan gil qatlamlari uchraydi. Qatlam yuzasida yomg'ir va hayvon izlari, qurish yoriqlari uchraydi. Litoral uchun biogen yo'l bilan hosil bo'lgan har xil ohaktoshlar xos. Foraminiferali ohaktoshlar ulkan kolomyali bentos hayvonlarning chig'anoqlaridan tashkil tongan. Koralli, mshankali va suvo'tli ohaktoshlar sayoz va oqim kuchli havzalarda qirg'oq riflarini hosil qiladi. Litoralga xos bo'lgan bionomik belgi – bu yerda ham dengizda, ham quruqlik hayvonlari qoldiqlari uchraydi. Bularidan tashqa-ri, suv tagida yerni kovlab yashovchi dengiz hayvonlarining inlari keng tarqalgan

**Sublitoral** – shelf zonasida 200 metrgacha bo'lgan suv havzasini o'z ichiga oladi, eni shelf eniga hog'liq. Sublitoral ikki qismga ajratilishi mumkin: yuqori (yorug') – kolonial korallar, ohaktoshli va boshqa suvo'tlari keng tarqalgan va quyi (yorug'lik kam) o'simliklar kam tarqalgan qismlardan iborat. Shag'altosh kam uchraydi. Qumtoshlar o'rtacha qalinlikdagi mayda zarrali, parallel qatlamlar hosil qiladi. Gillar keng tarqalgan, katta qalinlikka ega bo'lib, qatlamning yuqori qismi odatda qumli, past qismi – ohaktoshli bo'ladi. Sublitoralning chuqurroq, sokin havzalarida (100 m dan chuqurroq) kulrang-qaramtir organik moddalarga boy kremnezyom va ohaktosh aralash gillar hosil bo'ladi. Bu yotqiziqlarda pirit, o'simlik va hayvon qoldiqlari keng tarqalgan.

Ohaktoshlarning biogen va xemogen turlari uchraydi. Koralli ohaktoshlar sublitoralning yuqori qismida, quyiroq qismida (50m gacha) suvo'tli-mshankali ohaktoshlar tarqalgan. Qatlamli ohaktoshlar sublitoralning har xil chuqurligida mayda bo'laklı karbonat moddalarning cho'kindisidan va xemogen cho'kindilar hosil bo'lishidan paydo bo'ladi. Sublitoral uchun bionomik belgilarning keng tarqalgaligi va xilma-xilligi xarakterli.

**Psevdoabissal** shelfning 200 dan 500 m gacha bo'lgan qismi. Mayda terrigen moddalar (material) va pelagik illar aralashmasi xarakterli bo'lib, hayvonot dunyosi turlari keskin kamayishi kuzatiladi. Cho'kindilarda mollyuskalarning yupqa devorli chig'anoqlari tarqalgan.

**Batial** – materik yonbag'riga to'g'ri keladi va okeanning 3000m chuqurlikgacha hayvonot dunyosi kam va o'ziga xos bo'lgan qismni o'z ichiga oladi. Batial cho'kindilar mayda zarrali, gillar pirit va organik moddaga boy bo'lganligi uchun qoramtilrangda.

**Abissal** – okean poyiga to'g'ri keladi va 3000 – 6000 m chuqurlikni o'z ichiga oladi. Hayvonot dunyosi chuqurlikka moslashgan ignatanli, chuvalchang va glenistonogiyalardan iborat Cho'kindilari har xil illardan iborat. Foraminiferalilar 3000 – 4500 m chuqurlikda hosil bo'ladi va foraminifera, pteropod chig'anoqlaridan iborat. Kremniyli va radiolyariyli illar 4500m dan chuqurroq qismlar uchun xos. Xuddi shu chuqurliklarda marganes va temir birikmalariga boy bo'lgan qizil illar uchraydi.

**Formatsiya** – hosil bo'lish sharoiti, stratigrafik va boshqa belgilari asosida birlashtirilgan geologik jarayonlarning majmuasi. Litologik, petrografik, cho'kindi-vulkanogen, magmatik ma'danli va boshqa formatsiyalar ajratiladi.

### **O'tilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar**

1. Fatsiya terminimi birinchi bo'lib kim va qachon geologiyaga kiritgan?
2. Hozirgi davrda qanday fatsiyalar ajratiladi?
3. V.I.Popov fikricha fatsiya qanday ta'riflanadi?
4. Fatsial o'zgarish bilan fatsial belgilarning farqi nimada?
5. Litologik tahlil va bionomik tahlil deganda nimani tushunasiz?
6. Delta va laguna yotqiziqlariga izoh bering?
7. Litoral, batial va abissal cho'kindi yotqiziqlari okeanning qaysi qismida hosil bo'ladi?
8. Formatsiya deganda nimani tushunasiz?

## **TEKTONIK STRUKTURALAR**

### **17-bob. TEKTONIK SNRUKTURALAR, ULARNING TURLARI. YERNING ICHKI GEODINAMIK JARAYONLARI. TEKTONIK HARAKATLAR**

#### **REJA**

- 1. Tektonik harakatlar**
- 2. Tog' jinslarining deformatsiyasi.**
- 3. Tektonik strukturalar.**
- 4. Burmali strukturalar va ularning morfologik turlari.**
- 5. Uzilmali strukturalar va ularning morfologik turlari.**

**Kalit so‘zlar;** Tektonika, tektonosfera, orogen, plifikativ, dizyunktiv, epeyrogen, transgressiya, regressiya, antiklinal, sinklimal, gorst, graben, izoklinal burma, burma o‘qi, qanoti, qulfi va sharniri, braxiantiklinal, fleksura, uzilma, aksuzilma, utsurulma, qoplama, siljima, alloxton, avtoxton, surilish amplitudasi.

#### **17.1. Tektonik harakatlar**

Geodinamik jarayonlar ikki xil: Endodinamik (ichki harakat) va ekzdinamik (tashqi harakat) jarayonlar.

Zilzilalar qabilida kechadigan jarayonlar majmuasi **tektonik harakatlar** deyiladi. Tektonik harakatlar uzlukli-uzluksiz ravishda kechadi, ya’ni uning intensivligi geologik vaqt davomida goh kuchayib, goh susayib turadi. Ular yer po’stiming relyefi, materiklarning paydo bo‘lishi, umuman Yerning paleogeografik taraqqiyotida yetakchi o‘rinda turadi.

Yer taraqqiyoti tarixida tog‘ hosil qiluvchi kuchli tektonik harakatlar ro‘y bergen tog‘ burmalanishi epoxalari ajratiladi. Masalan, **baykal tog‘** burmalanishi proterozoyning oxiri-paleozoyning boshlanishida, **kaledon** va **gersin** tog‘ burmalanishlari paleozoyning o‘rtasida va oxirida, **kimmeriy tog‘ burmalanishi** mezozoy erasida, **alp tog‘ burmalanishi** esa kaynozoy erasida sodir bo‘lgan. **Tektonik harakatlar eng**

**qadimgi, qadimgi, yangi (neotektonik) va hozirgi zamon tektonik harakatlariiga bo'linadi.**

Eng qadimgi tektonik harakatlarga arxey va proterozoyda sodir bo'lgan tektonik harakatlar kiradi.

**Qadimgisi** – paleozoy (kaledon, gersin) va mezozoy (kimmeriy) eralaridagi, **neotektonik va hozirgi** zamon tektonik harakatlari esa kaynozoy (alp) erasidagi tog' burmalanishlarini o'z ichiga oladi. Ular asosan geologik, qisman geomorfologik usullar orqali o'rganiladi.

Yer po'stidagi tektonik harakatlar qatlam yoki qatlamsiz yaxlit yotqiziqlarning dastlabki yotishini o'zgartiradi. Qatlamlar yon tomonidan siqilishidan burmalanadi, tik ta'sir qilgan kuchdan esa, sinadi, darzlar hosil qilib, bo'laklarga ajraladi va nihoyat bir qismi ko'tarilib, ikkinchi qismi cho'kishi mumkin.

Qatlamlarning shakli va yaxlitligining o'zgarishi ichki harakatga bog'liqidir. Bu harakatdan cho'kish, ko'tarilish, burmalanish, yer yorilishi va boshqa xil tektonik strukturalar vujudga keladi. Tektomik harakatlar ikki xil - **orogen va epeyrogen** harakatlarga bo'limadi.

**Orogen harakatlar o'z navbatida plikativ** (burmali) va **diz'yunktiv** (uzilmali) turlarga ajratiladi.

**Epeyrogen (tebranma)** harakatlar yer po'stining asriy tebranishida o'z ifodasini topgan.

Dengiz yotqiziqlarining barcha qit'alarda topilishi o'tgan geologik davrlarda bir necha marta yer po'stida asriy tebranishlar kechganligidan dalolat beradi. Bunday harakatlar hozir ham davom etmoqda.

Epeyrogen harakatlar qirg'oq chiziqlarining o'zgarishida ayniqla yaqqol aks etadi. Dengiz sohillarining ba'zi joylarida suvning qaytishini kuzatish mumkm. Bunday hodisa yo dengiz sathining pasayishi yoki sohilining ko'tarilishida ro'y beradi.

Quruqliknинг cho'kishi yoki dengiz sathining ko'tarilishi natijasida dengiz, **transgressiyasi** ro'y beradi va quruqliknинг bir qismini suv bosadi. Quruqlikdan dengiz suvi qaytsa **regressiya** deyiladi.

Yer po'stining asriy tebranishi faqat dengiz sohillaridagina emas, balki materik ichkarisida ham kuzatiladi. Masalan,

Fransiyaning ayrim joylari, Alp tog'larining etaklari va Boden ko'li atrofi, Shimoliy Amerikada Michigan ko'li sohillari, Tinch okeandagi ko'pchilik marjon orollari ham asta - sekin cho'kmoqda. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yer po'stidagi hozirgi harakatlarni aniq o'lchashda geodezik asboblardan foydalaniladi. Tog' jinslari qatlamlarining yotish holatini o'lchash bilan epeyrogen harakatlarning yer po'stiga ko'rsatgan ta'siri aniqlanadi. Bunda geologik va geomorfologik kesmalar, tog' jinslarining yotish shakllarining tahlili ham katta yordam beradi.

1862-1932-yillardagi nivelirlashlarning natijalari tekshirib ko'rildi, Himolay tog'lari bilan Gang daryosi o'tasida joylashgan Shimoliy Hindistonning ko'p qismi bir yilda 18,2 mm ko'tarilganligi aniqlangan. Banoras shahrining shimoliy qismi ham eng ko'p ko'tarilganligi ma'lum. 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan keyingi seysmologlarning ilmiy tekshirish ishlari Toshkent hududining pastkam joylari (Chirchiq daryosi, Qoraqamish va Bo'zuvning quyi oqimlari) cho'kayotgan bo'lsa, boshqa joylari (Anhor kanali o'tgan joylar, Yunusobod) ko'tarilayotganligini ko'rsatdi.

Yer po'stining tik (vertikal) tebranma harakatidan tashqari, gorizontal harakati ham kuzatiladi. Masalan, Pomir tog'lari janubdan shimolga tomon asta-sekin yiliga 2-3 sm siljimoqda. Yer tarixida va rivojlanishida tektonik harakatlar muttasil, lekin goh tez, goh sust kechgan.

**Neotektonik harakatlar.** Neotektonik harakatlar 40 mln. yildan buyongi tektonik harakatlarni o'z ichiga oladi. Yosh tektonik xarakatlar golotsen davridan, ya'ni keyimgi 10000 yildan boshlanadi, arxeologik va geomorfologik usullar yordamida o'rganiladi. Hozirgi zamon tektonik harakatlari 100 yildan buyongi harakatlarga tegishli bo'lib, ular geodezik asboblar yordamida o'rganiladi.

Neogen va to'rtlamchi davrlardagi tektonik harakatlarni va ular hosil qilgan strukturalarni geologiyaning **neotektonika** deb ataluvchi sohasi o'rganadi.

Neotektonikani akademik V.A.Obruchev (1863 - 1956) birlinchi bo'lib umumiy tektonika fanidan ajratishni taklif qilgan va buni asoslagan.

Yer po'stining rivojlanish tarixi unda muttasil tektonik harakatlar bo'lib turganligidan darak beradi. Bunday harakatlar tog' jinsi qatlamlarining yotish holatini, tuzilishini, relyefini o'zgartiradi. Yer qatlamlaridagi, ayniqsa yosh qatlamlardagi bunday o'zgarishiarni aniqlash, ularni o'rganish muhim ahaliyatga egadir. Chunki ular hozirgi relyef shakllarini hosil qilgan bo'lib, neft, gaz, ko'mir kabi foydali qazilmalarni bashorat qilish va qidirishda yetakchi mezon hisoblanadi.

Neotektonik harakatlar kechgan joylarni bir necha xil usullar yordamida aniqlash mumkin.

Tektonik harakatlar tufayli neogen, to'rtlamchi davr yotqiziqlarida darz ketgan, bukilgan strukturalar hosil bo'lgan va balandliklarda qadimgi tekislanish yuzalari kabi qoldiq relyef shakllari uchraydigan joylar mavjud. Ana shular tahlil qilinib, neotektonik harakatlarning tezligi va yo'nalishi, qanday geologik strukturalarni hosil qilganligi hamda ularga relyefning qanday shakllari mos kelishi aniqlanadi.

To'rtlamchi davr yotqiziqlarning darz ketgan va uzilgan joylari Qorjontovda, Norin daryosi vodiysida va boshqa joylarda uchraydi. Yer po'stining ko'tarilishi tufayli antropogen davri yotqiziqlari tog'larning 1800 - 2000 m mutlaq balandliklarida, ya'm daryo o'zanidan 600-700 m tepada qolib ketgan. Masalan, Pskom daryosi chap qirg'og'idagi *nanay supasi* ( $Q_1$ ) bunga misol bo'laoladi. Qadimgi tekisliklarning baland tog' oralig'ida qolib ketishi neotektonik harakat kechganligidan darak beradi. Masalan, Chotqol, Pskom tog'lari orasidagi Maydontol (platosi) dengiz yuzasidan 2500 - 2800 m balandlikda joylashgan.

Neotektonik va hozirgi zamон tektonik harakatlar vulkan otlishi, zilzila harakatlarida namoyon bo'ladi (zilzila bobiga qarang). To'rtlamchi davrning boshlarida yer yorilishidan Afrikadagi Viktoriya va Tanganika ko'llari, Qizil dengiz va O'lik dengizlar hosil bo'lgan. Rossiya hududidagi Baykal ko'li ham antropogen davrida hosil bo'lgan deb hisoblanadi.

Neotektonik harakatlar tufayli hozirgi davrdagi quruqlik va okean tublaridagi asosiy relyef shakllari: tog‘lar, tekisliklar, daryo vodiylari paydo bo‘lgan.

*Hozirgi zamon tektonik harakatlarni* bevosita o‘rganishimiz va asboblar orqali ularning qiymatini o‘lchashimiz mumkin. Shu kabi yo‘nalishini ham aniqlash mumkin. Masalan: vertikal harakatlar musbat – ko‘tartluvchi va manfiy – cho‘kuvchi bo‘lishi mumkin.

Hozirgi zamon vertikal va gorizontal tektonik harakatlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ularning o‘rtacha tezligi yiliga 1-2 sm dan oshmaydi. Birinchi qarashda bu judayam arzimasdek tuyuladi. Ammo bu harakatlar yuz ming va millionlab yillar davomida to‘xtovsiz kechishi mumkin. Yiliga 1 sm dagi ko‘tarilish tezligi bir million yil davomida balandligi 10 km bo‘lgan tog‘ni hosil qiladi. Bu Himolaydan ham baland!

Geologik o‘tmishdagi tektonik harakatlar to‘g‘risida ularning natijalari bo‘yicha fikr yuritish mumkin.

## 17.2. Tog‘ jinslarining deformatsiyasi

Tog‘ jinslari tektomik kuchlar ta’sirida turli deformatsiyaga uchraydi. Tog‘ jinslarining deformatsiyasi deganda, ularning tashqi kuchiar ta’sirida o‘z shakli va hajmini o‘zgartirish xususiyatiga aytildi. Tog‘ jinslarining deformatsiyasida ularning ichki fizik xususiyatlari: mustahkamligi, elastikligi, plastikligi va mo‘rthigi kabi xossalari asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi.<sup>117,118</sup>

Tog‘ jinslarining *mustahkamligi* deb, tashqi kuchiar ta’siriga ko‘rsata oladigan qarshilik qobiliyatiga aytildi.

Tog‘ jinslarining *elastikligi* tashqi kuchlar ta’sirida o‘z shakli va hajmini o‘zgartirishi va bu kuchlar ta’siri to‘xtagandan so‘ng birlamchi holatiga qaytish xususiyatiga ega bo‘lishini ifodalaydi.


Tog‘ jinslarining *plastikligi* tashqi kuchiar ta’sirida shakli va hajmining qaytmas o‘zgarishi bilan belgilanadi.

Tog‘ jinslarining *mo‘rthiliği* deb tashqi kuchlar ta’sirida yaxlitligi buzilib, parchalanish xususiyatiga aytildi.

<sup>117</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 416.

<sup>118</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 155.

**Deformatsiya turlari.** Tog' jinslanining deformatsiyasi hosil bo'lishi bosqichlari ketma-ketligi bo'yicha elastik, plastik va mo'rt deformatsiyalarga bo'linadi (17.1-rasm).<sup>119</sup> Ular tog' jinslarinmg elastikligi, plastikligi va mo'rtligi xususiyatlaridan kelib chiqadi.



**17.1-rasm. Deformatsiya turlarining chegarasi.**

sodir bo'ladi.

Agar tog' jinslariga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar kattaligi elastiklik chegarasidan ortiq bo'lib, bunda ularning yahlitligi buzilmasa, tasbqi kuchlar ta'siri to'xtagandan keyin hajmiy va shakliy o'zgarishlar birlamchi holatiga qaytmasa, qoldiq deformatsiya hosil bo'ladi va u **plastik deformatsiya** deb yuritiladi. Bu deformatsiya kristalli jinslardagi minerallar kristall panjaralari qatlamlarining bir-biriga mitsbatan qaytmasa siljishi bilan bog'liq. Tashqi kuchlar ta'siri to'xtagandan keyin ular yangi muvozanat sharoitida hosil bo'lgan vaziyatini saqlab qoladi.




**17.2-rasm. Deformatsiya turlarini aniqlash uchun misol qilib olingan jismlar:**  
a-rezina tasma, b-plastilin parchasi, v-qog'oz varagi.

orqali sodir bo'lsa **mo'rt deformatsiya** rivojlanadi.

**Elastik deformatsiya** tashqi kuchlar ta'sirida tog' jinslari shakli va hajmimingga o'zgarishi va shu kuchlar ta'siri to'xtagandan keyin birlamchi holatiga qaytishidan iborat bo'ladi. Bunday deformatsiya tashqi kuchlar kattaligi elastiklik chegarasidan oshmaganda

Deformatsiya turlarini ko'rgazmali tasavvur etish uchun rezina tasma, plastilin parchasi va bir varaq qog'oz olamiz (17.2-rasm). Ushbu jismlarga bir xil cho'zuvchi kuchi ta'sir etayotgan bo'lsin. Bunda rezina tasma va plastilin parchasi cho'ziladi, ammo qog'oz varag'i yirtilib ketadi (17.3-rasm). Demak, qog'oz varag'i uchun mo'rt deformatsiya xosdir. Cho'zuvchi kuch ta'siri to'xtagandan so'ng plastilin parchasi keyingi cho'zilgan holdagi shaklini saqlab qoladi. Bu esa plastik deformatsiya uchun yaqqol misoldir. Cho'zuvchi kuch ta'siri to'xtagandan so'ng rezina tasmasi o'zining dastlabki shakliga qaytadi.



*17.3-rasm. Cho'zuvchi kuch ta'sirida rezina tasma va plastilin parchasi cho'ziladi, qog'oz varag'i esa yirtiladi.*

ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Tog' jinslariga fahat cho'zuvchi tektonik kuchlar emas, balki siquvchi va burovchi xarakterdagi tektonik kuchlar ham ta'sir ko'r-satadi. Bularning nati-jasida murakkab tuzilishdagi turli tektonik strukturalar vujudga keladi. Ularni o'rganish

### 17.3. Tektonik strukturalar

Tektonik harakatlar tufayli *burmali va uzilmali* strukturalar hosil bo'ladi.


### 17.4. Burmali strukturalar va ularning morfologik turlari.

Burmali strukturalar va ularning elementlari.<sup>120, 121</sup> *Burma* deb tektonik va boshqa tashqi kuchlar ta'sirida cho'kindi, vulkanogen va metamorfik jinslar qatlamlarining plastik deformatsiyasi tufayli to'lqinsimon buklanishiga aytildi. Burmali strukturalar orasida

<sup>120</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 418-420.

<sup>121</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 158-160.

ularning ikkita asosiy turi: antiklinal va sinklinal strukturalar ajratiladi.



17.4-rasm. Antiklinal va sinklinal burmalar.

tomondan botiq struktura va uning muldasida yosh jinslar, qanotlarida esa qari jinslar rivojlangan bo'ladi (17.6-rasm).


Monoklimal – katta maydonda bir tarafga qarab yotgan qatlamlar.

Burmalar yer po'stida har qanday holatda yotishi mumkin. Ular qanday holatda yotishidan qat'i nazar ma'lum bir morfologik elementlardan iborat bo'ladi. Tabiiy holda yer yuzasida yuvilishdan to'la saqlangan burmalar kamdan-kam uchraydi. Burma elementlari holatini tahlil qilish orqali ularning umumiyy shaklini tiklash mumkin.


Burmali strukturalarning o'lchami va tartibi har xil bo'lib, ko'p hollarda yirik birinchi tartibdagilari mayda burmalardan tuzilgan bo'ladi. Burmalar yer yuzasida alohida-alohida yoki katta guruhlardan iborat bo'lishi mumkin. Keyingi holda ular burmali o'lkalarni tashkil qiladi.

Antiklinal burma morfologik tomondan qavariq struktura bo'lib, uning yadrosida qari jinslar ochilib yotgan bo'ladi, qanotlarini esa yosh jinslar tashkil etadi (17.4-rasm).

Sinklinal burma antiklinal burmaning aksi bo'lib, morfologik




17.5-rasm. Burmaning o'q tekisligi.



**17.6-rasm. Antiklinal va sinklinal strukturalar va ularning yotish shakllari (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).**

Har bir burma ma'lum elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Burmalarda qatlamlarning buklanish joyi burma *qulfi* yoki *yadrosi* deyiladi. Burmalarning qulfiga tutashgan qismlari burma *qanotlari* deyiladi va ular qarama qarshi tomonga monoklinal yotgan bo'ladi. Burma yadrosi yer yuzasida, odatda, yuvilgan holda uchraydi.


Qatlamlarning buklanish chizig'i bo'yicha burmani ikkiga bo'lувчи xayolly tekishik burmaning *o'q tekisligi* deb yuritiladi (17.5-rasm). Burma *o'q tekisligi* muhim elementlardan biri bo'lib, uning fazoda tutgan vaziyatiga qarab burmalarning morfologik turlari ajratiladi. Burma *o'q tekisligi* bilan relyef yuzasining kesishishidan hosil bo'lgan chiziq burmaning *o'q chizig'i* deyiladi. Burma *o'q tekisligi* bilan burmada qatnashayotgan qatlamlardan



17.7-rasm. Burmalarining sharniri va qanotlari.

bo'ylama yo'nalishda bir necha bor sho'ng'ishi va ko'tarilishidan burma *undulatsiyasi* hosil bo'ladi. Burma sharniri bilan uning gorizontal tekislikka o'tkazilgan proyeksiyasini orasidagi burchak burmaning sho'ng'ish yoki ko'tarilish burchagi deyiladi.

Har qanday burma o'z o'lchamlariga ega. Ularning eni, bo'yi va balandligi bo'ladi (17.8-rasm). Burmaning *eni* (kengligi) yondosh burmalar o'q tekisliklari orasidagi masofadan iborat bo'ladi. Uning *uzunligi* qarama-qarshi tomonda burmada qatnashayotgan ma'lum qatlarning sho'ng'ish nuqtalari orasidagi masofaga teng, *balandligi* esa yondosh qarama-qarshi burmalar qulflari orasidagi vertikal masofaga teng bo'ladi.



17.8-rasm. Burmalar sharnirining planda va kesmada tasvirlanishi.

**fologik turlari.** Burmalar gorizontal tekislikka nisbatan qavariq-botiqligiga, o'q tekisligining vaziyatiga, burma qanotlari orasidagi munosabatga, qulfining shakliga, eni bilan bo'yi orasidagi mabsatga va boshqa xususiyatlari qarab morfologik turlarga bo'linadi.

Burmalar o'q tekisligining vaziyatiga qarab *simmetrik* va *asimmetrik* burmalarga bo'linadi (17.9a,b-rasmlar).

birining yuzasi kesishi-shidan hosil bo'lgan chiziq burma *sharniri* deyiladi (17.7-rasm).

Qatlamlarning bukla-nish holatiga qarab burma sharniri gorizontal, qiya, egri va to'lqinsimon bo'lishi mumkin. Burma sharniri yordamida uning fazoda tutgan vaziyati aniqlanadi. Burma sharnirining


burmalar o'q tekisliklari orasidagi masofadan iborat bo'ladi. Uning *uzunligi* qarama-qarshi tomonda burmada qatnashayotgan ma'lum qatlarning sho'ng'ish nuqtalari orasidagi masofaga teng, *balandligi* esa yondosh qarama-qarshi burmalar qulflari orasidagi vertikal masofaga teng bo'ladi.

### Burmalarining mor-

**fologik turlari.** Burmalar gorizontal tekislikka nisbatan qavariq-botiqligiga, o'q tekisligining vaziyatiga, burma qanotlari orasidagi munosabatga, qulfining shakliga, eni bilan bo'yi orasidagi mabsatga va boshqa xususiyatlari qarab morfologik turlarga bo'linadi.

Burmalar o'q tekisligining vaziyatiga qarab *simmetrik* va *asimmetrik* burmalarga bo'linadi (17.9a,b-rasmlar).

Simmetrik burmalarda o'q tekisligi vertikal joylashgan bo'lib, ularning qanotlari bir xil qiyalik burchagiga ega bo'ladi. Asimmetrik burmalarda esa o'q tekisligi qiya yoki gorizontal yotgan bo'lib, qanotlari turli qiyalik burchagiga ega bo'ladi. Asimmetrik burmalar orasida *qiya*, *to'ntarilgan*, *yotuvchi* va *sho'ng'uvchi* turlari ajratiladi (17.9-b,d,e-rasmlar).




**17.9-rasm. Burmalarning morfologik turlari:** a-simmetrik burma; b-asimetrik burma; c-yotuvchi burma; d-sho'ng'uvchi burma.

Qiya burmalarda qanotlari qarama-qarshi tomonga yotgan bo'lib, uning yotish burchagi har xil va o'q tekisligi qiya bo'ladi. To'ntarilgan burmalarda qanotlari bir tomonga yotgan va o'q tekisligi qiya joylashgan bo'ladi. Ularda to'g'ri va to'ntarilgan qanotlar ajratiladi. Yotuvchi burmalarda o'q tekisligi gorizontal yotgan bo'ladi. Sho'ng'uvchi burmalarda o'q tekisligining oldingi qismi pastga qarab engashgan bo'ladi. Ba'zi hollarda bunday burmalarning ustki qismi yuvilib ketishi natijasida ularning yadrosida, shakli bo'yicha sinklinal burmani eslatuvchi qoldiqmi kuzatish mumkin. Lekin uning markazida yosh emas, balki nisbatan qari tog' jinslari yotgan bo'ladi.

Burmalar qanotlari orasidagi munosabatga qarab *odatdag'i*, *izoklinal* va *yelpig'ichsimon* turlarga bo'linadi.

Odatdag'i burmalarda qanotlari qarama-qarshi tomonga yotgan bo'ladi. Izoklinal burmalarda qanotlari bir-biriga paralleldir. Yelpig'ichsimon burmalarda ularning qanotlari yelpig'ichsimon tarzda yoki yoyilgan bo'ladi.

Burmalar eni bilan bo'yi orasidagi nisbatga qarab *cho'ziq*, *braxiformali* va *gumbazsimon* turlarga bo'linadi (17.10-rasm).




**17.10-rasm. Burmalarning eni va bo'yi orasidagi munosabat bo'yicha morfologik turlari.**

*Cho'ziq* burmalarda ularning bo'yining eniga nisbati 3 dan katta bo'ladi. *Braxiformali* burmalarda bo'yining eniga nisbati 3 dan kichik bo'ladi. *Gumbazsimon* burmalarda burma eni bilan bo'yi taxminan bir-biriga teng bo'ladi.

#### Fleksuralar.

*Fleksura* deb gorizontal yoki qiya yotgan qatlamlarning tirsaksimon buklanishidan hosil bo'lgan pog'onali strukturaga aytildi. Fleksuralarda ustki yoki *ko'tarilgan qanot*, pastki yoki *cho'kkan qanot* va *tutashtiruvchi qanot* singari elementlar ajratiladi (17.11-rasm).



**17.11-rasm. Fleksura elementlari.**

Qiya yotgan qatlamlarda hosil bo'lgan fleksuralar muvofiq va nomuvofiq turlarga bo'linadi. Muvofiq fleksuralarda ustki, pastki va tutashtiruvchi qanotlari bir tomonga qarab yotgan bo'ladi. Nomuvofiq fleksuralarda ustki va pastki qanotlar bir tomonga, tutashtiruvchi qanotlari esa, qarama-qarshi tomonga qarab yotgan bo'ladi. Fleksuralar substrat yotqiziqlarida uzilmali strukturalar hosil

bo'lishi va ma'lum blokning cho'kishi natija-sida paydo bo'ladi. Lekin bunda fleksura hosil qiluvchi qatlam yaxlitligi buzilmasdan cho'zilgan bo'ladi.

Burmali strukturalar va fleksuralar tabiatda juda keng tarqalgan. Ular yer po'stining tektonik rivojlanishi natijasida vujudga keladi va hududning geologik taraqqiyoti tarixini bosqichma-bosqich o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bulardan tashqari ko'pgina foydali qazilma boyliklarning hosil bo'lishi va to'planishi burmali strukturalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Burmali strukturalarni va fleksuralarini har tomonlama o'rganish foydali qazilma konlarini qidirishda, razvedka va eksplutatsiya qilishda katta amaliy ahamiyatga ega.

### 17.5. Uzilmali strukturalar va ularning morfologik turlari

Uzilmali strukturalar va ularning morfologik turlari.<sup>122</sup>,<sup>123</sup> Uzilmali strukturalar (yer yoriqlari) yer po'stida rivojlanadigan tektonik kuchlar ta'sirida sodir bo'lib, burmali tog'larda keng tarqalgan (17.12-rasm).

Yer po'stining yaxlitligi buzilishi orqali bir-biridan ajralgan bo'laklari o'zining fazoda tutgan o'mni va surilishda qatnashish faolligi bilan ajralib turadi. Surilish yuzasi bilan ajralgan tog' jinslarining bo'laklari surilmali strukturalarning *bloklari* yoki *qanotlari* deb ataladi. Uzilmali strukturalar yer yuzasidagi relyef shakllari bo'yicha yaqqol ko'rinish turadi.

Uzilmali strukturalarning surilish yuzasi tekis va notejis bo'lishi mumkin. Birinchi holda u odatda silliqlangan bo'ladi. Bunday silliq va yaltiroq yuza – *sirpanish oynasi* deb ataladi.


Surilish yuzasi notejis bo'lsa, o'zaro harakatda bo'lgan bloklar orasida *tektonik brekchiyalar* hosil bo'lishi mumkin. Tektonik brekchiyalarning harakatdagi bloklar orasida maydalanimiz ezelishi va zinchlashishi oqibatida *milonitlar* hosil bo'ladi.

Tektonik brekchiyalar katta bo'shliq hajmiga ega bo'lganligi uchun ko'p hollarda ularning ichiga gidrotermal eritmalar kirib, tomirli va ma'danli mineral yotqiziqlar hosil qiladi. Shuningdek

<sup>122</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 421-424.

<sup>123</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 156.

tektonik brekchiyalar orasida yeroti suvlari, gaz va neft mahsulotlari to'planishi mumkin.




**17.12-rasm. Tektonik kuchlar ta'sirida kosil bo'lgan uzilmalar.**  
*(Understanding Earth, J. Grotzinger, va b.).*

Uzilmali strukturada ko'tarilgan blok yoki yotgan qanot, cho'kkani blok yoki osma qanot, surilish yuzasi, surilish yuzasining yotish burchagi, surilish amplitudasi kabi elementlar ajratiladi.

Uzilmali strukturalar o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi va bloklaming surilish yuzasi yo'nalish chizig'i bo'yicha (horizontal), surilish yuzasining yotish chizig'i bo'yicha (vertical) va ularning har ikkisiga ham ma'lum burchak ostida (diagonal) harakatlanishi orqali bir-biridan farqlanadi. Bulardan tashqari bloklarning surilish yuzasiga perpendikular yo'nalishdagi harakati,

surilish yuzasining yotish burchagi, uning yotish tomoni va boshqa xususiyatlari ham hisobga olinadi. Ular orqali uzilmal strukturalar uzilma, aksuzilma, siljima, utsurilma, qoplama va ochilma singari turlarga ajratiladi.


Uzilmal strukturalarning bunday xilma-xilligi tog' jinslariga ta'sir qiluvchi tektonik kuchlarning harakat yo'naliishi va ular orasidagi munosabatga bog'liq. Tektonik kuchlar harakat yo'naliishiga qarab siquvchi, cho'zuvchi va juft kuchlarga bo'linadi.



17.13-rasm. Uzilmal strukturaning ko'rinishi.

Cho'zuvchi tektonik kuchlar qarama-qarshi tomonaga yo'nalgan bo'lib, ularning ta'sirida asosan uzilma (17.13-rasm), **ochilma** va **rift** strukturalari vujudga keladi.


Parakuchlar esa, siquvchi tektonik kuchlar singari bir-biriga qarshi yo'naliishda harakat qilsada, lekin ular o'zaro parallel bo'ladi. Bu kuchlar ta'sirida **siljima** strukturalar hosil bo'ladi (17.15-rasm).



17.14-rasm. Tektonik qoplamlar.



Tektonik qoplamlar yoki sharyajlar tog' jinslari bloklarining qiyaligini kichik, gorizontal va to'lqinsimon surilish yuzalari bo'ylab

o'nlab va yuzlab kilometrlarga surilganligi bilan ajralib turadi. Qoplama struktura tagidagi surilmagan tog' jinslari bloki **avtoxon**, katta masofaga surilgan va qoplama strukturani tashkil qiluvchi jinslar **alloxton** deb yuritiladi. Alloxtonning oldingi qismi emirilishi mumkin. Uning yemirilishidan saqlanib qolgan fragmentlari **tektonik qoldiq** deb, alloxtonning yemirilib yuvilishi natijasida avtoxtonning ochilib qolgan joylari **tektonik shog'noq** yoki **tuynuk** deb va alloxtonning oldingi qismi **shar'yaj fronti** deb yuritiladi (17.14-rasm).



*17.15-rasm Siljimali strukturining ko'rinishi*

Agar uzilma qanolari bitta yoriq orqali ko'chsa **oddiy uzilma** hosil bo'ladi. Murakkab uzilmalar ham uchraydi. Ikkita parallel yoriqlar bilan chegaralangan joy cho'kkan bo'lsa **graben** deyiladi. Agar ikkita parallel yoriqlar bilan chegaralangan joy ko'tarilgan bo'lsa **gorst** deyiladi (17.16-rasm). **Oddiy graben** ikkita uzilma bilan chegaralandi.



*17.16-rasm. Murakkab tuzilgan surilmali yer yoriqlari. (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).*

Yuqorida ko'rib o'tilgan strukturalarning geologik qidiruv ishlardida

ahamiyati katta. Ular turli ma'danlarga boy gidrotermal eritmalarining harakatlanishi uchun eng qulay joy hisoblanadi. Shuning uchun ham geologlar ma'danlarni izlashda bunday tektonik strukturalarga katta ahamiyat berishadi. Uzilmali tektonik harakatlar palaxsali tog'larni hosil qiladi. Platolar, stolsimon tog'lar ham, burmali - palaxsali tog'lar ham ana shu tektonik harakatlarning hosilasi.

### **O‘tilgan ma’ruzalar mavzusi bo‘yicha savollar**

1. Tektonosfera deganda nimani tushunasiz?
2. Tektonik harakat turlari qanday ajratiladi?
3. Tog‘ jinslarining fizik xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Deformatsiya nima va uning qanday turlari ajratiladi?
5. Burmaning hosil bo‘lish mexanizmini tushuntiring.
6. Burma elementlariga nimalar tegishli?
7. Darzlik va uzilmali (diz'yunktiv) strukturalar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

## ZILZILA TALOFATLARI

### 18-boh. ZILZILA, KELIB CHIQISH SABABLARI, OQIBATLARI. O'RGANISH USULLARI, BASHORAT QILISH

#### REJA

1. Zilzila haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Zilzilalar kuchini o'lchash shkalalari.
3. Zilzilalarning yer sharida tarqalishi.
4. Zilzilalarning paydo ho'lish sabablari va genetik turlari.
5. Zilzila oqibatlari.
6. Zilzilani bashorat qilish.

**Kalit so'zlar;** Zilzila, seysmologiya, seysmik to'lqm va zona, aseyismik o'lka, mikroseysmik, makroseysmik, gipotsentr, epitsentr, tektonosfera, karst, g'or, seysmik shkala, magnituda, Rixter shkalasi, sunami, zilzilani bashoratlash, zilzila o'chog'i, seysmograf.

#### 18.1. Zilzila haqida umumiy ma'lumotlar

Yerning ichki qismidan sirtiga tomon yo'nalgan kuchlanish ta'sirida yer po'stining ayrim joylarida to'satdan yer silkinishiga zilzila deyiladi. Zilzila – tabiatda sodir bo'ladigan eng xavfli hodisalarining biridir.<sup>124,125</sup>

To'fonlar, suv bosish, ko'chkilar singari tabiat hodisalari insoniyatga katta kulfat keltiradi. Lekin ularning orasida eng dahshatlisi zilziladir. Hech bir kataklizm zilziladek vayronaga olib kelmaydi va insonlar hayotiga zomin bo'lmaydi. YUNESKO ma'lumotiga ko'ra zilzila keltiradigan iqtisodiy zarar va insonlar orasidagi qurbanlar bo'yicha tabiiy ofatlarning ichida birinchi o'rinni egallaydi.

<sup>124</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 336.

<sup>125</sup> Understanding Earth., G. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 298.

Har bir odam zilzila nima ekanligini biladi, ammo u nima sababdan kelib chiqishini bilmaydi. Vulkan otilishi, tog'larda ko'chki rivojlanishi, yirik meteoritning yerga urilishi, yadro bombasi portlashi, foydali qazilmalarni qazib olish – bularning barchasi zilzilaga sababchi bo'lishi mumkin. Ammo bunda litosfera plitalarining harakati yetakchi ahamiyatga ega. Bunday plitalarining tutashish chegaralarida zilzilalarni keltirib chiqaruvchi tektonik kuchlanish to'planadi. Plitalar bir-biridan uzoqlashishi, tutashish chegaralari bo'ylab qarama-qarshi yo'nalishlarda siljishi, bir-birining ustiga surilib chiqishi mumkin. Shu tufayli yer yuzasida turli ko'rinishdagi relyef shakllanadi. Litosfera plitalarining ba'zi joylarida zilzila keltirib chiqaruvchi yer yoriqlarining vujudga kelishi yoki muayyan qismining ko'tarilishi kuzatiladi.

Tog'li relyefga ega bo'lgan mintaqalar eng seysmofaol hududlar hisoblanadi. Xitoy, Yaponiya, Chili, Peru, O'rta Osiyo shular jumlasidandir. Bu joylarda eng yirik talofatlarga olib kelgan va minglab odamlarning hayotiga zomin bo'lgan zilzilalar sodir bo'lgan. Masalan, XX asrdagi eng kuchli zilzila 1976-yilning 28-iyulida Xitoyda sodir bo'lgan. Gipotsentri Tiyan-Shan ostida bo'lgan bu zilzila 650 mingdan ortiq kishilarning hayotdan ko'z yumishiga sababchi bo'lgan. Ulkan darzliklar butun uylarni, poyezdlarni domiga tortib ketgan, temir yo'llarni qirqib o'tgan.


1966-yil 26-aprel ertalab mahalliy vaqt bilan soat 5 dan 23 daqiqa o'tganda Toshkentda kuchli zilzila tinch uyqudag'i aholini uyg'otib yuborgan. Zilzila to'lqinlari birinchi zarbasining kuchi epitsentrda 7,5 - 8 ball (5,3 magnitudadan ortiqroq) bo'lgan. Uning epitsentri shaharning markazida, gipotsentri esa 9 - 10 km chuqurlikda joylashgan. Bu zilzila natijasida 7 ballga mo'ljallangan imoratlarda darz ketish va hatto qulash hodisalari ro'y bergen. Birinchi zilzila zarbasidan keyin 4 oy davomida Toshkent seysmik stansiyasi 800 martadan ortiq silkinish bo'lganligini qayd etgan. Bundan 5 tasi: 10.05; 24.05; 5.06; 29.06 va 4.07 da bo'lib, 7 halldan kam bo'lmanan, ularning magnitudasi 4,5 - 3,5 ga teng bo'lgan.

Toshkent zilzilasining dahshati hali ko'pchilik aholining yodidan ko'tarilganicha yo'q. Bir necha daqiqada shaharni chang-to'zon bosib, ko'pgma xalq xo'jaligi obyektlari, turar-joy binolari vayronaga aylangan.

O'lkamizda sodir bo'lgan zilzilalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Abu Sayd Gardiziyning «Kitobi Zayn al-Axbor»idan Farg'onadagi zilzila haqida, Zahiriddin Muhammad Boburning «Bobumoma»sida Farg'ona, Andijon, Toshkent, Zarafshon va Samarqand shaharlariда sodir bo'lgan kuchli zilzilalar haqida yozib qoldirilgan.

XX asr boshida tarixga «Andijon fojiasi» deb muhrlangan Andijon zilzilasi (3-dekabr 1902 y.) 50 ming aholi yashaydigan shaharni bir necha soniyada vayronaga aylantirgan.

O'rta Osiyoda zilzilalar haqida qadimgi tarixshunoslarning,



**18.1-rasm. Zilzila o'chog'inining tuzilish sxemasi.**

hind va arab sayyohlarining qo'lyozmalarida, Abu Ali ibn Sino va boshqa o'zbek ohimlarining kitoblarida qayd qilingan. Zahiriddin Muhammad Bobur (XVI asr boshida)


Qandahor

(Afg'oniston) shahridagi zilzilani bunday tasvirlaydi: «Bu damda andoq zilzila bo'ldiki... Shaharda va qishloqlarda ko'p uylar tekis bo'lib, uy va tom ostida qolib o'lgani ko'p bo'lib edi, ba'zi tarafi belcha past yorilgan. Yerga ba'zi yerda kishi sig'ar edi. Zilzila bo'lgan zamон tog'larning «boshidan» to'fon ko'tarildi». Shu bilan birga Zahiriddin Muhammad Bobur bir kunda 33 marta zilzila bo'lganim va u bir yilcha takrorlanib turganini ko'rsatib o'tgan.

XIX asning ikkinchi yarmida Toshkentda yashagan bir yozuvchi o'zining tojik - fors tilida yozilgan «Tarixi jadidi Toshkent» (Toshkentning yangi tarixi) asarida quyidagi satrlarni yozadi: «Toshkent shahrida kuchli zilzila voqeа bo'ldi, mozorlarning 11 gumbazi, hazrat Ahror valiy masjidi, Jomiyning (Chorsudagi) gumbazi kunfayakun bo'ldi, ko'p kishilar g'aflatda yotgan edi, aholi imoratlar tagida qoldi. Barakxoh madrasasi gumbazi tagida 4 tolibi ilm mullabachcha halokatga yetdi. Kuchli silkinish 4 daqiqa davom etdi. Zilzila

tinchigandan keyin ham kechalari bedor bo'lgan kishilarga qariyb bir oy davomida yer harakati ma'lum bo'lib turdi».

Zilzila hodisasini seysmologiya fani o'rganadi. Zilzila yer po'stining ostki qismidagi, jumladan, mantiyadagi moddalarning saralanish jarayonida vujudga keladi. Bunda hosil bo'lgan tebranma to'lqinli harakatlar zilzila markazidan atrofga va yer yuzasi bo'ylab tarqaladi. Zilzilaning dastlabki harakatidan keyin ham yer ichida saqlanib qolgan ortiqcha energiya evaziga yer po'stining ayrim qismlari ma'lum vaqtgacha bot-bot tebranib turadi. Yer sirtining tebranishi, unga ichki qatlamlardan o'tib keluvchi elastik to'lqimlarning urilishidan kelib chiqadi.



18.2-rasm Zilzila o'chog'ida seysmik to'lqinlarning tarqalishi.(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).

imorat bezaklari ko'chib tushadi.

Zilzilalarni tahlil qilishda zilzila o'chog'i, gipotsentr, epitsentr, izoseyst va boshqa tushunchalardan foydalaniladi (18.1-rasin).

**Zilzila o'chog'i** – bu yer qa'rida oniy buzilishga uchraydigan tog' jinslarining hajmi.

Yer ichidagi zilzila markazi – **gipotsentr**, uning yer yuzasidagi proyeksiyasi – fokusi **epitsentr** deb ataladi. Izoseyst – tebranishlar kuchi teng bo'lgan chiziq (18.2-rasm).

Litosfera va astenosferadan tarkib topgan **tektonosferada** bunday jarayonlar natijasida gipotsentrda mexanik energiya hosil bo'ladi. Bu energiya gipotsentr atrofidagi qatlamlarga elastik to'lqinlar tarzida yoyiladi.<sup>126</sup>

Agar zilzila markazidan yo'nalgan to'lqin yer sirtiga tik yoki unga yaqin burchak ostida urilsa, yer ustidagi jismilar yuqoriga ko'tarilib tushadi. To'lqin qiya urilganda esa yer ustidagi jismilar gorizontal yo'naliishda suriladi, ba'zan ular qayiqqa o'xshab chayqaladi, daraxtlar og'ib, yana tiklanadi,

<sup>126</sup> Essentials of Geology · Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 336, 337.

## **18.2. Zilzilalar kuchini o'Ichash shkalalari.**

XVI-XVII asrlardan boshlab zilzila kuchim o'Ichash uchun turli usullardan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtgacha ko'pgina mamlakatlarda olimlar tomonidan ellikdan ortiq seysmik shkalalar taklif etilgan. Ulardan eng ko'p tarqalganlari va ko'pchilik mutaxassislarga ma'qul bo'lgani uchta bo'lib, birinchisi 1917-yilda Xalqaro seysmik assotsiatsiya tomonidan qabul qilimgan 12 balli Merkalli-Kankani-Ziberg shkalasi hisoblanadi va undan hozirgacha bir qancha Yevropa davlatlarida foydalanib kelinmoqda. Ikkinchisi, 1931-yilda AQSh tadqiqotchilaridan Vud va Nyumanlar tomonidan Merkalli shkalasiga bir oz o'gartirishlar kiritilib mukammal-lashtirgan 12 balli MM shkalasi hisoblanadi. Uchinchisi Rossiyadagi Yer fizikasi institutida prof. S.V.Medvedev tomonidan ishlab chiqilgan 10 balli shkaladir.

1964-yili mavjud seysmik shkalalar boshqa mamlakatlarning olimlari bilan birga qayta ko'rib chiqilishi natijasida zilzilaning intensivligini belgilovchi Xalqaro seysmik shkala ishlab chiqilgan. Xususan, bu ishda S.V.Medvedev (Rossiya), V.Shponxoyer (Yena, Olmoniya) va V.Karniklarning (Praga, Chexiya) xizmatlari katta (MSK-64).

YUNESKOning 1964-yili Parijda o'tkazilgan Xalqaro yig'ilishida seysmologiya va seysmikbardoshli qurilish bo'limida mazkur shkala foydalanishga tavsiya etilgan.

Zilzilaning kuchi ballar bo'yicha kundalik hayotimizda quyidagilarda aks etadi:

*I ball.* Zilzila sezilmaydi. Yer tebranishining kuchi insonlar sezadigan darajaga yetmaydi. Um faqat tebranishni qayd qiluvchi maxsus asboblar - seysmograflar yordamida aniqlash mumkm.

*II ball.* Zilzila arang sezildi. Zilzila kuchim binoning ichida harakatsiz holatda bo'lgan, ayniqsa yuqori qavatlardagi ayrim insonlar sezishi mumkin.

*III ball.* Yer kuchsiz tebranadi. Zilzilani bino ichida bo'lgan insonlarning ayrimlari, ochiq joyda bo'lganlardan faqat tinch holatda turganlargina sezadi. Tebranish go'yo ma'lum masofada yuk mashinasi o'tgandek tuyuladi. Sinchkov kuzatuvchli osma holatda

bo'lgan buyumlarning yengil tebranishini ilg'ab oladi, binolarning yuqori qavatlarida tebranish nisbatan kuchliroq bo'ladi.

*IV ball.* Sezilarli tebranish qayd etiladi. Bino ichida bo'lgan insonlarning aksariyat qismi, ochiq joydagilarning ozchiligi sezadi. Ba'zan uyqudagilar ham o'yg'onadi. Uy derazalari, eshiklar, idishlar yengil titraydi. Osma holatda bo'lgan anjomlar tebranadi. Idishlardagi suyuqliklarda chayqalish kuzatiladi. Uni to'xtab turgan avtotransportdagilar ham sezishi mumkin.

*V ball.* Uyqudagisi kishilar qo'rquv aralash uyg'onib ketadi. Zilzilani bino ichidagi insonlarning barchasi sezadi. Ayrimlar ko'chaga qochib chiqadi. Hayvonlar bezovta bo'ladi. Osma soatlar to'xtab qoladi. Mustahkam asosga ega bo'limgan ayrim buyumlar qulab tushadi yoki suriladi. Yaxshi mahkamlanmagan eshik va derazalar ochilib-yopiladi. Idishlardagi suyuqliklar kuchli chayqaladi, qisman to'kiladi.

*VI ball.* Insonlarni qo'rquv bosadi. Zilzilani bino ichidagi va ochiq joydagisi insonlarning barchasi sezadi. Odamlar uydan tashqariga qochib chiqishadi. Harakatdagilar muvozanatini yo'qotadi. Hayvonlarda bezovtalik kuchayadi. Ba'zan shisha buyumlar sinishi mumkin, javondagi kitoblar tushib ketadi. Og'ir mebellar suriladi.

*VII ball.* Binolar shikastlanadi. Ko'pchilik insonlarda qattiq qo'rquv paydo bo'ladi. Avtoulov boshqarayotganlar ham uni sezadi. Tepalik va tog'oldi zonalarida ko'chki, o'pirilish sodir bo'ladi. Suv yuzasida to'lqinlar paydo bo'lib, loyqalanadi. Quduq suvlarining sathi, miqdori o'zgarishi kuzatiladi. Yerosti suvlari sizib chiqish hollari qayd qilinadi.

*VIII ball.* Binolar kuchli shikastlanadi. Insonlarni qo'rquv va sarosima bosadi. Daraxt shoxlari sinadi, tuproqda bir necha santimetrlidagi darzliklar paydo bo'ladi. Yangi suv havzalari vujudga keladi. Quvurlar payvandlangan joylaridan uzilib ketadi. Haykallar va yodgorliklar joyidan siljiydi. Yerosti suvi harakati keskin o'zgaradi. Yangi buloqlar paydo bo'ladi.

*IX ball.* Bimolar batamom shikastlanadi. Aholining barchasini vahima bosadi. Hayvonlar kuchli ovoz chiqarib, betartib harakat qiladi. Yerosti quvurlari uziladi, temir yo'llar qiyshayadi, suv mshootlari shikastlanadi. Tuproqda 10 sm gacha darzliklar paydo

bo'ladi. Qoyalar qulaydi, ko'chkilar yuzaga keladi. Haykallar, ustunlar qulab tushadi.

*X ball.* Inshootlar: suv omborlari, to'g'onlar, ko'priklar batamom buziladi. Yer yuzasi yoriladi, to'lqinsimon past-balndliliklar paydo bo'ladi. Yer osti inshootlari buziladi. Qoyalar o'piriladi. Kanal, ko'l va daryolarda suvlar kuchli chayqaladi, yangi suv havzalari paydo bo'ladi.

*XI ball.* Talofatli. Puxta qurilgan inshootlar: ko'priklar, uylar, to'g'onlar, temir yo'llar jiddiy shikastlanadi. Yer yuzasida keng yoriqlar, uzilish, siljishi kabi deformatsiyalar kuzatiladi. Tog'oldi zonalarida kuchli ko'chkilar yuzaga keladi.

*XII ball.* Halokatli. Yerning relyefi butunlay o'zgaradi, barcha yerusti va yerosti inshootlari to'liq shikastlanadi. Yoriqlar paydo bo'ladi. Daryolar o'zanidan chiqadi. Yirik tog' ko'chkilar sodir bo'ladi. Yangi ko'llar vujudga keladi.<sup>127</sup>

Ushbu 12 balli shkala keyingi izlanishlar davomida tobora takomillashtirilib borilmoqda.

Shu o'rinda yana hitta shkala to'g'risida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Odatda, sayyoramizning biror burchagida yer qimirlasa, tebranish Rixter shkalasi bo'yicha 5 yoki 6 magnitudali kuchlanishga ega bo'ldi, degan xabarm eshitib qolamiz.

Rixter shkalasi seysmik energiyaning o'lchov birligiga asoslangan bo'lib, zilzila gipotsentrida seysmik to'lqin sifatida tarqaluvchi energiya kuchini o'lchaydi. O'lchov birligi qilib **magnituda** qabul qilingan.<sup>128</sup> Har ikkala shkalani o'zaro solishtirib ko'radigan bo'lsak, quyidagi munosabat ko'rinishidagi jadvalga ega bo'lamiz (6-jadval):

### Seysmik shkalalarning taqqoslanishi

6-jadval.

Rixter shkalasi bo'yicha magnituda	4,0-4,9	5,0-5,9	6,0-6,9	7,0-7,9	8,0-8,9
MSK-64 shkala buyicha kuchlanish	IV-V	V1-VII	VIII-IX	IX-X	XI-XII

<sup>127</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 333, 334

<sup>128</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 345, 346

Magnituda arab raqami bilan, kuchlanish esa rim raqamlari bilan belgilanishi xalqaro miqyosda qabul qilingan.<sup>129</sup>


Respublikamizda sodir bo‘ladigan zilzilalarni aniqlashda MSK-64 shkalasidan foydalilanadi.

Seysmik xavfli hududlarga ega bo‘lgan har bir davlatda seysmograflar bilan jihozlangan seysmostansiyalar tashkil etilgan. Jumlandan bunday seysmostansiyalar tarmog‘i O‘zbekistonda ham mavjud. Har bir stansiyada uchta seysmograf o‘rnatilgan bo‘lib, ulardan ikkitasi o‘zaror perpendikular gorizontal yo‘nalishdagi va uchinchisi vertikal yo‘nalishdagi tebranishlarni qayd qiladi.


Tom ma’nosida bular mayatniklar bo‘lib, yerga mustahkam o‘rnatilgan shtativga nisbatan o‘zining holatimi o‘zgartirmaydi. Mayatnikning tebranishlari yorug‘lik yoki elektr signallariga aylantirib, kompyuterga kirgizish uchun magnit tasmasiga yozib olinadi.

Zilzilalar o‘chog‘ining joylashish chuqurligi bo‘yicha qisqa fokusli – 0 - 70 km, o‘rtacha fokusli – 70 - 300 km va chuqur fokusli – 300 - 700 km turlarga bo‘linadi. Qayd etilgan eng chuqur zilzila o‘chog‘i 720 km da joylashgan.

Zilzilalar o‘chog‘ining ko‘pchiligi 10-30 km chuqurliklarda joylashgan. Ulardan asosiy qismi (85 %) tektonik siqilish va ozrog‘i (15 %) tektonik cho‘zilish vaziyatlari bilan bog‘liq.




18.3-rasm. Grizontal tebranishlarni qayd etuvchi seysmograf.



18.4-rasm. Vertikal tebranishlarni qayd etuvchi seysmograf.

<sup>129</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007. P 304-306.



### 18.5-rasm. Magnit tasmasiga yozilgan seysmogramma.

Zilzilalar ko'p sodir bo'lagan har bir mamlakatda **seysmograflar** bilan jihozlangan seysmostansiyalar qurilgan bo'ladi. Seystansiyalarda uchtadan seysmograflar o'rnatilgan bo'ladi. Ulardan ikkitasi o'zaro pre-

pendikular bo'lgan gorizontal yo'nalishdagi, uchinchisi esa vertikal yo'nalishdagi tebranishlarni qayd etadi (18.3, 18.4-rasmlar). Ular zaminga mustahkam o'matilgan shtativdagi mayatnik va barabandan iborat. Seysmograflar tebranishlarni yorug'lik yoki elektr signallariga aylantirib, magnit tasmasiga uzlusiz yozib boradi. Seysmik tebranishlar yozuvni **seysmogramma** deyiladi (18.5-rasm).

Seysmik tebranishlarda uch xil seysmik to'lqim ajratiladi: bo'ylama - (tezligi 3,5 - 6,5 km/sek) jins zarralarining tebranishi to'lqin tarqalish yo'nalishida sodir bo'lib, qattiq, suyuq, va gaz holdagi moddalardan o'tadi; ko'ndalang - (tezligi 4,5 km/sek) tebranishlar to'lqin tarqalish yo'nalishiga ko'ndalang holda amalga oshadi. Bunday to'lqinlar suyuq va gaz holatdagi moddalardan o'tmaydi. Yuza to'lqinlari (tezligi 3 - 3,5 km/sek) yer po'stining ustki qismida harakatlanib, tez so'nadi. Seysmik tebranishlar seysmograf tasmasida o'z aksini topgan bo'ladi.<sup>130</sup>

## 18.3. Zilzilalarning yer sharida tarqalishi.


Bir necha yuz yillar davomida to'plangan ma'lumotlar zilzilalar sayyoramizning ayrim seysmik zonalarda ko'p sodir bo'lishini ko'rsatadi. Seysmik zonalar asosan **geosinklinal** mintaqalarga to'g'ri keladi. Yer yuzasi relyefini buzuvchi zilzilalarning ko'pi Pireney, Alp, Apennin, Karpat, Bolqon, Kavkaz tog'larida va O'rta Osiyoning tog'li rayonlari, Hindiqush, Himolay tog'larida va Tinch okean halqasida sodir bo'ladi. Butunlay yoki deyarli zilzila bo'lmaydigan hududlar ham mavjud. Bunday hududlar (Germaniya va Polsha pasttekisliklari, Rossiya tekisligi, Finlandiya, Kola yarimoroli, Kanada, Braziliya tekisliklari) **aseysmik** o'lkkalar deb ataladi. Yer

<sup>130</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 301, 302.

sharida sodir bo'ladigan zilzilalar yer po'stining asosan ikki yirik harakatchan mintaqasida joylashgan (18.6-rasm).

1. *Tinch okeani mintaqasidagi* zilzilalar barcha zilzilalarning 80% ini tashkil etadi. Bu mintaqaga eng chuqur yer yorig'i o'tgan joylarni o'z ichiga olib, undagi zilzilalar gipotsentrining chuqurligi 700 km gacha boradi. Ayniqsa, Yaponiyada kuzatiluvchi kuchli zilzilalar bunga yaqqol misol bo'ladi.

2. *O'rta yer dengizi - Indoneziya mintaqasi*. Bu mintaqaga barcha zilzilalarning 12% to'g'ri keladi. U Indoneziyaning janubiy-sharqidan boshlanib, g'arbg'a tomon Himolay tog'lari orqali Tiyan-Shan va Pomirga, Afg'oniston va Eron orqali Kavkaz tog'lariga o'tadi. Kavkazda Qora dengiz sohillari bo'ylab ikkiga bo'linadi: bir qismi shimoliy - g'arbdagi Qrim, Karpat, Alp, Pireney tog'lari orqali Atlantika okeaniga tutashadi, ikkinchi qismi esa janubiy - g'arbg'a tomon yo'nalib, O'rta yer dengizing janubiy va shimoliy sohillari bo'ylab, u ham Atlantika okeaniga chiqadi.



18.6-rasm. Yer shari yuzasida seysmik mintaqalarning joylashishi.

Zilzilalarning qolgan qismi ikki kenja mintaqaga to'g'ri keladi. Bularning biri Shimoliy va Janubiy Amerikani, ikkinchisi Qizil

dengiz bo'ylab Afrikaning shimoliy-g'arbini, Arabistonni va Hindistonni o'z ichiga qamrab oladi. Bulardan tashqari, Atlantika okeani ostidagi rift (sayyorar yer yorig'i) zonasasi Islandiyadan Buva oroligacha cho'ziladi. Umuman zilzila bo'lmaydigan joy Yer sharida yo'q desa bo'ladi.<sup>131</sup>

Ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, seysmik faollik kuzatiladigan joylarda zilzilar ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanadi. Halokatli zilzilar yer sharida har 100 yilda bir marta sodir bo'lishi olimlar tomonidan aniqlangan.

Birgina XX asr yakunida yuz bergen Eron (1990) zilzilasida 50 ming, Turkiyadagi (1999) zilzila chog'ida 45 mingdan ortiq odamning jabrlanishi tabiiy ofatlar ichida eng kam tarqalgan zilzila nechog'li katta kuchga ega ekanligidan dalolat beradi.

1911-yilda Olmaota shahari yaqinida zilzila sodir bo'lgan, ammo uning epitsentri aholi yashaydigan joydan uzoqligi sababli binolar deyarli buzilmagan, 1948 yil 6 oktyabrda ro'y bergen Ashgabad zilzilasi kuchli zilzilalardan bo'lib, uning to'lqin zarbalarini Moskva, Toshkent, Samarqand, Dushanba va boshqa shaharlardagi seysmik stansiyalar sezgan.

Yuqorida qayd qilingan zilzilalar Hindi-Xitoy plitasi Yevrosiyo plitasi bilan tutashgan joyda, Tiyan-Shan va Pomir tog'larida vujudga kelgan. Hozirgi zamon yer harakatlari bu joylarda keskin va faol bo'lganligi tufayli ularda zilzilalar misbatan ko'proq uchraydi.

#### **18.4. Zilzilaning paydo bo'lish sabablari va genetik turi**

Avvalo, zilzilaning yuzaga kelish sabablari turlicha bo'lib, hozirgi vaqtida mukammal o'rganilgan. Lekin hozircha ilm-fan taraqqiyoti qachon, qayerda, qanday kuchlanishda yer silkinishi sodir bo'lishini bashorat qilishga ojiz. Muammoning o'ziga yarasha obyektiv sir-sinoati va mavhum tomonlari mavjud. O'ylaymizki, bu savollarga XXI asrda albatta javob topiladi.

Yuqorida yerning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlariغا qisqacha to'xtalib o'tdik. Shu rivojlanish bosqichlari bilan, albatta, yer silkinishlari uzviy borliqdir. Litosfera plitalarimingga harakati

<sup>131</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 346, 347.

tufayli zilzilalar bo'lgan va hozir ham kuzatilib turibdi. Zilzilalar litosfera plitalari tutashgan joylarda keng tarqalgan.

Zilzila ro'y berish sababiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'hinadi:  
a) tog' qulashlari, surilina, o'pirilish zilzilalari; b) vulkan zilzilalari;  
d) tektonik zilzilalar; e) sun'iy zilzilalar.

**O'pirilish zilzilalari.** Bunga Pomir tog'ida 191- yil sodir bo'lgan zilzila misol bo'ladi. Usoy qishlog'i yaqmida juda katta hajmdagi tog' massasining o'pirilib tushishi natijasida Murg'ob daryosi to'silib qolgan va Sarez ko'li hosil bo'lgan. Usoy qishlog'i shu ko'lning ostida qolib ketgan (18.7, 18.8 - rasmlar).



18.7-rasm. Usoy ko'chkisi.



18.8-rasm. Sarez ko'li.

**Vulkan zilzilalari.** So'nmagan vulkanlarning harakati natijasida ham zilzila bo'lib turadi. Bunday zilzila faqat vulkanli o'lkalarga xosdir. Vulkan harakatlanib turgan o'lkalarda zilzila kuchl 5 - 6 balldan (ba'zilarini hisobga olmaganda) oshmaydi. Masalan, Tinch okean atrofidagi, Kamchatka yarimoroli, Kuril, Xokkaydo orollari shular jumlasidandir. Bu yerlarda zilzilalar o'chog'i 200 - 600 km chuqurlikda joylashgan.


Yerding chuqur qismida harorat yuqori bo'lishi tufayli hosil bo'lgan magmalardan ajralib chiquvchi gaz va bug'ning yer ostidan dahshatlilik bilan otilib chiqishidan kuchli zilzila ro'y beradi. Bunday zilzilalar aholi yashaydigan joydan chetda bo'lsa talofat kam, agar ularga yaqin bo'lsa katta zarar keltiradi (Krakatau vulkani).

**Tektonik zilzilalar.** Yer qatlamlarini o'zgartirib tog'lar hosil qiluvchi energiya (kuch) zaridan zilzila vujudga keladi. Tektonik jarayon natijasida yer po'stida qatlamlar burmalanadi, siqiladi, yoriladi, uziladi va yangi relyef shakllanadi.

Tektonik zilzilalar keng tarqalgan bo'lib, Yer sharida kechadigan barcha zilzilalarning 90% ga yaqinini tashkil etadi. Tektonik zilzilalar xalq xo'jaligiga katta talofat keltiradi.

*Dengiz zilzilalari va sunami.* Dengiz va okean tublarida ham kuchli zilzilalar bo'lib turadi. Suv ostidagi zilzilalar sunami (yaponcha - qo'lтиqdagi to'lqin) nomli dahshatlil to'lqinlarni keltirib chiqaradi.<sup>132</sup>

Sunamining eng dahshatlil oqibati bo'lib zilzila o'chog'ining ustidagi suv massasida hosil bo'lувchi va okean orqali sohillariga qarab harakatlanuvchi kuchli uzun to'lqinlar hisoblanadi. Bu to'lqinlarning sohil tubiga urilib sinishi tufayli uning kuchi keskin oshadi. Bunday to'lqinlar butun Tinch okeani orqali tarqalishi va sohilga urilib, orqaga qarab harakat qilishi mumkin (18.9-rasm).



18.9-rasm. Sunamining hosil bo'lish jarayoni  
(*Understanding Earth*, J. Grotzinger va b.).

1896-yili Xonsyu orolining (Yaponiya) sharqiy sohilida vujudga kelgan shunday sunami Tinch okeani o'rta qismidagi Gavayi orollari orqali Amerika- sohillarigacha yetib borgan va undan qaytib Yangi Zelandiya va Avstraliyaga qarab harakatlangan. Sunami to'lqmlarning balandligi 20 m ga yetgan.

Sunami nafaqat tektonik, balki vulkanik zilzilalar tufayli ham sodir bo'ladi. Masalan, 1883-yili Krakatau (36 ming kishi qurban bo'lgan) va Gavay orollaridagi Kilauza vulkanlari otilganda ulkan sunamilar hosil bo'lgan.

*Texnogen zilzilalar.* Bunday zilzilalar inson faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Bu hodisaning sabablaridan biri bo'lib seysmik

<sup>132</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 350, 351.

faollikning oshishi hisoblanadi. Orovill shahri rayonida (Kaliforniya) AQSH dagi eng baland to‘g‘on (235 m) va suv ombori qurilgan joyda 7 balli zilzila sodir bo‘lgan. Bunday seysmik faollikning kuchayishi Kurskda, Tojikistonda va boshqa joylarda kuzatilgan.

Muayyan seysmik faollikni neft va gaz konlari i qazib olish, burg‘i quduqlariga suv yuborish ham keltirib chiqarishi mumkin. Aynan shu jarayonlar 1976-yili Grozniy shahri yaqinida hamda 1976 va 1984-yillari Gazlida kuchli zilzila sodir bo‘lishiga olib kelgan deb taxmin qilinadi.

Zilzilaning kelib chiqish sabablarini aniqlash asosan ilmiy tadqiqot institutlarida olib boriladi. Hozirgi vaqtida juda ko‘p maxsus seysmik stansiyalar (Moskva, Sverdlovsk, Tbilisi, Toshkent, Almati, Dushanba, Irkutsk, Samarqand va boshqa shaharlarda) mavjud bo‘lib, ularda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

## 18.5. Zilzila oqibatlari

Tarixda eng kuchli zilzilalar Chili (1960), Alyaska (1969), Suriya, Falastin, Kichik Osiyo, Hindiston, Xitoy (1976), Yaponiya va O‘rta Osiyoda: Andijon (1902), Olmaota (1911), Xait (1949), Ashgabad (1929, 1948), Toshkent (1966), Chotqol (1946) va boshqa joylarda sodir bo‘lgan.

Pireney yarim orolida, Portugaliyaning poytaxti Lissabonda 1755-yil 1- noyabrda dunyoda eng kuchli zilzila (11-12 ball) sodir bo‘lgan. Bu zilziladan qo‘rqan aholi dengiz sohiliga qochgan, biroq, sohil odamlar bilan birga bir zumda 200 metrgacha cho‘kib, ular ustiga dengiz bosib kelgan. Bu zilzila zarbasidan dengizdan baland to‘lqin ko‘tarilib, uning kuchi  $7 \cdot 10^{22}$  ergga yetgan. Lissabondagi zilziladan 60 ming kishi halok bo‘lgan.

Tabiatning dahshatli hodisalari ta’sirida faqat yer qatlamlarining yotish holatlarigina o‘zgaribgina qolmasdan, balki aholiga va ularning uy - joylariga, shaharlarga moddiy zarar yetadi.

Olimlar Yer sharida 4000 yil davomida taxminan 13 mln. Kishining zilziladan halok bo‘lganligini hisobga olganlar.

Tabiatning dahshatli hodisasi – zilzila ta’sirida xalq xo‘jaligi inshootlari, shahar va qishloqlar vayronaga aylanadi (18.10, 18.11 - rasmlar).



18.10-rasm. Zilzila tufayli turar joy binosi batamom yakson bo'lgan.

rilgan, yer yoriqlaridan issiq suv va qum aralash loyqa oqib chiqqan.

Ko'pincha kuchli zilzila vaqtida yer yoriladi, ko'chkilar vujudga keladi (18.12 - rasm) va relyef o'zgaradi.

O'rta Osiyodagi tog'lar jumladan, Pomir - Oloy, Qurama, Farg'on'a, Chotqol, Pisskom va boshqa tog' tizmalarining geologik tuzilishi va tektonikasini o'rganish natijasida bu tog' tizmalarining neogen va antropogen davrlarida kuchli tog' burmalanishi (yaxlit, pa-



18.11-rasm. Zilzila tufayli vayron bo'lgan ko'p qavatli uyning ko'rinishi.

laxsa) va ko'tarilishidan paydo bo'lganligi isbotlandi.

Bu keltirilgan ma'lumotlar yer yuzisidagi relyef shakllarining (erosion, denudatsion, akkumulyativ va b.) paydo bo'lishida zilzila harakatining



18.12 - rasm. Kuchli zilzila ta'sirida hosil bo'lgan yer yoriqlari.

roli kattaligini ko'rsatadi.

Ba'zi sunamilar ham katta talofat keltiradi. 1896-yili Xonsyu orolining sharqiy sohilida vujudga kelgan shunday sunami Yaponiya sohillarida 26 mingga yaqin kishilarning yostig'ini quritgan. Bunday hodisaga 2004-yil kuzida Hind okeani mamlakatlari sohillarida sunami tufayli 270 mingdan ortiq odamlarning halok bo'lganligini, juda katta moddiy zarar yetkazilganini ko'rsatib o'tish darkor.

### 18.6. Zilzilani bashorat qilish

Zilzilani bashorat qilish seysmologlarning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Zilzilalarni oldindan aytish yoki bashorat qilish olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zilzila insonlar hayotiga, ular barpo etgan inshootlariga, moddiy boyliklarga naqadar katta xavf tug'dirishini ko'z oldimizga keltirsak, bu masalaning nechog'lik olamshumul amaliy ahamiyatga egaligini tushunish qiyin emas. Agar zilzila sodir bo'lishini biroz bo'lsada oldinroq bilish imkoniga ega bo'lganimizda edi, insonlarni bunday halokatdan saqlash chora tadbirlari ko'rilgan bo'lar edi.

Zilzilani bashorat qilish muammosi, ya'ni zilzila joyi va kuchini aniqlash yoki zilzila bo'ladigan maydonlarni bilish bir qarashda hal bo'lgandek. Bu muammo yangi geologik va seysmik ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish evaziga yuzaga keladi. Shunday ma'lumotlar asosida ma'lum joylarda zilzilaning kuchi qanday bo'lishligini aytish va ballar bo'yicha hududlarni rayonlash mumkin.

Bunday xaritalar tuzilishdagi asosiy kamchilik u-yoki bu maydonlardan olinayotgan ma'lumotlarning bir xil emaslidigidir. Shuning uchun seysmik rayonlashga tayyorlanayotganda har bir joyning geologik tuzilishi va zilzila natijasida olingan izoseystlar joylashuvi inobatga olinishi shart.<sup>133</sup>

Bunday xaritalarni tuzish bizning respublikamizda 1966-yildan so'ng amalga oshirilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizning barcha hududlari bo'yicha seysmik rayonlash xaritalari tuzilgan, yirik shaharlar bo'yicha esa, mukammal seysmik rayonlash xaritalari mavjud.

<sup>133</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 352-355.

Zilzila bo'lish vaqtini bashoratlash borasida olib borilayotgan tadqiqotlar hozirgi kunda ham bu masalaning yechimi topilmaganligini ko'rsatadi.

Zilzilar muammosi bilan shug'ullanuvchi mutaxssislarning barchasi bunday dahlshatl tabiat hodisasini bashorat qilish borasida tadqiqotlar olib borishadi. Bu tadqiqotlarning asosiy maqsadi bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilaning kuchini, ro'y berish vaqtini va joyini oldindan aytib berishdan iborat.

Agar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarning kuchi va joyini aniqlash masalalari ma'lum ma'noda yechilsada, uning vaqtini aytish hozirgacha muammo bo'lib qolmoqda. Bu borada ko'plab mamlakatlarda tadqiqotlar davom etmoqda. Gap shundaki, ulkan talofatlar birinchi navbatda yerosti silkinishlarining hozircha fanga noma'lum bo'lgan kutulmaganda, favqulodda sodir bo'lishi natijasidir.


Zilzilalarning ilgari sodir bo'lgan hududlarda yana takrorlanish ehtimolligi katta bo'ladi. Yer yoriqlari bilan bog'liq bo'lgan seysmik zarbaga uchragan joylar muayyan vaqt davomida «kuch yig'adi», yillar, o'nlab va yuzlab yillar o'tib yangi katastrofaga duch keladi. Masalan, Gazlidagi zilzila sakkiz yildan so'ng yana takrorlangan.

Zilzilalarning ko'philigi yirik yer yoriqlari zonasida joylashgan. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilaning o'mi va kuchini maxsus seysmik (mikroseysmik) rayonlash xaritalari bo'yicha hisoblab topiladi. Bunday xaritalarda muayyan balli zonalar, izoseystlar, yer yoriqlari zonalari va geologik tuzilishining boshqa xususiyatlari, grunt tarkibi, yerosti suvlarining yotish chuqurligi, relyefning parchalanganligi, oldin sodir bo'lgan zilzilalarning epitsentrleri, gipotsentrining joylashish chuqurligi, seysmostansiyalar o'mi va boshqalar ko'rsatiladi<sup>134</sup> (18.13-rasm).

Bunday xaritalarni kompleks tahlil qilish ma'lum darajadagi ehtimollik bilan bashorat qilinayotgan zilzilaning o'mi va kuchini aniqlash imkonini beradi.

Sodir bo'lishi taxmin qilmayotgan zilzilaning ro'y berish vaqtini aniqlash ancha murakkab masala hisoblanadi. Olimlarning bir qismi bunday bashorat qilish mumkin emas deyishadi.

<sup>134</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 320, 321.



**18. 13-rasm. 1948-yil 5-oktabrda sodir bo'lgan Ashgabad zilzilasining izoseyst va balli zonalari xaritasi.**

«Faqat tovlar-machilar va esi past-largina zilzilalarni oldindan aytib berishi mümkin», - de-gan taniqli geofizik professor Emil Vixert.

Shu bilan bir qatorda ko'plab davlatlarning olim-lari zilzila xabar-chilarini qidirishni davom ettirmoqda-lar. Bunday darak-

chilarni bir necha guruhgaga bo'lish inumkin. Birinchi navbatda bular seysmologik darakchilar - sust zilzilalar yoki *forshoklar* (inglizcha «for» - oldin va «shok» - zarba) sonining keskin oshishi hisoblanadi.

Geofizik belgilarga tog' jinslari elektr qarshiligining pasayishi, magnit maydoni to'liq vektori modulining o'zgarishi va boshqalarni kiritish mumkin.

Zilzilaning gidrogeologik darakchilaridan burg'i quduqlarida va xo'jalik quduqlarida grunt suvlari sathining oldin pasayishi va keyin keskin ko'tarilishi, suv haroratining o'zgarishi, suvda radon, karbonat angidrit gazi va simob bug'lari miqdorining oshishini ko'rsatish mumkin.

Hayvonlarning bezovtalanishini ham zilzila darakchisi qatoriga kiritish mumkin. Zilzila ro'y berishidan oldin itlarning uvullashi, mushuk va tovuqlarning binolardan qochib chiqishi, ilonlarning ımlarini tashlab ketishi, tabbiy suvlarda va akvariumda baliqlarning bezovtalanishiga kishilar e'tibor berishgan.

Yuqorida sanab o'tilgan darakchilarning bir qismidan o'rtacha muhlatli (yil, oylar), boshqalaridan esa qisqa muddatli (kunlar) bashoratlashda foydalanish mumkin. Bunday ma'lumotlarni qayta ishish va bir qarorga kelishdan oldin zilzila darakchilarming barchasidan birgalikda foydalanish loziin.

## **O‘tilgan ma’ruza mavzusi bo‘yicha savollar**

1. Zilzila deganda nimani tushunasiz?
2. Zilzilaning hosil bo‘lish mexanizmi nimalardan iborat?
3. Zilzila o‘chog‘i nima?
4. Seysmik mintaqqa va aseyismik o‘lka deganda nimani tushunasiz?
5. Medvedev va Rixter seysmik shkalalarining asosiy mohiyati va farqi nimalardan iborat?
6. Sunami nima?
7. Zilzilani bashorat qilish mumkinmi?
8. Seysmograf va seysmogrammalar nima?

# **19-boh. ASOSIY GEOTEKTONIK GIPOTEZALAR. PLITALAR TEKTONIKASI HAQIDA TUSHUNCHALAR**

## **REJA**

- 1. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasiniň shakllanish tarixi.**
- 2. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining bozirgi mazmuni.**
- 3. Yer po'stining strukturalari.**
- 4. Litosfera plitalari tektonikasi fan tizimi sifatida.**

Kalit so'zlar; Subduksiya, obduksiya, spreding, kontinental po'st, divergent va konvergent chegaralar, kontinental chet, plyum geotektonikasi, fiksizm, mobilizm, qora chekuvchilar, trapp, paleomagnetizm, inversiya, orollar yoyi, kontraksiya, izostaziya, Eyler teoremasi, akkretsiyon pona.

### **19.1. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining shakllanish tarixi**

*Litosfera plitalari tektonikasi* – litosferaning barakati haqidagi zamonaviy geologik nazariyaga muvofiq yer po'sti nisbatan yaxlit bloklardan - litosfera plitalaridan tuzilgan va ular bir-biriga nisbatan doimiy harakatda bo'ladi. Kengayish zonalarida (o'rta okean tizmalari va kontinental riftlarda) spreding tufayli (inglizcha *seafloor spreading* – dengiz tubining kengayishi) yangi okean po'sti hosil bo'ladi, eskisi subduksiya zonalarida yutiladi. Bu nazariya ko'pchiligi litosfera plitalari chegaralarida joylashgan zilzilalar, vulkanizm va tog' hosil bo'lish jarayonlarim tushuntirib beradi.<sup>135,136</sup>

Hozirgi davrda Shimoliy Amerika plitasi Yevroosiyo plitasiga nisbatan asta-sekin g'arba siljimoqda. Ushbu ikkita litosfera plitalari orasidagi chegara bo'lib Atlantika okeanidagi o'rta okean tizması sanaladi. Yangi okean po'sti o'rta okean tizması zonasida deyarli uzuksiz hosil bo'lmoqda. O'rta okean tizması Atlantika okeanida Islandiyani qirqib o'tadi. Islandiyaning g'arbiy qismi shimoliy

<sup>135</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 368-370.


<sup>136</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 20-22.

Amerika plitasiga, sharqiy qismi esa Yevroosiyo plitasiga kiradi. Bu plitalar bir-biridan uzoqlashayotganligi uchun Islandiyaning o‘lchami yiliga 2 sm ga oshmoqda.

Plitalar tektonikasini rekonstruksiya qilish uchun paleomagnit tadqiqotlarning natijalari katta ahamiyatga ega. Ba’zi minerallar o‘zida hosil bo‘lish vaqtidagi magnit maydonining mo’ljali to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Ushbu minerallarning magnitlanganligini o‘rganib, ular qaysi kengliklarda hosil bo‘lganligini aniqlash mumkin.

Agar kelajakda ham Afrika va Somali plitalari qarama-qarshi tomonga harakatlarini davom ettirsa, ularning orasida yangi okean vujudga keladi (19.1-rasm).

Ilk bor yer po‘sti bloklarining harakati haqidagi g‘oya Alfred Vegener tomonidan 1920 chi yillari taklif etilgan kontinentlar dreyfi nazariyasida yoritilgan.



19.1-rasm. Qizil dengiz riftining rivojlanishi.

Bu nazariya dastlab olimlar tomonidan qabul qilingan. Yer ning qattiq po‘sti harakati haqidagi g‘oya – mobilizm 1960-yillari okean tubining relyefi va geologiyasini

o‘rganish natijasida okean po‘stining kengayishi (spreading) va bu po‘stlar bloklarining biri ikkinchisining tagiga kirib ketishi (subduksiya) jarayonlari haqidagi olingan ma’lumotlar bilan tasdiqlandi. Materiklar dreyfi haqidagi gipoteza keyinchalik litosfera plitalari tektonikasi nazariyasini darajasigacha ko‘tarildi va u endi Yer haqidagi fanlarda umumiy qabul qilingan konsepsiya bo‘lib goldi.<sup>137</sup>

Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasida geodinamik vaziyatlar tushunchasi – litosfera plitalari bilan muayyan munosabatda bo‘lgan xarakterli geologik strukturalar muhim

<sup>137</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 362, 363.

ahamiyatga ega. Muayyan bir geodinamik vaziyatda bir xil tektonik, magmatik, seysmik va geokimyoviy jarayonlar kechadi.

XX asr boshlarida nazariy geologiyaning asosi sifatida kontraksion gipoteza hukmron bo'lgan. Yer pishirilgan olma kabi soviydi va uning sirtida ajinlar singari tog' tizmalari vujudga keladi. Bu g'oyani burmali mintaqalarni o'rganish asosida yaratilgan geosinklinallar nazariyasini rivojlantirgan. Dastlab ushbu nazariya Dieyms Dan tomonidan ta'riflangan bo'lib, u kontraksion gipotezani izostaziya tamovili bilan boyitgan. Ushbu tamoyilga binoan Yer po'sti granit (kontinentar) va bazalt qatlamlaridan (okeanlar) tarkib topgan. Yer po'stinimg siqilganida okeanlarda - botiqliklarda tangensial kuchlar vujudga kelib, kontinentlarni siqqan. Kontinentlar ko'tarilib, tog' tizmalarini hosil qilgan va keyinchalik nurashga uchragan. Nurash tufayli hosil bo'lgan materiallar tashib keltirilib, botiqliklarda yotqizilgan.

Bu sxemaga nemis meteorolog - olimi Alfred Vegener qarshi chiqqan. U 1912- yilning 6-yanvarida nemis geologlari jamiyatining majlisida materiklar dreyfi to'g'risida ma'ruza qilgan. Ushbu nazariyaga turtki bergen narsa Afrikaning g'arbiy va Janubiy Amerikaning sharqiy sohillari ko'rinishining o'zaro mos kelishi bo'lgan. Agar yagona materikning parchalanishidan hosil bo'lgan bu kontinentlarni o'zaro yaqinlashtirilsa, ular o'zaro jips holda tutashadi. Uning taxminicha hozir Atlantika okeanining har ikkala tomonida joylashgan kontinentlar qachondir Pangey superkontinentining tarkibida bo'lgan.

Vegener ushbu materiklar sohillarining mos kelishi bilangina cheklanib qolmasdan, boshqa dalillarni ham qidirgan. Buning uchun u har ikkala kontinent sohillarining geologiyasini ham o'rgangan va sohillar tutashtirilganidagidek mos keluvchi ko'pchilik murakkab geologik majmualarni topgan. Ushbu nazariyaning isboti bo'lib paleoiqlimiylar qayta tiklash, paleontologik va biogeografik argumentlar oldinga chiqdi. Ko'plab hayvonlar va o'simliklar Atlantika okeanining har ikkala tomonlari bo'ylab chegaralangan hududlarda tarqalgan bo'lib chiqdi. Ular bir-biriga juda o'xshash, ammo minglab kilometrli okean suvi bilan ajratilgan. Ularning okean akvatoriyasi orqali o'tganligini tasavvur qilib ham bo'lmaydi (19.2-rasm).

1915-yilda Alfred Vegener kontinentlar dreyfi haqidagi gipotezasini chop ettirgan. Vegenerning gipotezasi chop etilganda butun geologlar jamiyati uning ustidan kulishgan. Ammo 50 yil o'tib geoglarning ko'pchiligi Vegener gipotezasidagi asosiy holatlarning

to'g'riliqi-ga

ishonch hosil qilishgan.

Bundan tashqari, Vegener geofizik va geodezik dalillar qidirgan. Ammo o'sha vaqtida fan kontinentlarning hozirgi harakatlarini qayd qilishi darajasida yuqori bo'limgan. 1930-yili Vegener Grenlandiyada eks-peditsiya vaqtida halok bo'lgan, ammo u o'limidan oldim nazariyasini



19.2-rasm. Atlantika okeanidagi yer yorig'i.  
(*Understanding Earth.*, J. Grotzinger, va b.).

ilmiy jamiyat qabul qilmaganini eshitgan.

Boshida Vegenerning materiklar dreyfi nazariyasi olimlar tomonidan yaxshi qabul qilingan, ammo 1922-yili u bir necha mashhur mutaxassislar tomonidan qattiq tanqidga uchragan. Ushbu nazariyaga qarshi bo'lgan bosh argument litosfera plitalarini harakatga keltiruvchi kuch muammosi bo'lgan. Vegener kontinentlar okean tubidagi bazalt qatlami yuzasi bo'yicha barakatga keladi deb o'ylagan, ammo bu jarayon uchun manba hali noma'lum bo'lgan ulkan kuch kerak edi. Litosfera plitalari harakatining manbasi sifatida Koriolis kuchi, priliv ogimlar va boshqa sabablar taxmin qilingan. Ammo oddiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, ularning barchasi birgahikda ulkan kontinental bloklarni surish uchun yetarli bo'limgan.

Ikkimchi Jahon Urushidan so'ng okean tubi faol o'rganila boshlandi va Vegener g'oyalarini tasdiqlovchi yangi ma'lumotlar olindi. Bu ma'lumotlar okean tubining topografiyasi, okean po'stining yoshi va magnit maydomi anomaliyasi bilan bog'liq bo'lgan. Zilzilalar va vulkanlarning taqsimlanishi ham Vegenerning dunyoqarashiga mos kelgan. Zilzilalarning va vulkanlarning ko'pchiligi litosfera plitalari orasidagi chegara bo'y lab sodir bo'ladi.

Vegener nazariyasini tanqid ostiga olgan olimlar faqat kontinentlarni harakatga keltiruvchi kuchlarga e'tibor berishgan va nazariyani tasdiqlovchi ko'pchilik dalillarni e'tiborga olishmagan. Alfred Vegenerning o'limidan so'ng materiklar dreyfi nazariyasi noto'g'ri deb amalda chetlashtirilgan, olimlarning aksariyat qismi tadqiqotlarini geosinklinallar nazariyasi doirasida olib borgan. Ammo ular ham turli kontinentlardagi hayvon va o'simliklarning bir xil tarqalishini tushuntirishi lozim edi. Shuning uchun keyinchalik suv ostidagi qolib ketgan materiklar orasidagi tutashtiruvchi quruqlik ko'priklarini o'y lab topishgan. Bu Atlantidaning kelib chiqishi haqidagiga o'xshash yana bir afsona edi, xolos. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, dunyoda katta obro'ga ega bo'lgan olimlarning tayziqiga qaramasdan ba'zi olimlar materiklar harakati sohasidagi tadqiqotlarini davom ettirishgan. Masalan, dyu Tua (Alexander du Toit) Himolay tog'larining hosil bo'lishini Hindiston va Yevrosiyo litosfera plitalarining to'qnashishl orqali tushuntirgan.

Gorizontal harakatlarni istisno qiluvchi **fiksistlar** va kontinentlarning gorizontal harakatlarini qo'llab - quvvatlovchi **mobilistlar** orasida kechgan sust kurash 1960-yillari juda keskinlashib ketdi.

1960-inchi yillari shakllangan litosfera plitalari tektonikasi nazariyasi ham kontinentlar dreyfini tasdiqlaydi. Ikkita okean plitalari yoki okean va kontinental plitalari o'zaro yaqinlashayotganda subduksiya zonasini shakllanadi – okean plitasi kontinental plita ostiga sho'ng'ib, yo'qolib ketadi.

1960-inchi yillarning boshlarida Dunyo okeani tubi relyefning xarитаси tuziladi. Unda okeanlarning o'rтасидаги cho'kindilar bilan qoplangan abissal tekisliklarga nisbatan 1,5-2 km baland ko'tarilgan o'rtaokean tizmalarining joylashganligi ko'rsatilgan (qarang: 19.2-rasm). Bu ma'lumotlar R. Dits va Garri Xess tomonidan 1962-1963-

yillari spreding gipotezasining varatilishiga sababchi bo'lgan. Bu gipotezaga inuvofiq mantiyada 1sm/yil tezlikdagi konveksiya jarayonlari kechadi. Yuqoriga harakatlanuvchi konveksiya oqimlarining tarmoqlari o'rta okean tizmalari o'q qismining tagida har 300-400 yilda bir marta okean tubini yangilovchi mantiya materialini chiqaradi. Kontinentlar, Alfred Vegener o'ylagandek, okean po'sti yuzasida emas, balki litosfera plitalari mantiya yuzasida suriladi. Spreding konsepsiyasiga muvofiq, okean havzasi strukturalari doimiy, barqaror emas, kontinentlar esa barqarordir.<sup>138</sup>

1963-yili spreding gipotezasi okean tubida yo'l-yo'lli magnit anomaliyalarining kashf etilishi tufayli baquvvat tayanchga ega bo'ldi. Ular okean tubidagi bazatlarda magnitlanishni qayd etuvchi yer magnit maydoni inversiyasi yozuvni sifatida talqin qilindi. Shundan so'ng litosfera plitalari tektonikasi Yer haqidagi bilimlar sohasida o'zining salb yurishini boshlaydi. Bu g'oyaning tarafdarlari keskin oshib bordi.

Hozirgi vaqtida litosfera plitalari tektonikasi nazariyasi litosfera plitalari harakat tezligini bevosita o'Ichovchi aniq asboblar va sun'iy yo'ldoshlarning navigatsiya tizimlari (GPS) yordamida tasdiqlandi. Shunday qilib, olib borilgan ko'p yillik tadqiqot natijalari litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining asosiy holatlarini tasdiqladi.

## 19.2. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining hozirgi mazmumi

O'tgan o'n yilliklarda litosfera plitalari tektonikasi nazariyasi o'zining asosiy mazmunini ancha o'zgartirdi. Hozir ularni shunday ta'riflash mumkin:

- Yerning ustki qattiq qismi mo'rt litosferaga va plastik astenosferaga bo'linadi. Astenosferadagi konveksiya - litosfera plitalari harakatinmg bosh sababchisi.
- Litosfera 8 ta yirik, o'nlab o'rtacha o'Ichamdag'i va ko'plab mayda plitalarga bo'linadi. Mayda litosfera plitalari yiriklarining orasidagi qambarlarda joylashgan. Seysmik, tektonik va magmatik faoliik litosfera plitalari orasidagi chegaralarda kuzatiladi.

<sup>138</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 363.

- Litosfera plitalari birinchi qarashda qattiq jism kabi ko'rinadi, amino ularning harakati Eylerning aylanish teoremasiga bo'yasinadi.
- Litosfera plitalarining nisbatan surilishi uch turda amalgamashadi:
  - a) rifting va spreding orqali ifodalangan ajralish (divergensiya);
  - b) subduksiya va kolliziya orqali ifodalangan tutashish (konvergensiya);
  - d) transformali yer yoriqlari bo'ylab siljish.

- Okeanlardagi spreding ularning chekkalaridagi subduksiya va kolliziya bilan kompensatsiyalanadi, bunda Yerning radiusi va hajmi o'zgarmasdan qoladi. Yer o'lchamlarining doimiyligi davriy ravishda rad etilib kelingan, ammo yerning sezilarli o'zgarishini tasdiqlovchi dahillar yetishmaydi.

- Litosfera plitalarining surilishi astenosferadagi konvektiv oqimlar yordamida amalgamashadi.

Yer po'stining batamom o'xhash bo'limgan ikki turi - kontinental po'stloq (ancha qari) va okean po'stloq (200 million yildan ortiq emas) mavjud. Ba'zi litosfera plitalari faqat okean turidagi po'stdan (masalan - ulkan Tinch okean litosfera plitasi), boshqalari esa okean po'stiga payvandlanib qolgan kontinental po'stning bloklaridan iborat.

Yer yuzasining 90% dan ortiqrog'i ini 8 ta ulkan litosfera plitalari tashkil etadi (19.3-rasm):


**Australiya plitasi; Antarktida plitasi; Afrika plitasi; Yevrosivo plitasi; Hindi xitoy plitasi; Tinch okean plitasi; Shimoliy Amerika plitasi; Janubiy Amerika plitasi;**

O'rtacha o'lchamdagagi litosfera plitalariga misol qilib Arabiston varimoroli, Arabiston subkontinenti, Kokos va Xuan de Fuka, Karib, Filippin, Naska kabi litosfera plitalarimi ko'rsatish mumkin.<sup>139</sup>

**Litosfera plitalarini siljituvg'chi kuchlar.** Hozir litosfera plitalarining gorizontal harakatlari mantyaning issiqlik-gravitatsion oqimlari - konveksiya tufayli sodir bo'l shuba yo'q. Bu oqimlar energiyasining manbai bo'lib, Yerning inarkaziy qismlari va yuzasidagi haroratlar farqi hisoblanadi. Yer yadrosidagi harorat juda yuqori, taxminan  $5000^{\circ}\text{C}$  deb baholanadi.

<sup>139</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P369.

Konvektiv oqimlar yopiq zanjir shakliga ega bo'ladi. Uni oddiy tajribada tekshirib ko'rish mumkin. Bunga o'quvchi kastyulkadagi suvni gaz gorelkasida qizdirish yo'li bilan ishonch hosil qilishi



*19.3-rasm. Litosfera plitalarining o'zaro joylashuv sxemasi.  
1-transformal yer yoriqlari, 2-subduksiya zonalari, 3-materiklar  
chegaralari, litosfera plitalarining harakat yo'nalishi.*

mumkin. Idish tubidagi haroratning oshishi bilan suv qalinligida harorat gradiyenti va yuqoriga harakatlanuvchi issiqlik oqimi yuzaga keladi. Qizigan suv balandga ko'tarila boshlaydi, yuzasi bo'ylab yoyiladi va sovushi tufayli, idishning devori bo'ylab pastga tushadi. Bu holda suyuqlikning barcha qatlamlari konveksiyaga jalb etiladi. Hosil bo'lgan konveksiya tartibli va hir yarusli bo'ladi. Agar bir qancha gorelkadan foydalanilsa konveksiya tartibsiz holga keladi. Ammo har ikki holda ham suvning butun qatlami konveksiyaga jalb qilingan, konveksiyaning o'zi esa bir yarusli bo'ladi. Boshqa tajribada o'zaro aralashmaydigan suyuqliklarning ikki qatlamlı (suv, moy) modelidan foydalananamiz. Umi qizdirish jarayonida konveksiyaning ikki sathi vujudga keladi va ularning har birida mustaqil zanjirlar hosil bo'ladi. Bu holda konveksiya ikki sathli yoki ikki yarusli hisoblanadi.

Yer mantiyasida ham, suyuqliklar bilan o'tkazilgan tajribadagi singari, konvektiv oqimlar vujudga keladi. Ammo bu jarayon juda murakkab bo'lib, ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Energiya generatsiyasining turli sathlarda va turli jadallikda kechishi, jinslarning yuqori qovushoqligi, mantiya va po'stloqning qatlamlarga ajralganligi va lateral bir jinsli emasligi shular jumlasidandir. Ular tog' jinslarining turli petrokimyoviy tarkibi, zichligi va qizdirilganligi bilan bog'liq.

Qovushoq mantiya moddasining harakatga keltiruvchi kuchi konvektiv oqimning pastki va ustki qismlarida zichlikning o'zgachaligidan kelib chiqadi.

Zichlik mantiya oqimining ko'tarilgan qismida past bo'lib, oqimning cho'kadigan joyi tomon yaqinlashgan sari ortib boradi. Yer po'stining cho'kayotgan oqim ustidagi og'irlik kuchi shunday yuqoriki, vaqtı-vaqtı bilan po'stning mustahkamligidan oshib ketadi (eng past mustahkamlik va eng yuqori kuchlanish joylari), ya'ni po'stning noelastik (plastik, mo'rt) deformatsiyasi - zilzila vujudga keladi. Bunda po'stning deformatsiyalanuvchi joylaridan butun bir tog' tizmalari, masalan, Himolay siqib chiqariladi. Plastik (mo'rt) deformatsiya juda tez (zilzila vaqtida po'stning surilish tezligida) susayadi, zilzila o'chog'i markazida va uning atrofida kuchlanish kamayadi.

Shunday qilib, litosfera plitalarining harakati – Yerning markaziy qismidan juda qovushoq magma bilan issiqlik olib kelinishi oqibati hisoblanadi. Bunda issiqlik energiyasining bir qismi ishqalanish kuchini yengib o'tish uchun mexanik isliga aylanadi, bir qismi esa, yer po'stidan o'tayotganda, atrofdagi bo'shliqqa tarqab ketadi. Demak, bizning sayyora ma'lum ma'noda issiqlik dvigateli ham sanaladi.

Yer qa'ridagi harorat to'g'risida bir necha gipotezalar mavjud. XX asrning boshlarida bu issiqlik energiyasini radiofaol tabiatni to'g'risidagi gipoteza ommaviy bo'lgan. Birinchi ko'rinishda u yer po'stida uran, kaliv va boshqa radioaktiv elementlarning ancha yuqori konsentratsiyasi bilan tasdiqlangan, ammo keyinchalik yer po'sti jinslaridagi radioaktiv elementlarning miqdori kuzatiladigan issiqlik oqimini ta'minlash uchun mutlaqo yetarli emasligi aniqlandi. Po'stosti moddasidagi (tarkibi bo'yicha okean tubi bazaltlariga

yaqin) radioaktiv elementlarning miqdori juda ham kam. Ammo bu sayyoraning markaziy qismida issiqlik ajratib chiqaruvchi og'ir elementlarning ancha yuqori miqdorini istisno qilmaydi.

Ikkinchchi model - qizishni Yerning kimyoviy differensiatsiyasi orqali tushuntiradi. Dastlab sayyora silikatli va metalli moddalarning aralashmasidan tarkib topgan. Ammo sayyoraning hosil bo'lishi bilan bir vaqtida uning muayyan qobiqlarga differensiatsiyalanishi boshlangan. Ancha zinch metalli qismi sayyoraning markaziga qarab harakatlangan, silikatlar esa ustki qobiqlarda to'plangan. Bunda tizimning potensial energiyasi kamayib borgan va issiqlik energiyasiga aylangan. Boshqa tadqiqotchilar esa sayyoraning qizishi meteoritlarning zarbasi ta'siridagi akkretsiya tufayli sodir bo'lgan deb taxmin qilishgan.

**Ikkinchchi darajali kuchlar.** Issiqlik konveksiyasi tufayli hosil bo'lувчи qovushoq ishqalanish kuchi litosfera plitalarining harakatida belgilovchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo undan tashqari litosfera plitalariga boshqa, uncha katta bo'limgan, biroq muhim kuchlar ham ta'sir qiladi. Bu og'irroq mantiya yuzasida yengilroq po'stning suzishini ta'minlovchi Arximed kuchidir. Oy va Quyoshning gravitatsion ta'siri tufayli vujudga keluvchi priliv oqimlari ham shunday ahamiyatga ega. Shu jumladan yer yuzasining turli joylarida atmosfera bosimining o'zgarishi tufayli paydo bo'ladigan kuchlar ham mavjud. Atmosfera bosimining 3% ga o'zgarishi 0.3 m qalinlikdagi yaxlit suv qatlaming bosimiga teng. Bunday o'zgarishlar kengligi yuzlab kilometrlarga boruvchi zonalarda kechishi mumkin.<sup>140</sup>

### 19.3. Yer po'stining strukturalari

Faol kontinental chetlar. Faol kontinental chet kontinent ostiga okean po'sti kirgan joylarda paydo bo'ladi. Bunday geodinamik vaziyatlar etalonni bo'lib Janubiy Amerikaning g'arbiy sohillari sanaladi va uni *and* tipidagi kontinental chet deyishadi. Faol kontinental chetlar uchun ko'p sonli vulkanlar va umuman kuchli magmatizm xarakterli bo'ladi.

<sup>140</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012. P 386-388.

Kontinental chetlar ostida okean va kontinental litosfera plitalarining o'zaro kuchli mexanik ta'siri kechadi. Okean po'stning harakat tezligi, yoshi va qalinligiga bog'liq holda muvozanat turlicha bo'lishi mumkin. Agar litosfera plitasi sust harakatlansa va uncha qalin bo'lmasa, unda kontinent cho'kindi qoplamasini bilan birga qo'shilib ketadi. Cho'kindi jinslar kuchli burmalanishga uchraydi va kontinental po'stning bir qismiga aylanib ketadi. Bunda hosil bo'lувчи struktura ***akkretion pona*** deyiladi. Agar cho'kayotgan litosfera plitasining tezligi yuqori, ammo cho'kindi qoplamasini qalin bo'lmasa, unda okean po'sti kontinentdan ko'chib, mantiyaga so'rildi.<sup>141</sup>

**Orolli yoymalar.** Orolli yoymalar – bu bir okean litosfera plitasining ikkinchisi tagiga sho'ng'ish joyida hosil bo'lgan subduksiya zonasini ustida rivojlangan vulkan orollarining zanjiridir.<sup>142</sup> Orolli yoymalarning namunasi sifatida hozirgi Aleut, Kuril, Mariana orollari va boshqa arxipelaglarmi ko'rsatish mumkin. Yapon orollarini ham ko'pincha orollar yoyi deyishadi, amino ularning fundamenti juda qari va haqiqatan ham turli vaqtarda vujudga kelgan bir qancha orollar yoyi majmuasidan iborat. Shuning uchun ham Yapon orollari mikrokontinent hisoblanadi.

Orolli yoymalar ikkita okean litosfera plitalarining to'qnashuvidan hosil bo'ladi. Bunda litosfera plitalaridan biri ikkinchisining ostida qolib, mantiyaga so'rilib ketadi. Ustki litosfera plitasida orollar yoyining vulkanlari paydo bo'ladi. Orollar yoyining qavariq tomoni yutiluvchi litosfera plitasi tomoniga qaragan bo'ladi. Shu tomonda chuqursuvli nov va yoyoldi botiqligi joylashgan bo'ladi.


Orollar yoyining ortida yoyorti havzasini joylashgan bo'lib (masalan: Oxota, Janubiy Xitoy va boshqa dengizlar), ularda ham spreding kechishi mumkin.

**Kontinentlarning to'qnashuvi.** Kontinental litosfera plitalarining to'qnashuvi po'stning burmalanishiga va tog'tizmalarining paydo bo'lishiga olib keladi (19.4-rasm). Bu jarayon ***kolliziya*** deyiladi. Bunday kolliziya misol qilib Tetis okeanining yopilishi hamda Yevrosivo plitasining Hindiston va Afrika plitalarini bilan to'qnashuvi tufayli vujudga kelgan Alp-Himolay tog'

<sup>141</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 373, 374.

<sup>142</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 374.

qambarini ko'rsatish mumkin. Bunda yer po'stning qalnligi ancha oshgan, Himolay tog'i ostida u 70 km ga boradi. Qalnligi keskin oshgan po'stda metamorflashgan cho'kindi va magmatik jinslardan granit tarkibli magma hosil bo'ladi. Masalan, Angar-Vitim va Zerendi singari ulkan batolitar shunday hosil bo'lgan.



*19.4-rasm. Kontinental litosfera plitalarining  
to'qnashuvi.(Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).*

**Divergent chegaralar.**<sup>143</sup> Bu chegaralar qarama-qarshi yo'naliishlarda harakatlanuvchi litosfera plitalari orasidagi sarhaddir. Yer relyefidagi bu chegaralar riftlar orqali ifodalangan, ularda cho'zilish deformatsiyasi ustuvorlikka ega, po'stning qalnligi minimal, issiqlik oqimi maksimal va faol vulkanizm kechadi. Agar bunday chegara kontinentlarda hosil bo'lsa, kontinental rift shakllanadi. U keyinchalik markazida okean rifti bo'lgan okean havzasiga aylanishi mumkin. Okean riftlarida spreding natijasida yangi okean po'sti shakllanadi.


**Konvergent chegaralar.**<sup>144</sup> Litosfera plitalarini to'qnashuvi sodir bo'ladigan chegaralar konvergent chegaralar deyiladi. (19.5-rasm). Bunda uchta variant bo'lishi mumkin:

<sup>143</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 369


<sup>144</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 369

Divergent chegaralar

a) Okyanus plitelerinin açılması




b) Kontinental plitelerinin açılması



Konvergent chegaralar

c) Okyanus-okyanus konvergentsi



19.5-rasm. Konvergent va divergent chegaralar.(*Understanding Earth., J. Grotzinger va b.*).

Kontinental plita va okyanus plita orvadagi  
konvergent chegaralar

Güçlü konvergentsionel sümmeçler  
plitelerin kırışması



And tozları




c) Kontinental pliteler orvadagi konvergent chegaralar

Himalay




Orits okyanus tog' tizimleridagi transformatorlar

Spreading markazi



Kaliforniyadagi San-Andreas yer yorigi



**19.6-rasm. Konvergent va divergent chegaralar  
(davomi). (Understanding Earth., J. Grotzinger va b.).**

Kontinental litosfera plitasining okean plitasi bilan to'qnashuviga  
Okean po'sti kontinental po'stiga misbatan zichroq bo'lganligi sababli  
subduksiya zonasidan kontinentlar ostiga kirib ketadi.

Okean litosfera plitalarining o'zaro to'qnashuviga. Bu holda  
litosfera plitalaridan biri ikkinchisining ostiga kirib ketadi va ustida  
orollar yoyi shakllanuvchi subduksiya zonasasi hosil bo'ladi.

Kontinental litosfera plitalarining o'zaro to'qnashuviga. Bunda  
kolliziya, yirik burmali viloyat vujudga keladi. Bunga Himolay  
tog'lari misol bo'ladi.

Ba'zi hollarda okean po'stining kontinental po'st ustiga surilishi  
– obduksiya sodir bo'ladi. Shu jarayonlar tufayli Kipr, Yangi  
Kaledoniya, Ummon va boshqalarning ofiolitlari vujudga kelgan.

Subduksiya zonasida okean po'sti yutilib ketadi va shu tufayli  
O'rta okean tizmasida uning paydo bo'lishi kompensatsiyalanadi.  
Po'st va mantiya orasida o'zaro favqulodda murakkab jarayonlar  
kechadi. Bunda okean po'sti o'zi bilan birga kontinental po'st  
bloklarini olib tushishi kuzatiladi. Juda yuqori bosim ta'sirida hozirgi  
geologik tadqiqotlarning qiziqarli obyektlari hisoblanuvchi  
metamorfik majmualar paydo bo'ladi.

Hozirgi subduksiya zonalarining ko'pchiligi Tinch okeanining  
chetlarida joylashgan bo'lib, olovli halqani tashkil etadi. Litosfera  
plitalarining konvergensiya zonasida kechadigan jarayonlar  
geologiyadagi eng murakkab masala hisoblanadi. Ularda turlicha  
yo'llar bilan kelib chiqqan bloklar yangi kontinental po'stni hosil  
qilib, aralashib ketadi.

**Okean riftlari.** Okean po'stida riftlar o'rtaokean tizmalarining  
markaziy qismida joylashgan bo'ladi. Ularda yangi okean po'stining  
shakllanishi amalga oshadi. O'rta okean tizmalarining umumiy  
uzunligi 60 ming kilometrdan ortiq. Ularda ko'pchilik gidrotermal  
buloqlar joylashgan bo'lib, okeanga ichki haroratning ancha qismini  
va erigan elementlarni olib chiqadi. Yuqori haroratli buloqlar qora  
chechkuvchilar deb nomlangan, ular bilan rangli metallarning boy  
zaxiralari bog'liq.

**Kontinental riftlar.** Kontinentning parchalanishi uning  
muayyan qismida rift hosil bo'lish bilan boshlanadi. Bunda po'st  
yupqalashadi va ochiladi, magmatizm boshlanadi. Uzilmalar to'plami  
bilan chegaralangan va chuqurligi bir necha yuzlab metrlarga

boruvchi uzun botiqliklar shakllanadi. Bundan keyin hodisalar rivojlanishining ikki varianti bo'lishi mumkin: yo riftning kengayishi to'xtaydi va u avlakogenga aylanib, cho'kindi jinslar bilan to'lib qoladi yoki kontinentlarning ochilishi davom etadi va okean po'sti shakllanadi.



19.7-rasm Tinch okeani plitasidagi transformali yer yoriqlari.

### Transformali chegaralar. <sup>145</sup>

Litosfera plitalari parallel yo'nalishda, ammo turli tezlikda harakatlanayotgan joylarda transformali yer yoriqlari - okeanlarda keng va kontinentlarda kam tarqalgan ulkan siljimlar hosil bo'ladi.

Litosferaning

butun qalinligini kesib o'tgan siljimali yer yoriqlari transformali yer yoriqlari deyiladi. Okeanlarda transformali yer yoriqlari o'rtal okean tizinalariga (O'OT) perpendikular o'tadi va ularni kengligi o'rtacha 400 km bo'lgan segmentlarga parchalaydi (19.6-rasm).

Tizmaning segmentlari orasida transformah yer yorig'ming faol qismi joylashgan. Bu joylarda doim zilzilalar va tog' hosil bo'lish jarayonlari kuzatiladi, yer yorig'inining atrofida ko'plab tayanch strukturalari - utsurilmalar, burmalar va grabenlar shakllanadi. Natijada yer yorig'i zonasida mantiya jinslari ochilib qoladi.

O'OT segmentlarining har ikkala tomonlari bo'ylab transformali yer yoriqlarining passiv qismi joylashgan bo'ladi. Ularda faol harakatlar kechmaydi, ammo ular okeanlar tubi relyefida uzoqlarga cho'zilgan o'rtasi botiq tepaliklar bilan yaqqol ifodalangan.

**Kontinentlardagi siljima strukturalar.** Kontinentlardagi litosfera plitalarining siljish chegaralari ancha siyrak uchraydi. Ularning orasida eng faoli bo'lib, Shimoliy Amerika litosfera plitasini Tinch okeanidan ajratib turuvchi San-Andreas yer yorig'i sanaladi (19.7-rasm).



*19.7-rasm. San-Andreas riftining fotosuratlari*  
<http://wsyachina.narod.ru>

fokushi zilzilalar xarakterli (19.9-rasm).

Litosfera plitalari ichidagi jarayonlar. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasida dastlab vulkanizm va seysmik hodisalar litosfera plitalari chegarasida to'planadi degan tushuncha mavjud bo'lgan. Ammo bunday o'ziga xos tektonik va magmatik jarayonlar boshqa joylarda ham rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Litosfera plitalari ichidagi jarayonlar orasida ba'zi rayonlarda qaynoq nuqtalar deb nomlanuvchi uzoq davom etuvchi bazalt magmatizmi hodisasi alohida o'rinni egalladi.

1. Tinch okeani plitasi Shimoliy Amerika plitasiga ozroq o'tgan

2....uzaro o'zgarmas tutash qatlamlarni bosil be'lishi



*19.9-rasm. Markaziy Koliforniya Korrizo tekisliklaridagi San-Andreas riftining shimoliy-g'arbiy ko'ndalang uzilmasining ko'rinishi. (Understanding Earth., J. Grotzinge va b.).*

**Qaynoq nuqtalar.** Okeanlar tubida ko'p sonli vulkan orollari joylashgan. Ulardan ba'zilari yoshi asta-sekim o'zgarish tartibida


zanjir hosil qilib joylashgan. Bunga namunaviy misol bo'lib Gavay suvosti tizmasining vulkanlar qatori hisoblanadi. U okean sathidan Gavay orollar shaklida chiqib turadi. Gavay orollaridan 3000 km masofada bu zanjir ozroq shimolga buriladi va shundan boshlab Imperator tizmasi nomini oladi. U Aleut orollar voyi yaqinida chuqursuvli nov orqali uziladi.

Bunday g'aroyib strukturani tushuntirish uchun shunday taxmin qilishgan: Gavay orollari tagida joylashgan qaynoq nuqta – bu qaynoq mantiya oqimi yer yuzasiga ko'tariladigan joy bo'lib, ustida harakatlanuvchi okean po'stini qayta eritadi. Bunday nuqtalar hozirgi kunda yer yuzasida ko'plab topilgan. Ularni keltirib chiqargan mantiya oqimlari plyum deb ataladi. Ba'zi hollarda plyumlarning juda katta chuqurliklardan, hatto, yadro - mantiya chegarasidan modda olib chiqishi ehtimol qilinadi.

**Litosfera plitalari harakat tezligini o'lhash.** Litosfera plitalari harakat tezligini o'lhashning bir qancha usullari mavjud. Qaynoq nuqtalar bilan bog'liq vulkanlar plitalar orasidagi chegaradan ancha uzoqda joylashgan bo'lishi mumkin. Buning sababi shundaki, qaynoq nuqtalar vulkanizmi plitalar chegarasida kechadigan jarayonlarga bog'liq emas. Qaynoq nuqtalarning vulkanizmi mantiyada kechayotgan chuqurlik jarayonlari bilan bog'liq. Tinch okeanining markaziy qismida joylashgan Gavay orollari qaynoq nuqtalardagi vulkanizm faoliyati natijasida hosil bo'lgan. Tinch okeani arxipelagi orollarining joylashishi shuni ko'satadiki, Tinch okeani plitasi qaynoq nuqtalar tizimiga nisbatan shimoliy-g'arbga qarab siljimoqda. Kauai vulkani bundan 3,1 mln yil ilgari plitaning shu qismi bevosita qaynoq nuqta ustida joylashgan vaqtida hosil bo'lgan. Shundan buyon bu orol 600 km masofaga siljigan. Bu Tinchokeani plitasining qaynoq nuqtaga nisbatan yiliga 11-12 sm tezlik bilan siljiyotganligini bildiradi (19.10-rasm).

Litosfera plitalari surilishining nisbiy tezligini okean po'stining yoshi haqidagi ma'lumotlardan foydalanib ham hisoblab topish mumkin. Tinch okeanining janubiy qismida o'rtaokean tizmalari bo'ylab okean po'stining yoshi 48 mln yil bo'lgan 3700 km lik zonasini joylashgan. Bu ikkita litosfera plitalari 48 mln yil davomida 3700 km masofaga siljiganligini ko'rsatadi. Demak plitalarning surilish tezligi

yiliga 7,7 sm ni tashkil etadi. Bu ma'lumotlar keymchalik yuqori aniqlikdagi asboblar (JPS) bilan ham tasdiqlandi.



19.10-rasm. Litosfera plitalarining harakat tezligi.

Litosfera plitalarining siljishidagi maksimal nisbiy tezlik Tinch okeanida qayd etilgan. Tinch okeani va Naska plitalarini bir-biridan yiliga 17 sm tezlikda uzoqlashmoqda. Shimohy Amerika va Yevroсиyo plitalarining bir-biridan uzoqlashish tezligi yiliga 2 sm ni tashkil etadi.<sup>146,147</sup>

**Trapplar va okean platosi.** Litosfera phtalari ichida uzoq vaqt faoliyat ko'rsatuvchi qaynoq nuqtalardan tashqari ba'zan kontinentlarda trapplar, okeanlarda esa okean platosini shakllantiruvchi ulkan hajmdagi vulkan mahsulotlari otilib chiqadigan joylar ham ma'lum. Bu turdagи magmatizmning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bir necha million yilni tashkil etuvchi nisbatan qisqa geologik vaqt davomida sodir bo'ladi, ammo keng maydonlarni ( $o'nlab$  ming km $^2$ ) qamrab oladi va undan o'rta okean tizmalaridagi vulkanizm bilan taqqoslash darajasidagi juda katta hajmdagi vulkan mahsulotlari otilib chiqadi.

Sharqiy Sibir platformasida Hindiston kontinentidagi Dekan yassi tog'larida va boshqa joylarda shunday trapplar mavjud.

<sup>146</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 384-386

<sup>147</sup> Understanding Earth , J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 34, 35,

Trapplarning hosil bo'lishi qaynoq mantiya oqimlari bilan bog'liq, ammo qaynoq nuqtalardan farqli o'laroq, ular qisqa geologik vaqt davomida faoliyat ko'rsatadi.

Qaynoq nuqtalar va trapplar geodinamik jarayonlarda nafaqat doimiy konvektiv oqimlar, balki plyumlar ham muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlovchi ***plyum geotektonikasini*** yaratishda asos bo'ldi. Plyum tektonikasi litosfera plitalari tektonikasini inkor etmaydi, balki uni to'ldiradi.

#### **19.4. Litosfera plitalari tektonikasi fan tizimi sifatida**

Hozirgi davrda tektonikani faqat geologik konsepsiya deb qarab bo'lmaydi. U Yer haqidagi barcha fanlarda asosiy ahamiyatga ega, unda turli tushunchalar va tamoyillarga asoslangan bir necha uslubiy yondoshuv ajratiladi.

**Kinematik yondashuv** nuqtayi nazaridan litosfera plitalari harakatini sferada figuralar surilishining geometrik qonunlari bilan tushuntirish mumkin. Yerning ustki qismini turli o'chamdag'i bir-biriga nisbatan suriluvchi litosfera plitalarining mozaikasi deb qaralishi mumkin. Paleomagnit ma'lumotlari turli vaqtarda har bir litosfera plitalariga nisbatan magnit qutblarining joylashgan o'mini tiklash imkonini beradi. Turli litosfera plitalari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish litosfera plitalarining butun geologik tarix davomida surilish kema-ketligini qayta tiklashga olib keldi. Bu ma'lumotlarni harakatsiz qaynoq nuqtalardan olingan ma'lumotlar bilan umumlashtirish litosfera plitalarining mutlaq surilishini va Yer magnit qutblari harakat tarixini aniqlash imkoniyatini yaratdi.

**Teplofizik yondashuv.** Yerni issiqlik energiyasini qisman mexanik energiyaga aylantiruvchi issiqlik mashinasini deb qarash mumkin. Bunday yondashuv doirasida Yerning ichki qobiqlaridagi moddalar harakati Nave-Stoks tenglamasi bo'yicha qovushqo suyuqlik oqimi sifatida modellashtiriladi. Mantiya konveksiyasi mantiya oqimi strukturasida muayyan ahamiyatga ega bo'lgan fazoviy o'zgarishlar va kimyoviy reaksiyalar bilan birga kechadi. Geofizik zondlash ma'lumotlari, teplofizik eksperimentlar natijalari hamda analistik va sonli hisob-kitoblarga asoslanib olimlar mantiya konveksiyasi strukturasini, oqimlar tezligi va chuqurlikda kechuvchi

boshqa muhim jarayonlarni aniqlashga harakat qilmoqda. Bu ma'lumotlar yerning eng chuqur qismlari tuzilishini tushunish uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki mantiya va yadroni bevosita o'rganib bo'lmaydi, ammo ular sayyora yuzasida kechadigan jarayonlar uchun juda katta ta'sir ko'rsatadi.

**Geokimyoiy yondashuv.** Litosfera plitalari tektonikasi geokimyosi Yerning turli qobiqlari orasida uzluksiz modda va energiya almashuvi mexanizmi sifatida muhim. Har bir geodinamik vaziyat uchun tog' jinslarining o'ziga xos majmuasi xarakterli bo'ladi. O'z navbatida ushbu xarakterli xususiyatlar bo'yicha tog' jinslari hosil bo'lgan geodinamik vaziyatni aniqlash mumkin.

**Tarixiy yondashuv.** Yer sayyorasining tarixi ma'nosida litosfera plitalari tektonikasi – bu birlashuvchi va parchalanuvchi kontinentlar, vulkan zanjirlarining paydo bo'lishi va susayishi, okeanlarning vujudga kelishi va yopilishi tarixidir. Hozirgi vaqtida yer po'stining yirik bloklari uchun surilish tarixi barcha tafsilotlari bilan tiklangan. Ammo uncha katta bo'limgan bloklar va kichik litosfera plitalari tarixini tiklashda ancha uslubiy qiyinchiliklar mavjud. Eng murakkab geodinamik jarayonlar litosfera plitalarining to'qnashish zonalarida sodir bo'ladi. Bu zonalarda ko'pchilik mayda bloklar – terreynlardan tarkib topgan tog' tizmalari hosil bo'ladi. Qoyali tog'larni o'rganishda geologik tadqiqotlarning yangi bir yo'nalishi – terreynlarni ajratish va ularning tarixini tiklash borasidagi o'rganish usullarini o'zida jamlovchi terreynli tahlil shakllandi.

### O'tkazilgan ma'ruzalar mavzulari bo'yicha savollar

1. Kontinentlar dreyfi gipotezasi nimalarga asoslangan?
2. Kontinental po'st deganda nimalar tushuniladi?
3. Kontinental po'stda qanday strukturalar mavjud?
4. O'rta okean tizmalari qanday hosil bo'lgan?
5. Kontinental riftlarga misol keltiring.
6. Okean riftiga misol keltiring.
7. Divergent chegaralar konvergent chegaralardan qanday xususiyati bilan farq qiladi?
8. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining asoschisi kim?
9. Orolli yoylar qanaqa struktura?

## **20-bob. GEOLOGIK TADQIQOTLAR KETMA-KETLIGI. GEOLOGIK XARITA, KESMA, USTUN**

### **REJA**

- 1. Geologik suratga oлиs.**
- 2. Geologik xaritalар va ularning тurlari.**
- 3. Burmalarning geologik xaritalarda tasvirlanishi.**
- 4. Stratigrafik ustun tuzilishi.**
- 5. Geologik kesma tuzilish.**
- 6. Shartli belgilar...**

**Kalit so‘zlar:** geologik xarita, geologik kesma, shartli belgilar, burma, antiklinal, sinklinal, siljima, stratigrafik ustun, ayrofotosuratlar.


#### **20.1. Geologik suratga olish**

**Geologik suratga olish, geologik xarita tuzish** va hududning foydali qazilmalarga istiqbolliligini aniqlash maqsadida olib boriladigan dala geologik tadqiqotlari kompleksi sanaladi. Geologik suratga olish tog‘ jinslarining tabiiy va sun’iy ochilmalarini (yer yuzasiga chiqishini) o‘rganishdan (ularning tarkibi, kelib chiqishi, yoshi, yotish shakllarini aniqlash) iborat bo‘ladi; keyinchalik topografik xaritaga ushbu jinslarning tarqalish chegaralari tushiriladi. Strukturaviy geologiya dalada xaritaga tushirilgan strukturalarning ifodasi va interpritsiyasiga bog‘liq (20.1-rasm).<sup>148</sup>

**Geologik suratga olish** tog‘ jinslaridan, minerallardan va toshqotgan organik qoldiqlardan namunalar yig‘ish bilan birgalikda olib boriladi. U O‘zbekiston Respublikasi Davgeolqo‘mi tasdiqlagan yo‘riqnomasi asosida bajariladi.

«**Geologik xaritalash**» deganda odatda Yer yuzasiga chiquvchi turli-tuman geologik tanalarni hamda olingen axborotlarni geologik xaritada tasvirlash uchun ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishning kompleks usullari tushuniladi.

<sup>148</sup> “Structural Geology” H. Fossen 2010. P 3



20.1-rasm. Geologik xaritaning tuzilishi.


«Geologik xaritalash» tushunchasini «Geologik suratga olish» tushunchasi bilan almashtirish yaramaydi. Geologik suratga olishga assosiy tarkibiy qismi bo‘lgan xaritalashdan tashqari geologik tadqiqotlarning butun bir kompleksini o‘z ichiga olgan quyidagi ishlar kiradi: *turli namunalashlar, qidiruv ishlari, burg‘ilash ishlari, geofizik ishlari, analitik tadqiqotlar kompleksi, fond va chop etilgan adabiyotlarni o‘rganish, geologik mazmundagi bir qator qo‘srimcha xaritalar va sxemalarni tuzish* va b.q.

## 20.2. Geologik xaritalar va ularning turlari

**Geologik xaritalar** – topografik xaritalarda yoshi va tarkibi bo‘yicha ajratilgan tog‘ jmslarining yer yuzasida tarqalishi va yotish shakllarining hamda har xil komplekslar orasidagi chegaralar xarakterining ranglar, chiziqlar, harflar, raqamlar va boshqa shartli belgilar yordamidagi tasviridir. Bunda barcha geologik tanalar miqyosi bo‘yicha kichraytirilib, yer yuzasiga chiqish chegaralari gorizontal tekislikka proyeksiyalangan holda beriladi (20.2-rasm).

Geologik xaritalar mazmuni va vazifasiga qarab, odatdagи geologik xaritalardan tashqari, to‘rtlamchi davr yotqiziqlari xaritasи, geomorfologik, tektonik, strukturalar, litologik, muhandislik-

geologik, gidrogeologik, paleogeografik, bashorat, foydali qazilmalar xaritasi va boshqa ixtisoslashgan turlarga bo'linadi.



20.2-rasm. Geologik xaritada tog'jinlarining yotish shakli va sistemalarning joylashuvi.

**Geologik xaritalarning turlari.** To'rtlamchi davr yotqiziqlari xaritasida qadimgi yotqiziqlar stratigrafik bo'limlarga ajratilmagan holda jigarrangga bo'yab ko'rsatiladi. To'rtlamchi davr yotqiziqlari esa, stratigrafik tabaqalangan holda tasvirlanadi. Bunda ularning genetik turlari (allyuvial, prolyuvial, delyuvial va h.k.), litologik tarkibi (qum, shag'al, lyoss va h.k.) va boshqa xususiyatlari (materiallarning differensiatsiyasi, saralanganligi, silliqlanganligi, g'ovakligi, petrografik tarkibi, foydali qazilmalari va boshqalar) butun tafsilotlari bilan yoritiladi.

**Geomorfologik xaritalarda** relyef shakllari (akkumulatsion, erozion, erozion-akkumulatsion) kelib chiqishi va yoshiga bog'liq holda ko'rsatiladi.

**Tektonik xaritalarda** miqyosiga qarab yer po'stining struktura shakllari, ularning yotish sharoitlari va rivojlanish vaqtiga ko'rsatiladi.

**Strukturalar xaritasida** qoplama yotqiziqlar ostidagi ayrim struktura shakllari yuzasining balandligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi izochiziqlar (izogipslar) yordamida tasvirlanadi. Bunday xaritalar yerning ichki qismidagi strukturalar bilan bog'liq bo'lgan foydali qazilma yotqiziqlarini o'rganishda qo'llaniladi.

**Litologik xaritalar** odatda yirik miqyosli bo'lib, ularda tog' jinslarining litologik tarkibi va fizik xususiyatlari shartli belgilar yordamida mukammal tasvirlangan bo'ladi. Litologik xaritalar yer yuzasida yoki to'rtlamchi davr yotqiziqlari ostida qoplanib qolgan jinslarni tarkibi va yotish sharoitlarini tasvirlash uchun foydalaniлади (odatda shtrixli belgilar yordamida).

**Muhandislik-geologik xaritalarda**, tog' jinslarining yoshi va tarkibi haqidagi ina'lumotlardan tashqari xo'jalik obyektlarini loyihalash uchun lozim bo'lgan ularning fizik xossalari: g'ovakliligi, kirituvchanligi, mustahkamligi va boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

**Gidrogeologik xaritalarda** yerosti suvlari to'plangan qatlamlar va boshqa struktura shakllari, yerosti suvlarning rejimi, to'yinishi va sarfi, kimyoviy tarkibi aks ettiriladi.

**Paleogeografik xaritalarda** muayyan bir qisqa geologik vaqt davomida mavjud bo'lgan tabiiy-geografik sharoit (landshaft) tasvirlangan bo'ladi. Bunday xaritalardan cho'kindi foydali qazilmalarni bashorat qilishda va qidirishda foydalaniлади.

Paleogeografik xaritalar geologik tarix vaqtining muayyan bir oralig'i uchun tuziladi. Ularda quruqlik va dengizlarning tarqalishi aks ettirilgan bo'ladi; cho'kindilar tarkibi yoki fatsiyasi va qalinligi ko'rsatiladi.

**Bashorat xaritalarida** turli mineral xomashyolar yoki ularning komplekslari joylashishdagi qonuniyatlar aks ettiriladi. Ular geologik asosda tuziladi va foydali qazilmalar bo'yicha muayyan rayonlarning geologik tuzilishidagi ba'zi elementlarga istiqboliy baho beriladi. Bunday xaritalarda har bir uchastkaning geologik-iqtisodiy sharoitlari hisobga olingan holda tafsiliy qidiruv va razvedka ishlari uchun tavsiya etilgan maydonlarning ishonchligini va asoslanganligini aks ettiradi.

**Foydali qazilmalar xaritasida** tasvirlangan hududdagi barcha foydali qazilmalar maxsus shartli belgilar asosida ko'rsatiladi. Bunda foydali qazilmalarning turi, tarkibi, kelib chiqishi, ko'lami va boshqa

xususiyatlari ko'rsatiladi. Foydali qazilmalar xaritasi geologik asosda tuziladi. Unda shartli belgilar va rang yordamida ushbu hududda tarqalgan foydali qazilmalar guruhi (yonuvchi, metalli, nometalli va b.q.) va mineral xom-ashyoning muayyan turlari ko'rsatiladi.

### 20.3. Burmalarning geologik xaritalarda tasvirlanishi

Geologik xaritalarda burmali strukturalar burmada qatnasha-yotgan qatlamlar yoki gorizontlarning yer yuzasiga chiqish chegaralari yopiq konturi, qatlamlarning stratigrafik ketma-ketligi va qatlam uchburchaklari yordamida aniqlanishi mumkin. Bunda yer yuzasining relyefi ham albatta hisobga olinishi kerak bo'ladi (20.3-rasm).




20.3-rasm. Burmalarning xaritalarda ko'rinishi.

Agar yer yuzasi relyefi nisbatan tekis bo'lsa, burmada qatnashayotgan qatlamlarning yer yuzasiga chiqish chegaralari yopiq konturning shakliga qarab burmalarning morfologik turlarini aniqlash mumkin (20.4-rasm).

Burmali strukturalarning simmetrik va asimmetrik turlari burma qanotlarini tashkil qiluvchi qatlam yoki gorizontlarning yer yuzasiga chiqish kengligi va qatlam uchburchaklari uchining burchak kattalgiga qarab ajratilishi mumkin. Simmetrik burmalar qarama-qarshi qanotlaridagi qatlamlarning yer yuzasiga chiqish kengligi va qatlam uchburchaklarining burchak kattaligi taxminan bir-biriga teng bo'ladi. Asimmetrik burmalarda yotish burchagi katta bo'lgan qanotidagi qatlamning yer yuziga chiqish kengligi, yotish burchagi

**Ayrofotosuratlarda qatlamlarning burmalanib yotishi yosh qoplama jinslar kam tarqalgan joylarda aniq ko'ri nadi. Kosmosuratlarda qoplama jinslar qalinligi katta va keng tarqalgan hollarda ham burmali strukturalar aniqlanishi mumkin. Odatta burmali strukturalar ayrofotosuratlarda ham geologik xaritalardagidek kuzatiladi.**



**20.4-rasm. Burmaning marfologik turi.**

Burmali strukturalarning ayrofotosuratlari burmalarda qatnashayotgan qatlamlarning rangi va tusi orasidagi farq hamda har xil tog' jinslari hosil qilgan relief shakllari orqali joyning geologik tuzilishini aniq ifodalandi.

#### **20.4. Stratigrafik ustun tuzish**

**Stratigrafik ustun** geologik xaritada tasvirlangan hududda rivojlangan cho'kindi, vulkanogen va metamorfik jinslar nisbiy yoshiga qarab tabaqlangan va litologik tarkibi bo'yicha ajratilgan holda tuziladi.

Stratigrafik ustun tarkibida kenligi 2,5-3,0 sm li litologik ustun ham bo'lib, unda xarita maydoni yuzasida tarqalgan va shuningdek burg'i quduqlari yordamida ochilgan cho'kindi, vulkanogen va metamorfik jinslar shartli belgilari yordamida tanlangan miqyosda qalinligi bilan ko'rsatiladi (20.5-rasm).

Litologik ustunda tog' jinslari xaritada qabul qilingan stratigrafik bo'lmlar bo'yicha tabaqlangan holda tasvirlanadi. Stratigrafik bo'lmlar orasidagi inunosabat muvofiq bo'lsa to'g'ri gorizontal chiziq, nomufovchi bo'lsa to'lqinli chiziq bilan ko'rsatiladi.

Bir xil litologik tarkibdagi juda qalm qatlamlar parallel to'lqimli chiziqlar bilan uzib ko'rsatiladi. Agar qatlamlar qalinligi juda kichik bo'lib, tanlangan miqyosda uni tasvirlash imkonli bo'lmasa, u miqyossiz holda ko'zga ko'rindigan qalinlikda tasvirlanadi.

## Litologik

ustunning chap tomonida tog' jinslarining nisbiy yoshi stratigrafik tabaqalar bo'yicha (eratema, sistema, bo'llim, yarus, svita, gorizont va boshqalar) tabaqalariga ajratilib ko'rsatiladi va ularning indekslari beriladi.

Litologik ustunning o'ng tomonida qatlamlarning qalinligi, tarkibi, ulardagi

Bo'lib	Paleogen	Sistema	Neogen	Quatern	Bo'lim	Yarus	Vitsov	Kulrangli	Servis	Svita	Strata	Indeks	Sig'le	Indeks	Litologik ustun	Qalinlik	Tog' jinslari va organik qoldiqlarning qisqacha tavsifi	
Bio-f																		Qizil rangli karbonatli alevrildilar. Kesmanning ostki qismida polimikt tarkibli graveltilar
Yugurt																		Fosforli gorizont. Maydu cum va alevrildilar. Akula fisililar.
																		Och yashil tusli yaxshi surʼiangan mayda donali glukonidli qumla
																		Fan na chiq anognaridan iborat gorizont. Idruschi massa dum
																		Och kulrangli organagen oxak-toshlar.
																		Kulrangli organogen chaktosh
																		Kulrangli mergellar
																		Oq rangli gravel gorizontlariga ega bo'lgan kal'kerinith qumtoshlari va qumlar
																		Och kul rangli pletonoci oxak-toshlar
																		Qizg'ish rangli karbonatli alevrildilar va mergellar

### 20.5-rasm. Geologik xarita bo'yicha stratigrafik ustun.

foydalı qazilmalar, hayvon va o'simlik qoldiriqlari ko'rsatiladi. Agar tasvirlanuvchi qatlam qalinligi o'zgaruvchan bo'lsa, qalinlik ustuni grafasida uning eng kichik va katta qiymati, litologik ustunda esa miqyos bo'yicha maksimal qalinligi bilan beriladi. Stratigrafik ustunda intruziv jinslar ko'rsatilmaydi.

### 20.5. Geologik kesma tuzish


Yer yuzasida ochilib yotuvchi tog' jinslari geologik xaritalarda ikki o'lchami bilan tasvirlangani uchun ularning hajmi va chuqurlikdagi yotish sharoitlari to'g'risida to'la tasavvur olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham geologik xaritalarda tasvirlangan tog' jinslari va strukturalarning uchinchi o'lchami vertikal geologik kesmalar yordamida ko'rsatiladi.

Geologik kesmalar yer po'stining ma'lum bir chuqurligigacha olingan vertikal kesmadan iborat bo'lib, ular geologik xarita

bo'yicha, burg'u quduqlaridan olingen ma'lumotlar va geofizik materiallar yordamida tuzilishi mumkin.


Geologik kesmalar yuqoridan kesma chizig'i, pastdan esa bazis chizig'i va yon tomonlardan vertikal miqyos chiziqlari orqali chegaralangan bo'ladi.

Kesma chizig'i relyef yuzasining vertikal tekislik bilan kesishish chizig'idir. Bazis chizig'i esa geologik xaritalar bo'yicha kesmalar tuzganda yotqiziqlarning yotish shakllari va strukturalarni yetarli darajada ko'rsata oladigan chuqurlikdan o'tkazilgan gorizontal chiziqidir (20.6-rasm).



20.6-rasm. Geologik xarita bo'yicha tuzilgan geologik kesma.

**Gorizontal yotgan qatlamlar bo'yicha stratigrafik ustun va geologik kesma tuzish.** Geologik xaritalarda tasvirlangan tog' jinslarining yotish shakli, stratigrafik ketma-ketligi, tarqalishi va qalinligini ko'rsatish uchun geologik kesma tuziladi. Kesma chizig'i gorizontal yotuvchi qatlamlar tasvirlangan xaritalarda relyefning eng past va baland nuqtalaridan o'tishi kerak. Shundagina barcha qatlamlar bo'yicha to'liq ma'lumot olish mumkin. Agar bu joyda burg'i qudug'i qazilgan bo'lsa kesma chizig'i albatta u orqali o'tishi kerak (20.7-rasm).



20.7-rasm. Gorizontal yotgan qatlamlarning geologik xaritasi,  
A-B yo'nali shda tuzilgan geologik kesma.

## 20.6. Shartli belgililar

Geologik xaritalarda tog' jinslarining struktura shakllarini, yoshini, tarkibimi, ular orasidagi o'zaro munosabatlarini va boshqa xususiyatlarini tasvirlashda shartli belgilardan (legenda) foydalaniлади.

Bunday shartli belgililar xaritaning miqyosiga qarab xaritalash bo'yicha qabul qilingan maxsus yo'riqnomalar talabi asosida ishlataladi. Shartli belgililar rangli, chiziqli, harfli va raqamli bo'lishi mumkin.

Rangli belgilardan qatlamlili yotqiziqlarning yoshi va intruziv jinslarining tarkibini ifodalash uchun foydalaniлади.

Chiziqli belgililar tog' jinslarining petrografik tarkibini tasvirlash uchun qo'llaniladi.

Harfli belgililar yordamida tog' jinslarining yoshi, genezisi va magmatik tog' jinslarining tarkibi ifodalananadi.

Raqamli belgilardan (harfli belgililar bilan birgalikda) tog' jinslarining yoshini ko'rsatishda foydalaniлади (20.8-rasm).

 Xusnangjoshiilar	 Angidrit	 Granitlar	 Tatolyividu
 Geylitsishi	 Oxa tuzi	 Disiditri	 Isobliklari yilari
 Shag' allar	 Kaly magnezialt ozhar	 Gabbolalar	 Ignumbrular
 Konglomeratlar	 Boksi kli	 Dunitlu	 Aglomeratlar
 Uvostyodilar	 Allithar	 Sienedat	 Tufflar
 Qurulti	 Tennitli yuldar	 Goresedatlar	 Tuffdarlar
 Qazmashlar	 Mingemes iysystar	 Liporditlar	 Tulloxogen iuslu
 Axvorlit	 Fosforitlar	 Datsitlu	 Makrotusuldu danes
 Golfe	 Trapel, Diatomit	 Andezitlar	 Krisalli silaneslar
 Oshun oxastisholar	 Opokat, spongiolit	 Bozaltilar	 Antifolidita
 Qondi oxastisholar	 Radiolytic yuldar	 Travitlar	 Geyydarlar
 Oqar ogen- maksatishlar	 Narash po'shi	 O'itasos va yazalardilar	 Kvarsitlar
 Dolomitlar	 Lyosimmen jillar	 Pikritlar	 Granitlanchi silaneslar
 Mergellar	 Lyosimmen qumdar	 Volcan karsantili va foydalar	 Mamonbu
 Gips	 Torf	 Antiperistag'likli silanlar	

### 20.8-rasm. Shartli belgililar.

#### O'tkazilgan ma'ruza mavzusi bo'yicha savollar

1. «Geologik xaritalash» tushunchasi bilan «Geologik suratga olish» tushunchasining farqini tushuntiring?
2. Burmalarning geologik xaritalarda qanday tasvirlanish?
3. Geologik xaritalarning turlariga misollar keltiring?
4. Stratigrafik ustun tuzishda nimalarga e'tibor beriladi?
5. Geologik kesma qanday tuziladi?
6. Shartli belgilarning qanaqa turlari mavjud?
7. Gorizontal yotgan qatlamlar bo'yicha stratigrafik ustun va geologik kesma nimaga asoslanib tuziladi?
8. Burmalar geologik xaritalarda qanday tasvirlanadi?

## GEOLOGIYA VA ATROF-MUHIT

### 21-boh. ATROF VA GEOLOGIK MUHIT TIZIMLARI.

#### REJA


1. Litosfera tushunchasi.
2. Mineral va energetik resurslar va ulardan oqilona foydalanish
3. Yer osti qazilmalarini qazib olishda atrof-muhitning ifloslanishi.
4. Yonilg'i energetik resurslari va ulardan samarali foydalanish.
5. O'zbekistonda tarqalgan mineral resurslar va ulardan samarali foydalanish yo'llari.
6. O'zhekistonning yonilg'i-energetik resurslari va ulardan samarali foydalanish.

Kalit so'zlar: litosfera, granit, bazalt, yer osti qazilmalari, foydali qazilmalar, atrof-muhit, qazilma boylikdar, mineral resurslar, energetik resurslar, rekultivatsiya.

#### 21.1. Litosfera tushunchasi

Litosfera yunon tilida «tosh o'ram» ma'nosini anglatadi (21.1-rasm). Yerning qattiq holatdagi tosh o'ramming qalinligi okean tubida 5-7 km, quruqlikda 30-40 km va tog'li o'lkalarda 70-80 km gacha boradi, u cho'kindi, metamorfik va magmatik tog' jinslaridan tashkil topgan. Yer sathida asosan cho'kmdi tog' jinslari tarqalgan bo'lib, ularning qalinligi 20 km gacha, okean tublarida esa bir necha yuz metrga yetadi. Ular tarkibi bo'yicha chaqiq kimyoviy va organik cho'kindilardan tashkil topgan bo'lisbi mumkin. Cho'kindilarning ostida 10-40 km qalinlikdagi granit qobig'i joylashgan bo'ladi, okean tubida ular uchramaydi. Granit va okean cho'kindilari qobig'i ostida bazalt qobig'i joylashgandir. Uning qalinligi okean tubida 5-7 km va quruqlikda 20-30 km ga boradi.<sup>149</sup>

<sup>149</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 368



### 21.1-rasm. Biosferaning bo'ylama kesimi va uning gidrosfera va litosfera bilan munosabati.

Yerning tosh o'rami sathining tashqi tuzilishiga relyef deyiladi. Relyefning shakllanishi uning yoshini, morfologik tuzilishini, o'zgarishi va tarqalishi qonuniyatlarini gemorfologiya fani o'rGANADI. Yer sathning tuzilishi, tarixiy taraqqiyoti, unda hayotning rivojlanishi asosan yerning ichki qismida vujudga keladigan tektonik jarayonlarga va iqlimga bog'liqdir. Yerning muz qoplamagan quruqlik sathi 133,4 mln. km<sup>2</sup> bo'lib, uning 55,7 mln. km<sup>2</sup> i tropik, 24,3 mln. km<sup>2</sup>i subtropik, 22,5 mln. km<sup>2</sup> i mo'tadil, 21,2 mln. km<sup>2</sup> i qutb mintaqalariga to'g'ri keladi. Quruqliknинг 10—11% i dehqonchilikda va 20% i yaylovlardan o'mida ishlataladi. Dunyo aholisi jon boshiga 0,4 hektar dehqonchilik qiladigan yer to'g'ri keladi. Yer tekis, namlik va harorati yetarli bo'lgan gil tog' jinslaridan tashkil topgan bo'lsa, u yerda o'simlik, hasharotlar va mikroorganik qoldiq chiqindilariga boyib, tuproq qatlamining hosil bo'lishi tezlashadi. Tuproq qatlamining qalinligi taxminan 1-3 metr bo'lib, u A, B, C qavatlardan iborat bo'ladi. Yuqorida joylashgan chirindiga boy bo'lgan eng unumdar qismi A - gumusli qavat hisoblanadi. Uning ostida tepadan yuvilib tushgan karbonat tuzli V - allyuvial qavat joylashgan bo'lib, 1,5-2 metr chuqurlikkacha kam o'zgargan. Eng quyida S - ona jinsli qavat yotadi. Tuproq turlari qutblardan ekvatorga hamda tekisliklardan tog'larga qarab iqlim o'zgarishi bilan qonuniy

ravishda o'zgarib boradi. Mo'tadil mintaqaning yillik yog'ingarchiligi 500-600 mm. bo'lgan o'rmon cho'llarida chirindi (gumus) ga boy (10 % gacha) eng unumdor, qo'ng'ir, qora tuproqlar tarqalgan. Markaziy Osiyoning dasht va yarim dashtlarida o'simliklarning tabiiy sharoitda rivojlanishi uchun namlik yetishmaganligi sababli kam (1-2 %) gumusli kulrang, bo'z tuproqlar tarqalgan. Geologik zamin, relyef va iqlimning o'zgarishiga qarab, har yerning o'ziga xos tuproqlari, o'simlik turlari va hayvonot dunyosi rivojlanadi.

Insoniyatning dehqonchilik va qurilish faoliyatları bilan shug'ullanishi natijasida tabiiy landshafti o'zgargan hududlar maydoni yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi vaqtida quruqlikning 10-11% i haydar dehqonchilik qilinadigan va 2% har xil inshootlar qurib band qilingan madaniy landshaftlarga aylantirilgan. Yevropada bu nisbat 30-10% ni, Osiyoda 2% ni, Avstraliyada 5-2% ni tashkil qilsa, O'zbekistonda 12,5-6,5% ni tashkil qiladi. Quruqlikning 0,3% ga shaharlar joylashgan. Shaharlar maydoni Germaniya hududining 10% ni, Buyuk Britaniyaning 12% ni, O'zbekistonning 2,2 % ni egallaydi.

Litosfera sathidan insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari (inshootlar qurishda foydalanishdan tashqari) va qazilma boyliklar qazib olishda foydalaniлади. Ochiq usulda qaziladigan konlarning chuqurligi 800 metrga, yopiq usulda qaziladigan konlarning chuqurligi esa 3-4 km. ga yetadi. BMT ning ma'lumotiga ko'ra, 1972-yilda dunyo bo'yicha 3231100 ming tonna ko'mir, 2646290 ming tonna neft, 600200 ming tonna temir rudasi, 75180 ming tonna boksit, 3660 ming tonna xrom rudasi, 7300 ming tonna mis, 3350 ming tonna qo'rg'oshin rudasi, 5430 ming tonna rux rudasi, 159200 ming tonna tuz, 118500 ming tonna fosforitlar va boshqalar qazib olingan. Yirik metallurgiya sanoat korxonalari atrofida landshaftlartning o'zgarishi, o'simliklarning qurib dashtga aylanishi yuz bergan, Yevropada birinchi marta qalmiqlar yerida 500 ming hektarli dasht paydo bo'lgan (u har yili 50 ming hektarga kengayib bormoqda). Mutaxassislarining fikricha, XXI asrda quruqlikning 1/6 qismi kon, yo'l va har xil inshootlar bilan band bo'ladi. Aholi sonining oshib borishi, qurilishlarning kengayishi dehqonchilikka yaroqli yerlarning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, XXI asrda yerlarning unumdorligi 3,5-4% ga oshirilmasa, sayyoramizda yiliga 200 mln. tonna don yetishmovchiligi holati yuz berishi mumkin.

## 21.2. Mineral va energetik resurslar va ulardan oqilona foydalanish

**Yer osti qazilmalarining ahamiyati.** Yer osti qazilmalari o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslardan o'zining qayta tiklanish xususiyatlariga ega emasligi bilan ajralib turadi va tugaydigan tabiiy resurslarga kiradi. Insonlar qadim zamonlardan boshlab yer ostidan kerakli qazilmalarni qazib olib foydalaniб kelganlar. Jamiyat tarixi ham asosiy ishlatalgan qazilmalar nomiga mos ravishda «tosh davri», «bronza davri», «temir davri» deb nom olgan. Vaqt o'tishi bilan insonlar sonining oshib borishi, shunga monand ravishda ular ehtiyojlarining o'sib borishi natijasida fan va texnika rivojlanib, foydali qazilmalarni qidirib topish va ishlatalish hajmi ham ortib borgan. Yer osti qazilmalari jamiyat rivojida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.<sup>150</sup>

**Qazilma boyliklar** deb yer qa'ridan qazib olinadigan qora, rangli va nodir metall ma'danlari, turli xil yonuvchi resurslar (ko'mir, tabiiy gaz, neft, yonuvchi slanets, torf), kimyoviy xom-ashyolar (tuzlar), qurilish materiallariga aytiladi. Biror-bir ishlab chiqarish sohasi yo'qliki, unda yerdan qazib olimadigan resurslardan foydalanimasa Yer bag'ri kimyo, metallurgiya, energetika va boshqa qator sanoat korxonalari uchun xomashyo manbai hisoblanadi. Yerdan qazib olingan yonilg'i resurslarga deyarli barcha texnika va transport vositalari harakatlanaadi. Qazilma boyliklardan olinadigan mineral va kimyoviy o'g'itlardan esa qishloq xo'jaligida keng foydalaniлadi. Hozirgi kunga kelib insoniyat foydalananadigan mineral va tog' jinslarining umumiyligi soni 3500 dan ortib ketdi va har yili 120 milliard tonnadan ortiq foydali qazilmalar va turli tog' jinslari ishlatalmoqda.<sup>151</sup>

<sup>150</sup> "Earth science. Gology, the Environment and the Universe" F. Borrero p.681

<sup>151</sup> "Earth science. Gology, the Environment and the Universe" F. Borrero p.680,682.

### **21.3. Yer osti qazilmalarini qazib olishda atrof-muhitning ifloslanishi**

Qazilma boyliklarni qazib olish, tashish, qayta ishlash vaqtida atrof-muhit ifloslanadi. Minglab unumdon yerlar industrial dashtlarga aylanadi. Suv, havo, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkaziladi. Tog'-kon sanoati korxonalari faoliyati natijasida har yili kon usti jinslari, flotatsion boyitish chiqitlari, turli xil shlaklar, klenkerlar hosil bo'ladi. Mineral xomashyolar ochiq (karyer) yoki yopiq (shaxta) usullarida qazib olinadi. Ochiq usulda qazib olingan qazilmalardan ancha to'laroq foydalanish imkoniyati bo'lsa-da, atrof-muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yuqori bo'ladi (21.2-rasm). Bunday ta'sir doirasi yuzlab km.gacha boradi.<sup>152</sup> Respublikamizda ochiq usulda qazib olinadigan konlar ko'p. Ularning chuqurligi 50-

350 metrغا yetadi. Konlarning ochiq usulda qazib olinishi surilmalarga sabab bo'ladi. Surilmalar kon yonbag'irlarida, karer chuqurligi va ularning devor qiyaligi oshgan sari qiya yotgan tog' jinslari qatlamining surilishi hisobiga sodir bo'ladi. Bunday surilmalarni Qo'rg'oshinkon, Qalmaqir, Angren konlarida kuzatish mumkin.

Yopiq usulda qazib olinadigan qazilmalar uchun sarfxarajat yuqori bo'lishi bilan birga qazib olish jarayonida hozirgi inavjud texnologiyalarning tako-



*21.2-rasm. Ochiq usulda qazib oliolinadigan qazilma boyliklar (karyer).*

millashinaganligi sababli foydalı ma'danlarning 25% dan ortig'i yer ostida qolib ketadi. Konlarni ochiq va yopiq usulda qazish jarayonida chiqindilar yig'ilgan sun'iy tepaliklar bilan birga yer sathining cho'kishi, yoriqlar hosil bo'lishi sodir bo'ladi. Sathning cho'kishi ko'pincha yopiq usulda qazib olish jarayonida hosil bio'lgan bo'shliqlarni ustki va yon atrofdagi tog' jinslarining o'pirilib tushishi

<sup>152</sup> "Earth science. Gology, the Environment and the Universe" F.Borrero p 686

hisobiga sodir bo'ladi. Bunday cho'kishlar AQSHning Kaliforniya shtatida, San-Fransiskoda, San-Xaokin vodisida, Mexikoda, Tokio, Osako shaharlarida, shuningdek, Kuzbassda, Qarag'andada, Volga bo'ylarida kuzatiladi. Bu hududlarda yer sathining cho'kishi hozirgacha o'rta hisobda 8-10 metrdan 20 metrga yetadi. Cho'kish oqibatida kanallar, binolar, gidrotexnik inshootlar buziladi. Qazillmalarni qazib olish chuqurligi oshgan sari suv saqllovchi qatlamlardan konga oqib kiramagan suv miqdori ham ortib boradi. Kon ichida va uning atrofida burg'ulangan quduqlar orqali minglab, millionlab  $m^3$  suv kon tashqarisiga chiqarib turiladi. Natijada kon atrofidagi 10-20 km gacha bo'lgan masofalarda yer osti suvlari sathi pasayib, buloq va quduqlarning qurishiga sabab bo'ladi.

Kon qazish ishlarida bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket qisqa vaqt ichida 5-6 tonnadan 200-300 tonnagacha, ba'zan 500-1000 tonnagacha portlovchi moddalar ishlatiladi. Har bir  $m^3$  tog' jinsini portlatish uchun 0,7-0,9 kg portlovchi modda ishlatiladi. Karerlarda bo'ladigan portlatishlar atmosferaning katta miqdorda chang va gazlar bilan ifloslanishiga olib keladi. Hozirgi vaqtida tog' jinslarini portlatish hisobiga atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar hajmi 2 million  $m^3$  ga yetadi. Karerlarda bir marotaba umumiy portlatish vaqtida atmosferaga 250 tonna chang va 5-6 ming  $m^3$  zararli gazlar chiqadi. Bunda hosil bo'lgan chang bulutlari 3000 metr balandlikkacha ko'tarilib, shamol yo'nalishi bo'ylab 1-1,5 km gacha tarqaladi. Bulardan tashqari, tog' jinslarini tashish vaqtida atmosfera transport vositalaridan chiqadigan zararli gazlar va yo'llardan ko'tariladigan changlar bilan ham ifloslanadi. Oqibatda tuproq tarkibi o'zgarib, hosildorlik kamayadi, suv havzalari, dov-daraxtlar, parranda-yu darrandalar zarar ko'radi. Insonlar turli kasalliklarga chalinishlari mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya tuproqlarida rux elementi miqdorining va o'simliklarda molibdenning ko'payishi oshqozon-ichak va rak kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'layotganligi aniqlangan. Tarkibida ko'p miqdorda selen elementi bo'lgan ozuqani iste'mol qilish odamlar sochi to'kilishiga, qo'ylarning tuyoqlari kasallanishiga ham sabab bo'ladi.

## **21.4. Yonilg'i energetik resurslari va ulardan samarali foydalanish.**

Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirga kelib, dunyo mamlakatlarining energiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yerdagi organik yonilg'ilar zaxirasi taxminan 150 yilga, jumladan, neft 35-40 yilga, gaz 50 yilga, ko'mir esa 425 yilga yetishi aniqlangan. Ko'mir zaxiralari neft va gaz zaxiralaridan ikki marta ko'p. Olimlarning fikriga ko'ra, energiya manbalarining asosini tashkil qiluvchi neft va gazni tejab-tergab ishlatalish uchun ulardan olinadigan sintetik mahsulotlar, turli xil xomashyolarni ko'mirni qayta ishlash hisobiga almashtirish lozim. Qazib olish jarayonlarida texnologik jarayonlarni talab darajasida takomillashmaganligi natijasida ko'mirning 45 foizi, neftning esa 60 foizi yer bag'rida qolib ketmoqda.<sup>153</sup> Neft konlаридан нефти то'ла qazib olish kabi muhim vazifani hal etish uchun qatlamlararo bosimni oshirish, issiq suyuqliklar va elektr zaryadlari yordamida neftning qovushqoqlik xossasini kamaytirish usullarini qo'llash lozim. Energetik muammolarni hal etishning muhim yo'nalishlaridan biri gaz bilan birga olinadigan, ammo gaz quvurlarida tashish imkonini bermaydigan gaz kondensatlaridan foydalanishdir (21.3-rasm). Ulardan foydalanishning eng maqbul yoki ularni dizel yonilg'isigacha qayta ishlashdir. Kondensatlardan olingen dizel yonilg'ilarining toksiklik darajasi ancha kam bo'ladi. Bunday yonilg'ilarga ishlagan avtotransportlar so'ndirgichlaridan chiqadigan gazlar tarkibida konserogen moddalar odatdag'i dizel yonilg'isidagiga nisbatan 30 foiz kam bo'ladi. Yaqin kelajakda benzin, kerosin va boshqa yomlg'ilarni ko'mir tarkibidan olish, shuningdek, noan'anaviy energiya manbalaridan va ikkilamchi energetik resurslardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga mavjud energiya manbalari energiyasidan tejab-tergab foydalanish lozim.


Dunyo bo'yicha atom elektrostansiyalari hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish 1990-yilgacha 16% ga yetdi. Bir qator mamlakatlarda, shu jumladan, Fransiyada bu ko'rsatkich 70% ni, sobiq ittifoqda esa 12% ni tashkil qilgan. Chernobl AESsida sodir bo'lgan fojiadan so'ng atom energetikasiga bo'lgan ishonch ancha

<sup>153</sup> "Earth science. Gology, the Environment and the Universe" F. Borroero p. 710, 712, 713

so'ndi. Bu tabiiy hol edi, chunki radioaktiv ifloslanishdan insonlar va biosfera juda katta zarar ko'rdi. AESlarni yopish mumkin emas, ammo xavfsizligini ta'minlash mumkin va kerak. AESlarning O'rta Osiyo hududidiga joylashtirish geologik nuqtayi nazardan maqbul emas. Chunki O'rta Osiyoning tog'lik hududlari seysmik faol zonalarga kiradi.

Yadro chiqindilari ham juda xavfli. Masalan, Chelyabinsk- 40 yadro markaziga yaqin bo'lgan ko'lda katta miqdorda Cs<sup>137</sup> va Sr<sup>90</sup> to'plangan. Yadro chiqindilarim saqlash ucliun ko'p yillar davomida Murmansk yaqinidagi suv havzalaridan foydalanilgan.

Ekologik xavfsiz bo'lgan energiya manbalari - suv elektro-stansiyalaridir. Suv energetikasi uchun tog' va tog' oldi hududlarida



*21.3-rasm. Neft va gaz konlarining struktura turlari diagrammasi.*

pasaygan, suv rangining sanitar holati o'zgargan.

Muhim yonilg'i-energetik resurslardan yana biri gidrotermal suvlardir. Ularning tabiiy issiq suvlardan foydalaniib uylarni va

joylashgan o'rta va kichik daryolardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki tekislik bo'ylab oqadigan daryolarga qurilgan suv elektro-stansiyalari tabiiy mubitga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Volga daryosiga suv elektrostansiyasi uchun qurilgan to'g'on ta'sirida dar-yoming suvi yon atrofga yoyilib, suv harakati ma'lum muddat to'xtagan, suvni o'zini-o'zi tozalash xossalari

issiqxonalarini issiqlik bilan ta'minlash mumkin. Hamdo'stlik mamlakatlari hududida 50 dan ortiq shunday manbalar mavjud. Ulardan 60 million m<sup>3</sup> dan ortiq termal suvlar va 400 ming tonna atrofida bug' olish mumkin. Gidrotermal suvlar evaziga olinayotgan energiya hajmi 0,5 million tonna shartli yonilg'iqa teng. Bu yer bag'ridan olinadigan issiqlik resurslarining bir qismini tashkil qiladi, xolos. Juda katta issiqlik zaxirasi yer qa'rida 4-5 km chuqurlikda joylashgan. Bunday chuqurlikda tog' jinslarining harorati 200°C dan oshadi. Ma'lum miqdordagi suvni chuqurlikka haydab, issiq suvga aylantirish yo'li bilan gidrotermal elektr stansiyalari barpo etish mumkumligi isbotlangan.

Milliardlab kilovatt arzon energiyani shamol yordamida olish mumkin. Ularning quvvati yer shari bo'yicha foydalanilayotgan elektr energiyasidan 500 marta yuqori ekanligi hisoblab chiqilgan. Bu kabi arzon va ekologik toza energiya manbai hisobiga butun Rossiyaning energiyaga bo'lgan talabini 20% ini ta'minlash mumkin. Hozirgi kunda Fransiya, AQSH, Daniya davlatlarida quvvati 2 MVt gacha, shamol g'ildiragi diametri 50-60 metr bo'lgan avtomatik boshqariladigan elektrostansiyalar barpo etilgan. Quvvati 1-3 kVt bo'lgan shamol energiya qurilmalaridan cho'ponlar va geologlarni vaqtinchalik yashash joylarini, chorvachilik majmularini elektr energiyasi bilan ta'minlashda, binolarni isitishda, suvlarni chuchuklashtirishda keng foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Shamol dvigatellariga ishlaydigan kichik suv elektrostansiyalari agrosanoat majmularidagi energiya sarfini kamaytirishga yordam bergen bo'lar edi.

Quyosh energiyasidan foydalanish, ya'ni quyosh energiyasini gelioqurilmalar yordamida elektr energiyasiga aylantirish imkoniyatlari cheksiz. Dunyoning bir qator mamlakatlarida, masalan, AQSHning Moxavi (Kaliforniya) cho'lida quyosh termodinamik elektrostansiyasi ishlab turibdi.<sup>154</sup> Uning yordami bilan yiliga 355 MVt energiya ishlab chiqarilmoqda. Bu quvvat 5 million kishining energiyaga bo'lgan talabim qondirish uchun yetarli. Dunyo okeanlari suvlarini sathining ko'tarilishi va qaytishi (to'lqinlanishi) hisobiga elektrostansiyalar barpo etish ham energiya olishning samarali yo'llaridan hisoblanadi. Hisob- kitoblarga ko'ra, dunyo okeanlari

<sup>154</sup> "Earth science Gology, the Environment and the Universe" F. Borrero p.679

hisobiga 2,7 milliard kVt energiya olish mumkin. Bu energiya dunyo bo'yicha iste'mol qilinayotgan energiyaning 30 % iga teng. To'lqin elektr stansiyalarining ishlash prinsipi to'lqinning potensial energiyasini kinetik energiyaga aylantirib elektrogeneratorlari valini harakaatlantirishga asoslangan. 1982-yilda birinchi marta Kolsk bo'g'ozi qirg'oqlarida tajriba uchun to'lqin elektrostansiyalar qurilgan. Keyinchalik bu kabi elektrostansiyalar AQShda, Kanadada, Buyuk Britaniyada, Avstraliya, Janubiy Koreya va Hindistonda qurildi.

Muqobil energiya manbalarini xalq xo'jaligining turli sohalariga keng joriy etish, yerning qayta tiklanmaydigan yonilg'i resurslaridan foydalanishni keskin kamaytiradi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, noan'anaviy energiya manbalarining roli kamida 20-30 yilda seziladi. Hozircha ular mahalliy ehtiyojlarni qondirish uchungina iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. Bu o'rinda bioenergetika katta qiziqish uyg'otadi. Masalan, 1 tonna go'ngdan 1 sutkada 15 m<sup>3</sup> gacha biogaz olish mumkin. 1 m<sup>3</sup> biogaz bir litr suyultirilgan gaz yoki 0,5 litr yuqori oktanli benzin quvvatiga teng. Xitoyda biogaz ishlab chiqarish qurilmalaridan qishloq xo'jaligida keng foydalanilmoqda. Biogaz ishlab chiqarishning boshqa manbai - suv havzasi qirg'oqlarida suv o'tlari etishtirish va ularni metan gazigacha qayta ishlashdir. 1000 hektar maydonagi suv o'tlaridan har yili shunday hajmdagi metan gazi olish mumkinki, uning issiqlik hosil qilish xususiyati 10000 tonna neftniki bilan teng. Benzinni tejash yo'llaridan biri, unga etanol va metanol qo'shishdir. Buning uchun maxsus «energetik» madaniy o'simliklar (shakarqamish, qizilcha, kungaboqar va boshqalar) benzim tarkibiga qo'shiladi. Braziliyada avtotransportlarning aksariyati shu kabi yonilg'i aralashmalariga ishlaydi. Bunday aralashmalar qo'shilgan yonilg'iga ishlagan avtotransportlar nafaqat benzinni kam sarf qiladi, balki atrof-muhitning zararli gazzlardan ifloslanishini kamaytiradi.

## **21.5. O'zbekistonda tarqalgan mineral resurslar va ulardan samarali foydalanish yo'llari**

O'zbekiston Respublikasi mineral xomashyo resurslariga boy. Uning hududida hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali

qazilma konlari va ma'danlar namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalg etilgan. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda 900 dan ortiq kon qidirib topilgan. Oxirgi 10 yil ichida 330 dan ortiq konlar ishga tushirilgan. Bular qimmatbaho, rangli va nodir metallar, neft, gaz, ko'mir konlari, fosforit va qurilish materiallari konlaridir. Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar va kaolinlarning tasdiqlangan zaxiralari va istiqbolli rudalar topilgan hududlar bo'yicha O'zbekiston MDHdagina emas, balki butun dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, oltin zaxiralari bo'yicha respublika dunyoda 4- o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7- o'rinda, mis zaxiralari bo'yicha 10-11- o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7-8- o'rinda turadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, sobiq ittifoq davrida ishga tushirilgan aksariyat konlardan to'liq foydalanishning ta'minlanmaganligi natijasida har yili tog'-kon sanoatida 60 million tonnaga yaqin chiqindilar vujudga kelgan va ular 10 ming hektar unumdon yer maydonlarini egallagan. Konlarda rudaga boy bo'lgan tog' jinslari tarkibidan asosiy «qaymog'i» olinib, foydali rудаси кам bo'lgan qatlamlar, yo'ldosh minerallar, keraksiz tog' jinslari sifatida kon atroflariga chiqarib tashlangan. Bu chiqindilar hozirgi kunda ham atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, soatiga 5 km. tezlik bilan esgan shamol 1 m<sup>2</sup> chiqindi uyumlari ustidan 70 kg gacha chang zarrachalarini uchirib, havoni ifloslantirayotganligi aniqlangan. Hozirgi vaqtida tog'-kon ishlab chiqarish korxonalari tomonidan biosferga yetkaziladigan zarar shu qadar yuqoriki, buning natijasida bir qator hududlarda ekologik salbiy oqibatlar kelib chiqayotganligi hech kimga sir emas, Masalan, O'zbekiston hududida tarqalgan unumdon yerkarning teng yarmi kuchli eroziyaga uchragan, o'simlik va hayvonot dunyosi katta zarar ko'rmoqda. Ayniqsa, chiqmdixonalardan mayda zarrachalar yomg'ir, qor va daryo suvlari bilan yuvilib, atrof-muhitga tarqalishi juda xavflidir. Ular ichida margumush, simob, qo'rg'oshin, kadmiy, nikel, molibden, rux kabi zararli moddalar bo'lishi mumkm. Konlardan foydalanish, tog'-kon sanoati korxonalarida xomashyolarni qayta ishlash, chiqindilarni boyitish vaqtida chiqqan o'ta zararli moddalarning atrof-muhitga

yetkazadigan zararlarini kamaytirish maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Bunday tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- me'yordan ortiq ifloslangan suvlarni daryolarga oqizishni taqiqlash;
- qazish ishlari tugatilgan shaxta, karer va jarliklarni chiqindilar bilan ko'mish;
- chiqindilardan yo'l qurilishi yoki qurilish materiallari uchun xomashyo sifatida foydalanish;
- tashlandiq yerlarni qayta tiklash (rekultivatsiya).

O'zbekistonda tog'-kon sanoati rivojlangan tumanlarda buzilgan va nokerak jinslar bilan egallangan yerlarni rekultivatsiya qilish lozim. Kelajakda Respublikamiz bo'yicha 2-16 ming hektar yerni rekultivatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Rekultivatsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Kon- texnik rekultivatsiya.
2. Biologik rekultivatsiya.

Birinchi bosqichda yer yuzasi tekislanadi, holati yaxshilanadi va biologik rekultivatsiya davomida tuproq qatlami va o'simliklar tiklanadi.

Shunday qilib, O'zbekistonda yer osti qazilmalaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish lozim:

- fan va texnika yutuqlariga tayanib, mavjud foydali qazilmalardan kompleks ravishda foydalanish va yangi konlarni ishga tushirishda keraksiz tog' jinslari miqdorini kamaytirishga erishish;

- minerallardan «qaymog'i»ni ajratib oluvchi zavodlar emas, balki ular tarkibidan yo'l dosh elementlarni ham ajratib oluvchi korxonalarini barpo etish;

- qazilmalarni qazib olish va tashishda isrofgarchilikka chek qo'yish;

- keraksiz jins sifatida tashlab yuboriladigan va ishlab chiqarish chiqindilardan foydalanish miqdorini yaqin kelajakda 30 million m<sup>3</sup> ga yetkazish;

- qazilmalarni qazib olish va qayta ishlashning barcha bosqichlarida mineral va xomashyo manbalaridan to'la va kompleks


foydalanishga erishgan korxonalarni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish.

Aytib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish borasida mustaqillik yillarda bir qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Jumladan, ko'p yillar foydalanish natijasida Muruntov oltin komi atrofida katta hajmda tarkibidan oltini ajratib olingen mineral tog' jinslari uyumlari to'plab qo'yilgan edi. Bugungi kunda ana shu uyumlar Amerikaning «Nyumont Maynmg Korporeyshn kompaniyasi» ishtirokida eng yangi texnologiyalar jalb etilib, qayta ishianmoqda. Muruntov oltin koni xomashyosidan oltinni tozalashda affinaj (eng sof metall olish) jarayonining zamонавиу texnologiyasi joriy etilgan. Natijada oliv tovar ko'rinishiga ega bo'lgan, soflik darajasi «to'rtta to'qqiz» ga teng asl oltin olinmoqda. Qo'ng'irotda Borsakelmas konining tuzlaridan kimyoviy usulda yuqori sifatli kalsiy va kaustik soda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Angren ko'mir konidan ko'mir bilan birga juda qimmatbaho mineral xomashyolar: kaolin, ohaktosh, kvars qumlari, tosh qotishmalar va boshqa tog' jinslari qazib olinmoqda. Angren kaolinidan aluminiy oksidi, o'tga chidamli materiallar, keramik qoplamlar, pardozlash va mexlax plitkalari, chinni va fayans, elektr izolatorlar, drenaj va kanalizatsiya quvurlari, qog'oz sanoati uchun to'ldirgich, oq va rangli sementlar, o'ta pishlq g'isht kabi mahsulotlar tayyorlash uchun xomashyo sifatida foydalanish mumkin. Hozirgi kunda Angren kaolinlarini ishga tushirish bo'yicha Olmoniya bilan O'zbekiston o'rtasida «Kaolin» qo'shma korxonasi ish boshlagan. Bulardan tashqari, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mis, molibden rudalarini qayta ishlash, mis rudalari bilan birga uchraydigan noyob reniy va osmiyni ajratib olish, Jizzax viloyatining Uchquloch va Surxondaryo viloyatining Xonjiza konlarida qo'rg'oshin va rux bilan birga uchraydigan mis, kumush, kadmiy, selen, oltin va indiyni kompleks ajratib olish, Respublika hududidan topilgan bir qator nodir va tarqoq holda uchraydigan metall konlaridan mis, polimetallar, uran va boshqa foydalni qazilmalarni va yo'ldosh elementlarni ajratib olish, Respublika hududida mavjud bo'lgan 20 ta marmar, 15 ta granit va gabbro konlarini, Markaziy Qizilqumdan topilgan fosforit konlarini ishga tushirish, Qashqadaryo viloyatidagi Tubakat va Surxondaryo viloyatidagi Xo'jaikon tuz

konlari negizida tuzlarni kompleks qayta ishlash va bromli temir, magnezit, gips va boshqa materiallarni yo'l- yo'lakay olish uchun chet elliq investorlarni keng jalb etish ko'zda tutilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, likvidlik darajasi yuqori bo'lgan foydali qazilmalarni o'zlashtirishga qaratilgan investitsiyalar katta-katta daromadlar keltiradi.

Bundan tashqari, hozirda kattagina tuz zaxirasiga ega bo'lgan Orol dengizi hududining dengiz qurishi natijasida atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazayotgani, hudud iqlimiga ta'siri, ya'ni qish fasli sovuqroq yoz esa issiqroq bo'lib borayotgani, shamolning tuz changlarini uchirib olib borib yon atrof yerlarini va havosini zaharlanishini ta'kidlash lozim.<sup>155</sup> (21.4-rasm).



**21.4-rasm. Orol dengizining qurishi.**

Dunyoning yetakchl chet el kompaniyalari va firmalari hozirning o'zidayoq bu yo'nalishda faol qatnashmoqdalar.

## **21.6. O'zbekistonning yonilg'i-energetik resurslari va ulardan samarali foydalanish**

O'zbekiston Respublikasi hududida qidirib topilgan gaz zaxiralari 2 trillion m<sup>3</sup> ga yaqin, ko'mir 2 milliard tonnadan ortiq, 160 dan ortiq neft konlari mavjud. Neft va gaz konlari asosan Ustyurt, Buxoro-Xiva, janubi-g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona

<sup>155</sup> "Introduction to Environmental Geology" Edward A. Keller 2012y.p20.

mintaqalarida joylashgan. Qidirib topilgan zaxiralari respublika ehtiyojini tabriy gaz bo'yicha 35 yildan ko'proq, neft bo'yicha esa 30 yilgacha qondirishi mumkin.

O'zbekistondagi neft va gaz zaxiralarining qazib olinganlik darajasi bor-yo'g'i 32% ni tashkil etadi. Qazib olinayotgan gazlar tarkibida etan, propan, butan va boshqa komponentlar mavjud bo'lib, ular polimer materiallar - polietilen, polivinilxlorid va boshqa moddalar olish uchun yaroqlidir. Sho'rtan gaz-kimyo kompleksidan olmayotgan propandan nitrilikril kislota olib, undan nitron tolasi ishlab chiqarish mumkin. Gaz va gaz kondesatini qayta ishlab, oltungugurtli birikmalar olish va ulardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Respublika hududida 3 ta neftni (Farg'ona, Oltiariq va Buxoro) va ikkita gazni (Sho'rtan, Muborak) qayta ishlaydigan zavodlar mavjud bo'lib, ular yangi texnologik jihozlar bilan ta'minlangan. Shuning uchun ularni atrof-muhitga yetkazadigan zarari keskin kamaygan. O'zbekiston hududida 3 ta yirik ko'mir konlari mavjud. Bular Angren, Sharg'un va Boysun konlaridir. Bular orasida Angren ko'mir koni eng noyob kon hisoblanadi. Bu yerda ko'mir zaxiralari ochiq usulda 150-250 metr chuqurlikda joylashgan ko'mir qatlamlarini qazib olish va yer osti usulida ko'mirni gazga aylantirish yo'li bilan foydalanilmoqda. Bunda chiqitsiz texnologiyaga amal qilinmoqda.

### **O'tilgan ma'ruba mavzusi ho'yicha savollar**

1. Yerosti qazilmalarining jamiyat rivojidagi rolini tushuntiring.
2. Yerosti qazilmalarini qazib olishning atrof-muhitga salbiy ta'sirlari nimalarda o'z aksini topadi?
3. O'zbekiston hududida tarqalgan mineral resurslar haqida nimalarni bilasiz?
4. Konlar va tog'-kon sanoati korxonalarining atrof- muhitga zararli oqibatlari va ularni kamaytirish chora- tadbirlarini tushuntiring.
5. O'zbekistonda tarqalgan yerosti qazilmalaridan samarali foydalanish yo'llari qanday?
6. O'zbekistonda tarqalgan qazilmalarni ishga tushirish uchun qanday inkoniyatlar mavjud?

7. Yonilg'i energetik resurslarining ahamiyatini tushuntiring.
8. Energetika muammosini hal etish yo'llari haqida ma'lumot bering.
9. Energetika manbalari atrof-muhitga qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?
10. Noan'anaviy yonilgi energetik resurslari deganda qanday resurslarni tushunasiz?
10. Muqobil energiya manbalaridan foydalanishning ekologik ahamiyatini tushuntiring.
11. O'zbekiston hududida qidirib topilgan yonilg'i resurslari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aytib bering.

## FAZOGA SAYOHAT

### REJA

- 1. Osmon jismlari. Koinot va Galaktika.**
- 2. Quyosh tizimi va uning sayyoralarini haqida umumiy ma'lumotlar.**
- 3. Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi.**
- 4. Quyosh tizimining mitti jismlari.**

**Kalit so'zlar;** Koinot, Galaktika, ekleptika tekisligi, orbita, Quyosh tizimi, Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Jupiter, Saturn, Uran, Neptun, Pluton, tabiiy yo'ldoshlar, Oy, asteroidlar, kometalar, meteorlar va meteoritlar, krater, xondrit, yadro, koma.

### 22.1. Osmon jismlari. Koinot va Galaktika

Tun osmonidagi yulduzlar sochilgan manzara har doim va har joyda butun bashariyatni lol qoldirib keladi. Abadiylilikning sirli olami hayratlangan inson nazari oldida bepoyon cheksizlik eshigini ochadi va chuqur o'yga toldiradi. Bu abadiylilikda Quyosh tizimidagi sayyoralar uchib yurishadi va hozirgacha ko'plab sirlarni o'zida saqlab keladi.

Bizni o'rabi turgan moddiy olam, bir so'z bilan aytganda, **Koinot** (yunoncha dunyo, olam) deyiladi. Koinotning fazo va makonda o'lchami yo'q - cheksizdir. Koinotda materiya bir xildagi taqsimotga ega bo'lmasdan, galaktikalar, yulduzlar, sayyoralar, meteoritlar, kometalar va turli gazlar majmuasidan iborat.

**Galaktika** deb yulduzlararo gaz, chang, qora materiya va, ehtimol, qora energiya, o'zaro ta'sir etuvchi gravitatsion kuchlari mavjud bo'lgan yulduzlarining katta tizimiga aytildi (22.1-rasm). Odatda Galaktikalar umumiy og'irlik markazi atrofida aylanuvchi  $10^{11}$  milliondan ( $10^7$ ) bir necha trilliongacha ( $10^{12}$ ) yulduzlarga ega bo'ladi. Alovida yulduzlar va siyraklashgan yulduzlararo muhitdan tashqari, Galaktikaning katta qismi ko'plab yulduzlar tizimi, yulduzlar to'dasi va turli tumanliklarga ega. Odatda Galaktika diametri bir necha mingdan birnecha yuz ming yorug'lik yiliga, ular orasidagi masofa esa millionlab yorug'lik yiliga teng.



**22.1-rasm. Galaktikamizning spiralsimon tuzilishi.**

Galaktikalar massasining 90 % ga yaqini qora materiya va energiya ulushiga to'g'ri kelsada, bu ko'rinxmas unsirlarning tabiatи hali o'rganilmagan. Ko'plab Galaktikalarning markazida o'ta massiv qora teshiklarning mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Ehtimol, Koinotning ko'rinxadigan qismida  $10^{11}$  ga yaqin Galaktika mavjud. Galaktikalararo bo'shliq amalda o'rtacha zichligi kub metrda moddalarning bir atomidan kam bo'lgan toza vakuum hisoblanadi.

Galaktikaning elliptik, spiral va noto'g'ri shaklli uchta asosiy turi mavjud.

Bizning Galaktikamiz katta disksimon shakldagi Somon Yo'li deb ataluvchi yulduzlar majmuasi hisoblanadi. Uning uzunligi 30 kiloparsekka (yoki 100000 yorug'lik yili) yaqin va qalinligi 3000 yorug'lik yiliga teng. Unda  $3 \times 10^{11}$  ga yaqin yulduzlar mavjud bo'lib, umumiyl massasi Quyosh masasidan  $6 \times 10^{11}$  marta katta.

Somon Yo'li yoki Galaktikamiz - gigant yulduzlarning tizimi bo'lib, u Quyosh, oddiy ko'z bilan ko'rinxuvchi barcha yulduzlar hamda juda

ko'p sonli boshqa osman jismlarini qamrab oladi. Unda 100 milliardga yaqin yulduzlar mavjud. Somon Yo'li boshqa Galaktikalarning biri hisoblanadi va u spiral galaktikalar turiga kiradi. Somon yo'li likobcha singari qavariq shaklga ega.

## 22.2. Quyosh tizimi va uning sayyoralar haqida umumiy ma'lumotlar

Koinot va Quyosh tizimining vujudga kelishi to'g'risida juda ko'p nazariyalar mavjud bo'lib, ulardan biri «katta portlash» nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra dastlab butun materiya haddan tasbqari yuqori haroratga ega bo'lgan bitta «nuqtada» siqilgan bo'lib, keymchalik bu “nuqta” ulkan kuch bilan portlagan. Portlash natijasida barcha tomonlarga sachrab ketgan o'taissiq bulutlardan asta-sekin subatomli zarralar, vaqt o'tishi bilan atomlar, moddalar, sayyoralar, yulduzlar va, nihoyat, hayot vujudga kelgan. Bunda Komotning kengayishi davom etgan va bu jarayon qancha uzoq davom etishi noma'lum.


Demak, bu nazariyaga asosan Quyosh tizimi aylanuvchi gaz-changli bulutdan hosil bo'lgan. Uning siqilishida markazi zichlashgan va keyin u Quyoshga aylangan. Quyosh tarkibiga kirgan zarrachalar o'zining harakat momentim olib kelgan. Ular aylanish o'qiga qarab harakat qilganligi sababli (ya'ni inasofa kamaygan), momentni saqlash uchun tezlik oshishi lozim edi. Protoquyosh va keyin Quyosh tobora tezlashgan holda aylanishi lozim edi.<sup>156,157</sup>

Quyosh tizimiga 9 ta sayyora, 42 ta yo'ldosh, 50 mingdan ortiq kichik asteroidlar, sanog'i yo'q meteorit va kometalar kiradi. Ularning markazida Quyosh joylashgan bo'lib, u o'zining tizimdagi boshqa barcha osmon jismlarim o'ziga tortib turadi. Bu tizimdagi barcha jismlar o'zaro gravitatsiya (butun olam tortishish qonuni) kuchi bilan ham bog'langan.

Sayyoralar ikki katta guruhga: yer guruhiga – Merkuriy, Venera, Yer va Mars – va yupiter guruhiga, ya'ni gigant sayyoralar – Yupiter, Saturn, Uran va Neptunga bo'linadi (22.2-rasm).

<sup>156</sup> Essentials of Geology. Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012. P 465.

<sup>157</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 190, 191.




22.2-rasm. Quyosh tizimi: 1-Quyosh, 2-Merkuriy, 3-Venera, 4-Yer, 5-Mars, 6-Yupiter, 7-Saturn, 8-Uran, 9-Neptun, 10-Pluton, 11-kometa <http://interesnoe.info>.

Quyosh va Quyosh tizimi sayyoralarining hajmi va massasi orasida keskin farq bor. Buni ularni qiyoslash maketedan ko'rsa bo'ladi (22.3-rasm).


Yer guruhidagi sayyoralar nisbatan kichik o'lchamli va katta zichlikka ega (22.4-rasm). Ularning asosiy tarkibini silikatlar (kremniy birikmalari) va temir tashkil etadi. Gigant palanetalarda esa qattiq yuza yo'q. Uncha katta bo'limgan yadrosidan tashqari ular vodorod va geliydan tuzilgan va gaz-suyuq holatda mavjud. Bu sayyoralarining atmosferasi asta-sekm zichlashib borib, suyuq mantiyaga aylanadi.<sup>158</sup>

Quyosh tizimi umumiylar massasming asosiy ulushi (99,87%) Quyoshning o'ziga to'g'ri keladi. Shuning uchun Quyosh tortish kuchlari tizimidagi deyarli barcha qolgan jismlar: sayyoralar, kometalar, asteroidlar va meteorlar harakatini boshqaradi. Sayyoralar atrofida esa faqat o'zimingga yo'ldoshlarigina aylanadi. Chunki bunda yo'ldoshlar ushbu sayyoralarga yaqin bo'lganligi tufayli tortish kuchi Quyoshnikidan ortiq.

<sup>158</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 191, 192.



**22.3-rasm. Quyosh va  
sayyoralarining qiyosiy hajmi.**



**22.4-rasm. Yer guruhidagi  
sayyoralarining qiyosiy hajmi.**

Barcha sayyoralar Quyosh atrofida bir yo‘nalishda aylanadi. Bu harakat to‘g‘ri harakat deyiladi.

Sayyoralar orbitasi shakli bo‘yicha aylanaga, orbita tekisligi esa Laplas tekisligi deb ataluvchi Quyosh tizimining asosiy tekisligiga yaqin. Ammo sayyoralar massasi qancha kam bo‘lsa bu qoidadan og‘ishi shuncha sezilarli bo‘ladi, bu Merkuriy va Pluton misolida yaqqol ko‘rinadi.


Quyosh tizimi sayyoralarini quyosh atrofida turli radiusda va tezlikda aylanadi.

### Quyosh

Quyosh – bu odatdagi yulduz bo‘lib, Quyosh tizimidagi barcha sayyoralar uning atrofida aylanadi. Uning sirtida kuchli shu'lalanish kuzatiladi (22.5-rasm).

Quyosh qaynoq plazmali shar bo‘lib, radiusi  $R=696$  ming km, o‘rtacha zichligi  $1,416 \text{ kg/m}^3$ . Aylanish davri (sinodik) ekvatorda 27 sutkadan qutblarda 32 sutkagacha o‘zgaradi, erkin tushish tezlanishi  $274 \text{ m/s}^2$ . Quyosh spektri tahliliga ko‘ra uning kimyoziy tarkibi: vodorod 90% ga yaqm, geliy 10%, boshqa elementlar 0,1% dan kam. Quyosh energiyasining manbai bo‘lib Quyoshning markaziy qismida vodorodning geliyga yadroviy aylanishi hisoblanadi. Bunda harorat 15 mln. K ga boradi (termoyadro reaksiyasi).

Uning ichki qismidan energiya nurlanish orqali ko'chiriladi, keyinchalik u 0,2 R masofaga teng tashqi qatlamda konveksiya orqali



22.5-rasm. Quyoshning olovli sirti.

[www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

tashqi qobiqlarining o'rtacha harorati  $5600^{\circ}\text{C}$ , yoshi 6-6,5 mlrd. yil.

amalga oshiriladi. Quyoshdan 149 mln. km masofada joylashgan Yer undan 21017 Vt ga yaqin yorug'lik nuri energiyasini oladi. U Yer sharida kechadigan barcha jarayonlar-ning asosiy energiya manbasi sanaladi. Yerdagi butun biosfera, hayot faqat quyosh energiyasi hisobiga yashaydi.

Quyosh diametri yernikiga nisbatan 109 marta katta, o'rtacha zichligi  $1,41 \text{ g/sm}^3$ ,

## Merkuriy

**Merkuriy – Quyoshga eng yaqin joylashgan sayyora.** Merkuriy Quyosh tizimidagi boshqa sayyoralar singari antik pantionning xudolaridan biri, xususan - rim savdo xudosi (yunoncha Germesga mos keladi) nomi bilan atalgan. Merkuriy – Yerdan kuzatish uchun ancha murakkab sayyora hisoblanadi. Yerga nisbatan ichki sayyora bo'lganligi sababli hech qachon Quyoshdan  $28^{\circ}$  dan uzoqlashmaydi, shuning uchun ham u tongdagi va kechqurungi yog'duda qisqa muddatgina ko'rindi xolos.<sup>159</sup>

Merkuriy Quyosh atrofida o'rtacha masofasi  $57,91 \text{ mln km}$  li ancha cho'zilgan elliptik orbita bo'yicha harakatlanadi. Perigeliyda Merkuriy Quyoshdan  $45,9 \text{ mln km}$ , afeliyda esa  $69,7 \text{ mln km}$  masofada joylashgan. Orbitasining ekliptika tekisligiga qiyaligi  $7^{\circ}$ .


<sup>159</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 199.

O'zining orbitasi bo'ylab Merkuriy 87,97 sutkada bir marta aylanib chiqadi. Orbita bo'yicha o'rtacha tezligi 48 km/s.

Orbitasining joylashishi bo'yicha Mars va Veneraga yaqin bo'lsada, Merkuriy boshqa sayyoralarga qaraganda Yerga ko'p vaqt yaqin turadi.

Merkuriy - Yer guruhidagi sayyoralar orasida eng kichigi hisoblanadi. Uning radiusi 2439 km bo'lib, bu Yupiterning Ganimed

va Saturnning Titan nomli yo'ldoshlarining radiuslaridan ham qisqa. Merkuriyning massasi  $3,302 \cdot 10^{23}$  kg. o'rtacha zichligi ancha yuqori -  $5,43 \text{ g/sm}^3$  bo'lib, bu Yernikidan kamroq. Yer o'lchamlarining Merkuriyidan yuqoriligi hisobga olinsa, uning zaminida metallar ko'pligidan dalolat beradi. Merkuriyda erkin tuishish tezlanishi  $3,70 \text{ m/s}^2$  teng. Ikkinci kosmik tezlik -  $4,3 \text{ km/s}$ .



22.6-rasm. Merkuriy sirtidagi kraterlar.

[www.gospace.spb.ru](http://www.gospace.spb.ru).

Sayyoraning Quyoshga yaqinligi va ancha sekin aylanishi hamda atmosferasining yo'qligi sababli Merkuriyda Quyosh tizimidagi haroratning eng keskin o'zgarishi kuzatiladi. Uning yuzasida kunduzgi o'rtacha harorat  $623 \text{ K}$  teng, kechasi esa -  $103 \text{ K}$ . Merkuriydagi minimal harorat  $90 \text{ K}$  ga teng, maksimumi esa, tushda «qaynoq uzoqliklarda» -  $700 \text{ K}$  gacha boradi.

Merkuriy yuzasi ko'p jihatdan Oy yuzasini eslatadi – unda ham kraterlar ko'p (22.6-rasm). Ammo kraterlar barcha maydonlarida teng taqsimlanmagan. Merkuriydagi eng katta krater buyuk nemis kompozitori Betxoven sharafiga nomlangan bo'lib, uning diametri  $625 \text{ km}$ .

Merkuriy yuzasidagi eng qiziqarli tafsilot - bu Issiqlik teksligidir («lot. Caloris Planitia»). Bu krater o'z nomini eng “issiq

uzoqlikka" yaqinligi tufayli olgan. U ko'ndalangiga 1300 km. Ehtimol, urilish zarbasidan ushbu kraterni hosil qilgan samo jismming o'lchami 100 km dan kam bo'limgan.

## Venera

Venera – Quyosh tizimida Quyoshdan uzoqligi bo'yicha ikkinchi sayyora. Venera – ichki sayyora bo'lib, yer osmonida Quyoshdan  $48^{\circ}$  dan ortiq uzoqlashmaydi.

Venera – osmonda yorqintigi bo'yicha uchinchi obyekt; uning yaltiroqligi faqat Quyosh va Oynikidan kam. U bashariyatga qadimdan ma'lum bo'lgan sayyoralar jumlasiga kiradi.<sup>160</sup>

Veneradan Quyoshgacha bo'lgan o'rtacha masofa 108 mln km. Uning orbitasi aylanaga juda yaqm - ekssentrisiteti 0,0068 ga teng. Quyosh atrofida aylanish davri 224,7 sutkaga teng; o'rtacha orbital tezligi - 35 km/s. Ekliptika tekisligiga misbatan qiyaligi  $3,4^{\circ}$ .


Venera o'zining o'qi atrofida orbitasining tekisligi  $2^{\circ}$  qiyalikda, sharqidan g'arbga qarab, ya'ni ko'pchilik planetalarning aylanish yo'nali shiga qarama-qarshi aylanadi. O'z o'qi atrofida 243,02 sutkada bir marta aylanib chiqadi.

Veneraning o'lchamlari Yernikiga ancha yaqin. Uning radiusi 6051,8 km, massasi -  $4,87 \cdot 10^{24}$  kg, o'rtacha zichligi -  $5,24 \text{ g/sm}^3$ . Erkm tushish tezlanishi  $8,87 \text{ m/s}^2$ , ikkinchi kosmik tezligi -  $10,4 \text{ km/s}$ .

Venera atmosferasining zichligi ancha yuqori. Venera Yerga eng yaqin sayyora hisoblansada, uning yuzasi keyingi vaqtlardagina o'rGANILA boshlandi. Chunki uning yuzasi bulutlar bilan qoplangan. Agar bulutlar bo'limganda ham atmosferasining zichligi tufayli yuzasini ko'rib bo'lmasdi.

Venera atmosferasi asosan karbonat angidrid (96 %) va azotdan (deyarli 4 %) tashkil topgan. Suv bug'i va kislород unda juda kam (0,02 % va 0,1 %). Yuzasidagi bosim 93 atm, harorati - 737 K ga etadi. Bu Quyoshga ikki marta yaqm bo'lgan Merkuriy yuzasidagidan ortiq. Veneradagi bunday yuqori haroratning sababi bo'lih, zich karbonat angidridli atmosfera hosil qiladigan issiqxonasi.

<sup>160</sup> Understanding Earth, J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 199, 200.



22.7-rasm. Venera sirtining relifi.

[www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

effekti sanaladi. Venera atmosferasining zichligi suv zichligidan 14 marta kam. Sayyora ning sekin aylanishiga qaramasdan atmosferasining issiqlik inersiyasi shu darajada kuchlik, kunduzgi va oqshomgi harorat orasida o'zgarish kuzatilmaydi. Ultrabinafsha nurlarda bulut qoplamasи ekvatorga qarab cho'zilgan yorug' va qora qambarlarning naqshlaridan iborat.

Venerada atmosfera bosimi 100 atm ga yaqin bo'lib, unda gazlar zichligi Yerdanidan qariyb 100 marta ortiq.

Venera yuzasida keng tepaliklar mavjud (22.7-rasm). Ularning orasida eng yiriklari Ishtar yeri va Afrodita yeri bo'lib, o'lchamlari bo'yicha yerdagi materiklar bilan taqqoslash darajasida. Sayyora yuzasida ko'plab kraterlar kuzatiladi. Ehtimol, ular Venera atmosferasi uncha zich bo'limgan davrlarda hosil bo'lgan. Sayyora yuzasining 90 % bazalt lavasi bilan qoplangan.

## Yer

Yer – Quyosh tizimi sayyoralarini orasida Quyoshga yaqinligi bo'yicha uchinchisidir. U Yer guruhidagidagi sayyoralarning eng yirigi va hozirgi kunda sayyoralararo jismlar orasida tirik mavjudotlar mavjudligi ma'lum bo'lgan yagona sayyora hisoblanadi. Yer bundan 4,5 mlrd yil ilgari vujudga kelgan va bundan keyinroq o'zining yagona tabiiy yo'ldoshi - Oyga ega bo'lgan.



22.8-rasm. Yer sirti tuzilishining fazodan ko'rinishi. [www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

mukammal rivojlangan atmosferasi, gidrosferasi va biosferasiga ega. Yerning fazodan turib olingan suratida tog' tizmalari, okeanlar, yirik tekisliklar aniq ko'zga tashlanadi (22.8-rasm).

Barcha osmon jismli orasida faqat Yerdagina hayot mavjud.<sup>161</sup>

Yer qatlamlari tuzilishga ega. U qattiq silikatli qobiqlarga (po'stloq va mantiya) va metalli yadroga ega. Yadroning tashiqi qismi suyuq, ichki qismi esa qattiq (Yerning tuzilishi to'g'risida keyingi bobda bat afsil ma'lumotlar berilgan).<sup>162</sup>

### 22.3. Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi

Oy Yer atrofida, agar hisob boshi yulduz oyi deyiluvchi uzoq yulduz olinsa, soat miliga teskari yo'nalishda 27,32 sutkada to'liq aylanib chiqadi. Ammo bir vaqtning o'zida Quyosh atrofida aylanuvchi Yerga nisbatan aylanish vaqt 29,5 sutkaga teng. Bu vaqt oyiga teng, ya'ni bu vaqtida Oy ikkita bir xil fazani, masalan, oy sinodigi deb ataluvchi ikkita to'lin oy oralig'ini o'taydi.

<sup>161</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 462.

<sup>162</sup> Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck 2012 P 465.

Yer Quyosh atrofida elliptik orbita bo'ylab taxminan 30 km/cek (106 000 km/soat) va o'z o'qi atrofida ekvatorda 465 m/sek (1674 km/soat) tezlik bilan aylanadi. Ammo uning orbita bo'yicha tezligi doimiy emas: iyuldan boshlab u tezlashib boradi, yanvardan esa yana sekinlashadi.

Quyosh tizimidagi sayyoralardan faqat Yergina o'zining

Oy orbitasi – bu kuchli cho'zilgan ellipsoidir va shu tufayli Yerdan ungacha bo'lgan masofa kuchli o'zgaradi; perigeyda 356 000 km dan apogeyda 407 000 km gacha. Buning natijasida Oyning o'lchamini yilning fasllarida ko'zga turlicha ko'rindi.



22.9-rasm. Oy sirti relyefining kraterli tuzilishi. [www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

Oyning sirti yer sahrolarini eslatadi va chang qatlami bilan qoplangan. Uning sirti juda notekis bo'lib, bir qancha tog' tizmalariga, ko'plab nishab jarliklarga va kraterlarga ega (22.9-rasm). Ular Oy sirtiga meteoritlarning urilishi natijasida vujudga kelgan. Oyning sirti morfologik tomonidan dengiz va materiklarga bo'lingan.

Dengizlar – bu tekis tubga ega bo'lgan chiqqurliklar bo'lib, ularning tubi “dengiz sathi” bo'lmaganligi uchun hisob boshi qilib olingan. Bu strukturalarning ko'pchiligi yerga qaragan tomonida joylashgan. Oy dengizlarida kraterlar kam va ular tekisdek ko'rindi. Bundan tashqari, ular quyosh nurini yomon qaytaradi va shuning uchun ham qorong'i zonalardek tuyuladi. Dengizlarning kelib chiqishi boshqa oy strukturalariga nisbatan yosh (3,8-3,3 mlrd. yil ilgari) va ularning sirti vulkan lavasidan tarkib topgan.

Materiklar – bu o'rtacha oy yuzasi sathidan balandda joylashgan hududlardir. Odatda ular dengizlarga nisbatan ancha yaxshi yoritilgan va turli o'lchamdagagi kraterlar bilan qoplangan. Kraterlar ko'p

Yer va Oyning o'zaro yaqinligi tufayli Yerning tortish kuchi ta'sirida o'z o'qi atrofida 27,32 sutkada bir marta aylanadi va shu tufayli u hizga har doim o'zining bir tomoni bilan burilgan bo'ladi.

Bizning yo'ldosh - 3476 km diametrli toshli obyekt bo'lib, Yer diametrining choragiga teng.


hollarda bir-biriga ustama tushib, yangi geologik hosilalar eskilarini qoplab qolgan. Shu orqali stratigrafiya yordamida yuzasidagi turli zonalarning paydo bo'lishidagi ketma-ketlik aniqlangan.

Oy sirtida uzunligi 6 km gacha boradigan bir qancha tog' tizmalari mavjud. Ular teng taqsimlanmagan: asosan dumaloq dengizlarni o'rabi turadi, ularning eng yirigi Shimoliy qutbda joylashgan.

Fazogirlar tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra dengiz yaqinida yig'ilgan tog' jinslari asosan hazaltli tarkibga ega. Yerda bunday tog' jinslari vulkanizm viloyatlarida rivojlangan. Oyning butun tarixidagi vulkan faoliyati keyingi nazariyalarga asosan uncha kuchli kechmagan.<sup>163</sup>

## Mars

**Mars** (Mars) – Quyoshdan uzoqligi bo'yicha to'rtinchisi, Quyosh tizimidagi sayyoralar orasida o'lchami bo'yicha yettingi sayyoradir.



22.10-rasm. Mars qizil rangda ko'rinishi.

[www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru)

atalgan.<sup>164</sup>

Qizil rangdagi yorqin sayyora bo'lganligi tufayli oddiy ko'z bilan oson kuzatiladi (22.10-rasm). Mars ham Quyosh tizimidagi boshqa sayyoralar singari antik pantion xudolaridan biri – urush xudosi nomi bilan atalgan (yunoncha Aresga mos keladi). Shu tarzda uning yo'ldoshlari: Fobos va Deymos ham unga urushlarda hamroh bo'lgan ikki o'g'lining ismi bilan

<sup>163</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 197.

<sup>164</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007. P 196, 202.

Marsdan Quyoshgacha o'rtacha masofa 228 mln. km, Quyosh atrofida aylanish davri - 687 yer sutkasiga teng. Mars orbitasi ancha sezilarli eksentrisitetga ega (0,0934), shuning uchun Quyoshgacha masofasi 206,6 dan 249,2 mln. km gacha o'zgaradi.

Sayyoralar yo'naliishi Quyoshnikiga teskari bo'lgan qarama-qarshilik vaqtida Mars Yerga eng yaqin keladi. Bu qarama-qarshilik vaqt Mars orbitasining turli nuqtalarida har 26 oyda takrorlanadi. Ammo 15-17 yilda bir marta bu qarama-qarshilik vaqtida Mars perigeliy yaqinida joylashgan bo'ladi va juda yaxshi ko'rindi. Marsdan Yergacha minimal masofa 56 mln. km, maksimal - 400 mln. km ga yaqm.

Mars Yerdan o'lchamlari bo'yicha ikki marta kichik - uning ekvatorial radiusi 3396,9 km (Yernikining 53% i). Sayyoraning ancha tez aylanishi sezilarli qutbiy siqlishga olib keladi - Marsning qutbiy radiusi ekvatorial radiusidan 21 km ga qisqa. Marsning massasi -  $6,418 \times 10^{23}$  kg (Yernikining 11% i). Erkin tushish tezlanishi 3,72 m/sek<sup>2</sup>; ikkinchi kosmik tezligi - 5,022 km/sek. Mars o'zining o'qi atrofida orbitasining tekisligiga  $24^{\circ}56'$  burchak ostida qiyalanib aylanadi. Aylanishming siderik davri - 24 soat 37 minut 22,7 sekund. Shunday qilib, Mars yili 668,6 mars quyosh sutkasiga teng. Mars aylanish o'qining qiyaligi unda fasllar almashinishini ta'minlaydi. Bunda orbitasining cho'ziqligi ular davomiyligidagi katta farqni keltirib chiqaradi. Masalan, shimoliy bahor va yozning davomiyligi Mars yilining yarmidan ko'p.

Marsda ham magnit maydoni mavjud bo'lib, u Yernikidan taxminan 800 marta kuchsiz.

Sayyoraning ekvatorida haroratning o'zgarishi tushda  $+30^{\circ}\text{C}$  dan kechasi  $-80^{\circ}\text{C}$  gacha. Qutblarida harorat  $-143^{\circ}\text{C}$  gacha pasayishi mumkin.

Asosan karbonat angidriddan iborat Mars atmosferasi juda siyrak. Uning bosimi Yer yuzasidagidan 160 marta kam.

Atmosferasining tarkibi 95% karbonat angidrid, 2,7% azot, 1,6% argon, 0,13% kislород, 0,1% suv bug'i va 0,07% uglerod ikki oksidi tashkil etadi.

Mars tuprog'ining ustki qismi 21% kremliy, 12,7% temir, 5% magniy, 4% kalsiy, 3% aluminiy, 3,1% oltingugurtdan (yerdagi jinslardagidan 100 marta ko'p) iborat.

Marsda suv, xususan qurib qolgan daryolar eroziyasini eslatuvchi hosilalar ko'p kuzatiladi. NASAning Spirit va Opportunity marsyurarlaridan olingen ma'lumotlar o'tmishda suv mavjud bo'lganligidan dalolat beradi (jinslarga faqat suv ta'sir qilishi natijasida vujudga keluvchi minerallar topilgan).

## Yupiter

Yupiter – Quyosh tizimida Quyoshdan uzoqligi bo'yicha beshinchi va kattaligi bo'yicha birinchi planetadir. Bu sayyora antik davrdan ma'lum bo'lib, qadimgi rim xodosi Yupiter nomi bilan atalgan, muqobili qadimgi yunoncha Zevs. U gigant sayyoralar turiga mansub.

Yupiterning janubiy kengliklarida tabiatи hozirgacha noma'lum bo'lgan sekim siluvchi oval shaklidagi Ulkan Qizil Dog' bo'lib, uning o'lchami ko'ndalangiga 30-40 ming km ga boradi. 100 yil davomida u Yupiter sirtida taxminan uch marta aylanib chiqadi (22.11-rasm).

Yupiter - Quyosh tizimidagi eng yirik sayyora. Uning ekvatorial radiusi 71,4 ming km ga teng bo'lib, Yer radiusidan 11,2 marta ortiq.



22.11-rasm. Yupiter sirtidagi dog'lar.  
[www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

Yupiterni 40 marta kat-talashtridigan teleskop-da kuzatilganda, uning burchak o'lchamlari oddiy ko'z yordamida kuzatiladigan Oy o'lchamlariga mos keladi.

Yupiter massasi barcha qolgan sayyora-larning massasidan 2 marta, Yer massasidan esa 318 marta ortiq va Quyosh massasidan atigi 1000 marta kam. Agar Yupiter taxminan 70 marta og'irroq bo'lganda edi, uni yulduz deyish

mumkin edi. Yupiterning zichligi taxminan Quyoshnikiga teng va Yernikidan ancha kam.

Bu sayyoraning ekvatorial tekisligi uning orbitasi tekisligiga yaqin, shuning uchun Yupiterda fasllar almashishi kuzatilmaydi.

Yupiter o'zining o'qi atrofida qattiq jismlarga o'xshamasdan aylanadi: aylanish burchak tezligi ekvatordan qutblarga qarab pasayib boradi. Ekvatorda sutka 9 soat 50 daqiqa davom etadi. Yupiter Quyosh tizimidagi har qanday sayyoraga nisbatan tezroq aylanadi. Juda tez aylanganligi sababli Yupiterning qutbiy siqilishi ancha sezilarli: qutbiy radiusi ekvatorial radiusidan 4,6 ming km (ya'ni 6,5%) qisqa.

Yupiterda kuzatishimiz mumkin bo'lgan narsa – bu atmosferasining ustki qatlamidagi bulutlardir.

Gigant sayyora asosan gazdan tarkib topgan va qattiq yuzaga egamas.

Yupiter Quyoshdan oladiganiga qaraganda 2-3 marta ko'p energiya ajratib chiqaradi. Bu hodisa sayyoraning asta-sekinlik bilan siqilib borishi, geliy va undan og'irroq elementlarning sayyora zaminiga cho'kishi yoki radioaktiv parchalanish jarayonlari bilan tushuntirilishi mumkin.

Yupiter asosan vodorod va geliydan tarkib topgan. Bulutlar ostidagi 7-25 ming km chuqurlikdagi qatlamda vodorod harorat ( $6000^{\circ}\text{C}$  gacha) va bosimning ortishi tufayli asta-sekin gaz holatidan suyuqlikka aylanadi. Gazsimon vodorodni suyuq vodoroddan ajratuvchi aniq chegara mavjud emas.

Yupiter atmosferasi vodoroddan (81 %) va geliydan (18 %) iborat. Qolgan moddalarning ulushi 1 % dan ortiq emas. Atmosferasida metan, suv bug'i, ammiak mavjud. Atmosferaning tashqi qatlamlarida muzlagan ammiakning kristallari bor.

Tashqi qatlamdagagi bulutlarining harorati  $-130^{\circ}\text{C}$  atrofida, ammo u chuqurlik sari tez oshadi.  $130\text{ km}$  chuqurlikda harorat  $+150^{\circ}\text{C}$ , bosim - 24 atmosferaga teng.

Yupiter kuchli magnit maydoniga ega, uning qutbiyligi Yernikiga nisbatan teskari. Magnit maydonining mavjudligi Yupiter zaminida metall vodorod borligidan dalolat beradi.

Yupiter kuchli radiatsion qambarga ham ega. Yupiterga «Galileo» kosmik apparati yaqinlashganda odam uchun xavfli

bo'lgan dozadan 25 marta ortiq radiatsiya olgan. Yupiter radiatsion qambarining radionurlanishi 1955-yili aniqlangan.

## Saturn

Saturn – Quyoshdan uzoqligi bo'yicha oltinchi va Quyosh tizimidagi sayyoralar orasida o'lchami va massasi bo'yicha ikkinchi sayyora hisoblanadi. Saturn Quyoshdan o'rtacha 1429 mln km masofada joylashgan. Aylanish davri - 29,46 yil. U 60 ta yo'ldoshga ega.

Saturn asosan gazdan (vodorod va geliy) tarkib topgan va qattiq yuzaga egamas. U gazli sayyoralar turkumiga kiradi. Saturnning ekvatorial radiusi 60300 km, qutbiy radiusi esa 54000 km; Saturn - Quyosh tizimidagi eng yassi sayyora.

Planetaning massasi Yer massasidan 95 marta ortiq, ammo uning o'rtacha zichligi  $0,69 \text{ g/sm}^3$  bo'lib, shu tufayli Quyosh tizimi sayyoralarini orasida zichligi suvnikidan ham past bo'lgan yagona oyektdir. Saturn o'z o'qi atrofida 10 soat 39 daqiqada to'liq aylanib chiqadi.

Saturn Quyosh tizimida baquvvat halqalar tizimiga ega. Bu halqalarning chetlari sayyora ekvatoridan 6,6 ming va 121 ming km masofalarda joylashgan (22.12-rasm). Halqalar

o'lchami bir necha mikronдан birnecha santimetrga boruvchi muz, toshli jinslar va temir oksidlarining zarralardan tarkib topgan.

Saturn atmosferasining ustki qatlamlari 93 % vodoroddan va 7 % geliydan tarkib topgan. Metan, suv bug'i, ammiak va boshqa ba'zi gazlarning qoshimchasiga ega. Atmosferasining ustki qismidagi ammiakli qatlamlar



22.12-rasm. Saturn atrofidagi halqalar tizimi. [www.gospace.spb.ru](http://www.gospace.spb.ru)


Yupiternikiga nisbatan qalinqoq.

Saturn atmosferasining chuqurligida bosim va harorat oshib boradi va vodorod asta-sekin suyuq holatga o'tadi. 30 ming km chuqurlikda esa vodorod metall holiga aylanadi (bosim 3 million atmosferaga yetadi).

Saturn yo'ldoshlarining orasida eng kattasi Titan hisoblanadi. Olimlar bu sayyoradagi sharoitlar 4 milliard yil ilgari Yerda endigina hayot paydo bo'la boshlagandagiga o'xhash deb taxmin qilishadi.

## Uran

Uran – Quyoshdan uzoqligi bo'yicha yettinchi va kattaligi bo'yicha Quyosh tizimida uchinchi sayyora hisoblanadi. Uran, Yupiter, Saturn va Neptunga o'xhash gazli gigant hisoblanadi. U qadimiy yunon xudosi Uran sharafiga nomlangan.



22.13-rasm. *Uran atrofidagi halqalar.* [www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

Uranda vodorod miqdori 83%, geliyniki 15%, metanniki esa 1,99% ni tashkil etadi. Bulardan tashqari ammiak, etan va atsetilen izlari topilgan. Uran va Neptun ko'pgma xossalari bilan massiv suyuq metali, vodorod qobig'isiz Yupiter yoki Saturn yadrosiga o'xhash. Shuftayli Uranda aniq ifodalangan yadro yo'q, undagi moddalar deyarli teng taqsimlangan. Sayyoraning moviy rangi atmosfera metani tomonidan

qizil rangning yutilishi bilan tushuntriladi. Uran diametri 10 m gacha yetadigan yog'dulanmaydigan materiya zarralaridan tarkib topgan kuchsiz, deyarli qo'zilg'amas planetar halqalarga ega (22.13-rasm).


Uranning dastlabki halqalari 1977-yilning martida Djeyms Elliot, Edvard Danxem va Duglas Mink tomonidan aniqlangan. Hozirgi kunda uning 13 ta halqasi ma'lum bo'lib, bu Quyosh tizimida o'ziga xos "rekord" hisoblanadi.

## Neptun

Neptun – Quyoshdan uzoqligi bo'yicha Quyosh tizimida sakkizinchи sayyora sanaladi. Bu sayyora 1846-yili k'if etilgan va rim mifologiyasidagi dengiz xudosi nomi bilan atalgan. Neptun timsoli - dengiz xudosi Neptunning uchtishidir.

Juda ixcham bu gazli sayyora (zichligi  $1,64 \text{ g/sm}^3$ ) tashqi quyosh tizimida o'zining katta massasi tufayli ustuvorlikka ega va Pluton singari o'lchami kichik bo'lgan ko'pchilik obyektlarning orbitasiga ta'sir ko'rsatadi.

Neptunda ham boshqa gigant sayyorallardagidek qattiq yuza yo'q. Shuning uchun ham sayyoraning o'lchamini aniqlash uchun bosim 1 bar bo'lgan atmosfera sathi qabul qilingan. Neptunning ekvatorial diametri 49528 km, qutbiy radiusi esa 48680 km; massasi -  $1.02 \cdot 10^{26}$  kg bo'lib, yerning massasidan 17,14 marta ko'p. Shunday qilib, bu sayyora Urandan biroz kichik va og'irroq. Neptunning o'rtacha zichligi -  $1,76 \text{ g/sm}^2$ . Neptun chetlarida quyosh energiyasi juda kam va  $8 \text{ Vt/m}^2$  ni tashkil etadi.



22.14-rasm. Neptunning ko'k rangli ko'rinishi.

[www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).

balandga qarab harorat oshib boradi va 2000 km balandlikda (10-11 bar bosimda) 750 K gacha yetadi va shundan so'ng o'zgarmasdan qoladi.


Neptunning aylanish o'qi orbitasi tekisligiga  $29^{\circ}34'$  burchak ostida qiyalangan. Neptun ammiak, suv va metan aralashma-sidan

tarkib topgan qatlamlarga ajralmagan. U tashqi yadro bilan o‘ralgan suyuqlangan jinslardan iborat ichki yadroga ega deb taxmin qilinadi.

## Pluton

Pluton – mitti sayyora 2006-yilning 24-avgustigacha Quyosh tizimidagi to‘qqizinchı sayyora deb sanalib keligan, ammo Xalqaro astronomolar ittifoqining (XVI) XXVI Bosh assambleyasi qarori bo‘yicha bu maqomdan mahrum etilgan. Pluton 1930-yili 18-fevralda amerikalik astronom Klayd Tombo (Clyde W. Tombaugh) tomonidan kashf etilgan.

Pluton 1930-yil may oyida Xalqaro astronomik uyushma tomonidan rasmiy ravishda sayyora deb tan olingan. O‘scha vaqtida uning massasi Yernikiga yaqm deb taxmin qilishgan. Haqiqatan esa Plutonning massasi Yernikidan 500 marta va hatto Oy massasidan ham kichik bo‘lib chiqdi.



*22.15-rasm. Pluton mitti planetasi [www.galspace.spb.ru](http://www.galspace.spb.ru).*

Quyoshdan Plutongacha o‘rtacha masofa 5,913 mlrd. km, ammo orbitasi eksentrisitetining kattaligi (0,249) tufayli bu masofa 4,425 dan 7,375 mlrd. km gacha o‘zgaradi. Quyosh yorug‘ligi Plutongacha besh soat maboynda yetib boradi.

Pluton orbitasi Neptun orbitasiga nisbatan Quyoshga yaqin joylashgan. Natijada perigeliyda Pluton sakkizinchı sayyoraga nisbatan Quyoshga yaqinroq turadi. Bunda Pluton va Neptun orbitalari o‘zaro kesishmaydi, chunki Pluton orbitasi ekliptika tekisligiga nisbatan  $17,15^\circ$  qiya joylashgan. Bundan tashqari, Plutonning orbital aylanish davri 247,69 yilga teng va Neptun uch marta aylanganda Pluton ikki marta aylanadi.

Pluton juda kichikligi tufayli zamonaviy teleskoplarda ham kuchsiz yoritilgan nuqtaday bo‘lib ko‘rinadi (22.2, 22.15-rasmlar). Plutonning aylanish o‘qi orbitasining tekisligiga  $12,5^\circ$  qiyalangan.

Pluton siyrak atmosferaga ega bo'lib, uning zichligi va qalnligi Quyoshgacha bo'lgan masofaga bog'liq holda kuchli o'zgaradi. Atmosferasining tarkibi uglerod va metan qo'shimchalariga ega bo'lgan azotdan iborat.

Pluton Yerga nisbatan 1600 marta kam quyosh nurini oladi. Pluton yuzasidagi harorat 37 dan 63 K gacha o'zgaradi.

Plutonning uchta: Xaron, Gidra va Nikta yo'ldoshlari bor.

Xaron 1978-yili kashf etilgan bo'lib, Plutonning eng yirik va yaqin yo'ldoshi hisoblanadi. Uning diametri 1205 km bo'lib, Pluton diametrining yarmidan ko'proq, massalarining nisbati esa 1:8 (taqqoslash uchun: Oy va Yer massalarining misbati 1:81).

## 22.4. Quyosh tizimining mitti jismlari<sup>165</sup>

**Asteroidlar.** Ular toshsimon qattiq jismlar bo'lib, sayyoralar singari elliptik orbitalari bo'ylab harakatlanadi. Ammo bu jismlarning o'lchami oddiy sayyoralarining o'lchamidan juda kichik, shuning uchun ham ularni mitti sayyoralar deyiladi. «Asteroid» atamasi (yoki «yulduzsimon») XVIII asrning taniqli astronomi Uilyam Gershel tomonidan bu obyektlarni teleskop yordamida kuzatishda tavsiflash uchun kiritilgan.

Hozirgacha ma'lum bo'lgan asteroidlarning asosiy qismi Quyoshdan 2,2-3,2 astronomik birlik (a. b.) masofasida Mars va Yupiter orbitalari orasida harakatlanadi. Hozirgacha 20 mingdan ortiq asteroidlar kashf etilgan.

Bu jismlar egallagan fazoning halqali qismi *Asteroidlarning bosh qambari* deyiladi. O'rтacha 20 km/s chiziqli orbital tezlikda bosh qambarning asteroidlari Quyoshdan uzoqligiga qarab uning atrofida 3 dan 9 yilgacha bo'lgan vaqtida bir marta aylanib chiqadi. Orbitalari tekisliklarining ekliptika tekisligiga qiyaligi  $70^{\circ}$  gacha boradi, asosan  $5 - 10^{\circ}$  oralig'ida.

Eng yirik asteroid - Sereraning o'lchami taxminan 1003 km ga teng, ikkinchi o'rinda - Pallada bo'lib, uning radiusi 500 km ga yaqin, ammo ularning ko'pchiligi ancha kichik. Ma'lum bo'lgan asteroidlarning eng kichigi ko'ndalangiga 1 km.

**Kometalar.** Nomi yunoncha «uzun sochli» ma'nosini anglatadi.

<sup>165</sup> Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever 2007. P 192

Kometta to'g'risidagi birinchi yozma ma'lumot miloddan oldingi 2296-yilga to'g'ri keladi. Kometalarning osmonu falakdag'i harakatini xitoylik astronomlar diqqat bilan kuzatgan.

Quyosh tizimidagi bu jismlar Quyoshdan ancha uzoqdagi kuchli cho'zilgan orbitalari bo'ylab sust yorituvchi oval shaklidagi dog'lar sifatida harakatlanadi. Quyosha yaqinlashganida ularning boshi va dumi ko'rindi, boshining markazi **yadro** deb ataladi (22.16-rasm). Yadrosining diametri 0,520 km.

Kometaning jajji yadrosi uning yagona qattiq qismi hisoblanadi, unda kometaning deyarli butun massasi jamlangan.



22.16-rasm. Kometaning fotosuratlari.

Fotometrik yadroni o'rab turuvchi tumanli atmosfera **koma** deyiladi. Koma yadro bilan birga kometaning boshini tashkil etadi.

Kometaning dumi quyosh nuri ta'sirida yadroдан uchib chiqadigan gaz molekulalari (ionlari) va chang zarralaridan tarkib topgan bo'lib, uzunligi o'nlab million kilometrlarga yetishi mumkin.

Kometalar quyosh shamoli mavjudligidan darak beradi. **Galley kometasi** – tarixiy koineta. miloddan avvalgi 240 yildan boshlab uning 30 marta Quyoshga yaqinlashganligi kuzatilgan. Har 75-76 yilda hir marta qaytib ko'rindi. 1986-yili kometani beshta sayyoralararo kosmik apparatlar: «Vega-1», «Vega2» (SSSR), «Djotto» (EIH), «Suisen» va «Sakigake» (Yaponiya) kutib olishgan. Ularning ba'zilari kometaning boshi orqali o'tishgan. Galley kometasi yana 2061-yilda ko'rindi.

**Uesta kometasi** – asrimizning eng chiroyli kometasi hisoblanadi. U Quyosh nurlarida bulutni eslatuvchi uzun keng dumga ega. Boshi Venera singari yorug' bo'lgan. U bir necha qismlarga parchalanib ketgan.

*Shumeyker-Levi kometasi.* 1992 y. kometa Yupiterning bulutli qoplamasidan 15 ming km uzoqdan o'tgan. Natijada uning yadrosi 17 bo'lakka parchalanib, 200 ming km ga tarqalib ketgan. Shu tariqa kometa Maunt Palomar observatoriyasida Yujin Shumeyker va Devid Levi tomonidan kashf etilgan.

**Meteorlar va meteoritlar.** Osmondan tushadigan toshlar yoki temir parchalari meteoritlar deyiladi. Yerga ularning tushishini har birimiz kuzatishimiz mumkin. Ob-havo toza bo'lgan kechada yulduzlar osmonida tez-tez uchib o'tayotgan olovli chiziqlar kuzatiladi.

Sayyoramizni o'rabi turgan fazoda turli o'lchamdag'i qattiq jismlar harakatlanadi. Ularning o'lchami qancha katta bo'lsa, shuncha kam uchraydi.

Massasi kichik bo'lgan bunday jismlar katta tezlikda yer atmosferasiga kirib, havo bilan ishqalanishi tufayli juda qizib ketadi va 80-100 km balandlikda butunlay yonib ketadi. Bular **meteorlardir**. Agar atmosferaga yirikroq osmon jismlari kirib kelsa, atmosfera tormoz sifatida uning kosmik tezligini pasaytiradi va yer yuzasiga tushadi. Bular **meteoritlardir**. Yer yuzasiga meteorit tushganda kuchli zarba ta'siridan botiqlik - krater hosil bo'ladi. Bunda osmonga chang-to'zon ko'tarilib, kuchli tovush eshitiladi.

Meteoritlar temirli, toshli va temirtoshli uchta sinfga bo'linadi. Temirli meteoritlar asosan nikelli temirdan tarkib topgan. Yerdagi tog' jinslarida nikelli temir qotishmasi tabiiy holda uchramaydi, shuning uchun ham temir tarkibida nikel bo'lishi, uning kosmik kelib chiqishidan dalolat beradi.

Toshli meteoritlarning bosh minerallari silikatlar (olivinlar va piroksenlar) hisoblanadi. Toshli meteoritlarning asosiy turi bo'lgan **xondritlarning** xarakterli xususiyati bo'lib, ichida dumaloq hosilaning - xondrning mavjudligidir (22.17-rasm). Xondrlar ham meteoritni tashkil etgan moddalardan iborat, ammo kesmada alohida donadan iboratligi ko'rimb turadi. Ularning kelib chiqishi hozirgacha noma'lum.

Temirtoshli meteoritlar - toshli minerallarga ega bo'lgan nikelli temir bo'laklaridir.

XX asrda Rossiya hududida ikkita eng yirik meteoritning tushishi kuzatilgan. Ular Tungus va Sixote-Alin meteoritlaridir.

Ularning yerga urilgan joylarida **kraterlar** hosil bo'lgan. Bunday kraterlar dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida kuzatiladi (22.18-rasm).



22.17-rasm. Xondrit namunasi  
[www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)



22.18-rasm AQSH Arizona  
shtatidagi Barrinjer krateri  
[www.fototerra.ru](http://www.fototerra.ru)

Tungus meteoriti Tunguska daryosi havzasidagi taygaga 1908-yilning 30-iyunida tushgan. U kuchli energiya ajralib chiqqan hodisalar bilan kechgan. Yuzlab kilometr masofada ko'ringan olovli shar; kuchli momaqaldoq gumburlashi; yer sharini ikki marta aylanib chiqqan va ko'plab mamlakatlarda barometrlar bilan qayd qilingan havo to'lqini; Irkutskdagi seysmograflar qayd etgan zilzila - buning barchasi kosmik halokatning favqulodda kuchli hodisaligidan dalolat beradi.

### O'tkazilgan ma'ruzalar mavzusi bo'yicha savollar

1. Koinotda Galaktikalar qanday joylashgan?
2. Quyosh tizimida qanday sayyoralar mavjud?
3. Ekleptika tekisligi deganda nimani tushunasiz?
4. Asteroidlarga ta'rif bering?
5. Yerda fasllar almashishiga sabab nima?
6. Qaysi sayyoralar tabiiy yo'ldoshlarga ega?
7. Krater deganda nimani tushunasiz?
8. Meteoritlar qanday turlarga bo'linadi?

## IZOHLI LUG'AT – GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi
<b>A</b>			
<b>Ablyasiya</b> <b>Ablation</b>	Muzlik yoki qor qoplamasi massasining asosan iqlim ta'sirida erishi va bug'lanishi tufayli kamayishi	Reducing the weight of ice or snow from melting and evaporation, which depends mainly on climatic factors	Уменьшение массы ледника или снежного покрова в результате таяния и испарения, зависящее главным образом от климатических факторов
<b>Abbisal</b> <b>Abyssal</b>	Dengiz tubi bentos hamjamiyati egallagan okeanning eng chuqur zonasi	Zone of the largest deep sea inhabited by benthic communities of the ocean floor.	Зона наибольших морских глубин, населённая сообществами бентоса океанического дна.
<b>Abraziya</b> <b>Abrasion</b>	Shamol, muzlik, to'lqin, oqar suv yoki og'irlilik kuchi ta'sirida ishqalanishi yoki qattiq zarralar tufayli tog' jinsi yuzasining mexanik parchalanishi, ishqalanishi, tirnalishi.	The grinding and scraping of a rock surface by the friction and impact of rock particles carried by water, wind, or ice.	Механическое разрушение, истирание, скабливание поверхности горных пород при трении или под воздействием твердых частиц, переносимых ветром, льдом, волнами, текучей водой или силой тяжести.

<b>Avtoxton</b>	Yer yorig'ining yotuvchi qanotida oldingi joyiga nisbatan kam surilgan jinslar. Kam surilganligiga qaramasdan ular kuchli deformatsiyalan gan bo'lishi mumkin	The rocks in the footwall break the wing, who have not experienced a significant move to the place of their initial formation. Despite the lack of a significant move, the autochthonous breed can be quite severely deformed	Горные породы в лежачем крыле разрыва, которые не испытали существенного перемещения относительно места их первичного формирования. Несмотря на отсутствие значительного перемещения, автохтонные породы могут быть достаточно сильно деформированы.
<b>Alloxton</b>	Yer yorig'i boylab katta masofaga surilgan va qoplama strukturani tashkil qiluvchi jinslar.	The masses of rock or limited breaks blocks moved from its original place of occurrence of tectonic forces, for example. in the thrust plates (thrust sheet) or tectonic integument (nappe).	Массы горных пород или ограниченные разрывами блоки, перемещенные от места своего первоначального залегания тектоническими силами, напр. в надвиговых пластинах или тектонических покровах.
<b>Azimut prosti-raniya</b>	Yo'naliш azimuti geografik meridianning shimoliy	- The angle between the meridian on which It is the observation	Угол между меридианом, на котором находится точка наблюдения, и
<b>Azimuth direction</b>			

	yo'nalishi bilan qatlamning yo'nalish chizig'i orasidagi o'ng vektor burchak.	point and a line Stretch any geological formation, body.	линией простирания пласта любого геол тела.
<b>Akkumu-lyasiya Accumulation</b>	Bo'shoq mineral moddaning yer yuzasida to'planishi	The processes of accumulation of loose mineral substance on the surface.	Процессы накопления рыхлого минерального вещества на поверхности Земли.
<b>Aktualizm Actualism</b>	geologiyaning zamonaviy jarayonlari asosida avvalgi jarayonlarini tiklash tamoyili	One of the basic principles of geology	Один из основных принципов в геологии.
<b>Amfibolit Amphibolite</b>	Asosan amfibol, plagioklaz va kamroq kvarsdan iborat kristalloblastik (metamorfik) jins.	Kristalloblastic (meta-morphic) rock composed mainly of amphibole, plagioclase and small amounts of quartz, which may be absent.	Кристаллобластическая (метаморфическая) порода, состоящая в основном из амфиболя, плагиоклаза и небольшого количества кварца.
<b>Antekliza Anteclide</b>	Sinklizaga teskari hisoblangan platforma atrofida yer po'stidagi yirik ko'tarilgan burma	vast sloping elevation layers Earth's crust in the range of platforms (plates) It is the opposite of syncline.	обширное пологое поднятие слоёв земной коры в пределах платформ (плит), являющееся противополож-

			НОСТЬЮ синеклизы.
<b>Antiklinal</b> <b>Anticlinal</b>	morfologik tomondan qavariq struktura bo'lib, uning yadrosida qari jinslar ochihib yotgan bo'ladi, qanolalarini esa yosh jinslar tashkil etadi.	form of bedding usually layered rocks is a convex stratified layers, wherein the inner part folds, or core, composed and external - younger.	форма залегани я обычно слоист ых пород пред ставляет собой вы пуклый изгиб последова тельно напласто ванных слоев, пр и котором внутренняя част ь складки, или ее ядро, сложена б олее древними, а вне шняя — более м олодыми.
<b>Oreol Areal (regional)</b>	Yer yuzasida har qanday jarayon va hosilalarning tarqalish maydoni	The area of distribution at the surface of a phenomenon, defined-type communities of organisms are not shared similar conditions or objects	Область распространения на земной по верхности ка кого-либо явле ния, определён ного типа сообществ организмов, сходных условий или объектов
<b>Arid iqlim Dry climate</b>	Havoning yuqori haroratl quriq iqlimi	dry climate with high air temperatures, e xperiencing large daily fluctuations, and a small amount of precipitation,	сухой климат с высокими температурами в оздуха, испыты вающими боль шие суточные колебания, и

		about 100-150 mm / year or their total absence.	малым количеством атмосферных осадков, около 100—150 мм/год или полным их отсутствием.
<b>Arxipelag Archipe-lago</b>	Odatda geologik tuzilishi o'xshash va kelib chiqishi bir xil bo'lgan bir biriga yaqin joylashgan orollar guruhi	a group of islands located close to each other and usually have the same origin and a similar geological structure	группа островов, расположенных близко друг к другу и имеющих обычно одно и то же происхождение и сходное геологическое строение
<b>Astenos-fera</b> <b>Asthenos-phere</b>	Yerning yuqori mantiyasidagi yopishqoq (xamirsi-mon) va zich, qisman suyuq qatlam. Kontinentlarda taxminan 100 km. okeanlarda taxminan 50 km. chuqurlikda joylashgan. Uni quyi chegarasining chuqurligi taxminan 250-350 km. ni tashkil etadi.	low hardness, strength and toughness of the layer in the Earth's upper mantle. Identified with the Gutenberg layer. It located at a depth of 100 km under the continents and about 50 km under the seabed; it is the lower boundary at depths 250≈350 km.	слой пониженной твёрдости, прочности и вязкости в верхней мантии Земли. Отождествляется с Гутенберга слоем. Расположен на глубинах около 100 км под континентами и около 50 км под дном океана; нижняя граница его находится на глубинах 250≈350 км.

<b>Atmosfera</b> <b>Atmo-</b> <b>sphere</b>	Planetaning gaz qobig'i	gaseous envelope of a celestial body, held by gravity about him	газовая оболочка а небесного тела, удерживаемая около него гравитацией
<b>Aeratsiya</b> <b>Aeration</b>	kislorodga to'yimgan havoning tabiiy oqimi	natural ventilation, air saturation, oxygen	естественное проветривание, насыщение воздухом, кислородом
<b>Apofiza</b> <b>Apophysis</b>	magmatik tog' jinsidan shoxlangan yoki asosiy intruzivlardan chetga yorib kirgan, yirik pona shaklidagi magmanik tana	lateral vein-like branch, waste from the magma body in the host rock, link which can be directly traced	боковое жило-подобное ответвление, отходящее от магматического тела во вмещающие породы, связь с которым можно непосредственно проследить
<b>Anshlif</b> <b>Opaque</b> <b>grinding</b>	Mikroskop ostida tadqiqtolar olib borish uchun tog' jinslarining kesilgan yuzasi silliqlangan ma'dan bo'lagi, shaffof bo'limgan shlif	opaque grinding a piece of ore, rock or fossils with buffed and polished cut surface intended for research under the microscope in reflected light	непрозрачный шлиф, кусок руды, горной породы или окаменелости с отшлифованной и отполированной поверхностью среза, предназначенный для исследования под микроскопом в отраженном свете

<b>Alluviy Alluvial</b>	doimiy oqar suv natija-sida hosil bo'lgan o'Ichami va silliqlanish darajasi har xil bo'laklardan tarkib topgan sementlanmaga n yotqiziqlar	unconsolidated sediments permanent water streams (rivers, streams), made up of fragments of various degree obkata- nosti and sizes	несцементирова- нные отложения постоянных вод- ных потоков (рек, ручьев), состоящие из обломков раз- личной степени обкатаности и размеров
<b>Aksessor Accessory</b>	Tog' jinslarining tarkibida kam miqdorda (1% dan kam) uchraydigan minerallar	minerals contained in the rocks in minor amounts (less than 1%).	минералы, соде- ржащиеся в горн- ых породах в не- значительных количествоах (ме- нее 1%).
<b>Absor- bsiya Absorp- tion</b>	Gaz aralashmalari yoki eritmalarida moddalarning yutilishi	absorption of substances from a solution or gas absorbent mixture	поглощение вещ- ества из раствора или газовой смеси абсор- бентом
<b>Autigen Authige- nous</b>	sedimentatsiya va litogenet- jarayonida joyida hosil bo'lgan cho'kindi tog' jinslarining minerallar uyushmasi	minerals of sedimentary rocks formed in the process of sedimentation and Lithogenesis on- site sedimentation.	минералы осад- очных горных пород, образо- вавшиеся в про- цессе седимен- тации и лито- генеза на месте отложения осадка.
<b>B</b>			
<b>Baydjerax Baydzher ah</b>	Termokarst jarayonida muz tomirlari tortilishi natijasida	mounds formed enclosing rock remaining in the central parts of the	бугры, образованные вмешающей породой, оставшейся в

	poligonning markaziy qismida qolgan yondosh jinslardan hosil bo'lgan tepalik	polygons as a result of melting of ice in the veins of thermokarst.	центральных частях полигонов в результате вытягивания жильда в процессе термо карста.
<b>Barxan Barchian</b>	Relyefning ijobjiy shakli bo'lib, shamol ta'sirida harakatlanuvchi ma'lum shakldagi qum uyumi	positive form of relief; mobile accumulation loose sand, inspired by the wind and weakly enshrined vegetation.	положительная форма рельефа; подвижное скопление сыпучего песка, навеянное ветром и слабо закреплённое растительностью.
<b>Basseyn Basin</b>	Yotqizqlarning uzuk-uzuk yoki uzluksi rivojlangan yirik maydoni	a large area of continuous or discontinuous deposit development.	крупная площадь сплошного или прерывистого развития отложений.
<b>Batolit Batholith</b>	maydoni 100-200 km <sup>2</sup> bolgan intruziv tana. Ularning ustki (apikal) qismi gumbazsimon, arkasimon yassi yoki tepaliklar va chuqurlardan iborat murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning vertikal qalinligi 10-12 km ga boradi.	By far the largest intrusive igneous bodies are batholiths (bathos =deeps lithos=stone). Batholiths occur as mammoth linear structures several hundreds of kilometers long and up to 100 kilometers wide	Крупное, обычно дискордантное плутоническое тело с площадью выхода на дневную поверхность не менее 100 км <sup>2</sup> , уходящее на неопределенную глубину.

<b>Bentos</b> <b>Benthos</b>	suv havzasi tubida yashagan jonivorlar	set of organisms that live on the ground floor and in the ground water reservoirs.	совокупность организмов, обитающих на грунте и в грунте дна водоемов.
<b>Biosfera</b> <b>Biosphere</b>	Yerning organik hayot rivojlangan qismini birlashtiruvchi qobiqdir. Biosfera gidrosferani to'liq, litosferaning yuqori va atmosferaning quyi qismimi qamrab oladi.	The biosphere is the part of our planet that contains all of its living organisms. It includes all the plants, animals, and microorganisms. These organisms live on Earth's surface, in its atmosphere and oceans, and within the upper crust, including places where extreme conditions may dominate. Because the biosphere intersects with the lithosphere, hydrosphere, and atmosphere, it can influence or even control basic geologic and climatic processes.	(a) Наружная оболочка Земли, населенная организмами или благоприятная для их существования. Включает часть литосферы, гидросферу и часть атмосферы. Совокупность всех организмов, живущих на Земле и в ее атмосфере.

<b>Bitum Bitumen</b>	Uglevodorod aralashmalarida n iborat bo‘lgan qattiq yoki saqichsimon yonuvchi modda	solid or resinous products, representing uglevodorodov and mixture of nitrogen, kislородистыи, sulfur and metal-derivatives.	твёрдые или смоло-подобные продукты, представляющие собой смесь углеводородов и их азотистых, кислородистых, сернистых и металло содержащих производных.
--------------------------	---	--	--

**V**

<b>Vakuum Vacuum</b>	Berk idish ichidagi havosiz yoki gazsiz makon	space free from chemicals, air or gas in the sealed container	Пространство, свободное от вещества, воздуха или газа в закрытой посуде
<b>Aksuzilma Vzbros Uplift</b>	Aksuzulmalar siquvchi kuchiar ta’sinda tog‘ jinslarining yaxlitligi buzilishi va hosil bo‘lgan bloklardan birining ikkinchisiga misbatan surilish yuzasi bo‘yicha ko‘tariliishidan paydo bo‘ladi.	It measures the difference in air pressure in the atmosphere inside the enclosure	Крутопадающий разлом, по которому породы висячего крыла смещены вверх относительно пород лежачего крыла.
<b>Vulkan Volcan</b>	Vulqon harakati tufayli yer po‘sti va boshqa sayyoralar yuzasida turhi yangi relyef	geological formation on the surface of the Earth or another planet's crust, where magma	геологические образования на поверхности коры Земли или другой планеты, где магма выход

	shakllari hosil bo‘ladi.	comes to the surface, forming lava, volcanic gases, stones	ит на поверхность, образуя лаву, вулканические газы, камни
<b>Vulkanizm Volcanism</b>	magmatizm jarayoni-ning bir qismi bo‘lib, bunda yer yuzasiga magma mahsulotlari otilib yoki oqib chiqadi.	a set of processes and phenomena associated with the movement of magma in the earth's crust and verhneymantii, its outpouring of lava on the surface of the release or during volcanic eruptions	совокупность процессов и явлений, связанных с перемещениеммагмы в верхней мантии и земной коре, излиянием ее в виде лавы или выбросом на поверхность при вулканических извержениях
<b>Vulkan bombasi Vulcanic bomb</b>	o‘lchami ko‘ndalangiga bir necha santi-metrdan 1 m va undan ortiq bo‘lgan qotgan lavaning parchalari.	Volcanic bombs are blobs of lava that are ejected while still molten and often acquire rounded, aerodynamic shapes as they travel through the air	Вулканические бомбы капли лавы, которые выбрасываются в то время как все еще расплавлены и часто приобретают округлые, эродинамические формы, как они путешествуют по воздуху.
<b>Nurash Vivetri-vaniye Weathering</b>	Yer yuzasida ochilib yotgan birlamchi tog‘ jinslarining havo, suv va muzlik,	destruction and chemical alteration of rocks and minerals at the earth's surface	разрушение и химическое изменение горных пород и минералов на поверхности Земли в результа

	haroratning o'zgarishi va boshqa tabiyi- kemyoviy hodisalar hamda organizmlar ta'sinda parchalanishi	as a result of physical, chemical and organic processes.	те физи- чес- ких, химических и органических процес-сов.
<b>G</b>			
<b>Gabbro</b> <b>Gabbro</b>	Asosli tarkibli plutonik tog' jinsi	igneous plutonic rock of basic composition, the alkalinity of the normal range of family gabbro.	магматическая п- плутоническая го- рная порода ос- новного состава, нормального ряда щелочности из семейства габброидов.
<b>Galit</b> <b>Gallite</b>	osh tuzi, natriy xloridning kristall shakli, xloridlar kichik sinfidagi mineral	Rock salt, mimeral subclass chloride, the crystalline form of sodium chloride	каменная соль, минерал п- одкласса хлорид- ов, кристаллическая форма хлорида натрия
<b>Galáktika</b> <b>Galaxy</b>	Koinotdagi <u>yulduzlarning</u> katta tizimi, to'plami.	A news report might inform us of an approaching weather-system. Further, we know that Earth is just a small part of a larger system known as the solar system.	Крупная система, состоя- щая из звезд, туманностей, звездных скоп- лений и меж- звездного ве- щества. В извест- ной части Вселенной насчитываются миллиарды

			галактик и их скоплений.
<b>Garpolit</b> <b>Garpolita</b>	yunoncha «garpos» - o'roq - yirik, yorib kiruvchi, ichki qismi muvofiq, vertikal kesmada o'roqsimon shakldagi intruziv tana.	large or medium interformational intrusive body crescent-shaped feed channel which is located at one end of the "sickle". The bottom surface garpolita transversal upper - consonant with the host rocks, convex, with some bumps and depressions.	крупное или среднее межформационное интрузивное тело серповидной формы, питающий канал которого расположен под одним концом "серпа". Нижняя поверхность гарполита секущая, верхняя - согласная с вмещающими породами, выпуклая, с отдельными выступами и понижениями.
<b>Geyzer</b> <b>Geyser</b>	Termal yerosti suvlari yer yuzasigi ko'p miqdorda erigan moddalarni olib chiquvchi, va bunday yerosti suvlarining davriy ravishda fontonlar shaklida otilib chiqishi.	hot spring, periodically throws hot water fountains, and steam pressure.	горячий источник, периодически выбрасывающий фонтаны горячей воды и пара под давлением.
<b>Geoid</b> <b>Geoid</b>	Yeming o'ziga xos shakli.	A perfectly still ocean has an	Фигура Земли рассматриваемая как поверхность

		<p>upper boundary that conforms to what geologists call the geoid.</p> <p>The surface of A still body of water is perfectly "flat" "in the sense that The pull of gravity is perpendicular to this surface— otherwise the water would flow" downhill "to make the Surface flatter</p>	<p>уровня моря, протягивающаяся непрерывно через континенты. Это теоретически непрерывная поверхность, в каждой своей точке перпендикулярная к направлению силы тяжести (линии отвеса).</p>
<b>Geologiya</b> <b>Geology</b>	<p>Yer haqidagi fan bo'lib, yunoncha <i>geo</i> - yer, <i>logos</i> - fan ma'nosini anglatadi.</p> <p>Geologiya tabiiy fanlar tizimiga kiradi va u Yerning tuzilishi, yarkibi, paydo bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi.</p>	<p>The subject of this text is geology, from the Greek geo, "Earth," and logos, "discourse." It is the science that pursues an understanding of planet Earth.</p>	<p>Наука, изучающая планету Земля — ее происхождение, вещества из которого она состоит, процессы, оказывающие влияние на это вещество и результаты воздействия этих процессов, историю планеты и формы жизни с момента ее образования.</p>

<b>Geologik vaqt</b>	bu geologik kalendar bo'lib, yerdagi jarayon va hodisalar ketma-ketligini o'rganadi.	Although Hutton and others recognized that geologic time is exceedingly long, they had no methods to accurately determine the age of Earth. Today the age of Earth is put at about 4.6 billion years.	Период времени, рассматриваемый исторической геологией, или время от конца периода образования Земли в качестве отдельного планетарного тела до начала зафиксированной письменно, или человеческой, истории.
<b>Geokimyo Geoximiya Geochemistry</b>	sayyoralar va yerning kimyoviy tarkibi to'g'risidagi fan. Tabiiy suv, tuproq va tog' jinslarining hosil bo'lishi jarayonida, har xil geologik muhitda izotop va elementlar ning barakati va tarqalish qonuniyatlarini aks ettiradi,	science about the chemical composition of the Earth and the planets, the laws of elements and isotopes distribution and movement in various geological environments, the process of formation of rocks, soils and natural waters	Наука о химическом составе Земли и планет, законах распределения и движения элементов изотопов в различных геологических средах, процессах формирования горных пород, почв и природных вод
<b>Geteromorfizm Heteromorphy</b>	Har xil sharoitda bitta magmadan kimyoviy tarkibi bir xil lekm turli minerallardan	rock formation process of the same of the magma under different	процесс образования горных пород из одной и той же магмы при различных

	tashkil topgan tog' jinslarining hosil bo'lish jarayoni	conditions with different mineralogical but the same chemical composition	условиях с разным минералогическим, но одинаковым химическим составом
<b>Gigros-koplik Absorbability</b>	tog' jinslarining havodagi namlikni yutish xususiyati	the ability of some materials to absorb water vapor from the air.	способность некоторых веществ поглощать водяные пары из воздуха.
<b>Gidrosfera</b> <b>Hydrosphere</b>	Yer qobiqning suv qatlami. Gidrosfera tarkibida turli tabiiy xususiyatni namoyon qiluvchi tabiiy suvlarning uchta turi mavjud. Bular okean va dengiz suvlari, quruqlik suvlari hamda muzliklardir.	The water portion of our planet; one of the traditional subdivisions of Earth's physical environment.	Водная оболочка Земли в отличие от твердой оболочки (литосферы), оболочки, населенной живыми организмами (биосферы) и воздушной оболочки (атмосферы). Включает воды Мирового океана, рек, озер и других поверхностных водоемов на континентах, снег, лед и ледники, а также воду в жидкком состоянии, в виде льда и водяных паров.
<b>Gipoteza Hypothese</b>	ilmiy tushuncalarini dastlabki shartli	position, put forward as a preliminary,	положение, выдвигаемое в качестве предваритель

	ravishda tushuntirib beradigan faraz	conditional explanation of some phenomenon or group of phenomena; the assumption of the existence of a phenomenon.	ного, условного объяснения некоторого явления или группы явлений; предположение о существовании некоторого явления.
<b>Gipotsentr</b> <b>Hypocenter</b>	Gipotsentr (lot sentrum-aylana markazi) zilzila o'chog'inining markazi nuqtasi.	Hypocenter (Greek ύπο-, Latin centrum - Center of the circle)-the central point of focus of the earthquake, the point at which the progress of rocks begins. In the case of an extended chamber by hypocenter understand the starting point of ripping gap.	<b>Гипоцентр</b> (греч. ύπο— под, лат. centrum — центр круга) — центральная точка очага землетрясения, точка, в которой начинается подвижка пород. В случае протяжённого очага под <b>гипоцентром</b> понимают точку начала вспарывания разрыва
<b>Gisteromagmatik</b> <b>hysteromagmatism</b>	Kechkimagmatik bosqichda qoldiq magmadan kristallangan hosila	resulting in pozdnemagm. stage crystallization residual melt	Горная порода образовавшийся в позднемагм. стадию кристаллизации остаточных расплавов
<b>Gorizont</b> <b>Horizon</b>	Yer va suv yuzasining chegarasi yoki boshqacha qilib	Sky border with ground or water According to another	граница неба с земной или водной поверхностью

	aytganda ularning yuzasini ko'rimarli qismi.	definition, the concept also includes the visible part of the surface	По другому определению в понятие включают также видимую часть этой поверхности
<b>Gorst</b> <b>Horst</b>	Yerning ikki darzlik bo'yicha ko'tarilgan bir qismi	raised, typically an elongated area of the earth's crust, limiting discharges or reverse faults	приподнятый, обычно вытянутый участок земной коры, ограни- ченный сбросам и или взбросами
<b>Graben</b> <b>Grabens</b>	Yerning ikki darzlik bo'yicha cho'kkан bir qismi	hairy area of the earth's crust, separated faults, rarely reverse faults from the adjacent, relatively elevated areas.	опущенный учас- ток земной коры, отделен- ный сбросами, р еже взбросами о т смежных, отно- сительно припод- нятых участков.
<b>Granosien- it</b> <b>Granosyen- ite</b>	Granit va sienitning oraliq tarkibli muqobili	intermediate composition between granite and syenite	Горная порода промежуточного состава между г ранитом и сиени том
<b>Gumus</b> <b>Humus</b>	Tuproqning organik qoldiqlardan tashkil topgan qismi	basic soil organic matter containing the necessary nutrients to higher plants.	основное органическое вещество почвы, содержащее питательные вещества, необходимые высшим растениям.

D			
<b>Dayka Dyke</b>	tog' jinslaridagi darzliklar bo'ylab magma suyuqligining yorib kirishidan hosil bo'ladi. Ular o'zaro parallel chegaralarga ega bo'lgan yorib kiruvchi tanalardir. Daykalarning uzunligi ularning qalinligidan o'nlab marta katta bo'ladi.	Dyke (born dike, dyke - Wall of stone) - intrusive body with discordant contacts, the length of which is many times greater than the width, and endocontact plane almost parallel. Essentially dike is a crack, which was filled with molten magma.	Дайка (англ. dike, dyke -стена из камня) – интрузивное тело с секущими контактами, длина которого во много раз пре- вышает ширину, а плоскости эндоконтактов практически параллельны. По сугуби дайка пред- ставляет собой трещину, кото- рая была заполнена магматичес- ким расплавом.
<b>Dengiz botiqliklar i</b>  <b>Sea basin</b>	oval yoki izometrik shakldagi botiqlik-lardan iborat bo'ladi. Ularning chuqurligi 3-5 km ga boradi.	A basin that develops with in zones of tectonic convergence, where one lithospheric plate pushes up over the other and the weight of the over riding plate causes the over ridden plate to bend or flex downward.	Таз, который развивается с в зонах тектонической конвергенции.
<b>Deflyasiya Deflation</b>	lat. «deflyasio» - puflash, sochish	As particles of dust, silt, and	Сортировка, подъем и

	- shamolning barcha o'nqir - cho'nqirlarga, qoya toshlarning orasiga kirib borib, undagi mayda zarrachalarni uchirib ketishi.	sand become loose and dry, blowing winds can lift and carry them away ,gradually eroding the ground surface in a process called deflation	перенос сыпучих, сухих тонких частиц пелитовой или алевритовой размерности турбулентным вихревым движением ветра, напр. вдоль песчаных дюн побережья или в пустынях; вид ветровой эрозии
<b>Dislokatsiya Dislocation</b>	Tog'jmslarining birlamchi holatining buzilishi	violation of the original occurrence of rocks	нарушение первоначального залегания горных пород
<b>Divergent chegaralar</b>  <b>Divergent plate boundary</b>	qarama-qarshi yo'nalishlarda harakat- lanuvchi hitosfera plitalari orasidagi sarhad.	Divergent boundaries are located where adjacent plates move away from one another. The Mid- Atlantic Ridge is such a boundary.	Граница расходящихся литосферных плит. Пространство между ними заполняется мантийным материалом и океанической корой.
<b>Dreyf Drift</b>	Geologiyada yaxlit quruqlikning sekm surilishi	in geology - slow change in land mass, called creep rocks.	в геологии медленное перемещение массива суши, вызванное ползучестью пород.
<b>Orollar yoyi</b>	Orollar qatorimng yoysimon	large volcanically and seismically	крупная вулканически и сейсмологически

<b>Island arc</b>	ko'rinishida joylashuvi, yerning yirik vulkanik va seysmologik faol strukturasi	active geological struktrura Earth in the form of an arcuate ridge of islands; paired with the deep- sea trench.	активная геоло- гическая струк- тура Земли в виде дугооб- разной гряды островов
-------------------	--	--	--

**E**

<b>Yer mantiyasi</b>	Moxorovichich (yuqoridan) va Vixert - Gutenberg (pastdan) yuzalari bilan chegaralangan oraliq silikatli qobiq.	The region that forms the main bulk of the solid Earth, Between the crust and the core, ranging from depths of about 40 Km to 2900km. It is composed of rocks of intermediate density, Mostly compounds of oxygen with magnesi-um, iron, and silicon	Зона Земли, расположенная ниже земной ко- ры и выше ядра; подразделяется на <i>верхнюю</i> <i>мантию</i> и <i>ниж- нюю мантию</i> с переходной зоной между ними.
<b>Yer po'sti —Earth crust</b>	Moxorovichich yuzasi ustida joylashgan Yerning o'zgaruvchan tashqi tosh qobig'i. Okeanlarda taxminan 7km, materiklarda taxminan 40km	Earth's outer most layer, the crust, varies in thickness. It is Thin (about 7km) under oceans, thicker (about 40km) under	Наружный слой земной коры, изменчивой толщины: тонкий (при- мерно 7km) в океанах, толще (примерно 40km) под материками и толстый (более 70km) под

	va tog'li o'lkalarda 70 km qalinlikmi tashkil etadi.	continents, and thickest (as much as 70km) under high inmountains.	высокими горами.
<b>Yer Yadrosi Core</b>	Vixert– Guttenberg yuzasidan pastda joylash-gan sayyora-miznmg mar-kaziy qismi.	Located beneath the mantle, it is Earth's innermost layer. The core is divided into an outer core and an inner core	Внутренняя или центральная часть Земли, под границей Вихерт-Гуттенберга
<b>Yerosti suvlari Podzemniye vodiy Ground water</b>	Yer yuzasidan pastda, tog' jinslarining bo'shliq va darzliklarida uchraydigan suvlar.	The mass of water stored beneath Earth's surface.	Термин свободного пользования, обозначающий все подземные воды в отличие от поверхностных вод

## Z

<b>Zilzila Earthquake</b>	Yerning ichki qismidan sirtiga tomon yo'nalgan kuchlanish ta'sirida yer po'stining ayrim joylarida to'satdan yer silkinishi	are tremors and vibrations of the earth's surface. The most dangerous of them arise because of tectonic shifts and breaks in the earth's crust or upper mantle of the Earth.	представляют собой подземные толчки и колебания земной поверхности. Наиболее опасные из них возникают из-за тектонических смещений и разрывов в земной коре или верхней части мантии Земли.
---------------------------	---	--	---

I			
<b>Izochiziqlar Izogipsi Contour line</b>	Xaritada bir xil ko'rsatkichli nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq	line on a map connecting points of equal ground height above sea level, the transmission plan outlines forms of land relief.	линии на карте, с оединяющие точки с равными высотами земной поверхности над уровнем моря, передающие плановые очертания форм рельефа суши.
<b>Intruziv jinslar Intruzivnya paroda Igneous rocks</b>	katta chuqurliklarda magmaning yuqori harorat va bosim sharoitlarida sekin sovishi va birtekis qotishidan hosil bo'ladi. Bu jarayonlar tog' jinslarida to'liq kristalli struktura, massiv tekstura shakllanishi va unda mmeral komponentlar-ning birtekis tarqalishi bilan yakunlanadi.	A rock formed by the solidification of a magma, Before or after it reaches the surface. A coarse-grained igneous rock that Crystallized slowly when magma intruded into country rock Deep in Earth's crust.	Горные породы или минералы, образованные из расплавленного или частично расплавленного материала, т.е. из магмы. Термин применяется также для обозначения процессов формирования таких горных пород, связанных с ними или являющихся их следствием. Магматические породы составляют один из трех главных типов, на которые подразделяются горные породы (а имен-

но магматические, метаморфические и осадочные).

## К

<b>Kaldera</b> <b>Caldera</b>	Vulkan otilgandan so'ng krater o'pirilib tik devorlarga ega bo'lgan botiq havza	a caldera is a large cauldron- hke depression t hat forms following the evacuation of a magma chamber/reserv oir.	кальдера является большой казан, как депрессия, которая образует после эвакуации магматической камеры / резервуара.
<b>Kalsit</b> <b>Calcite</b>	Kalsiy karbonatli $\text{CaCO}_3$ tabiiy shakli bo'lib karbonatlar guruhidagi mineral – ohakli shpat	calcite - $\text{CaCO}_3$ mineral from the group of carbonates, one of the natural forms of calcium carbonate.	известковый шпат — минерал $\text{CaCO}_3$ из группы карбонатов, одна из природных форм карбоната кальция.
<b>Karst</b> <b>Karst</b>	Yerosti suvlari ta'sirida darzlashgan tog' jinslarining erishi, yerusti va yerostida o'ziga xos bo'shliq- larni hosil qilishi.	Karst topography an irregular hilly terrain characterized by Sinkholes, caverns, and a lack of surface streams; formed in Regions of high rainfall with extensively jointed limestone formation sand	Рельеф с преоб- ладанием форм растворения, образованный в результате растворения пород в трещинах и пустотах воздействием подземных вод

		an appreciable hydraulic gradient	
Karer Career	Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olishda hosil bo‘ladigan tog‘ ochilmasi	aggregate mining formed during mining open pit; mining company mining open pit	совокупность горных выработок, образованных при добыче полезного ископаемого открытым способом; горное предприятие по добыче полезных ископаемых открытым способом
Kvarsitlar Quartzites	asosan kvarsdan tarkib topgan kvarsli qumlar va kreminiyli tog‘ jislarning qayta kristallanishidan hosil bo‘lgan metamorfik jinslar.	A very hard, white granoblastic rock derived from quartzrich sandstones	Гранобластовая метаморфическая порода. Состоит в основном из кварца и образованная в результате перекристаллизации песчаников или кремнистых пород при региональном или термальном метаморфизме.
Kimyoviy nurash Ximiches- koe vlyvet- rivanie	suv, karbonat angidrid, kislorod, organik va anorganik kislotalar ta’sirida beqaror	The processes by which the internal structure of a mineral is altered by the	Выветривание, при котором химические реакции (гидролиз, гидратация, окисление, карбонизация,

<b>Chemical weathering</b>	mimerallarning parchalanishi. Kimyoviy nurash kislotali-ishqorli va oksidlovchi-tiklovchi muhitlarda amalga oshadi.	removal and/or addition of elements.	ионо-обмен и растворение) преобразуют породы и минералы в новые химические соединения, сохраняющиеся без последующих изменений неопределенно длительное время в поверхностных и приповерхностных условиях, напр. изменение ортоклаза с образованием каолинита.
<b>Kern Core</b>	Burg‘u qudug‘idan olingan tog‘ jinsining namunasi	rock sample recovered from the well by means of a specially designed for this type of drilling.	образец горной породы, извлеченный из скважины посредством специально предназначенного для этого вида бурения.
<b>Klark Clarke</b>	Yer po'stidagi kimyoviy elementlarning o'rtacha miqdori	the constant abundance of the chemical elements in the earth's crust, the lithosphere, atmosphere.	константа распространенности химического элемента в земной коре, литосфере, атмосфере.

<b>Koagulatsiya</b> <b>Coagulation</b>	zarrachalarining bir-biri bilan mexanik bog'lanishi	association of small dispersed particles in the aggregates are large.	Объединение мелких диспергиро- ванных частиц в большие по размеру агрега- ты.
<b>Kollyuviy</b> <b>Colluvium</b>	Tog' jinslarining fizik nurashi natijasida tik qiyaliklarida o'z og'irligi bilan yig'ilib qolgan qirrali bo'laklar to'plami	detrital material deposited on the slopes or at their feet by moving to the upstream areas under the influence of gravity and motion thawing, saturated with water weathering products in the areas of Distribution permafrost rocks	обломочный материал, накопившийся на склонах гор или у их подножий путём перемещения с расположенных выше участков под влиянием силы тяжести и движения оттаивающих, насыщенных водой продуктов вы- ветривания в об- ластиах распрос- транения много- летне-мёрзлых горных пород
<b>Kolorimetr</b> <b>Colorimeter</b>	mineralning rangini aniqlaydigan asbob	a device for measuring the color intensity in some color model or to compare the color intensity with standard test solution	прибор для из- мерения интен- сивности цвета в какой-либо цветовой модели или для сравнения интен- сивности окрас- ки исследуемого раствора со стандартным

Kol-chedan Pyrites	Oltingugurt, temir, qalay, shuningdek mis va marginush elementlaridan tarkib topgan arsenid va sulfid guruhidagi minerallar uchun qo'llaniladigan eskirgan nom	outdated collective name applied in respect of minerals from the group sulphides and arsenide, sulfur, iron, tin, copper and arsenic.	устаревшее со- бираательное наз- вание, применяв- шееся в отно- шении минерало- в из группы сульфидов и арсенидов, со- держащих серу, железо, олово, а также медь или мышьяк.
Konsen-tratsiya Concen-trate Konsen-trat	Eritma miqdoriy tarkibimi xarakterlovchi o'Ichov	quantity that characterizes the quantitative composi-tion of the solution	величина, харак- теризующая количественный состав раствора
Korraziya Corrasion	(lat. «korrazio» - egovlash, silliqlash, tarashlash, sindirish) - ochilib qolgan tog' jinslari va minerallarga mexanik ishlov berish, silliqlash, tarashlash bo'lib, bu uchib kelayotgan qum donalari yordamida yuz beradi.	<b>Corrasion</b> (Latin corrado - Scrape, scrape) - the process of mechanical erosion, grin- ding, abrasion, grinding and drilling rock masses moving masses of clastic abrasive transported water, wind, ice or displaced under the force of gravity on the slopes.	Коррásия (лат. corrado — скоб- лить, скрести) — процесс механи- ческой эрозии, обтачивания, ис- тириания, шлифо- вания и высвер- ливания массив- ов горных пород движущимися массами обломочного абразивного материала, перемещаемого водой, ветром, льдом или смещающегося

			под действием силы гравитации по склонам.
<b>Krater</b> <b>Crater</b>	Vulqon bo‘g‘izining og‘zidagi doira shaklidagi pastkamlik.	A bowl-shaped pit found at the summit of most Volcanoes, centered on the vent.	Чашеобразная депрессия, обрамленная гребнем; обычно находится на вершине вулканического конуса.
<b>Kristallo-grafiya</b> <b>Crystalllo-graphy</b>	Kristallar shakli va minerallar strukturalari haqidagi fan	the science of crystals, their structure, appearance and properties. It is closely related to mineralogy, solid-state physics and chemistry.	Наука о кристаллах, их структуре, возникновении и свойствах. Она тесно связана с минерологией, физикой твёрдого тела и химией.
<b>Karbonatli jinslar</b> <b>Karbonatniye porodi</b> <b>Carbonate rocks</b>	50% karbonat mimerallaridan tarkib topgan cho‘kindi tog‘ jinslari	this sedimentary formations, more than 50% composed of carbonate minerals - salts of carbonic acid.	это осадочные образования, более чем на 50 % сложенные карбонатными минералами - солями угольной кислоты.
<b>L</b>			
<b>Litogenез</b> <b>Lithogenesis</b>	cho‘kindi tog‘ jinslari-ning keyimgi o‘zgarish-lari va tabiyi jarayonlarda hosil bo‘lish yig‘indisi	the totality of the natural processes of education and further changes of sedimentary rocks	совокупность природных процессов образования и дальнейших изменений осадочных горных пород.

<b>Litosfera</b> <b>Litho-sphere</b>	Litosfera (grek. litos-tosh, sfera -shar) - sharsimon yuzaga ega bo'lgan yemng qattiq yuqori tosh qobig'i	the lithosphere (from the Greek lithos - stone, sphere - ball) - the top, the stone shell of the solid Earth, which has spherical shape.	литосфера (от греческого литос – камень и сфера – шар) – верхняя, камен-ная оболочка твердой Земли, имеющая сферическую форму.
<b>Lakkolit</b> <b>Laccolith</b>	vertikal kesmada zambrug'simon shakldagi muvofiq intruziyalar bo'lib, ularning ustki qismida qatlamlı tog' jinslari gumbazsimon yoki arkasimon ko'tarilgan bo'ladi.	They form viscous magmas are generally felsic coming either hydrogen feeding channels from the bottom or from the sill, and, spreading lamination, lift can accommodate overlying rocks without breaking their layering.	Они образуются вязкими магмами, как правило, кислого состава, поступающими либо по водородным подводящим каналам снизу, либо из силла, и, распространяясь по слоистости, приподнимают вмещающие вышележащие породы, не нарушая их слоистости.
<b>M</b>			
<b>Magma</b> <b>Magma</b>	O'ta qizigan suyuq, erigan tog' jinslar massasi bo'lib, yer po'stimng ichki qismlarida bosil bo'ladi	magma is a mixture of molten or semi-molten rock, volatiles and solids	магма представляет собой смесь из расплавленного или частично расплавленной породы, летучих веществ

				и твердых веществ
<b>Magmatizm</b> <b>Magmatic</b>	Magma suyuq holda tektonik zonalar bo'ylab yondosh jinslarni eritib, ularning ichiga yorib kirishi, yarimqotgan va qovushoq massalar-ning siqilib chiqishi natijasida yondosh jinslarga mexanik ta'sir ko'rsatishi yoki portlash darajasiga etib, yer yuzasiga katta kuch bilan otilib chiqishi yoki lava tarzida oqib chiqishi	process of formation in the mantle and the crust magmatic melts, subsequent lifting and pour on different depths or direct their outpourings on the Earth's surface		процесс возникновения в мантии и земной коре магматических расплавов, последующего их подъёма и застывания на разных глубинах или непосредственно го их излияния на поверхности Земли
<b>Magnezit</b> <b>Magnesium</b>	Magnezit magniy karbonatning MgCO <sub>3</sub> keng tarqalgan minerali	- common mineral, magnesium carbonate MgCO <sub>3</sub> .		Распространённый минерал, карбонат магния MgCO <sub>3</sub> .
<b>Magnetit</b> <b>Magnetite</b>	Magnetit-temir oksidi rangli tarqalgan mineral	FeO • Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> -Widespread black mineral from the class of oxides	FeO • Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> -Широко распространённый минерал чёрного цвета из класса оксидов	

<b>Meta-genez</b>	Metagenez-litosfera-ning chuqur gorizmalarida harorat va bosimning oshishi natijasida cho'kindi tog' jinslarining qayta hosil bo'lish jarayonining tabiiy yig'indisi	the totality of the natural processes of transformation of sedimentary rocks by immersing them in the deeper horizons of all lithosphere under increasing pressure and temperature.	совокупность природных процессов преобразования осадочных горных пород при погружении их в более глубокие горизонты литосферы в условиях всё повышающегося давления и температуры.
<b>Metakristall</b>	Tog' jinslarida metasomatoz natijasida hosil bo'lgan kristallar	crystals formed during metamorphism or metasomatism of horn. rock under the influence of fluid solutions or	кристаллы, образовавшиеся в процессе метаморфизма или метасоматоза горн. пород под воздействием растворов или флюидов
<b>Metall</b>	Yuqori egiluvchanligi, qayishqoqligi va metallik yaltiroqligi, yuqori issiqlik va elektr o'tkazuvchanligi, mexanik xususiyatlari bilan xarakterlanuvchi oddiy modda ko'rinishidagi	a group of elements in the form of simple substances having typical metallic properties, such as high thermal and electrical conductivity, a positive temperature coefficient of resistance, high ductility,	группа элементов, в виде простых веществ, обладающих характерными металлическими свойствами, такими, как высокие тепло- и электропроводность, положительный температурный

	elementlar guruhi	malleability, and a metallic luster.	коэффициент сопротивления, высокая пластичность, ковкость и металлический блеск.
<b>Metallogeniya Metallogeny</b>	Metallogeniya ma'danli konlarning joylashish qonuniyatlarini minta-qaviy shakllanish sharoitlarini tekshiruv-chi geologiyaning bo'limi	geology section, exploring the formation of regional conditions and patterns of distribution of ore deposits associated with the main stages of geological history.	раздел геологии, исследующий региональные условия формирования и закономерности размещения рудных месторождений, связанные с основными этапами геологической истории.
<b>Meteorit Meteorite</b>	Koinotdan yer yuzasiga tushadigan tog' jinsi parchalari	a meteorite is a solid piece of debris from an object, such as a comet, asteroid, or meteoroid, that originates in outer space and survives its passage through the Earth's atmosphere and impact with the Earth's surface or that of another planet.	метеорит представляет собой цельный кусок от объекта, таких как кометы, астероида или метеорита, который берет свое начало в космическом пространстве и проходит через атмосферу и сталкивается с поверхностью Земли

Milonit Melonite	Yer yoriqlarida tektonik harakatlar natijasida hosil bolgan mayda donali ezilgan tog' jinsi	kind of fine-grained laminated rock rocks, formed as a result of the fracture, crushing or the erosion of the original rock.	разновидность слоистой мелкозернистой горной породы, сформировавшейся в результате разлома, дробления или размыва исходной горной породы.
Mineral mineral	Yer qa'rida va yuzasida tabiiy jarayonlar tufayli kimyoviy elemenlar-ning birikishidan vujudga keluvchi, kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xossalari bo'yicha o'ziga xos bo'lgan tabiiy jism	natural inorganic body with a certain chemical composition, and usually the crystal structure	природное неорганическое тело с определённым химическим составом и, обычно, с кристаллической структурой
<b>N</b>			
Nekk Nekk	Vulkan qurilmalari-ning oziqlantiruvchi kanallarini to'ldirgan vulkan jinslari; vulkan qurilmalarining nura-shi natijasida ochilib qoladi	columnar body in the crater of the volcano, consisting of lava or debris of volcanic rocks; the destruction of the volcano reaches the surface.	столбообразное тело в жерле вулкана, состоящее из лавы или обломков вулканических пород; при разрушении вулкана выходит на поверхность.

O			
<b>Okremne miy Silicifa- tion</b>	kremniyga boyish	and then perform the replacement of minerals, mining rocks idrevesiny silica minerals	выполнение пор и замещение минералов, горных пород и древесины мине ралами крем- незёма
<b>Opal Opal</b>	Kremniyning mikro- kristallidan tashkil topgan amorf shakhidagi mineral	mineral microcrystalline and amorphous forms of hydrated silica with a high degree of disorder in the structure	минерал, микро- кристаллическая и аморфная фор- мы гидратиро- ванного крем- незёма с высокой степенью разу- порядоченности структурь
<b>cho'kma Otlojeniya Deposition</b>	Materiallarning cho'kmaga o'tish jarayoni	the process of the formation of deposits by the transition of the deposited material from the fluid, the dissolved or suspended state in an aqueous or the air in the still - drifts.	процесс обра- зования отло- жений путем перехода осаж- даемого мате- риала из под- вижного, взве- шеннего или растворенного состояния в водной или воздушной среде в неподвижное – наносы.
P			
<b>Paleotsen Paleocene</b>	Paleogen sistemasining quyi bo'limi	the lower section of the Paleogene system corresponding	нижний отдел палеогеновой системы, соответствующи й самой ранней

		to the earliest epoch of the Paleogene period of geological history	эпохе палеогенового периода геологической истории
Pelit Pelite	Donalarining o'Ichami 1-5 mkm bo'lgan cho'kindi jins	any sediment genesis, in which the particle size of 1-5 microns	осадочная порода любого генезиса, в которой размер частиц не более 1-5 мкм.
Pemza Pumice	G'ovak, shishasimon vulkanik tog' jinsi	a porous, spongy, porous, glassy volcanic rock	пористая, губчатая оноздреватая, стекловатая вулканическая горная порода
Qum Pesok Sand	Donalarining o'Ichami yetarlichcha mayda 0,1-1 mm gacha bo'lgan tabiiy va texnogen tarqoq material	the natural or man-made particulate material with enough fine grain structure of up to 0,1-1 mm	Природный или техногенный сыпучий материал с достаточно мелким зерновым составом до 0,1-1 мм
Petrografiya Petrography	Petrografiya (grekcha petros — tosh va grapho — yozaman) tog' jinslari haqidagi fan	(From the Greek petros - Stone and grapho - write, describe) -the science of rocks.	(от греч. petros — камень и grapho — пишу, описываю) — наука о горных породах.
Pirit Pyrite	Sulfid guruhidagi mineral (temir sulfidi)	Mineral from the group of sulphides (iron sulphide)	Минерал из группы сульфидов (сульфид железа)

R				
<b>Ma'dan Ruda Ore</b>	Ma'dan-mineral va metall konsentratlarini iqtisodiy maqsadlarda ajratib olish uchun yaroqli hosila	kind of minerals, natural mineral formations containing compounds useful components (minerals, metals) in concentrations that make the removal of these components is economically feasible.		вид полезных ископаемых, природное минеральное образование, содержащее соединения полезных компонентов (минералов, металлов) в концентрациях, делающих извлечение этих компонентов экономически целесообразным.
<b>Ruda brek-chievaya Ore Brekchie</b>	brekchiya teksturali ma'dan	brekchie with texture; minerals compose cement, fragments of breccia.	ore can or or of	с брекчеватой текстурой; рудный минерал может слагать либо цемент, либо обломки брекции.
<b>Ruda metallicheskaya Ore metallic</b>	Har qanday sanoatda qo'llaniladigan metall ma'dani	ore, which is a useful component of a metal used by industry	-	руда, в которой полезной составляющей является какой-либо металл, используемый промышленностью.
<b>Rubin Rubin</b>	yoqut, la'l - oksidlar simfiga kiruvchi, trigonal simgoniyali mineral ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ )	$\text{Al}_2\text{O}_3$ - mineral, variety of corundum, it belongs to a class of oxides,	-	$\text{Al}_2\text{O}_3$ -минерал, разновидность к орунда, относится к классу оксидов, триг

		trigonal crystal system.	ональная сингония.
		S	
Sedimentatsiya-Sedimentation	Sedimentatsiya-markaziy kuchlar yoki tortishish kuchi ta'sirida gaz va suyuqliklarda mayda zarralar yoki mikromolekulalarni cho'kish jarayoni	process sedimentation of fine particles or macromolecules in a liquid or gas under the action of gravity or centrifugal force	процесс оседания мелких частиц или макромолекул в жидкости или газе под действием силы тяжести или центробежной силы
Sedimento-genez Sedimento-genez	cho'kindi tog' jinslaring hosil bo'lishi va keyingi o'zgarishidagi tabiiy jarayonlarning yig'indisi	the totality of the natural processes of formation and subsequent changes of sedimentary rocks	совокупность природных процессов образования и последующих изменений осадочных горных пород.
Singoniya Syngony	Yunoncha "o'xshash burchakli", kristall shakllarining simmetriyasi asosida guruhlarga ajratilishi	a breakdown of the 32 classes of crystal symmetry on the symmetry of the group on the basis of similarity leads to a very important issue for Mine-ralogy and Crystallography concept of symmetry, or	разбивка 32-х классов симметрии кристаллов на группы по признаку сходства симметрии приводит к очень важному для минералогии и кристаллографии и понятию сингонии,

		crystallographic system.	или кристаллографической системы.
<b>Tuz Sol Salt</b>	Suvli eritmada metall kationlari va kislota qoldig'i anionlari bilan dissotsiyalanadi gan murakkab modda	complex substances that dissociate into metal cations and anions of acidic residues in aqueous solutions	сложные вещества, которые в водных растворах диссоциируют на катионы металлов и анионы кислотных остатков
<b>Syomka Survey</b>	tasvirlash, tasvir	field work, which aims to make the plane is correct, complete and clear image of the space known as an area with an indication of the physical nature of objects	полевая работа, имеющая целью отражение на плоскости специализированного изображение местности
<b>T</b>			
<b>Termin Term</b>	atama	a word or phrase that is the title of a concept of any area of science, technology	слово или словосочетание, являющееся названием некоторого понятия какой-нибудь области науки, техники
<b>Torf Peat</b>	Botqoqlik sharoitida o'simlik qoldiqlarining toplanishidan hosil bo'ladigan	fossil fuels. Established accumulation of moss residues subjected to incomplete	горючее полезное ископаемое. Образовано скоплением остатков мхов, подвергшихся

	yonuvchi foydali qazilma	degrada-tion in the conditions of the marshes	неполному разложению в условиях болот
Tгeщина Crack	yoriq	extreme defect, which is a region with a completely broken interatomic bonds and partly broken interatomic bonds	экстремальный дефект, представляющий собой области с полностью нарушенными межатомными связями и частично нару- шеными межа- томными связями
U			
Ko'mir Ugol Coal	Ko'mir-Yer qa'rida o'simlik qoldiqlarining kislorodsiz sharoitda hosil bo'lgan foydali yonilg'i ko'rinishi	fossil fuel, formed from parts of ancient plants underground without oxygen	вид ископаемого топлива, образо- вавшийся из час- тей древних рас- тений под земле- й без доступа кислорода
Usadka- Com- pacting	Materialarning zichlanish, qattiq holatga o'tish va namligini yo'qatishi natijasida hajmi va o'lchamining kichrayishi	shrinkage reduction in linear dimensions and volume of material vsledstvie moisture loss, sealing, hardening and similar processes.	усадка уменьше- ние линейных р- азмеров и объём а материалов вследствие потер- ими влаги, упло- тнения, затверде- вания и подобных проце- ссов.

<b>Usloviya zaleganiya</b> <b>Terms of occurrence</b>	Geologik tanalarni yotish sharoiti	form occurrence geological bodies, elements of bedding bedding surfaces, planes contacts, structural elements of the folds, tectonic disturbances and their elements	формой залегания геологических тел, элементами залегания поверхностей напластования, плоскостями контактов, структурными элементами складок, тектоническими нарушениями и их элементами
--	------------------------------------	--	---

## F

<b>Fauna</b> <b>Fauna</b>	Alohida hududlardagi hayvonot dunyosi	historically formed totality of animal species that live in this area and included in all its biogeocoenoses.	исторически сложившаяся совокупность видов животных, обитающих в данной области и входящих во все её биогеоценозы.
<b>Flora</b> <b>Flora</b>	Alohida hududlardagi o'simlik dunyosi	historically constituted the totality of species of plants, common in a particular area or territory with certain conditions in the present or in the past geological epochs.	исторически сложившаяся совокупность видов растений, распространённых на конкретной территории или на территории с определёнными условиями в настоящее время или в прошед-

			шие геологическ ие эпохи.
Fenokristall Phenocrysts	Asosiy massasi mayda donador, mikrolitli va shishasimon strukturali hamda minerallarning erta generatsiyasiga tegishli, porfirli jinslarda yirik yoki yaxshi rivojlangan kristallar shakli	more or less large and more or less well- formed crystals in the porphyry rocks belonging to the earlier generation of minerals and enclosed in a fine-grained bulk, microlitic or glassy structure.	более или менее крупные хорошо образованные кристаллы в порфировых по- родах, принадлежащие ранней гене- рации минералов и заключенные в основной массе мелкозерн истой, микролит овой или стеклов атой структуры.
Forma minerala Form mineral	Mineral shakli	minerals are found in a well- designed separate large and small crystals, bounded naturally disposed faces forming crystalline polyhedra (diamond, quartz, mica, gypsum, etc.), Grains of irregular shape, having a crystalline structure, as	минералы встречаются в виде хорошо оформленных отдельных круп- ных и мелких кристаллов, ограниченных закономерно расположенным и гранями, обра- зующими крис- талические многогранники (алмаз, кварц, слюда, гипс и др.), зерен неправильной формы, обладаю- щих кристал-

		well amorphous solids, non-crystalline structure	лическим строением, а также аморфных тел, не обладающих кристаллическим строением
<b>X</b>			
Xloritatsiya Shlorition	Gidrotermal eritma ta'sirida yoki metamorfizmga uchrashi natijasida tog'jinslarining asosiy massasi yoki rangli minerallarning xlorit bilan almashinuv jarayoni	chlorite process of replacing some non-ferrous minerals, or the bulk of the rocks at the phenomena of metamorphism, as well as under the influence of hydrothermal solutions.	процесс замещения хлоритом некоторых цветных минералов или основной массы горных пород при явлениих метаморфизма, а также при воздействии гидротермальных растворов
Xlor Chlorite	atom nomeri 17 bo'lgan davriy jadval-dagi kimyoviy element	element of the periodic table of the chemical elements with atomic number 17,	элемент периодической таблицы химических элементов с атомным номером 17
Xrom Chromium	Xrom -oq rangli metallik kristalli kimyoviy element	artificially separated crystals simple substances which are native analog of chromium. Metal crystals of chromium have a white color.	искусственно выделенные кристаллы простого вещества, являющиеся аналогом самородного хрома. Металлические кристаллы хрома обладают белым цветом.

C				
<b>Sement Cement</b>	Sun'iy neorganik jipslochi modda. Qurilish materiallari- ning asosiyalaridan biri	artificial inorganic hydraulic binder. One of the basic building materials	искусственное неорганическое гидравлическое вяжу-щее вещество. Один из основных строит ельных материалов	
Ch				
<b>Chastitsa Particle</b>	zarracha	a term that is often used in physics to describe the objects that can be considered indivisible and point in the research context.	термин, который часто употребляется в физике для обозначения объектов, которые в контексте исследований можно считать неделимыми и точечными.	
<b>Chetvertic hnyy period Quarte- nary</b>	Geologik davr, Yer tarixidagi zamona viy bosqich. Kaynozoy erasining oxirgi sistemasi	geological period, the current stage of the Earth's history, complete Cenozoic.	геологический п ериод, современ ный этап истори и Земли, заверша ет кайнозой.	
Sh				
<b>Shaxta razve- dochnaya Mine explora- tion</b>	Yer yuzasidan yoki qismidan o'tadigan yoki	vertical or inclined excavation of large cross section traversed from	вертикальная или наклонная горная выработка большого поперечного	

	qazilgan tog' ishlanmasi	the Earth's surface or from underground workings	сечения, проходимая с поверхности Земли или из подземных выработок
Shelf Shelf	Shel'f bevosita quruqlikka tutashgan va dengizning sayoz qismidan iborat va uning umumiy geologik tuzilishi bilan xarakterlanadi	lined area of the continental margin adjacent to the land and is characterized by a general with her geology	выровненная область подводной окраины материка, примыкающая к суше и характеризующаяся общим с ней геологическим строением
Shlix Concen- trate	Tabiiy sochma yotqiziqlardan yoki inaksus maydalangan tog' jinslarini elak orqali yuvgandan qolgan og'ir mineral qoldig'i	a concentrate of heavy minerals that remain after washing in water, natural loose sediments or crushed specifically for shlihovaniya rocks.	концентрат тяжёлых минералов, которые остаются после промывки в воде природных рыхлых отложений или специально раздробленных для шлихования горных пород.

### Щ

Шебен Gravel	O'lchami 5mm dan yuqori bo'lgan donador, sochma neorganik qirrali bo'lak	inorganic, particulate, free flowing material with grains larger than 5 mm, obtained by crushing rocks, gravel and boulders	неорганический, зернистый, сыпучий материал с зёренами размером свыше 5 мм, получаемый дроблением горных пород, гравия и валунов
-----------------	--	---	--

E			
<b>Ekzogenny protsess</b> <b>Exogenic processes</b>	Yer yuzasida va yer po'stining eng yuqori qismlarida hosil bo'ladigan geologik jarayonlar	geological processes occurring on the surface of the Earth and in the uppermost parts of the Earth's crust	геологические процессы, происходящие на поверхности Земли и в самых верхних частях земной коры
<b>Endogenny protsess</b> <b>Endogenic processes</b>	Yerining ichki qismida sodir bo'ladigan geologik jarayonlar, masalan; vulkanizm, vulkan va magmatik tog' jinslari	geological processes occurring on the bottom of surface of the Earth and in the uppermost parts of the Earth's crust. For example magmatic rocks, volcanic rocks and so on.	Образовавшийся внутри. Определение для геологического процесса, его результирующее признака или горной породы, берущих свое начало в недрах Земли, напр. вулканизма, вулканов, магматических горных пород.
<b>Eklogiya</b> <b>Ecology</b>	Tirik organizmlarning munosabati to'g'risidagi fan	the science of the interactions of living organisms and their communities with each other and with the environment.	наука о взаимодействиях живых организмов и их сообществ между собой и с окружающей средой.
<b>Elementi zaleganiya</b> <b>Bedding elements</b>	Qatlarning yotish xususiyatlari	occurrence of various geological bodies, in	залегание различных геологических тел, в частности

		particular rock formations differs from the horizontal, to determine their orientation in space we introduce the concept of bedding elements.	пластов горных пород, отличается от горизонтального, для определения их ориентировки в пространстве вводится понятие об элементах залегания.
Elyuviy Eluvium	Tog‘ jinslarini yuza qismalarining nurashi natijasida hosil bo‘ladigan bo‘shoq geologik yotqiziq turi	loose geological sediments and soils formed by the weathering of surface mining intermarry site of the original occurrence or as a result of weathering and subsequent accumulation of it by gravity products.	рыхлые геологические отложения и почвы, формируемые в результате выветривания поверхности горных пород на месте первоначального залегания
<b>Ya</b>			
Yadro zemli Core earth	Yer sayyorasining temir-nikel aralashmasidan tarkib topgan, mantiyadan pastda joylashgan eng chuqur qismi, markazi	center, the deepest part of planet Earth, Geosphere, which is under the mantle of the Earth, and, presumably, consisting of an iron-nickel alloy with an	центральная, наиболее глубокая часть планеты Земля, геосфера, находящаяся под мантией Земли и, предположительно, состоящая из железо-никелевого сплава с

		admixture of other elements sidero-.	примесью других сидероильных элементов.
<b>Yadroviy geologiya</b> <b>Nuclear geological</b>	Yadro geologiyasi Yer moddalarida tabiiy yadroning o'zgarish qonuniyatlarini va uning geologik jarayonlarda hosil bo'lishini o'rganadigan eng yosh geologiya fanlaridan biri	radiogeology one of the youngest geological sciences that studies the laws of natural nuclear reactions in the substance of the earth and their manifestation in geological processes.	радиогеология (другое название ядерная геология) одна из самых молодых геологических наук, которая изучает закономерности естественных ядерных превращений в веществе Земли и их проявление в геологических процессах.

## XULOSA

«Umumiy geologiya» fani birinchi kurs talabalariga o'tiladi. U talabalarga fundamental bilim beradi va ularning tafakkurini o'stiradi, falsafiy dunyoqarashlarini kengaytiradi. Shu boisdan ham mazkur kurs talabalarning chiuqur bilimga ega bo'lishida, malaka va ko'nikma hosil qilishida alohida o'rinni egallaydi.

Geologiya fani Yer va yer po'stining paydo bo'lishi, tuzilishi, moddiy tarkibi, moddalarning fizik va kimyoviy xususiyatlari, Yerning ichki va tashqi qismida sodir bo'layotgan jarayonlarni keyingi yillarda to'plangan yangi ma'lumotlar asosida yoritadi.

Yerning ichki energiyasi ta'sirida kechadigan jarayonlarga tog' burmalanishlari, magmatizm, vulkanizm, zilzila va metamorfizm hodisalari tegishli. Ekzogen jarayonlarni harakatga keltiruvchi manba - Quyosh energiyasidir. Bu guruhga nurash, gravitatsion hodisalar, shamol, muz, suv oqimlarining geologik ishlari mansub. Ekzogen kuchlar barbod etuvchi vazifasini o'taydi.

Qazilma boyliklarning paydo bo'lishi va tarqalishi muayyan qonuniyatga bo'ysunadi. Jumladan ma'danli qazilma boyliklar asosan magmatizm va metamorfizm jarayonlari bilan bog'liq. Noma'dan konlar: neft, gaz, toshko'mir, tuz, ohaktosh, oltingugurt, gil kabi ko'plab qazilmalar cho'kindi jinslarning qatlamlanish jarayonlari bilan bog'liq.

Yer taraqqiyotida odamning paydo bo'lishi juda muhim hodisadir. Shuning uchun ham Yer taraqqiyotining oxirgi bo'lagini antropogen bosqich deb atashadi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlarga odamning paydo bo'lishi, muz bosish hodisalari kiradi. Unda hozirgi iqlim mintaqalari, tabiat zonalari, organizmlar (hayvonot va o'simlik dunyosi) shakllangan.

«Umumiy geologiya» fani tez rivojlanib borayotgan sanoatni mineral xom- ashyolar bilan ta'minlashdan tashqari ijtimoiy, ma'naviy - tarbiyaviy va konstruktiv vazifalarini yechishda ham muhim hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **Asosiy**

1. Общая геология. Учебник. / Под редакцией профессора А. К. Соколовского. Т 1. – М.: КДУ, 2006.
2. Общая геология. /Под редакцией А.К.Соколовского. Том 2. Пособие к лабораторным занятиям – М., 2006.
3. Историческая геология: учебник для студ. высш. учеб. заведений /Н.В.Короновский, В.Е.Хайн, Н.А.Ясаманов. 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательский центр «Академия», 2006.
4. Долимов Т.Н., Троицкий В.И. Эволюцион геология – Т., 2007.
5. Исломов О.И., Шораҳмедов Ш.Ш. Умумий геология – Т., 1971.
6. Шораҳмедов Ш.Ш. Умумий ва тарихий геология – Тошкент, 1985.
7. Шораҳмедов Ш.Ш., Қодиров М.Ҳ. Умумий ва тарихий геологиядан лаборатория машғулотлари учун қўлланма – Т., 1988.
8. Хайн В.Е. Геология – М., 1993.
9. Қодиров М.Ҳ., Шораҳмедов Ш. Геологиядан амалий машғулотлар– Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
10. Жўлиев А.Ҳ., Соатов А., Юсупов Р. Геология асослари – Т., 2001.
11. Якушова А.Ф., Хайн В.Е., Славин В.И. и др. Общая геология – М: Изд. МГУ, 1988.
12. Жулиев А.Ҳ., Чиникулов Ҳ. Умумий геология – Т.: ЎзМУ, 2005.
13. Чиникулов Ҳ.Ч., Жулиев А.Ҳ. Умумий геология – Тошкент: ИМР, 2011.
15. Chiniqulov Kh. Litologiya (darslik) –Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2008.
16. Sultonov P.S. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: “Musiqa” nashriyoti – 2007.

17. Understanding Earth., J. Grotzinger, T. H. Jordan, F. Press, R. Siever. 2007.
18. Essentials of Geology - Frederick K. Lutgens, Edward J. Tarbuck. 2012.
19. Introduction to Environmental Geology Edward A. Keller 2012y.
20. "Earth science. Gology, the Environment and the Universe" F. Borrero. 2008.

**Qo'shimcha:**

21. Алисон А., Пальмер Д. Геология – М., 1988.
22. Атлас минералов и руд редких элементов. Под ред. А.И.Гинсбурга. -М.: Недра, 1977.
23. Бетехтин А.Г. Курс минералогии. - М.: Государственное научно-техническое издательство литературы по геологии и охране недр, 1961.
24. Гаврилов В.П. Общая и историческая геология и геология СССР: Учеб. для вузов. - М.:Недра, 1989.
25. Геологический словарь. - М.: Недра, 1978.
26. Логвиненко Н.В. Петрография осадочных пород – М...: Высшая школа»,1984.
27. Общая и историческая геология. Гаврилов В.П., Мильничук В.С., Никитина Р.Г., Шафранов А.П. - М., 1975.

**Электрон манбалар:**

<http://www.wikipedia.ru>  
<http://www.materialsworld.ru>  
<http://www.nordspeleo.ru>  
<http://www.oilbook-bagrad.hoter.ru>  
<http://www.catalogmineralov.ru>  
<http://www.Bugaga.ru>  
<http://www.saga.ua>  
<http://www.sandiegofotki.com>  
<http://www.babaev.net>  
<http://www.copypast.ru>  
<http://www.ekosistema.ru>  
<http://www.liveinfo.ucoz.com>  
<http://www.elf.ru>

<http://www.pfotokmchatka.ru>  
<http://www.dreenpeace.ru>  
<http://www.copypast.ru>  
<http://www.fotogor.org>  
<http://www.svali.ru>  
<http://www.magikbaikal.ru>  
<http://www/turism.irnd.ru>  
<http://www.artphotoclub.com>  
<http://www.liveinternet.ru>  
<http://www.fototerra.ru>  
<http://www.inpath.ru>  
<http://www.fotoart.org.ua>  
<http://travel.gala.net>  
<http://nature.1001chudo.ru>

# MUNDARIJA

## KIRISH..... 3

### **1-bob. GEOLOGIYA FANI UNING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA TADQIQOT USLUBLARI**

### **2-bob. YER PO'STINING TUZILISHI, GEOSFERALAR, YERNING KIMYOVIY TARKIBI**

2.1. Yerning umumiy tavsifi.....	13
2.2. Yerning seysmotomografik modeli. Geosferalar.....	19
2.3. Yerning issiqlik maydoni.....	28
2.4. Yerning magnit maydoni.....	32
2.5. Yer po'stining kimyoviy tarkibi.....	35

### **3-bob. MINERALLAR HAQIDA TUSHUNCHA, ULARNING TASNIFI. KRISTALLAR HAQIDA TUSHUNCHA**

3.1. Minerallar haqida umumiy ma'lumotlar.....	40
3.2. Minerallarning tasnifi.....	41
3.3. Silikatli va alumosilikatli minerallar.....	45
3.4. Oksidlar va gidrooksidlar.....	51
3.5. Sulfidli va sulfatli minerallar.....	54
3.6. Karbonatli minerallar.....	55
3.7. Galogen va sof minerallar.....	56
3.8. Kristall moddalar haqida qisqacha ma'lumotlar.....	58
3.9. Minerallarning tabiiy xossalari.....	62

### **4-bob. TOG' JINSLARI HAQIDA TUSHUNCHA. MAGMATIK TOG' JINSLARINING TASNIFI.**

#### **VULKANIZM**

4.1. Tog' jinslari haqida umumiy ma'lumotlar.....	72
4.2. Magmatik jinslar.....	73
4.3. Magmatik jinslarning tasnifi va tarkibi.....	73
4.4. Magmatik jinslarning kimyoviy tarkibi.....	74
4.5. Magmatik jinslarning mineral tarkibi.....	75

4.6. Magmatik jinslarning xossalari.....	77
4.7. Magmatik jinslarning genetik turlari.....	81
4.8. Magmatizm. Umumiylumotlar.....	83
4.9. Intruziv tanalarning yotish shakllari.....	85
4.10. Vulkan qurilmalari.....	93
4.11. Vulkanizm turkumlari.....	96
4.12. Vulkan mahsulotlari.....	99
4.13. Vulkan turlari.....	102
4.14. Balchiqli vulkanlar.....	110

## **5-bob. CHO'KINDI TOG' JINSLARI VA ULARNING TASNIFI**

5.1. Cho'kindi jinslar haqida umumiylumotlar.....	115
5.2. Cho'kindi jinslarning tasnifi va mineral tarkibi.....	115
5.3. Cho'kindi jinslarning xossalari.....	117
5.4. Cho'kindi jinslarning turlari.....	126

## **6-bob. METAMORFIK TOG' JINSLARINING TASNIFI, METAMORFIZMNING TURLARI, MAHSULOTLARI**

6.1. Metamorfik jinslarning hosil bo'lish sharoitlari.....	140
6.2. Metamorfik jinslarning xossalari.....	144
6.3. Metamofik jinslarning turlari.....	145
6.4. Metamorfizm.....	149
6.5. Metamorfizm omillari.....	150

## **7-bob. GEOXRONOLOGIYA. NISBIY VA MUTLOQ GEOXRONOLOGIYA, GEOXRONOLOGIYA USUL-LARI**

7.1. Yerning yoshi.....	161
7.2. Nisbiy geoxronologiya.....	161
7.3. Geologik vaqt.....	172
7.4. Tog' jinslarining yoshini aniqlashda radiologik usullar va mutlaq geoxronologiya tushunchasi.....	177

## **8-bob. GEODINAMIK JARAYONLARI TEKTONIK HARAKATLAR VA TEKTONIK STRUKTURALAR**

8.1. Ekvogen jarayonlar haqida tushuncha.....	188
8.2. Nurash jarayonlari.....	190
8.3. Fizik nurash.....	191
8.4. Kimyoviy nurash.....	193
8.5. Biologik nurash.....	198
8.6. Elyuviy va nurash po'sti.....	199

## **9-bob. SHAMOL VA UNING GEOLOGIK FAOLIYATI, KORRAZIYA, ABRAZIYA, DEFLYASIYA HODISALARI. EOL YOTQIZIQLARINING TURLARI...**

9.1. Shamol haqida umumiy ma'lumotlar.....	205
9.2. Shamolning geologik ishi.....	208
9.3. Eol yotqiziqlarining turlari.....	213

## **10-bob. YER YUZASIDAGI OQAR SUVLARNING GEOLOGIK ISHLI VAQTINCHA OQAR SUVLARNING GEOLOGIK FAOLIYATI. TERRASALAR, VODIYLARNING TURLARI**

10.1. Yer yuzasidagi suv oqimlari.....	220
10.2. Daryo vodiylarining tuzilishi.....	226
10.3. Vodiylarining asimmetriyasi.....	230
10.4. Daryolarning quyulish qismi.....	234
10.5. Oqar suvlarning geologik ishi.....	236
10.6. Vaqtinchalik suv oqimlarining geologik ishi.....	237

## **11-bob. DOIMIY OQAR SUVLAR-DARYOLARNING GEOLOGIK ISHI**

11.1. Doimiy oqar suvlar-daryolar haqida umumiy ma'lumotlar.....	241
11.2. Tashishi (transportirovka).....	244
11.3. Allyuviyning shakllanishi (akkumulatsiya).....	245
11.4. Tog' va tekislik daryolarining allyuvial yotqiziqlari...	245
11.5. Daryolarning foydali qazilmalari.....	247

## **12-bob. DENGIZ VA OKEANLARNING GEOLOGIK FAOLIYATI. DENGIZ YOTQIZIQLARINING TURLARI**

12.1. Dengiz va okeanlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar.	249
12.2. Materiklarning suvosti chetlari.....	251
12.3. Dunyo okeani lojası.....	254
12.4. O‘rta okean tizmalari.....	254
12.5. Dengiz va okeanlarning geologik ishi.....	255
12.6. Dengiz va okeanlarda cho‘kindilarning to‘planishi....	259
12.7. Sohil (litoral) yotqiziqlari.....	260
12.8. Shelf yotqiziqlari.....	261
12.9. Batial cho‘kindilar.....	265
12.10 Okean lojası (abissal) yotqiziqlari.....	267

## **13-bob. MUZLIKLER VA ULARNING GEOLOGIK FAOLIYATI. TOG‘ VA TEKISLIK MUZLIKLLARI**

13.1. Muzliklarning hosil bo‘lishi, turlari va harakati.....	270
13.2. To‘rtlamchi davr muzliklarining hosil bo‘lishi.....	274
13.3. Muzliklarning geologik ishi.....	275
13.4. Morenalar turlari.....	276

## **14-bob. YEROSTI SUVLARINING GEOLOGIK ISHI**

14.1. Yerosti suvlarining paydo bo‘lishi va turlari .....	280
14.2. Yerosti suvlarining joylashish sharoitlari.....	282
14.3. Yerosti suvlarining kemyoviy tarkibi.....	286
14.4. Yerosti suvlarining geologik ishi.....	288
14.5. Karstlanish jarayonlari.....	288

## **15-bob. KO‘L VA BOTQOQLIKLARNING GEOLOGIK ISHI**

15.1. Ko‘llarning paydo bo‘lishi va turlari .....	297
15.2. Ko‘llarning kemyoviy tarkibi.....	300
15.3. Ko‘llarning geologik faoliyati .....	301
15.4. Botqoqliklar.....	306
15.5. Botqoqliklarning geologik faoliyati.....	308

## **16-bob. FATSIYA VA FARMATSIYA HAQIDA TUSHUNCHA, PALEOGEOGRAFIYA**

16.1. Fatsiya haqida tushuncha.....	312
16.2. Fatsiya bosqichlar.....	313
16.3. Fatsial analiz.....	314
16.4. Litologik analiz (tahlil).....	314
16.5. Bionomik analiz (tahlil).....	317

## **17-bob. TEKTONIK SNRUKTURALAR, ULARNING TURLARI. YERNING ICHKI GEODINAMIK JARAYONLARI.TEKTONIK HARAKATLAR**

17.1. Tektonik harakatlar.....	322
17.2. Tog‘ jinslarining deformatsiyasi.....	326
17.3. Tektonik strukturalar.....	328
17.4. Burmali strukturalar va ularning morfologik turlari...	328
17.5. Uzilmali strukturalar va ularning morfologik turlari...	334

## **18-bob. ZILZILA, KELIB CHIQISHI SABABLARI, OQIBATLARL O‘RGANISH USULLARI, BASHORAT QILISH**

18.1. Zilzila haqida umumiy ma’lumotlar.....	229
18.2. Zilzilalar kuchini o‘lchash shkalalari.....	343
18.3. Zilzilalarning yer sharida tarqalishi.....	347
18.4. Zilzilalarning paydo bo‘lish sabablari va genetik turlari.	349
18.5. Zilzila oqibatlari.....	352
18.6. Zilzilani bashorat qilish.....	354

## **19-bob. ASOSIY GEOTEKTONIK GIPOTEZALAR. PLITALAR TEKTONIKASI HAQIDA TUSHUNCHALAR**

19.1. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining shakllanish tarixi.....	358
19.2. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining hozirgi mazmuni.....	363
19.3. Yer po‘stining strukturalari.....	367
19.4. Litosfera plitalari tektonikasi fan tizimi sifatida .....	377

## **20-bob. GEOLOGIK TADQIQOTLAR KETMA-KETLIGI. GEOLOGIK XARITA, KESMA, USTUN**

20.1. Geologik suratga olish.....	379
20.2. Geologik xaritalar va ularning turlari.....	380
20.3. Burmalarning geologik xaritalarda tasvirlanishi.....	383
20.4. Stratigrafik ustun tuzish.....	384
20.5. Geologik kesma tuzish.....	385

## **21-bob. ATROF VA GEOLOGIK MUHIT TIZIMLARI**

21.1. Litosfera tushunchasi.....	389
21.2. Mineral va energetik resurslar va ulardan oqilona foydalanish.....	392
21.3. Yer osti qazilmalarini qazib olishda atrof-muhitning ifloslanishi.....	393
21.4. Yonilg'i energetik resurslari va ulardan samarali foydalanish.....	395
21.5. O'zbekistonda tarqalgan mineral resurslar va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	398
21.5. O'zbekistonning yonilg'i-energetik resurslari va ulardan samarali foydalanish.....	402

## **22-bob. KOINOT VA GALAKTIKA. QUYOSH TIZIMI VA UNING SAYYORALARI**

22.1. Osmon jismlari. Koinot va Galaktika.....	405
22.2. Quyosh tizimi va uning sayyorralari haqidagi umumiy ma'lumotlar.....	407
22.3. Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi.....	414
22.4. Quyosh tizimining mitti jismlari.....	424
<b>IZOHLI LUG'AT – GLOSSARIY</b> .....	428
<b>XULOSA</b> .....	476
<b>FOYDALANILGAN ABIYOTLAR</b> .....	477

## **QAYDLAR UCHUN**

# **UMUMIY GEOLOGIYA**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019**

Muharrir:	M. Hayitova
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	Sh. Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N. Rahmatullayeva

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.**

**Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 26.12.2019.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 30,0. Nashriyot bosma tabog'i 30,5.**

**Tiraji 100. Buyurtma № 298.**